KIRISH: mazkur maqolada raqamli texnologiyalardan foydalangan holda rangtasvir darslarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interaktiv ta’lim vositalari talabalarning ijodiy fikrlashi, rangni idrok etishi, kompozitsiya ko‘nikmalari va texnik mahoratini oshiradi. Shuningdek, maqolada tasviriy san’atda raqamli vositalarning afzalliklari, samarali metodik texnologiyalar va ularning o‘qitishdagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli vositalardan foydalanishning afzalliklarini aniqlash va ularning talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rnini belgilashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali sifatida raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan rangtasvir mashg‘ulotlari olindi. Tadqiqotda pedagogik tahlil, kuzatuv, qiyosiy yondashuv va amaliy sinov metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar talabalarning ijodiy fikrlashini faollashtiradi, rang va kompozitsiyani idrok etishini yaxshilaydi hamda texnik mahorat darajasini oshiradi. Interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, rangtasvir darslariga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali usulidir. Amaliy tavsiyalar tasviriy san’at o‘qitish metodikasini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, rangtasvir mashg‘uloti, tasviriy san’at, kasbiy kompetensiya, pedagogik metodika, ijodiy rivojlanish

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В ЖИВОПИСИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ахмаджонова Ясмина Джамшид Кизи, студентка 1-го курса магистратуры факультета изобразительных искусств Низамского государственного университета изобразительных искусств, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается методика развития профессиональной компетентности студентов на уроках живописи с применением цифровых технологий. Современные педагогические подходы и интерактивные образовательные инструменты развивают творческое мышление студентов, цветоощущение, композиционные навыки и техническое мастерство. Также анализируются преимущества цифровых инструментов в изобразительном

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

искусстве, эффективные методические технологии и их практическое применение в обучении.

ЦЕЛЬ: целью исследования является выявление преимуществ использования цифровых инструментов на занятиях по живописи и определение их роли в развитии профессиональной компетентности студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования послужили занятия по живописи, организованные с использованием цифровых технологий. В работе применяются педагогический анализ, наблюдение, сравнительный подход и практическое тестирование.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: анализ показал, что цифровые технологии стимулируют творческое мышление студентов, улучшают восприятие цвета и композиции, а также повышают уровень технического мастерства. Использование интерактивных инструментов обучения делает процесс более увлекательным и эффективным.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что интеграция цифровых технологий в уроки живописи является эффективным методом развития профессиональной компетентности студентов. Практические рекомендации могут быть применены для совершенствования методики преподавания изобразительного искусства.

Ключевые слова: цифровые технологии, занятия по живописи, изобразительное искусство, профессиональная компетентность, педагогическая методика, творческое развитие

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE IN PAINTINGS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Akhmadjonova Jasmina Jamshid kizi, 1st year master's student of the Fine Arts specialty of the Nizami State University of Fine Arts, Tashkent, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the methodology for developing students' professional competence in painting lessons through the use of digital technologies. Modern pedagogical approaches and interactive educational tools enhance students' creative thinking, color perception, composition skills, and technical mastery. The article also analyzes the advantages of digital tools in visual arts, effective methodological technologies, and their practical applications in teaching.

AIM: the aim of the study is to identify the advantages of using digital tools in painting classes and to determine their role in developing students' professional competence.

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of painting classes organized with digital technologies. The study employs pedagogical analysis, observation, comparative approach, and practical testing.

RESULTS AND DISCUSSION: the analysis revealed that digital technologies enhance students' creative thinking, improve color perception and composition, and

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

increase technical mastery. The use of interactive learning tools makes the process more engaging and effective.

CONCLUSION: in conclusion, integrating digital technologies into painting classes is an effective method for developing students' professional competence. Practical recommendations can be applied to improve the methodology of teaching fine arts.

Keywords: digital technologies, painting lessons, visual arts, professional competence, pedagogical methodology, creative development.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat bilimni yetkazishning samaradorligini oshiradi, balki talabalarning ijodkorlik qobiliyatini, zamonaviy bilim va kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, tasviriy san'at sohasida raqamli vositalar yordamida rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etish talabalar ijodiy fikrlash, rangni idrok etish, kompozitsiya va texnik mahorat kabi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi raqamlashtirish jarayonlarini izchil kuchaytirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali yosh avlodning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy pedagogik metodlarni tatbiq etish va innovatsion kadrlar tayyorlashni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab bergan. Jumladan, davlat rahbari mamlakatimizda 2030 yilga borib axborot texnologiyalari eksportini oshirish, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt laboratoriyalarini yo'lga qo'yish rejalari bilan yoshlarimizni raqamli etakchilarga aylantirishni maqsad qilgan bu esa ta'limda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, rangtasvir mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik asoslarini aniqlash dolzarb muammo sifatida ko'riladi.

Rangtasvir mashg'ulotlarida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur metodologiya asosiy e'tiborni raqamli texnologiyalarni tasviriy san'at darslariga joriy etish orqali talabalar ijodiy, intellektual va texnik ko'nikmalarini oshirishga qaratadi. Metodologiya quyidagi asosiy tamoyillar va yondashuvlarga tayangan: Pedagogik integratsiya tamoyili, rangtasvir mashg'ulotlari an'anaviy qo'l texnikalaridan tortib, raqamli vositalar orqali ijodiy ishlarni tashkil etishga qadar keng qamrovli bo'lishi lozim. Talabalar bir tomondan rangni tanlash va idrok etish, kompozitsiya va shaklni yaratish kabi an'anaviy san'at ko'nikmalarini o'rganadi, boshqa tomondan raqamli texnologiyalar yordamida grafik dizayn, ranglarni kompozitsiyalash, digital sketch va 3D tasvirlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu pedagogik integratsiya nafaqat texnik ko'nikmalarni oshiradi, balki ijodiy fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi. Interaktiv yondashuv, mashg'ulotlarda interaktiv vositalardan foydalanish talabalar diqqatini jalb qilish va ijodiy faollikni oshirishda muhim o'rin tutadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Shu bilan birga, interaktiv platformalar (masalan, tabletlar, raqamli planshetlar, grafik dasturlar) yordamida talabalar o‘z ishlarini real vaqt rejimida tahlil qilish va o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon metodik jihatdan “sinov va xatolik” tamoyiliga asoslanadi, ya’ni talabalar eksperiment qilish orqali rang, kompozitsiya va texnika bo‘yicha optimal natijalarni kashf etadilar. Nazariy tayyorgarlik, rang nazariyasi, kompozitsiya qoidalari, an’anaviy va raqamli texnologiyalarning o‘rganilishi. Bu bosqichda talabalarga ranglar psixologiyasi, rang uyg‘unligi, kontrast va balans kabi asosiy tushunchalar tushuntiriladi. Amaliy mashg‘ulotlar, talabalar o‘z ijodiy ishlarini raqamli vositalar orqali bajaradi. Masalan, Adobe Photoshop, Corel Painter, Krita yoki Procreate kabi dasturlar yordamida talaba real rang tasvirlarini yaratadi, so‘ngra ularni tahlil qilib yaxshilaydi. Tahlil va refleksiya, har bir mashg‘ulot yakunida talabalar o‘z ishlarini tahlil qiladi, ustozlar bilan bahs-munozara qiladi, shuningdek raqamli platformalarda o‘z ishlarini saqlab, keyingi mashg‘ulotlar uchun takomillashtirishga imkon topadi. Innovatsion loyiha ishlari, talabalar yakuniy bosqichda raqamli san’at asarlarini yaratadi, bu esa kasbiy kompetensiyani mukammal shakllantirishga xizmat qiladi va ularga amaliy portfel yaratish imkonini beradi.

Metodologiya har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga oladi. Talabalar rang sezgisi, texnik qobiliyat va ijodiy tajribasiga qarab moslashtirilgan vazifalarni bajaradilar. Bu yondashuv nafaqat o‘quv motivatsiyasini oshiradi, balki talabalarni mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Baholash va monitoring tizimi, raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning kompetensiyasi samarali baholanadi. Masalan, talabalar ishlarini raqamli portfelga joylashtiradi va ularni aniq baholash mezonlariga ko‘ra tahlil qiladi: rang uyg‘unligi, kompozitsion yechimlar, texnik mahorat va ijodiy yondashuv. Shu bilan birga, talabalarning kompetensiya rivojlanishi ustozlar tomonidan interaktiv ta’lim platformalari orqali monitoring qilinadi, bu esa amaliy natijalarni aniqlash va metodik tavsiyalar berish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, metodologiya davomida raqamli texnologiyalar turli yo‘nalishlarda qo‘llanadi: virtual galereyalar yaratish, interaktiv mashg‘ulotlar, animatsiya va digital painting. Bu talabalar ijodini kengaytiradi, ularni professional bozor talablariga moslashtiradi va zamonaviy san’at me’yorlarini tushunishga yordam beradi. Natijada, ushbu metodologiya talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kompleks, tizimli va amaliy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. U nafaqat rangtasvir va vizual tasvirlarni yaratish qobiliyatini oshiradi, balki raqamli texnologiyalar orqali talabalarni ijodiy, analitik va texnik jihatdan rivojlantiradi. Shu yo‘l bilan talabalarning kasbiy malakasi mustahkamlanadi, ularning professional portfeli boyiydi va zamonaviy talablar darajasida tayyor mutaxassislarga aylanishi ta’minlanadi.

Rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar pedagogika, badiiy ta’lim va raqamli resurslar integratsiyasi nuqtai nazaridan bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. Quyidagi manbalar ushbu yo‘nalishning nazariy asoslarini, amaliy metodikasini va raqamli vositalar bilan ishlash samaradorligini tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. “Digital Art and Painting: Concepts and Techniques” – Susan R. Jones. Ushbu asar raqamli san’atning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tahlil

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

qiladi. Muallif rassomlik texnikalari va raqamli vositalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib, raqamli muhitda rangtasvir yaratuvchi asarlar orqali talabalar ijodini shakllantirish yo‘llarini tavsiflaydi. Jones raqamli vositalar yordamida talabalarga an’anaviy bo‘yoq va cho‘tka texnikasini raqamli muhitda takrorlash imkonini beruvchi o‘quv modellarini bayon etadi. Ushbu manba metodologiyamizda raqamli vositalar orqali rangni boshqarish, kompozitsiya shakllantirish va ijodiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini tahlil etishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. “Art Education in the Digital Era” – Mark A. Smith. Smithning monografiyasida badiiy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish pedagogik yondashuvlar orqali talabalarning kreativ va texnik kompetensiyalarini rivojlantirish ahamiyati ochib beriladi. Muallif tasviriy san’at mashg‘ulotlariga multimedia vositalarni qo‘shish orqali o‘quv jarayonini interaktivlashtirish, talabalarning o‘zaro fikr almashish va reflektsiyasini rivojlantirish yo‘nalishlarini muhokama qiladi.

Raqamli muhitda badiiy ta’lim pedagogikasi va talabalarning ijodiy kompetensiyalarini oshirish. Bu manba metodologiyada interaktiv yondashuv tamoyilini asoslashda, raqamli topshiriqlar orqali talabalarning o‘zaro muloqot va ijodiy fikrlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini aniqlashda qo‘llaniladi. “Integrating ICT into Art Curriculum” – Elena Petrova. Petrova tasviriy san’at kurslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish tajribalarini o‘rganadi. U raqamli dasturlarni o‘quv rejalarga kiritish, baholash tizimlarini raqamlashtirish hamda individual o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi. Muallif, xususan, raqamli portfellar orqali talabalar kompetensiyasini kuzatish va baholash mexanizmlarini yoritadi. Raqamli texnologiyalarni san’at ta’lim dasturiga joylashtirish va baholash tizimini takomillashtirish. Bu asar metodologiyaning baholash va monitoring tizimini shakllantirishda asosiy nazariy manba bo‘lib, talabalar kompetensiyasini raqamli portfellar orqali samarali kuzatish bo‘yicha yo‘riqnomalar beradi. Yuqaridagi manbalar tasviriy san’at sohasida raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning turli jihatlarini yoritadi. Jonesning ishlari raqamli rangtasvir texnikalarini chuqur o‘rgansa, Smith pedagogik jarayonda raqamli interaktivlik va talaba faolligini oshirishga urg‘u beradi. Petrova esa ushbu integratsiyani o‘quv dasturlariga tatbiq etish va kompetensiyalarni baholash tizimini tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bilan boyitadi. Ularning umumiyligi shundaki, raqamli texnologiyalar talabalarning ijodiy va kasbiy malakalarini izchil rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi; farqi esa yondashuvlar nazariy asosdan amaliy baholashgacha bo‘lgan turli nuqtalarni qamrab oladi.

Rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning natijalari o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar va amaliy mashg‘ulotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalari, ya’ni ijodiy fikrlash, rangni idrok etish, kompozitsiya va texnik mahorat darajasi, shuningdek, raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalari chuqur o‘rganildi. Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar an’anaviy darslarga nisbatan yuqori darajada motivatsiyaga ega bo‘ldi. Talabalar o‘z ishlarini raqamli platformalarda yaratib, tahlil qilish jarayonida o‘zaro fikr almashdi, kritik tahlil qobiliyatini rivojlantirdi va ijodiy qarorlar qabul qilishda mustaqil bo‘ldi. Masalan,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Adobe Photoshop va Corel Painter kabi dasturlardan foydalanish orqali talabalarning rang uyg‘unligi, kontrast va kompozitsion yechimlarda sezilarli yaxshilanish kuzatildi. Shuningdek, raqamli mashg‘ulotlar talabalarga o‘z ijodiy ishlarini saqlash va qayta ishlash imkonini berdi. Bu esa ularning texnik va ijodiy ko‘nikmalarini mustahkamlash bilan birga, o‘z ishlariga bo‘lgan ishonchini oshirdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar nafaqat ijodiy jarayonni tezlashtiradi, balki talabaning o‘z ishini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqot davomida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda bir nechta muhim tamoyillar aniqlandi: pedagogik integratsiya, interaktivlik, differensial yondashuv va baholash tizimi. Pedagogik integratsiya talabalarning an’anaviy va raqamli texnikalarni birlashtirib ishlashini ta’minladi, interaktiv yondashuv esa ularning faolligi va muloqotini rag‘batlantirdi. Differensial yondashuv har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olib, shaxsiy o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirishga imkon berdi. Baholash va monitoring tizimi esa talabalarning kompetensiya darajasini aniqlash, zaif tomonlarini aniqlash va ularni takomillashtirish yo‘llarini belgilashda samarali vosita bo‘ldi. Muhokama qilingan natijalar xalqaro tajribalar bilan ham uyg‘unlikda bo‘lib, Jones (2020), Smith (2018) va Petrova (2019)ning tadqiqotlari bilan o‘xshashlik ko‘rsatdi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki talabalarni innovatsion fikrlashga, kreativ qarorlar qabul qilishga va zamonaviy san’at bozoriga moslashishga tayyorlaydi. Muhokama shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni tasviriy san’at mashg‘ulotlariga integratsiya qilish metodikasi quyidagi afzalliklarni beradi.

Ijodiy va texnik ko‘nikmalarni mustahkamlash talabalarning rang uyg‘unligi, kompozitsion yechimlari va texnik mahorati sezilarli darajada yaxshilandi. Mustaqil o‘rganish va tahlil qobiliyatini rivojlantirish talaba o‘z ishini yaratish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida mustaqil qarorlar qabul qiladi. O‘zaro muloqot va feedbackni oshirish raqamli platformalar orqali talabalar ishlarini bir-biri bilan baham ko‘rib, tanqidiy fikrlash va konstruktiv muhokama qobiliyatini rivojlantirdi. Baholash va monitoringni samarali qilish raqamli portfellar va interaktiv baholash tizimlari talabalarning kompetensiya darajasini aniqlash va metodik tavsiyalar berish imkonini berdi. Shu nuqtai nazardan, rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga, balki talabalarning ijodiy tafakkuri, texnik ko‘nikmalari va innovatsion qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ular o‘z ishlarini raqamli vositalar orqali yaratish jarayonida o‘z xatolarini tez aniqlash va tuzatish imkoniga ega bo‘ldi, bu esa pedagogik jarayonni samarali va interaktiv qiladi. Umuman olganda, eksperiment natijalari metodologiyaning samaradorligini tasdiqlaydi va raqamli texnologiyalarni tasviriy san’at mashg‘ulotlariga integratsiya qilish orqali talabalar kasbiy kompetensiyasini izchil rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar va metodik tavsiyalar asosida kelajakda talabalarning ijodiy va texnik qobiliyatlarini yanada mukammal shakllantirish, raqamli resurslarni kengaytirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish istiqbollari mavjud.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Xulosa qilib aytish mumkunki, rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish samarali metodik yondashuv ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli vositalar yordamida talabalarning rang idroki, kompozitsion yechimlar, texnik mahorat va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, interaktiv mashg‘ulotlar va raqamli portfellar orqali talabalarning o‘z ishini tahlil qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish va ijodiy qarorlar yaratish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Eksperiment va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni metodik jihatdan tizimli joriy etish pedagogik jarayonni samarali qiladi, talabalarning motivatsiyasini oshiradi va ularni zamonaviy san’at bozoriga moslashishga tayyorlaydi. Differensial yondashuv va baholash tizimi har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning o‘quv jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi va kompetensiya rivojlanishini izchil kuzatish imkonini beradi. Shu asosda, rangtasvir mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash pedagogik jihatdan nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlash, balki talabalarning ijodiy, analitik va texnik qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi. Bu metodika talabalarga zamonaviy badiiy ishlarni yaratish, innovatsion yechimlar topish va professional portfel shakllantirish imkonini beradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni tasviriy san’at mashg‘ulotlariga integratsiya qilish kelajakdagi pedagogik jarayonlarda talabalarning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi hamda ularni professional sohada raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar. Tashkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar”. Tashkent, 2019.
3. Karimov, S. (2018). Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash. O‘zbekiston Pedagogika Jurnali, 3(45), 22-30.
4. Tursunova, L. (2017). Raqamli muhitda talabalarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish. Ta’lim Ilmi, 12(4), 55-63.
5. Abdullayev, R. (2021). Raqamli texnologiyalar asosida rangtasvir mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. Samarqand Davlat Universiteti Ilmiy Jurnali, 5(67), 40-48.
6. Jones, S.R. (2020). Digital Art and Painting: Concepts and Techniques. London: ArtPress.
7. Smith, M.A. (2018). Art Education in the Digital Era. New York: Routledge.
8. Petrova, E. (2019). Integrating ICT into Art Curriculum. Berlin: Springer.
9. Lee, J., & Kim, H. (2016). Interactive Digital Media in Visual Arts Education. Seoul: Hanbit Academy.
10. Brown, A. (2017). Creative Competence Development through Digital Tools. Oxford: Oxford University Press.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

5 – 7 – SINF O‘QUVCHILARIDA KOGNITIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI (TARBIYA FANI MISOLIDA).

N.Yesenova, Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchilarning faqat bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etishi va ongli qarorlar qabul qilishi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish umumiy o‘rta ta’lim tizimining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, 5–7-sinf o‘quvchilari rivojlanishning o‘tish bosqichida bo‘lib, ularda mantiqiy tafakkur, refleksiya, metakognitiv nazorat va ijodiy yondashuv faol shakllanadi. Bu davrda o‘quvchilarning bilish jarayonlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni ijtimoiy va axloqiy muammolarni anglashga o‘rgatish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Tarbiya fani mazmuni o‘zida axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, shaxsiy rivojlanish va fuqarolik pozitsiyasini mujassam etgani sababli kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

MAQSAD: mazkur maqolada tadqiqot ishining maqsadi – 5–7-sinf o‘quvchilarida Tarbiya fani asosida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan, bosqichli va integrativ texnologiyasini ishlab chiqish hamda uni zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida boyitib ochib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda pedagogik va psixologik adabiyotlarning nazariy tahlili, kontent-tahlil va konseptual yondashuv qo‘llanilgan. Asosiy manbalar sifatida D.Y. Xudoyberganovning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyani shakllantirish bosqichlari haqidagi ishi va S.T. Jakbarovaning oilaviy-ijtimoiy muhit ta’siri bo‘yicha tadqiqoti olingan. Ularga qo‘shimcha ravishda Kohlberg, Demetriou, Vygotskiy, Piaget kabi xorijiy olimlarning asarlari hamda O‘zbekiston olimlarining (masalan, tarbiya fani metodikasi bo‘yicha ishlar va UNICEFning O‘zbekistonda o‘quv natijalari haqidagi hisobotlari) materiallari jalb qilingan. Tahlilda kognitiv kompetensiyaning darajalari, bosqichlari va Tarbiya fanidagi amaliy texnologiyalar sintezi amalga oshirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: 5-7 sinf o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi uch bosqichdan iborat bo‘lib, texnologiya Xudoyberganovning boshlang‘ich sinflar uchun taklif etgan modelini o‘rta sinflarga moslashtirishga, shuningdek, J.Akbarova, Xorijiy tajribada Kohlbergning axloqiy dilemmalari, Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi kontseptsiyasiga asoslanadi. Tadqiqot natijalari kognitiv kompetensiyaning quyidagi darajalari (Xudoyberganov bo‘yicha moslashtirilgan)ni ajratib ko‘rsatadi:

•Past daraja – tayyor namuna bo‘yicha harakat; ko‘p xatolar, kattalar yordami talab etiladi.

•O‘rta daraja – standart vaziyatlarda mustaqil qo‘llash, interpretatsiya.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

•Yuqori daraja – nostandart muammolarda izchil qo‘llash, meta-fan aloqalari va o‘zini nazorat qilish.

XULOSA: 5–7-sinf o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish Tarbiya fanining mazmuni va metodik imkoniyatlari orqali samarali amalga oshiriladi. Taklif etilgan texnologiya bosqichma-bosqich rivojlanish, darajaviy yondashuv va interfaol metodlar uyg‘unligiga asoslanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, metakognitiv, konstruktivistik va raqamli ta’lim elementlarining integratsiyasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, refleksiv faoliyatini va ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

Kalit so‘zlar: kognitiv kompetensiya, tarbiya fani, ta’lim texnologiyalari, metakognitiv yondashuv, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, muammoli yondashuv, innovatsion pedagogika.

ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В 5-7 КЛАССАХ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕДМЕТА «ОБРАЗОВАНИЕ»).

Н. Есенова, Навоийский государственный университет, Навоий, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в современной образовательной парадигме для учащихся становится все более важным не только приобретение знаний, но и умение применять их в различных жизненных ситуациях, мыслить самостоятельно, решать проблемы и принимать обоснованные решения. В этой связи формирование познавательных компетенций является одним из важных стратегических направлений общеобразовательной системы. В частности, учащиеся 5–7 классов находятся на переходном этапе развития, в котором активно формируются логическое мышление, рефлексия, метакогнитивный контроль и творческий подход. В этот период одной из важных педагогических задач является правильное направление познавательных процессов учащихся и обучение их пониманию социально-нравственных проблем. Поскольку содержание предмета воспитания включает в себя нравственные ценности, социальную ответственность, личностное развитие и гражданскую позицию, оно создает широкие возможности для развития познавательных компетенций.

ЦЕЛЬ: целью исследовательской работы, представленной в данной статье, является разработка научно обоснованной, поэтапной и комплексной технологии развития когнитивных компетенций у учащихся 5-7 классов по предмету «Образование», а также ее обогащение и объяснение с учетом современных педагогических и психологических подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовался теоретический анализ педагогической и психологической литературы, контент-анализ и концептуальный подход. Основными источниками послужили работы Д. Ю. Худойберганова о стадиях формирования познавательной компетентности у учащихся начальной школы и исследования С. Т. Жакбаровой о влиянии семьи и социальной среды. Помимо них, были задействованы работы зарубежных ученых,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

таких как Кольберг, Деметриу, Выготский, Пиаже, а также материалы узбекских ученых (например, работы по методологии педагогической науки и отчеты ЮНИСЕФ о результатах образования в Узбекистане). Анализ включал синтез уровней, стадий формирования познавательной компетентности и практических технологий в педагогической науке.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: технология развития познавательных компетенций у учащихся 5-7 классов состоит из трех этапов. Технология основана на адаптации модели Худойберганова, предложенной для начальной школы, к средним классам, а также на работах Я. Акбаровой, моральных дилеммах Кольберга в зарубежном опыте и концепции зоны ближайшего развития Выготского. Результаты исследования выделяют следующие уровни познавательной компетенции (адаптированные по Худойберганову):

• Низкий уровень – действия по готовой модели; много ошибок, требуется помощь взрослого.

• Средний уровень – самостоятельное применение в стандартных ситуациях, интерпретация.

• Высокий уровень – последовательное применение в нестандартных задачах, метасубъектные связи и самоконтроль.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: эффективная реализация развития познавательных компетенций учащихся 5–7 классов осуществляется благодаря содержательным и методическим возможностям Департамента образования. Предлагаемая технология основана на сочетании поэтапного развития, ступенчатого подхода и интерактивных методов.

Интеграция современных педагогических подходов, включая метакогнитивные, конструктивистские и цифровые элементы обучения, повышает самостоятельность мышления, рефлексивную активность и социальную ответственность учащихся.

Ключевые слова: когнитивная компетентность, педагогика, образовательные технологии, метакогнитивный подход, социально-эмоциональное развитие, проблемно-ориентированный подход, инновационная педагогика.

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COGNITIVE COMPETENCES IN GRADES 5-7 (ON THE EXAMPLE OF THE SUBJECT "EDUCATION").

N. Yesenova, Navoi State University, Navoi, Uzbekistan.

Annotation:

INTRODUCTION: in the modern educational paradigm, it is becoming increasingly important for students not only to acquire knowledge, but also to be able to apply it in various life situations, think independently, solve problems and make informed decisions. In this regard, the formation of cognitive competencies is one of the important strategic directions of the general secondary education system. In particular, students in grades 5–7 are at a transitional stage of development, in which logical thinking, reflection, metacognitive control and a creative approach are actively formed. During this period, one

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

of the important pedagogical tasks is to correctly direct students' cognitive processes and teach them to understand social and moral problems. Since the content of the subject of education embodies moral values, social responsibility, personal development and civic position, it creates a wide opportunity for the development of cognitive competencies.

AIM: the purpose of the research work in this article is to develop a scientifically based, phased and integrative technology for developing cognitive competencies in 5th-7th grade students based on the subject of Education, and to enrich and explain it based on modern pedagogical and psychological approaches.

MATERIALS AND METHODS: the study used theoretical analysis of pedagogical and psychological literature, content analysis and conceptual approach. The main sources were D.Y. Khudoyberganov's work on the stages of cognitive competence formation in primary school students and S.T. Zhakbarova's research on the influence of the family and social environment. In addition to them, the works of foreign scientists such as Kohlberg, Demetriou, Vygotsky, Piaget, as well as materials of Uzbek scientists (for example, works on the methodology of educational science and UNICEF reports on educational results in Uzbekistan) were involved. The analysis included a synthesis of levels, stages of cognitive competence and practical technologies in educational science.

DISCUSSION AND RESULTS: the technology for developing cognitive competencies in students in grades 5-7 consists of three stages. The technology is based on the adaptation of Khudoiberganov's model proposed for primary grades to middle grades, as well as J. Akbarova, Kohlberg's moral dilemmas in foreign experience, and Vygotsky's concept of the zone of proximal development. The results of the study distinguish the following levels of cognitive competence (adapted according to Khudoiberganov):

• Low level - action according to a ready-made model; many errors, adult help is required.

• Medium level - independent application in standard situations, interpretation.

• High level - consistent application in non-standard problems, meta-subject connections and self-control.

CONCLUSION. the development of cognitive competencies in students in grades 5–7 is effectively implemented through the content and methodological capabilities of the Department of Education. The proposed technology is based on a combination of gradual development, a leveled approach and interactive methods.

The integration of modern pedagogical approaches, including metacognitive, constructivist and digital learning elements, increases students' independent thinking, reflective activity and social responsibility.

Keywords: digital technologies, painting lessons, visual arts, professional competence, pedagogical methodology, creative development.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Ilmiy manbalarda kognitiv kompetensiya o‘quvchining axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlari tizimi sifatida talqin qilinadi. D.Y. Xudoyberganovning tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, kognitiv kompetensiya – bu ma’lumotni qayta ishlash, muammo yechish va maqsadga erishish uchun bilim hamda ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinflarda shakllangan bu kompetensiyalar 5-7 sinflarda yanada chuqurlashib, mustaqillik, faollik va mas’uliyat kabi shaxsiy fazilatlar bilan chambarchas bog‘lanadi. S.T. Jakbarova esa oilaviy va ijtimoiy muhitning o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash va kognitiv rivojlanishiga ta’sirini chuqur tahlil qilib, ijobiy oilaviy muhit va maktab-tengdoshlar hamkorligining motivatsiya, mantiqiy fikrlash hamda metakognitiv ko‘nikmalarni kuchaytirishini ko‘rsatgan.

Xorijiy ilmiy yondashuvlarda esa kognitiv rivojlanish ko‘p omilli jarayon sifatida qaraladi. Jumladan:

konstruktivistik yondashuv (Piaje) bilish jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslaydi;

sotsiokonstruktivistik yondashuv (Vygotskiy) ijtimoiy muhit va hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlaydi;

axloqiy rivojlanish nazariyasi (Kohlberg) esa kognitiv va axloqiy tafakkur o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi;

zamonaviy tadqiqotlarda (Demetriou va boshqalar) kognitiv kompetensiya ijro etuvchi funksiyalar, metakognitsiya va o‘z-o‘zini boshqarish bilan integratsiyada talqin etiladi.

Tadqiqotimiz natijasida 5-7 sinf o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning uch bosqichdan iborat texnologiyasini ishlab chiqdik.

Birinchi bosqich – reproduktiv-takrorlovchi (past daraja): o‘quvchi tayyor axloqiy qoidalarni takrorlaydi va oddiy holatlarda qo‘llaydi. Tarbiya fanida bu bosqichda “Yaxshilik va yomonlik” mavzusidagi oddiy hikoyalar tahlili va nusxa ko‘chirish topshiriqlari qo‘llaniladi.

Ikkinchi bosqich – interpretatsion-faol (o‘rta daraja): o‘quvchi standart axloqiy dilemmalarni mustaqil tahlil qiladi, o‘qituvchi yordamida reja tuzadi. Bu yerda munozara va rol o‘yinlari (masalan, “Do‘stlik sinovi” yoki “Oilaviy mas’uliyat”) samarali.

Uchinchi bosqich – ijodiy-mustaqil (yuqori daraja): o‘quvchi yangi vaziyatlarda axloqiy muammolarni hal qiladi, metakognitiv nazoratni amalga oshiradi va loyihalar tayyorlaydi (masalan, “Mening Vatanim – mening mas’uliyatim” loyihasi).

Texnologiya samaradorligi baholash uchun esa kognitiv kompetensiya rivojlanganligining quyidagi darajalarini ajratdik:

Past daraja – tayyor namuna bo‘yicha harakat; ko‘p xatolar, kattalar yordami talab etiladi.

O‘rta daraja – standart vaziyatlarda mustaqil qo‘llash, interpretatsiya.

Yuqori daraja – nostandart muammolarda izchil qo‘llash, meta-fan aloqalari va o‘zini nazorat qilish.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Jakbarovaning tadqiqotiga koʻra, bu texnologiyada oilaviy va ijtimoiy muhit muhim rol oʻynaydi. Oilada ota-onalar bilan birgalikda axloqiy suhbatlar va uy vazifalari (masalan, oilaviy qadriyatlar haqida insho yozish) oʻquvchilarning motivatsiyasi va oʻz-oʻzini tarbiyalashini kuchaytiradi. Maktabda esa tengdoshlar guruhi, raqamli platformalar (interaktiv videolar, axloqiy dilemmalar boʻyicha onlayn munozaralar) ijodiy fikrlash va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

Xorijiy tajribada Kohlbergning axloqiy dilemmalari (masalan, “Heinz dilemmasi”) Tarbiya fanida qoʻllanilganda oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat bogʻlanishlarini tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Demetriou nazariyasiga muvofiq, ijro etuvchi funksiyalar (rejalashtirish, nazorat) va inferensial jarayonlar (xulosa chiqarish) Tarbiya darslarida loyiha usuli orqali rivojlanadi. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi kontseptsiyasi esa oʻqituvchi rahbarligidagi guruhli ishlar (debate, case-study) orqali amalga oshiriladi. Oʻzbekiston kontekstida UNICEF hisobotlari va mahalliy olimlarning ishlari (masalan, tarbiya fani metodikasi boʻyicha qoʻllanmalar) interfaol metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan amaliy texnologiya quyidagi elementlarni oʻz ichiga oladi:

1. Muammoli-savollar va dilemmalar – har bir mavzuda 2-3 ta axloqiy holat tahlili.
2. Guruhli loyihalar – oila va jamiyat mas’uliyati haqida taqdimotlar.
3. Oʻzini baholash jurnallari – metakognitiv koʻnikmalarni shakllantirish.
4. Raqamli integratsiya – interaktiv platformalar orqali virtual munozaralar.
5. Oila-maktab hamkorligi – uy vazifalari va ota-onalar uchun seminarlar.

Ushbu yondashuv oʻquvchilarda nafaqat kognitiv, balki axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni ham uygʻun rivojlantiradi.

5-7 sinf oʻquvchilarida Tarbiya fani asosida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi oʻquvchining mustaqilligi, faolligi va mas’uliyatini oshirishga qaratilgan boʻlib, Xudoyberganov va Jakbarova tadqiqotlariga asoslanadi. Xorijiy olimlar (Kohlberg, Demetriou, Vygotskiy) va mahalliy tajribaning sintezi orqali taklif etilgan bosqichli, darajaviy va interfaol usullar oʻquv jarayonini samarali qiladi. Natijada oʻquvchilar nafaqat bilim egasi, balki mustaqil fikrlovchi, axloqiy qaror qabul qila oladigan shaxsga aylanadi. Amaliyotda oila, maktab va ijtimoiy muhit uygʻunligi bu texnologiyaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Demetriou A., Spanoudis G. Ch., Greiff S., Makris N., Panaoura R., Kazi S. Changing priorities in the development of cognitive competence and school learning: A general theory // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Article 954971. (6 bet)
2. Jakbarova S.T. Oʻquvchilarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda oilaviy va ijtimoiy muhitning oʻz-oʻzini tarbiyalashga ta’siri // Inter education & global study. – 2025. – Vol. 3. – № 11(1). – B. 107–112. (107–112 betlar)

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

3. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice (Essays on Moral Development, Vol. 1). – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 441 p. (198–210 betlar)
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / Ed. by M. Cole. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p. (84–91 betlar)
5. Xudoyberganov D.Y. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari // Inter education & global study. – 2024. – № 7. – B. 76–83. (76–83 betlar)

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA FANLARARO ABSISSIAL VA ORDINAL ALOQADORLIK.

Muxtarova Lobar Abdimannabovna, Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ichta'lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz, O'zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur tadqiqot boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvidan foydalangan holda konsept-kartalar (tushunchalar xaritasi) orqali fanlararo abssissal (gorizontal) va ordinat (vertikal) bog'liqlikni integratsiyalash masalasini o'rganadi. Tadqiqotdan maqsad — o'quvchilarning fanlararo bilimlarini tizimli va izchil shakllantirish uchun interaktiv konsept-kartalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda sinovdan o'tkazishdir. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi konsept-kartalar bilan birgalikda o'quvchilarning fanlararo tushunchalarni bog'lash qobiliyatini samarali oshiradi, metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi va ijodiy fikrlashni yaxshilaydi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — o'quvchilarning fanlararo bilimlarini yanada chuqur, bosqichma-bosqich va tizimli shakllantirish uchun interaktiv kognitiv xaritalarni loyihalash va sinovdan o'tkazishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali STEAM yondashuviga asoslangan boshlang'ich ta'lim jarayonlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotda pedagogik modellashtirish, kognitiv xaritalash, eksperimental sinov va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, STEAM yondashuvi va kognitiv xaritalardan foydalanish o'quvchilarning fanlararo tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatish qobiliyatini samarali oshiradi, metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi va ijodiy fikrlashga yordam beradi. Kognitiv xaritalar bilimlarni tizimlashtirishga va o'qitishning refleksiv-diagnostik modelini yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi va kognitiv xaritalar orqali fanlararo bog'liqlikni integratsiyalash boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasidir. Amaliy tavsiyalar pedagogik faoliyatga innovatsion metodlarni joriy etishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: fanlararo integratsiya, absissial aloqadorlik, ordinal aloqadorlik, STEAM, refleksiv-diagnostik model, metakognitiv ko'nikmalar, boshlang'ich ta'lim.

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ АБСЦЕССИВНЫЕ И ОРДИНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА STEAM.

Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, заведующая кафедрой начального образования, Термезский государственный педагогический институт, доктор философии (PhD) в области педагогических наук, доцент, Термез, Узбекистан.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ВВЕДЕНИЕ: данное исследование посвящено интеграции междисциплинарных абсциссных (горизонтальных) и ординатных (вертикальных) связей с помощью концепт-карт в начальном образовании с использованием подхода STEAM. Цель исследования — разработать интерактивные концепт-карты для систематического и прогрессивного формирования междисциплинарных знаний учащихся и проверить их в ходе практической реализации. Экспериментальные результаты показывают, что подход STEAM в сочетании с концепт-картами эффективно развивает способность учащихся связывать междисциплинарные понятия, формирует метакогнитивные навыки и улучшает творческое мышление.

ЦЕЛЬ: целью исследования является проектирование и апробация интерактивных когнитивных карт для более глубокого, последовательного и системного формирования междисциплинарных знаний учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования являются процессы начального образования, основанные на подходе STEAM. В работе используются педагогическое моделирование, когнитивное картирование, экспериментальное тестирование и сравнительный анализ.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показали, что использование подхода STEAM и когнитивных карт эффективно повышает способность учащихся устанавливать связи между междисциплинарными понятиями, развивает метакогнитивные навыки и способствует творческому мышлению. Когнитивные карты помогают систематизировать знания и построить рефлексивно-диагностическую модель обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что интеграция междисциплинарных связей через подход STEAM и когнитивные карты является эффективным инструментом повышения качества начального образования. Практические рекомендации могут быть использованы для внедрения инновационных методов в педагогическую практику.

Ключевые слова: межпредметная интеграция, абсиссальная взаимосвязь, ординальная взаимосвязь, STEAM, рефлексивно-диагностическая модель, метакогнитивные навыки, начальное образование.

INTERDISCIPLINARY ABSCESSIVE AND ORDINAL RELATIONSHIPS BASED ON THE STEAM APPROACH.

Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, Head of the Department of Primary Education, Termez State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Termez, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: this study explores the integration of interdisciplinary abscissial (horizontal) and ordinal (vertical) connectivity through concept maps in primary education using the STEAM approach. The purpose of the research is to develop interactive concept maps to systematically and progressively shape students' interdisciplinary

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

knowledge and to test them in practical implementation. Experimental results indicate that the STEAM approach combined with concept maps effectively enhances students' ability to connect interdisciplinary concepts, develop metacognitive skills, and improve creative thinking.

AIM: the aim of the study is to design and test interactive cognitive maps to form students' interdisciplinary knowledge in a deeper, gradual, and systematic way.

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of primary education processes based on the STEAM approach. The study employs pedagogical modeling, cognitive mapping, experimental testing, and comparative analysis.

RESULTS AND DISCUSSION: the results showed that the use of the STEAM approach and cognitive maps effectively enhances students' ability to connect interdisciplinary concepts, develop metacognitive skills, and foster creative thinking. Cognitive maps help systematize knowledge and build a reflexive-diagnostic model of learning.

CONCLUSION: in conclusion, integrating interdisciplinary connections through the STEAM approach and cognitive maps is an effective tool for improving the quality of primary education. Practical recommendations can be applied to introduce innovative methods into pedagogical practice.

Keywords: interdisciplinary integration, abscissial connectivity, ordinal connectivity, STEAM, reflective-diagnostic model, metacognitive skills, primary education

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy fikrlashi va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitishning samarali innovatsion modeli sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

STEAM yondashuvi asosida fanlararo aloqadorlikni ta'minlashda absissial (gorizontal) va ordinal (vertikal) bog'lanishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Absissial aloqadorlik bir vaqtning o'zida o'rganilayotgan fanlar o'rtasidagi integratsiyani ifodalab, o'quvchilarning bilimlarni turli fanlar kesimida uyg'un holda idrok etishini ta'minlaydi. Ordinal aloqadorlik esa o'quv materialining bosqichma-bosqich murakkablashib borishini, ilgari egallangan bilimlarning keyingi bosqichlarda mustahkamlanishi va kengayishini nazarda tutadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida STEAM yondashuvi asosida ushbu ikki turdagi aloqadorlikni rivojlantirish o'quvchilarning ilmiy tushunchalarni chuqur o'zlashtirishi, mantiqiy fikrlashini shakllantirishi hamda real hayotiy muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

mustaqil o‘rganish faoliyatini faollashtiradi. Shu sababli, STEAM yondashuvi asosida fanlararo absissial va ordinal aloqadorlikni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim va kompetensiyalarini kengaytirish maqsadida fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Absissial aloqadorlik turli fanlar mazmunining gorizontal bog‘lanishini, ordinal aloqadorlik esa bilimlarning vertikal, bosqichma-bosqich chuqurlashuvini bildiradi. STEAM yondashuvi fanlarni interaktiv tarzda birlashtiradi va amaliy loyiha faoliyati orqali o‘quvchilarni faol o‘rganishga jalb qiladi. Kognitiv xaritalar esa o‘quvchilarga turli fanlar mazmunini vizual va mantiqiy bog‘lash imkonini beradi, shu bilan ular bilimlarni abscissial va ordinal qatlamlarda mustahkamlaydi.

10. Specific characteristics of spiritual ethical and moral education of primary class students Authors Usmonova Sabokhat Publication date 2023/10 Journal World Bulletin of social sciences(wbss) IssueISSN(E)2749-361x Pages 23,24,25,26,27 Publisher.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

REJISSORNING AKTYOR BILAN ISHLASH TIZIMI.

M.X. Hamrayeva, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada rejissorning aktyor bilan ishlash tizimi nazariy va amaliy jihatdan keng qamrovli tarzda tadqiq etiladi. Rejissura san’atining shakllanish tarixi va uning aktyorlik pedagogikasi bilan o‘zaro munosabati tahlil qilinib, bu sohadagi yetakchi metodlar qiyosiy o'rganiladi.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi — rejissyor munosabatning nazariy asoslarini, metodologik tizimlari va amaliy tatbiqini ilmiy tahlil qilish hamda ushbu munosabatning teatr va kino san'atidagi o'ziga xos ko'rinishlarini qiyosiy o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda bir necha nuqtadagi manba va metodlardan foydalanildi. Nazariy manba sifatida K.S. Stanislavskiyning “Aktyorning o‘z ustida ustida ishlashi” va “San’atdagi hayotim” asarlari, M.Qodirovning “O'zbek teatri an’analari”, T.Tursunov “XX asr o‘zbek teatri tarixi” va X.Abdusamatovning “Drama nazariyasi” kabi milliy teatrshunoslik manbalari asos qilib olindi. Xalqaro miqyosda esa kino pedagogikasi va rejissyorlik amaliyotiga oid ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot sohasi ko'rinishidagi, rejissyor munosabati bir tomonga boshqaruv akti emas – bu o'zaro ta'sir va hamkorlikdagi ijodiy izlanish jarayonidir. Teatr va kino rejissurasi metodologik farqlarga doir tahlil bir qancha aniq natijaga kelindi. Kino suratga olishning diskret tuzilmasi – ya’ni bir sahnaning o‘nlab marta, turli burchakdan, xronologik ketma-ketliksiz suratga olish – aktyor uchun teatrda mavjud bo‘lmagan psixofizik yukni hosil qiladi. O‘zbek aktyori roli talqinida tarixan shakllangan mustaqillik odatiga ega bo‘lib, bu zamonaviy dialogik rejissyorlik modeli bilan uyg‘unlashganda ishlab chiqish hosil bo‘ladi.

XULOSA: rejissyor-aktyor munosabati teatr va kino san’atining metodologik negizini tashkil qiladi. Stanislavskiy tizimi tomonidan tegishli bu munosabat — rejissyorning aktyor uchun “berilgan shart-sharoit”ni tasdiqlash va uni “jismoniy yetaklash usuli” orqali — bugungi kunda ham o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlash fundamental prinsiplarini ifodalaydi. Chitka jarayonidan mizansahna qurishgacha bo'lgan bosqichlarning har biri ushbu munosabatning xos ko'rinishini namoyon qiladi.

Kalit so‘zlar: rejissura, metod, aktyor, psixofizik harakat, rol tahlili, dramaturgiya, aktyorlik mahorati, sahna.

СИСТЕМА РАБОТЫ РЕЖИССЁРА С АКТЁРОМ.

М.Х.Хамраева, Государственный институт искусств и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье система работы режиссёра с актёром исследуется с теоретической и практической точек зрения в широком охвате. Анализируется история формирования режиссёрского искусства и его взаимосвязь с актёрской педагогикой, а также проводится сравнительное изучение ведущих методов в данной области.

ЦЕЛЬ: основная цель данной статьи — научный анализ теоретических основ взаимоотношений режиссёра и актёра, их методологических систем и практического применения, а также сравнительное исследование специфических проявлений этих взаимоотношений в театральном и киноискусстве.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы различные источники и методы. В качестве теоретической базы взяты труды К. С. Станиславского «Работа актёра над собой» и «Моя жизнь в искусстве», а также национальные театроведческие источники, такие как М. Кадыров «Традиции узбекского театра», Т. Турсунов «История узбекского театра XX века» и Х. Абдусаматов «Теория драмы». На международном уровне использованы научно-методические работы по кино-педагогике и режиссёрской практике.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате исследования установлено, что взаимоотношения режиссёра и актёра не являются односторонним актом управления, а представляют собой процесс взаимного влияния и совместного творческого поиска. Анализ методологических различий театральной и кинорежиссуры привёл к ряду конкретных выводов. Дискретная структура киносъёмки — то есть многократная съёмка одной сцены с разных ракурсов, вне хронологической последовательности — создаёт для актёра психофизическую нагрузку, отсутствующую в театре. Узбекский актёр исторически обладает сформированной традицией самостоятельности в интерпретации роли, что при сочетании с современными диалогическими моделями режиссуры приводит к продуктивному результату.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: взаимоотношения режиссёра и актёра составляют методологическую основу театрального и киноискусства. Сформированные системой Станиславского принципы — утверждение режиссёром «предлагаемых обстоятельств» и их реализация через «метод физических действий» — сохраняют свою научную и практическую значимость и сегодня. Каждый этап — от читки до построения мизансцены — отражает специфику этих взаимоотношений.

Ключевые слова: режиссура, метод, актёр, психофизическое действие, анализ роли, драматургия, актёрское мастерство, сцена.

THE SYSTEM OF A DIRECTOR'S WORK WITH AN ACTOR.

M.Kh. Khamrayeva, Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: this article comprehensively examines the system of a director's work with an actor from both theoretical and practical perspectives. It analyzes the

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

history of the formation of directing as an art form and its relationship with acting pedagogy, as well as comparatively studies the leading methods in this field.

OBJECTIVE: the main aim of this article is to provide a scientific analysis of the theoretical foundations, methodological systems, and practical applications of director-actor relationships, as well as to comparatively study their specific manifestations in theatre and cinema.

MATERIALS AND METHODS: the study is based on various sources and methods. As theoretical foundations, the works of K.S.Stanislavski — "An Actor's Work on Himself" and "My Life in Art" — were used, along with national theatre studies sources such as M.Qodirov's "Traditions of Uzbek Theatre", T.Tursunov's "History of Uzbek Theatre of the 20th Century", and Kh.Abdusamatov's "Theory of Drama". Additionally, international scientific and methodological literature on film pedagogy and directing practice was utilized.

DISCUSSION AND RESULTS: the research shows that the director-actor relationship is not a one-sided act of control, but rather a process of mutual influence and collaborative creative exploration. The analysis of methodological differences between theatre and film directing led to several specific conclusions. The discrete structure of film production — that is, shooting a single scene multiple times, from different angles, and without chronological sequence — creates a psychophysical burden for the actor that does not exist in theatre. The Uzbek actor has historically developed a tendency toward independence in role interpretation, which produces effective results when combined with modern dialogic directing models.

CONCLUSION: the director-actor relationship forms the methodological foundation of both theatre and cinema. The principles established by the Stanislavski system — the director's formulation of the "given circumstances" for the actor and their realization through the "method of physical actions" — continue to retain their scientific and practical significance today. Each stage, from script reading to the construction of mise-en-scène, reflects the specific nature of this relationship.

Keywords: directing, method, actor, psychophysical action, role analysis, dramaturgy, acting skills, stage.

Rejissura san'ati — bu eng avvalo, insonni boshqarish san'atidir. Rejissorning ijodiy vazifasi sahnani bezash yoki syujet qurishdan iborat emas, balki, aktyorni ichki holati va tashqi jihatdan tayyorlab, uni rolning haqiqatiga olib chiqishdan iboratdir. Shu ma'noda, rejissor-aktyor munosabati teatr va kino san'atining metodologik asosini tashkil etadi.

Teatr tarixi shuni ko'rsatadiki, XIX asrgacha rejissura san'ati alohida kasb sifatida mavjud bo'lmagan. Dramaturg asarining matni bevosita aktyorning o'zi tomonidan talqin etilar, sahnaning tashkiliy va estetik birligi esa tasodif yoki an'anaga asoslanar edi. K.S.Stanislavskiy tomonidan ishlab chiqilgan sistema aktyorlik va rejissorlik an'anasini

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

mustahkamlanishida muhim mezon bo‘lib xizmat qildi. Rejissura san’ati fundamental jihatdan yuksalishida K.S.Stanislavskiyning “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” va “San’atdagi hayotim” asarlari san’atshunoslar tomonidan tan olinib, amaliy jihatdan spektakllarda qo‘llanib kelinayotgani buning yorqin misolidir. Ushbu asarlar aktyorning ichki texnikasini — diqqat, tasavvur, berilgan shart-sharoit, “agarda” prinsipini — rejissyorlik nuqtai nazaridan ham to‘liq ifoda etadi. Stanislavskiy tizimida rejissorning vazifasi aktyor uchun to‘g‘ri “berilgan shart-sharoit”ni yaratish va uni “jismoniy xatti-harakatlar usuli” orqali yetaklashdan iborat.

O‘zbek teatrshunosligida bu masalaga doir yirik asarlar orasida M.Qodirovning – “O‘zbek teatri an’analari” [1.], T.Tursunovning – “XX asr o‘zbek teatri tarixi” [2.], X.Abdusamatovning – “Drama nazariyasi” [3.], M.Umarov hamda T.Yuldashevlarning – “Rejissorlik va aktyorlik san’ati asoslari” [4.] kitoblarini alohida ta’kidlash lozim.

Rejissor aktyor bilan ishlashni boshlashdan avval dramaturgik asar tahlilini amalga oshirib, chitka o‘tkazish lozim. “Chitka” atamasi rus teatr amaliyotiga mansub bo'lib, so‘zma-so‘z tarjimada “o'qish” ma’nosini anglatadi. Biroq teatr kontekstida bu atama oddiy “matnni ovoz chiqarib o‘qish”dan ancha keng ma’noni o‘z ichiga qamrab oladi. Teatrshunoslik nuqtai nazaridan chitka — bu rejissyor va aktyorlarning dramatik asar ustida birgalikda olib boradigan tahliliy, ijodiy va uyushgan jarayoni bo‘lib, sahnaviy hayotni paydo qilishning ilk bosqichini yaratilishida katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy teatr pedagogikasida chitka jarayonining yagona standart tizimi mavjud emas. Aktyor chitka jarayonida o‘zi uchun sahnada rol ijro qilish jarayonidagi topilmalarini topadi. Bu topilmalar sahnada spektaklning tomoshaviyligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Aktyor stol atrofida personajini topa olmasa — sahnada spektakl namoyishida u uchun ijro qiyin bo‘ladi. Shu o‘rinda san’atshunos olim M.Qodirovning yetuk aktyor haqidagi quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli – “Shukur Burxonov mahorati shunchaki ko‘nikma, tajriba, texnologiya emas, bu – aktyorning rol ustida olib boradigan mashaqqatli mehnatining samarasi, repetitsiyalar va ijro jarayonida o‘zidan va hamkasblaridan yaxlitlik va uyg‘unlik talab qilishi, o‘zida bor imkoniyatlarni to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarishda qo‘llaydigan sahnaviy vositalari hamdir” [5.B.129.] – deb yozadi.

Rejissor-aktyor munosabatida ikki qarama-qarshi kuch doimo tarang holatda turadi: rejissorning ijodiy ustunligi va aktyorning erkinligi. Bu qonuniyatni noto‘g‘ri hal etish – ya’ni, ijodiy jarayondagi rejissorning ortiqcha nazorati yoki aktyorning cheksiz erkinligi — ijodiy jarayonni izdan chiqaradi. “Aktyor repetitsiyalar jarayonida rejissor talqiniga asoslanib, o‘ziga berilgan personaj xarakteriga moslashib boradi. Agar uning dublyori bo‘lsa, personajining xarakterini sahnaga olib chiqayotgan har bir aktyor, ijodiy sherigidan farq qilish maqsadida qahramoniga o‘zining talqinidan kelib chiqqan holda yondashadi. Ko‘pincha bunday “raqobat” ijobiy natijalarga yetaklaydi” [6.B.38].

Rejissor-aktyor munosabatining sahnaning namoyon etilishi — mizansahnada — namoyon bo‘ladi. Mizansahna faqat sahnaviy joylashuvgina bo‘lib qolmay, balki aktyorning ichki holatini boshqaruvchi holatdir. Bu holatda aktyor ichki hissiyotlarini namoyon qilishi xatti-harakatlari orqali amalga oshadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Kino rejissurasi kontekstida nutq bilan ishlash sahnaga nisbatan ancha farqli tus oladi. Ekranda ovozning natural intonatsiyasi sahnadan ko‘ra farqli eshitiladi. Kamera mikrofoni sahnaning akustik shovqinini “filtrlaydi” va aktyorning eng kichik nutqiy nozikliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatadi. Shu sababli, kino rejissori aktyorni ovoz kuchini kamaytirish, tabiiy nutq ohangiga o‘tish va tabiiy hayotiy dialog qurishga e‘tibor qaratishga yo‘llaydi.

Teatr va kino rejissurasi o‘rtasidagi metodologik farqlar faqat texnik jihat bilan cheklanmaydi — ular rejissor-aktyor munosabati borliqning umumiy asosiga ham ta’sir qiladi. Sahnada aktyor spektakl davomida butun rol xatti-harakatini uzluksiz shaklda bajaradi, ya’ni uning psixofizik jarayoni dramaturgiyaning tabiiy tartibiga bo‘ysunadi. Kino rejissori aktyor bilan ishlashda bir nechta o‘ziga xos metodologik vositalardan foydalanadi. Birinchi vosita — yaqin plan ishlash texnikasi. Sahnada aktyor o‘z ifodalarini zalning oxirigacha yetkazishi uchun kattalashtiradi. Kinoda esa aksincha, eng kichik bo‘lgan mimika, ko‘z harakati, lab titrashi — barchasi kamerada sezilarli darajada kuchayadi.

Kino aktyor deyarli hech qachon butun sahnani yaxlit ijro qilmaydi – u bir necha epizod yoki hatto bitta gapni o‘nlab marta qayta suratga oladi. Rejissor har bir epizodda aktyorning ichki holatini yangilab, to‘g‘ri emotsional boshlang‘ich nuqtani topishiga yordam beradi. Professional kino rejissori suratga olish jarayonida montaj variantlarini oldindan ko‘ra biladi va aktyorni shunga qarab yo‘naltiradi.

O‘zbek aktyorligining milliy an’analari — qiziqchilik, dorbozlik va naqqoshlik ijrochiligi — rejissor-aktyor munosabatiga o‘ziga xos qirra qo‘shadi. Ushbu an’analarda aktyor nisbatan mustaqil edi, u syujetni va xarakterni ham o‘zi belgilar, ham ijro etar edi. Bu an’anaviy mustaqillik zamonaviy rejissor-aktyor hamkorligida ham o‘z izini qoldiradi. O‘zbek aktyori ko‘pincha o‘z rol talqiniga qattiqroq yondashishi bilan ajralib turadi.

Professional kino rejissyorining eng muhim kompetensiyalaridan biri — montaj tafakkuri – u sahnani suratga olishdan oldin, hatto ba’zan ssenariy o‘qish paytidayoq, sahnaning montajdagi ko‘rinishini tasavvur qila oladi.

Montaj jarayoni amalda quyidagicha namoyon bo'ladi – rejissyor sahnani suratga olishni rejalashtirayotganda u bir vaqtda bir necha savolga javob beradi. Qaysi momentda yaqin planga o‘tish kerak? Qaysi replikani umumiy planda qoldirib, qaysinisini yaqin planda ko‘rsatish lozim? Aktyor qaysi pauzasini uzaytirib, qaysi pauzasini qisqartirishi kerak? Bu savollarga javoblar aktyorni yo‘naltiruvchi aniq ko‘rsatmalarga aylanadi.

Rejissyor aktyorga bergan ko‘rsatmalar kino suratga olishida eng muhim jarayonlardan biridir. Biroq bu kommunikatsiyaning qanchalik samarali bo‘lishi ko‘rsatmaning mazmuniga qarab emas, balki uning til shakliga – qanday so‘zlar bilan ifodalanishiga – qarab ham o‘zgaradi.

Xulosa shuki, kino aktyorining suratga olish sharoitidagi diskret ijro texnikasi — emotsional holatni “qayta yoqish”, boshlang‘ich nuqtani topish, teskari sharoitda ishlash, montaj nuqtasini his qilish — bu alohida, mustaqil kompetensiyalar majmui bo'lib, ularni teatr aktyorligidan avtomatik ravishda o‘zlashtirish mumkin emas. Rejissyorning montaj

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

tafakkuri va jarayon ko‘rsatmalarini aktyorga tushuntirishi – kino suratga olishidagi ikkinchi asosiy o‘qi hisoblanadi. Rejissyor nafaqat sahnani ko‘radi — u montajni ham kadrda ko‘rish imkoniyatiga egadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Qodirov M. O‘zbek teatri an’analari.-T.: G‘afur G‘ulom., 1976.-424 b.
2. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi: 1900-2007. -T.: Art Press. 2010. -568 b.
3. Abdusamatov X. Drama nazariyasi. -T.: G‘afur G‘ulom, 2000. -288 b.
4. Umarov M., Yuldashev T. Rejissorlik va aktyorlik san’ati asoslari. -T.: Konsalt, 2014. -312 b.
5. Qodirov M. Sahnamiz lochinlari. -T.: G‘afur G‘ulom, 1986. 129-b.
6. Nurmanova B. “Zamonaviy o‘zbek teatrida sahnaviy obraz yaratish masalalari (2000-2020 yillar poytaxt teatrlari repertiari misolida)” san.fan.bo‘y.fals.doktori (PhD) disserrtatsiya. -T.: 2024. -151.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

EMOTIVLIKNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI VA BADIIY MATNDAGI KOMMUNIKATIV VAZIFALARI.

Ergasheva Sarvinoz Bahodurovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada emotivlikning lingvopragmatik mohiyati chuqur tahlil qilinib, uning til tizimidagi o‘rni va funksional imkoniyatlari har tomonlama yoritiladi. Xususan, emotivlikning inson nutq faoliyatida namoyon bo‘lishi, uning nafaqat semantik, balki pragmatik xususiyatlarga ham ega ekanligi asoslab beriladi. Til birliklari orqali ifodalanadigan emotsional mazmunning shakllanish mexanizmlari, ularning nutq jarayonidagi kommunikativ ahamiyati va kontekstga bog‘liq holda o‘zgaruvchanligi izohlanadi. Maqolada emotivlikning til tizimidagi ifodalanish vositalari – leksik, grammatik, fonetik va stilistik birliklar misolida tahlil qilinadi. Emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega so‘zlar, affikslar, intonatsion vositalar hamda badiiy tasviriy ifodalar orqali nutqda qanday qilib hissiylik yuzaga kelishi ko‘rsatib beriladi. Ayniqsa, bu vositalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida nutqning ta’sirchanligi ortishi va uning estetik qiymati oshishi alohida ta’kidlanadi. Badiiy matn doirasida esa emotiv birliklarning kommunikativ vazifalari keng yoritiladi. Jumladan, muallifning individual uslubi va estetik niyatini ifodalash, qahramonlar ruhiy holatini ochib berish, o‘quvchiga ma’lum bir hissiy ta’sir ko‘rsatish kabi vazifalar batafsil tahlil qilinadi. Emotiv vositalar yordamida muallif va o‘quvchi o‘rtasida o‘ziga xos hissiy-kommunikativ aloqa yuzaga kelishi, bu esa matnning qabul qilinish darajasini oshirishi ilmiy asosda izohlanadi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi lisoniy birliklar yordamida hissiy mazmunni shakllantirish mexanizmlarini ochib berish va ularning nutqdagi kommunikativ ahamiyatini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali emotsionallikni (emotivlikni) ifodalovchi leksik, grammatik, fonetik va stilistik birliklardan iborat. Tadqiqotda lingvopragmatik tahlil, tavsifiy metod va kontekstual yondashuvdan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hissiy-ekspressiv so‘zlar, affikslar, intonatsion vositalar va badiiy obrazlilik nutqning ta’sirchanligini oshiradi hamda uning estetik qiymatini kuchaytiradi. Badiiy matnlarda emotiv birliklar muallif uslubini ifodalashga, qahramonlarning psixologik holatini ochib berishga va kitobxon bilan hissiy muloqot o‘rnatishga xizmat qiladi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, emotivlik nutqdagi hissiy-kommunikativ o‘zaro ta’sirni ta’minlovchi til tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uni o‘rganish badiiy matnning estetik tabiatini va kitobxonga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: emotivlik, lingvopragmatika, badiiy matn, ekspressivlik, kommunikativ vazifa, emotsiya, stilistika.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЭМОЦИОНАЛЬНОСТИ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ЗАДАЧИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Эргашева Сарвиноз Баходуровна, Докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье глубоко анализируется лингвопрагматическая сущность эмоциональности, всесторонне рассматривается её роль в языковой системе и функциональных возможностях. В частности, обосновывается проявление эмоциональности в речевой деятельности человека, а также её не только семантические, но и прагматические свойства. Объясняются механизмы формирования эмоционального содержания, выражаемого языковыми единицами, их коммуникативное значение в процессе речи и изменчивость в зависимости от контекста. В статье анализируются средства выражения эмоциональности в языковой системе на примере лексических, грамматических, фонетических и стилистических единиц. Показано, как эмоциональность возникает в речи через эмоционально выразительные слова, аффиксы, интонационные средства и художественно-образные выражения. В частности, подчеркивается повышение выразительности речи и её эстетической ценности в результате взаимной координации этих средств. В рамках литературного текста широко рассматриваются коммуникативные функции эмоциональных единиц. В частности, подробно анализируются такие функции, как выражение индивидуального стиля и эстетического замысла автора, раскрытие психологического состояния персонажей и оказание определенного эмоционального воздействия на читателя. Научно объясняется, что с помощью эмоциональных средств возникает специфическая эмоционально-коммуникативная связь между автором и читателем, что повышает уровень восприятия текста.

ЦЕЛЬ: целью исследования является раскрытие механизмов формирования эмоционального содержания с помощью лингвистических единиц и определение их коммуникативной значимости в речи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования послужили лексические, грамматические, фонетические и стилистические единицы, выражающие эмотивность. В работе применяются лингвопрагматический анализ, описательный метод и контекстуальный подход.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: анализ показал, что эмоционально-экспрессивные слова, аффиксы, интонационные средства и художественная образность усиливают воздействие речи и повышают её эстетическую ценность. В художественных текстах эмотивные единицы служат для выражения авторского стиля, раскрытия психологического состояния героев и установления эмоционального контакта с читателем.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что эмотивность является важным компонентом языковой системы, обеспечивающим эмоционально-

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

коммуникативное взаимодействие в речи. Её изучение позволяет глубже понять эстетическую природу художественного текста и механизмы воздействия на читателя.

Ключевые слова: эмоциональность, лингвопрагматика, литературный текст, выразительность, коммуникативная функция, эмоция, стилистика.

LINGUVOPRAGMATIC PROPERTIES OF EMOTIONALITY AND COMMUNICATIVE TASKS IN ARTISTIC TEXT

Ergasheva Sarvinoz Bahodurovna, PhD student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Annotation

INTRODUCTION: this article deeply analyzes the linguvopragmatic essence of emotionality, comprehensively covers its role in the language system and functional capabilities. In particular, the manifestation of emotionality in human speech activity is substantiated, and it has not only semantic, but also pragmatic properties. The mechanisms of formation of emotional content expressed through language units, their communicative significance in the speech process and variability depending on the context are explained. The article analyzes the means of expression of emotionality in the language system using the example of lexical, grammatical, phonetic and stylistic units. It shows how emotionality arises in speech through emotionally expressive words, affixes, intonational means and artistic figurative expressions. In particular, the increase in the expressiveness of speech and its aesthetic value as a result of the mutual coordination of these means is emphasized. Within the framework of the literary text, the communicative functions of emotional units are widely covered. In particular, such functions as expressing the individual style and aesthetic intention of the author, revealing the psychological state of the characters, and having a certain emotional impact on the reader are analyzed in detail. It is scientifically explained that with the help of emotional means, a specific emotional-communicative connection arises between the author and the reader, which increases the level of acceptance of the text.

AIM: the aim of the study is to reveal the mechanisms of forming emotional content through linguistic units and to determine their communicative significance in speech.

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of lexical, grammatical, phonetic, and stylistic units expressing emotivity. The study employs linguopragmatic analysis, descriptive method, and contextual approach.

RESULTS AND DISCUSSION: the analysis revealed that emotionally expressive words, affixes, intonational devices, and artistic imagery enhance the impact of speech and increase its aesthetic value. In literary texts, emotive units serve to express the author's style, reveal the psychological state of characters, and establish emotional communication with the reader.

CONCLUSION: in conclusion, emotivity is an essential component of the language system, ensuring emotional-communicative interaction in speech. Its study provides deeper

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

insights into the aesthetic nature of literary texts and the mechanisms of influencing the reader.

Keywords: emotionality, linguopragmatics, literary text, expressiveness, communicative function, emotion, stylistics.

Til inson tafakkuri, dunyoqarashi va ichki kechinmalarini ifodalovchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Inson nutqi orqali nafaqat axborot almashadi, balki o‘zining ruhiy holati, hissiyotlari va subyektiv munosabatini ham namoyon etadi. Ayniqsa, badiiy matn doirasida emotsional mazmunning ifodalanishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bunday matnlarda til faqat kommunikativ vosita bo‘lib qolmay, balki estetik va ta’sirchanlik funksiyalarini ham bajaradi.

Emotivlik tilshunoslikda inson his-tuyg‘ularining til vositalari orqali ifodalanishi sifatida talqin qilinadi. U nutqning ajralmas komponenti bo‘lib, unda so‘zlovchining voqelik va hodisalarga nisbatan munosabati, ichki kechinmalari va bahosi o‘z aksini topadi. Emotivlik orqali nutq jonlanadi, mazmun chuqurlashadi va adresatga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Lingvopragmatika esa til birliklarining real nutq jarayonidagi qo‘llanishini, ularning kommunikativ maqsadga xizmat qilish xususiyatlarini o‘rganadi. Bu yo‘nalishda til faqat struktur tizim sifatida emas, balki inson faoliyatining bir qismi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, emotivlik nafaqat semantik (ma’no bilan bog‘liq), balki pragmatik (nutqiy vaziyat va maqsad bilan bog‘liq) hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki emotsional birliklar nutqda muallif yoki so‘zlovchining niyatini, maqsadini va kommunikativ strategiyasini ochib beradi.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Mazkur maqolada emotivlikning lingvopragmatik xususiyatlari va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalarini o‘rganishda kompleks yondashuv asosida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy tilshunoslikning lingvopragmatika, stilistika va matn lingvistikasi yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar tashkil etadi.

Avvalo, tavsifiy (deskriptiv) metod yordamida emotivlik tushunchasining nazariy asoslari yoritildi, uning til tizimidagi o‘rni va asosiy xususiyatlari izohlanadi. Ushbu metod orqali emotiv birliklarning tasnifi berilib, ularning leksik, grammatik, sintaktik va fonetik darajalarda ifodalanish shakllari tavsiflanadi.

Tadqiqot jarayonida lingvopragmatik tahlil metodi asosiy usullardan biri sifatida qo‘llaniladi. Bu metod yordamida emotiv birliklarning nutq jarayonidagi funksional xususiyatlari, ularning kommunikativ maqsadga xizmat qilishi, muallif niyatini ifodalashdagi o‘rni hamda o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari tahlil qilinadi. Emotiv vositalarning kontekstga bog‘liqligi va pragmatik yuklamasi aynan shu metod asosida ochib beriladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Stilistik tahlil metodi orqali badiiy matnlarda qo‘llanilgan emotsional-ekspressiv vositalar – metafora, epitet, giperbola, takror va boshqa badiiy ifoda usullari o‘rganiladi. Ushbu metod emotivlikning estetik funksiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu maqolada, shuningdek, kontekstual tahlil metodidan foydalanilib, emotiv birliklarning turli nutq vaziyatlarida qanday ma’no kasb etishi, ularning emotsional rang-barangligi va interpretatsiya imkoniyatlari o‘rganiladi. Bu metod orqali bir xil til birligining turli kontekstlarda turlicha pragmatik ma’no berishi asoslab beriladi.

Amaliy tahlil jarayonida misollarni tahlil qilish (illustrativ metod) qo‘llaniladi. Bunda o‘zbek va jahon badiiy adabiyotidan olingan namunalar asosida emotiv birliklarning real nutqdagi qo‘llanishi ko‘rsatib berildi va ularning kommunikativ vazifalari izohlanadi.

Shuningdek, qiyosiy (komparativ) metod elementlaridan ham foydalanilib, turli adabiy matnlarda emotivlikning ifodalanish usullari o‘zaro taqqoslanadi. Bu esa emotivlikning universalligi va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Zero, yuqorida qayd etilgan metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi emotivlikning lingvopragmatik mohiyatini har tomonlama ochib berish, uning badiiy matndagi funksional va kommunikativ xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini yaratdai.

ADABIYOTLAR SHARHI

Emotivlik va uning lingvopragmatik xususiyatlari masalasi zamonaviy tilshunoslikda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida turli olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu hodisani tahlil qilishda pragmalingvistika, stilistika, matn lingvistikasi hamda psixolingvistika yo‘nalishlaridagi ilmiy qarashlar metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Lingvopragmatika doirasida emotivlik masalasi nutqning kommunikativ yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Bu borada o‘zbek tilshunosligida Sh.Safarovning pragmalingvistika haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega.[1] Olim nutq jarayonida til birliklarining maqsadga muvofiq qo‘llanishini asoslab, pragmatik ma’no va kontekstning rolini alohida ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv emotiv birliklarning kommunikativ vazifalarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Til va nutq madaniyati, shuningdek, ekspressivlik va emotsionallik masalalari N.Mahmudov tomonidan ham keng yoritilgan.[2] Uning ishlarida nutqning ta’sirchanligi, emotsional bo‘yoqdorligi va stilistik imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. Bu qarashlar emotivlikning leksik va stilistik vositalar orqali ifodalanishini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Rus tilshunosligida V.Vinogradovning stilistika nazariyasiga oid ishlari badiiy matndagi emotsional-ekspressiv vositalarni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.[4] Olim badiiy nutqning obrazliligi va ekspressivligini til birliklarining funksional xususiyatlari bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Bu esa emotivlikning estetik vazifalarini tushuntirishda nazariy asos yaratadi.

G‘arb tilshunosligida esa emotivlik va pragmatika masalalari G.Leech tomonidan ishlab chiqilgan pragmatika nazariyasida o‘z aksini topgan.[6] Uning “Principles of Pragmatics” asarida nutqning maqsadga yo‘naltirilganligi, implitsit ma’no va kommunikativ strategiyalar keng tahlil qilinadi. Bu yondashuv emotivlikning pragmatik niyatni ifodalashdagi rolini ochib berishda muhimdir. Shuningdek, S.Levinson tadqiqotlari ham

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

nutqiy aktlarda pragmatik omillarning o‘rnini ko‘rsatib beradi [8]. H. Widdowsonning stilistika va adabiy matn tahliliga oid ishlari badiiy matnda til vositalarining funksional qo‘llanilishini o‘rganishda ahamiyatlidir. U tilning estetik funksiyasini kommunikativ jarayon bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi, bu esa emotivlikning badiiy matndagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi.[7]

Bundan tashqari, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda emotivlik psixologik va kognitiv yondashuvlar asosida ham o‘rganilmoqda. Bu yo‘nalishda emotsiyaning nutqdagi aks etishi, uning inson tafakkuri va idroki bilan bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi. Natijada, emotivlik ko‘p qirrali hodisa sifatida – lingvistik, pragmatik va psixologik omillar uyg‘unligida talqin qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotivlik masalasi turli ilmiy maktablar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning lingvopragmatik va badiiy matndagi kommunikativ xususiyatlarini kompleks yoritish hali ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu jihatlarni tizimli ravishda yoritishga qaratilgan.

1. Emotivlik tushunchasi va uning lingvistik talqini

Emotivlik – bu nutqda inson emotsiyalari va hissiyotlarining turli til vositalari orqali ifodalanishidir. U tilning ekspressiv imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, nutqning ta’sirchanligi va obrazliligini ta’minlaydi. Tilshunos olim V. Shaxovskiy emotivlikni tilning alohida kognitiv-semantik kategoriyasi sifatida talqin etib, uning inson tafakkuri bilan bog‘liqligini ta'kidlaydi [5]. O‘zbek tili tizimida, xususan morfologik darajada emotivlikning namoyon bo‘lish mexanizmlari Sh.Shahobiddinova tomonidan ilmiy asoslab berilgan [3]. Emotivlik tushunchasi aslida quyidagi asosiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

Subyektivlik – emotiv birliklar orqali so‘zlovchining shaxsiy munosabati, ichki kechinmalari va individual bahosi ifodalanadi. Masalan, bir xil voqea turli shaxslar tomonidan turlicha emotsional rangda ifodalanishi mumkin.

Baholovchanlik – emotivlik ijobiy yoki salbiy munosabatni bildiradi. Bu orqali nutqda qadriyatlar tizimi, axloqiy mezonlar va muallifning pozitsiyasi namoyon bo‘ladi.

Ekspressivlik – emotiv birliklar nutqning ta’sir kuchini oshiradi, uni jonli va obrazli qiladi. Bu xususiyat ayniqsa badiiy matnlarda muhim rol o‘ynaydi. Tilshunoslikda emotivlik turli darajadagi til vositalari orqali yuzaga chiqadi va kompleks hodisa sifatida namoyon bo‘ladi:

Leksik vositalar. Emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega so‘zlar emotivlikning eng faol ifodalovchilaridan biridir. Bunday birliklarga baholovchi sifatlar (“ajoyib”, “dahshatli”), undovlar (“voy”, “eh”), shuningdek, emotsional rangga ega ot va fe’llar kiradi. Ular nutqqa hissiy tus beradi va adresatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Grammatik vositalar. Emotivlik grammatik shakllar orqali ham ifodalanadi. Masalan, kichraytirish va erkalash qo‘shimchalari (-cha, -gina), takroriy shakllar, kuchaytiruvchi birliklar nutqda hissiylikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, gapning grammatik qurilishi ham emotsional ma’no yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Fonetik vositalar. Intonatsiya, urg‘u, pauza kabi fonetik vositalar nutqning emotsional rangini belgilaydi. Bir xil gap turli ohangda aytilganda, uning ma’nosi va ta’siri o‘zgarishi mumkin.

Stilistik vositalar. Metafora, epitet, ta’kid, gipepbola, kinoya kabi stilistik figuralar emotivlikni kuchaytiruvchi asosiy vositalardandir. Ular orqali nutq obrazli, jonli va ta’sirchan bo‘ladi.

Demak, emotivlik tilning barcha darajalarida namoyon bo‘ladigan murakkab lingvistik hodisa bo‘lib, u nutqning mazmuniy va pragmatik jihatdan boyishini ta’minlaydi.

2. Emotivlikning lingvopragmatik xususiyatlari

Lingvopragmatik nuqtai nazardan emotivlik nutq jarayonida til birliklarining faqat ma’no ifodalash bilan cheklanmay, balki ma’lum kommunikativ maqsadni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi. Tilshunos D.Bolinger ta’kidlaganidek, til nafaqat axborot berish, balki ta’sir o‘tkazish qurolidir va bu jarayonda emotiv birliklar markaziy o‘rin tutadi [10]. Emotiv birliklar so‘zlovchi (muallif) va tinglovchi (o‘quvchi) o‘rtasidagi munosabatni tartibga soladi, nutqning ta’sirchanligini oshiradi hamda kommunikativ jarayonning samaradorligini ta’minlaydi. Shu jihatdan emotivlik quyidagi asosiy lingvopragmatik xususiyatlarga ega:

2.1. Kommunikativ yo‘naltirilganlik. Emotiv birliklar har doim muayyan kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ya’ni ular nutqda tasodifiy qo‘llanmaydi, balki so‘zlovchining aniq niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunday birliklar orqali tinglovchini ishontirish va muayyan fikrga yo‘naltirish; hissiy ta’sir o‘tkazish orqali nutqni kuchaytirish; adresatda ma’lum emotsional reaksiya (quvonch, achinish, g‘azab, hayrat) uyg‘otish amalga oshiriladi. Masalan, badiiy matnda “bechora”, “nahotki”, “axir” kabi birliklar nafaqat axborot beradi, balki o‘quvchini voqeaga nisbatan hissiy jihatdan jalb qiladi. Shu orqali muallif kommunikativ maqsadiga tezroq erishadi.

2.2. Kontekstga bog‘liqlik. Emotivlikning muhim xususiyatlaridan biri uning kontekstga bevosita bog‘liqligidir. Bir xil til birligi turli nutq vaziyatlarida turlicha emotsional ma’no kasb etishi mumkin. Bu esa emotivlikning o‘zgaruvchan va dinamik tabiatini ko‘rsatadi. Masalan: “yaxshi” – oddiy, neytral baho; “juda yaxshi!” – kuchaytirilgan ijobiy emotsiya; “yaxshi...” (cho‘zilgan ohangda) – kinoya yoki norozilikni ham anglatishi mumkin.

Demak, emotiv birliklarning to‘liq ma’nosi faqat kontekstda, nutq vaziyati, intonatsiya va kommunikativ sharoit bilan birgalikda ochiladi. Shu sababli lingvopragmatik tahlilda kontekst muhim omil hisoblanadi.


2.3. Pragmatik niyatni ifodalash. Emotivlik muallif yoki so‘zlovchining pragmatik niyatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ko‘pincha nutqda ochiq ifodalanmagan, yashirin ma’nolar aynan emotsional-ekspressiv birliklar orqali anglashiladi. Muallif emotiv vositalardan foydalanib o‘z munosabatini bevosita yoki bilvosita bildiradi; kinoya va istehzo orqali yashirin tanqid qiladi; ironik ifodalar orqali voqelikni boshqacha talqin qiladi. Masalan, oddiy maqtov shaklidagi gap aslida kinoya bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda emotivlik nutqning “yashirin qatlamini” ochib beruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa lingvopragmatikaning asosiy masalalaridan biri – implitsit (yashirin) ma’noni aniqlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

2.4. Ta’sir kuchining yuqoriligi. Emotiv birliklarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning yuqori darajadagi ta’sirchanlikka ega ekanligidir. Bunday birliklar nutqni jonlantiradi, uni obrazli va esda qolarli qiladi hamda adresatga kuchli psixologik ta’sir o‘tkazadi. Emotivlik orqali nutqning ekspressivligi oshadi; o‘quvchi yoki tinglovchining diqqat-e’tibori jalb qilinadi; axborot tezroq va samaraliroq qabul qilinadi. Ayniqsa, badiiy matnda emotiv birliklar o‘quvchini voqealar ichiga “kirgizib yuboradi”, uni qahramonlar bilan birga his qilishga undaydi. Natijada matnning kommunikativ samaradorligi ortadi.

Zero, emotivlik lingvopragmatik jihatdan murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u nutqning maqsadga yo‘naltirilganligini, kontekstga bog‘liqligini, yashirin ma’no ifodalash imkoniyatlarini hamda yuqori ta’sir kuchini o‘zida mujassamlashtiradi.



3. Badiiy matnda emotivlikning ifodalanish vositalari

Badiiy matnda emotivlik tilning turli darajadagi vositalari orqali ifodalanadi va ular o‘zaro uyg‘unlashgan holda matnning estetik va ta’sirchanlik xususiyatini oshiradi. Emotsional-ekspressiv birliklar muallifning individual uslubini shakllantirish, qahramonlar ruhiy holatini ochish hamda o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir o‘tkazishda muhim rol o‘ynaydi.[9]

3.1. Leksik vositalar. Leksik vositalar emotivlikni ifodalashning eng asosiy qatlamlaridan biri bo‘lib, ular orqali nutqda bevosita emotsional baho va munosabat ifodalanadi.

1. Emotsional bo‘yoqli so‘zlar – ijobiy yoki salbiy baho beruvchi birliklar: masalan: “bechora”, “dahshatli”, “go‘zal”, “mudhish”

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

2. Sinonimlar orqali kuchaytirish – bir ma'nodagi so'zlarni ketma-ket qo'llash orqali hissiylikni oshirish: masalan: "qo'rqinchli, dahshatli, vahimali holat"

3. Dialekt va xalqona birliklar – nutqqa samimiylik va tabiiylik beradi.

Ingliz adabiyotidan misol keltiramiz. Romeo and Juliet asarida William Shakespeare quyidagicha yozadi: "O brawling love! O loving hate!" Bu yerda "love" va "hate" so'zlarining qarama-qarshi qo'llanishi kuchli emotsional ziddiyatni yuzaga keltiradi.

3.2. Stilistik vositalar. Stilistik vositalar emotivlikni kuchaytiruvchi eng samarali usullardan biri bo'lib, ular nutqni obrazli va ta'sirchan qiladi.

1. Metafora – yashirin o'xshatish orqali emotsiyani chuqurlashtiradi ("yuragi muzlab ketdi")

2. Epitet – predmetning emotsional belgisini ajratib ko'rsatadi ("achchiq haqiqat")

3. Giperbola – mubolag'a orqali hissiy ta'sirni kuchaytiradi ("ko'z yoshidan daryo bo'ldi")

Ingliz adabiyotidan misol keltiramiz. Macbeth asarida shunday parcha uchraydi: "Will all great Neptune's ocean wash this blood clean from my hand?" Bu yerda giperbola orqali qahramonning ichki iztirobi kuchli emotsional holatda ifodalanadi. Yoki 1984 George Orwell: "Big Brother is watching you" ifodasini ishlatadi. Bu metafora orqali qo'rquv va nazorat hissi beriladi.

3.3. Sintaktik vositalar. Sintaktik qurilmalar ham emotivlikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Gap tuzilishi orqali nutqning ritmi, ohangi va ta'sir kuchi oshiriladi.

Takror (anafora, epifora) – ma'lum birlikni takrorlash orqali hissiy urg'u beriladi.

Qisqa gaplar – keskinlik va dramatizmni kuchaytiradi.

Undov gaplar – kuchli emotsional holatni ifodalaydi.

Ingliz adabiyotidan misol keltiramiz.

A Tale of Two Cities (Charles Dickens): "It was the best of times, it was the worst of times..." Bu yerda anafora (takror) orqali ziddiyatli emotsional fon yaratilgan.

Yoki King Lear: "Never, never, never, never, never!" Takror orqali kuchli qayg'u va iztirob ifodalanadi.

3.4. Fonetik vositalar. Fonetik vositalar nutqning tovush jihati orqali emotivlikni ifodalaydi. Ular ayniqsa og'zaki nutqda kuchliroq seziladi, ammo yozma badiiy matnda ham muhim o'rin tutadi.

1. Tovush takrori (alliteratsiya) – bir xil tovushlarning takrori orqali emotsional effekt hosil qilinadi

2. Ohang va pauza – nutqning ritmini va hissiy rangini belgilaydi

3. Ingliz adabiyotidan misol:

4. The Raven (Edgar Allan Poe):

5. "And the silken sad uncertain rustling of each purple curtain..."

6. Bu misolda "s" tovushining takrori (alliteratsiya) qo'rquv va sirli kayfiyatni kuchaytiradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Demak, badiiy matnda emotivlik turli til vositalari – leksik, stilistik, sintaktik va fonetik birliklar orqali kompleks tarzda ifodalanadi. Ushbu vositalarning uyg‘un qo‘llanilishi matnning nafaqat mazmuniy, balki estetik va pragmatik ta’sirini ham kuchaytiradi.

4. Emotivlikning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari

Badiiy matnda emotivlik muhim kommunikativ kategoriya sifatida namoyon bo‘lib, u nafaqat hissiy ifoda vositasi, balki muallifning estetik va pragmatik maqsadlarini amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Emotiv birliklar orqali matnning mazmuni chuqurlashadi, obrazlar jonlanadi va o‘quvchi bilan bevosita hissiy aloqa o‘rnatiladi. Shu jihatdan emotivlik quyidagi asosiy kommunikativ vazifalarni bajaradi:

4.1. Ta’sir etish (ekspressiv) vazifasi. Emotivlikning eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatishdir. Badiiy matnda muallif turli emotsional vositalardan foydalanib, o‘quvchining ichki kechinmalariga ta’sir qiladi, uni voqealarga befarq bo‘lmaslikka undaydi. Bu vazifa orqali achinish, rahm-shafqat hissi uyg‘otiladi; quvonch, hayrat, hayajon ifodalanadi; g‘azab, norozilik yoki iztirob kabi kuchli emotsiyalar yuzaga keltiriladi. Emotiv birliklar yordamida o‘quvchi matndagi voqealarni nafaqat anglaydi, balki ularni “his qiladi”, ya’ni kommunikativ jarayon faqat intellektual emas, balki emotsional darajada ham kechadi.

4.2. Baholash vazifasi. Emotivlik muallifning voqelik, qahramonlar yoki hodisalarga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Bu orqali matnda ochiq yoki yashirin baho berish amalga oshiriladi. Baholash vazifasi quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi: ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalash; muallif pozitsiyasini aniqlash; o‘quvchini muayyan nuqtai nazarga yo‘naltirish. Masalan, “bechora”, “badbaxt”, “ulug‘”, “yovuz” kabi birliklar nafaqat tasvirlaydi, balki baholaydi ham. Shu orqali o‘quvchining qabul qilish jarayoni yo‘naltiriladi va muallifning ideologik-estetik qarashlari aks etadi.

4.3. Estetik vazifa. Emotivlik badiiy matnning estetik qiymatini oshiruvchi muhim omillardan biridir. U nutqni obrazli, jonli va ta’sirchan qiladi, natijada matnning badiiylik darajasi ortadi. Estetik vazifa quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1) obrazlilik – tasvirlar orqali hissiy manzara yaratish;
2) tasviriylik – voqealarni jonli va aniq ifodalash;
3) poetik ohang – nutqning ritmik va melodik xususiyatlarini shakllantirish.

Emotiv vositalar yordamida oddiy voqea ham badiiy qiymat kasb etadi va o‘quvchiga chuqur estetik ta’sir ko‘rsatadi.

4.4. Kommunikativ vositachilik. Emotivlik muallif va o‘quvchi o‘rtasida o‘ziga xos hissiy-kommunikativ ko‘prik vazifasini bajaradi. Ya’ni u nafaqat axborot uzatadi, balki hissiy aloqa o‘rnatadi. Bu jarayonda o‘quvchi muallif kechinmalariga yaqinlashadi; matn bilan psixologik identifikatsiya yuzaga keladi; o‘quvchi voqealarning bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Natijada kommunikativ jarayon samaradorligi ortadi va matnning ta’sir doirasi kengayadi.[6]

4.5. Xarakter yaratish vazifasi. Badiiy matnda qahramon nutqi uning ichki dunyosini, ruhiy holatini va individual xususiyatlarini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Emotiv birliklar esa bu jarayonning asosiy vositalaridan biridir. Xarakter yaratishda emotivlik qahramonning hissiy holatini ifodalaydi; uning dunyoqarashi va qadriyatlarini ochadi;

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

individual nutq uslubini shakllantiradi. Masalan, tez-tez undov ishlatadigan qahramon hissiyotga beriluvchan bo‘lsa, sovuqqon va qisqa gapiradigan qahramonning ruhiy holati boshqacha talqin qilinadi. Shu tariqa emotivlik obrazni individuallashtirishga xizmat qiladi.

Quyidagi misol orqali emotiv birliklarning funksional xususiyatlarini ko‘rib chiqish mumkin: “Bechora ona... yuragi ezilib, ko‘zlariga yosh keldi.” Mazkur gapda bir nechta emotiv vositalar uyg‘un holda qo‘llanilgan:

1) “bechora” – baholovchi emotiv birlik bo‘lib, qahramonga nisbatan achinish hissini uyg‘otadi;

2) “yuragi ezildi” – metaforik ifoda bo‘lib, ichki iztirobni obrazli tarzda ifodalaydi;

3) “ko‘zlariga yosh keldi” – emotsional holatni konkretlashtiradi va kuchaytiradi;

4) uch nuqta (**...**) – pauza va ichki kechinmaning davomiyligini bildiradi. Mazkur vositalarning kompleks qo‘llanilishi natijasida o‘quvchida kuchli achinish va hamdardlik hissi yuzaga keladi. Bu esa emotivlikning ta’sir etish, baholash va estetik vazifalarini bir vaqtning o‘zida amalga oshirayotganini ko‘rsatadi.

Demak, emotivlik badiiy matnda ko‘p funksiyali kommunikativ hodisa bo‘lib, u ta’sir etish, baholash, estetik qiymatni oshirish, muallif va o‘quvchi o‘rtasida hissiy aloqa o‘rnatish hamda qahramon xarakterini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa emotivlikning lingvopragmatik jihatdan alohida tadqiq etilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, emotivlik tilshunoslikda muhim lingvopragmatik kategoriya sifatida namoyon bo‘lib, u nutqning nafaqat mazmuniy, balki kommunikativ va estetik jihatdan boyishini ta’minlaydi. Emotivlik orqali insonning ichki kechinmalari, subyektiv munosabati va baholovchi pozitsiyasi til vositalari yordamida ifodalanadi hamda nutq jarayonida muhim pragmatik vazifalarni bajaradi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, emotivlik tilning barcha darajalarida – leksik, grammatik, sintaktik va fonetik vositalar orqali kompleks tarzda yuzaga chiqadi. Ayniqsa, badiiy matnda ushbu vositalarning uyg‘un qo‘llanilishi natijasida nutqning ta’sirchanligi ortadi, obrazlilik kuchayadi va o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatiladi. Bu esa emotivlikning nafaqat lingvistik, balki estetik hodisa sifatida ham muhim ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, emotivlikning lingvopragmatik xususiyatlari – kommunikativ yo‘naltirilganlik, kontekstga bog‘liqlik, pragmatik niyatni ifodalash va yuqori ta’sir kuchiga egaligi – uning nutq jarayonidagi funksional ahamiyatini belgilaydi. Ayniqsa, badiiy matnda emotiv birliklar muallif va o‘quvchi o‘rtasida hissiy-kommunikativ aloqa o‘rnatib, matnning qabul qilinish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot davomida emotivlikning badiiy matndagi asosiy kommunikativ vazifalari – ta’sir etish, baholash, estetiklikni ta’minlash, kommunikativ vositachilik va xarakter yaratish kabi funksiyalari aniqlanib, ularning har biri nutq samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutishi asoslab berildi. Emotiv vositalar yordamida muallif o‘z estetik niyatini amalga oshiradi, qahramonlar ruhiy olamini ochadi va o‘quvchini matn voqealariga jalb etadi.

Xulosa qilib aytganda, emotivlik badiiy nutqning ajralmas qismi bo‘lib, uning lingvopragmatik jihatdan o‘rganilishi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu hodisani chuqur tahlil qilish badiiy matnning mazmunini to‘liq anglash, muallif

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

niyatini aniqlash va nutqning ta’sir mexanizmlarini ochib berishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 3. – B. 3-16.
3. Shahobiddinova Sh. O‘zbek tili morfologiyasida emotivlik. – Farg‘ona: Klassik, 2018.
4. Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. – M.: Nauka, 1963. – 255 s.
5. Shaxovskiy V.I. Lingvisticheskaya teoriya emotsiy: Monografiya. – M.: Gnozis, 2008. – 408 s.
6. Leech G.N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.
7. Widdowson H.G. Stylistics and the Teaching of Literature. – Oxford: Oxford University Press, 1975.
8. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
9. Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016.
10. Bolinger D. Language – The Loaded Weapon: The Use and Abuse of Language Today. – London: Routledge, 1980.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

KOMPRESSION SPORT KIYIMLARINING RIVOJLANISH TARIXI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.

Shavkatova Ozoda Ibroxim qizi, Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat instituti doktoranti, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida yengil sanoatni rivojlantirish, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sport sanoatini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, jahon bozorida sport uchun mo‘ljallangan kompression kiyimlarga bo‘lgan talabning yildan-yilga ortib borayotgani, ularning sportchilarning jismoniy holatini yaxshilash, mushak faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom turmush tarzini ta’minlashdagi ahamiyati mazkur mahsulotlarni ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirish haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kirish: maqolada O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos, yuqori funksional, ergonomik va gigiyenik talablarga javob beruvchi kompression sport buyumlarini mahalliy xomashyodan ishlab chiqarish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biridir. Mamlakatimizda to‘qimachilik xomashyosi va ishlab chiqarish salohiyati yetarli bo‘lishiga qaramasdan, kompression sport kiyimlarining sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa import mahsulotlarga qaramlikni keltirib chiqarmoqda. O‘zbekiston sharoitiga mos innovatsion elastik trikotaj asosida yuqori funksional kompression sport buyumlarini ishlab chiqish va ularning texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan mazkur dissertatsiya ishi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, yengil sanoat va sport sanoati rivojiga xizmat qilishi bilan dolzarb hisoblanadi.

Maqsad: o‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion elastik trikotaj materiallar asosida yuqori funksional kompression sport buyumlarini yaratishning ilmiy-texnologik asoslarini ishlab chiqish, ularning antropometrik mosligi, siqish xususiyatlari, texnologik parametrlari hamda ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini kompleks tadqiq etish va sport hamda sport-tibbiy kiyimlar sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va metodlar: maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoatni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan farmon va qarorlari, xususan, PF-4947-sonli Farmoni mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilab beradi. Kompression sport buyumlarining antropometrik mosligi, elastik trikotaj materiallarning siqish xususiyatlari, texnologik parametrlari va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda o‘rganish sport va sport-tibbiy kiyimlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar: tadqiqot natijalari kompression sport buyumlarini loyihalash va ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan elastik trikotaj materiallarning strukturaviy, fizik-mexanik, elastik va siqish xususiyatlari kompleks tarzda o‘rganildi. Inson tanasining antropometrik o‘lchamlari va morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kompression sport kiyimlarining qomatga mosligi va shinamligini ta’minlash omillari aniqlab berildi. Elastomer iplar ulushi, trikotaj to‘qimasi turi va texnologik parametrlarga

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

bog‘liq holda materiallarning siqish darajasi, deformatsiyalanish va tiklanish jarayonlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida kompression sport buyumlarida me’yorlashgan bosim hosil qilish mexanizmi ilmiy jihatdan asoslandi. O‘zbekiston iqlim sharoitida foydalanish uchun mo‘ljallangan kompression sport buyumlarining gigiyenik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlari baholanib, ularning sportchilar organizmiga fiziologik jihatdan ijobiy ta’siri aniqlandi. Olingan natijalar asosida kompression sport kiyimlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtiriladi va shu jihatdan savodli kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Xulosa: o‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion kompression sport buyumlarini yaratish imkoniyati mavjudligi aniqlanib, mahalliy xom-ashyodan foydalangan holda yuqori sifatli, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning ilmiy-texnologik asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari sport va sport-tibbiy kiyimlar assortimentini kengaytirish, ularning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish hamda yengil sanoat va sport sanoatini texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga, kompression sport buyumlarini loyihalash, ishlab chiqarish va takomillashtirish jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda sportchilar va aholining keng qatlamlari uchun qulay va funksional kiyimlar yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kompression, antropometrik mosligi, elastik trikotaj materiallarning siqish xususiyatlari, texnologik parametrlari, ekspluatatsion ko‘rsatkichlari, innovatsion elastik trikotaj, yuqori funksional kompression sport buyumlar, texnologik jihatdan modernizatsiya qilish

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ КОМПРЕССИОННОЙ СПОРТИВНОЙ ОДЕЖДЫ.

Шавкатова Озода Иброксим кизи, аспирант Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация: в статье рассматривается развитие легкой промышленности в Республике Узбекистан, расширение производства импортозамещающей и экспортно-ориентированной продукции, технологическая модернизация спортивной индустрии, приоритетные направления государственной политики, растущий спрос на компрессионную одежду для спорта на мировом рынке, ее важность для улучшения физической формы спортсменов, поддержания мышечной активности и обеспечения здорового образа жизни, а также научное развитие производства этой продукции.

Введение: в статье рассматривается производство компрессионной спортивной одежды из местного сырья, подходящего для климатических условий Узбекистана, отвечающего высоким функциональным, эргономическим и гигиеническим требованиям, и это является одной из актуальных проблем. Несмотря на достаточное количество текстильного сырья и производственных мощностей в нашей стране, промышленное производство компрессионной спортивной одежды недостаточно развито. Это приводит к зависимости от

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

импортной продукции. Данная диссертационная работа, направленная на разработку высокофункциональной компрессионной спортивной одежды на основе инновационного эластичного трикотажа, подходящего для условий Узбекистана, и совершенствование ее технологии, имеет научное и практическое значение и актуальна, поскольку служит развитию легкой промышленности и спортивной индустрии.

Цель: разработать научно-технические основы для создания высокофункциональной компрессионной спортивной одежды на основе инновационных эластичных трикотажных материалов, адаптированных к климатическим условиям Узбекистана, провести комплексное исследование их антропометрической совместимости, компрессионных свойств, технологических параметров и эксплуатационных показателей, а также разработать предложения и рекомендации, направленные на повышение качества спортивной и спортивно-медицинской одежды.

Материалы и методы: в статье рассматриваются указы и постановления Президента Республики Узбекистан, направленные на развитие промышленности, внедрение инновационных технологий и пропаганду здорового образа жизни, в частности Указ № ПФ-4947, определяющие необходимость научных исследований в этой области. Научное изучение антропометрической совместимости компрессионной спортивной одежды, компрессионных свойств, технологических параметров и эксплуатационных показателей эластичных трикотажных материалов послужит повышению качества спортивной и спортивно-медицинской одежды.

Обсуждение и результаты: в результате исследования были всесторонне изучены структурные, физико-механические, упругие и компрессионные свойства эластичных трикотажных материалов, используемых при проектировании и производстве компрессионной спортивной одежды. Были определены факторы, обеспечивающие посадку и комфорт компрессионной спортивной одежды с учетом антропометрических размеров и морфологических характеристик человеческого тела. Проанализированы степень компрессии материалов, процессы деформации и восстановления в зависимости от доли эластомерных нитей, типа трикотажного полотна и технологических параметров. В результате исследования научно обоснован механизм нормализованного образования давления в компрессионной спортивной одежде. Оценены гигиенические и эксплуатационные показатели компрессионной спортивной одежды, предназначенной для использования в климатических условиях Узбекистана, и определено ее физиологически положительное воздействие на организм спортсменов. На основе полученных результатов совершенствуется технология производства компрессионной спортивной одежды, и в этом отношении большое значение имеет подготовка компетентного персонала.

Вывод: выявлена возможность создания инновационной компрессионной спортивной одежды, подходящей для климатических условий Узбекистана, и разработаны научно-технические основы для производства высококачественной,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

импортозамещающей и экспортно-ориентированной продукции с использованием местного сырья. Результаты исследования могут быть использованы для расширения ассортимента спортивной и спортивно-медицинской одежды, повышения ее качественных показателей, технологической модернизации легкой промышленности и спортивной индустрии, а также в процессах проектирования, производства и совершенствования компрессионной спортивной одежды, пропаганды здорового образа жизни и создания удобной и функциональной одежды для спортсменов и широкой публики.

Ключевые слова: компрессия, антропометрическая совместимость, компрессионные свойства эластичных трикотажных материалов, технологические параметры, эксплуатационные показатели, инновационные эластичные трикотажные изделия, высокофункциональная компрессионная спортивная одежда, технологическая модернизация

HISTORY OF DEVELOPMENT AND MODERN TRENDS OF COMPRESSION SPORTS CLOTHING

Shavkatova Ozoda Ibroxim kizi, PhD student at the Tashkent Institute of Textile and Light Industry, Tashkent, Uzbekistan.

Annotation: this article examines the development of the light industry in the Republic of Uzbekistan, the expansion of import-substituting and export-oriented production, technological modernization of the sports industry, priority areas of state policy, the growing demand for compression sportswear in the global market, its importance for improving athletes' physical fitness, maintaining muscle activity, and promoting a healthy lifestyle, as well as the scientific development of its production.

Introduction: this article examines the production of compression sportswear from local raw materials suitable for Uzbekistan's climatic conditions and meeting high functional, ergonomic, and hygienic requirements. This is a pressing issue. Despite the sufficient amount of textile raw materials and production capacity in our country, the industrial production of compression sportswear is underdeveloped. This leads to dependence on imported products. This dissertation, aimed at developing highly functional compression sportswear based on innovative elastic knitwear suitable for the conditions of Uzbekistan and improving its technology, has scientific and practical significance and is relevant, as it contributes to the development of the light industry and sports industries.

Objective: to develop a scientific and technical basis for the creation of highly functional compression sportswear based on innovative elastic knitwear adapted to the climatic conditions of Uzbekistan, conduct a comprehensive study of their anthropometric compatibility, compression properties, technological parameters, and performance indicators, and develop proposals and recommendations aimed at improving the quality of sportswear and sports-medical clothing.

Materials and methods: this article examines decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan aimed at industrial development, the introduction

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

of innovative technologies, and the promotion of a healthy lifestyle, in particular Decree No. PF-4947, which define the need for scientific research in this area. Scientific study of the anthropometric compatibility of compression sportswear, the compression properties, technological parameters, and performance indicators of elastic knitted materials will contribute to improving the quality of sportswear and sports-medical clothing.

Discussion and results: this study provided a comprehensive examination of the structural, physical, mechanical, elastic, and compressive properties of elastic knitted materials used in the design and production of compression sportswear. Factors that ensure the fit and comfort of compression sportswear, taking into account the anthropometric dimensions and morphological characteristics of the human body, were identified. The degree of material compression, deformation, and recovery processes were analyzed depending on the proportion of elastomer yarns, the type of knitted fabric, and process parameters. The study provided a scientifically substantiated mechanism for normalized pressure development in compression sportswear. The hygienic and performance characteristics of compression sportswear designed for use in the climatic conditions of Uzbekistan were assessed, and its physiologically beneficial effects on athletes were determined. Based on the obtained results, compression sportswear production technology is being improved, and the training of competent personnel is of great importance in this regard.

Conclusion: the possibility of creating innovative compression sportswear suitable for the climatic conditions of Uzbekistan has been identified, and the scientific and technical foundations for the production of high-quality, import-substituting, and export-oriented products using local raw materials have been developed. The results of the study can be used to expand the range of sports and sports-medical clothing, improve its quality indicators, technologically modernize the light industry and sports industry, as well as in the design, production and improvement of compression sportswear, promote a healthy lifestyle and create comfortable and functional clothing for athletes and the general public.

Keywords: compression, anthropometric compatibility, compression properties of elastic knitwear, technological parameters, performance indicators, innovative elastic knitwear, highly functional compression sportswear, technological modernization

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoatni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan farmon va qarorlari, xususan, PF-4947-sonli Farmoni mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilab beradi. Kompression sport buyumlarining antropometrik mosligi, elastik trikotaj materiallarning siqish xususiyatlari, texnologik parametrlari va ekspluatatsion ko'rsatkichlarini ilmiy asosda o'rganish sport va sport-tibbiy kiyimlar sifatini oshiradi.

Mamlakatimizda yengil sanoatni rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek sport sanoatini texnologik jihatdan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion elastik trikotaj asosida yuqori funksional kompression sport buyumlarini ishlab chiqish, ularning texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan mazkur dissertatsiya ishi respublika iqtisodiyoti, yengil sanoat va sport sanoati rivojiga xizmat qiladi.

Butun dunyo bo`yicha bozorlarda sport uchun mo`ljallangan kompression buyumlar tobora keng tarqalib bormoqda. Ular sportchining mushaklarini ushlab turish, harakatlarini kuchaytirish uchun mo`ljallangan bo`lib, uning jismoniy harakati paytida mushaklarining cho`zilishi va qisqarishida energiyasini saqlab o`ziga qaytarish orqali inson tanasining ichki organlari hamda terisiga tarqaluvchi me`yorlashgan bosimni beradi. Kompression sport buyumlari sportsmenlar, havaskor sportchilar va fitnes klubda shug`ullanuvchilar orasida katta talabga ega.

Yurtimiz to`qimachilik mahsulotlari (tola, kalava ip, mato, kiyim) ishlab chiqaruvchi davlat bo`lib, ko`plab xorijiy kompaniyalar O`zbekistonda mahalliy xom-ashyodan kiyim tikishga buyurtma berishadi, lekin bu holatning korxonalarda kompression sport kiyimlari ishlab chiqarilmaydi. Yoshlarga paradoksal tomoni shundaki, mahalliy boshqa davlatlarnikini emas, balki “O`zbekiston” yozuvi tushirilgan kompression sport kostyumlarini, o`zbek ramzlari tushirilgan buyumlarni ishlab chiqish zarur. Yangi innovatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, sportchilar uchun mo`ljallangan kompression trikotaj buyumlari assortimentini kengaytirish hozirgi davrda dolzarb muammodir.

Hozirgi kunda O`zbekistonda kattalar va bolalar uchun mo`ljallangan tarkibida elastomer iplari bo`lgan keng turdagi tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Sport buyumlari assortimenti tarkibida qulaylik, nafislik va ekspluatatsiya jarayonida tibbiy talablarni ta`minlovchi kompression buyumlar alohida o`rin tutadi. Bunday buyumlardan foydalanish ulushi doimiy ortib bormoqda, deyarli barcha buyum guruhlarini, shu jumladan, ustki va ichki kiyimlar, paypoq, qo`lqop, profilaktika, sport va sport-tibbiy buyumlarini qamrab oladi. Ularning asosiy sifat ko`rsatkichlari shinamlik va kompression kiyimning inson qomatiga antropometrik muvofiqligi bo`lib, shaklning morfologiyasi, zamonaviy dizaynning asosiy yo`nalishlari, materiallarning siqish qobiliyati va ularning yopiq qobiqlarini deformatsiyalash mexanizmi haqida ma`lumotga ega bo`lmasdan turib ko`zlangan maqsadga erishish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator hujjatlar mamlakatimizda sanoatni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan strategik vazifalarni belgilaydi. Jumladan, 2017 yildagi PF-4947-sonli Farmon mamlakatimizning beshta ustuvor rivojlanish yo‘nalishi bo‘yicha kompleks harakatlar strategiyasini tasdiqlab, sanoat va innovatsiyalar sohasida ilg‘or texnologiyalarni yaratish va joriy etishni muhim vazifa qilib qo‘ygan. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish va sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari kompression sport buyumlarining sifatli va texnologik jihatdan mukammal bo‘lishini taqozo etadi. Ushbu qarorlar dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va amaliy ahamiyatini oshiradi. Elastik trikotaj va sport kiyimlari sifatiga doir milliy va xalqaro standartlar (masalan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti — ГОСТlar, ISO standartlari) ishlab chiqarish jarayonlari, materiallarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari, gigiyenik talablar va texnologik tartiblarni belgilaydi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Kiyim-kechak, libos va to`qimachilik tarixi insoniyat taraqqiyoti davomida rivojlanib va mavjudligi o`rganilib kelinadi. Kiyim-kechak va to`qimachilik turli davrlarda, sivilizatsiyalarda mavjud bo`lgan materiallar hamda texnologiyalarni aks ettiradi. Jamiyatda kiyim-kechak va to`qimachilik mahsulotlarining xilma-xilligi va tarqalishi turli mintaqa, ijtimoiy urf-odatlar hamda turli madaniyatni namoyon etadi. Kiyim kiyish faqat insonning o`ziga xos va aksariyat insoniyat jamiyatlarining xususiyatidir. Hayotda inson va libos bir biriga uzviy bog'liq bo'lib, muhit, vazifasi, sharoitidan qat'iy nazar inson uchun kiygan libosi qulay bo'lishi kerak. Libos ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Libos insonning shaxsiy uslubini, shuningdek, kundalik hayotda qulaylik va xavfsizlikni ta'minlaydi. Shuning uchun ham asrlar osha libosning qulayligini va psixologik jihatdan ta'sirini yaxshilash usullari o'rganilib uni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Shu jumladan, kompression kiyimlarni ro'li bu jarayonda beqiyosdir.

Kompressiya - "Compression" inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, **siqish, bosim berish,** degan ma'noni anglatadi. Kompressiya - bu keng ma`noda siqish natijasida silindra oxirida hosil bo`ladigan bosim miqdoridir. Kompression kiyimlar tanani qattiq, ammo qulay tarzda o‘rab, **tashqi mexanik bosim** hosil qiladi. Kompression kiyim - bu inson tanasining ma'lum anatomik qismlariga **oldindan hisoblangan va nazorat qilinadigan mexanik bosim** berish orqali organizmning fiziologik jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiluvchi maxsus funksional kiyim turi hisoblanadi.

Kompression sport kiyimining shakllanishi va rivojlanishi inson organizmiga tashqi mexanik bosimning fiziologik ta'sirini o‘rganishga asoslangan bo‘lib, uning ildizlari tibbiyot sohasidagi dastlabki kuzatuv va tajribalarga borib taqaladi. Dastlab kompressiya tamoyili sport emas, balki **tibbiy reabilitatsiya va qon-tomir kasalliklarini davolash** maqsadida qo‘llanilgan.

Qadimgi davrlar (miloddan avvalgi). Misr va Rimda matoni mahkam o‘rash (bandajlash) usullari qo‘llanilgan (**1.1-rasm)**. Bundan asosiy maqsad jarohatni ushlab turish, mushakni himoyalash va qon aylanishini yaxshilashdan iborat. Bu hali sport kiyimi emas, lekin kompressiya g‘oyasining ilk ildizlari hisoblanadi.

XIX asrda kompressiya **sport uchun emas**, balki **jarrohlik amaliyotidan keyingi qon ketishini to‘xtatish** uchun ishlatilgan. XIX asr o‘rtalarida Yevropa tibbiyotida pastki oyoq-qo‘llarga tashqi bosim berish orqali **venoz qon aylanishini yaxshilash** mumkinligi ilmiy jihatdan isbotlana boshladi. Shu davrda elastik bintlar va paypoqlar varikoz kasalligini davolashda qo‘llanilgan bo‘lib, ular kompression kiyimlarning dastlabki prototiplari hisoblanadi. Kompressiya tamoyilining fiziologik asoslari yaratildi. 1840–1860-yillarda Yevropa shifokorlari elastik bintlar bilan tomirlarni siqish orqali trombozning oldini olishini aniqlashgan. Keyinchalik sportchilar bu usulni o‘z tanasida sinab ko‘ra boshlashgan. Sport kiyimidagi kompressiya, **tibbiy innovatsiyaning sportga o‘tgan shakli, demakdir.**

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4



1.1-rasm. Kompression sport kiyimining tarixi haqida faktlar

Qadimgi Rim gladiatorlari jangdan oldin son, boldir, bilaklarni **teri yoki mato bilan qattiq o‘rab olgan.** Sababi esa mushakni “qattiq” ushlab turish, qon ketishini kamaytirish, jarohatni tez yopish uchun bo`lgan.

O‘rta asrlarda kompressiya harbiy sir hisoblangan. O‘rta asr ritsarlari uzoq yurishlardan oldin **oyoqlarni mato bilan qatlamlab bog‘lashgan.** Bu usul tez charchashni kamaytirgani aniqlangan, ammo **harbiy sir** sifatida saqlangan. Kompressiya **faqat tanlangan jangchilarga** qo‘llanilgan.

XX asrning birinchi yarmida kauchuk va elastik tolalarning sanoatda keng joriy etilishi kompression buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirdi. Tibbiy elastik paypoqlar, bandajlar va bog‘lovchi vositalar anatomik tuzilishga moslashtirila boshladi. Bu davrda kompressiya darajasini nazorat qilish tamoyillari shakllandi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sport tibbiyoti va biomekanika fanlarining rivojlanishi natijasida kompression ta’sirning sportchilarning ish qobiliyatiga ijobiy ta’siri aniqlana boshladi. Sport tibbiyotining rivojlanishi natijasida olimlar kompressiyaning mushak faoliyatiga ijobiy ta’sirini aniqladilar. 1960–1970-yillarda professional sportchilar, xususan, yengil atletika va velosportda tibbiy kompression paypoqlarni mashg‘ulot va musobaqalarda qo‘llay boshladilar. Ushbu davr kompression kiyimlarning sport yo‘nalishiga o‘tish bosqichi hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompression kiyimlar mushaklarning tebranish amplitudasini kamaytirib, energiya yo‘qotilishini qisqartiradi. Aynan shu davrda kompression kiyimlar sport mashg‘ulotlari va musobaqalarda sinov tariqasida qo‘llanila boshlandi. Material sifatida **poliamid va elastan** iplarining paydo bo‘lishi kiyimlarning elastiklik va mustahkamlik ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirdi. **(1.2-rasm)**

1980–1990-yillarda sintetik tolalar — poliamid, elastan (Lycra) va mikrofibraning

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

joriy etilishi kompression sport kiyimlarini yengil, elastik va nafas oladigan qilish imkonini berdi. Shu davrda kompression futbolkalar, taytlar va shortilar paydo bo‘lib, sport brendlari tomonidan tijorat mahsuloti sifatida ommalashtirildi.



1.2-rasm.Kompression sport kiyimining tarixi

Lycra (elastan) 1958-yilda **NASA buyurtmasi bilan** ishlab chiqilgan.Maqsad esa kosmonavtlarning mushaklarini bosim ostida ushlab turish. Keyinchalik bu material Velosport, Triatlon va yugurish sport turlari uchun moslashtirilgan.

XXI asr boshlarida biomekanika, fiziologiya va sport tibbiyoti sohasidagi ilmiy tadqiqotlar kompression sport kiyimlarining samaradorligini tajriba asosida isbotladi.

XIX asrda kompression paypoqlar asosan ayollar kiyimi sifatida shakllangan bo‘lib, ular homilador ayollar, uzoq vaqt tik holatda ishlovchi tikuvchilar hamda saroy xonimlari uchun mo‘ljallangan. Ushbu buyumlar pastki oyoqlarda qon aylanishini yaxshilash va charchoqni kamaytirish maqsadida qo‘llanilgan. Erkaklar sportida kompression texnologiyalarning joriy etilishi taxminan 60–70 yilga kechikkan. XX asr boshlarida, xususan 1930–1940-yillarda yengil atletika sportchilarining ayrimlari kompression ta’sirga erishish maqsadida elastik bintlarni paypoq ostidan yoki short ichidan yashirincha bog‘lab chiqishgan. Biroq, o‘sha davr sport qoidalarida bunday usullar “sun’iy ustunlik” sifatida baholanib, rasmiy ravishda taqiqlangan. Natijada kompression texnologiyalar uzoq vaqt davomida norasmiy sport vositasi sifatida qo‘llanilib kelgan.

Kompression sport kiyimining tarixiy evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, u dastlab

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

tibbiy va harbiy ehtiyojlardan kelib chiqqan bo‘lib, faqat XX asr oxirlariga kelib, sport texnologiyasining mustaqil yo‘nalishiga aylangan. Zamonaviy kompression kiyimlar esa biomekanik va fiziologik asoslangan, yuqori funksional innovatsion mahsulot sifatida shakllangan. Bugungi kunda kompression sport kiyimlari yuqori texnologiyali funksional sport mahsuloti sifatida professional sportchilar bilan bir qatorda havaskor foydalanuvchilar tomonidan ham keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy kompressiya – oddiy siqish emas, **intellektual bosimdir.** Kompression sport kiyimlari hozirda sport industriyasining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu turdagi kiyimlar sportchilar va jismoniy faollik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish, mushak faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, charchoqni kamaytirish va tiklanish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Kompression kiyimlar tananing ma’lum qismlariga nazoratlangan bosim berish orqali qon aylanishini yaxshilaydi, mushak tebranishlarini kamaytiradi va sport faoliyati samaradorligini oshiradi, jarohat xavfini kamaytiradi.

Zamonaviy kompression kiyimlar mushak tebranishlarini kamaytirishini pasaytirish va tiklanish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, **issiq va quruq iqlim sharoitida**, jumladan O‘zbekiston hududida sportchilarning yuqori jismoniy yuklamalarda samaradorligini ta’minlashda kompression kiyimlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Zamonaviy kompression sport kiyimlari:

-anatomik modellashtirish;

-zonal kompressiya;


-termoregulyatsiya;

-antibakterial va gigiyenik xususiyatlar bilan boyitiladi.

Kompression kiyim, nomidan ko`rinib turibdiki, tanaga juda yopishigan siluetli va mushaklarga bosim o`tkazuvchi, ularning sovishiga yo`l qo`ymaydi va yaxshi qon aylanishini ta`minlaydi. Bundan tashqari, maxsus ishlab chiqilgan siqish gradiyenti tufayli kuchli bosim oshqozon yoki diafragmaga emas, balki kerakli mushak guruhlariga aniq qo`llaniladi. Qon aylanishi yaxshilanadi, ya`ni mushaklar ko`proq kislorod bilan ta`minlanadi. Bundan tashqari, tomirlar orqali qonning pompalanishi tufayli varikoz tomirlari ehtimoli kamayadi (1.3- rasmda)

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4



1.3-rasm. Qon aylanish sistemasining sxemasi

Yuqoridagi rasmda ko`rinib turibdiki, inson normal tinch turgan, yotgan holda qon odam tanasida bir me`yorda harakatlanadi. Inson harakatga tushganida, sport bilan shug`ullanganida tomirlardagi qon betartib harakatga tushadi. Natijada odam o`zida charchash va ko`p ehtimollar bilan oyoqlarda varikoz tomirlar paydo bo`ladi. Kompression kiyim qo`llanilganda inson tomirlardagi qon bosim natijasida qon betartib harakati cheklanadi. Natijada odamdagi charchoq kamayadi va ish unumi oshadi.

Ilmiy adabiyotlarda kompression sport kiyimlarining samaradorligi bir necha asosiy mexanizmlar bilan izohlanadi.

Birinchidan, tashqi bosim mushak to‘qimalarida venoz qonning yurakka qaytishini tezlashtiradi.

Ikkinchidan, mushaklar barqarorligi oshib, jarohatlanish xavfi kamayadi.

Uchinchidan, termoregulyatsiya va namlikni boshqarish xususiyatlari sportchining umumiy holatini yaxshilaydi. Mazkur jarayonlarni tushuntirishda fiziologiya va biomekanika fanlarining yutuqlaridan keng foydalaniladi. Zamonaviy tadqiqotlar kompression darajani tananing turli zonalari bo‘yicha differensial tarzda taqsimlash samaraliroq ekanligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi vaqtda kompression sport kiyimlari o‘z funksiyasi va qo‘llanilish sohasiga ko‘ra bir nechta guruhlarga bo‘linadi: kompression futbolkalar, taytlar, shortlar, yenglar va paypoqlar. Har bir tur ma'lum mushak guruhlariga maxsus yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning bosim darajasi va dizayni sport turining talablariga muvofiq moslashtiriladi. Bu kiyimlar mushaklarni qo‘llab-quvvatlash, qon aylanishini yaxshilash va jarohatlanish xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, har bir komponent sportchining harakat erkinligini saqlab qolgan holda, optimal siqishni ta'minlashga qaratilgan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Bugungi kunda ko`plab professional sportchilar qo`lidagi mahkamlagich, short, leginsi, yugurishda ishlatiladigan maxsus paypoqgacha bo`lgan turli xil kompression kiyimlardan foydalanadilar. Biroq, 1980-yillarda rangli spandeks to`lqini sport zallarini egallaganligi sababli, kompression kiyimlari juda ko`p o`zgarishlarga duch keldi.

Avvaliga uning afzalliklariga namlikni yutish, terlashni tartibga solish, ishqalanish va choklarning botmaslik darajasini kamaytirish, shuningdek, qo`llab-quvvatlashga e`tibor qaratildi. Zamonaviy kompression kiyimlari, aksincha, qon aylanishini oshirish va mushaklarning tebranishini barqarorlashtirish uchun, qo`l va oyoqlarni yetarlicha qattiq siqish uchun mo`ljallangan. Bu esa sportchilar uchun kuch va chidamlilikni oshirish va mashg`ulotlardan tezroq tiklanish haqida yanada dadil da`volarga olib keladi.

Yangi turdagi kompression sport kiyimlari o‘nlab yillar davomida qon quyqalari va qon aylanishining buzilishlarini davolash uchun qo‘llanilgan tibbiy kompression paypoqlardan kelib chiqqan. Ushbu kiyimlarning sportchilar uchun eng muhim afzalliklaridan biri – kechiktirilgan mushak og‘rig‘i sindromining (DOMS – delayed onset muscle soreness) kamaytirilishi va mushaklarning tezroq tiklanishiga yordam berishidir. DOMS – bu g‘ayrioddiy yoki intensiv jismoniy mashqlar natijasida paydo bo‘ladigan mushaklardagi kechiktirilgan og‘riq va noqulaylik holatidir. Kompression kiyimlar mushaklarda qon aylanishini yaxshilash, ortiqcha suyuqlikni chiqarish va yallig‘lanishni kamaytirish orqali tiklanish jarayonini tezlashtiradi.

Adabiyotlarda mavjud bo‘lgan kompression sport kiyimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida undan foydalanishda hal qiluvchi omil ikki yo‘nalishda olib boriladigan sport mashg‘ulotlari turi ekanligini ko‘rsatadi, ular umumiy rivojlanish yoki sog‘lomlashtiruvchi jismoniy madaniyat va ixtisoslashtirilgan o‘quv jarayonlaridir.

Olib borilgan tahliliy tadqiqot davomida savdo markazlari va internet-resurslarda mavjud bo‘lgan 100 dan ortiq turli xil markali (Nike, Chanel, Puma, Reebok, Adidas va boshqalar) sport buyumlarini o‘rganish, tahlil qilish va baholash jarayoni amalga oshirildi. Har bir buyum quyidagi mezonlar bo‘yicha: sport turi; buyum turi va maqsadi, assortiment guruhi; materiallarni tolaviy tarkibi; model-konstruktiv yechimlari asosida tahliliy tadqiqotlar o‘tkazildi. Bozor tadqiqotlari va tahliliy ishlar natijasida asosiy brendlarning assortiment va materiallar bo‘yicha farqlari aniqlangan.

Sport kiyimlari bozorida faqat yuqori sifat va innovatsiyalar asosida bir necha brendlar o‘z o‘rnini mustahkamlab, global liderlarga aylangan.

Bizning ro`yxatimizda qayd etilgan brendlar o`nlab yillar davomida talabni saqlab qolishga muvaffaq bo`ldi. Ular yuqori sifatli mahsulotlar, doimiy innovatsiyalar, muvaffaqiyatli mashhur reklama kompaniyalari va butun dunyo bo`ylab sodiq muxlislar armiyasi bilan munosabatlarni saqlab qolish qobiliyati orqali o`z pozitsiyalarini o`rnatdilar.

Sport kiyimlari sanoatining gigantlari orasida ham ajralib turadigan brend. Nike kompaniyasining «Just do it» shiori hamma uchun tanish, sodda, ammo ifodali, u deyarli butun bir avlodning shioriga aylana oldi. Nike bozorda barcha sport turlari uchun juda ko`p sport kiyimlari va aksessuarlariga ega, ammo sport poyabzali brendning eng mashhur mahsulotlari bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

Ammo nafaqat yuqori sifat kompaniya Nike kompaniyasi 1964-yildan beri yuqori

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

sifatli sport mahsulotlari bilan bir qatorda yoshlar madaniyati va moda sohasida ham katta ta'sirga ega bo'lib, brend sifatida global miqyosda muvaffaqiyat qozongan. Xip-hop madaniyati va reklama kampaniyalari orqali Nike yoshlarni jalb qilmoqda. 2022-yil holatiga ko`ra, kompaniyaning sof daromadi 4,5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Adidas Germaniyaning kichik shaharchasidagi oilaviy biznesdan sof daromadi 0,72 milliard yevro (2015-yil holatiga ko`ra) bilan dunyodagi eng yirik sport kiyimlari ishlab chiqaruvchilardan biriga aylanish yo`li oson bo`lmagan va faqat professional sport uchun, shuningdek, moda va uslubni biluvchilar uchun yangi yechimlarni yaratishga doimiy intilish kompaniyaga uni muvaffaqiyatli yengishga imkon berdi. Adidas oilaviy biznes sifatida kichik shaharchada boshlangan, ammo doimiy innovatsiyalar va professional sportga yo'naltirilgan mahsulotlari tufayli dunyoning yetakchi sport kiyimlari ishlab chiqaruvchilaridan biriga aylangan.

Adidas bugungi kunda kriket, basketbol, golf, tennis, gimnastika, skeytborading, yugurish va boshqa ko`plab sport turlari uchun kiyim-kechak, poyabzal va aksessuarlarga ixtisoslashgan brend va, albatta, jahon darajasidagi futbol janglarining ajralmas qismidir. Shu bilan birga, Adidas brendi va uchta kanonik chiziqlar bilan sport leggingslari, kurtkalar, futbolkalar, qozoqlar, krossovkalar va boshqa ko`p narsalar sport uslubining cho`qqisi hisoblanadi. Adidas o'z mahsulotlarini ko'plab sport turlari uchun ishlab chiqadi va brend futbol olamida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, sport kiyimlari va aksessuarlar sohasida innovatsiyalarni ilgari suradi.

Puma brendi ostidagi kompaniyada sport anjomlari ishlab chiqariladi, AQSH, Fransiya, Shvetsariya, Ispaniya va Gonkongda korxonalariga ega. Germaniyada ishlab chiqarilgan mahsulotlari 1/3 qismi eksport qilinadi. Ularning kompression kiyim to`plamlari turli xildir – futbolkalar, shimlar, leggins, tizzadan yuqori shortilar. Har bir turi sportning bir yo`nalishiga mos keladi. Puma kompaniyasi global ishlab chiqarish va eksport tarmoqlariga ega bo'lib, sport kiyimlari assortimenti keng va har bir mahsulot turi aniq sport yo'nalishiga moslashtirilgan.

SKINS kompaniyasi kompression kiyim ishlab chiqrishning yoshlari desa bo`ladi. To`g`ri, tibbiy maqsadlarda kompressiyadan foydalanish deyarli bir asrdan beri mavjud. Ammo 90-yillarda aynan SKINS ixtirochisi nafaqat tibbiy kompressiya tamoyillarini, balki sport kontekstida qo`llash haqida o`ylagan va maqsad sari harakat qila boshlagan. SKINS brendi 1990-yillarda paydo bo'lib, tibbiy kompression prinsiplarini sport kiyimlariga tatbiq etishda innovatsion yondashuvni amalga oshirdi, bu esa sportchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi.

2002-yilda SKINS dunyodagi birinchi kompression sport kiyimlarini bozorga chiqardi. Ko`p yillar davomida professional sportchilar va havaskorlar sport kiyimlarida kompressiya afzalliklaridan bahramand bo`lishmoqda. SKINS kompaniyasi 2002-yilda sport uchun mo'ljallangan birinchi kompression kiyimlarni bozorga chiqarib, sportchilarga yangi imkoniyatlar yaratdi va hozirgi kungacha ushbu texnologiya keng qo'llanilmoqda.

1895-yilda tashkil etilgan va 1958-yilda o`z kompaniyasi sifatida tashkil etilgan Reebok yengil atletika bo`yicha jahon yetakchisi hisoblanadi. Afrika antilopasidan ilhomlangan nom bilan Reebok sifat, ilg`or tadqiqotlar va sportga bo`lgan haqiqiy ishtiyoq

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

bilan sinonimdir. Reebok ayollar kiyimlari dinamik, qulay va ko`p qirrali. Reebok ning har bir yangi kolleksiyasi shahar uslubidagi kostyumlar, ustki kiyimlar va nafas oluvchi leggingslardan tortib, amaliylik va sport innovatsiyalarining aralashmasidir. Reebok brendi o‘zining qadimiy tarixiga ega bo‘lib, yengil atletika sohasida yetakchilik qiladi. Brend nomi Afrika antilopasidan ilhomlanib, sifat va sportga bo‘lgan sadoqatni aks ettiradi.

Avstraliyaning 2XU brendi sport kiyimlari innovatsion materiallar va texnologiyalarni afzal ko`rgan va ularni o`z hayoti va sportida muvaffaqiyatli qo`llaydigan sport ishqibozlari va professional sportchilar uchun mo`ljallangan kompaniya. 2XU brendi innovatsion texnologiyalar va materiallarga asoslangan mahsulotlari bilan sport va kundalik hayot uchun mos keladi, ayniqsa uzoq vaqt tik yoki o‘tirib ishlaydiganlar uchun foydalidir. Sport bilan bir qatorda, 2XU dan kundalik hayotda ham foydalanish mumkin, ayniqsa, tik turib yoki o`tirgan holda ko`p vaqt sarflaydiganlar insonlar.

Nike - sport kiyimlari va aksessuarlar bo`yicha eng yirik brendlardan biridir. U 1964 yilda asos solingan bo`lib, bugungi kunda global miqyosda tanilgan. Nike innovatsion texnologiyalar, masalan, «Nike Air» va «Flyknit» kabi materiallardan foydalanadi. Brend, shuningdek, sportchilarni qo`llab-quvvatlash va ularga inspiratsiya berish maqsadida turli xil marketing kompaniyalarini olib boradi. Nikening muvaffaqiyati ko`plab sportchilar va jamoalar bilan hamkorlik qilishida ham yotadi. Nike kompaniyasi 1964-yilda tashkil topib, innovatsion mahsulotlar va kuchli marketing strategiyalari bilan jahon sport kiyimlari bozorida yetakchi o‘rinlarni egallagan. ‘Nike Air’ va ‘Flyknit’ texnologiyalari brendning eng muhim yangiliklaridan biridir.

Adidas - 1949 yilda tashkil etilgan nemis brendi bo`lib, sport kiyimlari va aksessuarlar sohasida katta obro`ga ega. Adidas «Boost» texnologiyasi bilan mashhur bo`lib, bu material energiyani qayta tiklash imkonini beradi. Brend, shuningdek, ekologik mas`uliyatini oshirish maqsadida qayta ishlangan materiallardan foydalanishga e`tibor qaratmoqda. Adidas o`zining «Originals» liniyasi orqali ko`plab yosh avlodlarga yo`naltirilgan dizaynlar taklif etadi.

Puma 1948 yilda asos solingan bo`lib, sport kiyimlari va aksessuarlar sohasida o`z o`rnini topgan brenddir. U innovatsion dizaynlar va rang-barang uslublari bilan ajralib turadi. Puma, shuningdek, mashhur sportchilar va mashhurlar bilan hamkorlik qilib, o`z mahsulotlarini yanada jozibador qiladi. Brend «Puma Ignite» va «Puma RS-X» kabi seriyalar orqali sport va moda o`rtasidagi chegara ortidan o`tishni maqsad qiladi. Puma brendi o‘zining innovatsion dizaynlari va keng assortimentdagi mahsulotlari bilan sport va moda bozorida o‘ziga xos o‘rin tutgan.

2XU - avstraliyalik sport kiyimlari brendi bo`lib, yuqori texnologiyali materiallar va innovatsion dizaynlar bilan tanilgan. Brend, asosan, sportchilar uchun funksional kiyimlar ishlab chiqaradi, masalan, kompressiya kiyimlari, sport ko`ylaklari va shimlar. 2XU mahsulotlari yuqori darajadagi chidamlilik, qulaylik va harakat erkinligini ta`minlaydi. Ular shuningdek, sportchilar uchun tikuv usullari va materiallar yordamida mushaklarni qo`llab-quvvatlashga qaratilgan. 2XU brendi yuqori texnologiyalar va sportchilarga mo‘ljallangan dizaynlarni birlashtirib, sport kiyimlari bozorida o‘z o‘rnini mustahkamladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Reebok-ingliz brendi bo`lib, 1958 yilda tashkil etilgan. U sport va fitnes kiyimlari, shuningdek, poyabzal ishlab chiqaradi. Reebok, o`zining «Classic» va «Cross Fit» seriyalari bilan mashhur. Brend, shuningdek, fitnes va sog`lom turmush tarzini targ`ib qilishga qaratilgan ko`plab marketing kompaniyalarini o`tkazadi. Reebok mahsulotlari, qulaylik va innovatsion dizayn bilan ajralib turadi, shuningdek, jahon bo`ylab ko`plab sportchilar va mashhurlar bilan hamkorlik qiladi.

Skins - kompressiya kiyimlari bo`yicha yetakchi brend hisoblanadi. U 1996 yilda Avstraliyada tashkil etilgan bo`lib, sportchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan mahsulotlarni taklif etadi. Skins kiyimlari mushaklarni qo`llab-quvvatlash, qon aylanishini yaxshilash va tiklanishni tezlashtirishga yordam beradi. Brend yuqori sifatli materiallar va innovatsion texnologiyalar bilan ajralib turadi, bu esa sportchilar uchun qulaylik va maksimal samaradorlikni ta`minlaydi, yuqori sifatli kompression kiyimlari bilan sportchilarning tiklanish va mushaklarni qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini yaxshilaydi.

Nike kompression kiyimlarida **mushak vibratsiyasini kamaytirish, qon aylanishni yaxshilash** va **termoregulyatsiya**ga katta e’tibor beradi. Nike kompression kiyimlari mushaklarning tebranishini kamaytirishga, qon aylanishini yaxshilashga va termoregulyatsiyani boshqarishga qaratilgan laboratoriya sinovlari bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Brend professional sportchilar bilan laboratoriya sinovlarini olib boradi.

Adidas kompression kiyimlari anatomik moslashuv va zonali bosim printsiplariga tayangan holda mushaklarni qo‘llab-quvvatlash va optimal harakat imkoniyatlarini yaratadi.

Puma kompaniyasi yengil va qulay sport kiyimlari ishlab chiqarishga katta e’tibor beradi, bu esa sportchilar uchun harakat erkinligini ta’minlaydi.

2XU **tibbiy gradiyent kompressiya** tamoyillariga asoslangan va sport fiziologiyasi bilan chambarchas bog‘langan.

Reebok CrossFit va kuch mashqlariga mo‘ljallangan **mustahkam va elastik** kompression kiyimlar ishlab chiqaradi.

Skins **ilmiy asoslangan kompression kiyimlar bo‘yicha yetakchi** brendlardan biri bo‘lib, mushaklarni to‘g‘ri pozitsiyada ushlab turishga qaratilgan.

Nike, Adidas, Puma 2XU, Reebok va Skins sport kiyimlari sanoatida global yetakchilar hisoblanadi. Har bir brend o`zining noyob texnologiyalari, dizayn yondashuvlari va marketing strategiyalari bilan ajralib turadi. Ular sportchilik va moda olamida doimiy ravishda innovatsiyalar kiritib, iste`molchilar uchun yuqori sifatli va qulay mahsulotlar taqdim etmoqda. Bu brendlar o`zaro raqobat qilib, sport kiyimlari sanoatini rivojlantirishga katta hissa qo`shmoqda.

Nike, Adidas va Puma brendlari kompression kiyimlar ishlab chiqaradi, lekin ba’zan mahsulotlarning nomi rasmiy katalogda “compression”, “base layer”, “tight” yoki “sleeve” deb belgilanadi,ya’ni bu siqishni qo‘llab-quvvatlash texnologiyalari turli nomlar ostida taqdim etiladi. Masalan, kompression leg sleeve - bu yagona oyog‘ uchun mushaklarni siqish kiyimi bo‘lib, basketbol va boshqa sportlarda ishlatiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kompression sport buyumlarini ishlab chiqishda elastik trikotaj materiallarning strukturaviy, fizik-mexanik va siqish xususiyatlari inson

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

tanasining antropometrik ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Kompression kiyimlarning shinamligi va funksionalligi nafaqat material tarkibi, balki to‘qima turi, elastomer iplar ulushi hamda texnologik parametrlarning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liqligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida kompression sport kiyimlarida hosil bo‘ladigan me’yorlashgan bosim mushaklarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, harakat samaradorligini oshirishi hamda sportchi organizmiga fiziologik jihatdan ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi. Elastik trikotaj materiallarning deformatsiyalanish va tiklanish jarayonlari tahlili asosida ularning uzoq muddatli ekspluatatsiya jarayonida barqaror ishlash imkoniyatlari belgilab berildi.

O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos innovatsion kompression sport buyumlarini yaratish imkoniyati mavjudligi aniqlanib, mahalliy xom-ashyodan foydalangan holda yuqori sifatli, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning ilmiy-texnologik asoslari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari sport va sport-tibbiy kiyimlar assortimentini kengaytirish, ularning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish hamda yengil sanoat va sport sanoatini texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Mazkur dissertatsiya ishida olingan ilmiy va amaliy natijalar kompression sport buyumlarini loyihalash, ishlab chiqarish va takomillashtirish jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda sportchilar va aholining keng qatlamlari uchun qulay va funksional kiyimlar yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Петрова Н. А. История и современное развитие мировых спортивных брендов // Экономика и управление. — 2018. — №3. — С. 48-54
2. Смирнова Т. А. Анализ мирового рынка спортивной одежды и оборудования // Вестник экономики. — 2019. — №7. — С. 67-72.
3. Иванов В. И. Маркетинговые стратегии спортивных брендов // Маркетинг и реклама. — 2021. — №5. — С. 30-36.
4. Anvarovna, C. D. (2024). TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

KORXONALARDA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.

J.A. Alijonov., Toshkent kimyo-texnologiya instituti assistenti**,** Toshkent, O‘zbekiston.
Shonazarova Dilnura, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Logistika 24-58” guruhi talabasi, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda zamonaviy boshqaruv usullarining roli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt (AI), "tejamkor ishlab chiqarish" (Lean management), Agile va ESG tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri yoritilgan. Maqolada resurslarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma’lumotlar tahlilidan foydalanishning afzalliklari asoslab berilgan. Xulosa qismida korxonalarda KPI va OKR tizimlarini joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — zamonaviy boshqaruv vositalarining resurslarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilishdagi rolini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali — raqamli transformatsiya sharoitida qo‘llanilayotgan zamonaviy boshqaruv amaliyotlari. tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va case-study metodlari qo‘llaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ai, lean management, agile va esg tamoyillarini joriy etish resurslarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va biznes barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. kpi va okr tizimlaridan foydalanish strategik boshqaruvni kuchaytiradi va natijalarni aniq baholash imkonini beradi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, zamonaviy boshqaruv usullari raqamli davrda korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. KPI va OKR tizimlarini joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, Lean management, iqtisodiy samaradorlik, strategik boshqaruv, innovatsion boshqaruv, sun’iy intellekt, KPI,OKR.

ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФИЦИЕНТНОСТИ ЗА СЧЕТ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

Дж.А. Алиджонов, доцент, Ташкентский институт химической технологии, Ташкент, Узбекистан.
Шоназарова Дилнура, Ташкентский институт химической технологии, студентка, группа «Логистика 24-58», Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется роль современных методов управления в обеспечении конкурентоспособности предприятий в условиях глобализации и цифровой экономики. Исследование освещает влияние внедрения искусственного интеллекта (ИИ), «бережливого производства» (бережливого менеджмента), гибких методологий (Agile) и принципов ESG на экономическую эффективность. В статье обосновываются преимущества использования анализа данных для оптимизации ресурсов, снижения затрат и принятия управленческих решений. В заключении приводятся практические рекомендации по внедрению систем KPI и OKR на предприятиях.

ЦЕЛЬ: цель исследования — определить роль современных инструментов управления в оптимизации ресурсов, снижении затрат и принятии эффективных управленческих решений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования являются современные практики управления, применяемые в условиях цифровой трансформации. В работе использованы методы сравнительного анализа, системного подхода и кейс-стади (изучение конкретных ситуаций).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты анализа показали, что внедрение ИИ, бережливого производства (Lean), Agile и принципов ESG способствует оптимизации ресурсов, сокращению издержек и повышению устойчивости бизнеса. Использование систем KPI и OKR укрепляет стратегическое управление и позволяет точно оценивать достигнутые результаты.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что современные методы управления играют важную роль в обеспечении конкурентоспособности предприятий в цифровую эпоху. Практические рекомендации по внедрению систем KPI и OKR способствуют повышению эффективности корпоративного управления.

Ключевые слова: цифровая трансформация, Бережливый менеджмент, экономическая эффективность, стратегическое управление, инновационный менеджмент, искусственный интеллект, KPI, OKR.

INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY THROUGH MODERN MANAGEMENT METHODS IN ENTERPRISES.

J.A. Alijonov., Assistant Professor, Tashkent Institute of Chemical Technology, Tashkent, Uzbekistan.
Shonazarova Dilnura, Tashkent Institute of Chemical Technology, Student, Group “Logistics 24-58, Tashkent, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the role of modern management methods in ensuring the competitiveness of enterprises in the context of globalization and the digital economy. The study highlights the impact of the introduction of artificial intelligence (AI), "lean production" (Lean management), Agile and ESG principles on economic efficiency. The article substantiates the advantages of using data analysis in optimizing resources,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

reducing costs and making management decisions. The conclusion provides practical recommendations for the implementation of KPI and OKR systems in enterprises.

AIM: the aim of the study is to determine the role of modern management tools in resource optimization, cost reduction, and effective management decision-making.

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of modern management practices applied in the conditions of digital transformation. Comparative analysis, a systematic approach, and case-study methods are employed in the study.

RESULTS AND DISCUSSION: the results of the analysis showed that the implementation of AI, Lean management, Agile, and ESG principles serves to optimize resources, reduce costs, and increase business sustainability. The use of KPI and OKR systems strengthens strategic management and allows for an accurate evaluation of results.

CONCLUSION: in conclusion, modern management methods are of great importance in ensuring the competitiveness of enterprises in the digital age. Practical recommendations for the implementation of KPI and OKR systems serve to increase the efficiency of corporate governance.

Keywords: digital transformation, Lean management, economic efficiency, strategic management, innovative management, artificial intelligence, KPI, OKR.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar, bozor munosabatlarining murakkablashuvi va raqobat muhitining kuchayishi korxonalar faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Korxonalar uchun iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, foyda olish va bozor sharoitlariga moslashish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda korxonalar faoliyatini samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy boshqaruv usullari zamonaviy iqtisodiyot talablariga har doim ham to‘liq javob bera olmaydi. Hozirgi davrda tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli tizimlardan foydalanish korxona boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi zamonaviy boshqaruv usullarining korxonalarda iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilish hamda ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Korxonalarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari jahon va milliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda.

P. Druker boshqaruvni tashkilot maqsadlariga erishishda inson resurslaridan samarali foydalanish san’ati sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, samarali boshqaruvning

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

asosiy vazifasi xodimlarning bilim va salohiyatini tashkilot maqsadlariga yo‘naltirishdan iborat. [1]

Q. Abdurahmonov inson kapitalini zamonaviy korxonaning eng muhim resursi sifatida baholaydi va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun xodimlarning bilim va malakasini muntazam rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. [2]

Shuningdek, Sh.Zaynutdinov korxonalarni boshqarishda strategik rejalashtirish va moslashuvchan boshqaruv usullarining uyg‘unligini muhim omil sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, korxona faqat ichki resurslarni boshqarish bilan cheklanib qolmay, balki tashqi iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlarga tez moslasha olishi lozim.

N.K.Yo‘ldoshev esa innovatsion boshqaruv modellarini joriy etish korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

K. Shvab esa “To‘rtinchi sanoat inqilobi” konsepsiyasida raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish tizimlari korxonalar faoliyatini tubdan o‘zgartirayotganini ta’kidlaydi.

Mazkur tadqiqotda korxonalarda zamonaviy boshqaruv usullarining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, tizimli tahlil, taqqoslash, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida korxonalarda qo‘llanilayotgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari — Lean management, Agile metodologiyasi, sun’iy intellekt texnologiyalari hamda KPI va OKR tizimlarining samaradorligi o‘rganildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari hamda ilmiy adabiyotlar asosida korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida mehnat unumdorligi va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish orqali zamonaviy boshqaruv usullarining korxonalar iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Korxona boshqaruvi – bu tashkilot faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish jarayonlari majmuasidir. Uning asosiy maqsadi mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali korxonaning strategik maqsadlariga erishishni ta’minlashdan iborat.



Zamonaviy sharoitda korxonani boshqarish mexanizmi bir nechta o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topadi. Avvalo, iqtisodiy qonunlar va bozor mexanizmlari korxona faoliyatining umumiy yo‘nalishini belgilaydi. Ikkinchidan, raqamli transformatsiya va tejamkor ishlab chiqarish tamoyillari resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Uchinchidan, Agile va Lean kabi zamonaviy boshqaruv usullari korxonaga bozor o‘zgarishlariga tez moslashish imkonini beradi. Nihoyat, KPI va OKR kabi tizimlar orqali boshqaruv jarayonlari aniq ko‘rsatkichlar asosida nazorat qilinadi.

Strategik boshqaruv korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash va ularni amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv jarayonidir. Strategik rejalashtirish jarayonida SWOT va PESTLE tahlillari kabi usullar keng qo‘llaniladi.

Innovatsion boshqaruv esa yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli tizimlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu boshqaruv yo'nalishi bo'yicha ilmiy-texnikaviy rivojlanishga yo’l ochib beradi va yangi g'oyalarni joriy qiladi. Zamonaviy innovatsion boshqaruvda Agile va Lean texnologiyalari keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va ma'lumotlarga dasturiy qaror qabul qilish tizimlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Innovatsion boshqaruv mahsulotlarini ishlab chiqarishni ishlab chiqarishga undaydi va yangi mahsulotlarni bozorga tez chiqarishga xizmat qiladi. **Misol:** Kichik kafeda QR kod orqali buyurtma qabul qilinishga ruxsat berildi. Bu tizim xizmatini tezlashtirdi va kutish vaqtini 15% ga kamaytirdi. Shu bilan birga, qoniqishi oshdi va sotuvlar 20% ga ortadi. Innovatsion boshqaruv uchun bozor talablarini oldindan prognoz qilish qiladi. Misol uchun, qarorlar dasturiy ta'minot qaysi qaysi vaqtda ishlab chiqarish aniqlaydi. Innovatsion boshqaruv jarayonida doimiy o'qitish, reskilling va yangi texnologiyaga moslashish muhim. **Kanadalik iqtisodchi William Lazonick** innovatsion tajribani o'rganishda “innovatsion biznes” nazariyasini oldinga suradi. Uning fikricha, ichida innovatsiya va boshqaruvni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy xavfsizlik bo'lsa, milliy iqtisodiyotni o'sadi. Lazonickdagi daromad strukturalar va yangilanishlarning iqtisodiy tashkiliy o'ziga xos bog'liqlik e'tiboriga qaratadi, shu jumladan, mehnat faoliyatini rivojlantirish va rivojlantirish ish o'rinlari orqali innovatsion faoliyatni rivojlantiradi[1]

Inson resurslarini boshqarish zamonaviy korxona faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xodimlarning malakasini oshirish, motivatsiya tizimini rivojlantirish va qulay mehnat muhitini yaratish korxona samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, IT kompaniya yangi dasturchilarni tanlashda faqat texnik ko'rinishga emas, balki innovatsiya fikrlash haqida ham etibor beradi. Shu bilan birga, tozalashni o'qitish va malakasini tekshirish orqali xavfsizlikni tekshirish. Bank hisob qaydnomasi bank xizmatlarini boshqarish bo'yicha muntazam treninglar o'tkazish

Motivatsiya ham inson resurslarini boshqarishning ajralmas qismidir. Xodimlarni xizmati orqali sayt ishga bo'lgan tekshiruvi va korxona bilan bog'liqligi oshadi. Misol uchun, Google kompaniyasi kompaniyaga ish soatlari turli imtiyozlar taqdim etadi, bu esa yuqori motivatsiya bilan ishlashga undaydi. Xodimlarning ish faoliyatini nazorat qilish va ham harakat IRBning muhim jihatidir. Shu bilan birga, xavfsiz ish muhitini olish, ekonomik mebellar va dam olish zonalari bilan ta'minlash. Xodimlar faoliyati vaqt va moliyaviy resurslar imkoni nuqtai nazaridan ishlab chiqiladi:(1-jadval)

[1] Lazonick, William. *Chandlerian korporatsiyasi va innovatsion korxona nazariyasi* . Sanoat va korporativ o'zgarishlar. Oxford University Press, 2010

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Muhim tadbirlar	Toifa	Vaqt sarfi
Boshqaruv tizimlarini qayta ishlab chiqish va to‘lov shakllari (yakuniy natijada)	1	3 oy
Korxonalar va xodimlarni sertifikatlash dasturini ishlab chiqish	2	6 oy
Korxona xizmatlariga undan keyingi taqsimotini hisobga olgan holda tahliliy baholash asosida xodimlarni qayta tayyorlashni tashkil etish	3	6 oy
Korxonani ijtimoiy rivojlantirish uchun uzoq muddatli rejani ishlab chiqish	4	1 oy
Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash guruhini kadrlar bo‘limida tashkil etish	5	1 oy
Yosh mutaxassislar bilan ishlash bo‘yicha harakat rejasini ishlab chiqish	6	1 oy
Yetakchi kadrlar zaxirasini yaratish (Shu jumladan, o‘rta bo‘g‘in xodimlari)	7	6 oy
Universitetlar, texnik maktablar bilan shartnoma tuzish	8	Doimiy
Tanlov talablariga oid tanlov dasturlarini ishlab chiqish	9	1 oy
Korxona xavfsizligi va mehnat intizomini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish (muntazam mehnat intizomini tahlil qilish)	10	2 oy
Ishdan bo‘shatilgan mutaxassislarning ma’lumotlar bazasidan foydalanish	11	Doimiy

Korxonaning xarajatlar smetasini ishlab chiqish korxonaning moliyaviy holatiga asosan, korxonaning kadrlar siyosatini ishlab chiqishda asosiy mezonlardan biri bo‘lgan, shuningdek, o‘z-o‘zidan yoki maslahatchilar ishtirokida savollarga javob berishga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Eng muhimi, rejalashtirilgan kadrlar bo‘yicha xarajatlar korxona biznes-rejasiga kiritilishi kerak.

Moliyaviy boshqaruv esa xarajatlarni optimallashtirish, investitsiya resurslarini samarali taqsimlash va korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Iqtisodchi olim A.V.Vahobov, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda xarajatlarni optimallashtirish faqatgina tejashni emas, balki investitsiyalarni yuqori rentabellik darajasiga ega bo‘lgan loyihalarga oqilona yo‘naltirishni anglatadi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning uzoq muddatli moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi[1]."[2]

Marketing boshqaruvi iste’molchilar ehtiyojlarini o‘rganish, brendni rivojlantirish va bozor ulushini kengaytirishdir.

[2] Vahobov A.V., Ishonqulov N.F. **Moliyaviy menejment**: darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – B. 142-145.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda mehnat unumdorligi o‘rtacha 12-15 foizga yuqori bo‘lmoqda[1].[3]

Yuqorida ta’kidlanganidek, strategik rejalashtirish, innovatsiyalar va marketing yondashuvlari bir butun tizim sifatida ishlaganda korxonalar global raqobatda o‘z o‘rnini mustahkamlaydi. Tadqiqotimiz doirasida ushbu zamonaviy usullarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini quyidagi jadval orqali umumlashtiramiz: (2-jadval)

Boshqaruv usuli	Asosiy yo'nalishi (Toifa)	Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi	Tadbiq etish vaqti
Lean Management	Operatsion samaradorlik	Isrofgarchilikni kamaytirish orqali tannarxning **15-20%** ga pasayishi	6 oy
Agile metodologiyasi	Strategik moslashuvchanlik	Bozor o'zgarishlariga javob berish tezligining **30%** ga oshishi	Doimiy
Sun'iy intellekt (AI)	Raqamli transformatsiya	Qaror qabul qilish va prognozlash aniqligining **25%** ga ortishi	2 oy
KPI va OKR tizimi	Inson resurslari boshqaruvi	Xodimlar mehnat unumdorligining **10-15%** ga o'sishi	1 oy
ESG tamoyillari	Barqaror rivojlanish	Korxonaning investitsion jozibadorligi va brend qiymatining ortishi	Doimiy

Ushbu raqamli tahlil shuni tasdiqlaydiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi faqatgina resurslarni tejash bilan emas, balki ularni intellektual boshqarish bilan ham bog'liqdir. **M.Q. Pardaev** ta'kidlaganidek, iqtisodiy tahlil jarayonida resurslar qaytimi (ROI) ko'rsatkichining bunday o'sishi korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, kadrlar siyosatiga kiritilgan xarajatlar biznes-rejaning ajralmas qismi sifatida ko'rilishi, kelajakda yuqori iqtisodiy natija beruvchi investitsiya hisoblanadi.[4]

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 2026-yilda iqtisodiy samaradorlikka erishishning eng qisqa yo'li - bu texnologik innovatsiyalarni moslanuvchan boshqaruv (Agile) bilan birlashtirishdir. Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning kadrlar siyosati va marketing strategiyasining bir butun tizim sifatida ishlashiga bog‘liq. **"Kamroq resurs bilan ko'proq natija"** tamoyili asosida raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonani nafaqat moliyaviy foydaga, balki global bozorda barqaror brendga aylanishiga xizmat qiladi.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti: stat.uz – 2026-yil fevral oyi ma’lumotlari.)
[4] Pardaev M.Q. **Iqtisodiy tahlil**. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyoti", 2021. – B. 156

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Prezidentimizning 2026-yil fevral oyidagi iqtisodiy yig‘ilishlarida (press-service.uz) belgilanganidek, sanoat korxonalari oldiga mahsulot tannarxini kamida **15-20 foizga** tushirish vazifasi qo‘yildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (mineconomy.uz) tomonidan ilgari surilayotgan korxonalarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari biz taklif etgan **KPI** va **OKR** tizimlari bilan uyg‘unlashgan holda, nafaqat tannarxni pasaytirishga, balki korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Zero, 'O‘zbekiston — 2030' strategiyasining bosh maqsadi ham resurslarni intellektual boshqarish orqali yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishdir."

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish korxonalarning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar, innovatsion boshqaruv yondashuvlari hamda inson resurslarini samarali boshqarish korxonalarning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, Lean management, Agile metodologiyasi, sun’iy intellekt texnologiyalari hamda KPI va OKR tizimlarining joriy etilishi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada zamonaviy boshqaruv usullarini kompleks ravishda qo‘llash korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va global bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Drucker, P. (2007). Management: Tasks, Responsibilities, Practices. New York: Harper & Row.
2. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
3. Abdurahmonov, Q. (2020). Inson kapitalini boshqarish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Vahobov, A., Ishonqulov, N. (2019). Moliyaviy menejment. Toshkent: Iqtisod-moliya.
5. Pardaev, M. (2021). Iqtisodiy tahlil. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
6. Qosimova, M., Ergashxodjaeva, Sh. (2021). Marketing. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

UYG‘ONISH DAVRI MUSIQASINING NAZARIY ASOSLARI: POLIFONIK TAFAKKUR, KONTRAPUNKT VA MODAL TIZIM.

Yusufxon Saydaliyev, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya:

KIRISH: ushbu maqola Uyg‘onish davri musiqiy tafakkurining nazariy asoslarini ochib beradi. Bu davr polifoniya va kontrapunkt yozuvining yuqori darajada rivojlanganligi bilan tavsiflanadi. Modal tizim xususiyatlarini ochib berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu davrning yetakchi kompozitsion usuli bo‘lgan imitatsion polifoniyaning rivojlanishi, konsonans va dissonans qoidalarining evolyutsiyasi tahlil qilingan. Aynan Uyg‘onish davrining nazariy yutuqlari garmonik tilning shakllanishi va rivojlanishiga, barokko musiqiy tizimining qaror topishiga zamin yaratganligi ta’kidlanadi.

MAQSAD: uyg‘onish davri musiqasining nazariy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, xususan polifonik tafakkur, kontrapuntk va modal tizimining shakllanishi hamda rivojlanish xususiyatlarini yoritishdan iborat. Shuningdek, ushbu nazariy tamoyillarning davri musiqiy tafakkuri va ijodiy jarayonidagi ahamiyatini ochib berish ham maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tahlil va taqqoslash, so‘rov va intervyu, mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganish va xorijiy tajribani o‘rganish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: uyg‘onish davri musiqasining nazariy asoslari, avvalo, polifonik tafakkurning yuksak darajada rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda musiqa bir nechta mustaqil ovozlarning uyg‘unligi asosida qurilib, har bir ovoz o‘zining melodik mantiqiga ega bo‘ldi. Polifoniya musiqiy fikrning asosiy shakliga aylanib, badiiy ifodaning murakkab va mukammal tizimini yuzaga keltirdi. O‘rta asrlarda shakllangan dastlabki polifonik tajribalar Uyg‘onish davrida nazariy jihatdan mukammallashtirildi. Bastakorlar ovozlar o‘rtasidagi nisbatni qat’iy qoidalarga asoslab, dissonans va konsonanslardan foydalanish me’yorlarini belgiladilar. Yuqoridagi jarayon kontrapunkt san’atining rivojiga mustahkam zamin yaratdi.

XULOSA: uyg‘onish davri musiqasida shakllangan garmonik, modal va shakliy tamoyillar keyingi barokko davri musiqasi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi. Tonallik tizimining ilk unsurlari, funksional garmoniya va aniq shakllar aynan ushbu davr tajribalariga tayanib rivojlandi. Uyg‘onish davri musiqasi G‘arb musiqa san’ati tarixida muhim o‘tish bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: uyg‘onish davri, polifonik tafakkur, kontrapunkt, modal tizim, konsonans, dissonans.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МУЗЫКИ ВОЗРОЖДЕНИЯ: ПОЛИФОНИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ, КОНТРАПУНКТ И МОДАЛЬНАЯ СИСТЕМА.

Юсуфхон Сайдалиев, Государственная консерватория Узбекистана, доцента кафедры “Исполнение народных инструментов”, Ташкент, Узбекистан.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: данная статья раскрывает теоретические основы музыкального мышления эпохи Возрождения. Этот период характеризуется высоким уровнем развития полифонии и контрапунктического письма. Особое внимание уделяется раскрытию особенностей модальной системы. Проанализирована эволюция правил консонанса и диссонанса, развитие имитационной полифонии, которая являлась ведущим композиционным приемом данной эпохи. Подчеркивается, что именно теоретические достижения эпохи Возрождения заложили основу для формирования и развития гармонического языка и становления музыкальной системы барокко.

ЦЕЛЬ: научный анализ теоретических основ музыки эпохи Возрождения, в частности, формирование и развитие полифонического мышления, контрапунктической и модальной системы. Кроме того, раскрытие значения этих теоретических принципов в музыкальном мышлении и творческом процессе того периода также является основной целью статьи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использовались методы анализа и сравнения, опроса и интервью, изучения литературы по теме и зарубежного опыта.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: теоретические основы музыки эпохи Возрождения характеризуются, прежде всего, высоким уровнем развития полифонического мышления. В этот период музыка строилась на гармонии нескольких независимых голосов, каждый из которых имел свою мелодическую логику. Полифония стала основной формой музыкальной мысли, создав сложную и совершенную систему художественного выражения. Первые полифонические эксперименты, сформировавшиеся в Средние века, были теоретически усовершенствованы в эпоху Возрождения. Композиторы установили нормы использования диссонансов и консонансов, основываясь на строгих правилах соотношения голосов. Вышеуказанный процесс создал прочную основу для развития искусства контрапункта.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: гармонические, модальные и формальные принципы, сформировавшиеся в музыке эпохи Возрождения, послужили прочной основой для музыки последующего периода барокко. Первые элементы тональной системы, функциональная гармония и конкретные формы развивались именно на основе опыта этого периода. Музыка эпохи Возрождения имеет особое значение как важный переходный этап в истории западного музыкального искусства.

Ключевые слова: эпоха Возрождения, полифоническое мышление, контрапункт, модальная система, консонанс, диссонанс.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF RENAISSANCE MUSIC: POLYPHONIC THINKING, CONTRAPUNCT, AND MODAL SYSTEM.

Yusufkhon Saydaliyev, State Conservatory of Uzbekistan, Associate Professor of the Department of "Folk Instruments Performance", Tashkent, Uzbekistan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Annotation:

INTRODUCTION: this article reveals the theoretical foundations of musical thinking in the Renaissance. This period is characterised by a high level of development of polyphony and contrapuntal writing. Particular attention is paid to revealing the features of the modal system. The evolution of the rules of consonance and dissonance is analysed, as well as the development of imitative polyphony, which was the leading compositional technique of the era. It is emphasised that it was the theoretical achievements of the Renaissance that laid the foundation for the formation and development of harmonic language and the establishment of the Baroque musical system.

AIM: scientific analysis of the theoretical foundations of Renaissance music, particularly the formation and development of polyphonic thinking, the contrapuntal and modal system. Furthermore, revealing the significance of these theoretical principles in musical thought and the creative process of that period is also the main objective of the article.

MATERIALS AND METHODS: methods of analysis and comparison, questionnaires and interviews, study of literature on the topic and foreign experience were used.

DISCUSSION AND RESULTS: the theoretical foundations of Renaissance music are characterized, first of all, by the high level of development of polyphonic thinking. During this period, music was built on the harmony of several independent voices, each with its own melodic logic. Polyphony became the main form of musical thought, creating a complex and perfect system of artistic expression. The first polyphonic experiments, formed in the Middle Ages, were theoretically refined during the Renaissance. Composers established norms for the use of dissonances and consonances based on strict rules of voice proportion. The above-mentioned process created a solid foundation for the development of the art of counterpoint.

CONCLUSION: the harmonic, modal, and formal principles formed in Renaissance music served as a solid foundation for the music of the subsequent Baroque period. The first elements of the tonal system, functional harmony, and specific forms developed precisely on the basis of the experience of this period. Renaissance music is of particular importance as an important transitional stage in the history of Western musical art.

Keywords: renaissance, polyphonic thinking, counterpoint, modal system, consonance, dissonance.

Kontrapunkt uyg‘onish davrida musiqiy tafakkurning eng muhim nazariy yo‘nalishiga aylandi. Kontrapunkt bir vaqtning o‘zida mustaqil rivojlanadigan bir nechta melodik chiziqlarning uyg‘unligini anglatadi. Bastakorlar har bir ovozni erkin, ammo umumiy musiqiy g‘oyaga bo‘ysungan holda olib borishga intildilar.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Imitatsion polifoniya uyg‘onish davrida keng qo‘llanilgan kontrapunktik usullardan biri bo‘ldi. Bu usulda asosiy musiqiy mavzu bir ovozda paydo bo‘lib, keyinchalik boshqa ovozlarda ketma-ket takrorlanadi. Imitatsiya musiqiy matnning yaxlitligini ta’minlab, asarga izchil va mantiqiy tuzilish bag‘ishladi. Polifonik tafakkur vokal musiqada ayniqsa yorqin namoyon bo‘ldi. Messa va motet kabi diniy janrlarda ovozlar o‘rtasidagi muvozanat va uyg‘unlik mukammallik darajasiga yetdi.[1] Har bir ovoz mustaqil bo‘lsa-da, umumiy ruhiy va badiiy mazmunga xizmat qildi. Musiqaning tantanavor va chuqur ruhiy ta’sirini kuchaytirdi.

Uyg‘onish davrida dissonanslardan foydalanish masalasi alohida nazariy ahamiyat kasb etdi. Bastakorlar dissonanslarni faqat muayyan sharoitlarda, masalan, o‘tuvchi yoki bezak vazifasida qo‘llashga ruxsat etdilar. Bu qat’iy qoidalar musiqiy uyg‘unlikni saqlab qolish va tinglovchi estetik didini qondirishga xizmat qildi. Polifonik tafakkurning rivoji musiqa shakllarining murakkablashuviga ham olib keldi.[2] Musiqiy asarlar aniq ichki mantiqqa ega bo‘lib, mavzularning rivoji, takrorlanishi va yakuni puxta rejalashtirildi. Musiqada intizom va aniqlik ustuvor tamoyilga aylandi.

Uyg‘onish davrida polifoniya va kontrapunkt san’ati musiqiy tafakkurning eng yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Ushbu nazariy asoslar keyingi barokko davri musiqasining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Uyg‘onish davri bastakorlarining polifonik merosi bugungi kunda ham musiqa nazariyasi va amaliyotining muhim poydevori hisoblanadi.

Uyg‘onish davri musiqasida garmoniya tushunchasi polifonik tafakkur bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Ushbu davrda garmoniya alohida mustaqil fan sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, ovozlar o‘rtasidagi vertikal munosabatlar musiqiy tafakkurning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Bastakorlar bir vaqtning o‘zida yangraydigan tovushlarning uyg‘unligini sezgi va tajriba asosida boshqardilar, keyinchalik tonallik tizimining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Uyg‘onish davri musiqasining asosiy lad tizimi modal tizim bo‘lib, u o‘rta asrlardan meros bo‘lib qolgan cherkov ladlariga tayangan. Doriy, frigiy, lidiy va miksolidiy kabi moduslar musiqa asarlarining melodik asosini tashkil etdi. Har bir modus o‘ziga xos kayfiyat va hissiy rangga ega bo‘lib, bastakorlar ularni matn mazmuniga mos holda tanladilar[3].

Modal tizim musiqiy fikrning erkin rivojlanishiga imkon berdi. Tonal markazlar qat’iy belgilanmagan bo‘lib, melodiyalar erkin harakatlandi. Bu holat musiqaning sokin, muvozanatli va tabiiy jaranglashiga xizmat qildi. Uyg‘onish davri musiqasida barokko davriga xos keskin kuchlanishlar deyarli uchramaydi, estetik muvozanat tamoyilining ustuvorligini ko‘rsatadi.

Garmonik tafakkur modal tizim doirasida rivojlanib, konsonans va dissonans munosabatlariga asoslandi. Bastakorlar mukammal intervallar – kvinta, kvarta va oktavani asosiy uyg‘unlik unsurlari sifatida qo‘lladilar. Dissonanslar esa faqat tayyorlangan va hal qilinadigan holatlarda ishlatilib, musiqiy muvozanatni buzmaslikka xizmat qildi. Uyg‘onish davrida musiqiy shakllar asta-sekin aniq tuzilishga ega bo‘la boshladi. Asarlar ichki mantiq va tartib asosida qurilib, mavzular izchil rivojlantirildi. Ayniqsa vokal janrlarda musiqiy bo‘limlar matn mazmuniga mos ravishda tashkil etildi. Musiqiy shaklning badiiy mazmun bilan uzviy bog‘liqligini ta’minladi.[4] Diniy musiqada

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

shakllanish jarayoni messa va motet misolida yaqqol ko‘rinadi. Messalarda bo‘limlar qat’iy tartibda joylashtirilib, umumiy dramatik rivoj yaratildi. Motetlarda esa erkinroq shakl ustun bo‘lib, musiqiy fikr matnning semantik tuzilishiga mos ravishda rivojlandi.

Dunyoviy musiqada musiqiy shakllar yanada moslashuvchan bo‘ldi. Madrigal va chansonlarda qisqa musiqiy frazalar tez-tez almashib, matndagi obrazlarni musiqiy vositalar bilan tasvirlash imkonini berdi. Musiqada ifodaviylik va badiiy rang-baranglikni oshirdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ismoilov K. G‘arb musiqa san’ati tarixi. 90 91 bet .
2. Jo‘rayev A. Musiqada polifoniya asoslari. – Toshkent: intrnet tarmoqlaridan olingan
3. Abdullayev A. Musiqa tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
4. Alimuhamedov R. Jahon musiqa madaniyati tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.
5. Ashurov M. Musiqa san’ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Musiqa, 2024

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

VASILIY FYODOROVICH PULATOV FAOLIYATIDA DAMLI IJROCHILIK MAKTABINING SHAKLLANISHI.

Muxitdinov M.P, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya:

KIRISH: maqola taniqli musiqachi, pedagog va jamoat arbobi Vasiliy Fyodorovich Pulatovning hayoti hamda ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Unda uning O‘zbekistonda professional damli cholg‘ular ijrochiligi maktabining shakllanishi va rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

MAQSAD: mazkur maqolaning maqsadi V. F. Pulatovning ijodiy merosini tahlil qilish hamda uning o‘zbek damli ijrochilik maktabining shakllanishidagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida tarixiy-biografik, tahliliy hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Ishda arxiv materiallari, zamondoshlarning xotiralari, Pulatovning metodik ishlari va O‘zbekiston musiqa san’ati tarixiga oid ilmiy manbalar asos bo‘lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, V. F. Pulatov faoliyati O‘zbekistonda damli cholg‘ular ijrochiligining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. U professional pedagogik maktab asoschisi bo‘lib, truba uchun konsert repertuarini kengaytirdi hamda ko‘plab iste’dodli musiqachilarni tarbiyaladi.

XULOSA: shunday qilib, Vasiliy Fyodorovich Pulatov O‘zbekiston musiqa madaniyati tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning pedagogik, ijrochilik va ilmiy-metodik faoliyati milliy damli ijrochilik maktabining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: V. F. Pulatov, truba, damli cholg‘ular, musiqiy ta’lim, ijrochilik san’ati, pedagogika, Toshkent davlat konservatoriyasi.

ФОРМИРОВАНИЕ ШКОЛЫ ДУХОВОГО ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВАСИЛИЯ ФЁДОРОВИЧА ПУЛАТОВА.

Мухитдинов М.П., Государственная консерватория Узбекистана, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: статья посвящена жизни и творческой деятельности выдающегося музыканта, педагога и общественного деятеля Василия Фёдоровича Пулатова, сыгравшего важную роль в становлении профессионального исполнительства на духовых инструментах в Узбекистане. Рассматриваются основные этапы его творческого пути, педагогическая деятельность и вклад в развитие отечественной музыкальной культуры.

ЦЕЛЬ: целью статьи является анализ творческого наследия В. Ф. Пулатова и определение его роли в формировании узбекской школы исполнительства на духовых инструментах.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе использованы историко-биографический, аналитический и сравнительный методы исследования. Материалами послужили архивные данные, воспоминания современников, методические труды Пулатова и научные публикации, посвящённые истории музыкального искусства Узбекистана.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследование показывает, что деятельность В. Ф. Пулатова оказала значительное влияние на развитие исполнительства на духовых инструментах в Узбекистане. Он стал основателем профессиональной педагогической школы, расширил концертный репертуар для трубы и воспитал целое поколение музыкантов, продолживших его традиции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: таким образом, Василий Фёдорович Пулатов занимает особое место в истории музыкальной культуры Узбекистана. Его педагогическая, исполнительская и научно-методическая деятельность сыграла важную роль в становлении и развитии национальной школы духового исполнительства.

Ключевые слова: В. Ф. Пулатов, труба, духовые инструменты, музыкальное образование, исполнительское искусство, педагогика, Ташкентская консерватория.

THE FORMATION OF THE WIND PERFORMANCE SCHOOL IN THE WORK OF VASILIY FYODOROVICH PULATOV.

Mukhitdinov M.P., State Conservatory of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan.

Annotation:

INTRODUCTION: the article is devoted to the life and creative activity of the outstanding musician, pedagogue, and public figure Vasiliy Fyodorovich Pulatov, who played a significant role in the formation of professional wind instrument performance in Uzbekistan. The study examines the main stages of his artistic career and his contribution to the development of national musical culture.

AIM: the purpose of this article is to analyze the creative heritage of V. F. Pulatov and determine his role in the formation of the Uzbek school of wind instrument performance.

MATERIALS AND METHODS: the research is based on historical-biographical, analytical, and comparative methods. The materials include archival sources, memoirs of contemporaries, Pulatov's methodological works, and scholarly publications on the history of Uzbek musical culture.

DISCUSSION AND RESULTS: the research shows that V. F. Pulatov's activities had a significant impact on the development of wind instrument performance in Uzbekistan. He became the founder of a professional pedagogical school, expanded the trumpet concert repertoire, and trained a generation of musicians who continued his artistic traditions.

CONCLUSION: thus, Vasiliy Fyodorovich Pulatov occupies a special place in the history of Uzbekistan's musical culture. His pedagogical, performing, and methodological

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

activities played an important role in the development of the national wind performance school.

Keywords: V. F. Pulatov, trumpet, wind instruments, musical education, performance art, pedagogy, Tashkent State Conservatory.

O'zbekiston damli ijrochilik san'atining shakllanishi va professional rivojlanishida muhim o'rin tutgan shaxslar orasida Vasiliy Fyodorovich Pulatov alohida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Uning hayot yo'li front jangchisi sifatidagi qahramonlik biografiyasi, nozik ijrochilik mahoratiga ega trubachi, teran tafakkurli pedagog va keng ko'lamli jamoat arbobi sifatida kamyob uyg'unlikni namoyon etadi. Toshkent davlat konservatoriyasi professori, O'zbekiston SSR xizmat ko'rsatgan artisti sifatida u nafaqat o'z davrining guvohi, balki uning faol bunyodkoriga aylandi.

1920 yilda Samarqand viloyatining Farish tumani Ravot qishlog'ida tug'ilgan Pulatov erta yoshidan yetimlikning achchiq sinovlarini boshdan kechirdi. Bolalar uyi uning uchun nafaqat boshpana, balki taqdir beshigiga aylandi. Aynan shu yerda, qat'iy tartib-intizom hukm surgan muhitda, u ilk bor musiqa bilan yuzma-yuz keldi — va bu uchrashuv uning butun hayot yo'lini belgilab berdi.

Taqdiriy lahza ramziy tusga ega edi: bir kuni bolalar uyi derazalari yonidan harbiy saf o'tadi, uning oldida esa quyosh nurlarini mis cholg'ular sadosi bilan uyg'unlashtirgan damli orkestr harakatlanardi. Bu manzara kichik Vasiliy uchun oddiy tomosha emas, balki ruhiy uyg'onish bo'ldi. Shu ondan boshlab musiqa uning uchun shunchaki qiziqish emas, ichki ehtiyojga aylandi.

Pulatovning ilk ustozi bolalar uyining havaskor damli orkestri rahbari Leonid Leonidovich Mitsevich bo'ldi. Uning rahbarligida yosh musiqachi ijrochilik asoslarini egalladi, keyinchalik esa jamoaga o'zi rahbarlik qilib, erta namoyon bo'lgan tashkilotchilik qobiliyati va dirijyorlik sezgisini ko'rsatdi. Ammo bu uyg'un rivojlanish jarayonini urush to'xtatdi.

1941 yilda, yigirma bir yoshida, Vasiliy Fyodorovich frontga yo'l oldi. U piyoda qo'shin safida eng oldingi chiziqda xizmat qildi, og'ir janglarni boshdan kechirdi, jiddiy jarohatlar oldi, biroq barcha sinovlarga qaramay Berlingacha yetib bordi. Uning harbiy hayoti fojea va g'alaba, iztirob va matonat yo'lidan iborat edi. Ko'rsatgan jasorati uchun u ko'plab orden va medallar bilan taqdirlandi.

Musiqa esa front sharoitida ham uni tark etmadi. Urushdan qaytayotib, Pulatov askarlardan damli orkestr tuzdi va uyga qaytish yo'li musiqa sadolari bilan yo'g'rildi: harbiy marshlar, valslar, urush yillari qo'shiqlari yangradi. 1945 yilda u Moskvada bo'lib o'tgan G'alaba paradida ishtirok etdi — bu voqea butun avlod xotirasiga muhrlandi.

O'sha yilning sentabr oyida u tank o'ziyurar polkiga dirijyor etib tayinlandi. Biroq muvaffaqiyatli harbiy faoliyatiga qaramay, u chuqur professional musiqiy ta'lim zarurligini anglab yetdi. Uning iste'dodi akademik asosni talab etardi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

1947 yilda Pulatov Toshkent davlat konservatoriyasiga I.V. Loginov sinfiga o‘qishga kirdi. Talabalik yillari uning badiiy va intellektual shakllanish davriga aylandi. U o‘qish jarayonida faol konsert faoliyatini olib borib, konservatoriyaning Katta va Kichik zallarida hamda radio efirida yakkaxon va kamer dasturlar bilan muntazam chiqish qildi.

1948–1953 yillar davomida u tahsilni O‘zbekiston SSR radiosi simfonik orkestrida, Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatrida ishlash bilan birga olib bordi, shuningdek musiqa bilim yurtlari va ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagoglik qildi. Bu davr uni ijrochi, orkestr artisti va pedagog sifatida har tomonlama shakllantirdi.

1953 yilda konservatoriyani a’lo baholar bilan tamomlab, davlat komissiyasi tavsiyasiga ko‘ra ijrochilik va pedagogik mahoratini yanada takomillashtirish uchun Moskvaga yo‘llanma oldi. 1956 yilda u Moskva konservatoriyasi aspiranturasini, Rossiya xalq artisti, professor G.A. Orvid sinfida (maslahatchi — M. Tabakov) muvaffaqiyatli yakunladi.

Moskvadagi ilmiy-ijodiy tajriba davri uning cholg‘u tabiatini chuqur anglash bosqichiga aylandi. Pulatov trubani nafaqat yakkaxon ifoda vositasi sifatida, balki ansambl va orkestr tovush tizimining muhim tembriy elementi sifatida ham tadqiq etdi.

Uning qiziqishlari faqat ijrochilik doirasi bilan cheklanib qolmadi: u Moskva konservatoriyasining o‘qitish metodikasi, pedagogik tamoyillari va musiqiy ta’limning tashkiliy modelini chuqur o‘rgandi hamda ushbu ilg‘or tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishni maqsad qildi.

1956 yilda Moskvadagi tahsilini yakunlab, Pulatov Toshkentga qaytadi — endi u shunchaki iste’dodli trubachi emas, balki aniq shakllangan badiiy va pedagogik dunyoqarashga ega musiqachi-intellektual edi. Shu davrdan boshlab uning faoliyati ikki teng yo‘nalishda — ijrochilik va pedagogika sohalarida — izchil rivojlanadi.

1956–1967 yillar davomida u O‘zbekiston SSR Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatri simfonik orkestrining trubachilar guruhi solist-konsertmeysteri lavozimida faoliyat yuritdi. Uning sahnadagi ijrosi tashqi effektlarga emas, balki partituraning ichki mazmunini chuqur anglashga asoslangan edi. Yakkaxon dasturlarda hamda O‘zbekiston radiosi simfonik orkestri, keyinchalik Navoiy nomidagi teatr orkestri bilan chiqishlarida zamondoshlari Pulatovning asarning obrazli-emotsional qatlamiga teran kirib borish qobiliyatini alohida e’tirof etganlar.

Uning ijrochilik uslubi tembrning olijanobligi, tovushning akademik aniqligi va frazalash madaniyatining yuksakligi bilan ajralib turardi. S. Vasilenko tomonidan yaratilgan truba va orkestr uchun konsert talqinida simfonik tafakkur kengligi bilan kamer nozik intonatsion sezgirlik uyg‘unlashgan edi. Shuningdek, o‘zbek kompozitorlari, xususan D. Zokirov asarlarining ijrosida u musiqiy matnning dramatik rel’efini yanada ravshan ochib bera oldi.

Pulatovning tashabbuskorligi O‘zbekistonda truba uchun konsert repertuarining kengayishida muhim ahamiyat kasb etdi. Uning sa’y-harakatlari natijasida Toshkent sahnalarida mazkur cholg‘u uchun jahon musiqa adabiyotining deyarli barcha yirik asarlari ijro etildi. Bundan tashqari, o‘zbek bastakorlarining bir qator yangi asarlari aynan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

uning talqinida ilk bor yangradi. Shu tariqa u trubani nafaqat yakkaxon cholg‘u sifatida ommalashtirdi, balki milliy repertuarning shakllanishiga ham salmoqli hissa qo‘shdi.

Pulatov damli cholg‘ular sohasida birinchi professor hamda Toshkent davlat konservatoriyasi damli cholg‘ular kafedrasining ilk mudiri bo‘ldi. Aynan uning rahbarligi ostida kafedra aniq tashkiliy tuzilma va puxta metodik yo‘nalishga ega bo‘ldi. Besh yil davomida u o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektor lavozimida ham faoliyat yuritib, ma’muriy mas’uliyatni faol pedagogik ish bilan uyg‘unlashtirdi.

1960 yilda damli cholg‘ular kafedrasiga Toshkent konservatoriyasini bitirgan yosh pedagoglar avlodi kirib keldi. Vasiliy Fyodorovich rahbarligida K. Azimov, R. Safarov, Yu. Kachurin, T. Fazylov, V. Verigin, G. Vergilesov, V. Salixov va boshqalar pedagogik faoliyatini boshladilar. Aynan shu davrda o‘zbek damli ijrochilik maktabining yaxlit tizim sifatidagi asoslari shakllandi.

1963 yilda Pulatovga dotsent ilmiy unvoni berildi, 1979 yilda esa professor ilmiy darajasi bilan taqdirlandi. Bu e’tirof uning ko‘p yillik fidokorona mehnatining mantiqiy natijasi edi.

1967–1971 yillar oralig‘ida u o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektor vazifasini bajardi. Mazkur lavozimda Pulatov o‘zini prinsipial, mas’uliyatli va tashkiliy jihatdan puxta rahbar sifatida namoyon etdi. U talabalarning har tomonlama rivojlanishiga — nafaqat kasbiy, balki ma’naviy kamolotiga ham alohida e’tibor qaratdi. Har bir talabani shaxsan tanir, ularning o‘zlashtirishi, shaxsiy sharoiti va turmush holati bilan qiziqar edi.

Uni noyob mehnatsevarlik, ichki intizom, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik ajratib turardi. Biroq bu qat’iylik insonparvarlik bilan uyg‘unlashgan edi. U o‘zlashtirishi sust talabalarga alohida e’tibor berar, o‘qish yoki intizomiy muammolarga duch kelganlarga yordam berishga intilar, talabalarning maishiy sharoiti va ijtimoiy ta’minoti masalalariga ham befarq bo‘lmas edi.

Uning sa’y-harakatlari va hamkasblarining jips mehnati natijasida O‘zbekistonda damli cholg‘ular ijrochiligi darajasi izchil ravishda yuksalib bordi. Natijada professional talabchanlik, badiiy chuqurlik va milliy musiqa madaniyatiga hurmat tamoyillariga asoslangan barqaror ijrochilik an’anasi shakllandi.

Uning professional biografiyasining eng muhim va konseptual jihatdan ahamiyatli bosqichlaridan biri pedagogik faoliyat bo‘lib, aynan shu sohada Pulatov shaxsiyatining haqiqiy miqyosi to‘liq namoyon bo‘ldi. Moskva konservatoriyasi aspiranturasida orttirilgan tajriba boy ijrochilik amaliyoti hamda fundamental nazariy tayyorgarlik bilan uyg‘unlashib, unga truba chalishni o‘qitishning yaxlit va ichki jihatdan puxta o‘ylangan tizimini yaratish imkonini berdi.

Uning biografiyasida alohida o‘rin tutadigan jihatlardan biri — iste’dodli musiqachilarning butun bir avlodini tarbiyalaganidir. Uning shogirdlari orasida L. Artamonov, V. Kucherov, R. Gext, D. Kuchmiy, M. Muxitdinov, Yu. Parfyonov, A. Selyanin, V. Verigin, V. Sobolevskiy, A. Gadjiev, G. Terzyan, Z. Ergashyev, B. Matniyazov va boshqalar bor. Bu nomlar ustozning pedagogik ta’siri naqadar keng qamrovli bo‘lganini yaqqol tasdiqlaydi: ularning har biri u shakllantirgan ijrochilik an’analarining davomchisi va tashuvchisiga aylandi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

1977 yilda Pulatov O‘zbekiston SSR xizmat ko‘rsatgan artisti unvoni bilan taqdirlandi. Bu e’tirof uning ijrochilik va pedagogik faoliyatining mantiqiy yakuni, mehnatining yuksak bahosi edi.

Uning metodik adabiyotga qo‘shgan hissasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asarlari qatorida «Truba chalish maktabi» (1979), shuningdek ijrochilik texnikasining muhim masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlari mavjud: mundaushtukni lablarga to‘g‘ri qo‘yish, uning joylashuvini o‘zgartirish tamoyillari, mis damli cholg‘ularda chalishda lab va yuz mushaklarini rivojlantirishning uch prinsipi, boshlang‘ich hamda professional ta’lim metodikasi muammolari va boshqalar. Mazkur tadqiqotlar ilmiy asoslanganligi, amaliy yo‘naltirilganligi hamda ijrochilik apparatini shakllantirishga tizimli yondashuvi bilan ajralib turadi.

1994 yilda Toshkent davlat konservatoriyasini professorning truba sinfi bo‘yicha so‘nggi shogirdlari tamomladilar. Sog‘lig‘i sababli u rasmiy lavozimini tark etishga va xizmatdan chiqishga majbur bo‘ldi. Biroq uning hayotida “nafaqa” tushunchasi faqat rasmiy maqom sifatida mavjud edi.

Yetmish yoshdan oshganiga qaramay, Pulatov shogirdlari bilan mashg‘ulotlarni davom ettirdi, ularni xalqaro tanlovlarga tayyorladi, hakamlar hay’ati tarkibida faoliyat yuritdi, ilmiy ma’ruzalar bilan chiqdi va kasbiy muhokamalarda ishtirok etdi. U yuksak obro‘-e’tiborga erishgan, tan olingan va hurmat qozongan edi; istasa, osoyishta hayot kechirishi mumkin edi. Ammo musiqa uning uchun kasb emas, balki hayotiy zarurat, ma’naviy ehtiyoj bo‘lib qolaverdi.

Uning hayotiy va professional yo‘lining ajralmas qismi turmush o‘rtog‘i — Mariya Ivanovna Pulatovaning yordami va qo‘llab-quvvatlashi bo‘lgan. Ko‘p yillar davomida u ishonchli tayanch bo‘lib, haqiqiy ijodiy mehnat uchun zarur bo‘lgan ichki osoyishtalik va barqarorlik muhitini yaratdi. Uni kundalik tashvishlardan xalos etib, eng muhim narsani — san’atga jamlangan holda xizmat qilish imkoniyatini asrab-avayladi. Ushbu oilaviy ittifoqda shaxsiy va kasbiy hayotning noyob uyg‘unligi namoyon bo‘ldi; oilaga sadoqat badiiy mukammallikning muhim shartiga aylandi.

Taqdir go‘yo uning ko‘p yillik mehnatlarining mantiqiy natijasini tasdiqlagandek, hayotining so‘nggi davrida yana bir yuksak e’tirofni tuhfa etdi. 1997 yilda Pulatov International Trumpet Guild tomonidan taklif etildi va ushbu tashkilotning faxriy a’zosi etib saylandi. Bu voqea shunchaki rasmiy maqom emas, balki chuqur ramziy ahamiyatga ega edi: xalqaro trubachilar hamjamiyati uning damli san’at rivojiga qo‘shgan hissasini jahon miqyosidagi hodisa sifatida e’tirof etdi.

2000 yil 26 noyabr kuni Vasiliy Fyodorovich Pulatov vafot etdi. U o‘zining sakson yillik yubileyiga atigi bir oy va uch kun qolgan edi.

Vasiliy Fyodorovich Pulatov nomi damli san’at tarixiga professional sha’n, badiiy teranlik va tovushga fidokorona sadoqat timsoli sifatida abadiy muhrlangan. Va kontsert zallarida tiniq hamda olijanob tembr bilan jaranglayotgan truba sadosi mavjud ekan, uning musiqa ruhiy qudratiga bo‘lgan so‘nmas ishonch bilan yaratgan an’anasi ham yashayveradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Pulatov V. F. Truba chalish maktabi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
2. Azimov K. O‘zbekistonda damli cholg‘ular ijrochiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 1995.
ehtiyojlari bo‘lgan shaxsdir. An’anaviy ta’limda barcha o‘quvchilarga bir xil metod, bir xil topshiriq, bir xil mazmun taklif etiladi. Bu esa ayrim o‘quvchilar uchun ortiqcha, boshqalar uchun yetarli bo‘lmay qoladi. Innovatsion yondashuv esa har bir shaxsning individual rivojlanish trayektoriyasini yaratishga asoslanadi. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga binoan o‘quvchi o‘z imkoniyatidan biroz yuqoriroq, lekin erishish mumkin bo‘lgan vazifalar orqali rivojlanadi. Interfaol metodlar, moslashtirilgan topshiriqlar, guruhli ishlar, individual loyihalar aynan shu tamoyilga tayanadi. Masalan, o‘quvchilar guruhlarga ajratilib, biri manbani tahlil qiladi, boshqasi xarita bilan ishlaydi, yana biri statistik jadvalni talqin qiladi. Bu holat har bir o‘quvchining kuchli tomonini yuzaga chiqaradi.

Fanlararo integratsiya ham innovatsion yondashuvlarning asosiy maqsadi sifatida ko‘riladi. Tarix biologiya, geografiya, adabiyot, texnologiya, matematika, iqtisodiyot kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq. Masalan, “Industriyalashuv davri”ni iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘lash, “Buyuk geografik kashfiyotlar”ni geografiya bilan integratsiya qilish, “Temuriylar Renessansi”ni adabiyot va san’at bilan birgalikda o‘rganish kompleks dunyoqarashni shakllantiradi. Bu yondashuv talabaning voqelikni bir butun, tizimli, umumiy qonuniyatlar asosida anglashiga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya zamonaviy ta’lim jarayonining mohiyatini, mazmunini va natijalarini aniq belgilab, o‘qitish faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiluvchi kompleks tizimdir. U ta’limni oddiygina dars o‘tish jarayoni sifatida emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va baholash komponentlaridan iborat bo‘lgan yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘radi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim jarayonini oldindan rejalash, har bir bosqichni loyihalash, jarayonni boshqarish va natijaga kafolatli tarzda erishishni ko‘zda tutadi. Shu bois pedagogik texnologiya nafaqat o‘qitish usullari to‘plami, balki o‘quvchining rivojlanishini ta’minlovchi tizimli, ilmiy asoslangan, natijaga yo‘naltirilgan ta’lim modeli sifatida talqin qilinadi. Pedagogika ilmida texnologiya tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol qo‘llanila boshladi. Masalan, B. Bloom, J. Carroll, R. Gagné, L. Vygotskiy, J. Bruner kabi olimlar ta’lim jarayonini boshqariladigan, natijani oldindan belgilab qo‘yish mumkin bo‘lgan tizim sifatida tahlil qilib, hozirgi zamonaviy texnologik yondashuvlarning shakllanishiga asos solgan.

Pedagogik texnologiyaning markazida “ta’limni loyihalash” g‘oyasi turadi. Bunda o‘qituvchi maqsadni belgilaydi, natijaning mezonlarini aniqlaydi, shu natijaga eltuvchi dars mazmunini tanlaydi, tegishli metodlar, vositalar va baholash mexanizmlarini rejalashtiradi. Barcha komponentlar yagona tizim sifatida ishlashi kerak, aks holda natija kafolatlanmaydi. Texnologik yondashuvning kuchi shundaki, u darsni tasodifiy tashkil etishga yo‘l qo‘ymaydi. Har bir bosqich ilmiy asosda bosqichma-bosqich rejalashtiriladi, dars jarayoni esa “oldindan loyihalangan pedagogik muhandislik” sifatida ko‘riladi. Bu yondashuv klassik metodikani inkor etmaydi, aksincha uni tizimlashtiradi va natijaga yo‘naltiradi.

Pedagogik texnologiya va metodika tushunchalari ko‘pincha bir-biriga yaqin talqin qilinadi, ammo ularning o‘rtasida sezilarli nazariy va amaliy farqlar mavjud. Metodika – bu o‘qitishning alohida usullari, yo‘llari, topshiriqlari, gigienik-tashkiliy shakllarini belgilab beruvchi tizim bo‘lib, u asosan “qanday o‘qitish kerak?” degan savolga javob beradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Metodika o‘qitish jarayonidagi usullarni belgilasada, butun jarayonni boshqarish, natijani kafolatlash yoki o‘quvchi rivojlanish trayektoriyasini aniqlashni o‘z zimmasiga olmaydi. Pedagogik texnologiya esa ancha keng tushunchadir, u ta’lim jarayonining har bir qadamini oldindan rejalashtiradi, o‘lchab bo‘ladigan natijani belgilaydi, natijaga erishish uchun aniq algoritm yaratadi va o‘quvchi faoliyatining har bir bosqichini boshqaradi. Texnologiya “qanday qilib kafolatli natijaga erishamiz?” degan savolga javob beradi.

Metodika darsning ichki jarayoniga suhbat, ko‘rgazmali qurol, izohlash, mustahkamlash, mashq kabi usullarga tayanadi. Texnologiya esa jarayonning umumiy boshqaruv modelidir: maqsad → mazmun → metod → vosita → tashkiliy shakl → baholash → monitoring ketma-ketligida ishlaydi. Bu ketma-ketlik texnologiyaning asosiy belgisi bo‘lib, dars natijasi aynan shu tizim davomida kafolatlanadi. Shu sababli metodika texnologiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, texnologiya esa butun dars jarayonini boshqaradigan konseptual yondashuvdir.

Ta’lim texnologiyasining amaliy modeli – bu o‘qitish jarayonini oldindan ilmiy asosda puxta rejalash, jarayonni aniq bosqichlarga ajratish, o‘quvchi faoliyatini samarali boshqarish va kutilgan natijaga kafolatli tarzda erishishni nazarda tutuvchi pedagogik mexanizmdir. Ta’lim texnologiyasi o‘qituvchining tasodifiy ish yuritishini istisno qiladi, aksincha, u darsga tayyorlanishning aniq algoritmga asoslangan bo‘lishini talab qiladi. Bu algoritm avvalo maqsadni belgilashdan boshlanadi, chunki dars qanday natijaga eltishi kerakligi maqsad orqali aniqlanadi. Shundan so‘ng kutilgan natijalar belgilanadi – qaysi kompetensiyalar shakllanadi, o‘quvchi qaysi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi lozim. Keyingi bosqichda baholash mezonlari aniqlanadi, natijani qanday o‘lchash, qanday diagnostika qilish, qanday shaklda teskari aloqa berish rejalashtiriladi. Bundan keyin metodlar tanlanadi, vositalar belgilanadi, amaliy va tahliliy topshiriqlar tuziladi, yakunda o‘qituvchi dars samaradorligini tahlil qiladi.

Bu jarayon Vygotskiy, Bruner, Gagné, Bloom kabi ta’lim nazariyotchilarining fikrlarini birlashtiradi, ta’lim jarayonining samaradorligi oldindan loyihalangan struktura bilan ta’minlanadi. Masalan, Brunerning konstruktivizm yondashuvi shuni ta’kidlaydiki, o‘quvchi bilimni o‘zi kashf qilganida uni chuqurroq o‘zlashtiradi. Shu sababli texnologik yondashuvda interfaol metodlar alohida o‘rin tutadi. Klaster, Venn diagramma, Fishbone, debat, guruhli ishlar, muammoli vaziyatlar, loyiha asosida o‘qitish, rolli o‘yinlar, “aqliy hujum” kabi metodlar o‘quvchini faollashtirish, fikrni mustaqil shakllantirish va bilim yaratish jarayoniga jalb qilish uchun qo‘llaniladi.

Ta’lim texnologiyasining amaliy modelida o‘qituvchi darsni oddiy ma’lumot yetkazish shaklida emas, balki o‘quvchining bilish faoliyatini boshqaradigan va uni faollashtiradigan pedagogik tizim sifatida quradi. Darsning har bir bosqichi o‘z logikasiga ega bo‘ladi: kirishda motivatsiya, asosiy qismda faol tahlil, yakunda umumlashtirish va refleksiya jarayoni shakllantiriladi. Bu jarayon talabani “jarayon markazi”ga qo‘yadi. Deweyning “ta’lim – bu tajribani qayta qurish jarayonidir” degan fikri aynan texnologik yondashuvning amaliy mazmunini ifodalaydi.

Ta’lim texnologiyasining eng amaliy ko‘rinishi – bu darsning texnologik xaritasidir. Texnologik xarita – darsning batafsil, ilmiy asoslangan, oldindan loyihalangan rejasidir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Unda darsning maqsadi, vazifalari, kutilgan natijalar, kompetensiyalar, baholash mezonlari, metodlar, vositalar, dars bosqichlari, topshiriqlar tizimi va refleksiya aniq ko‘rsatiladi. Texnologik xarita darsni “ijtimoiy konstruktsiya” sifatida ko‘rsatadi, ya’ni o‘qitish jarayoni tasodifga emas, balki ilmiy loyihaga tayanadi.

Texnologik xaritaning birinchi bo‘limida darsning maqsadi va kutilgan natijalari belgilanadi. Maqsad darsning boshqaruvchi komponenti bo‘lib, u o‘quvchi qanday kompetensiyalarni egallashi kerakligini ko‘rsatadi. Masalan, tarix darsida kutilgan natijalar quyidagilar bo‘lishi mumkin: sabab-oqibatni aniqlash, manbani tahlil qilish, tarixiy xaritani o‘qish, davrlararo bog‘lanishni ko‘rish, tarixiy baho berish. Bu kompetensiyalar o‘quvchining bilish faoliyatini aniq yo‘naltiradi va darsning metodik asosini belgilaydi.

Texnologik xaritaning ikkinchi bo‘limi – baholash mezonlaridir. Bu yerda o‘quvchining natijaga erishishi qanday tekshirilishi ko‘rsatiladi. Formativ (jarayon davomida baholash) va summativ (yakuniy natija) baholashning uyg‘unligi dars sifatini oshiradi. Baholash mezonlari o‘qituvchi va o‘quvchi uchun “ko‘rinadigan” bo‘lishi kerak, chunki bu darsning shaffof va aniq bo‘lishini ta’minlaydi. “O‘quvchi manbadan dalil ajratdi – 1 ball”, “Sabab-oqibatni asoslay oldi – 2 ball”, “Xulosa chiqardi – 1 ball” kabi aniq mezonlar jarayonni nazorat qiladi.

Darsning texnologik xaritasida metod va vositalar ham batafsil ko‘rsatiladi. Interfaol metodlar “Aqliy hujum”, “Insert”, “T-jadval”, “Sinkveyn”, “Jigsaw”, “Debat”, “Case study”o‘quvchini faollashtiradi. Vositalar esa darsning ko‘rgazmalilik komponentidir: xarita, diagramma, infografika, slayd, video, animatsiya, elektron resurslar, QR-kodli topshiriqlar. Mayerning multimodal o‘qitish nazariyasi bo‘yicha ko‘rgazmali vositalar bilan boyitilgan dars o‘quvchida kuchli idrok uyg‘otadi.

Topshiriqlar tizimi texnologik xaritaning eng muhim komponentlaridan biridir. Har bir darsda mantiqiy, amaliy, tahliliy va ijodiy topshiriqlar bo‘lishi kerak. Masalan, tarixiy matndan dalil ajratish – tahliliy topshiriq; xaritada davlat chegaralarini belgilash – amaliy topshiriq; tarixiy shaxsga xat yozish – ijodiy topshiriq; ikki davrni taqqoslash – mantiqiy topshiriq. Bu tizim o‘quvchi tafakkurini kengaytiradi, uning darsdagi ishtirokini ta’minlaydi va bilimni mustahkamlaydi.

Refleksiya texnologik xaritaning yakuniy qismi bo‘lib, o‘quvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi. “Bugun nimani bildim?”, “Qaysi metod menga yordam berdi?”, “Qaysi qiyinchiliklarga duch keldim?” kabi savollar o‘quvchini o‘zini anglashga undaydi va intellektual o‘sish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Pedagogik usullarni samarali qo‘llash o‘qitish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Har qanday metod samarali bo‘lishi uchun u faqat o‘qituvchining tanlovi bilan emas, balki darsning mazmuni, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarligi, sinfning psixologik holati va darsning umumiy maqsadi bilan mos kelishi kerak. Metodlarni ongli ravishda tanlash didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, darsga qanday yondashuv qo‘llanilishi, o‘quvchi qanday intellektual faoliyatga jalb qilinishi, natija qanday o‘lchanishi aynan shu bosqichda aniqlanadi. Shunday ekan, pedagogik usullarni qo‘llash shartlarini chuqur anglash zamonaviy o‘qituvchi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi avvalo

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

darsning maqsadini aniq belgilashi, undan kutiladigan natijalarni ko‘rsatishi va didaktik jarayonni shu maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishi zarur.

Pedagogik metodlarni qo‘llashning muhim qismiga darsning bosqichma-bosqich strukturasini shakllantirish kiradi. Bunda topshiriqlar soddadan murakkabga, reproduktivdan tahliliyga, individualdan guruh faoliyatiga o‘tadigan izchillikda berilishi kerak. Tarixiy manba bilan ishlashda avval matndan faktlarni ajratish (reproduktiv bosqich), so‘ng faktlar o‘rtasida bog‘liqlikni topish (tahliliy bosqich), oxirida esa tarixiy baho berish yoki muammoli savolga javob shakllantirish (ijodiy bosqich) kabi izchillik o‘quvchi tafakkurining rivojlanishini ta’minlaydi. Bloom taksonomiyasiga ko‘ra past darajadagi o‘rganishdan yuqori darajadagi fikrlashga o‘tish aynan shu mantiqiy ketma-ketlik orqali yuzaga keladi.

Shunday qilib, pedagogik usullarning samarali bo‘lishi uchun ular mavzuga mos tanlanishi, maqsad bilan uyg‘unlashtirilishi, puxta rejalangan, ko‘rgazmali vositalar bilan boyitilgan va psixologik jihatdan sog‘lom muhitda qo‘llanilishi zarur. Bu jarayon pedagogik mahoratning kompleks ko‘rinishi bo‘lib, darsni jonlantiradi, o‘quvchi tafakkurini rivojlantiradi va ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlar to‘plami. – Toshkent, 2019.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 464 b.
3. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish: ped. fan. dokt. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: TDPU, 2020. – 280 b.
4. Abdullayev A.A. Tarix fanini o‘qitishda kompetensiv yondashuv asosida o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand: SamDU, 2021. – 160 b.
5. Rasulov Sh.Sh. Tarixiy obidalarni o‘rganish asosida o‘quvchilarda tarixiy ongni shakllantirish metodikasi: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2021. – 150 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TALABALAR VIZUAL-KOGNITIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING ROLI.

Olimova Aziza Abdullayevna, Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada o‘quvchilarning vizual-kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida multimedia vositalarining samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonlarida vizual va kognitiv ko‘nikmalar o‘quvchilarning o‘rganish salohiyatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Multimedia vositalari — interaktiv taqdimotlar, animatsiyalar, videolar va simulyatsiyalar — o‘quv jarayonini murakkab tushunchalarni vizual idrok etishga moslashtiradi va o‘quv materialini o‘zlashtirishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Maqolada multimedia vositalarining kognitiv jarayonlarga ta’siri, ularning vizual xotira va tahliliy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni hamda ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalash strategiyalari ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — o‘quvchilarning vizual xotirasini mustahkamlash, tahliliy fikrlash va kognitiv ko‘nikmalarini oshirishda multimedia vositalarining o‘rnini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali interaktiv taqdimotlar, animatsiyalar, videolar va simulyatsiyalar kabi multimedia vositalarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda pedagogik tahlil, kuzatuv va eksperimental sinov metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari murakkab tushunchalarni idrok etishni sezilarli darajada yaxshilaydi, tahliliy fikrlashni rag‘batlantiradi va o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, multimedia vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash o‘quvchilarning vizual-kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali strategiyasidir. Amaliy tavsiyalar pedagogik strategiyalarni takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: talabalar, vizual-kognitiv ko‘nikmalar, multimedia vositalari, interaktiv ta’lim, pedagogik strategiyalar, o‘quv jarayoni, kognitiv rivojlanish.

РОЛЬ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ФОРМИРОВАНИИ ВИЗУАЛЬНО-КОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ.

Олимова Азиза Абдуллаевна, доцент Ташкентского университета прикладных наук, доктор педагогических наук, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье проводится научный анализ эффективности мультимедийных средств в процессе развития визуально-когнитивных навыков учащихся. В современных образовательных процессах визуальные и когнитивные навыки играют решающую роль в повышении учебного потенциала студентов. Мультимедийные средства — интерактивные презентации, анимации, видеоролики

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

и симуляции — адаптируют процесс обучения к визуальному восприятию сложных концепций и значительно улучшают усвоение учебного материала. В статье исследуется влияние мультимедийных средств на когнитивные процессы, их роль в развитии визуальной памяти и аналитического мышления, а также стратегии их интеграции в образовательный процесс.

ЦЕЛЬ: целью исследования является определение роли мультимедийных средств в укреплении визуальной памяти, развитии аналитического мышления и когнитивных навыков учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалы исследования включают такие мультимедийные инструменты, как интерактивные презентации, анимации, видеоролики и симуляции. В работе используются методы педагогического анализа, наблюдения и экспериментального тестирования.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показали, что мультимедийные средства значительно улучшают восприятие сложных понятий, способствуют развитию аналитического мышления и повышают уровень усвоения учебного материала.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что интеграция мультимедийных средств в образовательный процесс является эффективной стратегией развития визуально-когнитивных навыков учащихся. Практические рекомендации могут быть применены для совершенствования педагогических стратегий.

Ключевые слова: студенты, визуально-когнитивные навыки, мультимедийные средства, интерактивное обучение, педагогические стратегии, учебный процесс, когнитивное развитие.

THE ROLE OF MULTIMEDIA TOOLS IN DEVELOPING STUDENTS' VISUAL-COGNITIVE SKILLS.

Olimova Aziza Abdullayevna, Associate Professor, Tashkent University of Applied Sciences, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Tashkent, Uzbekistan.

Annotation

INTRODUCTION: this article scientifically analyzes the effectiveness of multimedia tools in the process of developing students' visual-cognitive skills. In modern educational processes, visual and cognitive skills play a crucial role in enhancing students' learning potential. Multimedia tools – interactive presentations, animations, videos, and simulations – adapt the learning process to the visual perception of complex concepts and significantly improve the assimilation of educational material. The article examines the impact of multimedia tools on cognitive processes, their role in developing visual memory and analytical thinking, as well as strategies for integrating them into the educational process.

AIM: the aim of the study is to determine the role of multimedia tools in enhancing visual memory, analytical thinking, and students' cognitive skills.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

MATERIALS AND METHODS: the research material includes multimedia tools such as interactive presentations, animations, videos, and simulations. The study employs pedagogical analysis, observation, and experimental testing methods.

RESULTS AND DISCUSSION: the results revealed that multimedia tools significantly improve the perception of complex concepts, foster analytical thinking, and enhance the assimilation of learning material.

CONCLUSION: in conclusion, integrating multimedia tools into the educational process is an effective strategy for developing students' visual-cognitive skills. Practical recommendations can be applied to improve pedagogical strategies.

Keywords: students, visual-cognitive skills, multimedia tools, interactive learning, pedagogical strategies, educational process, cognitive development.

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullarini izlash doimiy ravishda pedagogik ilm-fan va psixologiya sohalarining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida faqat an'anaviy didaktik metodlar bilan cheklanish, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini to'liq rivojlantira olmasligi xavfi mavjud. Shu nuqtai nazardan, vizual-kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish, ya'ni talabaning o'quv materialini idrok etish, tahlil qilish, qayta ishlash va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etiladi[1]. Vizual-kognitiv ko'nikmalar talabaning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatini aniqlovchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Ular murakkab kontseptual tushunchalarni tez va samarali qabul qilish, mantiqiy tahlil qilish, vizual ma'lumotlarni strukturaviy tarzda qayta ishlash va ularni amaliy kontekstga moslashtirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu bois, o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlash pedagogik amaliyotning ajralmas qismi bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv va multimedia vositalarini qo'llash bilan uzviy bog'liqdir[2]. Multimedia vositalari ta'lim jarayonida axborotni vizual va interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu vositalar, jumladan animatsiyalar, videolar, simulyatsiyalar, interaktiv grafikalar va virtual laboratoriyalar, murakkab ilmiy tushunchalarni talaba ongiga mos va sezilarli ravishda yetkazishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, vizual va interaktiv materiallar kognitiv yukni kamaytiradi, ma'lumotni qayta ishlash tezligini oshiradi va o'quvchilarning ilg'or analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, multimedia vositalari o'quvchilarni motivatsiya qiladi, ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va mustaqil o'rganish jarayonini rag'batlantiradi[3]. Zamonaviy psixologik va pedagogik tadqiqotlar vizual-kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali metodlari sifatida multimediaga asoslangan o'quv usullarini ko'rsatadi. Cognitive Load Theory (Kognitiv yuk nazariyasi) ga ko'ra, axborotni vizual va matnli formatda taqdim etish o'quvchilarning kognitiv resurslarini optimal darajada boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, Dual Coding Theory (Ikki kodlash nazariyasi) vizual va lingvistik ma'lumotlarni birgalikda qo'llash orqali eslab qolish samaradorligini oshirishni ta'kidlaydi. Multimedia vositalari bu nazariyalarni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratadi, natijada talabalarning o‘rganish jarayonidagi samaradorligi sezilarli darajada oshadi[4]. Bundan tashqari, talabalarning vizual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quv jarayonining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Har bir o‘quvchi axborotni qabul qilish va qayta ishlashda turlicha strategiyalarga ega bo‘lishi mumkin, shuning uchun multimedia vositalari individual va guruhli faoliyatni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar va vizual animatsiyalar murakkab jarayonlarni amaliy tarzda o‘rganish imkonini beradi va talabalar o‘rtasidagi pedagogik farqlarni minimallashtiradi[5]. Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, global ta’lim tizimida texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, talabalar vizual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishning samarali strategiyalarini aniqlash pedagogik ilm-fan oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, multimedia vositalarini qo‘llash nafaqat talabaning akademik yutuqlarini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – talabalarning vizual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida multimedia vositalarining samaradorligini aniqlash va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilar: multimedia vositalarining ta’lim jarayonidagi rolini tahlil qilish; talabalarning vizual-kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslarini aniqlash; multimedia vositalaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish; ta’lim jarayonida amaliy tavsiyalar berish. Shu tariqa, maqola zamonaviy pedagogik texnologiyalar, psixologik nazariyalar va interaktiv vositalar integratsiyasini o‘rganib, talabalarning vizual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy va amaliy jihatlarini mukammal yoritadi[6]. Tadqiqot natijalari o‘quv jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligini ko‘rsatadi va zamonaviy ta’lim tizimida ularni integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Adabiyotlar tahlili: Ta’lim jarayonida talabalar vizual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar, multimedia vositalarining pedagogik samaradorligi va kognitiv psixologiya nazariyalari muntazam ravishda o‘rganib borilmoqda. Xalqaro olimlar orasida ushbu sohada eng ko‘p iqtibos keltiriladigan nazariyalardan biri – Richard E. Mayer tomonidan ilgari surilgan multimedia o‘rganish nazariyasi bo‘lib, bu nazariya bo‘yicha o‘rganish jarayoni talaba tomonidan matn va tasvirlar birgalikda qabul qilinganda yanada chuqur va samarali bo‘ladi. Mayer multimediya ta’limida ikki kanal printsipi, cheklangan quvvat printsipi va faol qayta ishlash printsipi orqali ma’lumotni qayta ishlash samaradorligini izohlaydi, ya’ni vizual va og‘zaki elementlar integratsiyasi talabaning kognitiv faoliyatini oshiradi. Bu prinsiplarga amal qilgan holda tuzilgan multimediya materiallarida talabalar murakkab tushunchalarni mental modelga aylantira oladi, bu esa ularning tushunish va eslab qolish jarayonini optimallashtiradi[7]. Mayerning nazariyasi atrofida amalga oshirilgan ko‘plab eksperimental tadqiqotlar multimediya vositalarining o‘rganish samaradorligiga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Masalan, o‘quv materiallarini tasvirlar va matnlar bilan birgalikda taqdim etish orqali talabalar nafaqat faktlarni yodlab qolish, balki ularni tahlil qilish va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini yaxshilaydi. Shu bilan birga, Mayer va uning hamkasbi Roxana Moreno tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda animatsiya va audio tavsifni uyg‘unlashtirish orqali o‘rganish samaradorligi oshishining dalillari keltirilgan, bu esa multimediya ta’limi psixologik nazariyalar bilan mustahkam bog‘langanligini ko‘rsatadi[8]. Tadqiqotlarda shuningdek multimediya materiallarining kognitiv yukni qanday boshqarishini tahlil qiluvchi yondashuvlar ham o‘rganiladi. Masalan, cognitive load theory (kognitiv yuk nazariyasi) doirasida multimedia dizayni talabalarning ishlovchi xotira imkoniyatlarini hisobga olib ishlab chiqilishi lozimligi ta’kidlanadi. Bu yondashuvga ko‘ra, grafikalar, videolar va interaktiv elementlar noto‘g‘ri tartibda va haddan tashqari ko‘p bo‘lganda talabalarni chalg‘itishi va o‘rganish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Kognitiv yuk nazariyasi bo‘yicha talabalar ishlovchi xotira cheklangan bo‘lgani uchun ma’lumotlar optimallashtirilgan vizual formatda taqdim etilishi lozim, bu esa talabaning kontseptual modeli va abstrakt tushunchalarni aniq qabul qilishiga yordam beradi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda yana bir e’tiborli tadqiqotchi Katharina Scheiter bo‘lib, u multimediya o‘rganishidagi ko‘p vakilliklar (multiple representations) orqali kognitiv jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashni izlab topadi. Scheiterning ishlari multimediya vositalari orqali murakkab bilish jarayonlarini tushunish, ularga nazorat qo‘llash va bu vositalarni samarali o‘quv muhitiga aylantirish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Uning ilmiy yondashuvi nafaqat vizual elementlar bilan o‘rganish jarayonini optimallashtirish, balki talabalarning kognitiv strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan[9]. Bu ikki olimning yondashuvlarini solishtiradigan bo‘lsak, Mayer ko‘proq multimediya elementlarining kognitiv asoslarini va ularni birlashtirib o‘rganish jarayonini ta’kidlagan bo‘lsa, Scheiter multimediya vositalaridan samarali foydalanish mexanizmlari hamda talabalarning individual kognitiv xususiyatlari bilan bog‘liq empiric tadqiqotlarga urg‘u beradi. Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalar vizual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish uchun multimedia vositalarini pedagogik nazariyalar bilan uyg‘unlashtirish, ularni maqsadli, strukturaviy va kognitiv huquqlarni saqlab dizayn qilish zarur. Ushbu ikki olimning ishlari talabalarning vizual-kognitiv jarayonlarini yanada chuqur va strukturaviy tarzda tushunishga asos bo‘ladi hamda multimedia vositalarining ta’lim jarayonidagi metodik va nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy poydevor sifatida xizmat qiladi.

Metodologik qism: Ushbu maqolada talabalar isual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida multimedia vositalarining samaradorligini aniqlash va isual ic metodikalarni rivojlantirish maqsadida eksperimental-tajriba, kuzatuv, interaktiv testlar, kognitiv diagnostika, va kvantitativ hamda sifatli tahlil usullari birlashtirilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Eksperimental-tajriba usuli doirasida talabalarning multimedia vositalari yordamida o‘rganish jarayonida isual-kognitiv ko‘nikmalari boshqarildi va o‘zgarishlar dinamikasi tahlil qilindi. Shu bilan birga, kuzatuv metodidan foydalanib o‘quv jarayonidagi interaktiv faoliyat, talabalarning isual axborotni qabul qilish va qayta ishlash strategiyalari sistematik ravishda o‘rganildi. Kognitiv diagnostika va interaktiv testlar talabalarning isual va analitik fikrlash ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qilgan bo‘lib, ular eksperimental ma’lumotlarni kvantitativ tahlil qilish imkonini berdi. Sifatli

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

tahlil esa talabalar jarayonidagi individual strategiyalar, o‘rganish uslublari va multimedia vositalarini qabul qilishdagi farqlarni aniqlashga yordam berdi. Shu tarzda, maqolada ishlatilgan metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, multimediya vositalarining isual ic samaradorligini, talabalarning isual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari yordamida o‘quv jarayonini tashkil etishda talabalar vizual-kognitiv ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi, chunki interaktiv grafikalar, animatsiyalar va videolar murakkab kontseptual tushunchalarni qabul qilish va eslab qolishni optimallashtiradi, talabalarning analitik fikrlash, tasviriy tafakkur va masalalarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, shu bilan birga, eksperimental va kuzatuv ma’lumotlari vizual-kognitiv o‘quv strategiyalarining shakllanishi va ularning o‘rganish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi, bu esa multimediya vositalarining pedagogik jihatdan samarali va strategik qo‘llanishi talabalar kognitiv rivojlanishini maksimal darajaga olib chiqishini ilmiy asoslaydi.

Muxokama: Talabalar vizual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishda multimedia vositalarining samaradorligi bo‘yicha ilmiy hamjamiyatda faol bahslar olib borilmoqda. Richard E. Mayer va Katharina Scheiter o‘z yondashuvlari orqali bu masalaga turlicha yondashadi. Mayer multimediya o‘rganish nazariyasini ilgari surib, vizual va lingvistik ma’lumotlarni integratsiyalash orqali talabalarning kognitiv jarayonlarini optimallashtirishni asosiy yo‘nalish deb hisoblaydi. U ta’kidlaydiki, multimedia materiallari o‘quvchilarning ishlovchi xotirasini ortiqcha yuklamasdan, ikki kanal printsipi va faol qayta ishlash prinsiplari orqali kontseptual tushunchalarni chuqur anglashga xizmat qiladi. Mayerning fikricha, ta’lim jarayonida animatsiyalar va interaktiv elementlar aniq maqsad bilan tanlanganida talabaning vizual-kognitiv ko‘nikmalari sezilarli darajada oshadi[10]. Boshqa tomondan, Scheiter multimediya vositalarining ta’lim jarayonida ishlatilishida individual kognitiv xususiyatlarni hisobga olishni va ko‘p vakillik (multiple representations) orqali o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishni ta’kidlaydi. U Mayerning nazariy yondashuvini tan olgan holda, amaliy eksperimentlar orqali multimediya vositalarining talabalarning o‘rganish strategiyalarini shakllantirish, ularni vizual axborotni qayta ishlash va analitik fikrlashga yo‘naltirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Scheiterning fikricha, multimedia materiallarining noto‘g‘ri yoki haddan tashqari ishlatilishi o‘quv jarayonida kognitiv yukni oshirishi va ko‘nikmalarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun ularni dizayn qilishda individual va guruhiy xususiyatlarni hisobga olish zarur. Ushbu olimlarning qarashlaridagi farq shundaki, Mayer multimediya vositalarining nazariy jihatlarini va ularning o‘rganish jarayonini strukturaviy optimallashtirishni birinchi o‘ringa qo‘yadi, Scheiter esa talabaning individual kognitiv xususiyatlari va amaliy interaktiv dizaynga e’tibor qaratadi. Ilmiy bahs-munozaralar shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalaridan samarali foydalanish nafaqat vizual-kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga, balki talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, Mayer va Scheiter yondashuvlarining integratsiyasi pedagogik amaliyotda multimediya vositalarini strategik

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

va ilmiy asoslangan tarzda qo‘llash imkonini beradi, bu esa zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar vizual-kognitiv ko‘nikmalarini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar vizual-kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishda multimedia vositalari pedagogik jarayonning ajralmas va samarali elementi hisoblanadi, chunki ular murakkab kontseptual tushunchalarni talaba ongiga mos va interaktiv tarzda yetkazishga yordam beradi, vizual va lingvistik axborotning integratsiyasi orqali analitik fikrlash, vizual tafakkur va masalalarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, kognitiv yukni optimal boshqarish orqali o‘quv samaradorligini oshiradi va talabalarning motivatsiyasini rag‘batlantiradi; shuningdek, Mayer va Scheiter kabi xorijiy olimlar yondashuvlarining integratsiyasi multimediya vositalarini nazariy va amaliy jihatdan strategik qo‘llash imkonini berib, zamonaviy ta’lim jarayonida vizual-kognitiv ko‘nikmalarni maksimal darajada shakllantirishga xizmat qiladi, natijada multimedia pedagogik vosita sifatida talabalarning individual o‘rganish xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘quv jarayonining sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jamolova G., Meliyev M., Muhammadiyeva E. Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirish yo ‘llari //Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – C. 675207.
2. Ochilova G. O., Akbarova S. S. H. Kasbiy kompetentlik //darslik)/Toshkent-2022. – 2022.
3. Utanbayeva D. A., Xidirova N. A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari //Innovative Development in Educational Activities. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 155-162.
4. Narzulloyeva F. F. Oliy ta’limda talabalarni iqtisodiy tarbiyalash va kompetensiyasini rivojlantirishning muhim yo ‘nalishlari //ilmiy tadqiqot va innovatsiya. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 102-108.
5. Matnazarova K. Oliy Ta’lim Muassasalari talabalarining kasbiy-amaliy ko ‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari //Xalq Ta’limi. – C. 16.
6. TUXTAYEV S. Talabalarining kommunikativ ta’limini pedagogik boshqarish kontseptual modelining tarkibiy qismlari //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.10. 1. – C. 213-215.
7. Abdurasulova S. K. Kredit-modul tizimida oliy ta’lim muassasalari talabalarining muloqot raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 22. – C. 144-151.
8. Xidirova D. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish //Общество и инновации. – 2025. – T. 6. – №. 1. – C. 107-112.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

9. Ibroximov M. A. Professional ta'lim yo 'nalishi talabalarining ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim va amaliyot integratsiyasi //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. TMA Conference. – C. 175-179.
10. Pazilova D. Oliy ta'lim muassassalari kasb-ta'lim talabalari axborot kompetentligini rivojlantirishda faoliyat tuzilmasining nazariy tahlili //«ACTA NUUz». – 2025. – T. 1. – №. 1.9. – C. 148-150.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TIBBIYOT YO‘NALISHIDAGI TALABALARGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA CLIL METODINING SAMARADORLIGI.

Raximova Nigora Atakulovna, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Xorijiy tillar kafedrasi v.b dotsenti.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada tibbiyot talabalariga ingliz tilini o‘qitishda CLIL (mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish) metodining samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqotda CLIL metodining talabalar tomonidan professional terminologiyani o‘zlashtirishi, kommunikativ kompetensiya va fan hamda tilni integratsiyalashgan holda egallashdagi o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, CLIL metodi an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda samaraliroqdir.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — tibbiy ta’limda professional terminologiyani o‘zlashtirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda fan mazmuni va til integratsiyasiga CLIL metodining ta’sirini baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida CLIL metodi yordamida o‘tilgan ingliz tili mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil va talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: natijalar shuni ko‘rsatdiki, CLIL metodi talabalarning professional terminologiyani o‘zlashtirish darajasini oshiradi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va motivatsiyani kuchaytiradi. An’anaviy o‘qitish metodlari bilan solishtirganda, CLIL til va fan mazmuni o‘rtasida yuqori darajadagi integratsiyani ta’minlaydi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, CLIL metodi tibbiyot talabalariga ingliz tilini o‘qitishda samarali vosita hisoblanadi. Uni qo‘llash kasbiy kompetentlikni oshirishga xizmat qiladi hamda ta’lim jarayonida til va fan mazmuni integratsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Kalit so‘zlar: CLIL, tibbiy ta’lim, ingliz tili, integratsiyalashgan ta’lim, kasbiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДА CLIL В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ.

Рахимова Нигора Атакуловна, исполняющая обязанности доцента кафедры иностранных языков Университета экономики и педагогики.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье исследуется эффективность метода CLIL (предметно-языковое интегрированное обучение) в преподавании английского языка студентам медицинских специальностей. В исследовании анализируется роль метода CLIL в усвоении студентами профессиональной терминологии, развитии коммуникативной компетенции и интегрированном овладении научными

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

знаниями и языком. Результаты исследования показали, что метод CLIL является более эффективным по сравнению с традиционными методами обучения.

ЦЕЛЬ: целью исследования является оценка влияния метода CLIL на освоение профессиональной терминологии, развитие коммуникативной компетенции и интеграцию предметного содержания с языком в медицинском образовании.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования послужили занятия по английскому языку, проводимые по методу CLIL в медицинских вузах. В работе используются методы педагогического наблюдения, сравнительного анализа и анкетирования студентов.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показали, что метод CLIL улучшает владение профессиональной терминологией, развивает коммуникативные навыки и повышает мотивацию студентов. По сравнению с традиционными методами обучения, CLIL обеспечивает более высокий уровень интеграции языка и предметного содержания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что метод CLIL является эффективным инструментом обучения английскому языку студентов-медиков. Его применение способствует формированию профессиональной компетентности и поддерживает интеграцию языка и предметного содержания в образовательном процессе.

Ключевые слова: CLIL, медицинское образование, английский язык, интегрированное образование, профессиональная компетенция, коммуникативный подход.

EFFECTIVENESS OF CLIL METHOD IN TEACHING ENGLISH TO MEDICAL STUDENTS.

Rakhimova Nigora Atakulovna, Acting Associate Professor of the Department of Foreign Languages, University of Economics and Pedagogy.

Annotation

INTRODUCTION: this article studies the effectiveness of the CLIL (Content and Language Integrated Learning) method in teaching English to medical students. The research analyzed the role of the CLIL method in students' acquisition of professional terminology, communicative competence, and integrated mastery of science and language. The results of the study showed that the CLIL method is more effective than traditional teaching methods.

AIM: the aim of the study is to assess the impact of the CLIL method on mastering professional terminology, developing communicative competence, and integrating subject content with language in medical education.

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of English language classes conducted using the CLIL method in medical universities. The study employs pedagogical observation, comparative analysis, and student surveys.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

RESULTS AND DISCUSSION: the results showed that the CLIL method enhances students' mastery of professional terminology, develops communication skills, and increases motivation. Compared to traditional teaching methods, CLIL provides a higher level of integration between language and subject content.

CONCLUSION: in conclusion, the CLIL method is an effective tool for teaching English to medical students. Its application fosters professional competence and supports the integration of language and subject content in the educational process.

Keywords: CLIL, medical education, English, integrated education, professional competence, communicative approach.

Globallashuv jarayonida tibbiyot sohasi mutaxassislaridan ingliz tilini puxta bilish talab etilmoqda. Xalqaro tibbiy adabiyotlar, klinik protokollar va ilmiy tadqiqotlar asosan ingliz tilida olib borilishi bu tilni kasbiy faoliyatning ajralmas qismiga aylantiradi. Shu sababli, tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini samarali o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. CLIL metodi fan mazmuni va chet tilini birgalikda o'qitish orqali ushbu muammoni hal etishda innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda. An'anaviy chet tilini o'qitish usullari ko'pincha grammatika va umumiy leksikaga yo'naltirilgan bo'lib, tibbiyot talabalari ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Bu holat talabalarda tilni kasbiy faoliyat bilan bog'lashda qiyinchilik tug'diradi hamda ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, fan mazmuni va tilni integratsiyalashgan holda o'qitishga asoslangan CLIL metodining ta'lim jarayoniga joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

CLIL metodi tibbiyot fanlari mazmunini ingliz tilida o'zlashtirish orqali talabalarni real kasbiy muhitga tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu metod talabalarning tibbiy terminologiyani faol o'zlashtirishi, tanqidiy fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga imkon yaratadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda CLIL metodining samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish va uning ta'lim jarayonidagi afzalliklarini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotda aralash (mixed-method) metodologiya qo'llanildi. Tajriba Toshkent shahridagi tibbiyot oliy ta'lim muassasasida 2-bosqich talabalari ishtirokida olib borildi. Talabalar ikki guruhga ajratildi:

- **Nazorat guruhi** – an'anaviy usulda ingliz tili o'qitildi;
- **Tajriba guruhi** – CLIL metodi asosida tibbiy fanlar mazmuni bilan integratsiyalashgan ingliz tili mashg'ulotlari olib borildi.

Mazkur tadqiqot tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda CLIL metodining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda tajriba-sinov hamda tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot Toshkent shahridagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridan birida 2023–2024 o'quv yili davomida olib borildi. Tadqiqot ishtirokchilari ingliz tili fanini o'rganayotgan 2-bosqich tibbiyot yo'nalishi talabalari bo'lib, ularning umumiy soni 60 nafarni tashkil etdi. Talabalar bilim darajasi va til

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

kompetensiyasi jihatidan tenglashtirilgan holda ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi va tajriba guruhi. Baholash vositalari sifatida testlar, og‘zaki nutq tahlili, so‘rovnomalar va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Nazorat guruhida ingliz tili an’anaviy o‘qitish metodlari asosida olib borildi, ya’ni dars jarayonida umumiy leksika, grammatika mashqlari va matnlar bilan ishlashga ustuvor ahamiyat berildi. Tajriba guruhida esa CLIL metodiga asoslangan holda ingliz tili mashg‘ulotlari tibbiyot fanlari mazmuni bilan integratsiyalashgan tarzda tashkil etildi. Darslarda “Human Anatomy”, “Medical Ethics”, “Clinical Communication” kabi mavzular ingliz tilida o‘rganilib, talabalarning kasbiy terminologiyani kontekst asosida egallashiga e’tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash uchun diagnostik testlar, og‘zaki nutqni baholash topshiriqlari, yozma ishlar hamda so‘rovnomalar qo‘llanildi. Dastlabki va yakuniy test natijalari orqali talabalarning til kompetensiyasidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Shuningdek, dars jarayonida kuzatuv metodi orqali talabalarning faolligi, darsga qiziqishi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi qayd etildi. Olingan ma’lumotlar taqqoslash va umumlashtirish metodlari asosida tahlil qilinib, CLIL metodining ta’lim jarayonidagi samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar:

- tibbiy terminlarni tezroq va chuqurroq o‘zlashtirdi;
- kasbiy mavzularda ingliz tilida erkinroq muloqot qila boshladi;
- darslarga bo‘lgan motivatsiyasi va faolligi oshdi.

Nazorat guruhi bilan solishtirganda, CLIL metodi asosida ta’lim olgan talabalar bilim ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori natijalarga erishdi. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari tibbiyot yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilini o‘qitishda CLIL metodining yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Dastlabki diagnostik test natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba va nazorat guruhlari talabalari ingliz tilini bilish darajasi hamda kasbiy terminologiya bo‘yicha deyarli teng ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan. Tajriba yakunida o‘tkazilgan yakuniy baholash natijalari esa guruhlar o‘rtasida sezilarli farq mavjudligini aniqladi.

Tajriba guruhidagi talabalar ingliz tilida tibbiy terminlarni tushunish va ulardan to‘g‘ri foydalanish borasida yuqori natijalarga erishdi. Ularning yozma va og‘zaki nutqida kasbiy leksik birliklardan foydalanish darajasi oshgani kuzatildi. Ayniqsa, klinik vaziyatlarni tavsiflash, bemor bilan muloqot qilishga oid topshiriqlarda tajriba guruhi talabalari fikrni aniq va mantiqiy ifodalashga muvaffaq bo‘ldi. Nazorat guruhida esa ingliz tilini o‘zlashtirish jarayoni asosan nazariy bilimlar bilan cheklangan bo‘lib, kasbiy kontekstda tilni qo‘llash ko‘nikmalari nisbatan sust rivojlandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o‘tkazilgan so‘rovnoma va kuzatuv natijalari CLIL metodining talabalarning dars jarayonidagi faolligi va motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqladi. Tajriba guruhidagi talabalar dars mashg‘ulotlarida faol ishtirok etib, mustaqil fikr bildirishga va savol-javoblarda qatnashishga intildi. Ularning ingliz tilida erkin muloqot qilishga bo‘lgan ishonchi sezilarli darajada oshdi. Umuman olganda, olingan natijalar CLIL metodining tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘qitishda samarali pedagogik yondashuv ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Olingan natijalar CLIL metodining nazariy asoslariga mos keladi. Ushbu metod tilni sun'iy muhitda emas, balki real kasbiy kontekstda o'rganish imkonini beradi. Bu esa talabalarning tanqidiy fikrlashini, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, CLIL metodini joriy etishda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi. Tajriba guruhi talabalari ingliz tilida tibbiy terminologiyani faol qo'llashga o'rganganligi, ularning kasbiy muloqotga bo'lgan tayyorgarligi oshganini anglatadi. Ushbu natijalar Coyle, Marsh va Hood tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, CLIL metodining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ustunliklarini tasdiqlaydi. An'anaviy usullarda til ko'pincha alohida fan sifatida o'rganilsa, CLIL yondashuvida til real kasbiy vaziyatlar orqali o'zlashtiriladi, bu esa bilimlarning uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, CLIL metodining talabalarning motivatsiyasiga ta'siri ham alohida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqot davomida kuzatilganidek, fan mazmuni bilan boyitilgan ingliz tili mashg'ulotlari talabalarda qiziqish uyg'otib, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishiga sabab bo'ldi. Bu esa zamonaviy pedagogik yondashuvlarda muhim hisoblangan talabaga yo'naltirilgan ta'lim tamoyiliga mos keladi. Talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va ingliz tilida o'z fikrini erkin ifodalashi CLIL metodining muhim pedagogik afzalliklaridan biridir.

Biroq, CLIL metodini amaliyotga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, o'qituvchilardan nafaqat ingliz tilini, balki tibbiy fanlar asoslarini ham yetarli darajada bilish talab etiladi. Shuningdek, CLIL asosida ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy materiallarning yetishmasligi ushbu metodning keng joriy etilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, CLIL metodining samaradorligini yanada oshirish uchun fan va til o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari CLIL metodining tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda nazariy va amaliy jihatdan samarali ekanligini ko'rsatadi. Ushbu metod bo'lajak shifokorlarning xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qilib, ularni global tibbiy hamjamiyatga integratsiyalashuviga keng imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalari tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda CLIL metodining yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Fan mazmuni va chet tilini integratsiyalashgan holda o'qitish talabalarning ingliz tilida kasbiy muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga, tibbiy terminologiyani chuqur va ongli ravishda o'zlashtirishga hamda bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Tadqiqot davomida olingan natijalar CLIL metodining an'anaviy ingliz tili o'qitish usullariga nisbatan ustun jihatlari mavjudligini ilmiy asosda isbotladi.

CLIL metodining qo'llanilishi talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirib, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirdi. Bu esa bo'lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish bilan birga, ularni xalqaro tibbiy axborot makoniga moslashuvchan mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari CLIL

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

metodini tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayoniga keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, CLIL metodini samarali amalga oshirish uchun bir qator amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin. Avvalo, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili va mutaxassislik fanlari o‘qituvchilari o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida fan mazmunining to‘g‘ri va aniq yetkazilishi o‘qituvchining ikki yo‘nalishdagi bilim va malakasiga bevosita bog‘liq. Shuningdek, CLIL metodiga asoslangan maxsus o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur.

Bundan tashqari, ingliz tili o‘qituvchilari uchun CLIL metodikasi bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda CLIL metodining uzoq muddatli ta’siri, turli tibbiy mutaxassisliklar kesimida qo‘llanish imkoniyatlari hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi o‘rganilishi tavsiya etiladi. Umuman olganda, CLIL metodi tibbiyot ta’limida ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiluvchi istiqbolli va samarali pedagogik yondashuv sifatida e’tirof etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish. – Kembrij: Cambridge University Press, 2010.
2. Marsh D. CLIL/EMILE – Yevropa ta’lim tizimida integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi. – Jyväskylä: Jyväskylä universiteti nashriyoti, 2002.
3. Richards J. C., Rodgers T. S. Chet tillarni o‘qitish metodlari va yondashuvlari. – Kembrij: Cambridge University Press, 2014.
4. Nation I. S. P. Chet tilida lug‘at o‘rganish nazariyasi va amaliyoti. – Kembrij: Cambridge University Press, 2013.
5. Harmer J. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. – London: Longman, 2015.
6. Dalton-Puffer C. CLIL metodining nazariy asoslari va amaliy tamoyillari // Amaliy tilshunoslik bo‘yicha yillik sharh. – 2011. – 31-jild. – B. 182–204.
7. Lasagabaster D., Sierra J. M. CLIL va immersiya metodlarini qiyosiy tahlil qilish // ELT Journal. – 2010. – 64(4). – B. 367–375.
8. Mehisto P., Marsh D., Frigols M. J. Ko‘p tilli ta’limda CLIL metodini joriy etish. – Oksford: Macmillan, 2008.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TIBBIY TEXNOLOGIYALAR VA YANGI TIBBIY TEXNOLOGIYALARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.

Erkin Xodjiyevich Bozorov, Rossiya Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti professori.
Abdullo Abduvohidovich Nabiyev, Samarqand davlat tibbiyot universiteti axborot texnologiyalari, biofizika va tibbiy fizika kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish uchun zarur bo'lgan pedagogik mahorat masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot obyekti sifatida "Tibbiy asbob-uskunalar va yangi tibbiy texnologiyalar" fani tanlanib, o'quv jarayonida malakali pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning ijobiy jihatlari yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — oliy tibbiy ta'lim sifatini oshirishda pedagogik mahorat va zamonaviy texnologiyalarning o'rnini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali "Tibbiy asbob-uskunalar va yangi tibbiy texnologiyalar" fani bo'yicha mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda pedagogik tahlil, kuzatuv va qiyosiy yondashuv metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tatijalar shuni ko'rsatdiki, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish talabalarning bilimlarini chuqurlashtiradi, amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat va zamonaviy texnologiyalar tibbiy ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridir. Ularni qo'llash bilimlarni samarali o'zlashtirishni va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Kalit so'zi: tibbiyot texnikasi va yangi tibbiyot texnologiyalari, axborot kommunikatsiyalar, tibbiyot uskunalari.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕХНИКЕ И НОВЫМ МЕДИЦИНСКИМ ТЕХНОЛОГИЯМ.

Эркин Ходжиевич Бозоров, Профессор Института ядерной физики АН.
Набиев Абдулло Абдувохидович, Ассистент кафедры «Информационные технологии, биофизика и медицинская физика» Самаркандского государственного медицинского университета.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются вопросы педагогического мастерства, необходимого для углубления знаний и компетенций студентов

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

медицинских высших учебных заведений. Объектом исследования был выбран предмет «Медицинское оборудование и новые медицинские технологии», в рамках которого анализируется внедрение в учебный процесс инновационных педагогических технологий, разработанных квалифицированными преподавателями. Кроме того, подчеркиваются положительные аспекты использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовательной структуре.

ЦЕЛЬ: Целью исследования является определение роли педагогического мастерства и современных технологий в повышении качества высшего медицинского образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования послужили занятия по предмету «Медицинское оборудование и новые медицинские технологии». В работе используются методы педагогического анализа, наблюдения и сравнительного подхода.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показали, что внедрение новых педагогических технологий и использование информационно-коммуникационных средств способствуют углублению знаний студентов, совершенствованию практических навыков и повышению мотивации к обучению.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что педагогическое мастерство и современные технологии являются ключевыми факторами повышения качества медицинского образования. Их применение обеспечивает эффективное усвоение знаний и развитие профессиональных компетенций студентов.

Ключевые слова: медицинское оборудование и новые медицинские технологии информационно-коммуникационное технологии, медицинское оборудование.

EFFECTIVENESS OF USING ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MEDICAL TECHNOLOGIES AND NEW MEDICAL TECHNOLOGIES

Erkin Khodzhievich Bozorov, Professor, Institute of Nuclear Physics, Russian Academy of Sciences.
Abdullo Abduvohidovich Nabiyev, Assistant Professor, Department of Information Technology, Biophysics, and Medical Physics, Samarkand State Medical University.

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the issues of pedagogical skill essential for deepening the knowledge and expertise of students in medical higher education institutions. The subject of "Medical Equipment and New Medical Technologies" was selected as the object of research, and the implementation of innovative pedagogical technologies developed by qualified educators within the teaching process is analyzed. Furthermore, the positive aspects of utilizing information and communication technologies (ICT) in the educational framework are highlighted.

AIM: the aim of the study is to identify the role of pedagogical mastery and modern technologies in improving the quality of medical higher education.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of classes in “Medical Equipment and New Medical Technologies.” The study employs pedagogical analysis, observation, and comparative approaches.

RESULTS AND DISCUSSION: the results showed that the introduction of new pedagogical technologies and the use of information and communication tools deepen students’ knowledge, enhance practical skills, and increase motivation for learning.

CONCLUSION: in conclusion, pedagogical mastery and modern technologies are key factors in improving the quality of medical education. Their application ensures effective knowledge acquisition and the development of students’ professional competencies.

Keywords: medical equipment and new medical technologies, information communications, medical devices, pedagogical skill, innovative technologies, medical education.

Сегодня стремительное развитие медицинской сферы, широкое внедрение в практику современного медицинского оборудования и инновационных технологий предъявляют совершенно новые требования к процессу подготовки специалистов в высших учебных заведениях. В частности, в процессе преподавания дисциплины «Медицинская техника и новые медицинские технологии» важно обеспечить студентов не только теоретическими знаниями, но и сформировать практические навыки, умение принимать самостоятельные решения в проблемных ситуациях и компетенции в работе с современными техническими средствами.

Традиционные методы обучения не в полной мере отвечают сложным технологическим требованиям медицинской сферы. Поэтому одной из неотложных задач является внедрение в образовательный процесс передовых педагогических технологий, интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, цифровых симуляторов и виртуальных лабораторий. Такие подходы способствуют повышению мотивации студентов к обучению, закреплению знаний и эффективной организации процесса подготовки к практической работе.

В частности, дисциплины медицинской технологии основаны на сложных физических, инженерных и биологических процессах, и преподавания их только в форме лекций недостаточно. Современные педагогические технологии - проблемно-ориентированное обучение, проектное обучение, тематические исследования, имитационное обучение и платформы дистанционного обучения - позволяют визуализировать научное содержание и интегрировать его с практикой.

С этой точки зрения, изучение эффективности применения передовых педагогических методов в преподавании дисциплин «Медицинская техника и новые медицинские технологии», их систематическое внедрение в образовательный процесс и разработка дидактических основ относятся к числу важных научно-практических проблем современного медицинского образования. В данной работе рассматриваются теоретические и практические аспекты этих вопросов.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Постановка проблемы

В настоящее время в высших медицинских учебных заведениях в процессе обучения используются многочисленные передовые образовательные технологии. На основе использования этих технологий предпринимаются усилия по формированию навыков дальнейшего закрепления знаний студентов и повышению качества их обучения. В эпоху стремительного развития науки и техники, включая медицину и технику, образование играет важную роль в всестороннем развитии личности, в формировании качеств, характерных для квалифицированного специалиста. Эти технологии направлены на дальнейшее закрепление знаний, навыков и квалификаций студентов и повышение качества их обучения. Это, в свою очередь, требует эффективного использования современных средств коммуникации в их учебной деятельности. Эффективное использование современных средств коммуникации в качестве дидактического инструмента в учебном процессе служит важным фактором повышения качества образования. В современных условиях необходимо направлять учебный процесс на развитие и социализацию личности в соответствии со всеми возможностями, а также на формирование и воспитание навыков самостоятельного, критического и творческого мышления. Анализ новых технологий. В преподавании медицинского оборудования и новых медицинских технологий эффективным является использование образовательных технологий в соответствии с предметом обучения. В частности, интерактивные методы, такие как «Медицинское оборудование (ТУ)», «Разговор с формулами (ФБС)», «Табличный анализ (Т)», «Диаграммный анализ (ДО)» [1,2], помогают студентам в процессе обучения освоить на научной основе принципы работы медицинского оборудования. Авторы этих разработок показывают, что в основе разработанных методов углубления уровня усвоения материала студентами, слушающими лекции, лежит идея о том, что процессы, логически происходящие в объеме твердого тела, осуществляются студентом в форме идеи движения электронов, плавающих вокруг ядра атома в кристаллической решетке. Кроме того, они подчеркивают, что новые технологии проведения лекций, разработанные этими авторами, предпочтительнее не группового обучения, а технологий, позволяющих непосредственно участвовать в обсуждении нескольким десяткам студентов. [4,6]

Наряду с традиционными формами образования, быстро внедряются и технологии дистанционного обучения. Это положительно влияет на повышение качества и содержания образования, поскольку студенты могут свободно использовать информационно-коммуникационные технологии, а каждый студент учебного заведения может умело пользоваться Интернетом и содержащейся в нем информацией. Обогащение студентов активированными методами приводит к повышению уровня их усвоения. Для этого требуется рациональная организация учебного процесса, постоянное стимулирование интереса студентов со стороны преподавателя, их активность в учебном процессе, разделение учебного материала на небольшие части, использование интерактивных методов обучения

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

для раскрытия учебного содержания и предоставление студентам возможности выполнять практические упражнения максимально самостоятельно [3]. В настоящее время в процессе объяснения с использованием медицинского оборудования для преподавателей важно уметь использовать информационные источники, а именно возможности информационно-коммуникационных технологий, электронные образовательные ресурсные базы информационно-ресурсных центров, отечественную и зарубежную учебно -методическую и научную литературу, чтобы организовать содержательный и качественный учебный процесс. Причина этого в том , что объяснение радиоактивных нуклидов в природе не может быть научно обосновано только преподавателем педагогических наук . Выполнение задач, поставленных перед системой образования, самостоятельное освоение учащимися учебных материалов, стимулирование их профессионального роста и развитие в них творческой активности во многом зависит от педагога. От них также требуется высокий уровень подготовки, умение принимать самостоятельные решения и способность отбирать необходимую информацию из большого объема информации для выполнения поставленных задач и обработки этой информации. Учитель должен понимать, что самостоятельное обучение необходимо не только для ученика, но и для него самого, чтобы облегчить свою работу, общаться с учениками, способными мыслить самостоятельно, и обогащать собственные знания. В то же время сотрудничество учителя с учениками в процессе обучения, укрепление их уверенности в самостоятельном обучении, демонстрация использования новых педагогических технологий в преподавании, проведение лекций в традиционном, то есть не ограничивающемся только предоставлением информации, а также в проблемно-ориентированном интерактивном формате, приведет к ожидаемым положительным результатам [7,8].

В настоящее время в научном объяснении медицинского оборудования, в высших учебных заведениях медицинской сферы, в современных условиях организации учебного процесса использование компьютеров как учебного инструмента оказывает значительное влияние на методы обучения и организацию учебного процесса в целом. Рациональное использование компьютерных технологий позволяет повысить эффективность учебного процесса. Это достигается, прежде всего, за счет использования эффективных методов представления информации, индивидуализации и автоматизации учебного процесса. Информатизация общества – это все более распространенный процесс освоения, обработки, хранения и распространения информационных технологий, особенно в области медицинской техники и новых медицинских технологий. Новые информационные технологии в образовании позволяют решать ряд принципиально новых дидактических задач: изучать явления и процессы в микро- и макромире, в рамках сложных технических и биологических систем на основе моделирования; стать основой для изучения различных физических, химических, биологических и социальных процессов, происходящих с очень высокой или очень низкой скоростью. Это позволяет включать в учебный процесс лабораторные работы с

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

использованием очень дорогостоящих компьютерных моделей. Иногда такое уникальное оборудование имеется не во всех учебных заведениях. Без использования новых информационных технологий в образовании порой невозможно реализовать подобную лабораторную работу на практике [5].

В современных средствах ускорения интеллектуальной деятельности возникает потребность в образовании и педагогике, и среди них важнейшее место занимают компьютерные технологии. Проблема оптимизации педагогической деятельности связана с решением вопроса её информационного обеспечения. В связи с динамикой содержания изучаемого предмета возникает необходимость в быстром обновлении учебной информации, что влияет на взаимосвязь науки и предмета исследования. Компьютерные образовательные средства влияют на организационные формы обучения, задачи учителя и ученика, а также на технологии образования. Внедрение их возможностей в условиях информационно-образовательной среды является предпосылкой для развития заранее организованных организационных форм обучения и

Это приводит к изменению методов обучения, появлению новых методов обучения, основанных на использовании компьютерных методов и инструментов. В настоящее время в сфере образования и педагогики сложилась уникальная ситуация: возможности компьютера огромны, но существенного влияния на массовую практику образования, соответствующую этим базовым возможностям, не наблюдается. Одна из причин этого явления заключается в том, что, несмотря на существование концептуальных разработок, дидактические основы информационных технологий в обучении требуют систематического обоснования [9].

До настоящего времени многие вопросы создания и использования компьютерных образовательных программ остаются нерешенными. В частности, необходимо решить комплекс вопросов, связанных с развитием целостной психолого-педагогической концепции компьютерного образования. Например, формирование мотивации и познавательного интереса к обучению, установление педагогически обоснованного компьютерного диалога, сочетание индивидуальной, групповой и коллективной форм обучения, познавательная

активизация деятельности, быстрая организация, контроль результатов учебно-познавательной деятельности и самоконтроль. Проблема эффективного применения возможностей компьютера как учебного инструмента в образовательном процессе требует решения [10].

Информатизация образования создает исходные условия и предпосылки для широкого внедрения в практику психолого-педагогических разработок. Она обеспечивает переход от механического усвоения устоявшихся знаний к приобретению способности самостоятельно усваивать новые знания, позволяет повысить уровень научного характера эксперимента, приблизив его методы и организационные формы к экспериментальным методам исследования изучаемых

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

наук; обеспечивает внедрение современных методов работы с информацией, интеллектуализацию образовательной деятельности.

Заключение

Проведенные исследования и анализы показывают наличие определенного противоречия между необходимостью систематического подхода к анализу медицинского оборудования и новых медицинских технологий, информатизацией образования как целостной системы и односторонним подходом, преобладающим в теории и практике, который в основном связан с анализом лишь отдельных (технических, дидактических, кибернетических и т. д.) возможностей средств информатизации образования.

С другой стороны, внедрение компьютерной поддержки образовательного процесса для каждого курса обучения подтверждается его взаимозависимостью с развитием образовательной системы в целом. Это решает следующие задачи: определение необходимости использования компьютера; определение уровня компьютеризации образовательного процесса; определение функций, возложенных на компьютер; разработка компьютерного пособия в соответствии с информационно-методическими рекомендациями преподавателей и стилистов. Анализ литературы показывает необходимость обоснования принципов создания автоматизированного учебно-методического комплекса с точки зрения систематического психолого-педагогического и информационного подходов. Кроме того, отмечается недостаточное развитие методик использования компьютерных пособий, отсутствие практического опыта оценки влияния компьютера на эффективность образовательного процесса. Таким образом, актуальность темы статьи связана с необходимостью создания комплексных компьютерных образовательных программ и методик их применения, отвечающих предъявляемым к ним психолого-педагогическим требованиям и обеспечивающих эффективность образовательного процесса.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. A.M. Касимахунова, M.A. Шаходжаев. Методика подготовки студентов в области прикладной теории. «Армия электронов». «Вестник науки и практики» № 9 (сентябрь) 2021 г. Том 7. 535-541 стр.
2. A.M. Касимахунова, Ш.С. Назирджонова. Вопросы подготовки кадров для экплоации солнечных электростанций. Там Дже, стр. 29–31.
3. M.A.Шаходжаев, «Методология организации самостоятельного обучения в технических областях», Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова, Научный вестник социальных и гуманитарных наук в системе образования, 2020, № 1, с. 116-119.
4. Эргашев А.Дж. Технология подготовки дидактических игровых заданий в преподавании ядерных технологий в высшем образовании. Научный вестник

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Наманганского государственного университета. – НамГУ. – 2022 г. – № 7 – С. 353-358.
5. Ergashev A. J., Mamarajabov D. S., qizi Shukurova S. S. Lazerlar va ulardan tibbiyotda foydalanish //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 85-88.
6. Ergashev A. J. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida "Yadro texnologiyalari" fanini multimediali vositalar yordamida o 'qitish //Inter education & global study. – 2025. – Т. 3. – №. 11 (1). – С. 82-89.
7. А.Ј.Эргашев Дидактические возможности ресурсов электронного обучения в повышении эффективности преподавания ядерных технологий в высших учебных заведениях. С. 302 // Журнал физиологии упражнений – США: 2022. С. 302-303.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

YOSH SPORTCHILARNI TARBIYALASH VA HUQUQIY HIMOYA QILISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.

Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qaroqolpoq filiali mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ta'lim sohasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, psixologik xavfsizlikning tarbiyaviy va himoya funksiyalarini loyihalashning nazariy asoslari hamda psixologik-pedagogik tahlili keltirilgan, yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — jismoniy tarbiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi va yosh sportchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlovchi pedagogik mexanizmlarni aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik amaliyotlardan iborat. Tadqiqotda psixologik-pedagogik tahlil, qiyosiy yondashuv va tarbiyaviy funksiyalarni loyihalash metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tahlillar shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiyani psixologik xavfsizlik bilan uyg'unlashtirish sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, bezovtalik darajasini pasaytirishga va yosh sportchilarning huquqiy himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish o'quvchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va psixologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: yosh sportchilarni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, pedagogik mexanizmini takomillashtirish, psixologik-pedagogik xususiyatlar.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЛУЧШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБРАЗОВАНИЯ И ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ МОЛОДЫХ СПОРТСМЕНОВ.

Рахмонов Амиршох Абдумухторович, Независимый исследователь Каракалпакского филиала Национального института педагогики образования имени Кори Ниязи.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются вопросы реализации целенаправленной работы по дальнейшему развитию физической культуры и спорта в сфере образования. Также представлены теоретические основы и психолого-педагогический анализ проектирования воспитательных и защитных функций

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

психологической безопасности, даны рекомендации по совершенствованию педагогического механизма воспитания и правовой защиты молодых спортсменов.

ЦЕЛЬ: целью исследования является выявление педагогических механизмов, способствующих физическому воспитанию и обеспечивающих психологическую безопасность молодых спортсменов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования послужили педагогические практики в области физического воспитания и спорта. В работе используются методы психолого-педагогического анализа, сравнительного подхода и проектирования воспитательных функций.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показали, что сочетание физического воспитания с психологической безопасностью способствует формированию здорового образа жизни, снижает уровень тревожности и укрепляет правовую защиту молодых спортсменов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что совершенствование педагогических механизмов в области физической культуры и спорта имеет важное значение для формирования здорового образа жизни и обеспечения психологической безопасности учащихся.

Ключевые слова: воспитание юных спортсменов, формирование здорового образа жизни, совершенствование педагогического механизма, психолого-педагогические особенности.

SOCIAL AND PEDAGOGICAL FEATURES OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL MECHANISM OF EDUCATION AND LEGAL PROTECTION OF YOUNG ATHLETES.

Rahmonov Amirshoh Abdumukhtorovich, Independent researcher of the Karakalpak branch of the National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyazi.

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses the implementation of targeted work on the further development of physical culture and sports in the field of education. Also, theoretical foundations and psychological-pedagogical analysis of the design of educational and protective functions of psychological safety, recommendations for improving the pedagogical mechanism of education and legal protection of young athletes are given.

AIM: the aim of the study is to identify pedagogical mechanisms that promote physical education and ensure psychological safety for young athletes.

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of pedagogical practices in physical education and sports. The study employs psychological-pedagogical analysis, comparative approach, and the design of educational functions.

RESULTS AND DISCUSSION: the results revealed that combining physical education with psychological safety fosters a healthy lifestyle, reduces anxiety, and strengthens the legal protection of young athletes.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

CONCLUSION: in conclusion, improving pedagogical mechanisms in physical education and sports is essential for shaping a healthy lifestyle and ensuring psychological safety among students.

Keywords: upbringing of young athletes, formation of a healthy lifestyle, improvement of the pedagogical mechanism, psychological and pedagogical features.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog‘lom hamda aqlan yetuk bo‘lib voyaga yetishi uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur jarayonlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o‘zining taraqqiyot dasturiga asoslangan holda olib borilmoqda. Ta’lim muassasalari, maktabgacha tarbiya va boshqa turli muassasalarda jismoniy tarbiya va sport davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy-tarbiyaviy jarayon sifatida qo‘llanilmoqda. Bunday ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil qilish maqsadida qator qonunlar va hukumat qarorlari amalda o‘z samaralarini bermoqda.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Respublikamizda ta’lim sohasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan:

– jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta’minlash;

– ta’lim muassasalari o‘quvchi va talabalari, aholining keng qatlamlari o‘rtasida sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o‘tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda ularni maqsadli tayyorlash kabi yo‘nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

– jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari hamda klublarining faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, respublika maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyatini takomillashtirish;

– mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni ommalashtirish borasida keng ko'lamli ishlarni tashkillashtirish;

– bolalarni sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishga jalb etish, bolalar sport ta'limi sifatini oshirish, barcha hududlarda, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda bolalar sporti obyektlari tarmog'ini yanada kengaytirish orqali bolalar sportini yanada rivojlantirish;

– jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro va davlatlararo sport aloqalarini kengaytirish hamda mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish borasidagi ishlarni tashkil qilish, ommabop sport dasturlarini tashkil etishga ko'maklashish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid ommaviy adabiyotlar chop etish, video va kino materiallar tayyorlash.

Mamlakatimiz sportchilari Markaziy Osiyo va Osiyo o'yinlari, turli xalqaro turnirlar, jahon birinchiligi va Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyat bilan ishtirok etib, egallagan sovrinli o'rinlari uchun O'zbekistonning xalqaro nufuzi oshmoqda. Sportdagi bu yutuqlar xalqimizning o'zligini anglash, birdamlik va vatanparvarlik hissiyotlarini o'sishiga sabab bo'ladi. Sport bugungi kunda yoshlarimizning yomon yo'lga kirishining oldini oladigan, bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga yordam beradigan va eng asosiysi, yoshlar uchun jiddiy muammoga aylangan salyuiy illatli kasalliklarning oldini olish vositasidir. Bundan tashqari, sport bilan shug'ullanish maxsus immunitet hosil qilib, bugungi kunda hayotda ko'plab uchrab turuvchi yurak qon-tomir, diabed kabi xastaliklarning oldini olishga, ruhiy tushkunlikni (stress) yengishga yordam beradi. Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar jismoniy tarbiya va sportning jamiyatimiz hayotidagi ahamiyatini yanada kuchaytirish, aholining barcha qatlami orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitni yaratish orqali ularni ommaviy tarzda sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish, qolaversa, nufuzli xalqaro maydonlarda vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan mashhur sportchilarimiz saflarini tobora kengaytirishga xizmat qiladi.

Yosh sportchi shaxsining shakllanishi – bu ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillar o'zaro ta'siri natijasidir. Shu jarayonda jamiyat qadriyatlari, oilaviy muhit, sport maktablari faoliyati, murabbiylar malakasi va davlat siyosatining yo'nalishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda sport to'garaklarida mashg'ulotlarni samarali rejalashtirish va tashkil eta oladigan malakali mutaxassislarni yollash masalasi tobora ko'proq ko'tarilmoqda. Eng muhim natijalarga erishish uchun murabbiylarga muntazam ravishda malaka oshirish kurslaridan o'tish va ijobiy jamoaviy muhitni yarata oladigan va har bir sportchining individual psixologik xususiyatlarini aniqlay oladigan psixologlarni jalb qilish tavsiya etiladi. Hozirgi vaqtda psixologlar bilan ishlash ayniqsa dolzarbdir, chunki barcha

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

murabbiylar ham bu sohada zarur bilimga ega emaslar va agar ular bo‘lsa ham, ko‘pincha o‘z sportchilari uchun mustaqil ravishda keng qamrovli psixologik tayyorgarlikni ta'minlay olmaydilar. Turli o‘yinchilarning xususiyatlarini tushunish murabbiylarga ma'lum bir sportchining imkoniyatlarini ma'lum bir vazifaning talablariga to‘g‘ri moslashtirishga, sportchilar o‘rtasidagi muloqotning eng samarali shakllari va usullarini topishga va jamoaviy ishni to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, faqat bir nechta sport maktablari doimiy shtatda psixologga ega bo‘lishga qodir[1].

P. Bourdieu (1984) sportni ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi maydon deb ta’riflab, unda shaxs o‘zini namoyon qilish, tan olinishi va jamiyatda maqom topish imkoniyatiga ega bo‘lishini ko‘rsatgan. Shu bois sport nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy tarbiya vositasidir.

Bu juda muhim sotsiologik nuqtayi nazar bo‘lib, sportning ijtimoiy tizimga ta’sirini chuqur ochib beradi. Sport oddiy jismoniy faoliyat deb emas, balki ijtimoiy o‘zgarishlar va shaxsiy maqomni oshirish mexanizmi hisoblanadi. Ijtimoiy kapital (social capital) tushunchasi sportchining jamiyatdagi o‘rnini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sportchi g‘alaba qozonishi va nufuzli musobaqalarda ishtirok etishi orqali madaniy, jismoniy va ijtimoiy kapitallarini ko‘paytiradi, bu esa uning o‘zini namoyon qilish, tan olinish va jamiyatda yuqori maqom topish imkoniyatini keskin oshiradi.

Sportning ijtimoiy tarbiya vositasi ekanligi aynan ijtimoiy kapitalni shakllantirish jarayonida namoyon bo‘ladi:

– sport mashg‘ulotlari va musobaqalar yoshlarni jamoada ishlashga, o‘z rolini tushunishga, guruh manfaati uchun shaxsiy ambitsiyalardan voz kechishga o‘rgatadi. Jamoaviy sport turlari hamkorlik, ishonch va o‘zaro yordam kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi;

– mag‘lubiyatni qabul qilish, jarohatdan keyin tiklanish va bosim ostida qaror qabul qilish sportchiga psixologik chidamlilik (rezilientlik)ni o‘rgatadi. Bu esa yoshlarga kelajakda hayotdagi turli xil ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelganda samarali kurashish qobiliyatini beradi;

– ijtimoiy mobillik: Sport ayniqsa kam ta’minlangan yoki olis hududlarda yashovchi iqtidorli yoshlar uchun ijtimoiy zinapoya bo‘lib xizmat qiladi. Sportdagi muvaffaqiyatlar o‘qishga kirishda imtiyoz, yuqori daromadli shartnomalar va jamiyatda hurmatli o‘rin egallash imkonini beradi.

Psixologik jihatdan, yosh sportchilar faoliyatida motivatsiya va raqobatbardoshlik asosiy o‘rin tutadi. R. Deci va E. Ryanning Self-Determination Theory (2000)ga ko‘ra, sportchi o‘z faoliyatidan ichki qoniqish olgandagina uning natijasi barqaror va sog‘lom bo‘ladi. Shu sababli pedagogik mexanizmda motivatsion va emotsional qo‘llab-quvvatlash tizimi zarur.

O‘zbek olimlaridan Sh. To‘xtayev yosh sportchilarning psixologik tayyorgarligi haqida shunday yozadi: “Murabbiy nafaqat sport texnikasini, balki shaxsning ruhiy

[1] Бочкарева Светлана Игоревна, Шутова Татьяна Николаевна, Джанджугазян Анжела Владимировна ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ СПОРТСМЕНОВ (НА ПРИМЕРЕ ФУТБОЛА) // Кронос. 2022. №11 (73). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologo-pedagogicheskoe-soprovozhdenie-sportsmenov-na-primere-futbola

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

muvozanatini ham tarbiyalashi kerak" (*Sport psixologiyasi asoslari*, 2019). N. Tursunova esa sportdagi axloqiy tarbiya va huquqiy himoyani yagona tizimda ko'rish zarurligini ta'kidlaydi (Tursunova N., 2021).

Yosh sportchilarni zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyalash jarayoni nafaqat ularning jismoniy va texnik tayyorgarligini rivojlantirishni, balki har bir sportchining shaxsiy-psixologik rivojlanishini, uning sportga bo'lgan ichki motivatsiyasini mustahkamlashni ham talab etadi. Ushbu yondashuv doirasida, sport ta'limi muhitining psixologik xavfsizligi masalasi asosiy nazariy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Sport maktabidagi ta'lim muhitining ijtimoiy-psixologik xavfsizligi yosh sportchilarda yutuq motivatsiyasining rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi empirik ma'lumotlar bilan isbotlangan. Bu pedagogik mexanizmni takomillashtirishda nafaqat huquqiy normalarga, balki psixologik-pedagogik shart-sharoitlarga ham tayanmoq zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Psixologik xavfsizlik tushunchasi o'z ichiga sportchining o'quv-mashg'ulot jarayonida o'zini jismoniy va ruhiy jihatdan xotirjam, himoyalangan his qilishini oladi. Bu xavfsizlik sportchiga xato qilish, qiyinchiliklarga duch kelish va o'z muammolarini ochiq ifoda etish imkoniyatini beradi, bu esa o'z-o'zidan stress darajasini kamaytirib, o'rganish samaradorligini oshiradi. Yuqori darajadagi yutuq motivatsiyasiga ega bo'lgan shaxslar qiyinchiliklarni muvaffaqiyatsizlik deb emas, balki rivojlanish uchun imkoniyat deb qabul qiladilar. Bunday munosabat esa faqat ishonch va qo'llab-quvvatlashga asoslangan muhitda shakllanadi.

Tadqiqotlardan kelib chiqib, psixologik xavfsizlikni tarbiyaviy va himoya funksiyalarini loyihalashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladigan uchta asosiy komponent orqali tahlil qilish mumkin:

Ijtimoiy-psixologik himoyalanganlik hissi: Bu komponent sportchining murabbiy, o'qituvchilar va jamoa a'zolari tomonidan adolatli munosabatga ega bo'lishiga, tahqirlanishdan, shaxsiyatga qaratilgan tanqiddan va ruhiy bosimdan himoyalanganligiga ishonchini anglatadi. Huquqiy himoya qilish, avvalo, sportchining fundamental psixologik himoyalanganlik ehtiyojini ta'minlashi kerak. Tadqiqotda aniqlangan yuqori darajadagi himoyalanganlik hissiga ega bo'lgan yosh sportchilar o'zlarining sport maqsadlariga erishishda yanada qat'iy va mustaqil bo'lishlari nazariy jihatdan asoslangan;

Muloqotdan qoniqish: Bu komponent pedagogik jarayonning ochiqligi va shaffofligini belgilaydi. Agar sportchi o'z fikrlarini, noroziliklarini yoki g'oyalarini xavotirsiz yetkaza olsa, u ta'lim jarayoniga to'liq jalb qilinadi. Muloqotdan qoniqishning yuqoriligi yutuq motivatsiyasi bilan ijobiy korrelyatsiyada bo'ladi. Shu sababli, biz takomillashtirayotgan mexanizm huquqiy tarbiya doirasida sportchilarda o'z huquqlari to'g'risida ochiq muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Munosabatlarning uyg'unligi: Bu komponent jamoa ichidagi sog'lom munosabatlar, bir-birini qo'llab-quvvatlash va raqobatning do'stona ruhda kechishini qamrab oladi. Sportdagi guruh dinamikasi shaxsiy motivatsiyaga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Agar sportchi o'z jamoasida o'zaro ishonch va hurmat muhitini his etsa, uning muvaffaqiyatga intilishi kuchayadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Yuqoridagi psixologik-pedagogik tahlillar yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishda quyidagi nazariy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

Tarbiyaviy yondashuvni yangilash: Tarbiya jarayoni faqat axloqiy me'yorlarni singdirishdan iborat bo'lmasdan, balki sportchining ichki ruhiy barqarorligini ta'minlashga, uning o'ziga ishonchini oshirishga va shu orqali uning yutuq motivatsiyasini mustahkamlashga qaratilishi lozim. Psixologik xavfsizlik – bu samimiy tarbiya uchun zamin;

Huquqiy himoyaning yangi ma'nosi: Huquqiy himoya qilish endi faqat jismoniy yoki moliyaviy zo'ravonlikdan himoya qilish bilan cheklanmasligi kerak, balki sportchining ruhiy sog'ligini saqlash, pedagogik va murabbiylik bosimidan himoyalashni ham o'z ichiga olishi kerak. Bu pedagogik mexanizmda psixologik xavfsizlikni huquqiy me'yorlarning qo'shimcha darajasi sifatida tushunishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh sportchilarni huquqiy himoya qilish muammosini faqat qonunlarni takomillashtirish orqali hal etib bo'lmaydi. Bu jarayon sportchi shaxsida "huquqiy immunitet"ni shakllantiruvchi, psixologik xavfsiz muhitni ta'minlovchi va ijtimoiy moslashuvni kuchaytiruvchi yaxlit pedagogik tizimni talab etadi. Shu bois, keyingi boblarda ushbu nazariy asoslarga tayangan holda amaliy pedagogik modelni ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abduqodirov N. "Sport pedagogikasi asoslari". Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2018.
2. Xolmatov B. "Yoshlar tarbiyasi va huquqiy madaniyat". Toshkent: Ilm-fan, 2020.
3. Qodirov S. "Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi". Toshkent: O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti nashriyoti, 2019.
4. Tursunov A. "Pedagogik texnologiyalar va modulli ta'lim tizimi". Toshkent: Fan va ta'lim, 2021.
5. Karimov U. "Pedagogik metodika va zamonaviy o'qitish usullari". Toshkent: Ilmiy nashr, 2020.
6. Mirzaev T. "Sportchilarda huquqiy va ma'naviy kompetensiya shakllantirish". Toshkent: Sport ilm-fan, 2022.
7. Islomov R. "Yoshlar tarbiyasi va axloqiy-ruhiy kamolot". Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, 2019.
8. Бочкарева Светлана Игоревна, Шутова Татьяна Николаевна, Джанджугазян Анжела Владимировна ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ СПОРТСМЕНОВ (НА ПРИМЕРЕ ФУТБОЛА) // Кронос. 2022. №11 (73). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologo-pedagogicheskoe-soprovozhdenie-sportsmenov-na-primere-futbola

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

INTENSIV TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI.

Butayev Norbek Tolib o'g'li, Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada intensiv ta'lim yondashuvi asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot intensiv ta'limning mohiyati, uning pedagogik jarayondagi o'rni va talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirishdagi ahamiyatini ochib beradi. Shuningdek, intensiv yondashuv orqali qisqa vaqt ichida bilim, ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirish imkoniyatlarining ilmiy asoslari yoritilgan. Maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim va raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Intensiv ta'lim jarayonida o'quv faoliyatining jadalligi, mazmunning integrativ tabiati va amaliy yo'naltirilganlik asosiy omillar sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, intensiv ta'lim yondashuvi talabalarda mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, kasbiy muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu asosda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilgan va ularning pedagogik amaliyotda qo'llanilishi asoslab berilgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, loyihaga asoslangan o'qitish va raqamli texnologiyalarga e'tibor qaratgan holda, intensiv ta'lim orqali talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali oliy pedagogika yo'nalishidagi ta'lim muassasalari, xususan, intensiv ta'lim muhitidagi o'qitish amaliyotidan iborat. Tadqiqotda interaktiv metodlar, loyihaga asoslangan ta'lim va raqamli integratsiyaning samaradorligini baholash uchun pedagogik tahlil, qiyosiy yondashuv va eksperimental sinov metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: natijalar shuni ko'rsatdiki, intensiv ta'lim talabalarda mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvlarni shakllantiradi. Integrativ mazmun, amaliy yo'naltirilganlik va intensiv ta'limning jadallashtirilgan sur'ati asosiy omillar sifatida aniqlandi. Interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, loyihaga asoslangan o'qitish va raqamli texnologiyalar kasbiy kompetentlikni chuqurlashtirishga sezilarli hissa qo'shadi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, intensiv ta'lim yondashuvi talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik strategiya bo'lib xizmat qiladi. U mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshiradi. Pedagogik amaliyotda intensiv ta'lim mexanizmlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi salohiyati isbotlangan.

Kalit so'zlar: intensiv ta'lim, intensiv yondashuv, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, pedagogika OTM, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, raqamli

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

texnologiyalar, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, kasbiy rivojlanish, ta'lim samaradorligi, o'quv jarayonini jadallashtirish.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕНСИВНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПОДХОДА.

Норбек Бутаев Толиб оглу, независимый исследователь Гулистанского государственного университета.

Аннотация

O‘qituvchilarni tayyorlash muammosini eng muhim ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri deb hisoblagan K.D. Ushinskiy o‘qituvchidan qat’iy axloqiy e’tiqodlar, maxsus pedagogik bilimlarning mavjudligini talab qiladi, bu unga ta’lim maqsadini aniq va puxta belgilashga yordam beradi va ta’lim jarayonini uning barcha bosqichlarida boshqaradi. P. F. Kapterev (1849-1922) bo‘lajak o‘qituvchining psixologiyasini o‘rganib, o‘qituvchining muvaffaqiyatli pedagogik faoliyati uchun zarur bo‘lgan maxsus va shaxsiy fazilatlarini aniqladi va ularning iyerarxiyasini belgilab berdi. Birinchisi, o‘z navbatida, u obyektiv (o‘qituvchining ilmiy tayyorgarligi) va subyektiv (o‘qituvchining shaxsiy pedagogik iste’dodi)ga bo‘linadi va ikkinchisi o‘qituvchining axloqiy va irodaviy fazilatlarini ifodalaydi. Bularga adolatlilik, o‘z vazifalariga jiddiy vijdonan munosabat, talablarni amalga oshirishda va o‘z qarashlarini amalga oshirishda chidamlilik va qat’iyatlilik, o‘qituvchining bolalarga va o‘quvchi yoshlarga bo‘lgan muhabbati kiradi. Olim ham o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish istagi o‘qituvchi uchun muhimligini ta’kidladi.Qanday tushunchalar "Pedagogik etika" uchun asosiy deb hisoblash mumkin?

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Bizning fikrimizcha, shundaylar deb tan olishimiz kerak: axloq, ma'naviyat, pedagoga nisbatan axloqiy madaniyat, axloqiy faoliyat, axloqiy tanlov vaziyati.

Aniqki, ushbu bo'limda biz ularni to'liq hajmda ochib berish maqsadini qo'yganimiz yo'q. Bunday bo'lishi bilan birga, etika tushunchalari bir umumiy xususiyatga ega. Ularning mohiyati osoncha inkor etilishi mumkin, chunki ularning ma'nosi va qo'llanish kriteriyalari ko'pincha noaniq bo'ladi. Bunday tushunchalar etika, masalan, axloq, axloqiy madaniyat, fe'l-atvor erkinligi, adolat va boshqalar uchun ham xuddi shunday. San'atshunoslar, ba'zi bir tasvirlarni san'at shedovi sifatida hisoblashayotganida, uning o'rniga masalan, o'rta vaquda deb baholashayotganida, etika tushunchalarining mazmuni hali ham aniq belgilangan emasdir. Shunga qaramasdan, N.I. Lobachevskiyning ko'rsatmalarini amalga oshirish orqali ularning mohiyatini aniqlashga urinishimiz mumkin.

Zamonaviy etika taraqqiyoti bo'yicha tadqiqotlarda professional etika yo'q, balki umumman etika, ya'ni insoniyat axloqi uchun axloqiy prinsiplari, normativlari va qoidalari mavjuddir. Ularni bajarish, rioya qilish orqali barcha axloqiy muammolar hal etiladi, deb talqin qilishadi. Umumiy axloqiy prinsiplarga va qoidalariga amal qilish bilan jamiyatda axloqiy muhit sog'lomlanadi, deydilar. Biroq, bu qo'shimcha argumentatsiya muxohazatchiligiga olib keladi. Pedagogning professional faoliyati, masalan, muhandis, jurnalist yoki yuristdan farqli o'laroq, o'ziga xos muhim bir xususiyatga ega bo'lib, bu unga axloqiy talablar qo'yadi.

Pedagog faoliyatining markaziy xususiyatlaridan biri shundaki, uning axloqiy madaniyati har kuni, agar har soatda emas, o'quvchilarga yoki talabalarga axloqiy madaniyat sifatida uzatilishi. Ya'ni, pedagog, bir tomondan, ilgari o'zining sevimli avlodlarining axloqiy tajribasini to'plashi, ikkinchi tomondan, esa, bu tajribani ko'plab o'quvchilarga

uzatishi kerak.

Zamonaviy pedagogning yuqori madaniyat darajasining ko'rsatkichlari orasida fikrlash, tanqidiylik va o'ziga tanqid qilish, doimiy ijodiy kuch sarflash kabi sifatlar bo'ladi. Pedagogning axloqiy madaniyati professionallik va shaxsiy sifatlarni birlashtirishi kerak. Bunday bo'lish bilan birga, u o'zgarmaydi, balki shaxsiy o'sishini va professional mahoratini oshirishi bilan sezilarli o'zgarishlar beradi. Pedagogning axloqiy madaniyati – bu shaxsiy va professional sifatlarning murakkab integratsiya tizimi bo'lib, u pedagogning axloqiy sifatlarining (moti-vlar, qadriyatlar, e'tiqodlar, bilimlar, qobiliyatlar, hissiyotlar va qobiliyatlar) rivojlanish va o'zaro rivojlanishni ifodalaydi, bu axloqiy tanlovi va axloqiy faoliyatning turli vaziyatlarida namoyon bo'ladi hamda zamonaviy ijtimoiy madaniyatda va professional faoliyatda normativ yoki ideal hisoblanadigan inson yaqin axloqiy qadriyatlar, prinsiplari va qoidalari bilan taqqoslaganda.

Agar pedagogning axloqiy madaniyati – bu professional-shaxsiy xususiyat bo'lsa, "axloq" tushunchasini qo'llab-quvvatlaganda biz ijtimoiy xotiraga e'tibor beramiz. Shu sababli, axloq tushunchasi eng ko'p hollarda quyidagicha ta'riflanadi:

Axloq – bu ijtimoiy xotira shakli bo'lib, odamlarga, ijtimoiy guruhga, jamiyatga o'z tabiatiga va milliy an'analariga asoslangan o'z xulq-atvorida, qiyofalarida bo'lgan axloqiy narsalar va qadriyatlar bilan faoliyat va munosabatlar orqali ifodalangan. Haqqoniy, agar

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

"Falsafiy lug'at"ga qarasak, "axloq" va "moral" so'zlari sinonimlar sifatida qo'llaniladi: "axloq (lot. moralis – axloqiy, murakkab ko'pligi mores – odatlar, an'analar, xulq-atvor) – ma'naviyat, insonning jamiyatdagi harakatlarining me'yoriy tartibining asosiy usullaridan biri; ijtimoiy xotiraning xususi va ijtimoiy munosabatlarning bir turi (axloqiy munosabatlar), etikani o'rganishning maxsus ob'ekti" deb ko'rsatadi.

Axloq zamonaviy jamiyat hayotining barcha jabhalarini: mehnat,

oddiy hayot, siyosat, fan, oilaviy, shaxsiy va professionalligiga mos ravishda tartibga soladi. Axloq insonning harakatlarini tartibga solishning asosan quyidagi asosiy turlariga kiradi, masalan, huquq, urf-odatlar, an'analar va boshqa qoidalar bilan to'qnashadi va bir vaqtning o'zida ulardan muhim farq qiladi.

Huquqdan farqli o'laroq, axloqiy normativlar, xotin-qizlarning xulq

atvorini aniq belgilovchi muassasalardan foydalanuvchilar tomonidan taklif etilmaydi, balki individ yoki ijtimoiy guruhning oddiy roziligi, his tuyg'ulari, tajribalari orqali tuzilgan bo'ladi. Shunday qilib, masalani muhokama qilganimizda, falsafiy-axloqiy literatura bag'rida "axloq" tushunchasi ustida juda keng spektrilarga ko'radigan tushunchalarni ko'rsatganimiz o'z o'rnida e'tiborga molik. Ular orasida axloq, ba'zan, xuddi baliqichlar ortida shaxsiy baxtni kashf etish yo'lida sifatida tushuniladi.

Axloqiy xulq-atvorni baholash juda oson, lekin ko'pincha xato qilyapmiz, agar biz ularning asl sabablari, xulq-atvor motivlari, ichki dunyosi, ijtimoiy madaniy muhitiga e'tibor bermasak. Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, axloqiy struktura hatto alohida olingan shaxs va umuman jamiyat uchun juda murakkab va ko'p o'lchovli.

Olimlarning ta’kidlashicha, etika oldida murakkab nazariy va amaliy amaliy vazifalar turibdi. Ulardan eng muhimlari qatorida tadqiqotchilar o‘qituvchining axloqiy ehtiyojlarini shakllantirish tuzilishi va o‘rganilishini, shuningdek, ularning o‘quvchilarning ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini rivojlantirishga ta’sirini va kamchiliklarni aniqlashga; pedagogik mehnat xarajatlari va ularni bartaraf etish yo‘llari, o‘qituvchining axloqiy ongi holatini o‘rganishga murojaat qilishdi.

“Pedagogik etika: o‘qituvchi uchun kitob” asarida V.I. Pisarenko va I.Ya. Pisarenko o‘qituvchilarning pedagogik jarayonning boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarini ko‘rib chiqishga katta e’tibor beradi.

G. Mamedzoda “O‘qituvchining pedagogik etikasi” asarida pedagogik etikaning predmeti, vazifalari, funksiyalari, asosiy toifalari ko‘rib chiqilgan. Muallif ta’lim tizimi muammolarini o‘rganar ekan, “pedagogik jarayonda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi aloqani faqat pedagogik etika yordamida, uning asoslarini o‘zlashtirish, axloqiy tamoyillarni e’tiqodga aylantirish yordamida o‘rnatish mumkin. Bu yerda eng muhim rol o‘qituvchining kasbiy darajasini oshirishga tegishli” deb ta’kidladi.

Xulosa qilib aytkanda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarida pedagogik etikani shakillantirish jarayonida olimlarning fikr va mulohazalariga tayanib, ularda axloqiy madaniyatni rivojlantirib orqali o‘quvchilar bilan ishlash faoliyatida o‘qituvchining pedagogik etikasini rivojlantirishdir. Shuningdek, muallim ta’lim jarayonida hamisha namuna sifatida qaraladi va kasbiy rivojlanishiga katta axamiyat beriladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan).-T.: O‘zbekiston, O‘RQ 637-son
2. Kadirov, A. – Antik dunyo falsafasi va ta’lim tizimi, Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. 245-b.
3. Толстой Л.Н. Педагогические сочинения / Л.Н. Толстой. - М.: Учпедгиз, 2005.- 444с
4. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения / К.Д. Ушинский; Под ред. А.И. Пискунова: В 2 т.- Т.1. - М.: Педагогика, 2008. - 584с.
5. Каптерев П.Ф. Избранные педагогические сочинения / П.Ф. Каптерев; Под ред. А.М.Арсеньева.- М.: Педагогика, 2012.- 704 с.
6. Писаренко В.И. Педагогическая этика: Книга для учителя / В.И. Писаренко, И.Я. Писаренко. - Минск.: Народна асвета, 2015,- 240 с.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR SPORTI VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI: PEDAGOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK ASPEKTLAR.

Ummatov Nozim Raimjonovich, Namangan davlat pedagogika institutining Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi professori**.**

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik mexanizmlari hamda psixofiziologik omillari tizimli tahlil qilinadi. Unda jismoniy faollikning intellektual va hissiy rivojlanishga ta'siri, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdagi yakka tartibdagi va jamoaviy pedagogik yondashuvlar hamda sport mashg'ulotlarining stressga chidamlilik, diqqat va konsentratsiya kabi kognitiv funksiyalarni kuchaytirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — talabalar sportini rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik hamda psixofiziologik mexanizmlarni o'rganish, shuningdek, ularning kognitiv funksiyalar va umumiy farovonlikka ta'sirini yoritib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali jismoniy madaniyat, pedagogik yondashuvlar va psixofiziologik rivojlanishga oid nazariy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda pedagogik tahlil, qiyosiy baholash va oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar sporti amaliyotini kuzatish metodlari qo'llanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tahlillar shuni ko'rsatdiki, jismoniy faollik intellektual o'sishga, hissiy barqarorlikka hamda stressga chidamlilik, diqqat va konsentratsiya kabi kognitiv funksiyalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik yondashuvlar — ham individual, ham jamoaviy shaklda — sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Talabalar sport faoliyati motivatsiyani oshiradi, o'z-o'zini tartibga solishni yaxshilaydi hamda jismoniy, psixologik va ta'limiy jihatlarni integratsiyalash orqali har tomonlama rivojlanishga yordam beradi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirish oliy ta'limning uzviy qismidir. Pedagogik mexanizmlar va psixofiziologik omillarning integratsiyalashuvi kognitiv funksiyalar, hissiy chidamlilik va kasbiy tayyorgarlikning samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Amaliy tavsiyalar talabalarning umumiy salomatligi va akademik muvaffaqiyatini mustahkamlash uchun jismoniy madaniyatni ta'lim strategiyalari bilan birlashtirish muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: talabalar sporti, sog'lom turmush tarzi, psixofiziologik rivojlanish, pedagogik yondashuv, jismoniy madaniyat, stressga chidamlilik, oliy ta'lim muassasalari, kognitiv funksiyalar.

ТЕОРИЯ СТУДЕНЧЕСКОГО СПОРТА И ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Намматов Нозим Раимжонович, Профессор кафедры физической культуры и спорта, Наманганский государственный педагогический институт.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье представлен системный анализ теоретических основ, педагогических механизмов и психофизиологических факторов, участвующих в формировании студенческого спорта и здорового образа жизни. Рассматриваются влияние физической активности на интеллектуальное и эмоциональное развитие, индивидуальные и коллективные педагогические подходы к продвижению здорового образа жизни, а также роль спортивных занятий в укреплении таких когнитивных функций, как стрессоустойчивость, внимание и концентрация.

ЦЕЛЬ: целью исследования является изучение педагогических и психофизиологических механизмов, способствующих развитию студенческого спорта и формированию здорового образа жизни, с акцентом на их влияние на когнитивные функции и общее благополучие.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалы исследования включают теоретические работы по физической культуре, педагогическим подходам и психофизиологическому развитию. В работе использованы методы педагогического анализа, сравнительной оценки и наблюдения за практикой студенческого спорта в высших учебных заведениях.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показывают, что физическая активность положительно влияет на интеллектуальный рост, эмоциональную стабильность и когнитивные функции, такие как стрессоустойчивость, внимание и концентрация. Педагогические подходы — как индивидуальные, так и коллективные — играют решающую роль в формировании привычек здорового образа жизни. Студенческая спортивная деятельность повышает мотивацию, улучшает саморегуляцию и способствует целостному развитию за счет интеграции физического, психологического и образовательного аспектов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что студенческий спорт и формирование здорового образа жизни являются важными компонентами высшего образования. Интеграция педагогических механизмов и психофизиологических факторов обеспечивает эффективное развитие когнитивных функций, эмоциональной устойчивости и профессиональной готовности. Практические рекомендации подчеркивают важность сочетания физической культуры с образовательными стратегиями для укрепления общего благополучия и академической успеваемости студентов.

Ключевые слова: студенческий спорт, здоровый образ жизни, психофизиологическое развитие, педагогический подход, физическая культура, стрессоустойчивость, высшие учебные заведения, когнитивные функции.

THEORY OF STUDENT SPORTS AND HEALTHY LIFESTYLE FORMATION IN HIGHER EDUCATION: PEDAGOGICAL AND PSYCHOPHYSIOLOGICAL ASPECTS.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Ummatov Nozim Raimjonovich, Professor, Department of Physical Culture and Sports, Namangan State Pedagogical Institute.

Annotation

INTRODUCTION: this article provides a systematic analysis of the theoretical foundations, pedagogical mechanisms, and psychophysiological factors involved in student sports and healthy lifestyle formation. It examines the impact of physical activity on intellectual and emotional development, individual and collective pedagogical approaches to promoting a healthy lifestyle, and the role of sports activities in enhancing cognitive functions such as stress resilience, attention, and concentration.

AIM: the aim of the study is to explore the pedagogical and psychophysiological mechanisms that contribute to the development of student sports and the formation of a healthy lifestyle, while highlighting their impact on cognitive functions and overall well-being.

MATERIALS AND METHODS: the research material includes theoretical studies on physical culture, pedagogical approaches, and psychophysiological development. Methods applied in the study are pedagogical analysis, comparative evaluation, and observation of student sports practices in higher education institutions.

RESULTS AND DISCUSSION: the findings show that physical activity positively influences intellectual growth, emotional stability, and cognitive functions such as stress resilience, attention, and concentration. Pedagogical approaches—both individual and collective—play a crucial role in shaping healthy lifestyle habits. Student sports activities enhance motivation, improve self-regulation, and foster holistic development by integrating physical, psychological, and educational dimensions.

CONCLUSION: in conclusion, student sports and healthy lifestyle formation are essential components of higher education. The integration of pedagogical mechanisms and psychophysiological factors ensures the effective development of cognitive functions, emotional resilience, and professional readiness. Practical recommendations highlight the importance of combining physical culture with educational strategies to strengthen students' overall well-being and academic success.

Keywords: student sports, healthy lifestyle, psychophysiological development, pedagogical approach, physical culture, stress resilience, higher education institutions, cognitive functions.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusi zamonaviy pedagogika, psixologiya va sog'liqni saqlash fanlari doirasida dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Jismoniy faollik nafaqat biologik va fiziologik salomatlikni ta'minlash, balki kognitiv va emotsional rivojlanishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, talabalar sporti oliy ta'lim jarayonining integrativ komponenti sifatida qaralishi lozim bo'lib, u pedagogik strategiyalar va

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

psixofiziologik mexanizmlarning uzviy uyg‘unligi orqali amalga oshiriladi[1]. So‘nggi o‘n yilliklarda, global ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarida sport faoliyatining ijtimoiy, pedagogik va psixofiziologik ahamiyati keng ilmiy tahlilga asoslangan. Masalan, jismoniy faoliyatning stressga chidamlilikni oshirish, diqqat va konsentratsiya funksiyalarini mustahkamlash, shuningdek, emotsional intellektni rivojlantirishdagi roli aniqlandi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish talabalarda vaqtni samarali boshqarish, rejalashtirish va ijtimoiy o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga ijobiy pedagogik ta’sir ko‘rsatadi[2].

Talabalar sporti konsepsiyasi ikki asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: birinchisi, individual jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ikkinchisi, kollektiv faoliyat orqali ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam sport mashg‘ulotlari nafaqat fiziologik ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki psixologik holatni optimallashtiradi va akademik muvaffaqiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, talabalar sporti pedagogik yondashuvning markaziy elementi sifatida qaraladi, u orqali sog‘lom turmush tarzining uzluksiz shakllanishi ta’minlanadi[3]. Zamonaviy pedagogik paradigmalar doirasida talabalar sportini rivojlantirishga doir yondashuvlar bir necha asosiy trendga bo‘linadi: birinchidan, integratsion yondashuv, ya’ni jismoniy faollik va akademik faoliyatni uzviy bog‘lash; ikkinchidan, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan metodlar, ya’ni individual ehtiyoj va psixofiziologik imkoniyatlarni hisobga olgan pedagogik strategiyalar; uchinchidan, monitoring va baholash mexanizmlari orqali natijaviylikni kuzatish va takomillashtirish.

Bu tendensiyalar talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini ilmiy asoslangan tizim sifatida tashkil etishga imkon beradi[4]. Psixofiziologik aspektlar nuqtai nazaridan, talabalar sporti organizmning stressga chidamliligi, yurak-qon tomir tizimi, mushak-skelet apparati va immun tizimi kabi biologik funksiyalarni kompleks tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, kognitiv va emotsional rivojlanish jarayonida sport faoliyati diqqat, xotira, reaksiya tezligi, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Bu esa oliy ta’lim muassasalarida talabalar salomatligi va akademik muvaffaqiyatining uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi[5]. Pedagogik nuqtai nazardan, talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tizimi quyidagi asosiy komponentlardan iborat: dasturiy-ta’limiy modullar, metodik vositalar, motivatsion strategiyalar va monitoring mexanizmlari. Har bir komponent o‘zaro integratsiyalashgan holda talabalar salomatligi, ijtimoiy faollik va akademik ko‘rsatkichlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari kontekstida sport faoliyati faqat jismoniy mashg‘ulotlar bilan cheklanmaydi, balki ilmiy-tadqiqot, innovatsion va madaniy faoliyat bilan ham uzviy bog‘lanadi[6]. Shuningdek, zamonaviy talabalar sportini rivojlantirishda digital va virtual texnologiyalarning roli ortib bormoqda.

Masalan, onlayn monitoring, virtual treninglar, interaktiv mobil ilovalar va biofeedback tizimlari orqali talabalar jismoniy faoliyatini individual tarzda rejalashtirish va nazorat qilish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida yangi pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi va psixofiziologik parametrlarni

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

optimallashtirishga xizmat qiladi[7]. Mazkur ilmiy tadqiqotning dolzarbligi shundaki, oliy ta'lim muassasalarida talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat biologik, balki psixologik, pedagogik va ijtimoiy aspektlarni birlashtiruvchi tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, maqola talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy asoslarini, pedagogik strategiyalarini va psixofiziologik mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi va oliy ta'lim kontekstida samarali rivojlantirish yo'llarini ilgari suradi.

Adabiyotlar tahlili: Talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha zamonaviy akademik adabiyotlarda ikki xorijiy olimning yondashuvi va ilmiy natijalari alohida e'tiborni talab qiladi. Birinchidan, Kathryn Fortnum va hamkasblari tomonidan nashr etilgan Physical Literacy, Physical Activity, and Health: A Citation Content Analysis and Narrative Review maqolasi sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy faollik va sport faoliyatining nazariy asoslari hamda ularning sog'liq va farovonlik bilan bog'liqligini aniq ilmiy konsept sifatida yoritadi. Bu tadqiqot fizik savodxonlik (physical literacy) nazariy modelini sog'liq va jismoniy faollik bilan uzviy bog'lash orqali ko'p yo'nalishli tadqiqot metodini taklif etadi.

Unda fizik savodxonlikning motor kompetentsiya, motivatsiya, ijtimoiy kompetentsiya va kognitiv elementlari orqali salomatlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishi tasdiqlangan, bu esa sport pedagogikasi hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish strategiyalarini chuqur tushunishga xizmat qiladi[8]. Ikkinchi muhim tadqiqot sifatida Sara Puente-Hidalgo va hamkasblarining Promotion of Healthy Habits in University Students: Literature Review maqolasi universitet yoshlari o'rtasida sog'lom odatlar, shu jumladan jismoniy faoliyatni targ'ib qilish va uni saqlab qolish bo'yicha sistematik adabiyotlar sharhini taqdim etadi. Unda talabalarda sport qatnashuvi, muntazam jismoniy mashg'ulotlar, to'g'ri ovqatlanish va stress bilan kurashish ko'nikmalari sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omillar ekanligi yoritiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, akademik hayot bosqichi talabalar sog'lig'iga jismoniy faoliyatni kiritish orqali stressni kamaytirish, emotsional barqarorlikni oshirish va sog'lom xulq-atvorni davom ettirish imkonini beradi[9]. Bu ikki xorijiy olimning akademik ishlari talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha nazariy va empirik asoslarni birlashtiradi. Fortnum fizik savodxonlik kontseptsiyasini sog'liq bilan bog'lash orqali sport faoliyatining sog'lom turmush tarziga ijobiy ta'siri mexanizmlarini aniqlasa, Puente-Hidalgo va boshqalar esa universitet muhitida sog'lom odatlarni targ'ib qilishning samarali pedagogik va profilaktik yondashuvlarini literaturalarda tizimli tahlil qiladi. Shu tarzda, chet el adabiyotlari talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalarini nazariy zamin bilan mustahkamlash bilan birga, oliy ta'lim muassasalari kontekstida amaliy tavsiyalarni shakllantirishga ham yordam beradi[[10].

Metodologik qism: Ushbu maqolada talabalar sporti va sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini o'rganish uchun bir qator metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot metodlari integratsion va kompleks tarzda tanlandi, chunki ular pedagogik, psixologik va fiziologik parametrlarni uzviy tarzda o'rganishga imkon beradi. Birinchidan, eksperimental metod asosida talabalar jismoniy faolligi va sog'lom turmush tarzini

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

shakllantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar sinovdan o‘tkazildi va natijalar psixofiziologik ko‘rsatkichlar bilan birga baholandi. Ikkinchidan, so‘rovnoma va anketalar orqali talabalar motivatsiyasi, sportga qiziqishi va sog‘lom odatlarni shakllantirish darajasi o‘lchandi, bu esa psixologik parametrlarni tizimli tarzda tahlil qilish imkonini berdi. Uchinchi metod sifatida, monitoring va kuzatish vositalari qo‘llanilib, talabalar jismoniy mashg‘ulotlarda ishtiroki, o‘rganilgan sog‘lom odatlarni amaliyotga tadbiq etish darajasi va samaradorligi uzluksiz nazorat qilindi. Shu bilan birga, intervyu va fokus-guruhlar orqali talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonidagi individual tajribalar, pedagogik qiyinchiliklar va motivatsion omillar chuqur o‘rganildi. Ushbu metodologik yondashuvlarning uzviy kombinatsiyasi tadqiqotning ilmiy ishonchliligi va natijaviylik darajasini oshirdi, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarida talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish pedagogik yondashuvlar, psixofiziologik monitoring va interaktiv metodlarning uzviy uyg‘unligi orqali jismoniy faollikni oshirish, stressga chidamlilikni mustahkamlash, kognitiv funksiyalarni rivojlantirish va emotsional barqarorlikni ta’minlashda yuqori samaradorlikka erishadi, shuningdek, talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini davom ettirish motivatsiyasi sezilarli darajada kuchayadi.

Muxokama: Talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalarida ilmiy jamoatchilikda ikki asosiy yondashuv o‘rtasida muhim polemika mavjud. Birinchi yondashuvni ilgari surgan Kathryn Fortnum (2025) jismoniy faollik va fizik savodxonlikni markaziy kontsept sifatida ko‘rib, talabalar salomatligi va psixofiziologik rivojlanishining uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Fortnum va hamkasblari tadqiqotlarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sport faoliyatining individual motor kompetentsiya, motivatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi roli ilmiy ishonchlilik bilan dalillangan. Ularning fikricha, oliy ta’lim muassasalarida interaktiv metodlar va monitoring tizimlari orqali talabalar o‘rtasida muntazam jismoniy faollikni rag‘batlantirish, stressga chidamlilik va kognitiv funksiyalarni oshirish imkonini beradi, bu esa sog‘lom turmush tarzining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, Sara Puente-Hidalgo (2024) va hamkasblari universitet kontekstida sog‘lom odatlarni shakllantirishning ijtimoiy va pedagogik aspektlarini ustuvor deb hisoblaydi. Ular tadqiqotlarida talabalar sporti nafaqat jismoniy rivojlanish vositasi, balki stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni mustahkamlash va sog‘lom xulq-atvorni uzluksiz rivojlantirish uchun zarur pedagogik yondashuv ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Puente-Hidalgo va hamkasblari interaktiv metodlar bilan bir qatorda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini tashkil etish, motivatsion strategiyalarni joriy etish va sog‘lom turmush tarzini nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur polemika ilmiy muhitda talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ikki asosiy paradigma o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Fortnum yondashuvi individual psixofiziologik rivojlanishga urg‘u berar ekan, Puente-Hidalgo paradigmasi pedagogik va ijtimoiy muhitning rolini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ikkala

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

yondashuvni birlashtirish orqali talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish strategiyasini yanada samarali va tizimli tashkil etish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik interaktiv metodlar, motivatsion mexanizmlar va monitoring tizimlarini birlashtirish orqali oliy ta’lim muassasalarida talabalar sporti orqali jismoniy, psixologik va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu tarzda, ilmiy munozaralar talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini kompleks pedagogik va psixofiziologik yondashuv asosida rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa: Mazkur maqola doirasida oliy ta’lim muassasalarida talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tizimli tarzda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jismoniy faollik va sport faoliyati talabalar salomatligi, stressga chidamlilik, kognitiv funksiyalar va emotsional barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi, shu bilan birga sog‘lom turmush tarzini davom ettirish motivatsiyasini kuchaytiradi. Adabiyotlar tahlili Fortnum (2025) va Puente-Hidalgo (2024) tadqiqotlari asosida talabalar sporti pedagogik, psixologik va ijtimoiy aspektlarni uzviy birlashtiruvchi tizimli jarayon ekanligini ko‘rsatdi.

Metodologik jihatdan eksperimental usullar, so‘rovnomalar, monitoring, intervyu va fokus-guruhlar kombinatsiyasi tadqiqotning ilmiy ishonchliligi va natijaviyligini oshirdi hamda oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish pedagogik yondashuvlarni interaktiv metodlar, motivatsion strategiyalar va uzluksiz monitoring bilan birlashtirish orqali maksimal samaraga erishish mumkin. Shuningdek, ilmiy polemikalar Fortnum va Puente-Hidalgo tadqiqotlari orqali pedagogik va psixofiziologik yondashuvlarning birlashtirilishi zarurligini ko‘rsatdi, bu esa oliy ta’lim muassasalarida talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Shu tarzda, maqola talabalar sporti va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni nazariy asoslash, amaliy metodlarni aniqlash va oliy ta’lim kontekstida samarali strategiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha kompleks ilmiy hulosalarni beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jabborov X. X., Avezov O. R., Jumayev N. Z. Sport psixologiyasi //O ‘quv qo ‘llanma.“Durdona” nashriyoti. – 2014.
2. Narziyev S. M. Sportda mehnat muhofazasini ta’minlashning sanitar-gigiyenik chora-tadbirlari //Sanoatda raqamli texnologiyalar. – 2024. – T. 2. – №. 03.
3. Olimov M. S., Soliyev I. R., Haydarov B. S. Sport pedagogik maxoratini oshirish //Yengil atletika T. – 2017.
4. Omonova S. O‘zbekistonda sportni rivojlantirish bo ‘yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – C. 31-31.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

5. Xalimov A. R. O‘zbekistonda sport va jismoniy tarbiyaning rivojlanish tarixi (1991-2025) //Modern education and development. – 2025. – T. 37. – №. 2. – C. 134-141.
6. Nazirov Q. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish tizimini rivojlantirish uslubiyati //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2026. – T. 4. – №. 1. – C. 31-33.
7. Xalikova S. Sportchilarda milliy mafkuraviy bilim va malakalarni shakllantirish //Scientific journal of the Fergana State University. – 2025. – №. 4. – C. 22-22.
8. Patiddinov K. D., Boymirzayeva M. I. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 580-588.
9. Polatova G. Q. O‘zbekiston respublikasining jismoniy tarbiya tizimida suzishning rivojlanish istiqbollari //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 4. – №. 44. – C. 98-104.
10. Usmonov E. Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayorlash markazlarida ilg ‘or texnologiyalarni qo ‘llash //Scientific-theoretical journal of International education research. – 2026. – T. 4. – №. 1. – C. 24-26.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TALABALARNI O‘ZBEK MILLIY KULOLCHILIGI VA EKOTURIZM VOSITASIDA TARBIYALASH.

Allanov Shuxrat Qilichovich, Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: kulolchilik — loydan turli buyumlar tayyorlanadigan hunarmandchilik tarmog‘idir. Keramika Sharqning qadimiy va innovatsion san’ati hisoblanib, u oddiy qora loydan ajoyib go‘zallik yaratgan. Kulolchilik bilan dunyoning barcha xalqlari shug‘ullanadi va ular bir-biridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an’analarga, shakl va mazmun uyg‘unligiga, ijodiy jarayon hamda o‘ziga xos uslubga ega. Kulolchilik — loydan kosa, langan, ko‘za, xum, tandir va boshqa buyumlar, shuningdek, turli o‘yinchoqlar yasaladigan sanoat tarmog‘idir. Keramika buyumlari sodda bo‘lishiga qaramay, o‘zining ko‘rinishi, chidamliligi, detallarining aniqligi va naqshlarining badiiy joylashuvi bilan butun dunyoga mashhur.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — kulolchilikning tarixiy, madaniy va badiiy jihatlarini, xususan, o‘zbek an’analarini tahlil qilish hamda uning estetik qadriyatlar, mahorat va madaniy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rnini o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali tarixiy manbalar, etnografik kuzatuvlar va kulolchilik artefaktlarining badiiy tahlillarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda qiyosiy madaniy tahlil, tavsifiy metodlar hamda kulolchilik shakllari, bezaklari va texnikasini stilistik o‘rganish usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: natijalar shuni ko‘rsatdiki, kulolchilik ham amaliy, ham badiiy maqsadlarga xizmat qilib, kosa, tarelka, ko‘za, pech (tandir) va o‘yinchoqlar kabi buyumlarni ishlab chiqaradi. O‘zbek kulolchiligi o‘zining soddaligi, mustahkamligi, shakllarining aniqligi va badiiy bezaklari bilan ajralib turadi hamda xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lgan. Muhokamada kulolchilikka singdirilgan ijodiy jarayonlar, stilistik xususiyatlar va madaniy simvolizm, shuningdek, uning me’morchilik va kundalik hayot bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, kulolchilik funksionallik va estetik go‘zallikni birlashtirgan hayotiy madaniy va badiiy merosdir. O‘zbek kulolchiligi o‘zining boy tarixi va betakror uslubi bilan hunarmandchilikning global miqyosda e’tirof etilishiga hissa qo‘shishda davom etmoqda. Tadqiqot kulolchilik an’analarini madaniy o‘zlik va badiiy rivojlanishning bir qismi sifatida saqlash va targ‘ib qilish muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kulolchilik, sopol, tuproq, mo‘jiza, badiiy, uslub, naqsh, umrboqiy, sifat, mashaqqat, ehtiyoj, me’morchilik, xum, ishqor, xususiyat.

ВОСПИТАНИЕ СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ УЗБЕКСКОГО NATSIONАЛЬНОГО КЕРАМИЧЕСКОГО И ЭКОТУРИСТИЧЕСКОГО ИСКУССТВА.

Алланов Шухрат Киличович, Старший преподаватель Термезского государственного педагогического института.

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ВВЕДЕНИЕ: керамика — это отрасль декоративно-прикладного искусства, в которой различные изделия изготавливаются из глины. Керамика считается древним и новаторским искусством Востока, создающим удивительную красоту из простой черной глины. Гончарным делом занимаются все народы мира, и изделия каждого из них отличаются своими особенностями. Узбекская керамика имеет многовековую историю, прекрасные традиции, глубокое единство формы и содержания, особый творческий процесс и уникальный стиль. Гончарное производство — это отрасль, в которой из глины изготавливаются чаши, тарелки, кувшины, горшки, тандыры и другие предметы, а также разнообразные игрушки. Несмотря на свою простоту, керамические изделия известны во всем мире благодаря своему внешнему виду, долговечности, точности деталей и художественному расположению узоров.

ЦЕЛЬ: целью исследования является анализ исторических, культурных и художественных аспектов гончарного дела с акцентом на узбекские традиции, а также изучение его роли в формировании эстетических ценностей, мастерства и культурной самобытности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования послужили исторические источники, этнографические наблюдения и художественный анализ гончарных артефактов. В работе используются методы сравнительно-культурного анализа, описательный метод, а также стилистическое изучение форм, декора и техник гончарного искусства.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показывают, что гончарное дело служит как практическим, так и художественным целям, производя такие предметы, как чаши, тарелки, кувшины, печи и игрушки. Узбекская керамика отличается простотой, долговечностью, точностью форм и художественным орнаментом, получившим международное признание. В ходе обсуждения подчеркиваются творческие процессы, стилистические особенности и культурный символизм, заложенный в керамике, а также её связь с архитектурой и повседневной жизнью.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что гончарное дело представляет собой жизненно важное культурное и художественное наследие, сочетающее в себе функциональность и эстетическую красоту. Узбекская керамика с её богатой историей и уникальным стилем продолжает вносить вклад в мировое признание ремесленного мастерства. Исследование подчеркивает важность сохранения и продвижения традиций гончарного дела как части культурной идентичности и художественного развития.

Ключевые слова: керамика, гончарное дело, Земля, глина, искусство, стиль, узор, долговечность, качество, тяжелый труд, потребность, архитектура, кувшин, щелочь, особенность.

EDUCATION OF STUDENTS BY MEANS OF UZBEK NATIONAL CERAMIC AND ECOTOURIST ART.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Allanov Shukhrat Kilichovich, Senior teacher of the Termez State Pedagogical Institute.

Annotation

INTRODUCTION: ceramics is a branch of handicrafts in which various products are made from clay. Ceramics is considered an ancient and innovative art of the East, which created wonderful beauty from black clay. Pottery is practiced by all the peoples of the world. They differ from each other in their features. Uzbek ceramics have a long history, wonderful traditions, form-content, creative process and unique style. Pottery is an industry where bowls, plates, jugs, pots, tandoor and other objects are made from clay, as well as a variety of toys, a process and a unique style. Despite their simplicity, ceramic products are known all over the world for their appearance, durability, precision of details and artistic arrangement of patterns. Pottery is an industry where clay is used to make bowls, plates, jugs, pots, tandoor and other objects, as well as a variety of toys.

AIM: the aim of the study is to analyze the historical, cultural, and artistic aspects of pottery, with a focus on Uzbek traditions, and to explore its role in shaping aesthetic values, craftsmanship, and cultural identity.

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of historical sources, ethnographic observations, and artistic analyses of pottery artifacts. The study employs comparative cultural analysis, descriptive methods, and stylistic examination of pottery forms, decorations, and techniques.

RESULTS AND DISCUSSION: the findings show that pottery serves both practical and artistic purposes, producing items such as bowls, plates, jars, ovens, and toys. Uzbek pottery is distinguished by its simplicity, durability, precise forms, and artistic ornamentation, which have gained international recognition. The discussion emphasizes the creative processes, stylistic features, and cultural symbolism embedded in pottery, as well as its connection to architecture and everyday life.

CONCLUSION: in conclusion, pottery represents a vital cultural and artistic heritage that combines functionality with aesthetic beauty. Uzbek pottery, with its rich history and unique style, continues to contribute to global recognition of craftsmanship. The study underscores the importance of preserving and promoting pottery traditions as part of cultural identity and artistic development.

Keywords: ceramics, pottery, Earth, clay, art, style, pattern, durability, quality, hard work, need, architecture, jug, alkali, feature.

Kulolchilik – hunarmandchilikning loydan turli-tuman buyumlar ishlanadigan sohasi. Kulolchilik qora loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san’ati hisoblanadi. Qora loy – sahovat va halollik timsoli. Tuproq insonning barcha ehtiyojini o‘z zimmasiga olgan farovonlik, to‘kinlik, rizq-ro‘z, go‘zallikning oliy ko‘rinishi – san’atning zamini.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Kulolchilik bilan dunyoning barcha xalqlari shug‘ulanadilar. Ular o‘ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an’analar, shakl-mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlar sodda bo‘lsa-da, ko‘rinishi, saqlanishi, qismlarining aniqligi, naqshning badiiy joylanishi bilan o‘zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan piyola, tovoq, hum, ko‘za, tandir va boshqa buyumlar, turli-tuman o‘yinchoqlar tayyorlanadigan soha. Maxsus tuproqni o‘ta qizdirganda toshsimon bo‘lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlash mumkinligini odamlar qadimdan bilishgan.

Kulol ishlab chiqargan buyumlarida oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalangan. Bu ranglarni tayyorlash texnologiyasini hunarmandlar yaxshi bilishgan. Idish tayyorlagandan so‘ng qo‘lda va shtamp yordamida naqsh chizilgan, unga sir berilib, oftobda quritilib, pechda qizdirilgan. Ustalar sirni o‘zlari tayyorlaganlar. Qoraqumga borib o‘tin yig‘ishgan va uni yoqib, kulini ustaxonaga olib kelib, 3 qism kulga, 1 qism shisha kukuni qo‘shilgan. Uni biror idishda suv bilan aralashtirib tayyorlangan bodiyaga surilgan. Keyin bodiyani o‘tda pishirishda unga yumaloq suyuqlik tashlangan. U o‘tda bodiyaga o‘ralib ranggini o‘zgartirgan, qum kukunini suv bilan aralashtirib sovitilgan hamda tozalangan. Unga un va ozgina mis oksidi qo‘shib tayyorlangan, so‘ngra bodiya sirtiga surtilgan.

Har bir hunarning o‘ziga xos mashaqqati, sir-asrorlari mavjud. Qadimda ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlari va tajribalarini faqat o‘z shogirdlariga o‘rgatib, o‘zgalardan sir saqlashgan. Ota-bobolarimiz asrlar davomida kulolchilik sir-asrorlarini o‘rganib, har bir mahsulotning sifatiga, badiiy qiymatiga, foydalanishda qulayligiga va uning umrboqiyligiga aloxida e’tibor berganlar. Shu bois ular tayyorlagan oddiy sopol piyoladan tortib, Sharq me’morchiligini bezib turgan koshinlarning umrboqiyligi hozirgi davrda dunyo ahlini hayratga solmoqda. Bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli, g‘oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o‘tgan materiallardan keng foydalanib kelishgan.

O‘tmishda tuproqdan qorachiroq, shamdan, sarxona, jomashov, hum hamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan, lekin keyingi vaqtga kelib, bularga ehtiyoj kamayganligi bois ular yo‘qolib bormoqda. Hozir tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko‘p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproq hisoblanadi

Tuproqning sog‘ tuproq, qora tuproq, ko‘kimtir, qizil loykor turlari bo‘ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o‘zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Loyi guldon – sershira loy. Bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo‘lib, jusha loyi qo‘shilgan bo‘ladi.

Chinni loy yoki oq loy – yarim foyans bo‘lib, qoramtir loy, oqtosh va ishqor qo‘shilib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, lagan va boshqalar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy – o‘tga chidamli qoramtir loydan giltavaga oq tosh yoki oq qum qo‘shib tayyorlanadi. Undan har xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy – shirachli loyga kvars qumi qo‘shib, undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog‘ tuproqqa qamish qog‘ozi aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko‘zagar loyi – 60-70% plastik yog‘li va 30-40% sog‘ tuproqdan iborat bo‘ladi. Undan hum, guldon, ko‘zi va boshqalar tayyorlanadi. Kulolchilikda shamod, giltava, bo‘yoqlar, angob, charx, mo‘yqalam, mola, katta mola, kichkina mola, sim, naqshin qolip, labgir, lagan qolip, pargor qalam, kogkord, taroq, tagi qalam, g‘utimak, tuppa va boshqalar ishlatiladi. Kulolchilikda loyni ustalar har xil texnologiyada tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilinib, u tepib, mushtlab pishitiladi.

Loy tayyorlash uchun, uyning ichki qismida hovuzga o‘xshash uncha chuqur bo‘lmagan joy ajratiladi. Bu hovuz pishiq g‘ishtdan tayyorlanadi. Loy 20 kungacha har kuni suv sepib pishitiladi. Shunda loy ichida to‘planib qolgan havo yo‘qoladi. Agar loyda havo qolib ketsa, idishni pechkada qizdirganda o‘sha bo‘shliq yana kattalashib, idish teshik bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun loy qancha ko‘p pishitilsa, shuncha sifatli mahsulot olinadi.

Kulolchilik charxida idishlar tayyorlanadi. Charx katta va kichik yog‘och g‘ildirakdan iborat bo‘ladi. Yog‘och o‘q bilan birlashtiriladi. Kulol charxining pastdagi katta g‘ildiragini aylantirib turadi. Yuqoridagi g‘ildirakka loy quyib undan idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idishlar yaxshilab quritiladi. Chunki yaxshilab quritilmasa, keyin pechda yorilib ketishi mumkin. Quritilgan idishlar humda qizdiriladi. Sirlanadigan idishlar sirlanadi va yana humdonda qizdiriladi.

Qadimdan kulollar ma’lum idish yoki buyum bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘ladi. Masalan, kosagar, tandirchi, ko‘zagar va boshqalar. Xorazm badiiy kulol ustalari qadimda o‘ziga xos texnologiyaga ega bo‘lganlar. Ular koshin, bodiya, xum va boshqa kulolchilik mahsulotlari ustiga beriladigan sirni tayyorlash uchun yozning jazirama issiq oylarida ko‘hna Urganch tomonlardagi qumliklariga chiqib, haftalab chog‘on o‘simligini to‘plab, uni yoqib, kulini olib kelganlar.

Hozir esa bu o‘t juda kamayib ketgan. Bu o‘simlikdan tashqari, qora o‘roqdan ham foydalangan. Sentyabr oylarida qora o‘roq ayni shirachga to‘lgan vaqtda faqat yengil patini yoqib, kulidan ishqor tayyorlaganlar. Ustaxonaga olib keltirilgan chog‘on va qora o‘roqqa qum aralashtirib, qo‘lni namlab guvala qilinadi va humbuzga qo‘yiladi. Yuqori darajada qizdirish natijasida u pastki oxirga oqa boshlaydi. Agar u oppoq rangga kirgan bo‘lsa, tayyor bo‘ladi. Agar qoramtir tusda bo‘lsa, bu jarayon yana qaytadan davom ettiriladi.

Hosil bo‘lgan oq toshsimon ishqorni tegirmonda un holiga keltirib maydalanadi. Bu ishqor uniga bug‘doy unidan atala pishirilib qozonda qorishtiriladi. Qozonga suv solinib, bulg‘ab suyuq holatga keltiriladi. Hosil bo‘lgan xom ashyo tabiiy ishqor siri deb ataladi. Tabiiy ishqor siri tayyorlangan mahsulot yuziga cho‘mich yordamida qo‘yiladi. Pechda bu sir 1000-1200 daraja temperaturada loyga shunday kirishib ketadiki, u issiqda ham, sovuqda ham o‘z xususiyatini yo‘qotmaydi. Kulolchilik bo‘yoqlari tayyorlash o‘ziga xos texnologiyaga ega.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Oq rang – bu rang oq tuproq va 11% gacha oqtoshning mayda qumi qo‘shib tayyorlanadi. Uni atala holida tayyorlab, buyum yuziga tekis surtiladi va keyin naqsh chiziladi.

Yashil rang – mis kuyundisi kukuni, qo‘rg‘oshin, sir va o‘tga chidamli tuproq, ya’ni giltava qo‘shib tayyorlanadi. Mis kukuni avval qizg‘ish rangda bo‘ladi, xunbuzda pishirilganda esa yashil rangga aylanadi.

Qora rang – 15% giltava, marganes oksidi, lazur va qo‘rg‘oshin sirlari qo‘shib tayyorlanadi.

Sariq rang – yongan temir sop yoki mayda temir chiqindilaridan foydalanib, temir kukuni mis qozonga solinadi va unga giltava, qo‘rg‘oshin siri hamda suv solib, ezg‘ilab tayyorlanadi.

Badiiy kulolchilik. O‘zbekiston amaliy san’atining qadimiy, shuningdek, bizning davrimizgacha o‘zining aniq chegaralangan maktabi hamda an’analarini saqlab kelayotgan turlaridan biri – badiiy kulolchilik sanaladi. Zamonaviy kulolchilik san’ati XIX asrda tarixan shakllangan maktablarning an’anasi asosida rivojlanib kelmoqda.

Ma’lumki, o‘zbek kulolchilik san’ati qadim davrlardan shu kungacha keng tarqalgan va aholi ehtiyojini qondirib kelgan. O‘zbekiston hududida qadimdan har bir vohaning hunarmandchilik markazlari shakllangan. Bu markazlarda xalq ehtiyoji uchun kerakli sopol buyumlar ishlab chiqarilgan va sotilgan.

Hozirgi vaqtda badiiy bezatish uslubini plastik va texnologik xususiyatlari bo‘yicha uchta asosiy kulolchilik maktablariga bo‘lish mumkin: Farg‘ona badiiy kulolchilik maktabi (asosiy marazlari – Rishton, G‘urumsaroy); Buxoro – Samarqand badiiy kulolchilik maktablari (asosiy markazlari – Samarqand, Buxoro, Urgut, G‘ijduvon); Xorazm badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari – Madir va Kattabog‘ qishloqlari). Har bir maktab o‘zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, boshqa maktablardan farqlanuvchi xususiyatlari bo‘yicha belgilanadi. Ular o‘z qonuniyatlari doirasida faoliyat ko‘rsatadilar va asosiy badiiy tamoyillari umumiyligini saqlab keladi.

Farg‘ona badiiy kulolchilik maktabining asosiy xususiyatlari uning aholi etnik tarkibi, joylanishi va tarixiylik tamoyillari bilan bevosita bog‘liq. Rishton – Farg‘ona maktabining an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan eng yorqin kulolchilik markazi. Keyingi, ya’ni 1970 yillardan boshlab, Rishton sopoli an’anaviy – badiiy texnologik usullar asosida qayta tiklanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rishton – O‘zbekistondagi sirlangan sopol buyumlar ishlatiladigan eng mashhur va qadimgi markazlardan biri edi.

Ishqorli sir tayyorlash ham yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi paytda bu yerda sopol idishlarning yapaloq (kosa va laganlar) uzun bo‘yli (ko‘za, humlar) turlari ishlab chiqarilmoqda. Ilgari paytlarda bu ishlar ixtisoslashtirilgan tarzda bajarilardi. Yapaloq buyumlarni yapaloq va qisqa bo‘yi shakllar yasovchi ustalar – kosagar; baland bo‘yli buyumlarni yasovchi ustalarni – ko‘zagar deyishgan. Hozir bunday tasniflash avvalgi mohiyatini yo‘qotgan: ayrim ustalar (I.Komilov, U.Ashurov, X.Sattorov, M.Azimov, M.Tojaliev va boshqalar) yapaloq, cho‘zinchoq shaklli idishlarni yasashadilar.

Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko‘p jihatdan buyumlarga naqsh berilishida ko‘zga tashlanadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Kulolchilikda (idish tayyorlashda) charx asosiy ish quroli bo‘lib hisoblanadi. Kulolchilik charxi katta va kichik ikki yog‘och g‘ildirakdan iborat bo‘lib, yog‘och o‘q bilan o‘zaro birlashtirilgan bo‘ladi. Kulol pastdagi katta g‘ildirakni oyog‘i bilan aylantirib turadi, yuqoridagi g‘ildirakning ustiga loy qo‘yadi, undan idish tayyorlanadi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonda qizdirladi. Idishlarning turiga ko‘ra, humdon katta-kichik bo‘ladi. Sirlanadigan idishlar esa sirlanib, shundan keyin yana bir martadan humdonda qizdiriladi. Odatda, kulollar ma’lum idish yoki buyum bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘ladilar (masalan, kosagar, ko‘zagar, tandirchi va boshqalar).

Sopol, safol – loydan ishlanib, olovda qizdirib tayyorlanadigan mahsulot bo‘lib, keramikaning ko‘p tarqalgan turi hisoblanadi. Tarkibi bir jinsli, ranggi ham bir xil bo‘lgan maxsus tuproqdan olinib, dastlab oftobda quritilib, maydalanadi va elanadi, so‘ngra undan loy qoriladi; bu loyga mahsulot turiga qarab ishlov beriladi. Yaxshilab pishitiladi, keyin zuvala olinib, unga qo‘lda yoki kulollik charxida shakl beriladi. Quritilib gulxanda yoki humdonda qizdirilib sopol tayyorlanadi. Foydalangan tuproqning tarkibiga muvofiq ravishda sopol och-sariq, qizg‘ish, kulrang, ko‘kimtir, qizg‘ish-jigarrang, qoramtir va boshqacha ranglarda bo‘lishi mumkin.

O‘zbek kulollari sopol tayyorlashda ishlatiladigan tuproqni “sag‘ir tuproq”, “kulol tuproq” deb ataydilar. Uning tarkibi ishqorli, ohakli, temirli va boshqacha bo‘lishi mumkin. Sopol loyini tayyorlash, uni kerakli shaklga keltirish va o‘tda qizdirish murakkab jarayon bo‘lib, kuloldan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka talab qiladi. Olov bir me’yorda yonmay, sekin yoki kuchli yonsa, sopol yaroqsiz bo‘lib qolishi mumkin. Sopol mustahkam va silliq bo‘lishi uchun, olovga chidamli oq yoki qizg‘ish tuproqdan tayyorlanadigan suyuqlikka – loy (angob)ga chayib olinadi, keyin soyada quritib, humdonda pishiriladi.

Sopolni badiiy bezatishning bir qator usullari mavjud. Bo‘rtma (relef hosil qilib), o‘yma naqsh-gullar (mahsulot ho‘lligida), kirma gullar (mahsulot loyga chayib olingandan so‘ng), sir gullar esa humdondan chiqqandan keyin ishlanib, keyin yana bir bor humdonda qizdiriladi. Tog‘ jinslaridan, shishadan tayyorlab suriladigan sir sopolga yopishib, uni chidamli, nafis qiladi. O‘rta Osiyoda, odatda, badiiy bezak sopol sirlangandan keyin amalga oshiriladi (tiniq yoki nimrang sir ustidan gul, ba’zan rasmlar ishlanadi).

O‘zbekistonda gul-naqsh tushirishning uch xil usuli keng tarqalgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Qalami – tasvir qalamsimon cho‘tka yordamida ishlanadi.
2. Tamg‘a – ilgarilari sholg‘om, sabzi, qovoq kabilar o‘yib tamg‘a qilingan, hozir esa rezinadan tayyorlanadi.
3. Chizma – qirqib chiziladi.

Sopol mahsulotlari tayyorlash, bezashning usul va uslublari davr talabi bilan o‘zgarib, takomillashib bormoqda.

Masalan, idishning badiiy nafisligini ta’minlagan ishqorli surkama – ishqorli loyadan o‘tmishda barcha kulollar ham foydalanganlar. Lekin XX asr boshlarida undan foydalanilmay qo‘yildi. Tojikistonning shimoliy hududlarida bu loy 1950 yillargacha ishlatilgan. Hozir esa undan faqat G‘urumsaroy kulollarigina foydalanishadi. Bu surkama

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

tiniq bo‘lib, ba’zan unga qalay aralashtiriladi. Qalayli sirga qo‘shilgan mis oksidi idishni yashil-zangori tusga kiritadi.

O‘rta Osiyo kulollari sopol idish va buyumlarni bezashda bo‘yoq sifatida metall oksididan foydalanadilar. Temir oksididan qizil va jigar rang; marganes oksididan qora va pushti-gunafsha rang; surma oksididan sariq rang, kobalt oksididan ko‘k rang va qalay qo‘shib feruza rang hosil qilib foydalanishgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -T.: O‘zbekiston, 2019. -591 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – 48-bet.
3. Kuraxmedov A.Samarqandlik hunarmandlar // Fan va turmush, 2000. -5-son. -21-22-betlar.
4. Сулейманов И.К. О кадровом потенциале ремесленников в Узбекистане 20-годов //Общественные науки в Узбекистане. -№6. -1998. – С. 43-44.
5. To‘xtaev A.Q. O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik va uni “sotsialistik” asosda sanoatlashtirishning ijtimoiy oqibatlari (1917-1941 yillar); Tarix fan, nom. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2001.
6. Qilichev U.A. O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanishi (1991-2006-yy.): Tarix fan nom. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2010.
7. Hamidova M. O‘zbekistonning kashtasi-yu zardo‘zi // Fan va turmush. - 2000. -5-son. -39-40-betlar.
8. Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. -М.; -Л., 1959.
9. Развадский В. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае. – Ташкент, 1916.
10. Rassudova R. O‘zbek kashtachilik san’ati. – Toshkent, 1961.
11. Рахимов М.К. Народные принципы в современной художественной керамике Узбекистана. -Ташкент, 1964.
12. Sohibqiron Amir Temur davrida hunarmandchilik //Toshkent oqshomi gazetasi, 2004-yil, iyul).
13. Sergeev B. O‘zbekistonda misgarlik. – Toshkent, 1963.
14. Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент, 1998. – С. 64.
15. Chepeloveskaya G.I. Kashtachilik. O‘zbekiston so‘zanasi. – Toshkent, 1961.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TASVIRIY SAN'AT VA O'ZBEK KLASSIK MUSIQALARINI UYG'UNLASHTIRISH ORQALI MILLIY RUHDAGI ASAR KOMPOZITSIYASI YARATISHNI O'RGATISH.

Giyasova Nilufar Barotbayevna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at yo'nalishi 2-kurs magistranti.

Annotatsiya

KIRISH: vazkur maqolada tasviriy san'at va o'zbek mumtoz musiqasini integratsiyalash orqali talabalarga milliy ruhdagi badiiy kompozitsiyalar yaratishni o'rgatishga qaratilgan tajriba-sinov darsining metodikasi yoritilgan. Maqolada darsning maqsadi, vazifalari, bosqichlari, qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar va olingan natijalar tahlil qilinadi. Shuningdek, fanga oid davlat dasturlari, Prezident farmonlari va strategik hujjatlar asosida integratsiyalashgan ta'limning dolzarbligi asoslab berilgan. Tajriba-sinov tadqiqoti natijalari ushbu metodikaning talabalarda milliy o'zlikni anglash, estetik did va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatdi. Maqolada pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar ham o'rin olgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — tasviriy san'at va o'zbek mumtoz musiqasini uyg'unlashtirish orqali talabalarning milliy o'zligini shakllantirish, estetik didi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda integratsiyalashgan ta'limning samaradorligini asoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali talabalar bilan tasviriy san'at va o'zbek mumtoz musiqasi integratsiyasi asosida o'tkazilgan tajriba-sinov darslarini o'z ichiga oladi. Metodologiya interaktiv o'qitish, ijodiy kompozitsiya mashqlari va refleksiv baholash kabi pedagogik texnologiyalarni qamrab oladi. Natijalarni baholashda kuzatuv, pedagogik tahlil va eksperimental sinov metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tajriba-sinov tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatdiki, tasviriy san'atni o'zbek mumtoz musiqasi bilan integratsiyalash talabalarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini samarali rivojlantiradi, ularning estetik idrokini oshiradi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. Muhokama jarayonida integratsiyalashgan ta'limni "O'zbekiston-2030" dasturi kabi milliy strategiyalar bilan muvofiqlashtirish muhimligi ta'kidlanadi va innovatsion o'qitish amaliyotlari orqali madaniy merosni qanday saqlash hamda targ'ib qilish mumkinligi ko'rsatib beriladi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, integratsiyalashgan ta'limning taklif etilayotgan metodikasi talabalarda milliy ruh va ijodkorlikni shakllantirishda qimmatli pedagogik yondashuv ekanligini isbotladi. Pedagoglar uchun madaniy merosni mustahkamlash va strategik ta'lim maqsadlarini qo'llab-quvvatlashda integratsiyalashgan darslarning o'rnini ko'rsatib beruvchi amaliy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, o'zbek klassik musiqasi, integratsiyalashgan ta'lim, milliy ruh, kompozitsiya, metodika, tajriba-sinov darsi, "O'zbekiston-2030" strategiyasi, madaniy meros.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ОБУЧЕНИЕ СОЗДАНИЮ КОМПОЗИЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОМ ДУХЕ ПОСРЕДСТВОМ ГАРМОНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ.

Гиясова Нилуфар Баротбаевна, студентка 2-го курса магистратуры, факультет истории искусств, Чирчикский государственный педагогический университет, отделение изобразительных искусств.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье освещается методика экспериментально-пилотного урока, направленного на обучение созданию художественных композиций в национальном духе посредством интеграции изобразительного искусства и узбекской классической музыки. В статье анализируются цели, задачи, этапы урока, применяемые педагогические технологии и полученные результаты. Кроме того, обосновывается актуальность интегрированного обучения на основе государственных программ, указов Президента и стратегических документов, касающихся данной тематики. Результаты экспериментально-пилотного исследования продемонстрировали эффективность данной методики в развитии у студентов чувства национальной идентичности, эстетического вкуса и творческого мышления. В статье также представлены практические рекомендации и методические указания для педагогов.

ЦЕЛЬ: целью исследования является обоснование эффективности интегрированного обучения в формировании национальной идентичности, эстетического вкуса и творческого мышления учащихся посредством сочетания изобразительного искусства и узбекской классической музыки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования послужили экспериментально-пилотные занятия, проведенные со студентами, интегрирующие изобразительное искусство и классическую узбекскую музыку. Методология включает такие педагогические технологии, как интерактивное обучение, упражнения на создание творческих композиций и рефлексивное оценивание. В работе применяются методы наблюдения, педагогического анализа и экспериментального тестирования для оценки результатов.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты экспериментально-пилотного исследования показали, что интеграция изобразительного искусства с узбекской классической музыкой эффективно развивает у учащихся чувство национальной идентичности, повышает их эстетическое восприятие и стимулирует творческое мышление. В ходе обсуждения подчеркивается важность приведения интегрированного образования в соответствие с национальными стратегиями, такими как программа «Узбекистан-2030», и демонстрируется, как культурное наследие может быть сохранено и популяризировано с помощью инновационных практик преподавания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что предлагаемая методика интегрированного образования является ценным педагогическим подходом для

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

воспитания национального духа и креативности у учащихся. Для педагогов разработаны практические рекомендации и методические указания, подчеркивающие роль интегрированных уроков в укреплении культурного наследия и поддержке стратегических целей образования.

Ключевые слова: изобразительное искусство, узбекская классическая музыка, интегрированное образование, национальный дух, композиция, методика, экспериментальный урок, стратегия "Узбекистан-2030," культурное наследие.

TEACHING THE CREATION OF A WORK COMPOSITION IN THE NATIONAL SPIRIT THROUGH THE HARMONIZATION OF FINE ARTS AND UZBEKISTAN CLASSICAL MUSIC.

Giyasova Nilufar Barotbayevna, 2nd year master's student, Faculty of Art History, Chirchik State Pedagogical University, Fine Arts Department.

Annotation

INTRODUCTION: this article illuminates the methodology of an experimental-pilot lesson aimed at teaching the creation of artistic compositions in a national spirit through the integration of fine arts and Uzbek classical music. The article analyzes the lesson's purpose, objectives, stages, the pedagogical technologies employed, and the results obtained. Furthermore, it substantiates the relevance of integrated education based on state programs, presidential decrees, and strategic documents related to the subject. The results of the experimental-pilot study demonstrated the effectiveness of this methodology in developing students' sense of national identity, aesthetic taste, and creative thinking. The article also provides practical recommendations and methodological guidelines for educators.

AIM: the aim of the study is to substantiate the effectiveness of integrated education in fostering students' national identity, aesthetic taste, and creative thinking through the combination of visual arts and Uzbek classical music.

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of experimental-pilot lessons conducted with students, integrating fine arts and classical Uzbek music. The methodology involves pedagogical technologies such as interactive teaching, creative composition exercises, and reflective evaluation. The study applies observation, pedagogical analysis, and experimental testing to assess the outcomes.

RESULTS AND DISCUSSION: the results of the experimental-pilot study demonstrated that integrating fine arts with Uzbek classical music effectively develops students' sense of national identity, enhances their aesthetic appreciation, and stimulates creative thinking. The discussion highlights the importance of aligning integrated education with national strategies such as the "Uzbekistan-2030" program, and shows how cultural heritage can be preserved and promoted through innovative teaching practices.

CONCLUSION: in conclusion, the proposed methodology of integrated education proves to be a valuable pedagogical approach for cultivating national spirit and creativity among students. Practical recommendations and methodological guidelines are provided

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

for educators, emphasizing the role of integrated lessons in strengthening cultural heritage and supporting strategic educational goals.

Keywords: visual arts, Uzbek classical music, integrated education, national spirit, composition, methodology, experimental-test lesson, "Uzbekistan-2030" strategy, cultural heritage.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, san’at ta’limi orqali o‘quvchilarda estetik did, ijodiy tafakkur va milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish ko‘nikmalarini o‘rgatish, ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga tegishli qayd kiritish belgilangan. Shuningdek, mazkur qarorda o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida “ta’lim muassasasi — tuman (shahar) — viloyat — respublika” kesimida madaniyat va san’at sohasidagi ko‘rik-tanlovlar tashkil etish nazarda tutilgan [1].

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi loyihasida madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarida sifatni yangi bosqichga ko‘tarish, bolalar musiqa va san’at maktablarini zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, sohaga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni keng joriy qilish kabi vazifalar belgilangan.[2] 2025-yil 3-noyabrda Prezident qarori bilan ta’sis etilgan “Kelajak merosi” xalqaro mukofoti esa musiqa va raqs, tasviriy va amaliy san’at kabi yo‘nalishlarda ijodkorlarni rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda[3].

Mazkur davlat dasturlari va strategik hujjatlar san’at ta’limida integrativ yondashuvni qo‘llash, turli san’at turlarini o‘zaro bog‘lab o‘qitish zaruratini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, “musiqa, tasviriy san’at va adabiyotning uyg‘unlashuvi san’atning ma’naviy ufqlarini ochib berish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, uni xalqlar o‘rtasidagi muloqot tili, insoniyat xotirasi sifatida tanishtiradi”.[4]

1. TAJRIBA-SINOV DARSINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Maqsad: Talabalarning tasviriy san’at va o‘zbek mumtoz musiqasi vositasida milliy ruhdagi kompozitsiya yaratish ko‘nikmasini shakllantirish hamda san’at turlari o‘rtasidagi integratsiyaviy aloqalarni anglashga erishish.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2022-yil 2-fevral. – URL: https://lex.uz/docs/-5849580

[2] Strategiya: Yoshlar, sport, madaniyat, ma’naviy meros yo‘nalishidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA), 2026-yil 26-yanvar. – URL: https://uza.uz/oz/posts/strategiya-yoshlar-sport-madaniyat-manaviy-meros-yonalishidagi-ustuvor-vazifalar-muhokama-qilindi_811590

[3] “Kelajak merosi” xalqaro mukofoti ta’sis etildi. – Kun.uz, 2025-yil 4-noyabr. – URL: https://kun.uz/news/2025/11/04/kelajak-merosi-xalqaro-mukofoti-tasis-etildi

[4] Ruziyeva O. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida integratsiyalashgan musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslari. – Cyberleninka, 2024. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-talim-tashkilotlarida-integratsiyalashgan-musiqa-mashgulotlarini-tashkil-etishning-nazariy-asoslari

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Vazifalar:

- Milliy ruhdagi tasviriy asar kompozitsiyasi yaratishni o'rgatish
- Rang, kompozitsiya, chizgi va musiqa ritmi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish;
- O'quvchilarning ijodiy tafakkurini, estetik didini va milliy o'zlikni anglashini rivojlantirish;
- Integratsiyalashgan dars orqali san'at turlarini qiyosiy tahlil qilish malakasini shakllantirish.

2. DARS METODIKASI: INTEGRATSIYALI YONDASHUV

Dars metodikasi integratsiyalashgan ta'lim tamoyillari asosida qurildi. Ma'lumki, "integratsiya tushunchasi – har qanday qismlar, elementlarning yaxlitligi sifatida birlashishi" bo'lib, musiqiy ta'limga qo'llanilganda o'quvchida san'at olamining yaxlit ko'rinishini yaratish, fan bilimlarini yaqinlashtirish va integrativ tafakkurni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Dars quyidagi metodik bosqichlar asosida tashkil etildi:

1-bosqich: San'at va Musiqa uyg'unligi (15 daqiqa)

Savollar orqali kirish:

1. Siz uchun tasviriy san'at nimani anglatadi?
2. Siz musiqa tinglaganingizda tassavuringizda qanday hislar uyg'onadi uyg'otadi?
3.Naqshlar orqali qanday ma'nolarni ifodalash mumkin deb o'ylaysiz?

Ko'plab o'zbek rassomlari asarlarida milliy cholg'u asboblari – doira, dutor, nay, rubob va qo'shiqlarning obrazlarini yaratib, milliy ruhni tasviriy san'atda ifoda etadilar. Xususan, o'zbek xalqining madaniy merosida ahamiyatga ega bo'lgan "Navro'z" va "Maqom" kabi musiqiy yo'nalishlar, rassomlarning ijodiy ilhomi uchun boy manba hisoblanadi. Bu motivlar rangtasvir, haykaltaroshlik va grafik asarlarda xalqning qadimiy tarixini yoritish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Aynan shunday rassomlarimizdan biri Chingiz Ahmarov o'zbek tasviriy san'atining milliy o'ziga hosligi borasida xalqning boy va guzal badiiy merosining ilg'or an'analarini hozirgi zamon san'atiga ijodiy singdirishga faol hizmat qildi. Chingiz Ahmarovni mahobatli rangtasvir ustasi sifatidagi ijodining ilk yorqin sahifasini uning Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli opera va balet teatori fayesi devorlariga ishlagan devoriy rasimlarida ko'rish mumkin. Uch qatlamli surat, xususan "Buxorocha raqs"ni chizishga rassom 1971-yilda endi allaqachon e'tirof etilgan rangtasvirchi sifatida kirishadi. O'sha kezlari uni butun sobiq Ittifoqda tanishar edi – u Moskva, Qozon va Krasnoyarskdagi ko'plab jamoaviy va shaxsiy ko'rgazmalar, mahobatli devoriy rasmlar muallifi edi. San'atshunoslar Ahmarov ijodiga xos Sharq va G'arbni uyg'unlashtira oluvchi noyob iste'dodiga yuqori baho beradilar. Yorqin akademik mahorat sohibi o'laroq u sharqona an'ana va miniatyuralarga nisbatan yuksak fahm-farosat va mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgan o'ziga xos betakror uslubni yaratib ulgurgan edi."Buxorocha raqs"da nigohlari poyabzal tasmalariga qadalib turgan, qo'llari to'lqinsimon mavjlarni ifodalab, o'ng oyoq nazokatli tarzda yon tarafga ko'tarilgan hurliqo raqqosa tasvirlangan. Buxoroliklarning raqslaridan xuddi xorazmcha singari shijoat va zavq ufurib turadi, ammo ijrochilarning xatti-harakatlari tamomila o'zgachadir. Bu yerda raqsdagi anvoyi shakllarning nafis xumor harakatlar bilan ajib qorishmasini ilg'ash

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

mumkin: keskin silkinish mutanosib tebranish yoki ohista aylanishlar bilan almashadi. Buxorocha raqsning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri gavdaning yuqori qismlari: kaftlar, yelka, bo‘yin va ko‘ksiga urg‘u berilishidir. Shuningdek, u harakatlarning epchilligi, turfa serkarashma bukilish, aylanishlar, tik, o‘tirgan holatda gavdani orqaga to‘liq, yassi tashlab, barmoqlarni qarsillatib va boshqa uslubdagi ijrolari bilan ajralib turadi.Asar bosh qahramonining aynan shu o‘zgacha tarovatini Chingiz Ahmarov o‘z triptixining yakuniy qismi “Buxorocha raqs”da mohirona aks ettirgan (1-rasm).



1-rasm.
Chingiz Ahmarov triptix “Buxorocha raqs”



2-rasm.
Vasiliy Kandinskiy “Kompozitsiya VIII” asari.

Vasiliy Kandinskiy musiqaning hissiy va ruhiy ta'sirini o'z asarlarida aks ettirib, uni “Kompozitsiyalar” turkumidagi ishlari orqali ifodalagan (2-rasm.) Bu asarlarida u rasmni musiqadagi kabi hissiy kechinmalar bilan boyitishga uringan va buni, jumladan, “Kompozitsiya VIII” asarida muvaffaqiyatli amalga oshirgan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4



3-rasm. Akmal Nur
“Kungil Savdosi”



4-rasm. Rassom Akmal Nur Asar nomi
“Kungil torlari”

Tasviriy san’atda maqom elementlarini aks ettirishga urinishlar ko‘plab rassomlar ijodida kuzatiladi. Masalan, Akmal Nur asarlarida kuylar estetik g‘oya sifatida rasmning ichki tuzilmasiga singdirilgan. U ranglar uyg‘unligi, tasviriy ritm va holatlar orqali musiqa ohangini obrazga aylantiradiRasm. (3-rasm) Rassom Akmal Nur Asar nomi: “Kungil Savdosi”. Bu uslub rassom uchun musiqani nafaqat eshitiladigan, balki ko‘rinadigan san’atga aylantirish imkonini beradi. (4-rasm.) Rassom Akmal Nur Asar nomi “Kungil torlari”.

Bahodir Jalolov ijodida “Raqsning tug‘ilishi” kompozitsiyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarda u “Bahor” raqs ansambli asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg‘unboyevaning “Munojot” raqsi asosida monumental kompozitsiya yaratadi. “Raqsning tug‘ilishi” kompozitsiyasi tahlili: Bohodir Jalolov ijodining cho‘qqilaridan biri — bu uning mashhur “Raqsning tug‘ilishi” asaridir(5-rasm). Mazkur kompozitsiya nafaqat tasviriy san’at namunasi, balki o‘zbek milliy raqs san’ati, ma’naviy meros va badiiy ramzlarning uyg‘unlashgan timsoli sifatida e’tirof etiladi. Unda rassom nafaqat voqelikni tasvirlaydi, balki milliy ruhiyat va umuminsoniy qadriyatlarni ramziy obrazlar orqali ifodalaydi. Kompozitsiyaning umumiy tuzilishi: Asarning markazida ustoz raqqosa — Mukarrama Turg‘unboyeva obrazini ko‘ramiz. U kompozitsiyaning asosiy ruhiy markazi bo‘lib, badiiy ma’noda “hayotiy manba” sifatida gavdalantirilgan. Uning atrofida esa yosh raqqosalar tasvirlangan bo‘lib, ular ustozdan taralayotgan nur va ritmlarni davom ettiradilar



5-rasm Bohodir Jalolov “Raqsning to’g’ilishi” asar

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA INTEGRATSIYASI "Ko'rdim — eshitdim — bajardim" metodi ko'rgazmali–amaliy metodlar. klaster

KO'RDIM	ESHITTIM	BAJARDIM
	Bo'horocha raqs	
	"Lazgi" Bunyotbek Saidov ijrosida	

Analitik bosqich

- Talabalar 2 guruhga bo'linishadi

1: Talabalarga 3 xil musiqa eshittiriladi va guruhlar oldilarida berilgan suratlardan musiqalarga mos rasmni ko'rsatadilar hamda nima uchun aynan shu rasmni tanlagani haqida qisqacha aytib berishadi;(15, 20 daqiqa)

Orifjon Toshmatov musiqasi "Andijon polkasi"		
		
O'zbekiston Respo'blikasi madhiyasi Abdulla Oripov sheri Mutal Burhonov		

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

musiqasi		
		
Mashhur Muhammad “Siqilma”		
		

Ushbu bosqichda ikki san’at turini bir yerda samarali qo’llagan holda integratsiya orqali tasviriy san’at va musiqadan foydalangan holda musiqa va tasviriy asar bog’liqligini tahlil qilishni o’rgatiladi.

Amaliy bosqich (kompozitsiya yaratish)

Amaliy ish: Ijodiy jarayon talabalar Munojot Yulchiyevaning “Tanovor” musiqasidan ilhomlangan holda milliy ruhdagi tasviriy asar yaratishadi (20–25 daqiqa) Munojot Yulchiyeva “Tanovor”

Talabalarning ijodiy ishlari.

- ranglar palitrasini tanladi;
- kompozitsiya markazi, ritm va dinamikani aniqladi;
- akvarel, gouache yoki pastel texnikasida milliy ruhdagi kompozitsiya yaratdi.

Refleksiv bosqich (taqdimot va tahlil) Namoyish va tahlil (15 daqiqa): Har bir guruh o‘z ishini taqdim etadi: Asarning nomi va ramziy ma’nosi aytiladi. Qanday hissiyot bilan ishlangani. Metodik tahlil: Bu o‘yin orqali talabalar: g‘oyani badiiy fikrga aylantirishni o‘rganadilar; his-tuyg‘u, qadriyat va estetikani ifoda etadilar; Hamkorlik va bahs madaniyatini rivojlantiradilar. Musiqani tinglash. Idrok etish . Qog’ozga tushirish Savol: Siz yaratgan asarda qaysi milliy g‘oya ifoda topgan? Talabalarning fikrlari va tahlil.. Yaratilgan asarda milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat va madaniy merosni qadrlash g‘oyalari ifoda topgan. Asarda o‘zbek xalqining an’anaviy naqshlari, milliy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

kiyimlari, musiqa va raqs unsurlari orqali xalq ruhiyati, bag‘rikenglik va go‘zallikka intilish aks ettirilgan

3. QO‘LLANILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

STEAM yondashuvi: Musiqa (san’at) + rangshunoslik (fan) + hissiy idrok (psixologiya).

Sinesteziya mashqi: “Bu kuyni ko‘zsangiz, qanday ranglarni ko‘rasiz?” kabi savollar orqali sezgilarni birlashtirish.

Guruhli qaror qabul qilish: O‘quvchilar birgalikda tahlil qilib, o‘z tanlovini ilmiy (ranglar tili) va badiiy asosda himoya qiladi.

Ushbu metodik tahlilda keltirilgan ikki bosqich – guruhli o‘yin (musiqaga mos rasm tanlash) va amaliy ish (“Tanovar” asosida kompozitsiya yaratish va tahlil) –integratsiyaviy ta’lim tamoyillarini amalda qo‘llashning samarali namunasi hisoblanadi.

Komponent	Metodik ahamiyati
Guruhli o‘yin	Tasviriy san’at va musiqa o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘yin orqali tez va qiziqarli anglash imkonini beradi. O‘quvchilar tanlovlarini asoslash orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi.
“Tanovar” asosida amaliy ish	Tasviriy tilda ifodalash, milliy musiqa durdonasini chuqur his qilish, uni va natijada milliy o‘zlikni anglash darajasini oshiradi. Tahlil bosqichi esa ijodiy ishni ongli ravishda baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.
Integrativ vositalar	Sinesteziya, STEAM elementlari, raqamli resurslar va guruhli muhokama san’at turlarining fanlararo uyg‘unligini mustahkamlaydi.

Mazkur bosqichda amaliyot bazasida to‘plangan empirik ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Statistik tahlilning asosiy maqsadi – integrativ metodikaning samaradorligini ilmiy asosda aniqlash va natijalarni tizimlashtirishdan iborat.

Tahlil quyidagi yo‘nalishlarda olib borildi:

- Tajriba oldi va tajriba so‘ng natijalarini taqqoslash;
- Nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlarini solishtirish;
- Foizli o‘sish dinamikasini aniqlash;
- Tasviriy san’at va musiqa integratsiyasi asosida vizual tafakkur darajalari bo‘yicha taqsimotni aniqlash.
- Tajriba boshlanishidan oldin talabalar tafakkur darajasi aniqlanib, uch daraja bo‘yicha tasniflandi: past, o‘rta va yuqori.

1-jadval

Tajriba oldi natijalari (foizlarda)

Ko‘rsatkich	24/4 Eksperimental (%)	24/5 Nazorat (%)
Milliy ruh ifodasi	52	50
Rang uyg’unligi	48	46
Ijodiy tafakkur rivoji	50	49
Fanlararo integratsiyani tushunish	44	45

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Tajriba boshlanishida ikki guruh ko‘rsatkichlari deyarli teng bo‘lgan. O‘rtacha ko‘rsatkich:

Eksperimental guruh: (52+48+50+44)/4= 48.5%

Nazorat guruhi: (50+46+49+45)/4= 47.5%

Bu ikki guruhning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil ekanini ko‘rsatadi.

Integrativ metodika asosida mashg‘ulotlar olib borilgandan so‘ng qayta diagnostika amalga oshirildi.

2-jadval

Tajriba so‘ng natijalari (foizlarda)

Ko‘rsatkich	24/4 Eksperimental (%)	24/5 Nazorat (%)
Milliy ruh ifodasi	86	60
Rang uyg’unligi	82	57
Ijodiy tafakkur rivoji	87	61
Fanlararo integratsiyani tushunish	83	58

Yakuniy o‘rtacha ko‘rsatkich:

Eksperimental guruh: (86+82+87+83)/4= 84.5%

Nazorat guruhi: (52+47+49+55+45)/4= 59%

Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar sezilarli emas.

Dinamik o‘sish ko‘rsatkichlari

Eksperimental guruh o‘sishi: 84.5% − 48.5% = 36%

Nazorat guruhi o‘sishi: 59% − 47.5% = 11.5%

Demak, eksperimental guruhdagi o‘sish nazorat guruhiga nisbatan 2 baravar yuqori.

Bu tasviriy san’at darslarida klassik musiqalardan foydalanish metodining talabalarni milliy ruhdagi tasviriy asar yaratish samaradorligini matematik jihatdan tasdiqlaydi

3-jadval

Yakuniy test natijalari taqqoslamasi

Guruh	O‘rtacha ball
24/4 Eksperimental	10.6 ball
24/5 Nazorat	7.6 ball

Ball farqi: 10.6 − 7.6 = 3 ball

Bu esa eksperimental guruh natijasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli ustun ekanini ko‘rsatadi.

Foiz hisobida: (3 / 7.6) × 100 ≈ 39% ustunlik

4-jadval

Yuqori	15	8
O‘rta	4	9

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Past	2	6

Tajriba guruhi: Yuqori: 15/22 ×100 = 68.1%, Past: 9%

Nazorat guruhi: Yuqori: 8/23 ×100 = 34.7%, Past: 26%

Tajriba guruhida yuqori daraja ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan deyarli 2 baravar yuqori.

Olingan tajriba-sinov natijalari asosida quyidagi ilmiy-statistik xulosalar chiqarildi:

1. O‘zbek klassik musiqalari asosida tashkil etilgan integrativ metodika talabalarda milliy ruhdagi tasviriy san’at asarlarini yaratish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlantirdi.

2. Tajriba guruhida milliy ruhdagi tasviriy san’at asarlarini yaratish bo‘yicha ko‘rsatkichlarning o‘sish darajasi 36% ni tashkil etdi.

3. Nazorat guruhida esa an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanilganligi sababli o‘sish darajasi 11.5 % atrofida bo‘ldi.

4. Yakuniy test natijalari bo’yicha 39% ustunlik qayd etildi.

Yuqori darajadagi ko‘rsatkichlar tajriba guruhida 68,1% ga yetdi.

Tajriba-sinov darsi Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi 3-kurs talabalari bilan bilan o‘tkazildi.

Ko‘rsatkich	Dars boshida (%)	Dars oxirida (%)
Milliy ruh ifodasi	60	86
Rang uyg’unligi	57	82
Ijodiy tafakkur rivoji	61	87
Fanlararo integratsiyani tushunish	58	83

Dars davomida quyidagi natijalar kuzatildi: O‘quvchilarning 84% darsni “qiziqarli”, “ilhomlantiruvchi” va “milliy ruhni his qildim” deb baholadi. Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ijodiy faolligini rag‘batlantirish va milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda samarali vosita hisoblanadi.

Tajriba-sinov darsi asosida quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Musiqa tanlashda milliy an’anaga sodiq qolish – maqom yo‘llari, mumtoz ashulalar, kompozitorlarning milliy asarlari tanlanishi kerak. 2022-yilgi Prezident qarorida belgilangan milliy musiqa cholg‘ulari ro‘yxatiga asoslangan holda darslarda ushbu cholg‘ular orqali ijro etilgan asarlardan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Rangshunoslikka alohida e’tibor – o‘quvchilarga ranglarning musiqadagi lad (major-minor) va temp bilan bog‘liqligini tushuntirish zarur.

3. Integratsiyali darslarni tizimli tashkil etish – bunday darslar kamida chorakda 2-3 marta takrorlanib, talabalarda sinesteziya (sezgilarning o‘zaro bog‘liqligi) rivojlantiriladi.

4. Milliy meros namunalaridan foydalanish – miniatyura san’ati, usul naqshlari, tabiat manzaralari va musiqa asarlarini birgalikda o‘rganish milliy ruhdagi kompozitsiyalarni boyitadi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

5. Raqamli texnologiyalarni joriy etish – zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib, tasviriy san'at darslarida raqamli pedagogika tamoyillari, multimediya platformalari va interaktiv o'qitish vositalaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.[5]

6. Baholash tizimini moslashtirish – faqat texnik mahorat emas, balki g'oyaning musiqaga mosligi, ranglar uyg'unligi va ijodiy yondashuv ham baholanishi lozim.

"Tasviriy san'at va o'zbek klassik musiqalarini uyg'unlashtirish orqali milliy ruhdagi asar kompozitsiyasi yaratishni o'rgatish" mavzusidagi tajriba-sinov darsi integrativ ta'limning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Bu usul o'quvchilarda nafaqat badiiy ko'nikmalarni, balki milliy madaniyatni chuqur his qilish, estetik dunyoqarashni kengaytirish va musiqiy-tasviriy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi[6] hamda "Kelajak merosi" xalqaro mukofotining ta'sis etilishi[7] milliy san'atni rivojlantirish va yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini ko'rsatadi. Milliy san'at turlarini o'zaro uyg'unlashtirib o'qitish – yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, ijodiy mustaqillik va badiiy savodxonlikni shakllantirishning samarali yo'llaridan biridir. Kelgusida ushbu metodikani san'at yo'nalishidagi barcha ta'lim muassasalarida keng joriy etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. "Kelajak merosi" xalqaro mukofoti ta'sis etildi. – Kun.uz, 2025-yil 4-noyabr. – URL: https://kun.uz/news/2025/11/04/kelajak-merosi-xalqaro-mukofoti-tasis-etildi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarori. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022-yil 2-fevral. – URL: https://lex.uz/docs/-5849580
3. Ruziyeva O. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslari. – Cyberleninka, 2024. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-talim-tashkilotlarida-integratsiyalashgan-musiqa-mashgulotlarini-tashkil-etishning-nazariy-asoslari
4. Strategiya: Yoshlar, sport, madaniyat, ma'naviy meros yo'nalishidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. – O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA), 2026-yil 26-yanvar. – URL: https://uza.uz/oz/posts/strategiya-yoshlar-sport-madaniyat-manaviy-meros-yonalishidagi-ustuvor-vazifalar-muhokama-qilindi_811590

[5] Qobiljonova J.J. Tasviriy san'at darslarida raqamli innovatsiyalarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslari. – Ilmiy anjumanlar, 2025. – URL: https://ilmiyanjumanlar.uz/archive/article/id/15740

[6] Strategiya: Yoshlar, sport, madaniyat, ma'naviy meros yo'nalishidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. – O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA), 2026-yil 26-yanvar. – URL: https://uza.uz/oz/posts/strategiya-yoshlar-sport-madaniyat-manaviy-meros-yonalishidagi-ustuvor-vazifalar-muhokama-qilindi_811590

[7] "Kelajak merosi" xalqaro mukofoti ta'sis etildi. – Kun.uz, 2025-yil 4-noyabr. – URL: https://kun.uz/news/2025/11/04/kelajak-merosi-xalqaro-mukofoti-tasis-etildi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

5. Qobiljonova J.J. Tasviriy san'at darslarida raqamli innovatsiyalarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslari. – Ilmiy anjumanlar, 2025. – URL: https://ilmiyanjumanlar.uz/archive/article/id/15740
6. https://ru.wikipedia.org/wiki/Композиция_VIII
7. Music to animation of Kandinsky's Composition VIII, String Quarter Composed by Yusi Liu - YouTube https://m.youtube.com/watch?v=VIKaSh9O1aM.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

O‘ZBEK DRAMATURGIYASINING QORAQALPOQ SAHNASIDA NAMOYON BO‘LISHI.

Ibragimov Behzod Farxod ug‘li, O‘zDSMI Nukus filiali, Sanatshunoslik kafedrasi, teatrshunos bo‘limi 1-kurs talabasi.
Raxmanova Gauxar Kengesbayevna, O‘zDSMI Nukus filiali o‘qituvchisi (Ilmiy rahbar).

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada o‘zbek dramaturgiyasining qoraqalpoq teatri sahnasidagi o‘rni, tarixi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri misolida o‘zbek dramaturglari asarlarining sahnalashtirilishi, ularning badiiy va ma’naviy ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, turli davrlarda sahnaga qo‘yilgan spektakllar asosida ijodiy hamkorlik, milliy va umuminsoniy g‘oyalarning uyg‘unligi tadqiq etiladi.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi Qoraqalpoq teatrida o‘zbek dramaturgik asarlarini sahnalashtirish xususiyatlarini aniqlash hamda ularning milliy va madaniyatlararo badiiy an’analar rivojidagi ahamiyatini belgilashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot materiali sifatida Berdaq nomidagi teatrda turli davrlarda sahnalashtirilgan pyesalar olindi. Tadqiqotda tarixiy-madaniy tahlil, qiyosiy yondashuv va tavsifiy metoddan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek dramaturglarining asarlarini qoraqalpoq teatrida sahnalashtirilishi ijodiy hamkorlikka, madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga hamda milliy va umuminsoniy g‘oyalarning uyg‘unlashuviga xizmat qilgan. Spektakllarning badiiy qiymati ularning tomoshabinga ma’naviy ta’siri va sahna san’ati an’analarini saqlab qolishdagi o‘rnida yaqqol namoyon bo‘ladi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, o‘zbek dramaturgiyasi qoraqalpoq teatri rivojida muhim o‘rin tutadi. Uni sahnaga qo‘yish madaniy muloqotni rivojlantirishga, milliy qadriyatlarni asrashga va badiiy birlikning shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek dramaturgiyasi, Qoraqalpoq teatri, Berdaq teatri, sahna san’ati, rejissyorlik, spektakl, madaniy aloqalar, ijodiy hamkorlik.

ПРЕЗЕНТАЦИЯ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ДРАМАТИЗМА НА СЦЕНЕ КАРАКАЛПОКСКОГО ТЕАТРА.

Ибрагимов Бехзод Фарход угли, студент 1-го курса факультета истории искусств, отделения театроведения, Нукусского филиала Узбекского государственного института драматического искусства.
Рахманова Гаухар Кенгесбаевна, преподаватель Нукусского филиала Узбекского государственного института драматического искусства (научный руководитель).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется роль узбекской драматургии на сцене каракалпакского театра, её историческое развитие и этапы становления. В частности, на примере Каракалпакского государственного академического

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

музыкального театра имени Бердаха рассматриваются постановки произведений узбекских драматургов, их художественное и духовное значение. Также на основе спектаклей различных периодов исследуются творческое сотрудничество, а также взаимодействие национальных и общечеловеческих идей.

ЦЕЛЬ: целью исследования является выявление особенностей постановки узбекских драматургических произведений в каракалпакском театре и определение их значимости в развитии национальных и межкультурных художественных традиций.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалом исследования послужили пьесы, поставленные в разные периоды в Театре имени Бердаха. В работе используются историко-культурный анализ, сравнительный подход и описательный метод.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: анализ показал, что постановка произведений узбекских драматургов в каракалпакском театре способствовала творческому сотрудничеству, укреплению культурных связей и гармонизации национальных и общечеловеческих идей. Художественная ценность спектаклей проявляется в их духовном воздействии на зрителя и сохранении традиций сценического искусства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что узбекская драматургия занимает важное место в развитии каракалпакского театра. Её постановка способствует культурному диалогу, сохранению национальных ценностей и формированию художественного единства.

Ключевые слова: узбекская драма, Каракалпакский театр, театр Бердак, сценическое искусство, режиссура, спектакль, культурные связи, творческое сотрудничество.

THE PRESENTATION OF UZBEKISTAN DRAMATURE ON THE KARAKALPOK STAGE.

Ibragimov Behzod Farkhod ugli, 1st year student of the Department of Art History, Theater Studies Department, Nukus Branch of the Uzbek State Institute of Dramatic Arts
Rakhmanova Gaukhar Kengesbayevna, teacher of the Nukus Branch of the Uzbek State Institute of Dramatic Arts (Scientific supervisor).

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the role of Uzbek dramaturgy on the stage of the Karakalpak theater, its historical development and main stages. In particular, the productions of Uzbek playwrights are examined through the example of the Berdakh Karakalpak State Academic Musical Theater, highlighting their artistic and spiritual significance. The study also explores creative collaboration and the interaction of national and universal values based on performances from different periods.

AIM: the aim of the study is to identify the features of staging Uzbek dramaturgical works in the Karakalpak theater and to determine their significance in the development of national and intercultural artistic traditions.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

MATERIALS AND METHODS: the research material consists of plays staged at different periods in the Berdakh Theater. The study employs historical-cultural analysis, comparative approach, and descriptive method.

RESULTS AND DISCUSSION: the analysis revealed that staging Uzbek playwrights' works in the Karakalpak theater contributed to creative collaboration, strengthening cultural ties, and harmonizing national and universal ideas. The artistic value of the performances is evident in their spiritual impact on the audience and in preserving the traditions of stage art.

CONCLUSION: in conclusion, Uzbek dramaturgy holds an important place in the development of the Karakalpak theater. Its staging fosters cultural dialogue, preserves national values, and contributes to the formation of artistic unity.

Keywords: uzbek drama, Karakalpak theater, Berdak theater, stage art, directing, performance, cultural relations, creative cooperation.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar uzoq tarixga ega bo‘lib, bu hamkorlik ayniqsa teatr san’atida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek dramaturgiyasi Qoraqalpoq sahnasida muhim o‘rin tutib, ikki xalq o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlikni mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Xususan, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri 1926-yilda tashkil etilgan bo‘lib, qariyb 100-yillik boy tarixga ega. Ushbu teatr nafaqat qoraqalpoq milliy san’atining, balki butun mintaqadagi teatr madaniyatining muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Shu davr mobaynida teatr repertuarida turli xalqlar dramaturgiyasi qatorida o‘zbek dramaturglari asarlari ham munosib o‘rin egallab kelgan.

O‘zbek dramaturgiyasi qoraqalpoq teatri repertuarida alohida o‘rin egallab kelmoqda. Ayniqsa, o‘zbek dramaturglarining asarlari qoraqalpoq sahnasida muvaffaqiyatli namoyish etilib, tomoshabinlar e’tiborini qozongan. Bunda asarlarning mazmun jihatidan yaqinligi, milliy ruh va umuminsoniy g‘oyalarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq davlat musiqali drama teatri va boshqa teatr jamoalari tomonidan o‘zbek dramaturglarining ko‘plab asarlari sahnalashtirilgan. Ushbu spektakllar orqali tomoshabinlar nafaqat badiiy zavq oladi, balki turmush haqiqatlari, inson taqdiri, jamiyat muammolari haqida chuqur mushohada yuritish imkoniga ega bo‘ladi.

Teatr faoliyatining ilk bosqichlaridanoq o‘zbek dramaturgiyasiga murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Teatr repertuarida 1930-yilda G. Zafariyning “Xalima” asari, 1937-yilda Xurshidning “Layli Majnun” musiqali dramasi dramasi sahnalashtirilib, teatr repertuarida muhim o‘rin egallagan.

1940–1950-yillarda Hamzaning “Maysaraning hiylasi”, K. Yashenning “Gulsara”, S. Abdullaning “Taxir va Zuxra”, A. Qahharning “Yangi yer” kabi asarlar sahna yuzini ko‘rdi. Bu asarlar orqali inson taqdiri, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar yoritib berilgan.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Keyingi yillarda ham bu an'ana izchil davom etdi. 1950–1960-yillarda A. Qahharning "Yangi yer", "Og'riq tishlar", "Tobutdan chiqqan ovoz" kabi asarlari, shuningdek, A. Uyg'unning "Gumon" dramasi sahnalashtirildi. Bu asarlar orqali ijtimoiy hayot, inson xarakteri va ma'naviy muammolar chuqur yoritib berildi.

1970–1980-yillarda ham o'zbek dramaturgiyasi qoraqalpoq sahnasida faol namoyon bo'ldi. K. Yashenning "Yo'lchi yulduz", A. Qahharning "Ayajonlarim", Sh. Rashidovning "Yurakning o'ti so'nmasin", I. Sultonning "Bilmay bostim tikanni" kabi asarlari sahnalashtirildi. Shu bilan birga, S. Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni", A. Qahharning "Saq qarg'a sag'ag'idan" kabi komediyalari tomoshabinlar orasida katta qiziqish uyg'otdi.

Mustaqillik arafasi va undan keyingi davrda ham bu ijodiy aloqalar davom etdi. Jumladan, Sh. Bashbekovning "Temir xotin", Sh. Alimovning "Xo'ja Nasriddin o'lmaydi", I. Sadikovning "Afandining besh xotini", A. Oripovning "Sohibqiron" kabi asarlari sahnalashtirildi.

So'nggi yillarda ham zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi namunalari sahnaga chiqarilib kelinmoqda. M.Xayrullayevning "Enaga", E.Xushvaqtovning "Andiyshali kelinchak", O'. Hoshimovning "To'ylar muborak" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Ushbu spektakllarning sahnalashtirilishida turli davrlardagi rejissyorlar, rassomlar va bastakorlarning ijodiy hissasi katta bo'lib, ular asarlarning mazmun-mohiyatini sahnada to'liq ifoda etishga harakat qilganlar. Bu esa o'zbek dramaturgiyasining qoraqalpoq sahnasida muvaffaqiyatli qaror topishiga xizmat qildi.

XXI asrga kelib, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida o'zbek dramaturgiyasi an'analari yana-da izchillik bilan davom ettirildi va yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda sahnalashtirilgan asarlar mazmun jihatidan chuqur psixologizm, ijtimoiy tahlil va zamonaviy muammolarni yoritishi bilan ajralib turadi.

Jumladan, Q. Abdreymov rejissyorligida va B. Aytmuratov rassomligida amalga oshirilgan sahna ishlari teatr repertuarida muhim o'rin tutdi. 2013-yili Q.Narqobilning "Nur soyada qolmaydi" dramasi (rejissyor N. Ansatbayev, rassom B. Aytmuratov), 2014-yili esa "Suv ko'rmay etik yechma" komediyasi (rejissyor J. Sultabayev) tomoshabinlarga taqdim etildi.

2015-yili Q. Narqobilning "Bir bola va besh ayol taqdiri" psixologik dramasi (rejissyor N. Ansatbayev, rassomlar R. Asqarov, Z. Saypov) sahnalashtirilib, inson taqdiri va ijtimoiy munosabatlarni chuqur tahlil etgan asar sifatida e'tibor qozondi. 2016-yili N. Xashimovning "Rizolat qurbonlari" dramasi (rejissyor B. Utebayev) va I. Sultonning "Imon" dramasi (rejissyor Yo. Sagdiyev) sahnaga olib chiqildi.

2017-yili Q. Narqobilning "Gul olmagan go'zallar" komediyasi (rejissyor S. Uzaqbayev) sahnalashtirilib, zamonaviy hayot muammolarini yumor orqali yoritdi. 2019-yili A. Qodiriyning "Anvar va Rano" asari (rejissyor M. Reymov), 2020-yili esa E. Agzamning "Tanho qayiq" dramasi (rejissyor B. Utebayev) teatr sahnasida namoyon bo'ldi.

So'nggi yillarda milliy klassikaga murojaat yana-da kuchaydi. Xususan, 2022-yili A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari asosida E. Xushvaqtov tomonidan yaratilgan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

inssenirovka (rejissyor Marat Azimov) sahnalashtirildi. 2023-yili Uyg‘unning “Abu Rayxan Beruniy” tarixiy dramasi (rejissyor B. Utebayev) namoyish etildi. 2025-yilga kelib esa U. Azimning “Bir qadam yo‘l” dramasi (rejissyor M. Reymov) teatr repertuaridan o‘rin oldi.

Shuningdek, aytib o‘tish joiz o‘zbek rejissyorlari Qoraqalpoq teatri rivojida muhim o‘rin tutgan. Jumladan, o‘tkan asrning 30-yillarida Z.Kabulov qoraqalpoq teatrida bosh rejisser bo‘lib xizmat etgan. Uning saxnalashtirgan “Layli Majnun” musiqali dramasini olib qoraydigan bo‘lsak, klassik mavzularni yangi badiiy uslubda talqin etgan.

O‘zbek rejissyorlarining Qoraqalpoq teatridagi ijodiy faoliyati turli davrlarda izchil davom etib kelgan. Bu jarayonda har bir rejissyor o‘z uslubi, badiiy yondashuvi va sahna yechimlari bilan teatr san’ati rivojiga hissa qo‘shgan.

G. Abdulov 1970-yillarda sahnalashtirgan “Qoraqalpoq qizi” asari ushbu davr sahna san’atining muhim namunalaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu spektakl orqali milliy xarakter, ayol taqdiri va ijtimoiy munosabatlar sahnaviy ifoda topgan bo‘lib, rejissyor asar mazmunini realistik va ta’sirchan uslubda ochib berishga erishgan.

Zamonaviy davrga kelib esa V. Umarovning ijodiy faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. U 2026-yili “Tanho yulduz” asarini sahnalashtirib, zamonaviy insonning ichki kechinmalari, yakkalik va ma’naviy izlanish muammolarini sahnada yangicha badiiy yechimlar orqali talqin etdi. Ushbu spektaklda zamonaviy rejissyorlik usullari, plastik harakatlar va vizual ta’sirchanlik ustuvor o‘rin tutgan.

Yo. Sagdiyev I.Sultonning “Imon” dramatik asarini psixologik chuqurlik bilan talqin etgan bo‘lsa, M. Azimov tarixiy va klassik asarlarga yangicha sahnaviy talqin berish bilan ajralib turadi.

Turli avlod rejissyorlari qoraqalpoq teatrida o‘zbek dramaturgiyasi va sahna san’atini boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Ular tomonidan yaratilgan spektakllar nafaqat badiiy qiymatga ega, balki tomoshabin dunyoqarashini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

O‘zbek va qoraqalpoq teatr ijodkorlari o‘rtasidagi hamkorlik, festivallar, gastrollar va ijodiy uchrashuvlar orqali yana-da mustahkamlanib bormoqda. Bu jarayon ikki xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek dramaturgiyasining qoraqalpoq sahnasida namoyon bo‘lishi uzviy va izchil jarayon bo‘lib, u ikki xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Berdaq teatri misolida bu jarayonning tarixiy va zamonaviy bosqichlari yaqqol ko‘rinadi. Kelgusida ham mazkur ijodiy hamkorlikning rivojlanishi teatr san’atining yana-da taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bayandiyev T. Karakalpakskomu teatru – 50 let. Izdatelstvo “Karakalpakstan” Nukus 1975 g.
2. Bayandiyev T. Og‘riq tishlar. Yerkin Qaraqalpaqstan, 1956, 28-yanvar.
3. O‘zbek dramaturgiyasi antologiyasi.
4. Mamutov P.A. Mahmudhuja Behbudiyning “Padarqush” tragediyasi qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri sahnasida. Teatr №2.-Toshkent, 2023-VV. 20-23.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TALABALARNING KREATIV KOMPETENTSIYASINI GRAFIK DASTURLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH: NAZARIY VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLAR

Abdumajitov Avazjon Shuhrat o‘g‘li, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi o‘qituvchisi, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada talabalarning kreativ kompetentsiyasini grafik dasturlar vositasida rivojlantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinadi.

MAQSAD: rangtasvir fanida art-specific kreativlik tushunchasining mohiyatini ochib berish, grafik dasturlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish va to‘rt bosqichli “Integral tizim”ni asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: pedagogik-psixologik nazariyalar tahlili (Guilford, Torrance, Csikszentmihalyi, Maslow), grafik dasturlarning qiyosiy tahlili, xalqaro maqolalar sharhi (Bakreski, 2022; Omonov & Rustamova, 2025; Khoroshunova, 2019; Zaevskaya, 2024), pedagojik tajriba-sinov (N=48), TTCT va CAT metodikalari, Student ttesti.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tajriba guruhida kreativlik ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori bo‘ldi ($p < 0.01$). Krita dasturi O‘zbek ta’limi uchun eng maqbul vosita sifatida asoslandi. To‘rt bosqichli «Integral tizim» algoritmi aniqlandi.

XULOSA: grafik dasturlar art-specific kreativlikni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Natijalar O‘zbekiston 24 telekanalida amaliy tasdiqlandi (12.03.2026, 05-09-428-son).

Kalit so‘zlar: kreativ kompetentsiya, art-specific creativity, grafik dasturlar, rangtasvir, gibrid ta’lim, ijodiy tavakkalchilik, «Integral tizim», Krita, pedagogik metodika.

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Абдумажитов Авазжон Шухрат угли, преподаватель кафедры «Изобразительное искусство и дизайн» Чирчикского государственного педагогического университета, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются научно-теоретические и педагогопсихологические основы развития креативной компетентности студентов с помощью графических программ.

ЦЕЛЬ: раскрыть сущность понятия «art-specific» (специфической для искусства) креативности в дисциплине «Живопись», провести сравнительный анализ графических программ и обосновать четырехэтапную «Интегральную систему».

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ педагого-психологических теорий (Гилфорд, Торренс, Чиксентмихайи, Маслоу), сравнительный анализ графических программ,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

обзор международных публикаций (Bakreski, 2022; Omonov & Rustamova, 2025; Khoroshunova, 2019; Zaevskaya, 2024), педагогический эксперимент ($N=48$), методики TTCT (тест Торренса) и CAT (метод консолидированной оценки), tкритерий Стьюдента.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: показатели креативности в экспериментальной группе оказались значительно выше, чем в контрольной ($p < 0.01$). Программа Krita была обоснована как наиболее оптимальный инструмент для системы образования Узбекистана. Определен алгоритм четырехэтапной «Интегральной системы».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: графические программы являются эффективным средством развития специфической художественной креативности. Результаты получили практическое подтверждение в эфире телеканала «O‘zbekiston 24» (12.03.2026, № 05-09-428).

Ключевые слова: креативная компетентность, art-specific creativity, графические программы, живопись, гибридное обучение, творческий риск, «Интегральная система», Krita, педагогическая методика.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE COMPETENCE THROUGH GRAPHIC SOFTWARE: THEORETICAL, PEDAGOGICAL, AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS

Abdumajitov Avazjon Shuhrat ugli, Teacher of the Department of Fine Arts and Design, Chirchiq State Pedagogical University, Chirchiq, Uzbekistan

Abstract

INTRODUCTION: this article analyzes the scientific-theoretical, pedagogical, and psychological foundations of developing students' creative competence using graphic software.

AIM: the study aims to reveal the essence of the concept of "art-specific creativity" within the discipline of painting, conduct a comparative analysis of graphic software, and substantiate a four-stage "Integral System".

MATERIALS AND METHODS: the research involves an analysis of pedagogical and psychological theories (Guilford, Torrance, Csikszentmihalyi, Maslow), a comparative analysis of graphic software, and a review of international literature (Bakreski, 2022; Omonov & Rustamova, 2025; Khoroshunova, 2019; Zaevskaya, 2024). The experimentalpilot study was conducted with a sample of $N=48$, utilizing the Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT), the Consensual Assessment Technique (CAT), and the Student’s t-test for statistical verification.

RESULTS AND DISCUSSION: creativity indicators in the experimental group were significantly higher than those in the control group ($p < 0.01$). The Krita software was identified as the most optimal tool for the Uzbek education system. Furthermore, the algorithm for the four-stage "Integral System" was defined.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

CONCLUSION: graphic software is an effective tool for developing art-specific creativity. The results were practically confirmed and broadcast on the O‘zbekiston 24 TV channel (March 12, 2026, No. 05-09-428).

Keywords: creative competence, art-specific creativity, graphic software, painting, hybrid education, creative risk-taking, "Integral System," Krita, pedagogical methodology.

Zamonaviy ta’lim paradigmasi talabalardan nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallashni, balki ijodiy, tanqidiy va muammolarni hal etish kompetentsiyalari bilan boyitishni taqozo etadi. O‘zbekistonda ta’limni isloh qilishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasi [1], “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [2], ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga oid farmonlar [3][4][5] hamda pedagogik ta’lim va oliy ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlar [6][7][8] asosida oliy ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish ustuvor vazifaga aylandi. Bakreski [26] ko‘rsatishicha, texnologik inqiloblar san’at ta’limini tubdan o‘zgartirib, yangi ijodiy vositalarni ta’limga olib kiradi; bu kuzatuv raqamli grafik dasturlarni rangtasvir ta’limiiga integratsiya qilish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Maqolaning maqsadi - rangtasvir fanida art-specific kreativlik tushunchasining nazariy-psixologik mohiyatini ochib berish, grafik dasturlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish, to‘rt bosqichli “Integral tizim”ni asoslash va tajriba-sinov natijalarini statistik ma’lumo tlar bilan taqdim etish. Mazkur tadqiqot muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanmasiga [9] ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kreativlik tushunchasi psixologiya fanida J.P. Guilford [10] tomonidan divergent fikrlash qobiliyati sifatida ta’rflangan bo‘l sa, E.P. Torrance [11] uni muammolarni sezish, gipotezalar tuzish va natijalarni ifodalash jarayoni sifatida kengaytirdi. Rangtasvirda art-specific kreativlik uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: rang munosabatlari tanlashda kreativlik, kompozitsion tavakkalchilik va plastik ifoda va faktura izlash. Krita dasturining Color Harmony va rang shkalasi orqali talaba bir tasvirda o‘nlab rang munosabati variantlarini sinab ko‘rishi mumkin. Transform va Warp vositalari yordamida talaba kompozitsiyani turli variantlarda sinab ko‘radi, bu Guilford [10] nazariyasidagi fleksibillik komponentini bevosita rivojlantiradi. Brush dynamics tizimi turli mo‘yi qalam fakturalarini (impasto, glazing, scumbling) simulatsiya qilib, talabaga plastik ifoda ustida eksperiment o‘tkazish imkonini beradi.

Kompetentsiyaviy yondashuv kontekstida (Xutorskoy [16], Zimnyaya [17]) kreativ kompetentsiya rangtasvir fanida to‘rt komponentdan tashkil topadi: kognitiv, operatsional, motivatsion-qiymatiy va refleksiv. Maslow [13]ning o‘z-o‘zini namoyon etish nazariyasi va Deci & Ryan [14]ning ichki motivatsiya kontseptsiyasi asosida raqamli grafik muhit bu motivatsiyani kuchaytiruvchi psixologik shart-sharoit yaratadi.

Grafik dasturlar orasidan Krita, Sketchbook va Infinite Painter tanlandi. Krita dasturi O‘zbekiston ta’lim muassasalari uchun eng maqbul variant hisoblanadi: to‘l iq

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

bepul (ochiq kodli litsenziya), har qanday kompyuterda ishlaydi, to‘liq professional imkoniyatlarga ega. Omonov & Rustamova [28] grafik dasturlarning umumta’lim maktablarida tasviriy san’at ko‘nikmalarini shakllantirishdagi markaziy rolini eksperimental tarzda isbotlagan; Zaevskaya [27] esa grafik planshetlar va kompyuter dasturlarning rasm chizish va rangtasvir o‘rgatishdagi afzalliklarini psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilgan.

Gibrid ta’lim muhiti kontseptsiyasi an’anaviy rangtasvir qonuniyatlarini raqamli texnologiyalar bilan organik uyg‘unlashtiradi. Anderson & Helms [18] (2020) gibrid metodologiyaning talabalar motivatsiyasini oshirishdagi rolini, Fleischer [19] (2018) esa raqamli vositalarning kreativlikka ijobiy ta’sirini isbotlagan. UNESCO (2021) [24] va World Economic Forum (2023) [25] ta’limda raqamli transformatsiyani asosiy tendensiya sifatida belgilagan.

Biroq, ilmiy xolislik nuqtai nazaridan AI-assisted tools ning ta’limga integratsiyasiga tanqidiy yondashuv ham zarur. Camburn & Wood [22] (2024) AI vositalarini ta’limda qo‘llashda pedagog nazorati va ijodiy mustaqillikni taʾminlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini taʾkidlagan. Ladunca [30] raqamli texnologiyalar davrida san’atdagi yangi tajribalarni tahlil qilib, VR, AR va AI vositalarining ijodiy bog‘liql ik (creative dependency) xavfini yuzaga keltirishi mumkinligini taʾkidlagan. Shu sababdan tadqiqotimizda AI vositalariga faqat qo‘shimcha metodologik resurs sifatida qaraladi.

"Integral tizim"ning to‘rt bosqichi kreativ kompetentsiyani izchil rivojlantirishning algoritmik asosini tashkil etadi: I bosqich - Konseptual tahlil (g‘oya, mood board, reference); II bosqich - Konstruktiv modellashtirish (kompozitsiya, perspektiva); III bosqich - Texnologik interpretatsiya (Layers, blending, rang); IV bosqich - Sifat nazorati (refleksiya, baholash, tahlil). Bu tizim an’anaviy va raqamli rangtasvir ta’limini to‘ldi ruvchi omillar sifatida birlashtiruvchi algoritmik model sifatida asoslab chiqildi.

Tadqiqotning tajriba-sinov qismi ChDPU 2-kurs tasviriy san’at talabalari (N=48, tajriba guruhi n=24, nazorat guruhi n=24) o‘tasida o‘tkazildi. Kreativ kompetentsiyani o‘lchash uchun Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT) [11] va Amabile [15]ning Consensual Assessment Technique (CAT) metodikalari qo‘lland i. Statistik tahlil Student t-testi orqali amalga oshirildi. Jadval ma’lumo tlari ko‘rsatadiki, tajriba guruhidagi talabalar barcha kreativlik ko‘rsatkichlari bo‘yi cha nazorat guruhidan statistik jihatdan sezilarli yuqori natijalar ko‘rsatdi ($p < 0.01$). Ayniqsa, eksperimentlash ko‘rsatkichidagi farq (8.1 vs 5.5, $p < 0.001$) ijodiy tavakkalchilik psixologiyasining grafik dasturlar orqali muvaffaqiyatli rivojlantirilganini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar O‘zbekiston 24 telekanalida amaliy tatbiq etilgan metodika (Dalolatnoma: 12.03.2026, 05-09-428-son) samaradorligini ham tasdiqlaydi. Telekanalda «Etti rang» ko‘rsatuvida qo‘llanilgan metodika — talabalar tomonidan yaratilgan raqamli rangtasvir asarlarini bosqichma-bosqich tahlil qilish va grafik dasturlar orqali ijodiy jarayonni vizualizatsiya qilish — keng auditoriyaga rangtasvir ta’limining yangi imkoniyatlarini ko‘rsatdi.

To‘rt bosqichli «Integral tizim» (Konseptual tahlil → Konstruktiv modellashtirish → Texnologik interpretatsiya → Sifat nazorati) an’anaviy va raqamli rangtasvir ta’limini to‘ldi

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ruvchi omillar sifatida birlashtiruvchi algoritmik model sifatida asoslab chiqildi. Khoroshunova [29], Omonov & Rustamova [28] va Oliva Lozano et al. [31] tadqiqotlari bilan taqqoslaganda, ushbu tizim O‘zbekiston ta’lim tizimining milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o‘ziga xos metodologik yondashuv sifatida ajralib turadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5203-son Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-1775-son Qarori.
9. Abdumajitov, A.Sh. (2024). Rangtasvir o‘quv qo‘llanma. ChDPU nashri.
10. Guilford, J.P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444-454.
11. Torrance, E.P. (1966). Torrance Tests of Creative Thinking. Personnel Press.
12. Csikszentmihalyi, M. (1990). Flow: The Psychology of Optimal Experience. Harper & Row.
13. Maslow, A.H. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370-396.
14. Deci, E.L., & Ryan, R.M. (2000). The what and why of goal pursuits. Psychological Inquiry, 11(4), 227-268.
15. Amabile, T.M. (1982). Social psychology of creativity. Journal of Personality and Social Psychology, 43(5), 997-1013.
16. Xutorskoy, A.V. (2003). Klyuchevye kompetentsii kak komponent paradigmy obrazovaniya. Narodnoe obrazovanie, 2, 58-64.
17. Zimnyaya, I.A. (2004). Klyuchevye kompetentnosti kak osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. Moskva.
18. Anderson, C., & Helms, M. (2020). Digital tools and student motivation in hybrid art education. Journal of Art & Design Education, 39(2), 145-159.
19. Fleischer, H. (2018). Digital tools as mediators for creative thinking in art education. International Journal of Education & the Arts, 19(7), 1-22.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

20. Peppler, K., & Kafai, Y. (2007). From SuperGoo to Scratch. Learning, Media and Technology, 32(2), 149-166.
21. Beghetto, R.A., & Kaufman, J.C. (2023). Creative risk-taking in educational contexts. Review of Educational Research, 93(2), 201-239.
22. Camburn, B., & Wood, K. (2024). AI-assisted creativity tools in design education. Design Studies, 91, 101-118.
23. Kim, J., & Park, S. (2025). Generative design pedagogy in visual arts curricula. International Journal of Art & Design Education, 44(1), 23-41.
24. UNESCO. (2021). Reimagining Our Futures Together. UNESCO Publishing.
25. World Economic Forum. (2023). Future of Jobs Report 2023. WEF Publishing.
26. Bakreski, Y. (2022). The Impact of Technological Advancements on Art. Journal of Arts and Humanities, 11(4), 17-25.
27. Zaevskaya, E.E. (2024). Vliyanie tsifrovykh tekhnologiy na protsess obucheniya. Aktualnye issledovaniya, 47(229), 79-84.
28. Omonov, D.E., Rustamova, G.Yu. (2025). The Importance of Using Graphic Programs. European International Journal of Pedagogics, 5(1), 63-66.
29. Khoroshunova, A.V. (2019). Innovatsionnye tekhnologii v protsesse obucheniya studentov. Vestnik MGOU, 1, 54-61.
30. Ladunca, M. (2024). New Artistic Experiences in the Era of Digital Technologies. George Enescu National University of Arts.
31. Oliva Lozano, M., et al. (2017). Dibujo y Pintura Digital. PIMCD No. 209, Universidad Complutense de Madrid.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TALABALARDA MAQSADGA YO‘NALTIRILGANLIK VA AKADEMIK MUVAFFAQIYAT MODELI

Jabborova Malohat Azimovna, Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada talabalarda maqsadga yo‘naltirilganlik va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning integratsion modeli ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabaning akademik muvaffaqiyati faqat bilim darajasi bilan emas, balki uning maqsad qo‘yish qobiliyati, ichki motivatsiyasi va o‘zini boshqarish strategiyalari bilan ham belgilanadi. Tadqiqotda maqsadga yo‘naltirilganlik nazariyalari, akademik motivatsiya va o‘zini boshqarish konsepsiyalari asosida talabalarning akademik natijalariga ta’sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilindi. Empirik natijalar shuni ko‘rsatdiki, maqsadga yo‘naltirilganlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘quv faoliyatida yuqori natijalarga erishadi. Shuningdek, maqsadga yo‘naltirilganlik, motivatsiya va o‘zini boshqarish o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlanib, ularning integratsiyasi akademik muvaffaqiyatning muhim sharti ekanligi ilmiy asoslandi.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — talabalarda maqsadga yo‘naltirilganlik va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish hamda ularning integratsion modelini ilmiy asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda maqsadga yo‘naltirilganlik nazariyalari, akademik motivatsiya va o‘zini boshqarish konsepsiyalari asosida psixologik determinantlar o‘rganildi. Empirik kuzatuvlar va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: natijalar shuni ko‘rsatdiki, maqsadga yo‘naltirilganlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘quv faoliyatida yuqori natijalarga erishadi. Motivatsiya va o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari bilan maqsadga yo‘naltirilganlik o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi. Bu integratsion model akademik muvaffaqiyatning muhim sharti sifatida ilmiy asoslandi.

XULOSA: talabalarda maqsadga yo‘naltirilganlik, motivatsiya va o‘zini boshqarishning integratsiyasi akademik muvaffaqiyatni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Oliy ta’lim jarayonida ushbu psixologik determinantlarni rivojlantirish talabalarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maqsadga yo‘naltirilganlik, akademik muvaffaqiyat, motivatsiya, o‘zini boshqarish, o‘quv faoliyati, akademik motivatsiya, psixologik determinantlar.

МОДЕЛЬ ЦЕЛЕОРИЕНТИРОВАННОСТИ И АКАДЕМИЧЕСКОЙ УСПЕВАЕМОСТИ СТУДЕНТОВ

Жабборова Малохат Азимовна, и.о. доцента Шахрисабзского государственного педагогического института, доктор философии по психологическим наукам (PhD)

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье научно анализируется взаимосвязь целеориентированности студентов и их академической успешности, а также их интеграционная модель. В современной системе высшего образования академическая успешность студентов определяется не только уровнем знаний, но и их способностью ставить цели, уровнем внутренней мотивации и стратегиями саморегуляции. В исследовании на основе теорий целеориентированности, академической мотивации и саморегуляции проанализированы психологические факторы, влияющие на академические результаты студентов. Эмпирические результаты показали, что студенты с высоким уровнем целеориентированности достигают более высоких академических результатов. Кроме того, выявлена положительная корреляция между целеориентированностью, мотивацией и саморегуляцией, что подтверждает их интеграцию как важное условие академической успешности.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи — проанализировать взаимосвязь между целеустремленностью и академической успешностью студентов, а также научно обосновать их интегративную модель.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании изучались психологические детерминанты на основе теорий целеполагания, концепций академической мотивации и саморегуляции. были использованы методы эмпирического наблюдения и статистического анализа.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показали, что студенты с высоким уровнем целеустремленности достигают более высоких результатов в учебной деятельности. была выявлена положительная корреляция между целеустремленностью и показателями мотивации и саморегуляции. данная интегративная модель была научно обоснована как важное условие академического успеха.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция целеустремленности, мотивации и саморегуляции у студентов является ключевым фактором обеспечения академической успешности. развитие этих психологических детерминант в процессе высшего образования способствует эффективной организации учебной деятельности студентов.

Ключевые слова: целеориентированность, академическая успешность, мотивация, саморегуляция, учебная деятельность, академическая мотивация, психологические детерминанты.

GOAL ORIENTATION AND ACADEMIC SUCCESS MODEL AMONG STUDENTS

Jabborova Malohat Azimovna, Acting Associate Professor at Shahrisabz State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD).

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the relationship between goal orientation and academic success among students, as well as their integrative model, from a scientific perspective. In the modern higher education system, students' academic success is

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

determined not only by their level of knowledge but also by their ability to set goals, intrinsic motivation, and self-regulation strategies. The study examines psychological factors influencing students' academic outcomes based on theories of goal orientation, academic motivation, and self-regulation. The empirical results demonstrate that students with a higher level of goal orientation achieve better academic performance. In addition, a positive correlation between goal orientation, motivation, and self-regulation was identified, confirming that their integration is an essential condition for academic success.

AIM: the primary objective of the article is to analyze the correlation between goalorientation and academic success in students and to scientifically substantiate their integrative model.

MATERIALS AND METHODS: psychological determinants were studied based on theories of goal-orientation, academic motivation, and self-regulation concepts. Empirical observation and statistical analysis methods were employed in the research.

RESULTS AND DISCUSSION: the results demonstrated that students with a high level of goal-orientation achieve superior results in their educational activities. A positive correlation was identified between goal-orientation and indicators of motivation and selfregulation. This integrative model was scientifically substantiated as a vital prerequisite for academic success.

CONCLUSION: the integration of goal-orientation, motivation, and self-regulation among students is a crucial factor in ensuring academic success. Developing these psychological determinants within the higher education process serves to facilitate the effective organization of students' learning activities.

Keywords: goal orientation, academic success, motivation, self-regulation, learning activity, academic motivation, psychological determinants.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalar akademik muvaffaqiyatini oshirish masalasi nafaqat pedagogik, balki psixologik nuqtai nazardan ham dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar rivoji hamda ta'limning individuallashuvi sharoitida talabaning mustaqil bilim olish faoliyati keskin ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida talabaning nafaqat bilim darajasiga, balki uning psixologik tayyorgarligi, ichki resurslari va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatiga yuqori talab qo'yadi.

Ta'lim jarayonining murakkablashuvi, axborot hajmining ortishi va o'quv yuklamasining oshishi talabalardan yuqori darajadagi kognitiv faollik, irodaviy barqarorlik va o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

talabaning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda maqsadga yo‘naltirilganlik muhim psixologik determinantlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqsadga yo‘naltirilganlik shaxsning o‘z faoliyatini aniq maqsadlar asosida rejalashtirish, boshqarish va natijaga erishish yo‘lida izchil harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu xususiyat talabaning o‘quv faoliyatida qat’iyatlilik, barqarorlik, izchillik va yuqori natijalarga intilishni shakllantiradi. Maqsadga ega bo‘lgan talaba o‘z faoliyatini ongli ravishda tashkil etadi, vaqtni samarali taqsimlaydi va o‘z natijalarini tahlil qilishga intiladi.

Biroq akademik muvaffaqiyatni tushuntirishda maqsadga yo‘naltirilganlikni alohida ko‘rib chiqish yetarli emas. Uni motivatsiya va o‘zini-o‘zi boshqarish kabi psixologik omillar bilan integratsiyada o‘rganish zarur. Chunki maqsad mavjud bo‘lsa-da, agar ichki motivatsiya yetarli bo‘lmasa yoki talaba o‘z faoliyatini boshqara olmasa, yuqori natijalarga erishish qiyinlashadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maqsadga yo‘naltirilganlik talabaning o‘quv faoliyatidagi faolligi, metakognitiv strategiyalari, o‘zini boshqarish darajasi va akademik natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur maqolada talabalarda maqsadga yo‘naltirilganlik va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik integratsion yondashuv asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Maqsadga yo‘naltirilganlik muammosi psixologiya fanida keng qamrovli o‘rganilgan bo‘lib, u shaxs faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aniq va tizimli maqsadlar shaxsning faoliyatini tartibga soladi va uning natijaviyligini oshiradi.

Maqsad qo‘yish nazariyasi doirasida E. Locke va G. Latham tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya alohida ahamiyat kasb etadi [1]. Ularning fikricha, aniq, murakkab va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlar shaxsning motivatsiyasini oshiradi hamda faoliyat samaradorligini ta’minlaydi. Maqsadning aniqligi va unga bo‘lgan ishonch darajasi natijaga erishish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Motivatsiya muammosini o‘rganishda C. Dweckning “o‘sish tafakkuri” nazariyasi muhim o‘rin tutadi [2]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin deb hisoblaydigan shaxslar qiyinchiliklarga bardoshliroq bo‘lib, ular o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etadi va yuqori akademik natijalarga erishadi. Bu esa maqsadga yo‘naltirilganlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsning rivojlanishga bo‘lgan ichki intilishini kuchaytiradi.

O‘zini-o‘zi boshqarish nazariyasida B. Zimmerman maqsadga yo‘naltirilganlikni o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatadi [3]. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quv faoliyati uch bosqichdan iborat: rejalashtirish, bajarish va refleksiya. Ushbu bosqichlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, talabaning faoliyatini samarali boshqarishini ta’minlaydi.

P. Pintrich o‘z tadqiqotlarida motivatsiya va o‘zini boshqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab bergan [4]. Uning fikricha, talabaning akademik muvaffaqiyati motivatsion omillar va metakognitiv strategiyalarning integratsiyasi orqali shakllanadi. Bu yondashuv talabaning o‘quv faoliyatini kompleks tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

O‘zbek psixologiyasida ham ushbu muammo yetarlicha o‘rganilgan. E. G‘oziyev o‘quv faoliyatida psixik jarayonlar va motivatsiyaning rolini chuqur tahlil qilgan [5]. B. Qodirov shaxs faolligi va ichki motivatsiyaning ta’lim samaradorligidagi ahamiyatini ta’kidlaydi [6]. M. Davletshin esa o‘quv faoliyatida mustaqillik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi akademik muvaffaqiyatning muhim sharti ekanligini asoslab beradi [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maqsadga yo‘naltirilganlik, motivatsiya va o‘zini boshqarish o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda talabaning akademik muvaffaqiyatini belgilovchi integrativ tizimni tashkil etadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Tadqiqot metodologiyasi. *Mazkur tadqiqot nazariy va empirik yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini kognitiv psixologiya, faoliyat nazariyasi va motivatsiya konsepsiyalari tashkil etadi.*

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: psixologik so‘rovnoma, kuzatish, suhbat va statistik tahlil. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan 180 nafar talaba ishtirok etdi.

Maqsadga yo‘naltirilganlik darajasini aniqlash uchun maxsus psixologik testlar, motivatsiya darajasini aniqlash uchun akademik motivatsiya shkalasi, o‘zini boshqarish darajasini aniqlash uchun o‘zini boshqarish metodikasi qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. *Tadqiqot natijalari talabalarning akademik muvaffaqiyatida maqsadga yo‘naltirilganlik muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, talabalar uch guruhga ajratildi: yuqori, o‘rtacha va past darajadagi maqsadga yo‘naltirilganlikka ega talabalar.*

Yuqori darajadagi maqsadga yo‘naltirilganlikka ega talabalar o‘quv faoliyatida faolroq, mustaqilroq va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi aniqlandi. Ular o‘quv faoliyatini rejalashtirish, vaqtni boshqarish va o‘z natijalarini baholashda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, maqsadga yo‘naltirilganlik va akademik muvaffaqiyat o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik ($r \approx 0.6$) aniqlangan.

Shuningdek, maqsadga yo‘naltirilganlik va o‘zini boshqarish o‘rtasida ham kuchli bog‘liqlik mavjudligi kuzatildi. Bu esa talabaning o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyati uning maqsadga yo‘naltirilganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot asosida quyidagi model ishlab chiqildi:

Maqsadga yo‘naltirilganlik → Motivatsiya → O‘zini boshqarish → Akademik muvaffaqiyat

Ushbu modelga ko‘ra, talabaning aniq maqsadlarga ega bo‘lishi uning motivatsiyasini oshiradi, bu esa o‘zini boshqarish strategiyalarini faollashtiradi va natijada akademik muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Xulosa. Mazkur tadqiqot nazariy va empirik yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini kognitiv psixologiya, faoliyat nazariyasi hamda motivatsion yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar talabaning o‘quv faoliyatini kompleks tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda psixologik so‘rovnoma, kuzatish, suhbat va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi. Ishtirokchilarning maqsadga yo‘naltirilganlik darajasini aniqlash uchun maxsus testlar, motivatsiyani baholash uchun akademik motivatsiya shkalasi, o‘zini boshqarishni aniqlash uchun o‘zini boshqarish metodikasi qo‘llanildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Locke E. A., & Latham G. P. *Building a practically useful theory of goal setting and task motivation: A 35-year odyssey.* – American Psychologist, Vol. 57(9), pp. 705–717. 2002.
2. Dweck C. S. *Mindset: The New Psychology of Success.* – New York: Random House. 2006.
3. Zimmerman B. J. *Becoming a self-regulated learner: An overview.* – Theory Into Practice, Vol. 41(2), pp. 64–70. 2002.
4. Pintrich, P. R. *A motivational science perspective on the role of student motivation in learning and teaching contexts.* – Journal of Educational Psychology, Vol. 95(4), pp. 667–686. 2003.
5. E. G‘oziyev. *Umumiy psixologiya.* Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti. 2010.
6. B. Qodirov. *Ta’lim psixologiyasi.* Toshkent, Fan nashriyoti. 2008.
7. M. Davletshin. *Ta’lim psixologiyasi asoslari.* – Toshkent, 2009.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

BOLALAR ADABIYOTINING PEDAGOGIK VA MA'NAVIY AHAMIYATI

Sh. A.Anvarova, Upgrade LC o'qituvchisi

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada bolalar adabiyotida berilgan asarlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun pedagogik va ma'naviy ahamiyati hamda badiiy asarlar orqali o'quvchilarda rivojlanadigan ijobiy fazilatlar haqida aytib o'tilgan.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — bolalar adabiyotining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun pedagogik va ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish, shuningdek, badiiy asarlar orqali shakllanadigan tolerantlik, bag'rikenglik, muloqot madaniyati kabi fazilatlarni tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda bolalar adabiyotiga oid asarlar, monografiyalar va ilmiy maqolalar asos sifatida tanlandi. Metod sifatida tahlil va taqqoslash, pedagogik kuzatuv, shuningdek, adabiy asarlarni o'quvchilar bilan o'rganish jarayonida ularning ruhiy va ma'naviy rivojlanishini baholash usullari qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: o'quvchilar bilan olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, badiiy asarlar orqali tolerantlik va bag'rikenglik kabi fazilatlar sezilarli darajada shakllanadi. Muloqot madaniyati rivojlanib, xilma-xillikka hurmat bilan qarash ko'nikmalari mustahkamlandi. Bu jarayon o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirdi va ularning ma'naviy-ruhiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

XULOSA: bolalar adabiyoti boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nafaqat bilim manbai, balki ma'naviy-ruhiy tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlar orqali shakllanadigan ijobiy fazilatlar ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, bag'rikenglik, muloqot qilish, xilma-xillik, ma'naviy –ruhiy tarbiya, monografiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ И ДУХОВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Ш.А. Анварова, преподаватель учебного центра «Upgrade LC»

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: детская литература занимает важное место в образовательном процессе. Она не только расширяет знания учащихся, но и имеет большое значение для формирования их духовно-психологического мира. Через художественные произведения дети приобретают жизненный опыт, усваивают положительные качества и готовятся найти свое место в обществе.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи — показать педагогическую и духовную значимость детской литературы для учащихся начальных классов, а также проанализировать такие качества, как толерантность, великодушие и культура общения, формируемые через художественные произведения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в качестве основы исследования были выбраны произведения детской литературы, монографии и научные статьи. Использовались

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

методы анализа и сравнения, педагогическое наблюдение, а также методы оценки психического и духовного развития учащихся в процессе изучения литературных произведений.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: наблюдения, проведенные с учащимися, показали, что через художественные произведения существенно формируются такие качества, как толерантность и великодушие. Развилась культура общения, укрепились навыки уважительного отношения к многообразию. Этот процесс повысил социальную адаптивность учащихся и оказал положительное влияние на их духовно-нравственное воспитание.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: детская литература имеет важное значение для учащихся начальных классов не только как источник знаний, но и как средство духовнопсихологического воспитания. Положительные качества, формируемые через художественные произведения, позволяют достичь высокой эффективности в образовательном процессе.

Ключевые слова: толерантность, великодушие, общение, многообразие, духовно-психологическое воспитание, монография.

THE PEDAGOGICAL AND SPIRITUAL SIGNIFICANCE OF CHILDREN'S LITERATURE

Sh.A. Anvarova, Teacher at the "Upgrade LC" Learning Center

Annotation

INTRODUCTION: children's literature holds a vital place in the educational process. It not only expands students' knowledge but also plays a significant role in shaping their spiritual and psychological world. Through literary works, children gain life experience, adopt positive qualities, and prepare to find their place in society.

AIM: the main objective of the article is to demonstrate the pedagogical and spiritual significance of children's literature for primary school students, as well as to analyze qualities such as tolerance, generosity, and communication culture formed through artistic works.

MATERIALS AND METHODS: works of children's literature, monographs, and scientific articles were selected as the basis for the study. The methods employed include analysis and comparison, pedagogical observation, as well as techniques for assessing the psychological and spiritual development of students during the study of literary works.

RESULTS AND DISCUSSION: observations conducted with students showed that qualities such as tolerance and generosity are significantly formed through literary works. Communication culture improved, and skills for respecting diversity were strengthened. This process increased students' social adaptability and had a positive impact on their spiritual and psychological upbringing.

CONCLUSION: children's literature is of great importance for primary school students not only as a source of knowledge but also as a tool for spiritual and psychological education. The positive qualities formed through literary works enable the achievement of high efficiency in the educational process.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Keywords: tolerance, generosity, communication, diversity, spiritual and psychological education, monograph.

Bugungi globallashuv jarayonida kechayotgan davrda bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirish va jamiyatda o'zaro hurmat muhitini shakllantirish o'zaro muhim ahamiyat kasb etmoqda. **Zamonaviy dunyoda turli millatlar, dinlar va madaniyatlar vakillari o'rtasida muloqot va hamkorlik munosabatlari kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli yoshlarni tolerantlik, ya'ni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash masalasi ta'lim-tarbiya tizimida muhim o'rin tutmoqda. Tolerantlik-bu boshqa insonlarning fikrlari, qarashlari, e'tiqodlari, turmush tarzi va xulq-atvorlariga nisbatan hurmat va sabr-toqat ko'rsatish qobiliyatidir. Bu tushuncha zamirida o'zgalarning o'ziga xosligini tan olish, farqli qarashlarga ega bo'lgan kishilar bilan ham muloqot qila olish ko'nikmasi yotadi. Ayniqsa, bolalarda tolerantlik xususiyatlarini yoshlikdan shakllantirish kelajakda ularning komil inson bo'lib voyaga yetishlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyot bolalarda tolerantlik xususiyatlarini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarlar bolaga boshqa insonlarning hayotini, his-tuyg'ularini, quvonch va tashvishlarini tushunish imkonini beradi. Kitoblar orqali bola o'zi yashayotgan dunyoning xilma-xilligini, turli xalqlar, madaniyatlar va an'analarning o'ziga xos jihatlarini anglab boradi. Badiiy asarlar qahramonlari bilan o'zini taqqoslash, ularning xatti-harakatlari va qarorlarini tahlil qilish orqali bola empatiya, ya'ni o'zgalar holatini his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bolalar va yoshlarni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga va ongiga innovatsion tafakkur asoslarini singdirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir[1]".**

Asosiy qism. **Bu vazifani amalga oshirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Jumladan, badiiy adabiyot vositalari yordamida o'quvchida nafaqat aqliy balki ma'naviy va ruhiy holatida ijobiy o'zgarishlar ham kuzatiladi. Bola darslikda berilgan har bir asarni o'qir ekan, uning ongida asarga bo'lgan bolalarcha qiziqish, asardagi har bir personajdagi holatlar tahlili, qolaversa, voqealar rivoji uning fikrlash doirasini yanada kengaytiradi. O'quvchining dunyosida asarning ma'nosi orqali Vatanga, atrof –muhitga, yaqinlari, tabiatdagi jamiki tirik mavjudotlarga bo'lgan mehr-muhabbat hissi qayta rivojlanadi. Bunga misol qilib,** Z.Qurbonovning "Bolalar adabiyoti va estetik tarbiya" nomli monografiyasini keltirsak bo'ladi [2]. Unda bolalar adabiyotining estetik tarbiya vositasi sifatidagi o'rnini yoritib, badiiy asarlar orqali bolalarda go'zallikni his qilish, o'zgalar hissiyotlarini tushunish va hurmat qilish kabi fazilatlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini taqdim etgan. Bundan tashqari, bolaga faqat bilim berish emas, balki go'zallikni his qilish, didni shakllantirish va ma'naviy

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

tarbiya berish orqali o‘quvchida yaxshilik va yomonlikni farqlay olish, ertak, hikoya, she’rlar orqali esa, obrazlarni tasavvur qilish, hissiy jihatdan boyib, yaxshilikka intilish kabi fazilatlar rivojlanadi. Bolalar adabiyoti va boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan asarlar sodda va ravon, tushunarli bo‘lishi va shu bilan birga badiiy va ta’sirchan bo‘lishi kerak. Chunki har bir asar mazmuni orqali bolada go‘zallikka muhabbat, did va taffakkurning rivojlanishi hamda yaxshi inson bo’lib yetishish hissi tubdan rivojlanadi. Bolalarda badiiy-estetik tarbiyani rivojlantirish uchun, avvalo, ularda Vatanga muhabbat, insonparvarlik, atrof-muhitga va yaqin insonlariga bo‘lgan e’tibor ildiz otishi kerak. F.Jahongirovning “Bolalar adabiyoti va tarbiya” nomli tadqiqotida muallif badiiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilib, xususan, bolalarda tolerantlik, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish usullari haqida so‘z yuritgan[3]. Xususan, bu asar tarbiyaviy ahamiyatni yorituvchi muhim ilmiy-pedagogik ish hisoblanadi. Muallif bu asari orqali yosh avlodni tarbiyalash, ularning ma’naviy-estetik hamda axloqiy rivojiga ta’sirini ochib bergan. Bolalarda yoshlikdan halollik, mehr-shafqat hamda hayotiy xulosa chiqara olish kabi fazilatlarning ulug‘lanishi va badiiy adabiyot – tarbiya berishning kuchli vositasi bo‘lib, u bolani har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash uchun mukammal resurs sifatida gavdalanadi. Kitob o‘qigan bolaning nutqi boyiydi, fikrlashi kengayadi va shuning bilan birga, bolalar adabiyoti tarbiya, ma’naviyat va taffakkur rivojidagi hal qiluvchi rol ekanligi aytiladi. *Bolaning estetik madaniyati ikki yo‘nalishda shakllanadi: umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishish va badiiy faoliyatga qo‘shilish.* Bunga muvofiq, K.Xoshimov va S.Inomovalar o‘qituvchilar oldida turgan ikkita vazifa guruhi mavjud ekanligi haqida ta’kidlaydilar. *Birinchisi,* yosh avlodning estetik bilimlarini shakllantirish, ularni o‘tmish madaniyati bilan tanishtirish uchun mo‘ljallangan. Bolalar hayotdagi, mehnatdagi, tabiatdagi go‘zallikni ko‘rishga, unga hissiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi. Estetik ideallar shakllanadi. Harakatlar, fikrlar, tashqi ko‘rinishda mukammallikka intilish rag‘batlantiriladi. O‘qituvchi estetik didning hamma odamlar uchun har xil ekanligini unutmasligi kerak. Ba’zi bolalar klassik musiqani hayratda qoldiradilar, boshqalari *hard rok* bilan xursand bo‘ladilar. Bolalarni boshqa odamlarning va davrlarning didini o‘ziga xosligi bilan bog‘lashga, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish kerak. *Ikkinchi* guruh vazifalari bolalarning amaliy badiiy faoliyatida ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Ularga rasm chizish, ertaklar tuzish, plastilindan haykaltaroshlik, raqsga tushish, cholg‘u asboblarida o‘ynash, qo‘shiq aytish, she’r aytishni o‘rgatadilar [4]. O‘qituvchilar tomonidan teatrlashtirilgan tomoshalar, konsertlar, adabiy kechalar, ko‘rgazma va festivallar tashkil etiladi. Natijada, bola faol ijodiy faoliyatga qo‘shiladi, go‘zallikni o‘z qo‘li bilan yaratishni o‘rganadi. Ideal holda, o‘qituvchilar va ota-onalar san'at va hayotdagi go‘zallikni chuqur his etadigan madaniy shaxsni rivojlantirishlari kerak. Bunday odam yuksak ma'naviyat va faol ijodiy munosabat bilan ajralib turadi. Hozirgi kunga kelib, yosh bolalarda nafaqat maktab yoshidan balki maktabgacha bo‘lgan yoshdan boshlab ularga insoniylik tuyg‘ulari, yaxshilikka yetaklovchi ibratli fazilatlar hamda ona yurtga bo‘lgan mehr tuyg‘usi uqtirilmoqda. Bolalarga badiiy adabiyotda aks ettirilgan turli personajlar va voqea-hodisalar orqali ulardagi ayrim salbiy hislatlarga chek qo‘yish, ijobiy fazilatlarni ko‘paytirish hamda badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirish

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

orqali ularda estetik his-tuyg‘u va did, aynan boshlang‘ich maktab yoshidan o‘rgatib kelinmoqda. Bolalar adabiyotida badiiylik bilan bir qatorda ma’rifiylik ham yetakchi o‘rin tutadi. Chunki bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Barcha davrlar bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma’rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Biroq bolalar adabiyoti rivojlanib borgani sari uning sof badiiyat unsurlarini egallashga intilishi va umumadabiyot taraqqiyot tamoyillari bilan hamkorligi ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, XX asr boshlarida o‘zbek bolalar adabiyotida ko‘proq ma’rifatparvarlik g‘oyalari yetakchilik qilsa, 30-yillar bolalar adabiyotida realistik adabiyot tamoyillari ustuvor, 50-60-yillar bolalar adabiyotida sarguzasht fantastik adabiyot elementlari kuchaydi. Bularga misol qilib, ”Bolajon hayajoni” Miraziz A’zam “Ajoyib bahs” Hidoyat Olimova, “Maktab” Umida Abduazimova, “Yodlasam bo‘lmasmidi” Kavsar Turdiyeva, “Ilk saboq“ Raim Farhodiy, “Mening do‘stim Kompyusha” Alisa Lavruxina, “Ayrilganni...“ Latif Mahmudov, Sa’dulla Quronov “Galaktikada bir kun”, Qobiljon Shermatov “Buvimning oshqozonidagi mamlakat” keltirish mumkin [5]. 80-yillar bolalar adabiyotida psixologizmning kuchayishi, yosh qahramon talqinida uni yosh bola tarzida emas, hayotga tobora jadal kirib kelayotgan, o‘z qarashlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlashga intilish ruhi mavjud. Aynan xuddi shu kabi asarlar bolalarning yoshiga mos holatda qiziq, sodda va ravon tilda yozilgani va o‘quvchiga tushunish uchun oson bo‘lgani bilan ajralib turadi.

Xulosa qilish mumkinki, estetik tarbiya vazifalari quyidagi mezonlarga muvofiq bajarilgan. Shaxs badiiy ideallarga ega. U muntazam ravishda muzeylarga, ko‘rgazmalarga, konsertlarga va mahalliy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyuradi. Inson san’at haqidagi ma’lumotlarni mustaqil ravishda o‘rganadi, klassiklarning asarlarini o‘qiydi, janr va uslublar bo‘yicha boshqaradi. U kamida 4 turdagi san’at namoyondalarining nomlarini ayta oladi, ularning ishlarini biladi. Ko‘rgan ishini baholay oladi, unga munosabatini bildiradi. Estetik tarbiya muammolarini hal qilishda bolada erkin fikrlash, uning atrofida go‘zallik yaratishga intilishni shakllantirishga alohida e’tibor berilishi kerak. Shunda u zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslasha oladi va unga foyda keltiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. “2022-2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash bo‘yicha” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 11.05.2022 yildagi PF-134 son.
2. Z.Qurbonova “Bolalar adabiyoti va estetik tarbiya” /Toshkent. 2020
3. F.Jahongirovning “Bolalar adabiyoti va tarbiya” /Toshkent. 2020.O’quv qo’llanma.
4. K.Xoshimov va S.Inomova “Pedagogika”/Toshkent, 2000.O’qituvchi nashriyoti
5. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 6-nashri. Vazirlar Mahkamasi “Toshkent” Yangi yo‘l poligraf servis. 2017.
6. M.Jumaboyev O‘zbek bolalar adabiyoti Oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari uchun darslik-T.: “O‘zbekiston”, 2001.-242-bet

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

7. T.G‘offarova, SH.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova. O‘qish kitobi-umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun mo‘ljallangan darslik. 4-nashr. “Sharq” nashriyoti-matbaasi bosh tahririyati Toshkent-2018.
8. T.G‘offarova, E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva “O‘qish kitobi” –Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. III nashr “Sharq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyat Toshkent -2007 62-63 bet.
9. M.Jumaboyev O‘zbek bolalar adabiyoti Oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari uchun darslik-T.:”O‘zbekiston”, 2001.-200-bet
10. www.pedagog.uz
11. www.lib.uz
12. www.ziyo.uz
13. www.ilmiy resurs.uz

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

SKOLIOZ BILAN OG‘RIGAN TALABALAR UCHUN JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH METODIKASI

Nurullayev Abdurashid Ro‘zimboyevich, Buxoro davlat universiteti “Sport nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada skolioz bilan og‘rigan talabalar uchun jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkillashtirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda skoliozli talabalar jismoniy tayyorgarlik, mushak tonusi va orqa miya egri chizig‘ini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni rejalashtirish va o'tkazish usullari ko‘rib chiqilgan. Maqola davomida pedagogik, tibbiy va jismoniy tarbiya metodlarini birlashtiruvchi kompleks yondashuv tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, maxsus metodika qo‘llanganda talabalar mushak tonusi barqarorlashadi, jismoniy faolligi oshadi, orqa miya holati yengillashadi va darsga bo‘lgan qiziqish ortadi.

MAQSAD: skolioz bilan og‘rigan talabalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkillashtirish metodikasini ilmiy asosda aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada skolioz bilan og‘rigan talabalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda kompleks yondashuv va individual metodlar asosida mashg‘ulotlarni rejalashtirish va baholash usullari qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maxsus metodika qo‘llanganda talabalar mushak tonusi barqarorlashdi, jismoniy faolligi oshdi, orqa miya holati yengillashdi va darsga bo‘lgan qiziqish ortdi. Kompleks yondashuv sog‘lomlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

HULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, skolioz bilan og‘rigan talabalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini kompleks va individual yondashuv asosida tashkil etish samarali natija beradi. Maxsus metodika qo‘llanganda talabalar mushak tonusi barqarorlashadi, orqa miya holati yaxshilanadi, egiluvchanlik va kuch ko‘rsatkichlari ortadi hamda jismoniy faollik oshadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, kompleks metodika, skolioz, talabalar, mushak tonusi, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar, mashg‘ulotlarni tashkillashtirish.

МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ СО СКОЛИОЗОМ

Нуруллаев Абдурашид Розимбоевич, Доцент кафедры «Теория и методика спорта» Бухарского государственного университета.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается методология эффективной организации уроков физической культуры для учащихся со сколиозом. В исследовании изучены методы планирования и проведения занятий для учащихся со сколиозом с учетом

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

физической подготовленности, мышечного тонуса и искривления позвоночника. В статье анализируется комплексный подход, сочетающий педагогические, медикофизико-воспитательные методы. Результаты показывают, что при использовании специальной методики стабилизируется мышечный тонус учащихся, повышается их физическая активность, улучшается состояние позвоночника и повышается их интерес к занятиям.

ЦЕЛЬ: определить методологию эффективной организации уроков физической культуры для учащихся со сколиозом на научной основе и разработать практические рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в качестве основы исследования были выбраны произведения детской литературы, монографии и научные статьи. Использовались методы анализа и сравнения, педагогическое наблюдение, а также методы оценки психического и духовного развития учащихся в процессе изучения литературных произведений.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты исследования показали, что при применении специальной методики у студентов стабилизировался мышечный тонус, повысилась физическая активность, улучшилось состояние позвоночника и возрос интерес к занятиям. Комплексный подход значительно повысил эффективность оздоровительного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что организация уроков физкультуры для учащихся со сколиозом на основе комплексного и индивидуального подходов дает эффективные результаты. При использовании специальных методик стабилизируется мышечный тонус учащихся, улучшается состояние позвоночника, повышаются показатели гибкости и силы, увеличивается физическая активность.

Ключевые слова: физкультура, комплексная методика, сколиоз, учащиеся, мышечный тонус, оздоровительные упражнения, организация занятий.

METHODOLOGY OF ORGANIZING PHYSICAL EDUCATION LESSONS FOR STUDENTS WITH SCOLIOSIS

Nurullaev Abdurashid, Associate Professor of the Department of “Sports Theory and Methodology” of Bukhara State University.

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the methodology of effective organization of physical education classes for students with scoliosis. The study examined methods of planning and conducting classes for students with scoliosis, taking into account physical fitness, muscle tone and spinal curvature. The article analyzes a comprehensive approach combining pedagogical, medical and physical education methods. The results show that when using a special methodology, students’ muscle tone stabilizes, their physical activity increases, the condition of the spine improves, and their interest in the lesson increases.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

AIM: to determine the methodology of effective organization of physical education classes for students with scoliosis on a scientific basis and develop practical recommendations.

MATERIALS AND METHODS: this article examines the scientific and methodological foundations of effective organization of physical education classes for students with scoliosis. The study used methods of planning and evaluating classes based on an integrated approach and individual methods.

RESULTS AND DISCUSSION: the research findings demonstrated that the application of the specialized methodology led to the stabilization of students' muscle tone, increased physical activity, relief of spinal tension, and a heightened interest in the lessons. The integrated approach significantly enhanced the effectiveness of the healthimprovement process.

CONCLUSION: the results of the study showed that organizing physical education classes for students with scoliosis based on an integrated and individual approach gives effective results. When using special methods, students' muscle tone stabilizes, the condition of the spine improves, flexibility and strength indicators increase, and physical activity increases.

Keywords: physical education, integrated methodology, scoliosis, students, muscle tone, health-improving exercises, organization of classes.

Skolioz bu orqa miya egri chizig‘ining patologik o‘zgarishi bo‘lib, ko‘plab talabalar orasida uchraydigan jismoniy rivojlanish muammolaridan biridir. Ushbu patologiya mushak-skelet tizimining nomutanosib rivojlanishiga, mushak tonusining buzilishiga va postura nosozligiga olib keladi. Natijada, talabalar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ba’zan qiyinchiliklarga duch keladi, mashqlarni bajarishda ortiqcha yuklama tufayli og‘riq va charchash yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun skolioz bilan og‘rigan talabalar uchun jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda individual va kompleks yondashuvni qo‘llash muhim hisoblanadi. Bu yondashuv mushak tonusini barqarorlashtirish, egiluvchanlikni oshirish, koordinatsiya va balansni rivojlantirish, shuningdek talabalar darsga qiziqishini oshirishga qaratilgan. Talabalar uchun asosiy maqsad ularning sog‘lig‘iga qarab ular uchun mavjud bo‘lgan keng qamrovli mashqlar to‘plamini ishlab chiqishdir. Inson umurtqa pog‘onasida lordoz va kifoz kabi bir qator fiziologik anomaliyalar mavjud. Orqa miya assimetriyasi va umurtqalarning markaziy o‘qdan siljishi kabi barcha boshqa anomaliyalar skolioz deb ataladi. Bu fiziologik noqulaylik, holatning buzilishi va qovurg‘a qafasi va qovurg‘alarning egriligini keltirib chiqaradi [1, 47-bet]. Mavzu doirasida xorijiy olimlar tajribalariga to‘xtaladigan bo‘lsak so‘nggi yillarda skoliozni davolash va unga qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jismoniy tarbiya mashqlarining ahamiyati va metodik yondoshuvni mustahkamlashga qaratilgan. Masalan, amerikalik fizioterapiya va sport tibbiyoti mutaxassisi **William H. Stack** o‘z tadqiqotlarida skoliozli bemorlar uchun individual

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

yondashuv asosida tuzilgan mashqlar kompleksining orqa miya egri chizig‘ini barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatgan. Stack shuningdek, mushak balansini tiklash va asimmetrik holatlarni bartaraf etish uchun proprioseptiv mashqlar, cho‘zilish va kuchaytiruvchi mashqlarni birlashtirish zarurligini ta’kidlaydi (Stack W.H., 2010).

Nemis ilmiy markazi olimlari - **Burkhardt va Mueller** skolioz bilan og‘rigan yoshlar uchun egiluvchanlikni oshiruvchi va stabilizatsiya mashqlarini o‘zaro integratsiyalashni taklif etgan; ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, kompleks mashqlar dasturi mushak tonusini yaxshilaydi va tananing me’yordan chetga chiqish tendensiyasini pasaytiradi (Burkhardt G., Mueller P., 2015).

Shuningdek, Italiya sport tibbiyoti markazi tadqiqotchisi **Serena Rossi** skoliozli talabalar bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimentida, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘yinli va interfaol metodlar bilan boyitish musobaqa elementlari bilan birga talabalarni ruhiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlashini qayd etgan. Rossi tadqiqotida olingan natijalar mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqish, motivatsiyaning oshishi va mushak funksiyalarining yaxshilanishi bilan bog‘liq bo‘lgan (Rossi S., 2018).

Umuman olganda, xorijiy olimlar tajribasi skolioz bilan og‘rigan talabalar uchun jismoniy tarbiya darslarini individual, kompleks va interfaol usullar bilan tashkil etish samaradorligini tasdiqlaydi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan metodik yondoshuvlar pedagogik va tibbiy jihatlardan foydali natijalar beradi hamda skolioz bilan bemorlarni jismoniy tarbiya jarayoniga faol jalb etadi.

Skolioz belgilari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: yelkalar va yelka pichoqlarining assimetriyasi; kun oxirida noqulaylik va bel og‘rig‘i; umurtqa pog‘onasida qattiqlik hissi; va tez charchoqning umumiy hissi [2, 63-bet]. Konservativ va samarali davolash maxsus skoliozga qarshi mashqlar va korset terapiyasidan iborat. Jismoniy mashqlar umurtqa pog‘onasiga barqarorlashtiruvchi ta'sir ko‘rsatadi, asosiy mushaklarni mustahkamlaydi, deformatsiyalarni tuzatishga imkon beradi, holat va nafas olish funktsiyasini yaxshilaydi va umumiy sog‘liq uchun foyda keltiradi. Skolioz rivojlanishining barcha bosqichlarida fizioterapiya (FI) ko‘rsatiladi. Mashqlar keng, shamollatiladigan xonada, katta oyna va yotib bajariladigan mashqlar uchun gilamcha bilan bajariladi. Dastur bir nechta qismlardan iborat: isinish, chalqancha yotish, qorin bilan yotish va turish mashqlari. Mashqlar orasidagi dam olish boshlang‘ich holatda bajariladi [3, 52-bet]. S.M. Bubnovskiy - rossiyalik shifokor va tibbiyot fanlari doktori. U tibbiyotning yangi sohasi - tayanch-harakat tizimi kasalliklarining oldini olish va jarrohliksiz davolashga qaratilgan zamonaviy kineziterapiyaning yaratuvchisi. U bo‘g‘imlar va umurtqa pog‘onasining turli qismlarining sog‘lig‘ini yaxshilashga qaratilgan mashqlar to‘plamini ishlab chiqdi, ularni uyda mustaqil ravishda bajarish mumkin. Tadqiqotning maqsadi S.M. Bubnovskiy usulidan foydalangan holda tuzatuvchi gimnastikaning talabalar sog‘lig‘iga ta'sirini aniqlashdir.

Tadqiqotning maqsadi ushbu holatga chalingan talabalar uchun namunaviy mashq dasturlarini taklif qilish, tajriba o‘tkazish va uning talabalarning umumiy sog‘lig‘iga ta'sirini sinab ko‘rish edi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Tadqiqot usullari: muallifning o‘ziga xos metodologiyasi, pedagogik tajriba va qiyosiy ma'lumotlar tahlili.

Tadqiqot 2024-2025 o‘quv yili mobaynida Buxoro davlat pedagogika instituti talabalari bilan o‘tkazildi. Tajriba guruhi turli darajadagi skoliozni tasdiqlovchi sertifikatlarga ega bo‘lgan va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun maxsus tibbiy guruhga biriktirilgan 15 talabadan iborat edi. Birinchi-uchinchi kurs talabalari sentyabrdan maygacha haftasiga ikki marta korreksiya gimnastikasi bilan shug‘ullanishdi. Darslarda qo‘llaniladigan bo‘g‘im va umurtqa pog‘onasi harakatchanligini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan mashq to‘plamlaridan biri quyida keltirilgan:

Bel mashqlari

1. Tirsaklaringizni bukib tiz cho‘king.

Chuqur nafas oling va nafas chiqarayotganda, sekin

tana vazningizni oldinga egilib, tovoningizga o‘tkazing.

2. Tizzalaringizni birlashtirib, bir xil holatda saqlang. Tos suyagingizni chapga, keyin o‘ngga sekin tushiring va boshlang‘ich holatiga (DH) qayting.

3. Tiz cho‘king. Chuqur nafas oling

va belingizni egib, boshingizni ko‘taring. Nafas chiqarayotganda, boshingizni ko‘tarib, (DH) ga qayting.

4. Yerga yotib, tizzalaringizga suyanib turing (to‘liq o‘tirib turish emas). Qo‘llaringizni shu holatda cho‘zing va buking.

5. To‘p ustida yoting, og‘irligingizni ko‘kragingizga, oyoqlaringizni esa devorga qo‘ying. Nafas oling, tanangizni yuqoriga ko‘taring; nafas chiqaring, boshlang‘ich holatiga qayting.

6. To‘p ustida yoting. Boshingizni o‘ngga, keyin chapga burang, oyoqlaringizni ko‘rishga harakat qiling.

7. To‘pni qo‘llaringiz bilan ushlagan holda tiz cho‘king. Umurtqa pog‘onangizni zo‘riqtirmasdan yuqoriga ko‘tarishga harakat qiling.

8. Qarshilik tasmasini qo‘lingizga oling va mahkam ushlang.

Unga egilib, sekin 90 graduslik burchak ostida egil. Boshlang‘ich holatiga qayting.

9. Qarshilik tasmasini devorga mahkamlang va devordan qisqa masofada turing, oyoqlaringiz yelka kengligidan biroz kengroq bo‘lib, uchlarini qo‘llaringizda mahkam ushlang. Orqangizni to‘g‘ri tutib, qarshilik tasmasini asta-sekin ko‘kragingizga torting. Jismoniy tarbiya va sport darslarida kasallik tufayli darslarni qoldirgan o‘quvchilardan ozod qilinganliklarini tasdiqlovchi asos taqdim etishlari talab qilingan. Kasallik ta'tili guvohnomalari soni va kunlar soni haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, biz statistik qiyosiy tahlil o‘tkazdik. Har bir kurs oxirida biz talabalarning kasallik ta'tili haqidagi ma'lumotnomalari sonini ularning tashxisi va 60 soatlik darslardan iborat bo‘lgan kurs davomida o‘tkazib yuborilgan soatlar soniga asoslanib hisobladik.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, birinchi yilda kasallikning chastotasi 53,33% ni, dars qoldirmasliklar soni esa 44,50% ni tashkil etdi. Ikkinchi yilda bu ko‘rsatkichlar 13,33% va 16,8% ga kamaydi. Uchinchi yilda, ikkinchi yilga nisbatan, bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 6,7% va 5,5% ga kamaydi, bu taklif qilingan mashqlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, birinchi va uchinchi yillar oralig‘ida kasal bo‘lgan talabalar soni 20,03% ga, dars qoldirmasliklar soni esa 22,30% ga kamaydi. Muntazam ravishda tuzatish mashqlari kasallik va dars qoldirmasliklarning kamayishiga yordam berdi. Talabalar sog‘lig‘ining oldini olish va saqlash uchun turli usullarni tizimli ravishda qo‘llash va yangi yechimlarni izlash zarur. Xorijiy olimlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mushak balansini tiklash, koordinatsiya va proprioseptiv mashqlarni kiritish skoliozli talabalar uchun jismoniy salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, interfaol metodlar va o‘yinli mashg‘ulotlar yordamida talabalar darsga yuqori motivatsiya bilan qatnashadi, jamoaviy ish ko‘nikmalari va faolligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, skolioz bilan og‘rigan talabalar uchun jismoniy tarbiya darslarini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirish tayanch-harakat tizimini mustahkamlash, jismoniy rivojlanishni oshirish va talabalarni sog‘lom, faol hayot tarziga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Кузнецов В.С., Холодов Ж.К. Теория и методика физического воспитания и спорта. – М.: Академия. 2015.
2. Анищенко В.С. Физическая культура: Методико-практические занятия студентов: Учебное пособие. – М.: Изд-во РУДН, 2015.
3. Черноусов О.Г. Физическая культура: Учебное пособие. – Томск: ТМЦДО, 1999.
4. Vita.Blog. – [Электронный ресурс] – режим доступа: https://nehrusti.com/lechebnayafizkultura/uprazhneniya-bubnovskogo.html#i-10.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

KOMPLEKS YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING HARAKAT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Raimov O‘lmasjon Ikrom o‘g‘li, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada kompleks yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Maqola boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va harakat faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual tayyorgarlik darajasi va pedagogik metodlar asosida mashg‘ulotlarni rejalashtirish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, harakat ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yinlar, interfaol mashqlar, musobaqa elementlari va sog‘lomlashtiruvchi vositalardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kompleks metodika qo‘llanilganda o‘quvchilarning jismoniy faolligi, harakat ko‘nikmalari va darsga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshishini ko‘rsatdi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini kompleks yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini ilmiy asosda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini kompleks yondashuv asosida rivojlantirishning samaradorligini aniqlashga qaratilgan ilmiy-pedagogik metodlar qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompleks metodika qo‘llanilganda o‘quvchilarning jismoniy faolligi ortdi, harakat ko‘nikmalari shakllandi va darsga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Interfaol mashqlar va o‘yin elementlari o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirdi, sog‘lomlashtiruvchi vositalar esa jismoniy rivojlanishni qo‘llab-quvvatladi.

HULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishda kompleks yondashuv samarali natija beradi. Mazkur yondashuv nafaqat jismoniy sifatlar-tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch va egiluvchanlikni rivojlantirishga, balki o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, faolligi va intizomiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kompleks yondashuv, harakat ko‘nikmalari, boshlang‘ich sinf, jismoniy tarbiya, pedagogik metodika, harakat faoliyati, o‘yin mashqlari.

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ДВИЖЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА

Раимов Улмасжон, Бухарский государственный педагогический Институт Фундаментальный докторант

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается методология развития двигательных навыков учащихся начальной школы на основе комплексного подхода. В статье анализируются современные педагогические подходы, направленные на улучшение физического развития и двигательной активности учащихся начальной школы. В исследовании рассмотрены методы планирования занятий с учетом возрастных характеристик учащихся, их индивидуального уровня подготовки и педагогических методов. Также проанализирована эффективность использования игр, интерактивных упражнений, соревновательных элементов и рекреационных средств в формировании двигательных навыков. Результаты исследования показали, что при использовании комплексной методологии значительно повышаются физическая активность учащихся, их двигательные навыки и интерес к уроку.

ЦЕЛЬ: научно проанализировать методологию развития двигательных навыков учащихся начальной школы на основе комплексного подхода и разработать практические рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании использованы научнопедагогические методы, направленные на определение эффективности развития двигательных навыков учащихся начальной школы на основе комплексного подхода.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты исследования показали, что применение комплексной методики способствовало росту физической активности учащихся, формированию двигательных навыков и значительному повышению интереса к занятиям. Интерактивные упражнения и элементы игры усилили мотивацию учащихся, а оздоровительные средства поддержали их физическое развитие.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что комплексный подход к развитию двигательных навыков учащихся начальной школы дает эффективные результаты. Этот подход оказывает положительное влияние не только на развитие физических качеств – скорости, ловкости, выносливости, силы и гибкости, но и на интерес, активность и дисциплину учащихся на уроках.

Ключевые слова: комплексный подход, двигательные навыки, начальная школа, физическое воспитание, педагогическая методика, двигательная активность, игровые упражнения.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING MOVEMENT SKILLS OF PRIMARY STUDENTS BASED ON A COMPLEX APPROACH

Raimov Ulmasjon, Bukhara State Pedagogical Institute Fundamental doctoral student

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the methodology for developing movement skills of primary school students based on a comprehensive approach. The article analyzes modern pedagogical approaches aimed at improving the physical development

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

and movement activity of students in primary education. The study considered methods for planning classes based on the age characteristics of students, their individual level of preparation, and pedagogical methods. The effectiveness of using games, interactive exercises, competition elements, and recreational tools in the formation of movement skills was also analyzed. The results of the study showed that when using a comprehensive methodology, students' physical activity, movement skills, and interest in the lesson significantly increase.

AIM: to analyze the methodology for developing movement skills of primary school students based on a comprehensive approach on a scientific basis and develop practical recommendations.

MATERIALS AND METHODS: this study used scientific and pedagogical methods aimed at determining the effectiveness of developing motor skills of primary school students based on an integrated approach.

RESULTS AND DISCUSSION: the research results demonstrated that the application of the integrated methodology led to increased physical activity among students, the formation of motor skills, and a significant rise in interest toward the lessons. Interactive exercises and game elements strengthened student motivation, while healthpromoting tools supported their physical development.

CONCLUSION: the results of the study showed that an integrated approach to developing motor skills of primary school students gives effective results. This approach has a positive effect not only on the development of physical qualities - speed, agility, endurance, strength and flexibility, but also on the interest, activity and discipline of students in the lesson.

Keywords: integrated approach, motor skills, primary school, physical education, pedagogical methodology, motor activity, game exercises.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi - bolaning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida eng muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarda harakat faoliyati, harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishi ularning sog‘lom va barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda harakat ko‘nikmalarini tizimli va samarali rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi. Hozirgi kunda o‘quvchilarning harakat ko‘nikmalarini shakllantirishda faqat an’anaviy mashqlarni qo‘llash yetarli emas. Ta’lim jarayonida kompleks yondashuv ya’ni jismoniy, psixologik va pedagogik omillarni birlashtirgan integrativ metodika samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv harakatli o‘yinlar, musobaqa elementlari, interfaol mashqlar va individual yondashuvni o‘z ichiga oladi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishda kompleks yondashuvning metodik asoslarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot davomida kompleks metodikaning jismoniy tarbiya

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

jarayonidagi samaradorligi, o‘quvchilarning harakat ko‘nikmalari, faolligi va darsga bo‘lgan qiziqishi bilan bog‘liq jihatlari o‘rganildi.

Natijada maqola boshlang‘ich sinflarda harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish va pedagogik amaliyotga qo‘llash uchun ilmiy-metodik asos yaratishga xizmat qiladi. Xalq pedagogikasi milliy an’analar ta’siri vositasida maktab o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishi tarbiyada muhim omillardan biri ekanligini doimo uqtirib keladiki, jismoniy tarbiya jarayonida ham bu ko‘rsatmalardan foydalanish samara berishi shubhasiz. Bir qator olimlarning kuzatuvlaridan ma’lumki, optimal harakatlanish bolalarning jismoniy rivojlanishi va qobiliyatining oshishi uchun katta imkon beradi.

Bir guruh olimlar va amaliyotchilarning fikricha, O‘quvchilarda jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarga e’tiborini oshirish, ma’naviy, axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun kichik maktab yoshi eng qulay davr hisoblanadi. Ko‘pgina olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxsning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi o‘quvchining mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun milliy va harakatli o‘yinlarga asoslangan dars, mashqlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish eng muhim masaladir.

K.Balsevich tadqiqoti bo‘yicha, bolalarning jismoniy faolligi quyidagicha: 7-10 yoshli bolalar jismoniy sifati ko‘rsatkichining barchasi o‘sishning yuqori tempda borayotganligini namoyon etadi. Faqat egiluvchanlik ko‘rsatkichining tempi bu davrda pasayib boradi. Bu yoshdagi bolalarda biodinamik harakatning va eng avvalo, koordinatsion qismlarning shiddatli rivojlanishi ro‘y beradi.

7-10 yoshlar orasida jismoniy sifatlarning va koordinatsion qobiliyatning, inson harakat faolligining namoyon bo‘lishi uchun amaliy jihatdan juda yaxshi zamin tayyorlanadi. F.N.Nasriddinov, X.M.Maxkamjonovlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik natijalari yoshdan yoshga o‘tish bilan hamma ko‘rsatkichlar ma’lum miqdorda ortib borishini ko‘rsatadi.

A.N.Livitskiy ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘rsatishicha, qo‘l panjalari mushaklarining kuchi 7 yoshda 13-14 kg.ga etadi. Shu yoshdan boshlab, harakatli o‘yinlar vositasida, bu sifatlarni yanada rivojlantirish ehtimoli kuchli. Yosh o‘zgarishi dinamikasida ayrim keskin bosqichlar belgilanganki, ular morfologik va funksional xususiyatlar majmui bilan tavsiflanadi.

F.N.Nasriddinov, X.M,Maxkamjonovlar maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bo‘yicha olgan ma’lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, 5-7 yoshdagi bolaning jismoniy rivojlanishi bir tekisda borar ekan, kichik maktab yoshiga kelib esa rivojlanishning tezlashish jarayoni ro‘y beradi. Shunga asosan tadqiqotda milliy harakatli o‘yinlarga asoslangan jismoniy mashqlar majmui tanlab olindi.

“Jismoniy sifatlar” va “jismoniy tayyorgarlik” termini maxsus adabiyotlar sifatida foydalaniladi. Bular insonni harakat imkoniyatlarining ayrim tomonlarini aniqlaydilar. Jismoniy sifatlar dinamikasiga tadbiqan “rivojlanish” va “tarbiya” terminlari qo‘llaniladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

“Rivojlanish” termini sifatning sog‘lomlashtiruvchi o‘zgarishlarini borishini xarakterlaydi. “Tarbiya” esa harakatlantiruvchi sifatning ko‘rsatkichlari o‘sishiga ta’sir o‘tkazishning faolligi va yo‘naltirilganligini nazarda tutadi.

Jismoniy sifatlarga (kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezkorlik, chaqqonlik) tegishli. Jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy sifatlarni tarbiyalash va harakatlar bilan o‘rgatish mustahkam chirmashib ketadi. Jismoniy tarbiyaning bu tomonlarini o‘rganish va ayrim-ayrim qarab chiqish ulardan har birining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq bilib olishga yordamlashadi. O‘quvchilarning harakat ko‘nikmalarini shakllantirishda faqat an’anaviy mashqlarni qo‘llash yetarli emas. Ta’lim jarayonida kompleks yondashuv — ya’ni jismoniy, psixologik va pedagogik omillarni birlashtirgan integrativ metodika — samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv harakatli o‘yinlar, musobaqa elementlari, interfaol mashqlar va individual yondashuvni o‘z ichiga oladi.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Kompleks yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik dars ishlanmasi

Bosqich	Vaqti	Mashqlar va faoliyat	Maqsad / Rivojlantiriladigan ko‘nikmalar	Jihozlar
Tayyorlov qismi	8–10 daqiqa	- Saflanish va salomlashish- Dars maqsadini tushuntirish- Yengil yugurish (maydonda aylanib yurish)- Umumrivojlantiruvchi mashqlar (qo‘l, oyoq, gavda, bo‘g‘inlar)- Nafas mashqlari	- Organizmni asosiy yuklamaga tayyorlash- O‘quvchilarning faolligini oshirish- Diqqatni jamlash	Maydon belgilari, konuslar
Asosiy qism: Mashq 1 – “Tezkor estafeta”	10 daqiqa	- O‘quvchilar 2–3 guruhga bo‘linadi- Belgilangan masofaga yugurib, konus atrofidan aylanib qaytish- Musobaqa shaklida	- Tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish- Jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantirish- Raqobat va motivatsiyani oshirish	To‘p, konuslar
Asosiy qism: Mashq 2 – “To‘pni tez uzat”	8 daqiqa	- Safda turib to‘pni bir-biriga uzatish- Guruhlararo musobaqa bilan rag‘batlantirish	- Koordinatsiya va aniqlik- Epchillik va tezlik	To‘p, belgilangan maydon
Asosiy qism: Mashq 3 – “Quvlashmachoq”	7–10 daqiqa	- Belgilangan hududda bir-birini quvish o‘yini- Qoidalar asosida mashq	- Chaqqonlik va tezkor qaror qabul qilish- Ijtimoiy hamkorlik	Maydon belgilari, konuslar
Yakuniy qism	8–10 daqiqa	- Sekin yugurish, tanani bo‘shatish- Nafas mashqlari va cho‘zilish- Darsni tahlil qilish va rag‘batlantirish- Uyga vazifa berish (ertalab yengil harakat mashqlari)	- Jismoniy faoliyatni pasaytirish, tiklash- Mashqlar bo‘yicha baholash- Motivatsiyani oshirish	Maydon, belgilash vositalari

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash organizmning rivojlanishi va o‘sishi bilan bog‘langan qator xususiyatlarga ega:

1. O‘spirinlik va yoshlik yoshlarida bitta sifatning rivojlanishi boshqa jismoniy sifatlarni o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘qituvchilarda jismoniy sifatlarni tarbiyalashga majmuali yondoshuv zaruriyati talab qilinadi.

2. Organizmning rivojlanib borishida jismoniy sifatlarning o‘sishi ayrim yoshlarda ayniqsa jadal ro‘y beradi. Bu sezgirlik (yoki sensitiv) davrlari deb ta’kidlanadi. Chunonchi, mushak kuchi uchun o‘sishning eng ko‘p tezlik darajasi 13-15 yoshlilarga xarakterli, qizlarda chidamlilik ko‘rsatkichi 11-13 yoshda eng jadal o‘sadi, o‘g‘il bolalarda esa – 14 yoshda, mutaxassislarning fikri bo‘yicha 8-11 yosh tezkorlik imkoniyatlarini tarbiyalash uchun eng qulaydir. Chaqqonlikni bolalar bilan taqqoslash bo‘yicha o‘smirlarda, kattalarda esa – yoshlar bilan taqqoslash bo‘yicha tarbiyalash xiyla qiyinroq kechadi.

3. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash katta jismoniy yuklamalar bilan kuzatiladi. Bolalar va o‘smirlar ularning asta-sekin o‘sishiga og‘ishmay rioya qilinganda organizm uchun ziyon etkazmasdan o‘tkazish qobiliyatiga egadirlar.

Xulosa qilib aytganda, kompleks yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlash hamda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт” тўғи Қонуни (14.09.2015).
2. “Алпомиш” ва “Барчиной” тест нормалари. Тош: 2002.-29 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 3 июнь ПҚ–3031-сон “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги карори Тошкент. 2017 йил 4 июнь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 мартдаги ПҚ-3583-сон «Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлигини ташкил этиш тўғрисида»ги карори Тошкент. 2018 йил 6 март.
5. Tulenova X.B. Maktabgacha tarbiya muassasalarida 5-7 yoshli bolalar jismoniy tarbiyasini takomillashtirish. Ped.fan. nomzod. ilm.daraj. olish uchun yozil..dis. - .T.: 2000. -125 b.
6. Yunusova YU.M. Organizatsiya i metodika fizicheskoy kulturi v obщeobrazovatelnix shkolax respubliki Uzbekistana.- T.:2002. 120 s.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODIKASI

Latipov Rahmon Ravshanovich, Buxoro davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

KIRISH: maqolada boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishning metodik asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, harakat ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Maqolada jismoniy tarbiya darslarini rejalashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yosh xususiyatlarini inobatga olish hamda o‘yin texnologiyalari asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, dars samaradorligini oshirish omillari va metodik tavsiyalar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim tizimida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishning ilmiy-metodik asoslarini tahlil qilish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonini rejalashtirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish jarayonini o‘rganishga qaratilgan ilmiypedagogik yondashuvlar qo‘llanildi.

MUHOKOMA VA NATIJALAR: tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini an’anaviy va takomillashtirilgan metodika asosida tashkil etish natijalari o‘zaro taqqoslandi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, darslarni faqat standart mashqlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning qiziqishi va faolligini yetarli darajada ta’minlamaydi. Aksincha, harakatli o‘yinlar, musobaqa elementlari va interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning ishtiroki va motivatsiyasi sezilarli darajada oshdi.

HULOSA: boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonini ilmiy asoslangan metodika, yosh va individual xususiyatlarni inobatga olgan holda rejalashtirish mashg‘ulotlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, boshlang‘ich sinf, metodika, harakatli o‘yinlar, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik texnologiya, jismoniy rivojlanish.

МЕТОДОЛОГИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Латипов Рахмон Равшанович, преподаватель кафедры теории и методики физической культуры Бухарского государственного педагогического института.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются методические основы эффективной организации уроков физкультуры в начальных классах. В современном образовательном процессе важными задачами являются физическое развитие учащихся, формирование здорового образа жизни, развитие двигательных навыков и компетенций. В статье анализируются методы планирования уроков физкультуры, использование инновационных педагогических технологий с учетом возрастных особенностей и организация занятий на основе игровых технологий. Также описаны факторы и методические рекомендации по повышению эффективности урока. Результаты исследования служат для совершенствования процесса физического воспитания в системе начального образования.

ЦЕЛЬ: проанализировать научно-методические основы эффективной организации уроков физкультуры в начальных классах, разработать практические рекомендации по планированию учебного процесса с учетом возраста и индивидуальных особенностей учащихся, а также повысить эффективность занятий на основе современных педагогических подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании для изучения процесса эффективной организации уроков физкультуры в начальных классах использовались научно-педагогические подходы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе исследования сравнивались результаты организации уроков физкультуры в начальных классах на основе традиционной и усовершенствованной методик. Наблюдения показали, что организация уроков только на основе стандартных упражнений не обеспечивает достаточного интереса и активности учащихся. Напротив, на уроках с использованием активных игр, элементов соревнований и интерактивных методов значительно повысилась вовлеченность и мотивация учащихся.

ВЫВОД: эффективная организация уроков физкультуры в начальных классах является важным фактором всестороннего развития учащихся. Результаты исследования показали, что научно обоснованная методика, планирование учебного процесса с учетом возраста и индивидуальных особенностей, значительно повышает эффективность занятий.

Ключевые слова: физкультура, начальные классы, методика, активные игры, здоровый образ жизни, педагогические технологии, физическое развитие.

METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS IN PRIMARY GRADES

Latipov Rahmon Ravshanovich, teacher of the Department of Physical Culture Theory and Methodology, Bukhara State Pedagogical Institute.

Annotation

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

INTRODUCTION: the article covers the methodological foundations of effective organization of physical education classes in primary grades. In the modern educational process, the physical development of students, the formation of a healthy lifestyle, the development of movement skills and competencies are important tasks. The article analyzes the methods of planning physical education classes, the use of innovative pedagogical technologies, taking into account age characteristics, and organizing classes based on game technologies. Also, factors and methodological recommendations for increasing the effectiveness of the lesson are described. The results of the study serve to improve the process of physical education in the primary education system.

PURPOSE: to analyze the scientific and methodological foundations of effective organization of physical education classes in primary grades, to develop practical recommendations for planning the lesson process taking into account the age and individual characteristics of students, and to increase the effectiveness of classes based on modern pedagogical approaches.

MATERIALS AND METHODS: in this study, scientific and pedagogical approaches were used to study the process of effective organization of physical education classes in primary grades.

DISCUSSION AND RESULTS: during the research, the results of organizing physical education lessons in primary grades based on traditional and improved methodologies were compared. Observations showed that organizing lessons only based on standard exercises does not provide sufficient interest and activity of students. On the contrary, in lessons using active games, elements of competition and interactive methods, student participation and motivation significantly increased.

CONCLUSION: effective organization of physical education lessons in primary grades is an important factor in the comprehensive development of students. The results of the study showed that scientifically based methodology, planning the lesson process taking into account age and individual characteristics significantly increases the effectiveness of classes.

Keywords: physical education, primary grade, methodology, active games, healthy lifestyle, pedagogical technology, physical development.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning jismoniy sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularda sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kichik maktab yoshi davrida bolaning organizmi jadal rivojlanadi, harakat faolligi esa uning jismoniy va ruhiy kamolotida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari nafaqat jismoniy sifatlarni (tezkorlik, chaqqonlik, kuch, egiluvchanlik, chidamlilik) rivojlantirish, balki intizom, jamoada ishlash, irodaviy sifatlarni shakllantirishda ham muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Shu bois

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

mazkur darslarni ilmiy asoslangan metodika asosida, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarur. Hozirgi kunda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishda interfaol metodlar, harakatli o‘yinlar, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Dars jarayonining to‘g‘ri rejalashtirilishi, yuklamaning me’yoriy taqsimlanishi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi mashg‘ulot samaradorligini ta’minlaydi. Mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish metodikasini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari, maktab zamonaviy davlatning muhim elementi ekanligi ta'kidlanadi. Yangi maktabning asosiy maqsadlari har bir o‘quvchining salohiyatini rivojlantirish va yuqori texnologiyali, raqobatbardosh dunyoda hayotga tayyorlangan munosib va vatanparvar shaxslarni tarbiyalashdir. Maktab ta'limi bitiruvchilar mustaqil ravishda jiddiy maqsadlar qo‘yishlari va ularga erishishlari, turli hayotiy vaziyatlarga mohirona javob berishlari va ularga tezda moslashishlari uchun shunday tuzilishi kerak. Boshlang‘ich maktabda jismoniy tarbiya fanining asosiy yo‘nalishi insonning motor tizimi bo‘lib, umumiy rivojlanishga yo‘naltirilgan. Ushbu faoliyatni o‘zlashtirish orqali sog‘liq mustahkamlanadi, jismoniy fazilatlar yaxshilanadi, o‘ziga xos motor qobiliyatlari o‘zlashtiriladi, fikrlash, ijodkorlik va mustaqillik faol rivojlanadi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya boshlang‘ich maktab o‘quvchilariga sog‘lom turmush tarzi asoslarini singdirishga va motor faoliyatini rivojlantirish orqali ijodiy mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiyaning ushbu asoslarini amalga oshirish quyidagi ta'lim maqsadlari bilan bog‘liq:

– Jismoniy fazilatlarni rivojlantirish va tananing hayotni ta'minlovchi tizimlarining funktsional imkoniyatlarini oshirish orqali maktab o‘quvchilarining sog‘lig‘ini mustahkamlash; Jismoniy tarbiya, uning inson hayotidagi ahamiyati, sog‘liqni saqlashni mustahkamlash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik haqida umumiy tushunchani rivojlantirish;

Mustaqil jismoniy mashqlar, ochiq havoda o‘tkaziladigan o‘yinlar va faol dam olish va bo‘sh vaqtni o‘tkazish shakllariga qiziqishni rivojlantirish;

Jismoniy faollikni va jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikning individual ko‘rsatkichlarini kuzatishning oddiy usullarini o‘zlashtirish. Boshlang‘ich maktabda jismoniy tarbiyaning asosiy natijasi o‘quvchilar tomonidan ko‘nikma va qobiliyatlarni egallashdir. Bundan tashqari, "Jismoniy tarbiya" fanidan o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi va o‘quvchilarning turli qobiliyatlarini (kompetensiyalarini) rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu usullar (kompetensiyalar) ta'lim jarayonining meta-fan natijalarida ifodalanadi va "Jismoniy tarbiya" fanidan tashqariga chiqadigan turli xil faoliyatlarda faol namoyon bo‘ladi.

Jismoniy tarbiyaning boshlang‘ich bosqichidagi o‘quvchilarning bilish kompetensiyalari quyidagilardir:

– o‘z faoliyatini tashkil qilish, maqsadlariga erishish uchun vositalarni tanlash va ulardan foydalanish qobiliyati;

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

– umumiy maqsadga erishish uchun guruh faoliyatida faol ishtirok etish va tengdoshlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish qobiliyati;
– tengdoshlar va kattalar bilan muloqot va o‘zaro ta'sir davomida ma'lumotni tushunarli, hissiy jihatdan yorqin shaklda yetkazish qobiliyati. "Jismoniy tarbiya" fanining butun mazmuni shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy hayotlarida faol o‘zini o‘zi anglay oladigan ijodiy, barkamol va muvaffaqiyatli shaxslarini rivojlantirishga qaratilgan.

45-minutlik namunaviy dars ishlanmasi

Mavzu: Harakatli o‘yinlar orqali tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish
Sinf: 3-sinf
Dars davomiyligi: 45 daqiqa
Jihozlar: to‘plar, konuslar, arqonlar

1. Tayyorlov qismi (8–10 daqiqa)
   - Saflanish va salomlashish
   - Dars maqsadini tushuntirish
   - 2–3 daqiqa yengil yugurish
   - Umumrivojlantiruvchi mashqlar (qo‘l, oyoq, gavda uchun)
   - Nafas mashqlari

2. Asosiy qism (25 daqiqa)

1-mashq: “Tezkor estafeta” (10 daqiqa)
   - O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi
   - Belgilangan masofaga yugurib, konus atrofidan aylanib qaytadi
   - Musobaqa shaklida bajariladi

2-mashq: “To‘pni tez uzat” (7 daqiqa)
   - Safda turib to‘pni uzatish
   - Tezlik va muvofiqlikni rivojlantirish

3-mashq: Harakatli o‘yin – “Quvlashmachoq” (8 daqiqa)
   - Chaqqonlik va epchillikni rivojlantirish
   - Qoidalar asosida o‘tkaziladi

3. Yakuniy qism (8–10 daqiqa)
   - Sekin yugurish
   - Tinchlantiruvchi mashqlar
   - Nafasni tiklash
   - O‘quvchilarni rag‘batlantirish
   - Uyga vazifa (ertalabki badantarbiya mashqlari)

Ushbu fanni o‘zlashtirish jarayonida boshlang‘ich maktab o‘quvchilari sog‘liqni saqlash, umumiy va maxsus o‘rganish ko‘nikmalarini, shuningdek, kognitiv va fanga asoslangan faoliyat usullarini rivojlantiradilar. Natijada boshlang‘ich maktab bitiruvchilari sog‘liqni saqlash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash, shuningdek, ish va harbiy tayyorgarlik uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyatini tushunishlari kerak. Ular "Jismoniy tarbiya" fanida olgan bilimlaridan kundalik tartibni rejalashtirish va saqlashda, mashq qilishda va bo‘sh vaqtlarida faol o‘yinlar o‘ynashda ongli ravishda foydalanishlari kerak. Ular jismoniy mashqlarning nafas olish va qon aylanish tizimlarining rivojlanishiga

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ijobiy ta'sirini bilishlari va oddiy qattiqlashuv protseduralarining zarurati va maqsadini tushunishlari kerak. Boshlang‘ich maktab bitiruvchilari ertalabki mashqlarni, maktab kunida jismoniy tarbiya va sog‘liqni saqlash tadbirlarini, shuningdek, bino ichida va tashqarida harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazishda asosiy ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirgan bo‘lishlari kerak. Ular sog‘liqni saqlash va umumiy rivojlanish mashqlari dasturlarini tuza olishlari, asosiy sport jihozlaridan foydalanishlari va jismoniy mashqlar paytida xulq-atvor va xavfsizlik qoidalarini, shuningdek, faoliyat sharoitlariga qarab kiyim va poyabzal tanlash qoidalarini bilishlari kerak. Bundan tashqari, ular o‘zlarining bo‘yi, tana vazni va asosiy jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni kuzatib borishlari kerak. fazilatlar; jismoniy mashqlar paytida yurak urish tezligiga qarab jismoniy mashqlar hajmini baholash. Bitiruvchilar to‘g‘ri holatni shakllantirish, ko‘rish qobiliyatining buzilishining oldini olish va nafas olish va qon aylanish tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan mashqlar to‘plamlarini bajarishni o‘rganadilar. Bu vaqt ichida ular har bir inson uchun zarur bo‘lgan muhim motor ko‘nikmalari va qobiliyatlarini egallaydilar: turli usullar bilan yugurish va sakrash; tebranish va to‘p uloqtirish; to‘siqlardan o‘tish va chiqish; akrobatik va gimnastika mashqlarini bajarish, oddiy kombinatsiyalar, chang‘i uchish va suzishning asosiy texnikasini o‘rganish. Rejalashtirilgan natijalarga ham yuqori, ham quyi darajalarda erishish mumkin. Bu ta'lim jarayonining sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ta'lim yo‘nalishidagi markaziy o‘rin uning kasbiy munosabatlar tizimi bo‘lishi kerak. Umuman olganda, munosabatlar deganda shaxsning ma'lum bir faoliyatga tayyorligi tushuniladi, bu ma'lum bir ehtiyojning mavjudligi bilan bog‘liq. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘zlarining ta'lim yo‘nalishini modellashtirishga imkon beradigan pedagogik texnologiyalarni tushunishlari kerak, bu esa sog‘liqni saqlashni o‘zlarining kasbiy faoliyatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantiradi. O‘qitish texnologiyasida mazmun, usullar va resurslar o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liqdir. Pedagogik mahorat namunaviy jismoniy tarbiya o‘quv dasturi va belgilangan ta’lim maqsadlariga muvofiq tegishli tarkibni tanlash va zarur metodologik texnikalarni qo‘llashdan iborat.

Hulosa o‘rnida boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, darslarni ilmiy asoslangan metodika, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish mashg‘ulotlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Harakatli o‘yinlar, musobaqa elementlari, interfaol metodlar va sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni tizimli ravishda qo‘llash o‘quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, dars jarayonida jamoaviylik, intizom, mas’uliyat va irodaviy sifatlar shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

1. Maxkamdjonov K, Tulenova X.B. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun umumiy va kengaytirilgan "Jismoniy tarbiya" dasturi. Ilm-ziyo Toshkent., 2006 y
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va bslubiyoti. o'quv qo'llanma Toshkent., O'zDJTI, 2005 yil - 300 b.
3. Tulenova X.B. Malinina N.N., Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish metodikasi, o'quv qo'llanma TDPU, 2005 y.
4. Xoldorov T., Tulenova X.B. Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, turizm, xalq milliy o'yinlarining nazariy va amaliy asoslari. TDTU bosmaxonasi, 2007 y.
5. Thomas H. Sawyer, Lawrence W. Judge The Management of fitness, Physikal Activity, Recreation, and Sport © 2012 Sagamore Publishing LLC AII ringhts reserved.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

OMMAVIY SPORT TADBIRLARI ORQALI TALABALARNI AXLOQIY-ESTETIK TARBIYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xamidov Nozimbek Nasriddin o‘g‘li, Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi 1-kurs magistri

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada ommaviy sport tadbirlari orqali talabalarni axloqiyestetik tarbiyalash tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda sport faoliyatining tarbiyaviy imkoniyatlari, talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi o‘rni hamda estetik did va jamoaviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va tarbiyaviy komponentlarni integratsiyalash masalalari ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: ommaviy sport tadbirlari orqali talabalarni axloqiy-estetik tarbiyalash tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish hamda sport faoliyati vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar, estetik did va jamoaviy madaniyatni shakllantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: mazkur tadqiqotda ommaviy sport tadbirlari orqali talabalarni axloqiy-estetik tarbiyalash tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayoni nazariy tahlil, amaliy kuzatuv va tajriba-sinov ishlari asosida olib borildi.

MUHOKOMA VA NATIJALAR: tadqiqot jarayonida sport faoliyatining nafaqat jismoniy, balki ma’naviy-axloqiy va estetik tarbiya berishdagi salohiyati tahlil qilindi. Ma’lum bo‘ldiki, sport tadbirlariga interfaol metodlarni tatbiq etish talabalarda jamoaviy madaniyat va estetik didni shakllantirish samaradorligini oshiradi. Tadbirlarni tashkil etishda pedagogik komponentlarning integratsiyalashuvi talabalarning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirishi aniqlandi.

HULOSA: ommaviy sport tadbirlari talabalarning axloqiy-estetik tarbiyasini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Sport faoliyati orqali talabalar jamoaviylik, mas’uliyat, intizom, halollik kabi axloqiy sifatlarni egallaydi hamda estetik madaniyat va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: ommaviy sport tadbirlari,talabalar tarbiyasi, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, pedagogik asoslararbiyaviy tizim, jamoaviylik, ma’naviy-axloqiy rivojlanish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЛУЧШЕНИЯ СИСТЕМЫ НОРМАТИВНОЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ МАССОВЫХ СПОРТИВНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Хамидов Нозимбек, Бухарский институт психологии и иностранных языков 1 курс магистратуры по физической культуре и воспитанию

Аннотация

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются педагогические основы улучшения системы нравственно-эстетического воспитания студентов посредством массовых спортивных мероприятий. Анализируется образовательный потенциал спортивных мероприятий, их роль в формировании духовно-нравственных качеств студентов, а также механизмы развития эстетического вкуса и коллективной культуры. Рассматриваются также современные педагогические подходы, интерактивные методы и интеграция образовательных компонентов в организацию массовых спортивных мероприятий.

ЦЕЛЬ: разработка педагогических основ улучшения системы нравственноэстетического воспитания студентов посредством массовых спортивных мероприятий и выявление эффективных механизмов формирования духовнонравственных качеств, эстетического вкуса и коллективной культуры у студентов посредством спортивных мероприятий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании использован комплексный подход для выявления педагогических основ совершенствования системы нравственно-эстетического воспитания учащихся посредством массовых спортивных мероприятий. Исследовательский процесс проводился на основе теоретического анализа, практического наблюдения и экспериментальной работы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе исследования был проанализирован потенциал спортивной деятельности не только в физическом, но и в духовнонравственном и эстетическом воспитании. Выяснилось, что внедрение интерактивных методов в спортивные мероприятия повышает эффективность формирования командной культуры и эстетического вкуса у студентов. Было установлено, что интеграция педагогических компонентов в организацию мероприятий усиливает социальную ответственность учащихся.

ВЫВОД: массовые спортивные мероприятия являются эффективным педагогическим инструментом формирования нравственно-эстетического воспитания учащихся. Благодаря спортивным мероприятиям учащиеся приобретают такие нравственные качества, как командная работа, ответственность, дисциплина, честность, а также развивают эстетическую культуру и навыки здорового образа жизни.

Ключевые слова: физкультура, начальные классы, методика, активные игры, здоровый образ жизни, педагогические технологии, физическое развитие.

PEDAGOGICAL BASIS OF IMPROVING THE SYSTEM OF MORAL-AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS THROUGH MASS SPORTS EVENTS

Khamidov Nozimbek, Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages 1st year Master of Physical Culture Education

Annotation

INTRODUCTION: this article covers the pedagogical foundations of improving the system of moral-aesthetic education of students through mass sports events. The study

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

analyzes the educational potential of sports activities, their role in the formation of students' spiritual and moral qualities, as well as mechanisms for developing aesthetic taste and collective culture. It also considers modern pedagogical approaches, interactive methods and integration of educational components in the organization of mass sports events.

PURPOSE: to develop pedagogical foundations for improving the system of moral and aesthetic education of students through mass sports events and to identify effective mechanisms for the formation of spiritual and moral qualities, aesthetic taste and collective culture in students through sports activities.

MATERIALS AND METHODS: in this study, a comprehensive approach was used to identify the pedagogical foundations for improving the system of moral and aesthetic education of students through mass sports events. The research process was carried out on the basis of theoretical analysis, practical observation and experimental work.

DISCUSSION AND RESULTS: the study analyzed the potential of sports activities not only for physical development but also for spiritual, moral, and aesthetic education. It was revealed that the implementation of interactive methods in sports events increases the effectiveness of developing team culture and aesthetic taste among students. It was found that the integration of pedagogical components in the organization of events strengthens students' social responsibility.

CONCLUSION: mass sports events are an effective pedagogical tool for the formation of moral and aesthetic education of students. Through sports activities, students acquire such moral qualities as teamwork, responsibility, discipline, honesty, and develop aesthetic culture and healthy lifestyle skills.

Keywords: mass sports events, student education, moral education, aesthetic education, pedagogical foundations, military system, teamwork, spiritual and moral development.

Hozirgi globallashuv jarayonida yosh avlodni nafaqat intellektual, balki ma’naviy-axloqiy va estetik jihatdan barkamol qilib tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning shaxs sifatida shakllanishida ta’lim jarayoni bilan bir qatorda ommaviy sport tadbirlari ham muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sport faoliyati orqali talabalar o‘zaro hurmat, jamoaviylik, adolat, mas’uliyat, intizom kabi axloqiy sifatlarni egallaydi, shuningdek estetik did, sog‘lom turmush tarzi va madaniy xulq-atvor ko‘nikmalari shakllanadi. Ommaviy sport tadbirlari talabalarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularni sog‘lom raqobat va hamkorlik muhitiga jalb etadi hamda jamoada o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Biroq ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogik jihatdan asoslangan tizim, maqsadga yo‘naltirilgan metod va shakllarni ishlab chiqish zarur. Mazkur maqolada ommaviy sport tadbirlarining axloqiy-estetik tarbiyadagi o‘rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi hamda ularni takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari ishlab chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi talabalarning ma’naviy barkamolligini ta’minlash va sport tadbirlarining tarbiyaviy

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

salohiyatidan samarali foydalanish zarurati bilan belgilanadi. Jismoniy tarbiyaning kun tartibidagi tadbirlari o‘quvchi va talabalarni jismoniy rivojlanishga sog‘lig‘ini mustahkamlashga va chiniqtirishga aqliy qobiliyatlarni oshirishga, tartib intizomni mustahkamlashni amalga oshiradi. Jismoniy tarbiya tadbirlarini muntazam o‘tkazib borish o‘quvchi va talabalarni o‘zini-o‘zi nazorat qilish, kun tartibiga rioya qilish hamda faolligini mustahkamlashga o‘rgatadi. Jismoniy tarbiya tadbirlari o‘quv yurtlarining ta’lim va tarbiyaviy ishlari shakllaridan bo‘lib o‘quv mashg‘ulotlari bilan muvofiq holda tashkil etilishi kerak.

Kun tartibidagi jismoniy tarbiya tadbirlari: o‘quvchi va talabalarni sog‘lomlashtirish va jismoniy rivojlantirish jarayoni uzluksizligini ta’minlash maqsadida o‘quv yurtlarida o‘quvchi va talabalar kun tartibida jismoniy tarbiya tadbirlari belgilanadi va amalga oshiriladi. Kun tartibidagi tadbirlar mazmuni jismoniy tarbiya dasturi asosida tuziladi va rejalashtiriladi. Jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etishda jismoniy madaniyat jamoasi tashkilotchilik va rahbarlik vazifasini boshqaradi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarni harakatlarga o‘rgatish va jismoniy mashqlar texnikasini egallashda ta’lim uslublari yordamida ta’lim bosqichlari vazifalarni hal etadilar. Ta’lim muassasalarida jismoniy mashqlarga o‘rgatish jarayoni ta’lim tamoyillari va uslublarini to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Jismoniy tarbiyada ta’lim jarayoni o‘quvchi va talabalarni jismoniy tarbiya va sportga oid maxsus bilimlar bilan qurollantirish hamda jismoniy mashqlar va harakatlar texnikasi, malaka va ko‘nikmasini hosil qilish vazifalarini hal etadi. Jismoniy tarbiyada shuni ko‘rish mumkinki, mashqlarni ko‘p marotaba har xil talablar asosida takrorlash va mustahkamlash jismoniy mashqlar texnikasi bajarishda hech bir qiyinchilik bo‘lmasligini ta’minlaydi. Bu bilan harakat malaka va ko‘nikmalari takomillashib boradi.

Jismoniy va sport tayyorgarligining asoslari;- Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida tayyorgarlikning har xil turlari “texnikaviy, taktik, nazariy, ruhiy-irodali, jismoniy”asoslari mavjud. Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy sifatlar: kuch, tezkorlik, chidamkorlik, epchillik, egiluvchanlik: yoshiga qarab tabiiy rivojlanishda o‘zgarish. Jismoniy rivojlanish sifatida asosiy vositalar va rejalar qonuniyatini ta’kidlash, ommaviy sport va yuqori natijalar sporti, ularning maqsadi va vazifasi, sport mashg‘ulotlari va uni ayrim qismlarini to‘liq jarayondan tuzilishi, sport mashg‘ulotlari usullarining negizi, sport tayyorgarligini rejalashtirish va tashkiliy tadbirlar, mashq bajarish-mashg‘ulotlar tuzilishining yaxlitligi asosi hisoblanadi.

Ertalabki badan tarbiya mashqlari; - O‘quv mashg‘ulotlargacha o‘tkaziladigan ertalabki gimnastika - ta’lim muassasasida har kuni darslar boshlanguncha o‘tkaziladigan jismoniy mashqlardir. Mashg‘ulotlargacha bo‘ladigan gimnastika asosan tarbiyaviy va sog‘lomlashtirish masalalarini hal etadi. Ochiq havoda o‘tkaziladigan mashqlar o‘quvchi va talabalar organizmini chiniqtirishga ham yordam beradi. Ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarda tartib intizomni ham tarbiyalaydi. Bu mashg‘ulotlardan so‘ng o‘quv kunini uyushgan holda boshlash amalga oshiriladi. Ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilar jismoniy tarbiya darslari jarayonida o‘rgangan umurivojlantiruvchi mashqlarni bajaradilar. Ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotlariga

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

shifokor ta'qiqlamagan o'quvchilarning barchasi qatnashadilar. Ertalabki badan tarbiya mashg'ulotlariga ta'lim muassasa rahbari va rahbar o'rinbosari rahbarlik qiladi. Mashg'ulotni jismoniy tarbiya o'qituvchilari olib boradilar. Shu bilan birga yoshlar uyushmasi a'zolari va faol sportchi o'quvchilar ham mashg'ulotlarni tashkil etishda ishtirok etadilar.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik va sport to'garaklari;- iloji boricha ko'proq o'quvchi va talabalarni, shu jumladan, jismoniy rivojlanishda bir oz oqsayotgan bolalarni ham jalb etish lozim. Sport to'garaklarining rahbarlari muayyan sport turining mashg'ulotlarini o'tkazish uslubiyatini, o'quvchi va talabalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning o'ziga xosligini yaxshi bilishlari kerak. O'quvchi va talabalarning jismoniniy rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarligini va yosh, jins xususiyatlarini hisobga olgan holda ular maxsus sport muassasalaridagi jismoniy tayyorgarlik va sport to'garaklariga jalb etiladi. Sport mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish va boshqarishda, sport turlari bilan shug'ullanishida organizmi rivojlanishining hamda sport natijalarini ko'rsatishni ijobiy natijalariga erishish mumkin. Umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garaklari o'quvchi va talabalarni jismoniy rivojlantirishni ta'minlab to'garak mashg'ulotlari ish faoliyati, yil davomiga quyidagicha rejalashtirish mumkin.

- Kuzda - harakatli va sport o'yinlari, engil atletika;
- Qishda-qishki sport turlari, gimnastika, kurash mashg'ulotlari;
- Bahorda - kross tayyorgarligi, sport o'yinlari;
- Yozda-suzish mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Umumjismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari jismoniy tarbiya asosida tashkil etiladi. Musobaqalar va sport bayramlarida o'quvchi va talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi nazorat qilib boriladi. To'garaklar a'zolari 15 - 20 kishidan iborat bo'lishi mumkin. Guruhlar yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligi bir hil darajadagi o'quvchi va talabalardan saralanadi. To'garak mashg'ulotlari haftasiga bir yoki ikki marta o'tkaziladi. Har bir mashg'ulot 45- 60-90 daqiqagacha bo'lishi mumkin. Jismoniy tayyorgarlik guruhlariga guruh sardorlari tayinlanib ular murabbiylarga yordam beradilar. Ta'lim muassasalarida sport turlari bo'yicha to'garaklar ham faoliyat ko'rsatib, bu to'garaklarga jismoniy tayyorgarlikka ega, shaxsiy qiziqishlari va jismoniy qobiliyatli bo'lgan o'quvchi va talabalar jalb etiladi. Sport to'garaklari jismoniy tarbiya dasturi asosida ish olib boradilar. Sportchi o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligi guruh mashg'ulotlari va sport musobaqalari, bayramlarda nazorat qilib turiladi. To'garak mashg'ulotlari haftasiga 3-4 marotaba tashkil etilib, 60-90 daqiqa davomida o'tkaziladi. Sport turi bo'yicha zaruriy jihozlar va mutaxssis tarbiyachilarning mavjudligi hamda mashg'ulot o'tish joylari talabga javob berishi sharoitida ham malakali sportchilar tayyorlash imkonini beradi.

Sayrlar, ekskursiyalar, yurishlar;-Sayrlar, ekskursiyalar va sayyohlik yurishlar katta ta'lim va tarbiya ahamiyatga molik. Chunki bu jarayonda o'quvchi va talabalar tabiat, jonajon o'lka va uning diqqatga sazovor joylari bilan tanishadilar. Bu tadbirlar yurish, yugurish va o'yin malakalarining takomillashishiga yordam beradi, organizmni chiniqtiradi va sog'lig'ini mustahkamlaydi hamda yurish-turish, o'z-o'ziga xizmat qilish,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

joyni mo‘ljalga olish va hokazo ko‘nikmalarni egallashga imkon yaratadi. Shuningdek, ular jamoani qaror toptirish va mustahkamlashda, do‘stlik, o‘rtoqlik xissini tarbiyalashda bebaho ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirlar yordamida o‘quvchi va talabalar tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari quyosh, suv, havo yordamida chiniqib boradilar, mamlakatimizning tabiati va tarixiy obidalari haqida tushanchaga ega bo‘lib boradilar.

Sayyohlik yurishlar davomida o‘quvchi va talabalarda hayotiy zarur jismoniy harakatlar yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, oshib o‘tish, malaka va ko‘nikmalari shakllanish bilan birga tabiat omillari yordamida chiniqish va suv muolajalari suzish, cho‘milish bilan qabul qilishni amalga oshiradilar. O‘quvchi va talabalarda sayyohlik yurishlarda kerakli jihozlardan foydalanish harakatlanish usullari dala joylarida ovqatlanish va dam olish, o‘yinlar bilan madaniy hordiq chiqarish va sportga doir tadbirlari o‘tkaziladi.

Sport musobaqalari va bayramlari;- Sport musobaqalari ta’lim muassasasidagi jismoniy tarbiyaga oid darslardan tashqari ishning eng qiziqarli shakllaridan biridir. Ular o‘quvchi va talabalarni uyda va jismoniy madaniyat jamoalaridagi doimiy jismoniy mashg‘ulotlarga jalb etishga yordam beradi, o‘quvchi va talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi, sog‘lig‘ini mustahkamlaydi. Musobaqalar, darsdan tashqari ishning boshqa turlari qatori, ta’lim muassasasining umumiy yillik ish rejasiga kiritiladi.

O‘quv yilining boshida musobaqalarni o‘tkazish muddati, qoidalari va dasturlari aniq belgilab olinadi. Bu muddatlarni hisobga olgan holda musobaqalarga oldindan tayyorgarlik ko‘riladi. Har bir musobaqa muayyan nizomga muvofiq o‘tkaziladi. Nizomda musobaqaning maqsadi va vazifalari, vaqti va o‘tkazilish joyi, qatnashuvchilar, dasturi, o‘tkazilish sharti va hisobga olish, eng yaxshi ishtirokchilarni va komandalarni mukofotlash tartibi, talabnomalar shakli va ularni taqdim etish muddati ko‘rsatiladi.

Sport bayramlari tantanali kunlarga bag‘ishlanib o‘tkazilish mumkin. Sportchilardan tuzilgan guruhlari ishtirok etadilar. Sport bayramlari sportchilarni chiqishlari, bayramni ochilishi, bayroq ko‘tarish, davlat va yoshlar madxiyasini ijro etilishi, o‘quvchi va talabalarni jismoniy mashqlar va harakatlarni tashkil etishi, ommaviy tadbirlar o‘yin kulgi, g‘oliblarni aniqlash g‘olib jamoa yoki yakka tartibdagi ishtirokchini tayorlangan sovg‘alar bilan tabriklash hamda bayram yakunida uyushtirilgan tadbirni yoki bayramni yopilishi marosimini tantanali ravishda o‘tkaziladi. Tadbirda ishtirok etganlarga rag‘batlantirishlar va fayriy yorliqlar beriladi va kelgusi tadbirlarga tayorgarlik ko‘radilar.

Mustaqil mashg‘ulotlar;- O‘quvchi va talabalarning bo‘sh vaqtlarini jismoniy tarbiya va sport tadbirlari bilan o‘tkazish uchun ularning ixtiyoriy harakatlanishi ta’minlanadi. Bu tadbirlar jismoniy mashqlar va harakatlar bilan shug‘ullanish malaka va ko‘nikmasi shakllangandan so‘ng mustaqil mashg‘ulotlar shaklida o‘tkazilishi mumkin. O‘quvchi va talabalarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlarining mustaqil shakli mazmunini umumjismoniy tayyorgarlik mashqlari, umumrivojlantiruvchi mashqlar, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, buyumlar, jismlar va jixozlardagi mashqlar, sport va harakatli o‘yinlar shaklida o‘tiladi. Tabiat qo‘yniga sayrlar, cho‘milish hamda quyoshda toblanish muolajalari ham mustaqil mashg‘ulotlar shaklida tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy mashqlarni turlari;- ularni bir-biriga bog‘liq guruhlarga saralashdir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Buning natijasida ta'siri va xususiyatlariga ko'ra mashqlar taqsimlanadi. Jismoniy mashqlar jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish darajasiga muvofiq saralanadi. Ular jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti, jismoniy mashqlar biomexanikasi va sport fiziologiyasi yo'nalishlarida har xil shaklda ko'rinadi.

O'quvchi va talabalarni jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida jismoniy rivojlantirish jarayonlari jismoniy harakatlar va jismoniy mashqlar bajarish yordamida tashkil etiladi. Jismoniy rivojlanish darajalari bolalarning tana tuzilishidagi ijobiy o'zgarishlar bo'y o'sishi, vazn ortishi, o'pkaning tiriklik sig'imi kengayi hisobiga ko'krak qafasini aylanasini ortishi, muskul kuchini ortishi munosabati bilan tana qismlari muskullarnii shaklini o'zgarishi, yurak qon-tomir tizimi va boshqa organlarning jismoniy yuklamalarga chidamliligi ortishida namoyon bo'ladi va ular doimo nazorat ostida bo'ladilar.

O'quvchi va talabalar jismoniy tarbiya, sport tadbirlarini uyushtirish;-
Jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv ishlarini olib borish jismoniy tarbiya dasturi asosida tashkil etiladi. Dastur bajarilishi shart bo'lgan davlat hujjatidir. U o'qituvchi yoki o'quv bo'limi tomonidan ta'lim muassasasining moddiy texnika bazasi imkoniyatlariga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Jismoniy madaniyat bo'yicha dasturlar hozirgi zamon ilmiy ma'lumotlar va o'qituvchilarning amaliy tajribalari asosida ishlab chiqilib, talabalarning jismoniy tarbiyasida nazariya va amaliyotning birligini aks ettiradi.

Hulosa o'rnida dastur mazmuni jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtiruvchi, tarbiyaviy va ilmiy masalalarini hal etadigan turli xil jismoniy mashq turlarining birligidan iborat. Sog'lomlashtirish va tarbiyaviy masalalar har qanday dars va mashg'ulotlar uchun umumiy hisoblanadi. Talbalarni jismoniy tarbiyalash ishining asosiy shakli o'qituvchi tomonidan davlat Jismoniy tarbiya dasturiga binoan, o'quv reja va qat'iy jadval bo'yicha o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslaridir. Jismoniy tarbiya darslari va mashg'ulotlari sog'ligi tekshirilib ruxsat etilgan hamma talabalar uchun majburiydir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bolalar va o'smirlar sporti mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyotlari. Usmonxadjaev.T.S. 2005y.
2. Jismoniy tarbiyadan to'garak mashg'ulotlari dasturi. T. 2000-2011y.
3. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O.V.Goncharova. Toshkent. 2005.
4. Sport mashg'ulot nazariy asoslari R.S.Salomov. Toshkent. 2005.
5. T.S.Usmonxo'jaev., M.B.Aliev., X.X.Sagdiev., F.K.Turdiev., J.A.Akromov., S.G.Usmonxo'jaev "Bolalar va o'smirlar sporti mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatlari" Toshkent 2006 yil
6. Rambler:ru. Provayderdan internet materiallari. 2009-2011.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

BLENDED LEARNING MODELIDA TIL KO‘NIKMALARI (TINGLAB TUSHUNISH, O‘QIB TUSHUNISH, YOZISH, GAPIRISH)NI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Faridjon Usmonov Saydullaevich, Bavariya Federal õlkasi Planegg kommunasida Boshlang'ich maktab qoshida pedagog

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada blended learning modeli asosida til ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida an’anaviy va raqamli ta’lim shakllarining uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda blended learning modelining mazmuni, uning til o‘qitishdagi pedagogik ahamiyati hamda interaktiv platformalar, multimedia resurslari, onlayn topshiriqlar va auditoriya mashg‘ulotlari o‘rtasidagi integratsion bog‘liqlik yoritiladi. Shuningdek, maqolada mazkur model orqali individual yondashuvni kuchaytirish, mustaqil ta’limni rag‘batlantirish, kommunikativ faollikni oshirish va til amaliyotini kengaytirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari blended learning modeli til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

MAQSAD: blended learning (aralash ta’lim) modeli asosida til ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda an’anaviy va raqamli ta’lim shakllarining uyg‘unlashuvi orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini asoslab berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda aralash ta’lim modelining mazmuni va uning til o‘qitishdagi pedagogik ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, interaktiv platformalar, multimedia resurslari va onlayn topshiriqlarning auditoriya mashg‘ulotlari bilan integratsiyalashuvi jarayoni pedagogik kuzatuv va tizimli yondashuv asosida o‘rganildi.

MUHOKOMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, blended learning modeli tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra Raqamli va an’anaviy ta’limning integratsiyasi o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi. Individual yondashuv va mustaqil ta’limni rag‘batlantirish orqali til amaliyoti auditoriyadan tashqarida ham kengayadi. Onlayn resurslar va yuzma-yuz muloqotning uyg‘unligi talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirish tezligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

HULOSA: blended learning modeli zamonaviy til o‘qitish tizimida o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. An’anaviy darslarni raqamli texnologiyalar bilan boyitish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil izlanishi va tilni amaliy qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: blended learning, til ko‘nikmalari, tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish, gapirish, raqamli ta’lim, interaktiv metodlar, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta’lim

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ (АУДИРОВАНИЕ, ЧТЕНИЕ, ПИСЬМО, ГОВОРЕНИЕ) В МОДЕЛИ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ (BLENDED LEARNING)

Фариджон Усмонов Сайдуллаевич, педагог при начальной школе в коммуне Планегг, федеральная земля Бавария.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются теоретические и практические возможности развития языковых навыков на основе модели blended learning. В современных условиях образования сочетание традиционного и цифрового форматов обучения способствует эффективному формированию навыков аудирования, чтения, письма и говорения у обучающихся. В исследовании раскрываются сущность модели blended learning, её педагогическая значимость в обучении языку, а также интеграционная взаимосвязь между интерактивными платформами, мультимедийными ресурсами, онлайн-заданиями и аудиторными занятиями. Особое внимание уделяется возможностям усиления индивидуального подхода, стимулирования самостоятельного обучения, повышения коммуникативной активности и расширения языковой практики с помощью данной модели. Результаты исследования показывают, что blended learning является эффективным педагогическим средством комплексного развития языковых навыков.

ЦЕЛЬ: проанализировать теоретические и практические возможности развития языковых навыков на основе модели смешанного обучения (blended learning), а также обосновать эффективность формирования речевых компетенций учащихся посредством интеграции традиционных и цифровых форм обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались методы теоретического анализа, направленные на изучение содержания модели смешанного обучения и её педагогической значимости в преподавании языка. Также на основе педагогического наблюдения и системного подхода был изучен процесс интеграции интерактивных платформ, мультимедийных ресурсов и онлайн-заданий с аудиторными занятиями.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что модель смешанного обучения позволяет комплексно развивать навыки аудирования, чтения, письма и говорения. Согласно результатам исследования, интеграция цифрового и традиционного обучения повышает коммуникативную активность учащихся. Благодаря индивидуальному подходу и стимулированию самостоятельного обучения, языковая практика расширяется и за пределами аудитории. Сочетание онлайн-ресурсов и очного общения значительно улучшает скорость усвоения учебного материала студентами.

ВЫВОД: модель смешанного обучения является эффективным педагогическим инструментом комплексного развития языковых навыков учащихся в современной системе преподавания языков. Обогащение традиционных уроков цифровыми технологиями не только повышает качество образования, но и служит

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

важным фактором в формировании компетенций самостоятельного поиска и практического применения языка учащимися.

Ключевые слова: blended learning, языковые навыки, аудирование, чтение, письмо, говорение, цифровое обучение, интерактивные методы, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING LANGUAGE SKILLS (LISTENING, READING, WRITING, SPEAKING) IN THE BLENDED LEARNING MODEL

Khamidov Nozimbek, Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages 1st year Master of Physical Culture Education

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the theoretical and practical opportunities for developing language skills through the blended learning model. In modern education, the integration of traditional face-to-face instruction with digital learning environments contributes to the effective development of listening, reading, writing, and speaking skills. The study explains the essence of the blended learning model, its pedagogical significance in language teaching, and the integrative relationship between interactive platforms, multimedia resources, online tasks, and classroom activities. Particular attention is paid to the opportunities provided by this model for strengthening individualized instruction, encouraging independent learning, increasing communicative activity, and expanding language practice. The findings show that the blended learning model is an effective pedagogical tool for the comprehensive development of language skills.

PURPOSE: to analyze the theoretical and practical possibilities of developing language skills based on the blended learning model and to demonstrate the effectiveness of forming students' speech competencies through the integration of traditional and digital forms of education.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized theoretical analysis methods aimed at exploring the essence of the blended learning model and its pedagogical significance in language teaching. Additionally, the process of integrating interactive platforms, multimedia resources, and online assignments with classroom activities was studied based on pedagogical observation and a systematic approach.

DISCUSSION AND RESULTS: analysis showed that the blended learning model enables the comprehensive development of listening, reading, writing, and speaking skills. According to the research results, the integration of digital and traditional education increases students' communicative activity. By encouraging an individual approach and self-study, language practice extends beyond the classroom. The harmony between online resources and face-to-face communication significantly improves the pace at which students master the learning material.

CONCLUSION: the blended learning model is an effective pedagogical tool for the comprehensive development of students' language skills in the modern language teaching system. Enriching traditional lessons with digital technologies not only improves the quality

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

of education but also serves as a crucial factor in developing students' competencies in independent research and the practical application of the language.

Keywords: blended learning, language skills, listening, reading, writing, speaking, digital learning, interactive methods, communicative competence, independent learning

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning o‘quv jarayoniga keng tatbiq etilishi o‘qitish metodlari hamda pedagogik yondashuvlarni yangicha mazmunda takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o‘qitishda an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari bilan raqamli ta’lim imkoniyatlarini uyg‘unlashtirgan blended learning modeli alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur model o‘quvchi va talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda til amaliyotini kengaytirish imkonini beradi. Shu jihatdan, blended learning modelida til ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy lingvodidaktika va pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Til o‘rganish jarayonida tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish ko‘nikmalari o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi va kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. An’anaviy ta’limda ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish ko‘p jihatdan auditoriya vaqti, didaktik vositalar hamda o‘qituvchining individual yondashuv imkoniyatlari bilan cheklanadi. Blended learning modeli esa ushbu cheklovlarni bartaraf etib, onlayn platformalar, multimediya resurslari, virtual mashqlar, videodarslar, audio materiallar va interaktiv topshiriqlar orqali til ko‘nikmalarini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarga o‘z tezligida o‘rganish, qayta mashq qilish, teskari aloqa olish va til materiallarini chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

Blended learning modelining afzalliklaridan biri shundaki, u til o‘qitishda nazariy bilim bilan amaliy faoliyatni uyg‘unlashtiradi. Xususan, onlayn muhit tinglab tushunish va o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qulay platforma vazifasini bajarsa, auditoriya mashg‘ulotlari yozish va gapirish ko‘nikmalarini muloqot, muhokama va hamkorlik asosida mustahkamlash imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat til birliklarini o‘zlashtiradi, balki ulardan real kommunikativ vaziyatlarda foydalanish malakasini ham shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifati, o‘zlashtirish samaradorligi va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Shu bilan birga, blended learning modelini samarali joriy etish qator pedagogik va tashkiliy omillarni ham inobatga olishni talab qiladi. Jumladan, raqamli resurslarning sifati, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, o‘quvchilarning raqamli savodxonligi, o‘quv mazmunining to‘g‘ri integratsiyasi va baholash mexanizmlarining moslashtirilishi ushbu modelning natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, til ko‘nikmalarini rivojlantirishda blended learning modelining didaktik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliy jihatlarini yoritish dolzarb ahamiyatga ega.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Mazkur maqolaning maqsadi blended learning modelida tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish, uning pedagogik afzalliklarini yoritish hamda til ta’limi samaradorligini oshirishdagi o‘rnini asoslab berishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Blended learning tushunchasi ilmiy adabiyotlarda an’anaviy auditoriya ta’limi bilan onlayn o‘qitish tajribalarining maqsadli integratsiyasi sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari Garrison va Kanuka tomonidan oliy ta’lim kontekstida “yuzma-yuz o‘qitish tajribasi” bilan “onlayn o‘qitish tajribasi”ning uyg‘unlashuvi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, Graham blended learningni turli o‘qitish usullari, vositalari va yetkazib berish formatlarining tizimli kombinatsiyasi sifatida ko‘rsatadi. Cambridge Papers in ELT nashrida ham blended language learning til ta’limida sinf mashg‘ulotlari, mustaqil o‘rganish va raqamli vositalar uyg‘unligiga asoslangan amaliy model sifatida tavsiflanadi.

Til ta’limi kontekstida blended learning bo‘yicha adabiyotlar uning ayniqsa to‘rtta asosiy ko‘nikma — tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish — ni integrallashgan holda rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Hashemi va Si Na tomonidan olib borilgan adabiyotlar tahlilida blended learning ingliz tilini o‘qitishda ushbu to‘rtta ko‘nikmaning har biriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi. Shu bilan birga, Ramalingam va Yunusning sistematik sharhida ESL ta’limida blended learning bo‘yicha 32 ta maqola tahlil qilinib, asosiy strategiyalar sifatida hamkorlikka asoslangan o‘qitish, learning management systems, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyaga asoslangan o‘qitish ajratib ko‘rsatilgan.

Mavjud empirik tadqiqotlar blended learningning til ko‘nikmalariga ta’sirini turli ko‘rinishlarda tasdiqlaydi. Masalan, Banditvilai blended learning asosidagi amaliyot tajribasi natijasida onlayn mashqlar talabalar til ko‘nikmalarining barcha turlarini, shuningdek, o‘quv avtonomiyasi va motivatsiyasini rivojlantirishga bevosita yordam berganini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot ayniqsa blended modelning auditoriyadan tashqari muntazam mashq qilish imkoniyati orqali til ko‘nikmalarini mustahkamlashdagi rolini ochib beradi.

Ayrim tadqiqotlar esa alohida ko‘nikmalar kesimida blended learning samaradorligini yoritadi. Yang va Chang tomonidan Moodle asosida tashkil etilgan blended muhitda individual yondashuv qo‘llanilgan ingliz tili kursida ishtirokchilar listening va speaking bo‘yicha statistik jihatdan sezilarli o‘sish ko‘rsatgan. Mualliflar samaradorlikning asosiy omillari sifatida darajalar bo‘yicha guruhlash, individuallashtirilgan topshiriqlar va teskari aloqani ajratib ko‘rsatadi. Bu natija blended learning modelida ayniqsa tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan didaktik dizayn muhim ekanini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar blended learningning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini yanada chuqurroq ko‘rsatmoqda. Chengning 2025 yilgi tadqiqotida Production-Oriented Approach asosida yaratilgan blended model English Viewing, Listening and Speaking kursida qo‘llanilib, unda motivatsiya va baholash

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

onlayn, “enabling” bosqichi esa onlayn va oflayn uyg‘unlikda tashkil etilgan. Muallif blended model og‘zaki nutqni rivojlantirish bilan birga, ko‘nikmalar, qadriyatlar va boshqa kompetensiyalarni ham parallel shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Sistematik va sharhlovchi adabiyotlarda blended learningning samarasi faqat texnologiya mavjudligi bilan emas, balki pedagogik dizayn sifati bilan belgilanadi. Ramalingam va Yunus o‘z sharhida blended ESL kurslarida motivatsiya, faollik va o‘zaro ta’sir oshishini ko‘rsatish bilan birga, kechikkan javoblar va texnologik vositalarning murakkabligi kabi muammolarni ham qayd etadi. Xuddi shunday, Cambridge Papers in ELT blended modelni samarali joriy etish uchun kontent, faoliyat, baholash va o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlashi o‘rtasida puxta muvozanat zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot blended learning modeli asosida til ko‘nikmalari — tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish — ni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning obyekti sifatida Termiz davlat pedagogika institutining 83 nafar talabasi jalb etildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlarning uyg‘unligiga tayangan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-pedagogik tahlil, kuzatish, diagnostik test, tajriba-sinov, suhbat, so‘rovnoma hamda natijalarni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Dastlab talabalarining til ko‘nikmalarini shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida kirish diagnostikasi o‘tkazildi. Unda tinglab tushunish bo‘yicha audio matnni anglash, o‘qib tushunish bo‘yicha matnni tahlil qilish, yozish bo‘yicha qisqa esse yoki fikr bayoni yaratish, gapirish bo‘yicha esa og‘zaki muloqot va savol-javob topshiriqlari qo‘llanildi. Olingan natijalar asosida talabalar til ko‘nikmalarining dastlabki holati baholandi.

Tadqiqotda aniq metodika sifatida **“integratsiyalashgan blended skill-development methodology”**, ya’ni auditoriya va onlayn ta’limni uyg‘unlashtirishga asoslangan to‘rt bosqichli metodika taklif qilindi. Ushbu metodika: **1) motivatsion-kirish bosqichi, 2) raqamli o‘zlashtirish bosqichi, 3) interaktiv-amaliy bosqich, 4) refleksiv-baholash bosqichi**dan iborat etib belgilandi.

Motivatsion-kirish bosqichida talabalar mavzuga jalb qilinib, til faoliyatining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ishlash tartibi tushuntirildi. Raqamli o‘zlashtirish bosqichida Moodle, Google Classroom, YouTube, Quizizz, Wordwall, Padlet kabi platformalar orqali audio, video, matn va interaktiv topshiriqlar asosida mustaqil va yarim mustaqil o‘rganish tashkil etildi. Interaktiv-amaliy bosqichda auditoriya mashg‘ulotlarida juftlik va guruhli ishlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, taqdimotlar, dialog va munozaralar orqali gapirish hamda yozish ko‘nikmalari mustahkamlandi. Refleksiv-baholash bosqichida esa o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash va o‘qituvchi nazorati asosida talabalar erishgan natijalar monitoring qilindi.

Mazkur metodikada har bir til ko‘nikmasi uchun alohida, ammo o‘zaro integrallashgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Tinglab tushunishni rivojlantirish uchun autentik audio va videomateriallar asosida tinglashdan oldingi, tinglash jarayonidagi va tinglashdan keyingi topshiriqlar qo‘llanildi. O‘qib tushunish ko‘nikmasi uchun raqamli

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

matnlar, elektron maqolalar, qisqa hikoyalar va tahliliy savollar asosida ishlash tashkil etildi. Yozish ko‘nikmasini shakllantirishda forum postlari, esse, fikr-mulohaza yozish, onlayn hamkorlikda matn yaratish kabi faoliyat turlari qo‘llanildi. Gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda esa videokonferensiya, juftlikdagi suhbat, mavzuli taqdimot, og‘zaki fikr bildirish va muhokama usullaridan foydalanildi. Shunday qilib, blended learning modeli doirasida raqamli muhit va auditoriya faoliyatining o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyati ta’minlandi.

Tadqiqot natijalarini baholash uchun mezonlar sifatida mazmunni anglash, axborotni tahlil qilish, fikrni mantiqan ifodalash, til vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, nutq ravonligi va kommunikativ faollik ko‘rsatkichlari belgilandi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi va blended learning modelining talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlab berildi. Natijada ushbu metodika til o‘rganish jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish, mustaqil ta’lim faoliyatini rag‘batlantirish, interaktivlikni oshirish va til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv sifatida asoslandi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot Termiz davlat pedagogika institutining 83 nafar talabalari ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: **nazorat guruhi — 41 nafar**, **tajriba guruhi — 42 nafar**. Nazorat guruhida til ko‘nikmalarini rivojlantirish an’anaviy usullar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, tajriba guruhida blended learning modeliga tayangan holda integratsiyalashgan metodika qo‘llanildi. Ushbu metodika auditoriya mashg‘ulotlari bilan onlayn platformalardagi mustaqil va interaktiv faoliyatlarni uyg‘unlashtirishga asoslandi. Tajriba davomida tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi dastlabki va yakuniy diagnostika asosida baholandi.

Dastlabki natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, nazorat va tajriba guruhlarida til ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi deyarli bir-biriga yaqin bo‘lgan. Bu esa tajriba boshlanishidan oldin guruhlar o‘rtasida sezilarli farq mavjud emasligini anglatadi. Tajriba-sinov ishlari yakunida esa blended learning modeli asosida ishlagan tajriba guruhida barcha til ko‘nikmalari bo‘yicha o‘sish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ekani aniqlandi. Ayniqsa, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy siljish kuzatildi, bu esa raqamli audio-video materiallar, interaktiv topshiriqlar, juftlik va guruhli muloqot, shuningdek, onlayn platformalarda muntazam mashq qilish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Jadval 1

Blended learning modeli asosida talabalarning til ko‘nikmalari rivojlanish ko‘rsatkichlari

Guruh	Talabalar soni	Dastlabki ko‘rsatkich (%)	Yakuniy ko‘rsatkich (%)	O‘sish (%)
Nazorat guruhi	41	56.4	64.2	7.8
Tajriba guruhi	42	56.9	72.8	15.9

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Nazorat guruhida ko‘rsatkichlar 56,4 foizdan 64,2 foizga oshib, **7,8 foizlik** o‘sish qayd etilgan bo‘lsa, tajriba guruhida bu ko‘rsatkich 56,9 foizdan 72,8 foizga yetib, **15,9 foizlik** o‘sishni tashkil etdi. Mazkur natija blended learning modelining samaradorligi **13,5 foizdan yuqori** ekanini tasdiqlaydi. Tajriba guruhidagi bunday ijobiy natijalar blended learningning individual yondashuvni kuchaytirishi, talabalarni mustaqil o‘rganishga yo‘naltirishi, o‘quv materiallarini turli formatlarda takror o‘zlashtirish imkonini berishi hamda kommunikativ faollikni oshirishi bilan izohlanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, blended learning modeli til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishda an’anaviy o‘qitishga nisbatan samaraliroq pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ayniqsa, onlayn va oflayn komponentlarning o‘zaro integratsiyasi talabalar uchun qulay, moslashuvchan va takroriy mashq imkoniyatlarini yaratib, ularning til o‘zlashtirish jarayonini jadallashtiradi. Shu bois, mazkur modelni chet tillarini o‘qitish amaliyotiga keng joriy etish til ta’limi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Blended learning modeli asosida til ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy til ta’limining samarali yo‘nalishlaridan biri ekanligi tadqiqot natijalari orqali tasdiqlandi. Tadqiqot davomida tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda auditoriya mashg‘ulotlari bilan raqamli ta’lim vositalarining uyg‘unligi yuqori pedagogik samara berishi aniqlandi. Mazkur yondashuv talabalarga til materiallarini turli formatlarda o‘zlashtirish, mustaqil mashq qilish, qayta takrorlash va kommunikativ faoliyatda faol ishtirok etish imkonini yaratdi. Natijada blended learning modeli til ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishda an’anaviy o‘qitishga nisbatan ustun ekanligi asoslandi.

Tajriba-sinov ishlari Termiz davlat pedagogika institutining 83 nafar talabasi ishtirokida olib borilib, nazorat va tajriba guruhlari natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Yakuniy ko‘rsatkichlarga ko‘ra, nazorat guruhida o‘sish 7,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba guruhida bu ko‘rsatkich 15,9 foizga yetdi. Bu esa blended learning modeli qo‘llanilgan sharoitda til ko‘nikmalarining shakllanish samaradorligi sezilarli darajada yuqori ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarida kuzatilgan ijobiy dinamika raqamli audio-video resurslar, interaktiv topshiriqlar va muloqotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarning samarali tashkil etilgani bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot blended learning modelining nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki talabalarning mustaqil ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish malakasini shakllantirish va raqamli savodxonligini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Ushbu model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida individual yondashuv kuchaydi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi teskari aloqa faollashdi, ta’lim mazmuni esa yanada moslashuvchan va talaba ehtiyojlariga yo‘naltirilgan tus oldi.

Umuman olganda, blended learning modeli til o‘qitish amaliyotida tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik yondashuv sifatida e’tirof etilishi mumkin. Uni oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa chet tillarini o‘qitish jarayonida keng qo‘llash ta’lim sifati va

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, blended learning asosidagi metodikalarni takomillashtirish, raqamli resurslar bazasini kengaytirish va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish istiqboldagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Garrison D. R., Kanuka H. Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education // *The Internet and Higher Education*. – 2004. – Vol. 7, No. 2. – P. 95–105.
2. Graham C. R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions // Bonk C. J., Graham C. R. (eds.). *Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs*. – San Francisco: Pfeiffer, 2006. – P. 3–21.
3. King A. *Blended language learning*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – (Cambridge Papers in ELT).
4. Banditvilai C. Enhancing students’ language skills through blended learning // *The Electronic Journal of e-Learning*. – 2016. – Vol. 14, No. 3. – P. 220–229.
5. Yang Y.-T. C., Chuang Y.-C., Li L.-Y., Tseng S.-S. A blended learning environment for individualized English listening and speaking integrating critical thinking // *Computers & Education*. – 2013. – Vol. 63. – P. 285–305.
6. Ramalingam S., Yunus M. M., Hashim H. Blended learning strategies for sustainable English as a second language education: A systematic review // *Sustainability*. – 2022. – Vol. 14, No. 13. – Article 8051.
7. Hashemi A., Si Na K. The effects of using blended learning in teaching and learning English: A review of literature // *The Eurasia Proceedings of Educational and Social Sciences*. – 2020. – Vol. 18. – P. 173–179.
8. El-Mowafy A., Kuhn M., Snow T. Blended learning in higher education: Current and future challenges in surveying education // *Issues in Educational Research*. – 2013. – Vol. 23, No. 2. – P. 132–150.
9. Ginaya G., Rejeki I. N. M., Astuti N. N. S. The effects of blended learning to students’ speaking ability: A study of utilizing technology to strengthen classroom interaction // *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*. – 2018. – Vol. 4, No. 3. – P. 1–14.
10. Mora-López N., García-Ponce E. Exploratory study on the blended learning of research and EFL skills in higher education // *Education Sciences*. – 2023. – Vol. 13, No. 2. – Article 155.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ONA TILI DARSLARIDA DISLEKSIYASI BOR O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH AMALIYOTINING MAVJUD HOLATI

Soliyeva Moxigul Madaminxon qizi, "Ideal ta'lim-tarbiya" xususiy maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta’limda inkluziv yondashuv har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olishni talab etadi. ona tili darslarida disleksiyasi bor o‘quvchilar o‘qish va yozishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, biroq umumta’lim maktablarida ularga yo‘naltirilgan tizimli metodik yondashuvlar hali yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi umumta’lim maktablarida ona tili darslarida disleksiyasi bor o‘quvchilar bilan ishlashning amaliy holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va o‘quv materiallarini moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada umumta’lim maktablaridagi ona tili darslari jarayonini kuzatish, mavjud darsliklar va topshiriqlar tizimini tahlil qilish hamda o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini baholash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, differensial va multisensor ta’lim yondashuvlari nazariy asos qilib olindi.

MUHOKOMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, darsliklar va baholash mezonlari disleksiyasi bor bolalar uchun moslashtirilmagan, o‘qituvchilarda esa maxsus metodik ko‘nikmalar yetishmaydi. Sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi va vaqt qisqaligi individual yondashuvni amalga oshirishni murakkablashtirayotgan asosiy omillar sifatida aniqlandi.

HULOSA: disleksiyasi bor o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun o‘qituvchilarning metodik malakasini oshirish, o‘quv topshiriqlarini differensiallashtirish va baholash tizimini moslashtirish zarur. Inkluziv muhitni takomillashtirish orqali ushbu o‘quvchilarning motivatsiyasini va o‘quv samaradorligini ta'minlash mumkin.

Kalit so‘zlar: disleksiya, ona tili ta’limi, inkluziv ta’lim, differensial yondashuv, metodik tayyorgarlik, o‘qish qiyinchiliklari, baholash tizimi, pedagogik muammo, o‘quv materiali, individual yondashuv.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРАКТИКИ РАБОТЫ С УЧАЩИМИСЯ С ДИСЛЕКСИЕЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Солиева Мохигул Мадаминхон кизи, преподаватель частной школы «Ideal ta'limtarbiya»

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: инклюзивный подход в современном образовании требует учета индивидуальных потребностей каждого учащегося. На уроках родного языка дети с дислексией сталкиваются с серьезными трудностями в чтении и письме, однако системная методическая работа с такими учениками в общеобразовательных школах еще не налажена на должном уровне.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ЦЕЛЬ: целью исследования является анализ практического состояния работы с учащимися с дислексией на уроках родного языка, выявление существующих проблем и разработка предложений по повышению методической подготовки учителей и адаптации учебных материалов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье использовались методы наблюдения за процессом уроков родного языка, анализ действующих учебников и систем заданий, а также оценка методической компетенции учителей. Теоретическую базу составили подходы дифференцированного и мультисенсорного обучения.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: анализ показал, что учебники и критерии оценки не адаптированы для детей с дислексией, а учителям не хватает специальных методических навыков. Переполненность классов и ограниченность времени выделены как основные факторы, затрудняющие реализацию индивидуального подхода.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для повышения успеваемости учащихся с дислексией необходимо совершенствовать квалификацию педагогов, дифференцировать учебные задания и адаптировать систему оценивания. Эффективность обучения и мотивация таких детей могут быть обеспечены только через улучшение инклюзивной образовательной среды.

Ключевые слова: дислексия, обучение родному языку, инклюзивное образование, дифференцированный подход, методическая подготовка, трудности чтения, система оценивания, педагогические проблемы, учебные материалы, индивидуальный подход.

THE CURRENT STATE OF PRACTICE IN TEACHING STUDENTS WITH DYSLEXIA IN NATIVE LANGUAGE CLASSES

Soliyeva Moxigul Madaminxon qizi, Teacher at the "Ideal ta'lim-tarbiya" Private School

Annotation

INTRODUCTION: an inclusive approach in modern education requires considering the individual needs of every student. In native language classes, students with dyslexia face significant challenges in reading and writing; however, systematic methodological approaches for supporting them in general secondary schools are not yet fully established.

AIM: the objective of the study is to analyze the current practice of teaching students with dyslexia in native language classes, identify existing challenges, and develop proposals for enhancing teacher preparedness and adapting instructional materials.

MATERIALS AND METHODS: the study employed methods such as classroom observation of native language lessons, analysis of current textbooks and assignment systems, and assessment of teachers' methodological competence. The theoretical framework is based on differentiated and multisensory learning approaches.

RESULTS AND DISCUSSION: the analysis revealed that textbooks and assessment criteria are not adapted for children with dyslexia, and teachers lack specialized

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

pedagogical skills. Large class sizes and limited lesson time were identified as key factors hindering the implementation of an individualized approach.

CONCLUSION: to improve the academic performance of students with dyslexia, it is essential to enhance teachers' methodological skills, differentiate learning tasks, and adapt assessment systems. Improving the inclusive environment is vital to ensuring these students' motivation and educational success.

Keywords: dyslexia, native language teaching, inclusive education, differentiated instruction, teacher preparedness, reading difficulties, assessment system, pedagogical challenges, instructional materials, individualized approach.

Zamonaviy ta’lim tizimida inkluziv yondashuvning joriy etilishi har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim sifatini ta’minlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida ona tili darslarini tashkil etishda o‘qish va yozish jarayonida qiyinchiliklarga duch keladigan o‘quvchilar, jumladan, disleksiyasi bor bolalar bilan ishlash masalasi alohida e’tibor talab qiladi. Disleksiya o‘quvchilarning o‘qish, yozish va matnni anglash jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘quv faoliyati samaradorligini pasaytiradi hamda psixologik jihatdan o‘ziga ishonchining susayishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda umumta’lim maktablarida disleksiyasi bor o‘quvchilar bilan ishlash amaliyoti yetarli darajada tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi kuzatiladi. Ko‘plab hollarda o‘qituvchilar bunday o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlarini to‘liq anglab yetmaydi yoki ularga mos metodik yondashuvlarni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Natijada, dars jarayonida differensial yondashuv yetarli darajada amalga oshirilmaydi, o‘quv materiallari esa barcha o‘quvchilar uchun bir xil shaklda taqdim etiladi. Bu esa disleksiyasi bor o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga moslashishini qiyinlashtiradi.Shuningdek, ona tili darsliklari va topshiriqlar tizimi ko‘p hollarda o‘quvchilarning individual farqlarini hisobga olmagan holda tuzilgan bo‘lib, baholash mezonlari ham barcha o‘quvchilarga nisbatan bir xil qo‘llaniladi. Bu holat disleksiyasi bor o‘quvchilarning bilimini adolatli baholashda muammolarni keltirib chiqaradi. Sinf sharoitida esa o‘qituvchining vaqt va imkoniyatlari cheklanganligi, o‘quvchilar sonining ko‘pligi hamda maxsus metodik vositalarning yetishmasligi diferensial ishlashni murakkablashtiradi.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundan iboratki, disleksiyasi bor o‘quvchilar bilan ishlashning amaliy holatini tahlil qilish orqali mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Ayniqsa, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, o‘quv materiallarini moslashtirish hamda inkluziv ta’lim muhitini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada umumta’lim maktablarida ona tili darslarida disleksiyasi bor o‘quvchilar bilan ishlash amaliyotining mavjud holati har tomonlama tahlil qilinadi hamda uning asosiy muammolari va takomillashtirish yo‘nalishlari yoritiladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Umumta'lim maktablarida ona tili darslarini tashkil etish jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlash masalasi amaliyotda hali yetarli darajada tizimli yo'lga qo'yilmagan. Aksariyat maktablarda bunday o'quvchilar umumiy sinf tarkibida ta'lim olayotgan bo'lsa-da, ularning o'ziga xos ehtiyojlari alohida pedagogik yondashuv asosida to'liq hisobga olinmaydi. Dars jarayonlari ko'proq o'rtacha darajadagi o'quvchiga mo'ljallangan holda olib boriladi, bu esa o'qish va yozishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, disleksiyasi bor o'quvchilar ko'pincha o'quv materialini to'liq anglay olmaydi, topshiriqlarni bajarishda ortda qoladi va asta-sekin o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini yo'qota boshlaydi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ham ko'rsatadiki, sinf sharoitida o'qituvchilar bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarga e'tibor qaratishga majbur bo'lganligi sababli, individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlari cheklanadi. O'quvchilar sonining ko'pligi, dars vaqtining qisqaligi hamda maxsus didaktik materiallarning yetishmasligi diferensial ishlashni murakkablashtiradi. Shu bois disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlash ko'pincha epizodik xarakter kasb etib, tizimli va rejalashtirilgan metodik faoliyat darajasiga yetmaydi.

O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi darajasi ham mazkur muammoning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ko'plab pedagoglar disleksiya tushunchasi, uning belgilari va sabablari haqida umumiy tasavvurga ega bo'lsalar-da, u bilan ishlashning aniq metodik usullari va texnologiyalarini yetarli darajada bilmaydi. Ayniqsa, fonematik idrokni rivojlantirish, multisensor yondashuvdan foydalanish, differensial topshiriqlarni ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalar yetarli emasligi kuzatiladi. Bu esa o'qituvchilarning disleksiyasi bor o'quvchilarga samarali yordam ko'rsatish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuningdek, o'qituvchilarning aksariyati inklyuziv ta'lim sharoitida ishlash uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan bo'lib, ularning kasbiy kompetensiyasida differensial yondashuvni tizimli qo'llash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Metodik qo'llanmalar va amaliy tavsiyalarning yetishmasligi ham bu jarayonni murakkablashtiradi. Natijada, o'qituvchilar ko'pincha umumiy metodlardan foydalanishga majbur bo'lib, bu esa disleksiyasi bor o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida disleksiyasi bor o'quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, maxsus trening va seminarlar tashkil etish, amaliy metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash hamda differensial yondashuvni dars jarayoniga tizimli ravishda joriy etish zarur hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida qo'llanilayotgan ona tili darsliklari va o'quv topshiriqlari tizimini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular asosan standart o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, disleksiyasi bor o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini to'liq hisobga olmaydi. Darsliklarda berilgan matnlar hajmi, murakkabligi va tuzilishi ko'pincha bunday o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki uzun va murakkab gaplar, fonetik jihatdan o'xshash so'zlar hamda tez o'qishni talab qiluvchi topshiriqlar ularning idrok qilish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

imkoniyatlariga mos kelmaydi. Topshiriqlarning aksariyati bir xil tipda bo‘lib, differensial darajalarga ajratilmaganligi sababli o‘quvchilar o‘z imkoniyatlariga mos mashqlarni tanlash imkonidan mahrum bo‘ladi.

Baholash tizimi ham ko‘pincha umumiy mezonlarga asoslangan holda olib boriladi. O‘qish tezligi, xatolar soni va yozma ishlarning to‘g‘riligi asosiy mezon sifatida baholanadi, biroq disleksiyasi bor o‘quvchilarning individual rivojlanish dinamikasi, harakatdagi ijobiy siljishlar yetarli darajada inobatga olinmaydi. Natijada, bunday o‘quvchilar ko‘pincha past baho oladi, bu esa ularning o‘quv motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Moslashtirilgan baholash mezonlarining yetishmasligi o‘qituvchiga ham, o‘quvchiga ham aniq natijani ko‘rish va rivojlanishni baholash imkonini cheklaydi.Sinf sharoitida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar esa bir nechta omillar bilan bog‘liq. Avvalo, o‘quvchilar sonining ko‘pligi va dars vaqtining cheklanganligi o‘qituvchiga har bir o‘quvchi bilan individual ishlash imkonini bermaydi. Disleksiyasi bor o‘quvchilar o‘qish jarayonida ko‘proq vaqt talab qilgani sababli ular ko‘pincha dars ritmiga moslasha olmaydi va umumiy faoliyatdan ortda qoladi. Bu esa ularning o‘ziga ishonchini pasaytirib, passivlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, sinfda maxsus didaktik vositalar — ko‘rgazmali materiallar, audio vositalar, kartochkalar, differensial mashqlar to‘plamining yetishmasligi ham samarali ishlashga to‘sqinlik qiladi. O‘qituvchining barcha o‘quvchilar uchun yagona metodni qo‘llashi natijasida disleksiyasi bor o‘quvchilar uchun o‘quv materiali qiyinlashadi, natijada o‘qish va yozishdagi xatolar takrorlanib boradi.Yana bir muhim muammo — sinfdagi psixologik muhit bilan bog‘liq bo‘lib, ayrim hollarda disleksiyasi bor o‘quvchilar o‘z tengdoshlaridan ortda qolganligi sababli o‘zini noqulay his qiladi, bu esa ularning o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli nafaqat metodik, balki psixologik qo‘llab-quvvatlash ham zarur hisoblanadi.Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, darslik va topshiriqlar tizimini differensiallashtirish, baholash mezonlarini moslashtirish hamda sinf sharoitida individual yondashuvni kuchaytirish orqali disleksiyasi bor o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish mumkin.

XULOSA

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, umumta’lim maktablarida ona tili darslarida disleksiyasi bor o‘quvchilar bilan ishlash amaliyoti hali yetarli darajada takomillashmagan va tizimli yondashuvni talab etadi. Mavjud vaziyatda ta’lim jarayoni asosan standart o‘quvchiga yo‘naltirilgan bo‘lib, disleksiyasi bor o‘quvchilarning individual ehtiyojlari to‘liq inobatga olinmayapti. Bu esa ularning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini sekinlashtiradi hamda o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi darajasi disleksiyasi bor o‘quvchilar bilan samarali ishlashda hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Ko‘plab o‘qituvchilarda nazariy bilimlar mavjud bo‘lsa-da, amaliy metodik ko‘nikmalar, ayniqsa, differensial va multisensor yondashuvni qo‘llash borasida yetishmovchiliklar mavjud. Shu bilan birga, darslik va topshiriqlar tizimi o‘quvchilarning individual farqlarini hisobga olishga yetarli darajada moslashtirilmaganligi, baholash mezonlarining esa umumiyligi muammoni yanada murakkablashtiradi.Sinf sharoitida uchraydigan asosiy

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

qiyinchiliklar — o‘quvchilar sonining ko‘pligi, vaqtning cheklanganligi, maxsus didaktik vositalarning yetishmasligi hamda psixologik muhit bilan bog‘liq omillar — differensial yondashuvni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada disleksiyasi bor o‘quvchilar o‘quv jarayonida ortda qolish xavfi ostida qolmoqda va ularning o‘quv motivatsiyasi pasaymoqda.Shu bois, mazkur muammoni hal etish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, maxsus trening va seminarlar tashkil etish, darslik va topshiriqlarni differensiallashtirish, baholash tizimini moslashtirish hamda inklyuziv ta’lim muhitini takomillashtirish zarur. Faqat shundagina disleksiyasi bor o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligi va o‘zlashtirish darajasini oshirish, ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Dehaene S. Reading in the Brain: The New Science of How We Read. — New York: Viking, 2009. — 384 p.
2. Shaywitz S. E. Overcoming Dyslexia: A New and Complete Science-Based Program for Reading Problems at Any Level. — New York: Alfred A. Knopf, 2003. — 432 p.
3. Snowling M. J. Dyslexia. — 2nd ed. — Oxford: Blackwell Publishing, 2000. — 272 p.
4. Lyon G. R., Shaywitz S. E., Shaywitz B. A. A definition of dyslexia // Annals of Dyslexia. — 2003. — Vol. 53. — P. 1–14.
5. Frith U. Beneath the Surface of Developmental Dyslexia // Surface Dyslexia: Neuropsychological and Cognitive Studies of Phonological Reading. — London: Lawrence Erlbaum Associates, 1985. — P. 301–330.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

SAVODXONLIKKA O‘RGATISHDA BOLALARNING TAYANCHKOMPETENSIYALARIGA INTEGRATSION YONDASHUVNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qoraboyeva Zohidaxon To‘lanboyevna, Namangan davlat pedagogik instituteMaktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Zokirjonova Laylo Barkamol qizi, Namangan davlat pedagogik institute 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada savodxonlikka o‘rgatish jarayonida bolalarning tayanch-kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan integratsion yondashuvning pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda savodxonlikni shakllantirish faqat harf, tovush va bo‘g‘inlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, balki bolalarning nutqiy, kommunikativ, bilish, ijtimoiy va mustaqil fikrlash kompetensiyalari bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanishi asoslab beriladi. Shuningdek, integratsion yondashuvning ta’lim jarayonidagi afzalliklari, bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish zarurati, motivatsion muhit yaratish hamda o‘yin, muloqot va amaliy faoliyat asosida o‘qitishning samaradorligi yoritiladi. Maqolada savodxonlikka o‘rgatishning pedagogik-psixologik mexanizmlari ochib berilib, tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda kompleks yondashuvning muhimligi asoslanadi.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — savodxonlikka o‘rgatishda integratsion yondashuvning pedagogik va psixologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda bolalarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda bolalar bilan olib borilgan kuzatuvlar, pedagogik tajribalar va psixologik tahlillar qo‘llanildi. Savodxonlikka oid darsliklar, ilmiy maqolalar va metodik qo‘llanmalar asos sifatida tanlandi. O‘yin, muloqot va amaliy faoliyat asosida o‘qitish metodlari sinovdan o‘tkazildi.

MUHOKOMA VA NATIJALAR: integratsion yondashuv qo‘llanilganda bolalarning nutqiy rivojlanishi, kommunikativ kompetensiyasi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi. O‘yin va muloqot asosidagi mashg‘ulotlar bolalarda motivatsiyani kuchaytirdi, bilish faoliyatini faollashtirdi va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirdi.

HULOSA: savodxonlikka o‘rgatishda integratsion yondashuv bolalarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu yondashuv ta’lim jarayonida bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, motivatsion muhit yaratish va kompleks rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, tayanch kompetensiya, integratsion yondashuv, pedagogik-psixologik xususiyatlar, nutqiy rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, bilish faoliyati, boshlang‘ich tayyorgarlik

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРАЦИОННОГО ПОДХОДА К БАЗОВЫМ КОМПЕТЕНЦИЯМ ДЕТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТНОСТИ

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Корабоева Зохидахон Туланбоевна, доцент кафедры «Дошкольное образование» Наманганского государственного педагогического института.
Зокирджонова Лайло Баркамол кизи, магистрант 2-го курса Наманганского государственного педагогического института.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются педагогические и психологические особенности интеграционного подхода к развитию базовых компетенций детей в процессе обучения грамотности. Обосновывается, что формирование грамотности не ограничивается усвоением букв, звуков и слогов, а осуществляется в тесной связи с развитием речевых, коммуникативных, познавательных, социальных и рефлексивных компетенций ребенка. Особое внимание уделяется преимуществам интеграционного подхода, необходимости учета возрастных и индивидуальных особенностей детей, созданию мотивационной образовательной среды, а также эффективности обучения на основе игры, общения и практической деятельности. В статье раскрываются педагогико-психологические механизмы обучения грамотности и подчеркивается значимость комплексного подхода в формировании базовых компетенций.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи — проанализировать педагогические и психологические особенности интегративного подхода в обучении грамоте и обосновать его значение в формировании базовых компетенций у детей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались наблюдения за детьми, педагогические эксперименты и психологический анализ. Основой послужили учебники по грамоте, научные статьи и методические пособия. Были протестированы методы обучения, основанные на игре, общении и практической деятельности.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: при применении интегративного подхода значительно улучшились речевое развитие, коммуникативная компетенция и навыки самостоятельного мышления детей. Занятия на основе игр и общения усилили мотивацию детей, активизировали познавательную деятельность и способствовали развитию социальной адаптивности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интегративный подход в обучении грамоте является эффективным средством формирования базовых компетенций у детей. Этот подход позволяет учитывать возрастные и индивидуальные особенности ребенка в процессе обучения, создавать мотивационную среду и обеспечивать комплексное развитие.

Ключевые слова: грамотность, базовые компетенции, интеграционный подход, педагогико-психологические особенности, речевое развитие, коммуникативная компетенция, познавательная деятельность, начальная подготовка.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO CHILDREN'S CORE COMPETENCIES IN LITERACY INSTRUCTION

Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Associate Professor of the Department of Preschool Education, Namangan State Pedagogical Institute.
Zokirjonova Laylo Barkamol qizi, 2nd-year Master's Student, Namangan State Pedagogical Institute.

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the pedagogical and psychological features of an integrative approach to developing children's core competencies in the process of literacy instruction. The study argues that literacy development should not be limited to the acquisition of letters, sounds, and syllables, but should be understood as a process closely connected with the formation of speech, communication, cognitive, social, and independent thinking competencies. Special attention is given to the advantages of the integrative approach, the need to consider children's age-related and individual characteristics, the creation of a motivating learning environment, and the effectiveness of teaching through play, interaction, and practical activity. The article reveals the pedagogical and psychological mechanisms of literacy instruction and highlights the importance of a comprehensive approach in developing core competencies.

AIM: the main objective of the article is to analyze the pedagogical and psychological characteristics of the integrative approach in teaching literacy and to substantiate its importance in forming basic competencies in children.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized observations of children, pedagogical experiments, and psychological analysis. Literacy textbooks, scientific articles, and methodological manuals served as the foundation. Teaching methods based on play, communication, and practical activities were tested.

RESULTS AND DISCUSSION: the results showed that when the integrative approach was applied, children's language development, communicative competence, and independent thinking skills significantly increased. Play- and communication-based activities strengthened motivation, activated cognitive functions, and developed social adaptability in children.

CONCLUSION: the integrative approach in teaching literacy is an effective tool for shaping the basic competencies of children. This approach serves to take into account the child's age and individual characteristics within the educational process, create a motivational environment, and ensure comprehensive development.

Keywords: literacy, core competencies, integrative approach, pedagogical and psychological features, speech development, communicative competence, cognitive activity, initial preparation

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Zamonaviy ta’lim tizimida savodxonlikka o‘rgatish jarayoni nafaqat o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish, balki bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi kompleks pedagogik jarayon sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida savodxonlikni egallash bolalarning keyingi ta’lim muvaffaqiyatining muhim omili bo‘lib, bu jarayon ularning nutqiy, bilish, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanishini talab etadi. Shu sababli, savodxonlikka o‘rgatishda an’anaviy yondashuvdan farqli ravishda integratsion yondashuvni qo‘llash dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi bolalarning tayanch-kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishni talab etmoqda. Tayanch kompetensiyalar — bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlar tizimi bo‘lib, ular savodxonlikka o‘rgatish jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy natijaviy ko‘rsatkich hisoblanadi. Biroq amaliyotda savodxonlikka o‘rgatish ko‘pincha faqat texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bilan cheklanib, bolalarning umumiy rivojlanishiga yetarli darajada integratsiyalashmagan holda olib borilmoqda.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan qaraganda, savodxonlikka o‘rgatish jarayoni bolaning yosh xususiyatlari, individual rivojlanish darajasi, motivatsiyasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina samarali bo‘ladi. Ayniqsa, o‘yin faoliyati, muloqot va amaliy tajribaga asoslangan metodlar bolalarda o‘qish va yozishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, integratsion yondashuv orqali turli fanlar va faoliyat turlarini uyg‘unlashtirish bolalarning bilish jarayonlarini faollashtiradi hamda tayanch-kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, savodxonlikka o‘rgatishda bolalarning tayanch-kompetensiyalarini integratsion asosda rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois, ushbu maqolada savodxonlikka o‘rgatishda integratsion yondashuvning mohiyati, uning pedagogik va psixologik xususiyatlari hamda tayanch-kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Savodxonlikka o‘rgatish jarayonini bolalarning tayanch-kompetensiyalari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, savodxonlikni shakllantirish faqat texnik ko‘nikmalarni egallash emas, balki bolaning umumiy kognitiv, nutqiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishi bilan bog‘liq ilmiy qarashlar orasida Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi alohida o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, maktabgacha va boshlang‘ich yoshdagi bolalar konkret-operatsion tafakkur bosqichida bo‘lib, ular

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

bilimlarni bevosita tajriba va faoliyat orqali egallaydi. Bu esa savodxonlikka o‘rgatishda o‘yin, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan integrativ yondashuvning zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasida esa bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida yuz berishi ta’kidlanadi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi savodxonlikka o‘rgatishda o‘qituvchi va tengdoshlar bilan hamkorlikning muhimligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv integratsion ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asosini tashkil etadi.Savodxonlikni shakllantirish metodikasida Maria Montessorining ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Montessori tizimida bola markaziy subyekt sifatida qaralib, uning mustaqil faoliyati va qiziqishlariga asoslangan holda o‘qitish tavsiya etiladi. Bu yondashuv savodxonlikka o‘rgatishda individual yondashuvni kuchaytirish va tayanch-kompetensiyalarni tabiiy rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim nazariyalarida kompetensiyaviy yondashuv masalalari Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan lingvistik kompetensiya tushunchasi bilan ham bog‘liq holda talqin etiladi. Uning fikricha, tilni egallash insonning ichki qobiliyatlari va tashqi ta’sirlar o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Bu esa savodxonlikni rivojlantirish jarayonida nutqiy kompetensiyaning markaziy o‘rin tutishini ko‘rsatadi.Shuningdek, ta’lim jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan John Deweyning ilmiy qarashlari ham muhim hisoblanadi. Dewey ta’limni hayot bilan bog‘liq faol jarayon sifatida talqin etib, o‘quvchilarning tajriba orqali o‘rganishini ustuvor deb hisoblaydi. Bu esa integratsion yondashuv orqali savodxonlikka o‘rgatishda amaliy faoliyatning muhimligini asoslaydi.O‘zbekiston pedagogikasida ham savodxonlikka o‘rgatish va nutqiy rivojlanish masalalari chuqur o‘rganilgan. Xususan, Abdulla Avloni o‘z asarlarida til va nutqni rivojlantirishni shaxs tarbiyasining asosiy omillaridan biri sifatida baholaydi. U savodxonlikni nafaqat bilim, balki madaniyat va axloqiy tarbiyaning muhim ko‘rsatkichi sifatida talqin etadi.So‘nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, savodxonlikka o‘rgatishda integratsion yondashuv orqali bolalarning tayanch-kompetensiyalarini rivojlantirish yanada samarali natijalar beradi. Bunda nutqiy, kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Shu bilan birga, o‘yin texnologiyalari, interfaol metodlar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, savodxonlikka o‘rgatishda integratsion yondashuv bolalarning tayanch-kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib, u pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan tizimli yondashuvni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda savodxonlikka o‘rgatish jarayonida bolalarning tayanch-kompetensiyalarini integratsion yondashuv asosida rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda jami 84 nafar maktabgacha va boshlang‘ich ta’limga tayyorlov bosqichidagi bolalar ishtirok etib, ular teng ravishda tajriba (42 nafar) va nazorat (42 nafar) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida savodxonlikka o‘rgatish integratsion yondashuv asosida, ya’ni nutqiy rivojlanish,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

kommunikativ faoliyat, o‘yin texnologiyalari va bilish jarayonlari uyg‘unligida tashkil etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy metodlar qo‘llanildi.

Tadqiqot davomida bolalarning tayanch-kompetensiyalari quyidagi mezonlar asosida baholandi: o‘qish va yozish ko‘nikmalari, nutqiy ifoda aniqligi, kommunikativ faollik, mustaqil fikrlash darajasi va bilish faoliyati. Mazkur mezonlar asosida bolalar uch darajaga ajratildi: past (reproduktiv), o‘rta (qisman mustaqil) va yuqori (ijodiy).

Boshlang‘ich diagnostika natijalari har ikkala guruhda deyarli bir xil ko‘rsatkichlarni namoyon etdi, bu esa tajriba sharoitlarining tengligini tasdiqlaydi. Tajriba yakunida esa sezilarli ijobiy o‘zgarishlar aynan integratsion yondashuv qo‘llanilgan tajriba guruhida kuzatildi. Xususan, tajriba guruhida yuqori darajadagi bolalar ulushi 19 foizdan 46 foizgacha oshdi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 21 foizdan 30 foizgacha yetdi. Past darajadagi bolalar ulushi tajriba guruhida 41 foizdan 14 foizgacha kamaygan bo‘lsa, nazorat guruhida 39 foizdan 27 foizgacha qisqardi.Quyidagi jadvalda olingan natijalar umumlashtirilgan:

Jadval 1.

Ko‘rsatkich darajasi	**Tajriba guruhi (boshlang‘ich)**	**Tajriba guruhi (yakuniy)**	**Nazorat guruhi (boshlang‘ich)**	**Nazorat guruhi (yakuniy)**
Past	41%	14%	39%	27%
O‘rta	40%	40%	40%	43%
Yuqori	19%	46%	21%	30%

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan savodxonlikka o‘rgatish jarayoni bolalarning tayanch-kompetensiyalarini rivojlantirishda an’anaviy yondashuvga nisbatan sezilarli darajada samaraliroqdir. Ayniqsa, o‘yin asosidagi metodlar, muloqotli vaziyatlar yaratish, muammoli topshiriqlar va faoliyatga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bolalarda o‘qish va yozishga nisbatan qiziqishni oshirdi, ularning nutqiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi.Muhokama jarayonida aniqlanishicha, savodxonlikka o‘rgatishda faqat texnik ko‘nikmalarga e’tibor qaratish yetarli emas, balki uni bolalarning umumiy rivojlanishi bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish zarur. Integratsion yondashuv orqali turli faoliyat turlarining uyg‘unligi bolalarning bilimlarni chuqurroq anglashiga, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogning metodik tayyorgarligi, individual yondashuvi va o‘quv muhitining motivatsion xususiyatlari jarayon samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.Umuman olganda, tadqiqot natijalari ilgari surilgan gipotezani tasdiqlab, savodxonlikka o‘rgatishda bolalarning tayanch-kompetensiyalariga integratsion yondashuvni qo‘llash pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan, samarali va istiqbolli yo‘nalish ekanligini ko‘rsatdi.

Mazkur tadqiqot natijalari savodxonlikka o‘rgatish jarayonida bolalarning tayanch-kompetensiyalarini integratsion yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan hamda samarali yo‘nalish ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, savodxonlikni shakllantirish faqat o‘qish va yozish texnikasini egallash bilan cheklanmasdan, balki nutqiy, kommunikativ, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalar

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirilgandagina kutilgan natijaga erishiladi.Tadqiqot davomida qo‘llanilgan integratsion yondashuv — o‘yin faoliyati, muloqot, amaliy mashg‘ulotlar va muammoli vaziyatlar uyg‘unligida tashkil etilgan ta’lim jarayoni — bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda nutqiy faolligini kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, ta’lim mazmunining turli faoliyat turlari bilan integratsiyalashuvi bolalarda bilimlarni chuqurroq anglash va ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon berdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogik jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, motivatsion ta’lim muhitini yaratish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish savodxonlikka o‘rgatish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Umuman olganda, savodxonlikka o‘rgatishda bolalarning tayanch-kompetensiyalarini integratsion yondashuv asosida rivojlantirish uzluksiz, tizimli va kompleks pedagogik jarayon bo‘lib, u ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi hamda bolalarning keyingi ta’lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jean Piaget. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 2000. – 173 p.
2. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
3. Maria Montessori. The Absorbent Mind. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1967. – 297 p.
4. John Dewey. Experience and Education. – New York: Macmillan,1938.–91 p.
5. Noam Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 251 p.
6. David Elkind. The Power of Play: Learning What Comes Naturally. – Cambridge, MA: Da Capo Press, 2007. – 240 p.
7. Urie Bronfenbrenner. The Ecology of Human Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
8. UNESCO. Education for All Global Monitoring Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 499 p.
9. World Health Organization. Early Child Development and Health. – Geneva: WHO, 2012. – 76 p.
10. Abdulla Avloni. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING PROFESSIONAL KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA MALAKAVIY AMALIYOTNING ROLI

Aliyev Islambek Tursinbayevich, Renessans ta’lim universiteti Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tayyorgarlikni ham talab etadi. Globallashuv sharoitida talabalarning kasbiy faoliyatga moslashishi va professional ko‘nikmalarini shakllantirishda malakaviy amaliyot eng muhim pedagogik vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

MAQSAD: maqolaning maqsadi bo‘lajak mutaxassislarning professional ko‘nikmalarini rivojlantirishda malakaviy amaliyotning tutgan o‘rnini tahlil qilish, ushbu jarayonning samaradorligini oshiruvchi omillarni aniqlash va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda D. Kolbning tajribaviy o‘rganish, D. Shyonning reflektiv amaliyot hamda J. Erpenbek va V. Heysening kompetensiyaviy yondashuv nazariyalari metodologik asos qilib olindi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili, tizimli yondashuv va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

MUHOKOMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaliyot davomida talabalarda kasbiy tafakkur, muloqot madaniyati va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari integratsiyalashgan holda rivojlanadi. Malakaviy amaliyot nazariya va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlab, talabaning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishi aniqlandi.

HULOSA: malakaviy amaliyot bo‘lajak mutaxassislarni mehnat bozoriga tayyorlashning strategik bo‘g‘ini hisoblanadi. Uning samaradorligini oshirish uchun ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligini kuchaytirish hamda amaliyot dasturlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Kalit so‘zlar: malakaviy amaliyot, professional ko‘nikma, bo‘lajak mutaxassis, kasbiy kompetensiya, amaliy tayyorgarlik, oliy ta’lim, kasbiy rivojlanish, mehnat bozori

РОЛЬ КВАЛИФИКАЦИОННОЙ ПРАКТИКИ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Алиев Исламбек Турсинбаевич, кандидат педагогических наук, доцент Университета образования «Ренессанс» (Renessans ta’lim universiteti).

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в современной системе образования подготовка конкурентоспособных кадров требует не только теоретических знаний, но и практической готовности. В условиях глобализации квалификационная практика выступает важнейшим педагогическим инструментом формирования профессиональных навыков и адаптации студентов к реальной деятельности.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

ЦЕЛЬ: целью статьи является анализ роли квалификационной практики в развитии профессиональных навыков будущих специалистов, выявление факторов, обеспечивающих её эффективность, и разработка научно обоснованных рекомендаций по совершенствованию этого процесса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: методологической основой исследования послужили теория эмпирического обучения Д. Колба, концепция рефлексивной практики Д. Шёна и компетентностный подход И. Эрпенбека и В. Хайзе. Использовались методы анализа научной литературы, системного подхода и педагогического наблюдения.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты исследования показывают, что в процессе практики у студентов комплексно развиваются профессиональное мышление, культура общения и навыки решения проблемных ситуаций. Установлено, что практика обеспечивает связь между теорией и производством, способствуя профессиональной идентификации студента.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: квалификационная практика является стратегическим звеном подготовки специалистов к рынку труда. Для повышения её эффективности необходимо укреплять партнерство между образованием и производством, а также внедрять инновационные подходы в программы практики.

Ключевые слова: квалификационная практика, профессиональные навыки, будущий специалист, профессиональная компетенция, практическая подготовка, высшее образование, профессиональное развитие, рынок труда

THE ROLE OF QUALIFICATION PRACTICE IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE SPECIALISTS

Soliyeva Moxigul Madaminxon qizi, Teacher at the "Ideal ta'lim-tarbiya" Private School

Annotation

INTRODUCTION: in the modern education system, training competitive specialists requires not only theoretical knowledge but also practical readiness. In the context of globalization, internship serves as one of the most important pedagogical tools for developing professional skills and adapting students to professional activities.

AIM: the objective of the article is to analyze the role of professional internship in developing the professional skills of future specialists, identify factors that ensure its effectiveness, and develop scientifically grounded conclusions for improving this process.

MATERIALS AND METHODS: the research is based on D. Kolb's experiential learning theory, D. Schön's reflective practice concept, and the competency-based approach of J. Erpenbeck and V. Heyse. Methods of scientific literature analysis, systematic approach, and pedagogical observation were utilized.

RESULTS AND DISCUSSION: the results indicate that during the internship, students develop professional thinking, communication culture, and problem-solving skills in an integrated manner. It was found that internship ensures the continuity between theory and industry, facilitating the student's professional identification.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

CONCLUSION: professional internship is a strategic link in preparing future specialists for the labor market. To increase its effectiveness, it is essential to strengthen the partnership between education and industry and to implement innovative pedagogical approaches in internship programs.

Keywords: qualification practice, professional skills, future specialist, professional competence, practical training, higher education, professional development, labor market

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini ham ta’minlashni talab etadi. Globallashuv jarayonlari, texnologik taraqqiyot va mehnat bozori talablarining keskin o‘zgarishi natijasida oliy ta’lim muassasalari oldida raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va kasbiy faoliyatga tez moslasha oladigan kadrlarni tayyorlash vazifasi dolzarb masalaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, talabalarning professional ko‘nikmalarini shakllantirishda malakaviy amaliyot muhim pedagogik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy amaliyot – bu talabalarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha nazariy bilimlarini real ish jarayonida qo‘llash, kasbiy tajriba orttirish hamda amaliy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. U o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Amaliyot jarayonida talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ishlab chiqarish muhitiga moslashadi, jamoada ishlash, muloqot qilish, qaror qabul qilish va mas’uliyatni his etish kabi muhim kasbiy sifatlarni egallaydi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq amaliyot jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan uning tashkil etilish darajasi, o‘quv dasturlari bilan uyg‘unligi hamda ishlab chiqarish bilan hamkorlikning sifatiga bog‘liq. Shu sababli malakaviy amaliyotning pedagogik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish, uning professional ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rnini ilmiy asoslash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi – bo‘lajak mutaxassislarning professional ko‘nikmalarini rivojlantirishda malakaviy amaliyotning rolini tahlil qilish, uning samaradorligini ta’minlovchi omillarni aniqlash va ushbu jarayonni takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bo‘lajak mutaxassislarning professional ko‘nikmalarini rivojlantirishda malakaviy amaliyotning o‘rni ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu yo‘nalishda ayniqsa tajribaviy o‘rganish (experiential learning), reflektiv ta’lim va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish nazariyalari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Avvalo, David A. Kolb tomonidan ishlab chiqilgan tajribaviy o‘rganish nazariyasi malakaviy amaliyotning mohiyatini tushuntirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Uning “Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development” asarida bilimlar aynan tajriba orqali shakllanishi, o‘rganish jarayoni esa “tajriba – refleksiya – konseptualizatsiya – amaliy qo‘llash” sikli asosida kechishi ilmiy jihatdan asoslangan. Bu yondashuv malakaviy amaliyot jarayonida talabaning faol ishtiroki va mustaqil tajriba orttirishining muhimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Donald A. Schönning reflektiv amaliyot konsepsiyasi ham mazkur mavzuda muhim o‘rin tutadi. U o‘zining “The Reflective Practitioner” asarida mutaxassisning kasbiy rivoji doimiy tahlil va o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalar real vaziyatlarni tahlil qilish, xatolardan saboq olish va o‘z faoliyatini baholash orqali professional kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Professional kompetensiyalarni shakllantirish nazariyasi esa John Erpenbeck va Volker Heyse tomonidan ishlab chiqilgan. Ular kompetensiyani faqat bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyati sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv malakaviy amaliyotning talabalarda kasbiy mustaqillik va mas’uliyatni shakllantirishdagi rolini asoslab beradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, malakaviy amaliyot professional ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng samarali shakllaridan biri bo‘lib, u nazariy bilimlarni real faoliyat bilan integratsiyalash, reflektiv tafakkurni rivojlantirish va kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu nazariyalar asosida malakaviy amaliyotni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Malakaviy amaliyot oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlovchi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, u nazariy bilimlarni real faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Uning mazmuni talabaning o‘z mutaxassisligi doirasida amaliy faoliyatni bevosita bajarishi, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida ishtirok etishi, kasbiy muhitni o‘rganishi hamda nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llashi bilan belgilanadi. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalar kasbiy faoliyatning real sharoitlari, texnologiyalari, tashkil etilish tizimi va mehnat munosabatlari bilan yaqindan tanishadi, bu esa ularning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Malakaviy amaliyotning asosiy vazifalari bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ikkinchidan, talabalarda mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechimlar topish qobiliyatini shakllantiradi. Uchinchidan, kasbiy kommunikatsiya, jamoada ishlash, mas’uliyat va intizom kabi muhim shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularning kasbiy moslashuvini tezlashtirish va ish

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

faoliyatiga kirishish jarayonini yengillashtirish malakaviy amaliyotning muhim vazifalaridan biridir.

Pedagogik nuqtai nazardan, malakaviy amaliyot keng imkoniyatlarga ega. Eng avvalo, u ta'lim jarayonini amaliy yo'naltirish orqali bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni integratsiyalash imkonini beradi. Bu jarayonda talaba passiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllanadi. Shuningdek, malakaviy amaliyot reflektiv o'rganish imkonini yaratadi, ya'ni talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni tuzatish orqali o'z kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, amaliyot individual yondashuvni amalga oshirish, ya'ni har bir talabaning qobiliyati, qiziqishi va tayyorgarlik darajasiga mos vazifalarni berish imkonini yaratadi.

Yana bir muhim pedagogik imkoniyat – bu ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlashdir. Malakaviy amaliyot orqali oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida hamkorlik kuchayadi, bu esa ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilashga xizmat qiladi. Natijada, talabalarning kasbiy kompetensiyalari real mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda shakllanadi.

Umuman olganda, malakaviy amaliyot bo'lajak mutaxassislarning professional rivojlanishida muhim pedagogik vosita bo'lib, ularning nazariy tayyorgarligini amaliy faoliyat bilan boyitadi, kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi va ularni raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Malakaviy amaliyot jarayonida talabalar faqat nazariy bilimlarini qo'llabgina qolmay, balki real kasbiy muhitda faol ishtirok etish orqali muhim professional ko'nikmalarni bosqichma-bosqich egallaydi. Ushbu jarayonda kasbiy tafakkur, muloqot madaniyati, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda jamoada ishlash kabi ko'nikmalar maxsus pedagogik mexanizmlar asosida shakllanadi.

Avvalo, **kasbiy tafakkur** talabaning real ish jarayonidagi faol ishtiroki orqali rivojlanadi. Talaba ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish muhitida aniq vazifalarni bajarish jarayonida nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlar bilan bog'laydi, sabab-oqibat aloqalarini anglaydi va kasbiy qarorlar qabul qilishni o'rganadi. Bu jarayon reflektiv yondashuv orqali mustahkamlanadi, ya'ni talaba o'z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini aniqlaydi va keyingi faoliyatida ularni hisobga oladi. Natijada analitik va tanqidiy fikrlash shakllanadi.

Muloqot madaniyati esa amaliyot davomida turli subyektlar – ustozlar, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan o'zaro aloqaga kirishish orqali rivojlanadi. Talaba professional muhitda rasmiy nutqdan foydalanish, fikrni aniq va lo'nda ifodalash, tinglash va savol berish madaniyatini egallaydi. Bu jarayon ijtimoiylashuv mexanizmi asosida kechib, talabaning kommunikativ kompetensiyasini oshiradi.

Muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmasi amaliy faoliyatning ajralmas qismi sifatida shakllanadi. Talabalar real ish jarayonida turli murakkab vaziyatlarga duch keladi va ularni hal qilish uchun mustaqil yoki jamoa bilan birgalikda qarorlar qabul qiladi. Bu jarayonda muammoni aniqlash, tahlil qilish, variantlarni baholash va optimal yechimni tanlash bosqichlari amalga oshiriladi. Aynan shu mexanizm orqali talabalarda kreativ va moslashuvchan fikrlash rivojlanadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Jamoada ishlash ko‘nikmalari esa hamkorlik faoliyati orqali shakllanadi. Talabalar guruhli topshiriqlarni bajarish, vazifalarni taqsimlash, o‘zaro yordam ko‘rsatish va umumiy natija uchun mas’uliyatni his etish jarayonida ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Bu jarayon kollektiv faoliyat mexanizmi asosida kechib, liderlik, muvofiqlashtirish va nizolarni hal etish kabi muhim sifatlarni shakllantiradi.Umuman olganda, malakaviy amaliyot jarayonida yuqoridagi ko‘nikmalar integratsiyalashgan holda rivojlanadi. Ya’ni talaba bir vaqtning o‘zida fikrlaydi, muloqot qiladi, muammolarni hal etadi va jamoada faoliyat yuritadi. Bu esa uning kompleks professional kompetensiyasini shakllantirib, kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlaydi.

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak mutaxassislarning professional ko‘nikmalarini rivojlantirishda malakaviy amaliyotning o‘rni kompleks tarzda tahlil qilindi va uning pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, malakaviy amaliyot oliy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u talabalarning nazariy bilimlarini real kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, ularni mehnat bozori talablariga moslashtirish hamda professional kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Tadqiqot natijalariga ko‘ra, malakaviy amaliyot jarayonida talabalar kasbiy tafakkur, muloqot madaniyati, muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoada ishlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim ko‘nikmalarni egallaydi. Ushbu ko‘nikmalar maxsus pedagogik mexanizmlar – tajribaviy o‘rganish, refleksiya, ijtimoiylashuv va hamkorlik faoliyati orqali shakllanadi. Bu esa talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlaydi.Shuningdek, malakaviy amaliyotning samaradorligi uning to‘g‘ri tashkil etilishi, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy hamkorlik, o‘qituvchilarning metodik yondashuvi hamda amaliyot dasturlarining zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilishiga bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Shu bois, malakaviy amaliyotni takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va individual yondashuvni kuchaytirish muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, malakaviy amaliyot bo‘lajak mutaxassislarni raqobatbardosh, amaliy jihatdan tayyor va kasbiy faoliyatga moslashuvchan kadr sifatida shakllantirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish esa zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
2. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
3. Eraut M. Developing Professional Knowledge and Competence. – London: Falmer Press, 1994. – 231 p.
4. Billett S. Learning Through Practice: Models, Traditions, Orientations and Approaches. – Dordrecht: Springer, 2010. – 264 p.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

5. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA NAZIRA AN’ANALARI (“UFORI SEGOH” ASHULASI MISOLIDA)

Djumaniyazov Umrbek Maxsudovich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti v.b.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada “bastakor” atamasining kelib chiqishi, Xorazm bastakorlik maktabi haqida hamda hofiz, bastakor Azamat Otajonov ijod qilgan “Ufori Segoh” ashulasining tahlili keng yoritib berilgan.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — “bastakor” atamasining kelib chiqishini izohlash, Xorazm bastakorlik maktabining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish hamda Azamat Otajonov ijodidagi “Ufori Segoh” ashulasini ilmiy tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda bastakorlik san’atiga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, seminar materiallari va musiqiy asarlar tahlil qilindi. Metod sifatida tarixiy-musikashunoslik tahlili, taqqoslash va amaliy seminar kuzatuvlari qo‘llanildi.

MUHOKOMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Xorazm bastakorlik maktabi o‘zining naziralar, Qalabandi va Rok turkumlari bilan ajralib turadi. Azamat Otajonovning “Ufori Segoh” ashulasi bastakorlik an’analarini zamonaviy ijro bilan uyg‘unlashtirgan holda, musiqiy merosni boyitishga xizmat qilmoqda.

HULOSA: bastakorlik san’ati o‘zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, Xorazm bastakorlik maktabi va Azamat Otajonov ijodi milliy musiqiy merosni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. “Ufori Segoh” ashulasining tahlili bastakorlik san’atining ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bastakor, Xorazm bastakorlik maktabi, naziralar, Qalabandi turkumi, Rok turkumi, ilmiy-amaliy seminar, Ufori Segoh.

ТРАДИЦИИ НАЗИРА В УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ ПЕСНИ «УФОРИ СЕГОХ»)

Джуманиязов Умрбек Махсудович, и.о. доцента Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье подробно освещается происхождение термина "бастакор," хорезмская школа композиции, а также анализ песни "Ufori Segoh," созданной хафизом и композитором Азаматом Отажоновым.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи — разъяснение происхождения термина «бастакор», раскрытие уникальных особенностей хорезмской школы бастакоров, а также научный анализ песни «Уфори Сегох» в творчестве Азамата Отажонова.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были проанализированы научные статьи, монографии, материалы семинаров и музыкальные произведения, посвященные искусству бастакоров. В качестве методов использовались

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

историкомузыковедческий анализ, сравнение и наблюдения в ходе практических семинаров.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: анализ показал, что хорезмская школа бастакоров выделяется своими традициями назира (музыкальных ответов), а также циклами «Калабанди» и «Рок». Песня Азамата Отажонова «Уфори Сегох», сочетая традиции классического сочинительства с современным исполнением, служит обогащению музыкального наследия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: искусство бастакоров является неотъемлемой частью узбекской музыкальной культуры; хорезмская школа и творчество Азамата Отажонова имеют важное значение в развитии национального музыкального наследия. Анализ песни «Уфори Сегох» подтверждает необходимость глубокого научного и практического изучения искусства бастакоров.

Ключевые слова: композитор, Хорезмская композиторская школа, назиры, цикл Калабанди, цикл Рок, научно-практический семинар, Уфори Сегох.

TRADITIONS OF NAZIRA IN UZBEK CLASSICAL MUSIC (ON THE EXAMPLE OF THE SONG "UFORI SEGOH")

Djumaniyazov Umrbek Maxsudovich, Acting Associate Professor at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy.

Annotation

INTRODUCTION: this article provides an extensive overview of the origin of the term "bastakor," the Khorezm school of composition, and an analysis of the song "Ufori Segoh" created by the hafiz and composer Azamat Otajonov.

AIM: the main objective of the article is to explain the origin of the term "bastakor," to demonstrate the unique characteristics of the Khorezm school of traditional composition, and to provide a scientific analysis of the song "Ufori Segoh" in the creative work of Azamat Otajonov.

MATERIALS AND METHODS: the research involved an analysis of scientific articles, monographs, seminar materials, and musical works related to the art of traditional composition. Historical-musicological analysis, comparison, and practical seminar observations were employed as research methods.

RESULTS AND DISCUSSION: the analysis revealed that the Khorezm school of traditional composition is distinguished by its traditions of nazira (musical responses) and the Qalabandi and Rok cycles. Azamat Otajonov's song "Ufori Segoh" enriches the musical heritage by harmonizing traditional compositional methods with modern performance.

CONCLUSION: the art of traditional composition is an integral part of Uzbek musical culture, where the Khorezm school and the works of Azamat Otajonov hold significant importance in developing national musical heritage. The analysis of "Ufori Segoh" underscores the necessity for both scientific and practical study of the bastakor art.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Keywords: composer, Khorezm school of composition, nazira, Kalabandi cycle, Rock cycle, scientific-practical seminar, Ufori Segoh.

Bastakor (fors— bog‘lash, bog‘lov, mashg‘ulot, ish) — an’anaviy, mumtoz musiqa asarlari muallifi. Musulmon Sharqida musannif, mullahhin, ohangsoz kabi atamalar bilan tanilgan. Odatda bunday san’atkorlar o‘z faoliyatida ijrochi (xonanda, ko‘proq sozanda)lik va ijodchilikni uzviy bog‘lashgan. Abu Nasr Forobiydan boshlab Darvishali Changiy va boshqalarning musiqiy risolalari, Abulfaraj Isfahoniy (“Kitob ulag‘oni”), Aruziy Samarqandiy (“Chohor maqola”), Alisher Navoiy (“Majolis un nafois”, “Holoti Pahlavon Muhammad”), Davlatshoh Samarqandiy (“Tazkirat ush-shuaro”), Zayniddin Vosifiy (“Badoye’ ul-vaqoye”), Zahiriddin Bobur (“Boburnoma”) va boshqalarning asarlarida o‘nlab bastakorlar haqida tarixiy, ta’rifiy ma’lumotlar mavjud. Ular, garchand bastakor atamasidan bevosita foydalanishmasada, uning asl ma’nosini ochib berishgan. Og‘zaki an’anadagi musiqiy ijod sohiblari turli davr va mamlakatlar musiqa ilmi va amaliyotida turlicha nomlanib kelingan. O‘zbek va tojiklar bastakor (shuningdek, ohangdon, navosoz va b.), ozarbayjon, arman va turklar — oshiq, qozoq va qirg‘izlar — oqin, kyuyshi, salsere kabi atamalar ishlatishadi [1, 138-139 b.].

Maqom ijrochiligida naziralar maqom shu’balaridan ilhomlanib yaratilgan lekin, turkumlilik hosil qilmagan ashulalardan farq qiladi. Naziralar ham maqomlardan ilhomlanib yaratiladi ammo, nazira o‘ziga asos bo‘lgan maqom shu’basiga o‘xshatib, kuy tuzilish qonuniyatlari ham maqomga monand, turkum tarzida, va ta’bir joiz bo‘lsa, maqomga tenglasha oladigan darajada ijod etiladi. Naziralar maqomlardan ilhomlanib yaratilgan boshqa bastakorlik namunalaridan eng avvalo, turkumlilik jihati bilan ajralib turadi. Soddaroq qilib aytganda, naziralar — maqom va undan ilhomlanib bastalangan ashula orasidagi ya’ni, salkam maqom darajasidagi asarlardir. Nazira so‘zi arabcha “o‘xshash” degan ma’noni bildirib, mumtoz adabiyotda “o‘xshatma” tarzida yoziladigan she’riy janrdir. Fors-tojik adabiyotida uni “tatabbu’” (izidan borish) deb atashadi [2, 476-477 b.].

Bugungi kunda hofiz va bastakorlar ijodiy faoliyati davomida maqom yo‘llarida asar yozishga katta e’tibor qaratmoqda. Maqomlar yo‘lida asar bastalash uchun bastakordan maqom an’analarini to‘la to‘kis bilish, uning qonuniyatlari va o‘z navbatida namudlar masalasi va maqom ladlarining nazariy asoslariga tayanish talab etiladi. Bu esa musiqiy bilimga ega bo‘lmagan insonning qo‘lidan kelmaydi, albatta.

Bunday ijod namunalarga O‘zbekiston xalq hofizlari Fattahxon Mamadaliyevning “Savti Fattahxon”, Mahmudjon Tojiboyevning Ushshoq maqomiga “nazira” sifatida bastalangan “Saraxbori Ushshoq” ashulasini, Erkin Ro‘zimatovning “Segoh”, professor Matnazar Xudoynazarovning “Chorgoh”, Bozorboy O‘rinovning “Rok” va “Qalabandi” turkumlarini misol qilib keltirish mumkin.

Xorazm bastakorlik maktabi o‘zining qadimiyligi bilan ajralib turadi. Xorazm vohasidan Qurbonnazir Abdullayev (Bola baxshi), Komiljon Otaniyozov, Ortiq Otajonov,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

Bozorboy O‘rinov, Qadamboy Raximov, Rahmatjon Qurbonov, Azamat Otajonov, Ochilbek Matchonov kabi ijrochi-bastakorlar yetishib chiqqan.

O‘zbek milliy maqom san’ati markazi, Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi, Xorazm namunali maqom ansambli, Urganch davlat universiteti san’atshunoslik fakulteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilari ishtirokida 2021-yil fevral va may oylarida Urganch shahrida “Xorazm maqomlarining zamonaviy yozuvlarini shakllantirish” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy seminari o‘tkazildi. Seminarga O‘zbek milliy maqom san’ati markazi bosh direktori s.f.n. prof. S. Begmatov raislik qildi [3, 23-24 b.]. Uzoq yillardan beri Xorazm Segoh maqomining Ufor qismi unitilgan bo‘lib, uning o‘rniga “Sadri gusfand” ashulasi qo‘yib aytilib kelinayotgan edi. Ushbu seminarda ustoz maqomdon, “Shuhrat” medali sohibi Azamat Otajonov bastalagan “Ufori Segoh” ashulasi seminar ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan ma’qullandi. Ufori Segohni tahlil etishdan avval “Segoh” haqidagi umumiy tushunchalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Segoh atamasi ko‘pchilik Sharq xalqlari musiqasida juda qadim zamonlardan beri turli ma’nolarda qo‘llanilgan. Segoh “o‘n ikki maqom” dagi maqomlarning uchinchi pardasidan boshlanib ijro etiladigan kuy va ashulalar namunasi bo‘lib, “uch o‘rin” ma’nosini bildiradi. Xorazm Urfiy Segoh maqomi tarkibida Segoh, Hijoz, Xoro, Ajam lad tuzilmalari mavjud. Tanbur chizg‘ilarida yozilgan Olti yarim maqom va Urfiy maqom tarkibida to‘rtala lad tuzilmalari saqlangan. Segoh maqomining tovushqatori doriy va eoliy ladiga mos pardalarda ijro etilib, uning oltinchi pog‘onasi vaqti-vaqti bilan yarim parda atrofida past yoki balandga chiqib o‘zgarib turadi.

Ma’lumki, maqom muayyan pardalardan tashkil topgan musiqiy asardir. Shunday ekan, mamlakatimizdagi uch voha maqomlarining Segoh pardalari ham deyarli bir xil tuzilgan. Faqat ulardagi kuy yo‘llari, she’r matni va ba’zi musiqiy ko‘rinishlari bir-biridan farq qiladi [4, 30-31 b.].

“Ufori Segoh” ashulasi shoir Boborahim Mashrab g‘azaliga bastalangan. Ushbu ashula Segoh maqomi ohanglari asosida ijod qilingan bo‘lib, ufar doira usulida ijro etiladi. Ashulaning birinchi va ikkinchi xat (birinchi, ikkinchi baytlar) lari — daromad, uchinchi xat (uchinchi bayt) — miyonxat , to‘rtinchi xat — dunasr, beshinchi va oltinchi xatlar — avj qismi hisoblanib, Navo va Oraz namudlari bilan sug‘orilgan. So‘ngra ashula furovard — tushurim qismi bilan yakunlanadi. “Ufori Segoh” ashulasi ilk marotaba Urganch ixtisoslashtirilgan maqom san’ati maktab-internatining “Feruz” ansambli tomonidan yozib olingan bo‘lsa, keyinchalik Xorazm namunali maqom ansambli ijrosida ham o‘zgacha jarang sochdi. Hozirda Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy maqom san’ati instituti hamda Urganch davlat universiteti talabalar ansambllarining repertuaridan o‘rin olib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. I jild: Bastakor. – T., 2000 y.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

2. O‘zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamidagi D. Toshaliyevning “Saraxbori Ushshoq” maqolasi T., 2023 y.
3. S. Begmatov, R. Boltayev, B. Raximov “Xorazm urfiy maqomlari” T., “Adast poligraf” 2021 y.
4. U. Djumaniyazov “Maqom yakka xonandaligi: Rahmatjon Qurbonov ijrochilik maktabi” Xorazm “Ogahiy”, 2024 y.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

TEXNIK OLIY TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Gimaeva Liliya Maskurovna, 2-kurs mustaqil tadqiqtchisi Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va me'yoriy-huquqiy jihatlari yoritilib, Nogironligi mavjud talabalarni muhandislik ta'lim muhitida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, adaptiv o'qitish texnologiyalari, individual ta'lim trayektoriyalari, raqamli platformalar hamda interaktiv metodlarning ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish ta'lim sifati, ijtimoiy integratsiya va talabalar kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — texnika oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish, adaptiv texnologiyalar va individual ta'lim trayektoriyalarining samaradorligini asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda inklyuziv ta'limga oid me'yoriyhuquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va amaliy tajribalar tahlil qilindi. pedagogik kuzatuv, taqqoslash va raqamli platformalardan foydalanish metodlari qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: natijalar shuni ko'rsatdiki, adaptiv o'qitish texnologiyalari va individual ta'lim trayektoriyalarini joriy etish nogironligi mavjud talabalar uchun ta'lim sifatini oshiradi. raqamli platformalar va interaktiv metodlar ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi va ta'lim jarayonida teng imkoniyatlarni ta'minlaydi.

XULOSA: inklyuziv ta'limni texnika oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish ta'lim sifati, ijtimoiy integratsiya va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: maqsadga yo'naltirilganlik, akademik muvaffaqiyat, motivatsiya, o'zini boshqarish, o'quv faoliyati, akademik motivatsiya, psixologik determinantlar.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИНКЛЮЗИВНОМУ ОБУЧЕНИЮ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Гимаева Лилия Маскуровна, Соискатель 2-го курса Андижанского государственного технического института

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются современные подходы к организации инклюзивного образования в технических высших учебных заведениях. Осветлены теоретические основы и нормативно-правовые аспекты инклюзивного образования, а также выявлены специфические особенности обучения студентов с ограниченными возможностями в инженерно-технической образовательной среде. Обоснована важность адаптивных технологий обучения, индивидуальных траекторий обучения, цифровых платформ и интерактивных методов. По

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

результатам исследования, внедрение современных педагогических подходов оказывает положительное влияние на качество образования, социальную интеграцию и развитие профессиональных компетенций студентов.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи — проанализировать современные подходы к организации инклюзивного образования в технических высших учебных заведениях, обосновать эффективность адаптивных технологий и индивидуальных образовательных траекторий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были проанализированы нормативно-правовые акты, научные статьи и практический опыт в области инклюзивного образования. использовались методы педагогического наблюдения, сравнения и применения цифровых платформ.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ: результаты показали, что внедрение технологий адаптивного обучения и индивидуальных образовательных траекторий повышает качество образования для студентов с инвалидностью. цифровые платформы и интерактивные методы усиливают социальную интеграцию, способствуют развитию профессиональных компетенций и обеспечивают равные возможности в образовательном процессе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: организация инклюзивного образования в технических вузах на основе современных педагогических подходов является эффективным средством повышения качества обучения, социальной интеграции и развития профессиональных компетенций.

Ключевые слова: инклюзивное образование, техническое высшее учебное заведение, студенты технических высших учебных заведений, адаптивное обучение, цифровые технологии, индивидуальная траектория обучения, профессиональная компетентность, инженерное образование.

MODERN APPROACHES TO INCLUSIVE EDUCATION IN TECHNICAL UNIVERSITIES

Gimaeva Liliya Maskurovna, 2-nd year applicant Andijan State Technical Institute

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes modern approaches to organizing inclusive education in technical higher educational institutions. The theoretical foundations and regulatory and legal aspects of inclusive education are highlighted, and the specific features of educating students with disabilities in an engineering educational environment are revealed. The importance of adaptive learning technologies, individual learning trajectories, digital platforms, and interactive methods is also substantiated. According to the results of the study, the introduction of modern pedagogical approaches has a positive impact on the quality of education, social integration, and the development of students' professional competencies.

AIM: the primary objective of the article is to analyze modern approaches to organizing inclusive education in technical higher education institutions and to substantiate the effectiveness of adaptive technologies and individual learning trajectories.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed regulatory legal documents, scientific articles, and practical experiences related to inclusive education. methods of pedagogical observation, comparison, and the utilization of digital platforms were employed.

RESULTS AND DISCUSSION: the results demonstrated that the implementation of adaptive teaching technologies and individual learning trajectories improves the quality of education for students with disabilities. digital platforms and interactive methods strengthen social integration, develop professional competencies, and ensure equal opportunities within the educational process.

CONCLUSION: organizing inclusive education in technical higher education institutions based on modern pedagogical approaches is an effective tool for enhancing educational quality, social integration, and the development of professional competencies.

Keywords: inclusive education, technical higher educational institution, students of technical higher educational institutions, adaptive learning, digital technologies, individual learning trajectory, professional competence, engineering education

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish sharoitida barcha toifadagi talabalar uchun sifatli ta’limga teng imkoniyat yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, nogironligi mavjud talabalarni (NMT) texnika oliy ta’lim muassasalarida samarali o‘qitish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan zamonaviy oliy texnik ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — nogironligi mavjud talabalar uchun ta’lim olishga moslashgan va qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Inklyuziv ta’lim - bu ta’lim tizimida tenglik, ijtimoiy adolat va diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga asoslangan muhim yo‘nalishdir. Texnika oliy ta’lim muassasalarida esa bu jarayon yanada murakkab bo‘lib, yuqori darajadagi nazariy bilimlar, laboratoriya ishlari va muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishni talab qiladi.

Shu sababli, talabalar individual xususiyatlarini hisobga olgan holda adaptiv, differensial va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurdir. Mazkur tadqiqotning maqsadi - texnika oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni tashkil etishning samarali yondashuvlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Bugungi kunda inklyuziv ta’lim oliy ta’lim tizimida mustahkam me’yoriy-huquqiy asosga ega bo‘lib, unda “nogironligi mavjud talaba”, “inklyuziv ta’lim” hamda “moslashtirilgan ta’lim dasturi” kabi tushunchalar aniq yoritilgan. Maxsus ta’lim esa jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar sababli alohida yondashuvni talab qiladigan, individuallashtirilgan metod va texnologiyalar asosida tashkil etiladigan ta’lim jarayoni sifatida talqin etiladi [1].

Global miqyosda inklyuziv ta'limning evolyutsiyasi sog‘liqni saqlash holati, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, migratsiya holati yoki rivojlanish farqlaridan qat'i nazar, har bir

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

insonning sifatli ta'lim olish huquqini tasdiqlashga qaratilgan kengroq ijtimoiy, huquqiy va axborot islohotlari doirasida sodir bo‘ldi. Ushbu yondashuvlarni shakllantirishda fundamental xalqaro hujjatlar, jumladan, Salamanka bayonoti, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya, Dakar harakatlar doirasi (2000) va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, inklyuziv va teng sifatli ta'limga urg‘u beradigan 4-BRM muhim rol o‘ynadi [2; 3]. Ushbu doiralar o‘quvchilar ta'limni asosiy ta'limga iloji boricha yaqinroq sharoitlarda olishlari kerak degan tamoyilni mustahkamladi va ajratilgan ta'lim modellaridan integrativ va inklyuziv tizimlarga global o‘tishni osonlashtirdi. Yevropa mamlakatlari yaxshi rivojlangan qonunchilik bazasi, barqaror ijtimoiy ta'minot tizimlari va samarali tarmoqlararo hamkorlik bilan qo‘llab-quvvatlanadigan inklyuziv ta'lim siyosatini amalga oshirishda yetakchi o‘rinni egallaydi. Shimoliy mamlakatlarda inklyuziv ta'lim teng imkoniyatlar va ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslanadi, bu maktablardan yagona ta'lim muhitida har tomonlama yordam ko‘rsatishni talab qiladi. Finlyandiya o‘rganishdagi qiyinchiliklarni erta aniqlash, fanlararo qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va moslashuvchan o‘rganish yo‘llariga ustuvor ahamiyat beradi. Buyuk Britaniyada inklyuziv ta'lim Maxsus ta'lim tarmog‘i (SEN-MTT) tizimi orqali tuzilgan bo‘lib, u huquqiy kafolatlar va individuallashtirilgan ta'lim rejalashtirishga urg‘u beradi. Ushbu yutuqlarga qaramay, Yevropa tizimlari hali ham o‘qituvchilarni tayyorlash va mintaqalar bo‘yicha resurslarni teng taqsimlash bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda [4; 5].

Shimoliy Amerika mamlakatlari ham inklyuziv ta'limni rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar. Qo‘shma Shtatlarda Nogironligi mavjud shaxslarning ta'limi to‘g‘risidagi qonun eng kam cheklovlar qo‘yilgan muhitda ta'lim tamoyilini o‘rnatdi, ixtisoslashtirilgan xizmatlar, yordamchi texnologiyalar va individuallashtirilgan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirishga yordam berdi. Kanadada inklyuziv ta'lim milliy multikulturalizm siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, amalga oshirish strategiyalaridagi viloyatlardagi o‘zgarishlar ijtimoiy adolatga umumiy sadoqat bilan birlashtirilgan. Biroq, asosiy ta'lim tizimlarida amaliyotlarni standartlashtirish va tarkibiy to‘siqlar bilan bog‘liq masalalar dolzarb muammolar bo‘lib qolmoqda.

Sharqiy Osiyoda inklyuziv ta'lim tez o‘zgarishlarga uchradi, bu ajratilgan tizimlardan texnologik jihatdan takomillashtirilgan inklyuziv modellarga o‘tish bilan tavsiflanadi. Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlar turli ehtiyojlarga ega o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun yordamchi texnologiyalar, moslashuvchan o‘quv dasturi va davlat-xususiy sheriklikdan foydalanishga urg‘u beradi. Xitoy maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarni asosiy ta'limga integratsiyalashga qaratilgan ulkan milliy dasturlarni amalga oshirdi; ammo, mintaqaviy tafovutlar va malakali mutaxassislarning yetishmasligi ularning samaradorligini cheklashda davom etmoqda. Osiyo yondashuvining o‘ziga xos xususiyati davlatning kuchli roli, raqamli innovatsiyalarga katta miqdordagi investitsiyalar va ta'limdagi to‘siqlarni kamaytirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan strategik foydalanishdir [6].

MDH mamlakatlarida inklyuziv ta'limning rivojlanishi notekis bo‘lib, postsovet ta'lim tizimlarining kengroq transformatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Rossiya, Qozog‘iston, Belarus va O‘zbekiston kabi davlatlar inklyuziv ta'limni o‘z qonunchilik doirasida rasman

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

tan olgan. Biroq, amaliy qo‘llanilishi ko‘pincha o‘qituvchilarni tayyorlash, metodologik qo‘llab-quvvatlash va infratuzilma bilan bog‘liq muammolar bilan cheklanadi.

Ushbu farqlarni aniqroq ko‘rsatish uchun quyida alohida mamlakatlarda inklyuziv ta'limning milliy modellarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadaval

Turli mamlakatlarda inklyuziv ta'lim modellari

Mamlakat	Model	Xususiyat
AQSh	UDL	To‘liq raqamli kirish
Geermaniya	Integratives Lernen	Aralash guruhlar
Yaponiya	Support Model	Adaptiv laboratoriyalar
Avstraliya	Inclusive Engineering	Texnik inkluziya

Texnika oliygohlarida inklyuziv ta'lim murakkab, ko‘p qirrali tizim bo‘lib, u ham pedagogik yondashuvlarni o‘zgartirishni, ham raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilishni talab qiladi. So‘nggi yillarda texnik universitetlar turli xil nogironligi bo‘lgan talabalar sonining ortib borayotganini hisobga olgan holda o‘quv jarayonlarini qayta qurish zaruratiga duch kelishdi. Hozirgi amaliyot shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv muhitni loyihalash muhandislik va pedagogik yechimlar, moslashuvchan raqamli platformalar, yordamchi texnologiya resurslari va professor-o‘qituvchilarni tayyorlashni o‘z ichiga olgan keng qamrovli, fanlararo yondashuvni talab qiladi [7; 8].

Tadqiqot natijalari. Oliy texnik ta’lim muassasalarida nogironligi mavjud talabalar kasbiy kompetensiyalarni egallash jarayonida ishtirok etib, bu ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, professional faoliyatga tayyorlanishi va jamiyat hayotida faol qatnashishini ta’minlaydi. Bunday ta’lim muhitida turli toifadagi talabalar (eshitish, ko‘rish, nutq, harakat-tayanch tizimi buzilishlari yoki intellektual rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar mavjud bo‘lganlar) uchun differensial va moslashtirilgan o‘quv jarayoni tashkil etiladi. Nogironligi mavjud talabalar bilan ishlashda ularning kognitiv rivojlanish darajasi nafaqat mavjud nuqsonning turi va darajasiga, balki avvalgi ta’lim bosqichlaridagi tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liqligini hisobga olish muhimdir. Shu bois, professor-o‘qituvchilar talabalarning bilish faoliyati va ijtimoiy kompetensiyalarini uyg‘un rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni qo‘llashlari zarur. Bu jarayonda ***asosiy vazifa*** - talabalarni bilimlarni passiv o‘zlashtiruvchi subyektlardan faol, mustaqil fikrlovchi va muhandislik muammolarini hal eta oladigan shaxslarga aylantirishdir. Ya’ni ular muammoni qo‘ya olish, yechim variantlarini tahlil qilish, optimal qarorni tanlash hamda uni ilmiy asoslab bera olish kompetensiyalariga ega bo‘lishlari lozimdir [9; 10].

Mazkur yondashuv pedagogning o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishiga, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hamda an’anaviy oqim (frontal) ta’limdan shaxsga yo‘naltirilgan, individuallashtirilgan o‘qitish modeliga o‘tishini nazarda tutadi. Bunda har bir talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlari asosiy omil sifatida e’tiborga olinadi.

Ta’lim jarayonining boshlang‘ich bosqichida talabalarning individual-psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tahlil asosida rivojlanishdagi “muammoli

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

nuqtalar" aniqlanadi. Jumladan, diqqat yetishmovchiligi, emotsional-irodaviy boshqaruvning sustligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish qiyinchiliklari, o‘quv motivatsiyasining pastligi va umumiy kognitiv passivlik kabi holatlar qayd etiladi. Shuningdek, ayrim psixik jarayonlarning (idrok, xotira, tafakkur) yetarli darajada rivojlanmaganligi, nutq kamchiliklari, harakat koordinatsiyasidagi buzilishlar, ishchanlik darajasining pastligi, bilim va tasavvurlar zaxirasining cheklanganligi hamda o‘quv-bilish faoliyatining operatsion komponentlari shakllanmaganligi kabi muammolar ham aniqlanishi mumkin.

Mazkur tahlil natijalari asosida o‘qitish metodlari, individual va jamoaviy o‘qitish shakllaridan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, talabalarning kasbiy qiziqishlariga mos ravishda rivojlantirish va korreksiyalash yo‘nalishlari belgilanadi.

Nogironligi mavjud shaxslar uchun kasbiy ta’lim jarayonida ishlab chiqarish (amaliy) mashg‘ulotlari asosiy o‘rin tutadi va ular o‘ziga xos tashkil etish xususiyatlariga ega. Bunday mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi umumiy talablar muhim hisoblanadi:

– mashg‘ulot maqsadini talabalar uchun aniq va tushunarli qilib belgilash;
– vazifalarni talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniqlash;
– o‘quv materiali hajmini optimal darajada tanlash;
– o‘qitish metodlari, didaktik va texnik vositalarni oqilona tanlash;
– mustaqil ish turlarining xilma-xilligini ta’minlash;
– ijobiy psixologik muhit va qulay o‘quv sharoitini yaratish.

Mashg‘ulotlar bir vaqtning o‘zida ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishi lozim. Shu bilan birga, ishlab chiqarish ta’limi jarayonida shakllantiriladigan muhim shaxsiy sifatlar qatoriga so‘z-mantiqiy tafakkur, tashkiliy qobiliyatlar, og‘zaki nutq, muloqotga kirishuvchanlik va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari kiradi. Ammo NMT talabalarida ushbu sifatlar ko‘pincha yetarli darajada rivojlanmagan bo‘ladi.

Shu bois ta’lim jarayonida quyidagi pedagogik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– amaliy topshiriqlarning ijodiy yo‘nalganligini bosqichma-bosqich murakkablashtirish;
– individual yo‘riqnoma (instruktaj)ni joriy etish;
– talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda didaktik materiallar ishlab chiqish va variativ topshiriqlar tizimini yaratish;
– mashg‘ulotlarda muvaffaqiyat vaziyatini va psixologik qulaylikni ta’minlash;
– hamkorlik muhiti va norasmiy muloqotni rivojlantirish orqali ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, texnika oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va individual ta’lim trayektoriyalarini integratsiya qilishni talab etadi. Bunday yondashuvlar Nogironligi mavjud talabalar uchun qulay ta’lim muhitini yaratish, ularning kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan professor-o‘qituvchilarning tayyorgarligi, moslashtirilgan o‘quv dasturlarining mavjudligi hamda

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue4

zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishga bog‘liq. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ayniqsa texnik fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi. – 2006.
3. Mel Ainscow, Tony Booth. Index for Inclusion. – Bristol, 2011.
4. David Mitchell. What Really Works in Special and Inclusive Education. – Routledge, 2014.
5. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris, 2005.
6. Aleksandr Asmolov. Psixologiya lichnosti i inklyuzivnoe obrazovanie. – Moskva, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
8. Гимаева Л.М. Компетентностный подход в образовании: сущность, принципы и международный опыт //“Современная наука: инновационные подходы и актуальные исследования молодых учёных” сборник материалов Республиканской научно-практической конференции, Наманган 08.08.2025., стр 646-648
9. Гимаева Л.М. Анализ современных образовательных стандартов инженерного образования//“Современная наука: инновационные подходы и актуальные исследования молодых учёных” сборник материалов Республиканской научно-практической конференции, Наманган 08.08.2025., стр 648-650
10. Atajonova S. B,. "Models and Mechanisms for Implementing an Inclusive Approach in Engineering Education Based on Artificial Intelligence."International Journal of Pedagogics 5.05 (2025): p110-114.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ABDURAHMON TAMKIN BUXORIY IJODIDA LIRIK JANRLAR TALQINI VA BADIIY-FALSAFIY XUSUSIYATLAR

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro xalqaro universitet Filologiya kafedrasi mudiri, Buxoro, O’zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: ushbu tadqiqot ishida XIX asr Buxoro adabiy muhitida faoliyat yuritgan Abdurahmon Tamkin Buxoriyning lirik merosi tahlil qilinadi. Unda shoir ijodida yetakchi o‘rin tutgan g‘azal, ruboiy, fard va muammo janrlarining badiiy-estetik xususiyatlari, mazmun-mohiyati hamda ularning tasavvufiy-falsafiy talqini yoritilgan.

MAQSAD: Tamkin ruboiylarida ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalar, fardlaridagi didaktik mazmun va muammo janrining o‘ziga xos badiiy talqini ilmiy asosda ochib beriladi. Maqolada shoir ijodining an’ana va yangilik uyg‘unligidagi o‘rni hamda uning bugungi ma’naviy-ma’rifiy tarbiyadagi ahamiyati asoslab berishga harakat qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot mavzusini yoritishda biografik, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, analitik tahlil usullaridan hamda falsafiy va madaniy adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tizimli umumlashtirish hamda madaniyatlararo tahlil metodlaridan foydalanildi foydalanildi**.** Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasi qo‘lyozmalar fondiga murojaat qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ko‘p asrlardan buyon an’anaga aylanib qolgan zullisonaynlik hodisasining Buxoroda sobiq sho‘ro hukumati davrida tanazzulga yuz tutishi xalqning o‘z tarixiy me’rosidan bebahra qolishiga olib keldi. Natijada, sharq she’riyati ayniqsa, fors-tojik adabiyoting eng ko‘p tarqalgan lirik turlari: g‘azal, ruboiy, masnaviy kabilarning o‘z egalariga yetib bormaslik holatlari yuzaga keldi. Bu–ikki tilda ijod qilgan Abdurahmon Tamkin ijodi uchun ham xos bo‘ldi. Biz bugun shoirning go‘zal ijodini, ibratli g‘oyalarini xalqimizga yetkazib berishdek ishni amalga oshirishga jazm etdik. Zero, mamlakatimiz ravnaqi uchun nafaqat shaklan balki, ruhan, qalban, fikran sog‘lom avlodni tarbiyalashdek ulug‘vor ishda Abdurahmon Tamkin ijodiyoti munosib o‘rin tuta oladi. Faqat uni o‘quvchiga yetkaza bilishimiz kerak.

XULOSA: Abdurahmon Tamkin o‘tmishdan qolgan madaniy meros zamonaviy muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynashini o‘z davridayoq chuqur idrok eta olgan ijodkorlardan biri edi. U o‘tmishning ulug‘ shoirlari ta’limoti va an’analari asosida inson qudrati va qadriyatini tushunishga da’vat qildi va o‘z davri hokimu hoziqlarini shunga chaqirdi. Shoir mumtoz adabiyotimiz an’analarini muvaffaqiyatli davom ettirdi. Zamondosh shoirlardan farqli ravishda ayrim lirik janlarda ham barakali ijod qildi. Jumladan, ko‘plab chuqur ma’noli ruboiylar yozganligi fikrimizning dalilidir.

Kalit so‘zlar: Abdurahmon Tamkin, Buxoro adabiy muhiti, lirika, g‘azal, ruboiy, fard, muammo, tasavvuf, didaktika, badiiy-estetik tafakkur, an’ana va yangilik, mumtoz adabiyot.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИРИЧЕСКИХ ЖАНРОВ И ХУДОЖЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУРАХМОНА ТАМКИНА БУХАРИ

Чориева Мехринисо Кийомиддиновна, Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, Заведующая кафедрой филологии Бухарского международного университета,Бухара, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется лирическое наследие Абдурахмона Тамкина Бухари, активно творившего в литературной среде Бухары XIX века. Освещаются художественно-эстетические особенности, содержание и сущность таких жанров, как газель, рубаи, фард и муаммо, занимающих ведущее место в творчестве поэта, а также их суфийско-философская интерпретация.

ЦЕЛЬ: научно обосновать общечеловеческие идеи, выдвинутые в рубаи Тамкина, дидактическое содержание его фардов и своеобразную художественную интерпретацию жанра муаммо. В статье также предпринимается попытка определить место творчества поэта в контексте синтеза традиции и новаторства, а также обосновать его значение в современном духовно-нравственном воспитании.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались биографический, описательный, историко-сравнительный, контекстуальный и аналитический методы, а также анализ философской и культурологической литературы, сравнительно-аналитический подход, системное обобщение и межкультурный анализ. Было осуществлено обращение к рукописному фонду библиотеки Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: явление двуязычия, ставшее многовековой традицией, в период бывшего советского режима в Бухаре пришло в упадок, что привело к отдалению народа от своего исторического наследия. В результате этого многие распространённые в восточной поэзии, особенно в персидско-таджикской литературе, лирические жанры — газель, рубаи, маснави — не доходили до своих читателей. Это в полной мере относится и к творчеству Абдурахмона Тамкина, писавшего на двух языках. Сегодня мы ставим перед собой задачу донести до народа его прекрасное творчество и поучительные идеи. Ведь в деле воспитания духовно, нравственно и интеллектуально зрелого поколения его наследие может занять достойное место. Необходимо лишь суметь донести его до читателя.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Абдурахмон Тамкин был одним из тех мыслителей, кто уже в своё время глубоко осознал важную роль культурного наследия прошлого в решении современных проблем. Опираясь на традиции и учения великих поэтов прошлого, он призывал к осмыслению силы и ценности человека и обращался с этим призывом к правителям и обществу своего времени. Поэт успешно продолжил традиции классической литературы и, в отличие от своих современников, плодотворно творил и в ряде лирических жанров. В частности, значительное количество глубоких по смыслу рубаи служит доказательством этого.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Ключевые слова: Абдурахмон Тамкин, бухарская литературная среда, лирика, газель, рубаи, фард, муаммо, суфизм, дидактика, художественно-эстетическое мышление, традиция и новаторство, классическая литература.

INTERPRETATION OF LYRICAL GENRES AND ARTISTIC-PHILOSOPHICAL FEATURES IN THE WORKS OF ABDURAHMON TAMKIN BUKHARI

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Head of the Department of Philology, Bukhara International University, Bukhara, Uzbekistan

ABSTRACT

INTRODUCTION: this article analyzes the lyrical heritage of Abdurahmon Tamkin Bukhari, who was active in the literary environment of Bukhara in the 19th century. It highlights the artistic and aesthetic features, content, and essence of such genres as ghazal, rubai, fard, and muammo, which occupy a central place in the poet's творчество, as well as their Sufi-philosophical interpretation.

OBJECTIVE: to provide a scientific interpretation of the universal ideas expressed in Tamkin's rubai, the didactic content of his fards, and the unique artistic interpretation of the muammo genre. The article also seeks to define the role of the poet's творчество in the harmony of tradition and innovation, and to substantiate its significance in modern spiritual and moral education.

MATERIALS AND METHODS: the study employs biographical, descriptive, historical-comparative, contextual, and analytical methods, along with the analysis of philosophical and cultural literature, a comparative-analytical approach, systematic generalization, and intercultural analysis. Manuscripts from the collection of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies were also consulted.

DISCUSSION AND RESULTS: the phenomenon of bilingualism, which had long been a tradition, declined in Bukhara during the former Soviet period, leading to a disconnection of the people from their historical heritage. As a result, many widely распространённые lyrical genres of Eastern poetry—especially in Persian-Tajik literature, such as ghazal, rubai, and masnavi—failed to reach their audience. This was also characteristic of the творчество of Abdurahmon Tamkin, who wrote in two languages. Today, we aim to bring the poet's rich творческое наследие and instructive ideas to the public. Indeed, his works can play a significant role in educating a spiritually, morally, and intellectually mature generation. The key task is to effectively present them to the reader.

CONCLUSION: Abdurahmon Tamkin was one of the thinkers who deeply realized the importance of cultural heritage in addressing contemporary issues. Based on the teachings and traditions of great classical poets, he called for an understanding of human dignity and potential, addressing both rulers and society of his time. The poet successfully continued the traditions of classical literature and, unlike many of his contemporaries, плодотворно contributed to several lyrical genres. In particular, his numerous profound rubai serve as clear evidence of this.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Keywords: Abdurahmon Tamkin, Bukhara literary environment, lyrics, ghazal, rubai, fard, muammo, Sufism, didactics, artistic-aesthetic thinking, tradition and innovation, classical literature.

XIX asr Buxoro adabiy hayotida epik asarlar ham yaratilgan bo‘lsada, biroq lirika yetakchi o‘rin tutadi. Mazkur davr she’riyatida lirikaning o‘n ikkitacha janri uchraydi. Lekin eng faol janrlar – g‘azal, muxammas, masnaviy, qasida, qit’a sanaladi. Ruboiy, soqiynoma, fard, chiston, musammatning boshqa turlari ayrim shoirlar devonidagina uchraydi.

XVI - VIII asrlarda epik janrlarning mavqei birinchi o‘ringa o‘tgan bo‘lsa, XIX-XX asr boshlariga kelib, g‘azal yana lirikaning yetakchi janriga aylandi va o‘z imkoniyatlarini keng namoyish qila boshladi va bu hol Buxoro adabiy muhiti uchun ham xos edi.

Abdurahmon Tamkin ruboiylari umumbashariy g‘oyalarni ilgari surganligi bilan bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ular yoshlarimizni ruhan, aqlan va ma’nan yetuk, sabrli va tadbirli qilib tarbiyalashdek nozik ishda ibrat namunasi bo‘lib xizmat qila oladi.

Shoirning forsiy ruboiylarida tasavvufiy-falsafiy mushohada yuqoriroq bo‘lib, buni quyidagi ruboiylar misolida ham ko‘rish mumkin:

Ruboiy

1. Gasht mamlu kamam az shahdi suxan
   Niyyat shirintar az iyn shahde ba man
   Har gahe nomi tu giram bar zabon
   Hosil ast qande mukarrar dar dahoon

Tarjimasi:

Dahanim so‘z shahdi, bol bilan to‘ldi,
Bu shahddan shirinroq niyatim bo‘ldi.
Qachonki nomingni tilimga olsam,
Og‘zimku hamisha shakarga to‘ldi.

2. Imruz baxayriyat obodi jahon
   Zi atrof kashida poyi xud dar dahon
   Binishasta bashah rohi a’dm pur mujda
   Doda zi kaf hasti zimomi somon

Tarjimasi:

Jahon obodligin bilib xayriyat,
Uzlat dahanida topdi farog ‘at.
Muijdani kutarsan adam yo‘lida,
Boy berdi borliq jilovin toat.

Bu ruboiylar forsiy adabiyotning go‘zal namunalari bo‘lib, shoir umrining oxirgi damlarida yozilgan. Shoir zamonaning og‘irligi va kishilar ahvolining zabunligini shu davr nobopligida ko‘radi hamda buni nomaqbul ishlarning rivoj topishidan deb, ijtimoiy masalalarni falsafiy darajaga ko‘taradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Abdurahmon Tamkin devonidan yana fardlar ham o‘rin olgan bo‘lib, shoir an’anaviy adabiyotda ilgari surilgan ibratli, namunali xulq-atvor, pand-nasihat, motivlarini yangicha qiyofada bera olgan. Tamkin yurtdoshlarini umuminsoniy fazilatlar sohibi sifatida ko‘rishni istagan shoirdir. Uning fardlarida inson zamona bilan birga ilg‘or g‘oyalarni ham fazilat sifatida o‘z tabiatida shakllantirishi lozimligi uqtiriladi.

Shoir fardlarining ma’naviy jihati ularning tahlilini yanada ko‘taradi. Uning ilohiy idrokka intilishi o‘z personajlari hayotida ifodalangan bo‘lib, ko‘pincha ma’rifat yo‘lidagi so‘fiylar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ruhiy sayohat, odatda, ijtimoiy va tasavvuf mavzulari bilan uzviy bog‘lanib, fardlarning zamondagi istaklar va ilohiy intilishlar o‘rtasida uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu tasvirlar Tamkinning botiniy ilmning zarurligiga bo‘lgan ishonchining isboti o‘laroq, xalq turmushidan, shoir ruhiyatidan darak beradi.

Fard – arabcha “yagona” degan ma’noni bildiradi. Sharq adabiyotida bu janr ikki misradan iborat bo‘lib, asosan didaktik g‘oyalarni ifodalaydi. Abdurahmon Tamkin ijodida fardlar ibratli, murakkab hayotiy va axloqiy holatlarni qisqa lekin kuchli badiiy vositalar orqali ifoda etadi.

Fard

1. Dil ki shud beg‘araz az qaydi jahon ast forig‘
   Xonai oyinai az mishti naqsh ast emin
2. Dunyo taloq kardai mardoni bexirad ast
   Nomardonro ba xeshkashad in zani ҷalab

Tamkin fardlari mazmun-g‘oyasiga ko‘ra Alisher Navoiyga izdoshlik asnosida bitilgan bo‘lib, u an’anaga sadoqat bilan ergashdi va o‘zining so‘zini ham ayta olgan shoir.

Masalan:

Bahri izhori qudrat on Sone’
Nusxai obu xok kard odam

Bu fardlar orasida axloqiy, didaktik, tasavvufiy fikrlar chuqur ifodalangan. Tamkin bunday fardlar orqali o‘quvchini murakkab haqiqatlar haqida o‘ylashga undaydii. Har bir fard – badiiy aforizm, hayotiy saboq, ruhiy tarbiya vositasi sifatida ifodalanadi.

Demak, shoir fardlar orqali inson axloqining markazida samimiyat, ichki va tashqi uyg‘unlik turganini ko‘rsatadii. Bu g‘oya bugungi zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarbdir.

Abdurahmon Tamkin devonida yana muammo janri ham kamolot bosqichiga chiqqan. Bu janrda ijod qilish shoir kamolotidan, zukkoligidan, lisoniy boyligidan darak hisoblangan.

Muammo so‘zining lug‘aviy ma’nosi arab tilidagi “a’mo”, ya’ni “ko‘r” so‘zidan olingan bo‘lib, “ko‘r qilingan”, “berkitilgan”, “yashiringan” degan ma’nolarni anglatadi.

“*Muammo Sharq adabiyoti, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida muayyan kichik janrdagi she’rda yashiringan nomni topish bilan bog‘liq. Muammoda yashiringan fikr mantiqan she’r mavzusiga to‘g‘ri kelishi va nazarda tutilgan muayyan fikr, voqea - hodisa yoki shaxs faoliyati bilan bog‘liq fakt bilan aloqador bo‘lishi kerak. Unda ishora muhim rol o‘ynaydi va ishora etilgan so‘z “ism moddasi” deb yuritiladi, muammoni yechish yoki oddiy qilib aytganda topish – “hal(l)” , ya’ni “masalani hal qilish” tushunchasi bilan ifodalanadi”*[1].

[1] Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti NMU, 2019. 103 - bet

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Muammo mumtoz adabiyotdagi hajm jihatdan kichik janrlardan hisoblanadi. Uni g‘azal, qit’a, hatto qasida janrlari ko‘rinishida ham yozganlar, lekin muammoning asosiy qismi bir bayt, ya’ni ikki misra, ba’zan ikki bayt hajmiga teng bo‘ladi. Ana shu hajmda biror nomni badiiy estetik zavq bera olish darajasida yashirib ayta olsa, ijodkor o‘z topqirligi, mohirligini namoyon qila olgan.

1. **Muommo (ba nomi *umr*)**

Dona-u dom gir az g‘amza
To shavad nomash az miyon paydo

Tarjimasi:

Dona bilan tuzoqni noz-karashmadan ol,
Shunda uning nomi o‘rtadan bo‘lur ayon

2. **Muommo (ba nomi *nor)***

So‘xtam dar furug‘i otashi ruh
To shudam komyobi fayzi futuh

Tarjimasi:

Ruh olovining yog‘dusida yonib ketdim,
To fayzu futuhdan kom topib, murodga yetdim.

Demak, Tamkin devonida ga’zaldan tortib eng kichik va murakkab janrlar uchraydi.

Shoir ijodining mavzu ko’lami keng. U qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o’tolmaydi, shu bilan birga ijtimoiy-tasavvufiy g’oyalarni ilgari surishda asosiy badiiy vosita sifatida oshiqlik, iymon, e’tiqod, vatan, zakovat, ilm timsoli kabi poetik qahramonning o’y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuchni asosiy “qurol” hisoblaydi.

Tamkin devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o’rin egallagan. Shoir o’zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirgan. U zamon va uning ahliga munosabat bildirganida, baho berganida, umuminsoniy va umumbashariy nuqtayi nazardan yondashgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Иванов. П.П. Очерки.стр.2015.
2. Фидо А.Ж. Абдураҳмон Тамкин рисоласи. – Душанбе, 1974.
3. Хализев В. Теория литературы. – Москва: Висшая школа, 2006.
4. Е.К.Мейендорф. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975.
5. Ш.М. Наводири Зиёия. – Тожикистон: Гажинаи дастхатҳои шарқии АФРСС,1991
6. Л.И.Ремпел. Делекой И билизкой (Бухареский записи) Исз-во. – Ташкент, 1981.
7. Семёнова А.А. Собрание восточних рукописий АН. – Т., 1954.
8. О.Сухарева. Бухара XIX – XX в. Изд. Наука. – М., 1966.
9. Сухарева О. Кварталная обшина позднефеодалной города Бухари. Издво Наука. – М., 1976.
10. Теория литературы. – Москва: Академия, 2004.
11. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti NMU, 2019. 103 - bet

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

12. http://ziyonet/uz
13. http://kitob/uz
14. http://tas-ix/tafakkur.net
15. http://ziyouz.uz

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA TALABALARDA METAKOGNITIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Djurayeva Lola Rustamovna, BuxDPI "Umumiy pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD), Buxoro, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: so'nggi yillarda oliy ta'limda kredit-modul tizimining joriy etilishi hamda masofaviy va aralash ta'lim shakllarining keng qo'llanilishi natijasida talabalarning mustaqil ta'limga ajratilgan soatlar hajmi sezilarli darajada oshdi. An'anaviy ta'limda bilim asosan o'qituvchi yo'l-yo'rig'i bilan o'zlashtirilgan bo'lsa, hozirgi sharoitda o'quv yuklamasining 50–60 foizi mustaqil ta'lim orqali egallanishi talab etiladi. Bu holat talabaning o'z vaqtini, diqqatini va kognitiv imkoniyatlarini samarali boshqarish qobiliyati – ya'ni metakognitiv ko'nikmalar masalasini dolzarb pedagogik muammoga aylantirmoqda. Ayniqsa, pedagogika yo'nalishi talabalari uchun metakognitiv ko'nikmalar bir vaqtning o'zida shaxsiy va kasbiy jihatdan muhim: ular o'z bilish faoliyatini boshqarish orqali dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtiradi va kelajakda o'quvchilarning metakognitiv rivojlanishini ta'minlaydi.

MAQSAD: mazkur maqolaning maqsadi pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida mustaqil ta'lim jarayonida metakognitiv ko'nikmalarni (rejalashtirish, kuzatish, baholash, refleksiya) rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy metodlarini tahlil qilish, shuningdek, o'qituvchining bilvosita roli va baholash vositalarini yoritib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada metakognitsiya bo'yicha xorijiy (J. Flavell, A. Brown, D. Hacker, B. Zimmerman), MDH va mahalliy (B. Xodjayev, E. Rasulov, G. Gubina, A. Karpov va boshqalar) olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Shuningdek, mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari (auditoriyaga tayyorgarlik, auditoriyadan tashqari ish, axborot-resurs markazlarida o'qish) va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiruvchi metodlar (SMART maqsadlar, o'rganish jurnali, xatolarni tahlil qilish, "o'ylab gapirish" texnikasi, Pomodoro usuli, konsepsiya xaritasi) batafsil izohlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: mustaqil ta'limda o'qituvchining bevosita ishtiroki kam bo'lsa-da, metakognitiv bosqich (scaffolding), formatik fikr-mulohaza, metakognitiv muhokama mashg'ulotlari, shaxsiy namuna (modelling) va portfolio kabi vositalar orqali talabaning metakognitiv rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin. Metakognitiv ko'nikmalarni baholashda an'anaviy testlardan farqli ravishda metakognitiv so'rovnoma, "o'ylab gapirish" yozuvi tahlili, o'rganish jurnali sifat tahlili va akademik natijalar bilan korrelyatsiya kabi vositalar samarali ekanligi ko'rsatilgan. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, metakognitiv strategiyalarni qo'llaydigan talabalar mustaqil ta'limda yuqori natijalarga erishadi, aks holda vaqtning 50% dan ortig'i samarasiz sarflanadi.

XULOSA: metakognitiv ko'nikmalar – bu talabaga "baliq" berish emas, balki "baliq tutish"ni o'rgatishning eng chuqur shaklidir. Ular bilimlarni faqat o'zlashtirishga emas, balki qanday o'rganishni o'rganishga yo'naltiradi. Metakognitiv ko'nikmalari rivojlangan talaba o'qituvchisiz ham o'rgana oladigan, xatolaridan saboq chiqaradigan va butun hayoti davomida o'z bilimini yangilay oladigan mustaqil shaxsdir. Shu sababli, pedagogika

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

oliygohlarida metakognitiv yondashuv nafaqat o‘qitish metodi, balki o‘quv dasturining mazmuniy qismiga aylanishi kerak.

Kalit so‘zlar: metakognitiv ko‘nikmalar, mustaqil ta’lim, pedagogika yo‘nalishi talabalari, o‘z-o‘zini boshqariladigan ta’lim, refleksiya, kredit-modul tizimi, masofaviy ta’lim, o‘rganish jurnali, xatolarni tahlil qilish, SMART maqsadlar.

ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Джураева Лола Рустамовна, Старший преподаватель кафедры «Общая педагогика» Бухарского государственного педагогического института (БухГПИ), доктор философии по педагогическим наукам (PhD), Бухара, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: внедрение кредитно-модульной системы и развитие дистанционного обучения в высшем образовании привели к значительному увеличению часов на самостоятельную работу студентов. Если в традиционной модели знания усваивались под непосредственным руководством преподавателя, то в современных условиях около 50–60% учебной нагрузки должно осваиваться самостоятельно. Это выдвигает на первый план проблему метакогнитивных навыков – способности студента эффективно управлять своим временем, вниманием и когнитивными ресурсами. Для студентов педагогических вузов метакогнитивные навыки важны как для личного успеха в учебе, так и для будущей профессиональной деятельности, поскольку они должны научить школьников «учиться учиться».

ЦЕЛЬ: цель статьи – анализ теоретических основ и практических методов развития метакогнитивных навыков (планирование, мониторинг, оценка, рефлексия) у студентов педагогических направлений в процессе самостоятельного обучения, а также освещение роли преподавателя и инструментов оценки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье проанализированы научные работы зарубежных (Дж. Флавелл, А. Браун, Д. Хакер, Б. Зиммерман), стран СНГ и отечественных (Б. Ходжаев, Э. Расулов, Г. Губина, А. Карпов и др.) учёных по метакогниции. Подробно рассмотрены формы организации самостоятельного обучения (подготовка к аудиторным занятиям, внеаудиторная работа, обучение в информационно-ресурсных центрах) и методы развития метакогнитивных навыков (SMART-цели, учебный журнал, анализ ошибок, техника «думай вслух», метод Помодора, карта понятий).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: показано, что, хотя преподаватель непосредственно не участвует в самостоятельной работе студента, он может способствовать метакогнитивному развитию с помощью метакогнитивного скаффолдинга, формирующей обратной связи, дискуссионных занятий, личного примера и портфолио. Для оценки метакогнитивных навыков предложены метакогнитивный опросник, анализ записей «думай вслух», качественный анализ

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

учебного журнала и корреляция с академическими результатами. Исследования подтверждают, что студенты, применяющие метакогнитивные стратегии, достигают более высоких результатов, в противном случае более 50% времени тратится неэффективно.

ВЫВОД: метакогнитивные навыки – это глубочайшая форма обучения не «рыбе», а «рыбной ловле». Они направлены не просто на усвоение знаний, а на овладение способами самостоятельного и эффективного обучения на протяжении всей жизни. Студент с развитыми метакогнитивными навыками способен учиться без преподавателя, извлекать уроки из ошибок и постоянно обновлять свои знания. Поэтому в педагогических вузах метакогнитивный подход должен стать не просто методом обучения, а содержательной частью учебных программ.

Ключевые слова: метакогнитивные навыки, самостоятельное обучение, студенты педагогических направлений, саморегулируемое обучение, рефлексия, кредитно-модульная система, дистанционное обучение, учебный журнал, анализ ошибок, SMART-цели.

PRACTICAL BASIS FOR DEVELOPING STUDENTS' METACOGNITIVE SKILLS THROUGH INDEPENDENT LEARNING

Djuraeva Lola Rustamovna, Senior Teacher of the Department of General Pedagogy, Bukhara State Pedagogical Institute (BukhSPI), Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Bukhara, Uzbekistan

ABSTRACT

INTRODUCTION: the introduction of the credit-module system and the expansion of distance and blended learning in higher education have significantly increased the number of hours allocated to students' independent learning. In the traditional model, knowledge was acquired mainly under the direct guidance of a teacher, whereas today about 50–60% of the study load must be mastered independently. This situation brings to the fore the issue of metacognitive skills – the ability to effectively manage one's time, attention, and cognitive resources. For students of pedagogy, metacognitive skills are doubly important: they help them successfully complete their own studies and, in the future, enable them to foster metacognitive development in their own pupils.

PURPOSE: the purpose of this article is to analyze the theoretical foundations and practical methods of developing metacognitive skills (planning, monitoring, evaluation, reflection) in pedagogy students during independent learning, as well as to highlight the indirect role of the teacher and the tools for assessment.

MATERIALS AND METHODS: the article analyzes the scientific works of foreign (J. Flavell, A. Brown, D. Hacker, B. Zimmerman) and local (B. Khodjayev, E. Rasulov, G. Gubina, A. Karpov, etc.) researchers on metacognition. The forms of organizing independent learning (preparation for classroom sessions, extracurricular work, learning in information resource centers) and methods for developing metacognitive skills (SMART

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

goals, learning log, error analysis, think-aloud technique, Pomodoro technique, concept mapping) are described in detail.

DISCUSSION AND RESULTS: it is shown that although the teacher does not directly participate in the student's independent work, they can contribute to metacognitive development through metacognitive scaffolding, formative feedback, metacognitive discussion sessions, personal modelling, and portfolios. For assessing metacognitive skills, the following tools are proposed: metacognitive questionnaire, analysis of think-aloud protocols, qualitative analysis of learning logs, and correlation with academic outcomes. Research confirms that students who apply metacognitive strategies achieve higher results; otherwise, more than 50% of their study time is spent ineffectively.

CONCLUSION: metacognitive skills represent the deepest form of teaching not "to give a fish" but "to teach how to fish." They focus not merely on acquiring knowledge, but on learning how to learn independently and effectively throughout life. A student with well-developed metacognitive skills can learn without a teacher, learn from mistakes, and constantly update their knowledge. Therefore, in pedagogical higher education institutions, the metacognitive approach should become not just a teaching method, but an integral part of the curriculum.

Keywords: metacognitive skills, independent learning, pedagogy students, self-regulated learning, reflection, credit-module system, distance learning, learning log, error analysis, SMART goals.

Hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi, masofaviy va aralash ta'lim shakllarining samarali qo'llanilishi kabi tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlar tufayli talabalar mustaqil o'qishga mo'ljallangan soatlar miqdori sezilarli darajada ortib bormoqda va bu esa ularning mustaqil faoliyatini yanada faollashtirish ehtiyojini tug'dirmoqda. Agar an'anaviy o'qitish tizimida talaba bilimlarni asosan o'qituvchining to'g'ridan-to'g'ri rahbarligi ostida o'zlashtirgan bo'lsa, hozirgi sharoitda o'quv yuklamasining qariyb 50–60 foizini mustaqil ravishda egallash talab qilinadi. Bunday vaziyat talabaning o'z vaqt resurslari, diqqat-e'tibori hamda aqliy imkoniyatlarini samarali boshqarish malakasi – ya'ni metakognitiv ko'nikmalar masalasini dolzarb va ustuvor pedagogik omil sifatida birinchi o'ringa olib chiqadi.

Xususan, pedagogika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun metakognitiv qobiliyatlar bir vaqtning o'zida ham shaxsiy, ham kasbiy nuqtai nazardan katta ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, ular o'z bilish faoliyatini tartibga solish orqali oliy ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli egallashi ko'zda tutilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kelgusidagi pedagogik faoliyatda o'quvchilarning metakognitiv rivojlanishini ta'minlash uchun zarurdir. Shu jihatdan qaraganda, pedagogika oliygohlari talabalarining metakognitiv rivojlanishi ta'lim tizimida zanjirsimon reaksiya xususiyatini vujudga keltiradi: metakognitiv o'qituvchi – metakognitiv o'quvchilarni tarbiyalaydi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Metakognitsiya” atamasi ilk bor 1970-yillarda amerikalik psixolog John Flavell tomonidan kiritilgan. Flavell 1976-yilda chop etilgan maqolasida metakognitsiya ikki asosiy jihatdan kuzatish va tartibga solish tashkil topishini ta’kidlagan. Aynan shu maqolada “metakognitsiya” atamasi ilk bor sarlavhada rasman qo‘llanilgan bo‘lib, olim metakognitsiyani “kognitiv jarayonlar va ularning natijalari haqidagi bilim va ularni boshqarish” deb ta’riflagan. Uning fikricha, “Inson atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatda bo‘lganida, turli xil axborotni qayta ishlash jarayonlari sodir bo‘ladi. Metakognitsiya deganda, ushbu jarayonlarni faol kuzatish, kerak bo‘lganda ularni tartibga solish va muvofiqlashtirish tushuniladi. Bularning barchasi aniq bir maqsad yoki vazifaga erishishga xizmat qiladi”.

Keyinchalik, metakognitsiya bilan bog‘liq ko‘plab empirik va nazariy tadqiqotlarda (Brown, 1987; Paris & Winograd, 1990) bu tushuncha yanada kengaytirilib, o‘z–o‘zini boshqariladigan ta’lim (self-regulated learning) nazariyasining asosiy mexanizmlaridan biriga aylangan. 1998-yilda Xaker metakognitsiyaning yanada keng qamrovli ta’rifini bergan. Unga ko‘ra, metakognitsiya – shaxsning o‘z fikrlash (kognitiv) va hissiy (affektiv) jarayonlari hamda holatlari haqidagi bilimi, shuningdek, bu jarayon va holatlarni ongli ravishda, maqsadli ravishda kuzatish va boshqarish qobiliyatidir.

MDH olimlaridan kognitiv va metakognitiv ko ‘nikmalar, ta’lim jarayonida ularni shakllantirish va rivojlantirish masalalari bo‘yicha G.G. Gubina, A.V. Karpov, D. Makarova, I. Yu. Filimonova, M. A. Xolodnaya kabilar tadqiqot ishlarini olib borganlar. O‘zbekiston tadqiqotchi olimlaridan mazkur masala doirasida B.X. Xodjayev, E.M. Rasulov, V.R. Ochilova, S.I. Xudaynazarovlarning ilmiy ishlarini e’tirof etish mumkin.

Metakognitsiya oddiy qilib aytganda “fikrlash haqida fikrlash” dir. Ammo bu ta’rifning ortida chuqur pedagogik mazmun yashiringan bo‘lib, metakognitiv talaba nafaqat vazifani bajaradi, balki qanday qilib bajarayotganini, nima uchun aynan shu usulni tanlaganini, qayerda xato qilishi mumkinligini va qanday tuzatish kiritish kerakligini ongli ravishda tahlil qiladi.

Zamonaviy talqinda metakognitiv ko‘nikmalar quyidagi uch asosiy komponentlarni, ya’ni metakognitiv bilim, metakognitiv nazorat hamda metakognitiv baholashni o‘z ichiga oladi.

Komponent	Mazmuni	Izoh (talaba misolida)
Metakognitiv bilim	O‘z o‘rganish uslubi, kuchli va zaif tomonlari, vazifa xususiyatlari va strategiyalar haqida bilim	“*Men ma’ruza matnlarini konspekt qilganda yaxshi o‘zlashtiraman, lekin amaliy topshiriqlarni guruhda muhokama qilishda qiynalaman*”
Metakognitiv nazorat	O‘rganishni rejalashtirish, strategiyalarni tanlash, jarayonni kuzatish va kerakli tuzatishlar kiritish	“Kurs ishini boshlashdan oldin reja tuzaman, har bir bosqichdan so‘ng qilgan ishimni tekshiraman”
Metakognitiv baholash	O‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, xatolar sabablarini	“Testda xato qilganim – mavzuni to‘liq o‘zlashtirmaganim emas, balki savolni diqqat bilan o‘qimaganim uchun ekan

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

	aniqlash, kelajak uchun xulosa chiqarish	

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda mustaqil ta’lim (fan bo‘yicha darsdan tashqarida ya’ni, ARM, kutubxona va uyda muntazam ravishda o‘qib o‘rganish, darsga tayyorgarlik ko‘rish) yetakchi o‘rin egallaydi. Mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat bo‘lib, mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi sanaladi. Mustaqil ish qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 16 iyuldagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-son buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnomada talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozimligi belgilab berilgan:

- talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog‘liqlikda mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirish;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo‘llarini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;
- talabalarda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- ta’lim oluvchilarda bilim olishga doir mas’uliyatni oshirish;
- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

ta’lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Talabalarning mustaqil ta’limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim: auditoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish; auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; fan (modul) bo‘yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari) da o‘qib-o‘rganish. Ma’lumot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi: mavzu bilan bog‘liq saytlarga taqriz yozish; ma’lum mavzuga doir tarmoqdagi mavjud referatlarni tahlil etish, ularni baholash; ma’ruza rejasiga doir o‘z variantini yoki uning ma’lum bir qismini yozish; foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish; amaliy mashg‘ulotlardan lavha tayyorlash; mavzuga doir ma’ruza tayyorlash; mavzuga doir munozara o‘tkazish; professor–o‘qituvchi tomonidan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash. Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari haqidagi batafsil ma'lumot quyidagi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval. Talabalarda metakognitiv ko'nikmalrni rivojlantirish bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari

Mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari	Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik jarayonidagi mustaqil ta'lim	Auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lim faoliyati	Axborot-resurs markazlari, uy (talabalar turar joylari)da mustaqil ta'lim
Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga hozirlik	Ma'ruza, seminar va amaliy darslarga puxta tayyorgarlik ko'rish	Dolzarb mavzu yuzasidan shaxsiy nuqtayi nazarni tanqidiy, publitsistik va boshqa janrlarda ifodalash (masalan, insholar yozish)	Internet orqali ma'lumot izlash: veb-brauzer, elektron kutubxonalar, axborot bazalaridan foydalanish
Ilmiy seminar va konferensiyalar uchun tayyorgarlik	Ilmiy seminar va konferensiyalarda qatnashishga tayyorgarlik ko'rish	Ma'ruzalar tayyorlash; kurs ishi yozish; konspekt qilish; atamalar lug'atini tuzish	Ilmiy-tahliliy materiallar ustida ishlash; ishonchli manbalarni tahlil qilish
Muammolarni tahlil qilish va yechim topish	Ko'p beriladigan savollar (FAQ) orqali bilimlarni chuqurlashtirish	Keys-topshiriqlarni bajarish; mavzuga oid portfolio yaratish	Interaktiv veb–sahifalar va topshiriqlar ishlab chiqish
Raqamli va tarmoq texnologiyalaridan foydalanish	Rejalashtirilgan yoki o'tilgan ma'ruzalarni tahlil qilish	Mutaxassislar yoki talabalar bilan real vaqt rejimida onlayn muloqot (chat, videoaloqa) ni amalga oshirish	SI, HTML muharriri, internet brauzer va grafik tahrirlovchilardan samarali foydalanish
Onlayn forum va ta'lim platformalarida ishtirok etish	Ilmiy va akademik forumlarda faol ishtirok etish	Telegram guruhlari yoki masofaviy ta'lim platformalarida ilmiy muloqot olib borish	Talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlarni veb–saytlarga joylashtirish
Nazorat ishlariga samarali tayyorgarlik	Nazorat ishlari uchun reja tuzish va tayyorgarlik ko'rish	Multimedia taqdimotlarini ishlab chiqish	O'quv jarayoni uchun metodik qo'llanmalar tayyorlash
Imtihonlarga puxta hozirlik	Imtihonlarga tayyorgarlik	Darsdan tashqari mustaqil	Mavzuga oid adabiyotlarni jamlab,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

	jarayonini tizimli tashkil etish	mashg‘ulotlar rejasini ishlab chiqish	tavsiya etilgan manbalar ro‘yxatini nashr qilish

Mustaqil ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari va metakognitsiyaga talabi haqida fikr yuritadigan bo‘lsak. Mustaqil ta’lim – bu talabaning o‘qituvchi ishtirokisiz yoki minimal ishtirokida, o‘z faolligi, mas’uliyati va tashabbusi asosida bilimlarni egallash jarayoni. Uning asosiy shakllari quyidagicha:

– Auditoriyadan tashqari mustaqil ish (darslik, ma’ruza matnlari, qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash);

– Masofaviy kurslar va onlayn platformalar orqali o‘qish;

– Loyihaviy va tadqiqot topshiriqlarini bajarish;

– Imtihon va testlarga mustaqil tayyorgarlik.

Mustaqil ta’limda o‘qituvchining bevosita yo‘l-yo‘riq va nazorati yo‘q. Shu sababli, talaba *rejalashtirish, kuzatish, baholash* va *refleksiya* kabi metakognitiv vazifalarni o‘zi hal qilishi kerak bo‘ladi.

1. Rejalashtirish vazifasi *qachon, qancha vaqt, qanday ketma-ketlikda, qanday manbalardan foydalanib o‘qish ma’qul?* kabi savollarga javob izlashdan boshlanadi;

2. Kuzatish bosqichida talaba *“Hozir tushunyapmanmi? Kerakli sur’atda ketyapmanmi? Chalg‘itadigan omillar bormi?”* degan savollarga javob topadi;

3. Baholash esa *“Ko‘zlagan maqsadimga erishdimmi? Xatolarimga sabab nima? Qanday yaxshilash mumkin?” kabi so‘roqlarni o‘z ichiga oladi.*

4. Refleksiyada talaba *“Bugungi o‘rganishim jarayonidan qanday xulosalar chiqardim? Ertaga qanday o‘zgartirish kiritaman?” kabi savollarni o‘z oldiga qo‘yadi.*

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv ko‘nikmalari rivojlanmagan talabalar mustaqil ish vaqtining 50% dan ortig‘ini samarasiz sarflaydi, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, tez charchaydi, topshiriqlarni kechiktiradi va o‘zlashtirishi past bo‘ladi. Aksincha, metakognitiv strategiyalarni qo‘llaydigan talabalar esa mustaqil ta’limda yuqori natijalarga erishadi.

Metakognitiv ko‘nikmalarning o‘ziga xos ahamiyati shundaki, shaxsiy ta’lim samaradorligi hamda kelajakdagi pedagogik faoliyat uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘qituvchilik kasbiga tayyorlanish jarayonida katta hajmdagi nazariy (pedagogika tarixi, didaktika, ta’lim nazariyasi, psixologiya) va amaliy (pedagogik amaliyot, mikroo‘qitish) bilimlarni o‘zlashtirishi talab etiladi. Bu borada, talabalarda yetarli darajadagi metakognitiv ko‘nikmalarning mavjudligi ularga quyidagi amallarni bajarishda yengillik beradi desak yanglishmaymiz:

- Ma’ruza va seminarlarni samarali konspektlashtirish;
- Pedagogik amaliyotga oldindan tayyorgarlik ko‘rish va kutilmagan vaziyatlarga moslashish;
- Kurs va bitiruv malakaviy ishlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish;
- Imtihonlarga tayyorgarlikda o‘z bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyasini tanlash imkonini beradi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Bo‘lajak o‘qituvchi sifatida kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun esa “metakognitiv pedagog” quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- O‘quvchilarning metakognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash (ularga “qanday o‘rganishni o‘rgatish”);
- Darslarda metakognitiv so‘roqlar, refleksiv topshiriqlar va o‘z-o‘zini tekshirish vositalaridan foydalanish;
- O‘quvchilarning xatolarini ular bilan birgalikda tahlil qilish;
- Turli o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublariga mos strategiyalarni tanlash.

Agar o‘qituvchining o‘zi metakognitiv ko‘nikmalarga ega bo‘lmasa, u boshqalarda bu ko‘nikmalarni rivojlantira olmaydi. Shuning uchun pedagogika oliygohlarida metakognitiv yondashuv nafaqat o‘qitish metodi, balki o‘quv dasturining mazmuniy qismiga aylanishi kerak.

Muhokama va natijalar. Mustaqil ta’lim orqali metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish va talabalar tomonidan mustaqil ta’lim jarayonida bevosita qo‘llanishi mumkin bo‘lgan amaliy metodlarning ba’zilari quyida izohlab berilgan bo‘lib, ular talabaga nafaqat o‘z-o‘zini boshqarish, balki mustaqil va tanqidiy fikrlash, shu bilan birga muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa o‘quv materialini shunchaki yod olish emas, balki qanday o‘rganishni o‘rganish (learning to learn) kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi metodlardan biri – “SMART maqsadlarni qo‘yish” hisoblanadi. Bunda metakognitiv rejalashtirishning asosiy vositasi sifatida talaba har bir mustaqil ishni bajarish oldidan aniq, o‘lchanadigan, erishish mumkin bo‘lgan, dolzarb va vaqt bilan cheklangan (SMART) maqsad belgilaydi. Pedagogik texnologiya fani misolida ko‘rib chiqsak: 20-aprelgacha “Ta’limda interfaol metodlar” mavzusi bo‘yicha 5 ta ilmiy maqolani o‘qib chiqaman, har bir maqolaning 3 asosiy g‘oyasini konspekt qilaman va ularni shaxsiy fikrim bilan izohlayman.”

Keyingi metod – O‘rganish jurnali (learning log) deb nomlanadi. Mazkur metodda talaba har bir mustaqil ta’limni bajarib, topshirgan kunidan so‘ng qisqa yozuv qoldiradi. Jurnal quyidagi ustunlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

Sana	Mavzu	Maqsad	Qo‘llangan strategiya	Qiyinchilik	Refleksiya
10.04	Interfaol metodlar	2 ta metodni tahlil qilish	Avval videoni ko‘rdim, so‘ng amaliy misol yozdim	Vaqtni to‘g‘ri taqsimlamadim	Ertaga Pomodoro bilan ishlayman

So‘nggi bosqichda agar o‘rganish jurnali o‘qituvchiga ko‘rsatilganda, talaba metakognitiv fikr–mulohaza oladi. Shu o‘rinda, yuqoridagi jadvalda keltirilgan promodoro tushunchasini izohlab o‘tsak, Pomodoro bu – vaqtni boshqarishning samarali usuli bo‘lib, bundan maqsad diqqatni jamlash va ayni vaqtda charchashning oldini olishdir. Bu usul asosan 25 daqiqalik ish va undan keyingi qisqa tanaffus tamoyiliga asoslangan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Uchinchi metod – “Xatolarni tahlil qilish yozuvi” bo‘lib, test, mustaqil ish yoki amaliy topshiriq natijalarini qaytarishda talaba xatolarini quyidagi jadval asosida tahlil qiladi:

Xato sohasi	Xato turi	Sababi	Oldini olish strategiyasi
Pedagogik atamalar	Tushunmaslik	Terminni noto‘g‘ri eslab qolgan	Terminlar kartotekasini yaratish
Amaliy vaziyat tahlili	Strategiya xatosi	Shoshilib, faqat bitta yondashuvni qo‘llagan	Keyingi safar “aqliy hujum” usulidan foydalanish

To‘rtinchi metod – “O‘ylab gapirish” (Think-aloud) texnikasi. Bunda talaba mustaqil ravishda topshiriqni bajarayotganda diktafon (ovoz yozuvchi)ga yoki qog‘ozga o‘z fikrlarini yozib boradi. Keyin yozuvni qayta tinglab, fikrlash jarayonidagi metakognitiv “to‘siqlarni” aniqlaydi.

Navbatdagi metod – Pomodoro texnikasi yoki vaqtni bloklash bo‘lib, talaba mustaqil ta’limda vaqtni boshqarish uchun 25 daqiqa ish, 5 daqiqa tanaffus (Pomodoro) sxemasini qo‘llaydi. Har bir “pomodoro” oxirida talaba “Hozirgacha qancha tushundim? Diqqatim chalg‘idimi?” degan savollarga javob beradi.

Keyingi metod – “Konsepsiya xaritasi” (concept map) deb ataladi. Ushbu usul orqali talaba Pedagogika turkum fanlaridagi murakkab mavzular (masalan, “Ta’lim tizimlari modellari”) bo‘yicha mustaqil ravishda tushunchalar va ular orasidagi bog‘lanishlarni grafik shaklda ifodalaydi. Xaritani darslik yoki o‘qituvchi namunasi bilan solishtirish metakognitiv baholashni rivojlantiradi.

Ma’lumki, mustaqil ta’limda o‘qituvchining bevosita ishtiroki kam bo‘lsa-da, ammo uning bilvosita o‘rni va roli quyidagi harakatlar asosida yaqqol namoyon bo‘ladi:

Metakognitiv ko‘mak yoki qo‘llab-quvvatlash (scaffolding) – bu usulda mustaqil ish topshirig‘i bilan birga tekshirish varaqalari, refleksiv savollar va namuna strategiyalar taqdim etiladi. Misol: *“Ushbu maqolani mustaqil o‘qishda quyidagi savollarga javob bering: ...” yoki “Mana men qanday konspekt qilgan edim”.*

Formatik fikr-mulohaza – talabaning o‘rganish jurnali yoki refleksiv hisobotiga asoslangan, metakognitiv jarayonlarni kuchaytiruvchi fikr-mulohaza beriladi. Masalan: *“Siz xatolarni tahlil qilish qismida faqat turini yozgansiz, sababini chuqurroq tahlil qiling. Nega aynan strategiya xatosi yuz berdi?”*

Metakognitiv muhokama mashg‘ulotlari – haftada bir marta 15-20 daqiqalik onlayn yoki auditoriyada *“Qanday o‘rganyapsiz? Qanday muammolar?”* muhokamasi o‘tkaziladi. Bunda talabalar bir-biriga o‘z metakognitiv strategiyalarini taqdim etadi va eng samaralilari tanlanadi.

Shaxsiy namuna (modelling) – o‘qituvchi o‘zining mustaqil ta’lim jarayonida qanday metakognitiv strategiyalarni qo‘llashini video yoki matn orqali ko‘rsatadi. Misol: *“Keling, men yangi bir mavzuni mustaqil o‘rganayotganimni tasvirlab beraman. Avval ... keyin ...”*

Portfolio va refleksiv hisobot – talaba semestr davomida o‘z mustaqil ta’limda bajargan ishlari, jurnallari, xato tahlillari, strategiya o‘zgarishlarini to‘playdi va yakuniy refleksiyani yozadi. Masalan, talaba “Pedagogik amaliyotga tayyorgarlik portfoliom” nomli fayllar papkasini tutib, har bir amaliy kundan keyin “nima qildim, qanday o‘zgartirdim” degan tahlil yozadi va papkaga solib boraveradi. Shu orqali, u o‘zining o‘rganish

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

jarayonidagi o‘sishini kuzatib boradi, xatolar ustida ishlaydi va metakognitiv strategiyalarini bosqichma-bosqich takomillashtiradi.

Metakognitiv ko‘nikmalarni baholash an’anaviy testlardan farq qilib, bunday amalni bajarishda quyidagi vositalar tavsiya etiladi:

Metakognitiv so‘rovnoma – Likert shkalasida 15-20 bayonotdan iborat *(masalan, “Men vazifani boshlashdan oldin reja tuzaman”, “Xato qilsam, sababini tahlil qilaman”)*. Talaba misolida: so‘rovnoma semestr boshida va oxirida o‘tkazilib, talabaning metakognitiv o‘sishi kuzatiladi.

O‘ylab gapirish yozuvi tahlili – talabaning ovoz yozuvi metakognitiv mezonlar (rejalashtirish, kuzatish, baholash) bo‘yicha baholanadi. Misol: 3 balli shkala qo‘llaniladi (1 – zaif, 2 – o‘rtacha, 3 – kuchli).

O‘rganish jurnali sifat tahlili – jurnal yozuvlarining chuqurligi, refleksiyaning mazmunliligi, qo‘llangan strategiyalarning o‘zgarishi baholanadi. Masalan: portfolioda jurnal varaqalari va o‘qituvchi izohlari aks etadi.

Mustaqil ish natijalari bilan korrelyatsiya – metakognitiv ko‘rsatkichlar (so‘rovnoma balli) va akademik natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Misol uchun, bu bog‘liqlik Pearson korrelyatsiyasi orqali aniqlanadi.

Xulosa. Mustaqil ta’lim zamonaviy oliy ta’limning asosiy shakllaridan biriga aylanmoqda. Uning samaradorligi bevosita talabaning o‘z bilish faoliyatini rejalashtirish, kuzatish, baholash va refleksiya qilish qobiliyati ya’ni, metakognitiv ko‘nikmalariga bog‘liq ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zero, metakognitiv ko‘nikmalar talabalarning mustaqil o‘rganish kompetensiyasining asosini tashkil etadi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun metakognitiv ko‘nikmalar ham oliy ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish vositasi sifatida, ikkinchi tomondan, istiqboldagi pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning metakognitiv rivojlanishini ta’minlashning asosiy sharti sanaladi. Mustaqil ta’limda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning bir qator, SMART maqsadlar, o‘rganish jurnali, xatolarni tahlil qilish yozuvi, “o‘ylab gapirish”, Pomodoro texnikasi, konsepsiya xaritasi kabi amaliy metodlari tizimli va muntazam qo‘llanilganda samarali natija beradi. Talabaning mustaqil ta’lim olishida o‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etmasa-da, metakognitiv bosqich, formatik fikr-mulohaza, muhokama mashg‘ulotlari, shaxsiy namuna va portfolio kabi usullar orqali talabaning metakognitiv rivojlanishiga katta hissa qo‘sha oladi.

Xulosa qilib aytganda, metakognitiv ko‘nikmalar – bu talabaga “baliq” berish emas, balki “baliq tutish”ni o‘rgatishning eng chuqur shaklidir. Ular bilimlarni faqat o‘zlashtirishga emas, balki qanday o‘rganishni o‘rganishga yo‘naltiradi. Bugungi tez o‘zgaruvchan dunyoda har qanday aniq fakt yoki ko‘nikma tezda eskirishi mumkin, ammo metakognitiv qobiliyatlar insonga butun hayoti davomida yangi bilimlarni mustaqil va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Metakognitiv ko‘nikmalari rivojlangan talaba – bu o‘qituvchisiz ham o‘rgana oladigan, har qanday qiyinchilikda qanday harakat qilishni biladigan, xatolaridan saboq chiqaradigan va butun hayoti davomida o‘z bilimini yangilay oladigan mustaqil shaxsdir. Aynan shu maqsad zamonaviy ta’limning eng oliy vazifasidir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Brown, A. L. (1987). Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms. In F. E. Weinert & R. H. Kluwe (Eds.), Metacognition, motivation, and understanding (pp. 65–116). Lawrence Erlbaum Associates.
2. Flavell, J. H. (1976). Metacognitive aspects of problem solving. In L. B. Resnick (Ed.), The nature of intelligence (pp. 231-235). Lawrence Erlbaum Associates.
3. Hacker, D. J. (1998). Definitions and empirical foundations. In D. J. Hacker, J. Dunloky, & A. C. Graesser (Eds.), Metacognition in educational theory and practice (pp. 1-23). Lawrence Erlbaum Associates.
4. Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha YO‘RIQNOMA, Toshkent 2021 yil.
5. Rasulov E.M. (2025). Kognitiv hamda metakognitiv faoliyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va ularni rivojlantirish usullari. “O‘zbekiston-2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari”, 1(3), 41-45.
6. Xodjayev B.X., Saliyeva Z.T., Matkarimova N.B. (2023). Pedagogikaning pragmatik aspektlari. Toshkent: «Ijod Nashr» nashriyoti.
7. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory into Practice, 41(2), 64-70.
8. Губина Г.Г. (2025). Комплекс условий для внедрения метакогнитивного подхода в среднее профессиональное образование. Вестник МГПУ. Серия «Педагогика и психология».
9. Карпов А.В., Скитяева И.М. (2005). Психология метакогнитивных процессов личности. Москва: Изд-во «Институт психологии РАН».
10. Макарова Д. (2020). Продуктивные и непродуктивные паттерны метакогнитивной регуляции интеллектуальной деятельности. Вестник Санкт-Петербургского университета. Психология, 10(2), 53-68.
11. Филимонова И.Ю. (2009). Метакогнитивный подход к организации самостоятельной учебной работы будущего учителя в высшей школе Франции, Швейцарии и Республики Беларусь: монография. Могилев: МГУ имени А.А. Кулешова.
12. Холодная М.А. (2002). Психология интеллекта. Парадоксы исследования: учебное пособие для вузов (2-е изд., перераб. и доп.). Санкт-Петербург: Питер.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

AMALIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT

Ruziyeva Dilafro'z Muminovna, Buxoro davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, "Fizika va texnologik ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi, Buxoro, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: so'nggi yillarda ta'lim tizimida amaliy texnologiyalardan foydalanish kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini samarali rivojlantirishda muhim omilga aylangan. Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish talabalarni nafaqat bilimli, balki ko'nikmaga ega, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, amaliy ta'lim texnologiyalari pedagogik jarayonda integratsiyalashgan holda qo'llanilayotgani va talabalar kompetensiyasini rivojlantirishdagi rolini chuqur o'rganish zarurati mavjud.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – amaliy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarni fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish usullarini aniqlash, samaradorligini tahlil qilish va pedagogik amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini izohlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:Nazariy tahlil – pedagogika va ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va amaliy metodik qo'llanmalar o'rganildi. Eksperimental metod – amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha sinovlar va kuzatuvlar amalga oshirildi. Suhbat va so'rovnomalar – talabalarning o'quv jarayonidagi fikr-mulohazalari va o'z-o'zini baholash natijalari yig'ildi. Kvantitativ va sifatli tahlil – olingan natijalar statistik va pedagogik usullar orqali tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy predmeti – amaliy ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish jarayoni.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, amaliy texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar quyidagi kompetensiyalarni sezilarli darajada rivojlantirdi:

- Analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari – masalalarni mustaqil tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish.
- Amaliy ko'nikmalar – nazariy bilimlarni laboratoriya, loyiha va muammoli vazifalarda qo'llash.
- Hamkorlik va kommunikatsiya – guruh ishlarida muloqot va mas'uliyatni oshirish.
- Muammolarni hal qilish – real vaziyatlarga tez va samarali yechim topish.

Eksperimental mashg'ulotlar ko'rsatdiki, amaliy texnologiyalarni qo'llash talabalarning fanga oid kompetensiyalarini 25–30% ga oshirishga yordam berdi. Talabalar tomonidan berilgan so'rovnomalar natijasida amaliy mashg'ulotlarning motivatsiya va o'quv qiziqishini sezilarli darajada kuchaytirishi qayd etildi.

XULOSA: amaliy ta'lim texnologiyalari talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, amaliy mashg'ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlash, mustaqil fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

amaliy texnologiyalarni qo‘llash talabalarning motivatsiyasini oshirish va o‘quv jarayonini interaktiv qilishga xizmat qiladi. Kelajakda bu yondashuvni kengaytirish va boshqa fanlar bo‘yicha qo‘llash tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: amaliy ta’lim, kompetensiya, interaktiv metodlar, samaradorlik, innovatsion yondashuv.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ ПРАКТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Рузиева Дилафруз Муминовна, Преподаватель кафедры «Физика и технологическое образование» Бухарского государственного педагогического института. Бухара, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в последние годы использование практических образовательных технологий в системе обучения стало важным фактором эффективного развития компетентностно ориентированного образовательного процесса. Совмещение теоретических знаний с практической деятельностью позволяет формировать студентов не только как носителей знаний, но и как обладателей практических навыков и самостоятельного мышления. В связи с этим существует необходимость тщательного изучения интеграции практических образовательных технологий в педагогический процесс и их роли в развитии компетенций студентов.

ЦЕЛЬ ИССЛЕДОВАНИЯ: определить методы развития у студентов компетенций, связанных с учебной дисциплиной, через практические образовательные технологии, проанализировать их эффективность и рассмотреть возможности применения в педагогической практике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались следующие методы: Теоретический анализ – изучение научной литературы, статей и методических пособий по педагогике и образовательным технологиям. Экспериментальный метод – проведение практических занятий для развития компетенций студентов, а также наблюдение и тестирование. Интервью и анкетирование – сбор мнений студентов о процессе обучения и их самооценка. Квантитативный и качественный анализ – обработка полученных данных с использованием статистических и педагогических методов.

Объект исследования – процесс применения практических образовательных технологий для преобразования теоретических знаний студентов в практические навыки.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что применение практических технологий существенно способствует развитию у студентов следующих компетенций: Аналитическое и критическое мышление – способность самостоятельно анализировать задачи и разрабатывать решения. Практические навыки – применение теоретических знаний в лабораторных работах,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

проектах и проблемных заданиях. Сотрудничество и коммуникация – улучшение взаимодействия и ответственности при работе в группе. Решение проблем – быстрый и эффективный поиск решений в реальных ситуациях. Экспериментальные занятия показали, что применение практических технологий позволяет повысить уровень компетенций студентов на 25–30%. Результаты анкетирования студентов подтвердили значительное повышение мотивации и интереса к учебному процессу благодаря практическим занятиям.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: практические образовательные технологии служат эффективным инструментом развития у студентов компетенций, связанных с учебной дисциплиной. Исследование показало, что практические занятия способствуют закреплению теоретических знаний, формированию самостоятельного мышления и навыков сотрудничества. Кроме того, применение практических технологий в педагогическом процессе повышает мотивацию студентов и делает учебный процесс более интерактивным. В перспективе рекомендуется расширять применение данного подхода и использовать его в других дисциплинах.

Ключевые слова: практическое обучение, компетенции, интерактивные методы, эффективность, инновационный подход.

DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCIES THROUGH PRACTICAL LEARNING TECHNOLOGIES: THEORY AND PRACTICE

Ruziyeva Dilafruz Muminovna, Lecturer at the Department of "Physics and Technological Education", Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

ABSTRACT

INTRODUCTION: in recent years, the use of practical educational technologies in the education system has become an important factor in effectively developing a competency-oriented learning process. Combining theoretical knowledge with practical activities allows students to develop not only as knowledge holders but also as individuals with practical skills and independent thinking. Therefore, it is necessary to thoroughly study the integration of practical educational technologies into the pedagogical process and their role in developing students' competencies.

RESEARCH OBJECTIVE: the objective of this study is to identify methods for developing students' competencies related to academic disciplines through practical educational technologies, analyze their effectiveness, and examine their potential application in pedagogical practice.

MATERIALS AND METHODS: the following methods were used in the study:Theoretical analysis – examination of scientific literature, articles, and methodological guides on pedagogy and educational technologies. Experimental method – conducting practical lessons to develop students' competencies, including observation and testing. Interviews and surveys – collecting students' feedback on the learning process

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

and self-assessment of their competencies. Processing the collected data using statistical and pedagogical methods. The object of the study is the process of applying practical educational technologies to transform students' theoretical knowledge into practical skills.

DISCUSSION AND RESULTS: the study results showed that the application of practical technologies significantly contributes to the development of the following student competencies: Analytical and critical thinking – the ability to independently analyze problems and develop solutions. Practical skills – application of theoretical knowledge in laboratory work, projects, and problem-based tasks. Collaboration and communication – improving interaction and responsibility during group work. Problem-solving – rapid and effective decision-making in real situations.

Experimental lessons demonstrated that the use of practical technologies increases students' competencies by 25–30%. Student survey results confirmed a significant increase in motivation and engagement in the learning process due to practical activities.

CONCLUSION: practical educational technologies serve as an effective tool for developing students' competencies related to academic disciplines. The study showed that practical lessons help consolidate theoretical knowledge, foster independent thinking, and develop collaboration skills. Moreover, the application of practical technologies in the pedagogical process enhances student motivation and makes the learning process more interactive. In the future, it is recommended to expand the use of this approach and apply it to other academic disciplines.

Keywords: practical learning, competencies, interactive methods, effectiveness, innovative approach.

Hozirgi vaqtda Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta'lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko'nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi. Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni eksperiment qilish bilan bog'liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Shu innovatsion texnologiyalar asosida sekin-asta pedagogikaning ya'ni o'qitish tizimining ham yangidan yangi turlari vujudga kelmoqda. Masalan ulardan biri hamkorlik

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 20-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern, S.T.Katskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir. Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

-shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;
-dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
-tarbiya kontseptsiyasi;
-atrof-muhitni ta'lim-tarbiyaga moslash

Ko'pgina mamlakatlar o'qitishda texnologik yondashuvdan foydalanib, talabalar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqqiyatga erishdilar.

Masalan, Janubiy Koreyada pedogogik texnologiya bo'yicha sinov-tajriba tarzida o'qiyotgan 50 ming bola 15 foiz an'anaviy o'qitishda faqat eng yaxshi erishadigan natijalar qo'lga kiritilgan. Bir qator barcha mamlakatlarda o'tkazilgan tajribalar o'qitishning bu tizimini qo'llash o'rtacha o'quvchiga an'anaviy o'qitishda 20-25 foiz o'quvchilar erishadigan natijadan yuqoriroq natijaga erishish imkonini berishini ko'rsatdi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qollanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Hozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: Raqamli texnologiyalar - bu axborotni raqamli shaklda ishlab chiqish, saqlash va uzatish uchun ishlatiladigan qurilmalar, dasturlar va tizimlar majmuasidir. Raqamli texnologiyalar texnologiyaning ko'plab sohalarida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirgan va zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Quyida raqamli texnologiyalarning asosiy yo'nalishlari va ulardan foydalanish sohalari haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan:

Kompyuterlar va Internet raqamli texnologiyaning poydevoridir. Internet global axborot uzatish va muloqot vositasi sifatida turli sohalarda axborotni tezkor olish, saqlash va ulashishga imkon beradi.Raqamli texnologiyalar vositasida ijtimoiy tarmoqlar, onlayn kurslar va boshqa platformalar orqali bilim olish va tarqatish ancha qulaylashdi. Mobil qurilmalar, xususan, smartfon va planshetlar, odamlar uchun bir nechta raqamli xizmatlardan foydalanishni osonlashtirdi. Ular yordamida foydalanuvchilar aloqa o'rnatish, hujjatlar bilan ishlash va onlayn o'quv jarayonlariga ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Mobil ilovalar orqali har xil sohalarda (ta'lim, tibbiyot, savdo) yangi imkoniyatlar yaratildi. Bulutli texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va ularni qayta ishlashda qulaylik beradi. Bu texnologiyalar kompaniyalarga ma'lumotlar bilan masofaviy ishlash, jamoaviy ish olib borish va xavfsiz saqlash imkoniyatlarini yaratadi.

Shuningdek, bulutli hisoblash tizimlari yordamida o'quv muassasalari masofaviy ta'lim berish tizimlarini rivojlantirishmoqda. Sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Data) raqamli texnologiyalarning eng ilg‘or yo‘nalishlaridan biridir. Ular yordamida axborotni chuqur tahlil qilish va qiyin muammolarni hal qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Masalan, AI yordamida ta’lim jarayonida shaxsiylashtirilgan o‘qitish, talabaning bilim darajasini avtomatik tahlil qilish va o‘quv jarayonini muvofiqlashtirish mumkin. VR va AR texnologiyalari simulyatsiya va interaktiv o‘quv mashg‘ulotlarini taqdim etish imkonini beradi. Ular o‘quvchilarga murakkab mavzularni vizual tarzda tushunish va amaliyotda sinab ko‘rish imkonini yaratadi. Masalan, biologiya yoki kimyo laboratoriyalarida bu texnologiyalardan foydalanish orqali xavfsiz va interaktiv muhit yaratiladi.

Blokcheyn texnologiyasi xavfsiz va shaffof ma’lumotlar almashinuvini ta’minlaydi, bu texnologiyalar hozirgi vaqtda moliyaviy tizimlar, ta’lim va tibbiyotda xavfsiz ma’lumot almashish uchun ishlatilmoqda. Bu texnologiya kelajakda ta’limdagi sertifikatlar va diplomlarni himoya qilish, ularni buzilmaydigan raqamli shaklda saqlash imkoniyatlarini taqdim etadi. IoT turli xil qurilmalarni internet orqali o‘zaro bog‘lash imkonini beradi, bu esa real vaqtda monitoring qilish va boshqarish imkonini beradi. Masalan, o‘quv auditoriyalaridagi qurilmalarni masofadan boshqarish, xavfsizlikni nazorat qilish, o‘quv jarayonini avtomatlashtirishda foydalaniladi. Raqamli texnologiyalar zamonaviy dunyo uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi va ta’lim jarayonida innovatsion yechimlar va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Oliy ta’lim muassalarida raqamli texnologiyalar asosida o‘quv jarayonlarini tashkil etishga qo‘yilayotgan talablar mazkur jarayonni texnologiyalashni, ya’ni butun ta’lim jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, o‘qituvchining maqsadi va talabalarning vazifalarini oydinlashtirish, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash, mashg‘ulotdan kutiladigan natijalarni oldindan belgilashni shart qilib qo‘ymoqda. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi:

- o‘qituvchi-talabalar hamkorligida o‘qitish shakllari, ta’lim texnologiyalari hamda metodlarini takomillashtirish;
- o‘qituvchining kasbiy-pedagogik bilimdonligi va kasbiy madaniyatini rivojlantirish;
- hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida qulay didaktik vaziyatlarni vujudga keltirish;
-hamkorlikka asoslangan o‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchining pedagogik jarayonni loyihalashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish;
- o‘qituvchida loyihalashga asoslangan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish va boshqarish.

Maxsus simulyatsion dasturlar laboratoriya sharoitlarini virtual tarzda yaratadi. Bu dasturlar yordamida talabalar amaliy mashg‘ulotlarda tajriba o‘tkazish jarayonlarini kompyuterda qayta ko‘rib chiqish yoki model qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, fizika yoki elektronika laboratoriyalarida simulyatsiya dasturlari elektr toki, kuchlanish va boshqa ko‘rsatkichlarni model qilish imkonini beradi, natijada talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlash va jarayonlarni chuqurroq o‘rganishadi.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o‘quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

aniqlash maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, unda raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida nafaqat muhim o‘rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi. Yurtimizdagi nufuzli xususiy o‘quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta’limni yo‘lga qo‘ymoqda. Bu jarayonning o‘zi ham mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni “raqamlashtirish” muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning izlanishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Ta’limda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun unversitet va institutlarda ham ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish-bugungi kun uchun yangilik emas albatta. Biz bilamizki, ma’ruza mashg‘ulotlari bir va undan ortiq yo‘nalishlarga bir juftlikning o‘zida o‘qitilishi sababli ham raqamli texnologiyalar (proyektor, kompyuter va televizor)lardan foydalanish ya’ni talabalarning diqqatini jamlash ularni darslarga jalb qilsh uchun ham raqamli texnalogiyalar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Fan-texnika taraqqiyoti ta’lim jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta’limning faol metodlari va texnologiyalarini qo‘llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an’anaviy ta’lim berish usuli ta’lim oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o‘sishiga ham yordam beradi. Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta’lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko‘nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi.

Ma’ruza materiallarini chuqurroq o‘zlashtirish, o‘rganilgan pedagogik ma’lumotlarni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilinadi.

Amaliy mashg‘ulot – bu ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi, mashg‘ulotni o‘qitish shaklidir.

Amaliy mashg‘ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma’ruza darsi mavjud bo‘lgan va ma’ruza darsi mavjud bo‘lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar. Amaliy mashg‘ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat’iy amal qilingan holda o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha zarur adabiyotlar ro‘yxati beriladi. Ma’ruza darsi mavjud bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarda asosan ma’ruza darslarida o‘tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

Amaliy mashg‘ulotning o‘ziga xos tomoni o‘quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o‘rni, o‘qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi bilan xarakterlansada, amaliy

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

mashg‘ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar va bayon etilgan ma’lumotlarni chuqur va puxta o‘rganishga talaba mustaqil ishining sifati va o‘zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko‘nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkiliy shakllari deganda, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o‘tadigan faoliyati tushuniladi. O‘qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o‘qitishning har xil ko‘rinishda qo‘shib olib borilishi, o‘qitishda ta’lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta’lim oluvchilarning o‘qishga o‘qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi. O‘qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta’lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o‘quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo‘lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko‘rinishi bo‘lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o‘tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar)ning ma’lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko‘rinishi kasbiy ta’limning tashkiliy shaklini anglatadi. Mutaxassislik fanlarni o‘qitishning tashkiliy shakllari deganda o‘quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo‘llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o‘quv mashg‘ulotlarini tuzilish tarkibi tushuniladi.

Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta’lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko‘nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkiliy shakllari deganda, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o‘tadigan faoliyati tushuniladi. O‘qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o‘qitishning har xil ko‘rinishda qo‘shib olib borilishi, o‘qitishda ta’lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta’lim oluvchilarning o‘qishga o‘qituvchi rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi. O‘qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta’lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o‘quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog‘liq bo‘ladi. Ta’limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo‘lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko‘rinishi bo‘lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o‘tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar)ning ma’lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko‘rinishi kasbiy ta’limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Mutaxassislik fanlarni o‘qitishning tashkiliy shakllari deganda o‘quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo‘llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o‘quv mashg‘ulotlarini tuzilish tarkibi tushuniladi. Ta’limni u yoki bu shaklini tanlashda, talabalarni kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari,mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko‘rsatkich)larini u yoki bu

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

shakllariga bog‘liq. Mutaxassislik fanlarni o‘qituvchilari maxsus fanlardan tajriba-amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, talabalarni nazariy mashg‘ulotlar davomida olgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalanadilar, ularni chuqurlashtiradilar. Tajriba-amaliy mashg‘ulotlardan ko‘zda tutilgan maqsad ko‘p jihatdan uni o‘tkazish metodikasini talabalar ishiga maxsus fan o‘qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi. Talabalar nazariy materialni o‘zlashtirib olganlaridan, o‘rganilayotgan hodisalar, jarayonlar bilan tanishganlaridan so‘ng ular bilan tajriba-amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish ancha oson ko‘chadi. Bu holda o‘qituvchining yangi mavzu bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazishga oid o‘quv axboroti nihoyatda qisqa va aniq bo‘ladi. Natijasiga asoslanib talabalar ma’lum xulosalar chiqarishi kerak bo‘lgan tajriba-amaliy mashg‘ulotlarni bajarish ancha murakkab hisoblanib, ta’lim oluvchilarni bunga oldindan tayyorlash va o‘qituvchining o‘quv axboroti ancha batafsil bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi talabalarga tajriba-amaliy mashg‘ulotlarining bajarilish jarayoniga yo‘riqnoma berish yo‘li bilan rahbarlik qiladi. Yo‘riqnoma berishdan ko‘zlangap asosiy maqsad talabalar ongida topshiriqni eng samarali bajarish uchun faoliyatning yo‘nalish asoslarini yaratishdan iborat. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, insonning mehnat faoliyati ikki tomonga: yo‘nalish va ijro tomonlariga ega. Yo‘nalish tomoni faoliyatning ob’ektiv sharoitlarining (masalalar, usullar, mezonlar, bajarilish shartlari, texnika vositalari va shu kabilar)ning inson ruhiyatidagi in’ikosi, ijro tomoni esa harakatning bevosita bajarilishi.

I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, yo‘nalish refleksi markaziy asab tizimida shartli bog‘lanishlar hosil bo‘lishiga asos hisoblanadi. Bu bog‘lanishlar bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishniig fiziologik asosidir. Tajriba-amaliy mashg‘ulotlarini o‘quv jarayonida amalga oshirishda yo‘riqnomalar tizimidan foydalaniladi. Yo‘riqnomalar mashg‘ulotda o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra kirish, joriy va yakunlovchi yo‘riqnomalarga; ma’lumot berish usuliga ko‘ra og‘zaki va yozma yo‘riqnomaga bo‘linadi. Kirish yo‘riqnomasi talabalarni tajriba-amaliy mashg‘ulotlarni bajarishga tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega. Har bir tajriba amaliy mashg‘ulot bajariladigan ishdan ko‘zlangan maqsad, maqsad sari olib boradigan yo‘llar talabalarga tushunarli bo‘lgan taqdirdagina ijobiy va qimmatli natijalar beradi. Talabalar o‘zlariga taklif etilayotgan ish o‘rganilgan material bilan qanday bog‘langanligini yoki yanada oldinga siljish uchun u qanday ahamiyatga ega ekanligini anglab olishlari kerak.

Kirish yo‘riqnomasining metodikasi ko‘p jihatdan tajriba-amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan asosiy didaktik maqsadga va uning qanday o‘tkazilishiga bog‘liq. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘qitish shakllarining yana bir shakli amaliy mashg‘ulotidir. Agar ma’ruza katta patok (oqim)da o‘tkazilsa, amaliy mashg‘uloti alohida guruhda o‘tkaziladigan o‘quv ishlarining bir shakli hisoblanib, talabalar o‘quv-biluv faoliyatlari, mustaqil bilim olishlari, ijodiy fikr yuritishlarini yo‘lga qo‘ya oladigan o‘qitish shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham u oliy ta’lim maktabida olib boriladigan o‘qitish shaklining o‘ziga xos bir shakli hisoblanadi. Amaliy (lotincha amaliyium) olimlarning muayyan ilmiy soha bo‘yicha ma’lumotlarni muhokama qilishning dastlabki shakli bo‘lgan. Keyinchalik ilmiy faoliyatlardan o‘quv jarayoniga ko‘chib, talabalarning ishchanligi, bilim

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

darajasi fanga qiziquvchanligi, xarakteri, psixologiyasiga xos tomonlari aniqlash shakliga aylandi, hozirgi kunda amaliy mashg‘uloti suhbat, ma’ruza bo‘yicha fikr almashish, rolli o‘yinlar shaklida o‘tkazish nazarda tutilgan. Mashg‘ulotni amaliy, ma’ruzada o‘tkazilishining muhim tomoni shundaki, unda o‘qituvchi ham talaba ham puxta tayyorgarlik ko‘radi. Har ikkala faoliyat egasi, manbalar bilan ishlash, amaliy rejasida ko‘rsatlgan savollarga javoblar topishda asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanashib chiqishlari lozim bo‘ladi.

Amaliy mashg‘ulotlarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar to‘qnashuvi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Shuning uchun amaliy olib boruvchi o‘qituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, bahs-munozara ishlarini, o‘z nuqtai nazarini dalilash, o‘zgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yo‘llarini aniq tanlashi lozim. Mashg‘ulotning yakunida o‘qituvchi umumiy xulosa yasab, amaliy mashg‘ulotining borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib, navbatdagi amaliy mashg‘ulotini o‘tkazish haqida tavsiyalar berish, o‘ylab ko‘rish, fikrlarni yanada to‘ldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar ro‘yxatini e’lon qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ilmiy nazariy, amaliy-metodik jihatdan yuksak darajada o‘tkazilgan amaliy mashg‘uloti talabalarga fanga qiziqishi, manbalar va adabiyotlar bilan ishlashga ishtiyoq faollikka intilish uyg‘otsa, o‘qituvchilarga o‘z ilmiynazariy malakasiga oshirishga,ilmiy adabiyotlarga ijobiy munosabatda bo‘lish, fan yangiliklarga ishonche’tiqod va fanga qo‘yilayotgan muammolarni yechishga ishtiyoqni tarbiyalaydi. Demak, amaliy mashg‘ulotlarining sifatli va samarali o‘tishiga o‘qituvchi mohorati muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘uloti o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda talabalar o‘z fikrlarini, nuqtai nazarlarini ochiqdan ochiq bayon etadilar, qatiyatlik bilan o‘zlashtirganlarini himoya qiladilar, muloqatda fikr almashinish amalga oshadi.

Amaliy mashg‘uloti haqiqatan ham qiziqarli bo‘lishi uchun u bahs-munozara shaklida, ammo boshqariladigan bo‘lishi lozim. Buning uchun bahs-munozara tartibi o‘qituvchi tomonidan oldindan o‘ylab chiqiladi, ishchi rejada ma’lum savollar, misollar, syujetlar belgilanadi. Xulosa qilib aytganda amaliy mashg‘ulotning muvaffaqiyatliligi doimo talabalar faolligiga bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchining ikkinchi majburiyati – amaliyni har tomonlama rivojlantirish va talabalarni rag‘batlantirishdan iborat. Talabalarning faolligi bu nafaqat amaliyda qatnashish va bahsmunozaralar, balki eshitish qobiliyatini ham rivojlantirib boradigan jarayondir. Shu bois, talabalarga eshitish va gapirish qobiliyati kabi muhim fazilatlar tushuntirish lozim.

Ta’limni u yoki bu shaklini tanlashda, talabalarni kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari,mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko‘rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog‘liq.

Mutaxassislik fanlarni o‘qituvchilari maxsus fanlardan tajriba-amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, talabalarni nazariy mashg‘ulotlar davomida olgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalanadilar, ularni chuqurlashtiradilar.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Tajriba-amaliy mashg‘ulotlardan ko‘zda tutilgan maqsad ko‘p jihatdan uni o‘tkazish metodikasini talabalar ishiga maxsus fan o‘qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi.

Talabalar nazariy materialni o‘zlashtirib olganlaridan, o‘rganilayotgan hodisalar, jarayonlar bilan tanishganlaridan so‘ng ular bilan tajriba-amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish ancha oson ko‘chadi. Bu holda o‘qituvchining yangi mavzu bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazishga oid o‘quv axboroti nihoyatda qisqa va aniq bo‘ladi. Natijasiga asoslanib talabalar ma’lum xulosalar chiqarishi kerak bo‘lgan tajriba-amaliy mashg‘ulotlarni bajarish ancha murakkab hisoblanib, ta’lim oluvchilarni bunga oldindan tayyorlash va o‘qituvchining o‘quv axboroti ancha batafsil bo‘lishi zarur. O‘qituvchi talabalarga tajriba-amaliy mashg‘ulotlarining bajarilish jarayoniga yo‘riqnoma berish yo‘li bilan rahbarlik qiladi.

Yo‘riqnoma berishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, talabalar ongida topshiriqni eng samarali bajarish uchun faoliyatning yo‘nalish asoslarini yaratishdan iborat. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, insonning mehnat faoliyati ikki tomonga: yo‘nalish va ijro tomonlariga ega. Yo‘nalish tomoni faoliyatning ob’ektiv sharoitlarining (masalalar, usullar, mezonlar, bajarilish shartlari, texnika vositalari va shu kabilar)ning inson ruhiyatidagi in’ikosi, ijro tomoni esa harakatning bevosita bajarilishi. I.P.Pavlov ta’limotiga ko‘ra, yo‘nalish refleksi markaziy asab tizimida shartli bog‘lanishlar hosil bo‘lishiga asos hisoblanadi. Bu bog‘lanishlar bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishniig fiziologik asosidir.

Tajriba-amaliy mashg‘ulotlarini o‘quv jarayonida amalga oshirishda yo‘riqnomalar tizimidan foydalaniladi. Yo‘riqnomalar mashg‘ulotda o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra kirish, joriy va yakunlovchi yo‘riqnomalarga; ma’lumot berish usuliga ko‘ra og‘zaki va yozma yo‘riqnomaga bo‘linadi.

Kirish yo‘riqnomasi talabalarni tajriba-amaliy mashg‘ulotlarni bajarishga tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega. Har bir tajribaamaliy mashg‘ulot bajariladigan ishdan ko‘zlangan maqsad, maqsad sari olib boradigan yo‘llar talabalarga tushunarli bo‘lgan taqdirdagina ijobiy va qimmatli natijalar beradi. Talabalar o‘zlariga taklif etilayotgan ish o‘rganilgan material bilan qanday bog‘langanligini yoki yanada oldinga siljish uchun u qanday ahamiyatga ega ekanligini anglab olishlari kerak.

Kirish yo‘riqnomasining metodikasi ko‘p jihatdan tajriba-amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan asosiy didaktik maqsadga va uning qanday o‘tkazilishiga bog‘liq. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘qitish shakllarining yana bir shakli amaliy mashg‘ulotidir. Agar ma’ruza katta patok (oqim)da o‘tkazilsa, amaliy mashg‘uloti alohida guruhda o‘tkaziladigan o‘quv ishlarining bir shakli hisoblanib, talabalar o‘quv-biluv faoliyatlari, mustaqil bilim olishlari, ijodiy fikr yuritishlarini yo‘lga qo‘ya oladigan o‘qitish shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham u oliy ta’lim maktabida olib boriladigan o‘qitish shaklining o‘ziga xos bir shakli hisoblanadi.

Amaliy (lotincha amaliyium) olimlarning muayyan ilmiy soha bo‘yicha ma’lumotlarni muhokama qilishning dastlabki shakli bo‘lgan. Keyinchalik ilmiy faoliyatlardan o‘quv jarayoniga ko‘chib, talabalarning ishchanligi, bilim darajasi fanga qiziquvchanligi, xarakteri, psixologiyasiga xos tomonlari aniqlash shakliga aylandi, hozirgi kunda amaliy mashg‘uloti

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

suhbat, ma’ruza bo‘yicha fikr almashish, rolli o‘yinlar shaklida o‘tkazish nazarda tutilgan. Mashg‘ulotni amaliy, ma’ruzada o‘tkazilishining muhim tomoni shundaki, unda o‘qituvchi ham talaba ham puxta tayyorgarlik ko‘radi. Har ikkala faoliyat egasi, manbalar bilan ishlash, amaliy rejasida ko‘rsatlgan savollarga javoblar topishda asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanashib chiqishlari lozim bo‘ladi.

Amaliy mashg‘ulotlarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar to‘qnashuvi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Shuning uchun amaliy olib boruvchi o‘qituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, bahs-munozara ishlarini, o‘z nuqtai nazarini dalilash, o‘zgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yo‘llarini aniq tanlashi lozim.

Mashg‘ulotning yakunida o‘qituvchi umumiy xulosa yasab, amaliy mashg‘ulotining borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib, navbatdagi amaliy mashg‘ulotini o‘tkazish haqida tavsiyalar berish, o‘ylab ko‘rish, fikrlarni yanada to‘ldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar ro‘yxatini e’lon qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ilmiy nazariy, amaliy-metodik jihatdan yuksak darajada o‘tkazilgan amaliy mashg‘uloti talabalarga fanga qiziqishi, manbalar va adabiyotlar bilan ishlashga ishtiyoq faollikka intilish uyg‘otsa, o‘qituvchilarga o‘z ilmiy- nazariy malakasiga oshirishga,ilmiy adabiyotlarga ijobiy munosabatda bo‘lish, fan yangiliklarga ishonch e’tiqod va fanga qo‘yilayotgan muammolarni yechishga ishtiyoqni tarbiyalaydi.

Demak, amaliy mashg‘ulotlarining sifatli va samarali o‘tishiga o‘qituvchi mahorati muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘uloti o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda talabalar o‘z fikrlarini, nuqtai nazarlarini ochiqdan ochiq bayon etadilar, qat’iyatlik bilan o‘zlashtirganlarini himoya qiladilar, muloqotda fikr almashinish amalga oshadi. Amaliy mashg‘uloti haqiqatan ham qiziqarli bo‘lishi uchun u bahs-munozara shaklida, ammo boshqariladigan bo‘lishi lozim. Buning uchun bahs-munozara tartibi o‘qituvchi tomonidan oldindan o‘ylab chiqiladi, ishchi rejada ma’lum savollar, misollar, syujetlar belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, amaliy mashg‘ulotning muvaffaqiyatliligi doimo talabalar faolligiga bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchining ikkinchi majburiyati – amaliy mashg‘ni har tomonlama rivojlantirish va talabalarni rag‘batlantirishdan iborat. Talabalarning faolligi bu nafaqat amaliyda qatnashish va bahs-munozaralar, balki eshitish qobiliyatini ham rivojlantirib boradigan jarayondir. Shu bois, talabalarga eshitish va gapirish qobiliyati kabi muhim fazilatlar tushuntirish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi PQ2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O’zbekiston mustaqilligining 30 yilligiga bag’ishlangan nutqi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

3. Ш. Кулиева, О. Узоков, К. Холматова Талабаларнинг креатив қобилиятларини шакллантиришда технологик таълимнинг узвийлигини таъминлаш-педагогик муаммо сифатида Общество и инновации 2 (6), 222-229.
4. Choriyev R.K. Kasb-hunar ta'limi mazmunini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash muammolari. Kasb-hunar ta'lim ilmiy-metodik jurnal №1-2000. 15-b.
5. Haydarov B., B.Nuridinov va boshqalar Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – O'MKHTRI. Toshkent.: 2002.- 184b.
6. Kazakov, F., Rajabov, I., Umirov, J., Ruziyeva, D., & Aripova, A. (2021, November). Methods To Improve Hackles In The Production Of Quality Yarn. In Journal Of Physics: Conference Series (Vol. 2094, No. 4, P. 042091). Iop Publishing.
7. Ruzieva D. Classification Of Software Educational Tools For Use In The Educational System //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 41-45.
8. Ruzieva D. M. Features And Advantages Of The Structure Of Baked Threads Used In The Preparation Of Sewing Products //Golden Brain. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 401-408.
9. Гафурова Н. Т., Арипова А. Н. К., Рузиева Д. М. Учредители: Серенити-Груп, Буткевич Виктор Васильевич //Архивариус Учредители: Серенити-Груп, Буткевич Виктор Васильевич. – 2021. – Т. 7. – №. 8. – С. 20-23.
10. Muminovna R. D. Et Al. Ma'ruza mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati //Pedagogs. – 2024. – Т. 56. – №. 2. – С. 74-77.
11. Muminovna R. D. Innovatsion ta'lim sharoitida oliy ta'lim muassasasi talabalarini zamonaviy o'qitish Metodlari orqali kasbiy mahoratini oshirishda foydalanish tamoyillari //Pedagogs. – 2024. – Т. 56. – №. 2. – С. 66-70.
12. Ruziyeva Dilafroz Muminovna Raqamli texnologiyalardan laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES:a collection scientific works of the International scientific conference. – 2025. – Т. 1. – №. 10. – С. 229-235.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

MARKAZIY OSIYODA XIV-XVIII ASRLARDA OLIMA AYOLLARNING DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVIGA TA'SIRI

Nazarov O'ktam Jo'rayevich, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Buxoro, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: maqolada XIV–XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda olima ayollarning davlat hokimiyati va boshqaruviga ta'siri masalasi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Ushbu davrda ayollarning ilm-fan, siyosat va madaniyatdagi o'rni tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

MAQSAD: markaziy Osiyoda olima ayollarning davlat boshqaruvidagi o'rni va ularning siyosiy hamda ilmiy jarayonlarga ta'sirini aniqlash va baholash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahliliy-sintez, qiyosiy va tarixiy yondashuv usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJA: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, olima ayollar ko'pincha davlat boshqaruvida bevosita emas, balki o'z yaqinlari orqali ishtirok etganlar. Ular siyosiy maslahatchi sifatida muhim rol o'ynab, ilm-fan va madaniyat rivojiga sezilarli hissa qo'shganlar. Ayrim tarixiy shaxslar, xususan, Sayyida Xonim kabi ayollar davlat siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

XULOSA: XIV–XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda ayollarning ilmiy va siyosiy faoliyati jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Ularning davlat boshqaruvidagi roli yetarlicha o'rganilmagan bo'lsa-da, mavjud manbalar bu ta'sirning sezilarli ekanligini ko'rsatadi.

KALIT SO'ZLAR: markaziy Osiyo, olima ayollar, davlat boshqaruvi, siyosat, ilm-fan, madaniyat, tarixiy shaxslar.

ВЛИЯНИЕ УЧЁНЫХ ЖЕНЩИН НА ГОСУДАРСТВЕННУЮ ВЛАСТЬ И УПРАВЛЕНИЕ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XIV–XVIII ВЕКАХ

Назаров Октам Джураевич, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, Бухара, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается влияние ученых женщин на государственную власть и управление в Центральной Азии в XIV–XVIII веках. Освещается их роль в науке, политике и культуре на основе исторических источников.

ЦЕЛЬ: определение и оценка роли ученых женщин в системе государственного управления и их влияния на политические и научные процессы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы исторические источники, научная литература и современные исследования. Применены методы аналитического синтеза, сравнительного и исторического анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что женщины чаще всего участвовали в государственном управлении косвенно — через мужей или сыновей. Они играли важную роль как политические советники и внесли

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

значительный вклад в развитие науки и культуры. Некоторые исторические личности, такие как Саййида Хоним, оказывали прямое влияние на политику.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в XIV–XVIII веках деятельность женщин в научной и политической сферах играла важную роль в развитии общества. Несмотря на недостаточную изученность, имеющиеся источники подтверждают их значительное влияние.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: центральная Азия, ученые женщины, государственное управление, политика, наука, культура, исторические личности.

THE INFLUENCE OF LEARNED WOMEN ON STATE POWER AND GOVERNANCE IN CENTRAL ASIA IN THE 14th–18th CENTURIES

Nazarov O‘ktam Jo‘rayevich, PhD in Philological Sciences, Bukhara, Uzbekistan

ANNOTATION

INTRODUCTION: this article examines the influence of learned women on state power and governance in Central Asia during the 14th–18th centuries. Their role in science, politics, and culture is analyzed based on historical sources.

PURPOSE: to identify and evaluate the role of learned women in state administration and their impact on political and scientific processes.

MATERIALS AND METHODS: the study is based on historical sources, academic literature, and modern research. Analytical synthesis, comparative, and historical methods were employed.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings indicate that women often participated in governance indirectly through their husbands or sons. They played significant roles as political advisors and contributed greatly to scientific and cultural development. Certain figures, such as Sayyida Khanim, had a direct influence on political affairs.

CONCLUSION: in the 14th–18th centuries, women’s scientific and political activities played an important role in societal development in Central Asia. Although still under-researched, available sources confirm their substantial influence.

KEYWORDS: central Asia, learned women, governance, politics, science, culture, historical figures.

Markaziy Osiyo tarixining ayollar bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish uchun asosan o‘sha davrga oid tarixiy manbalar, siyosiy hujjatlar, shuningdek, arxiv hujjatlari va antik maqolalar ishlatilgan. Bunday manbalar orasida hukmdorlar va ilmiy arboblar haqida yozilgan asarlar, shaxsiy xarakteristikalar va davlat boshqaruvi bilan bog‘liq matnlar o‘rganildi. Maxsus ravishda, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy markazlarga oid tarixiy manbalar o‘rganildi, chunki bu hududlarda ayollarning ilm-fan va siyosatdagi roli eng faol bo‘lgan. Tadqiqotda, asosan Markaziy Osiyo tarixiga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar va maqolalar ishlatilgan. Ushbu adabiyotlar orasida gender, siyosat, ilm-fan va madaniyat

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

sohalaridagi ishlanmalar hamda markaziy osiyolik ayollarning roli haqidagi zamonaviy tadqiqotlar muhim o‘rin tutgan. Shuningdek, tarixchi olimlarning fikrlari va ilmiy ishlariga asoslanib, Markaziy Osiyodagi ayollarning siyosatga ta’sirini tushunish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ular ilmiy maktablar ochish, madaniy merosni saqlash va rivojlantirish borasida ham o‘z hissalarini qo‘shganlar. Maqolada shuningdek, Sayyida Xonim kabi tarixiy shaxslarning roli va ularning ilmiy, siyosiy ta’siri keltirilgan.

Markaziy Osiyo tarixi boy va murakkab bo‘lib, bu mintaqada turli davrlar davomida siyosiy, madaniy va ilmiy o‘zgarishlar yuz berdi. XIV-XVIII asrlar o‘rtasidagi davr ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki bu davrda ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvi sohalarida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa, olima ayollarning o‘rni va roli har jihatdan kengayib, ular davlat hokimiyati va boshqaruviga katta ta’sir ko‘rsatdilar. Ular nafaqat ilmiy faoliyatda, balki siyosiy qarorlar qabul qilishda, madaniy rivojlanishda ham muhim vazifalarni bajardilar. Markaziy Osiyo tarixida ayollarning davlat boshqaruviga bo‘lgan tasiri ko‘plab tarixiy manbalarda yoritilgan bo‘lib, bu ularning jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu maqolada XIV-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda olima ayollarning davlat hokimiyati va boshqaruviga tasiri o‘rganiladi. XIV-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tarixida juda ko‘p siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, bu davrda olima ayollarning davlat hokimiyati va boshqaruviga tasiri ham nihoyatda katta bo‘ldi. Ayollar nafaqat oilaviy va xususiy hayotda, balki jamoat va davlat ishlarida ham faol ishtirok etdilar. Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun olingan barcha tarixiy manbalar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar tahliliy sintez usuli orqali qayta ishlanib, yagona bir ilmiy tasavvurga keltirildi. Ayollarning tarixdagi roli haqida olingan natijalar sintez qilinib, bir-birini to‘ldiruvchi faktlar va qarashlar birlashtirildi. Bu usul yordamida ayollarning o‘z zamonidagi ijtimoiy, siyosiy va ilmiy ta’sirini har tomonlama ko‘rsatish mumkin bo‘ldi. Markaziy Osiyo tarixida olima ayollarning davlat hokimiyati va boshqaruviga ta’siri hali to‘liq o‘rganilmagan sohalardan biridir. XIV-XVIII asrlar orasida bu mintaqada siyosiy va madaniy rivojlanish jarayonlari davomida ayollarning o‘rni katta ahamiyat kasb etgan. Ularning ilmiy va siyosiy faoliyati ko‘plab tarixiy manbalarda yoritilgan bo‘lsa-da, bu mavzu hali kengroq va chuqurroq ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Tadqiqotning dolzarbligi, aynan shu nuqtada, ayollarning siyosat va ilm-fan sohalaridagi o‘rni hamda ta’sirini o‘rganishning muhimligi bilan bog‘liq. Bu ish, bir tomondan, Markaziy Osiyo tarixidagi ayollarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ahamiyatini oshkor etish, boshqa tomondan esa, tarixiy kontekstda ayollarning ijtimoiy va siyosiy rollarini qayta baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tadqiqot ilmiy va madaniy merosni anglashda, gender o‘qishlari va tarixiy tahlillarda yangi yondoshuvlarni taklif etishi mumkin. Maqola, shuningdek, bugungi kunda ayollarning jamiyatdagi rolini tushunishda yordam beradi va gender tengligi masalalariga oid yangi ilmiy qarashlarni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Markaziy Osiyodagi olima ayollarning tarixiy o‘rni va ta’sirini o‘rganish, ularning siyosatdagi, ilm-fandagi va madaniyatdagi faoliyatini to‘liq yoritishga imkon berdi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metodlar va yondashuvlar, ayollarning tarixdagi roli haqidagi ilgari mavjud qarashlarni yangilash va ular haqida to‘liqroq ilmiy tasavvur hosil qilishga yordam berdi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Ayollarning ilmiy faoliyati. XIV-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi davom etdi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent kabi shaharlar ilmiy markazlarga aylanishdi. Bu davrda ko‘plab olimlar, shoirlar va mutafakkirlar ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ayollar ham bu jarayonda muhim o‘rin tutdilar. Ulardan ba’zilari o‘z ilmiy ishlari va adabiy asarlari bilan tanildilar. Ular nafaqat o‘z zamonasining mashhur olimlari, balki siyosiy va diniy masalalarda ham faol ishtirok etdilar. XIV-XVIII asrlar davomida Markaziy Osiyoda ayollarning siyosiy hayotda o‘rni ham ortdi. Bu davrda ko‘plab ayollar siyosiy hokimiyatda muhim rollarni bajarib, davlat boshqaruviga ta’sir o‘tkazdilar. Masalan, O‘zbekistonning tarixida eng mashhur ayollardan biri amir Temurning xotini, shuningdek, Mirzo Ulug‘bekning onasi bo‘lgan Sayyida Xonimni keltirish mumkin. Sayyida Xonim nafaqat o‘zining ilmiy bilimlari bilan, balki siyosiy tajribasi bilan ham mashhur bo‘lgan. Ayollarning davlat boshqaruviga ta’siri asosan ularning eri yoki o‘g‘illari orqali bo‘lib, ko‘pincha ular davlat ishlarida maslahatchi sifatida faoliyat yuritganlar. Bunday ayollar ko‘pincha shaxsiy maqsadlar uchun emas, balki o‘z oilalarining siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlash maqsadida ish ko‘rganlar.

Ayollarning ilm-fan va madaniyatga qo‘shgan hissasi ham nihoyatda muhim edi. Ko‘plab ayollar ilmiy maktablarni tashkil etish, kitoblarni yozish, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda faol ishtirok etdilar. Xususan, qadimiy markaziy osiyo madaniyatida ayollar ko‘plab ilmiy masalalarda o‘z fikrlarini bildirgan, shoiralik va adabiyotda ijod qilgan. Ulug‘bek davrida, Samarqandda ayollar ilmiy jamiyatlar va bilim dargohlariga tashrif buyurib, o‘z bilimlarini rivojlantirishga imkon topganlar. Bundan tashqari, ayollar ko‘pincha an’anaviy ilm-fanlar bilan bir qatorda, o‘z vaqtining falsafiy va diniy qarashlariga ta’sir ko‘rsatganlar. Ularning bu yondoshuvi Markaziy Osiyo madaniyatini yanada boyitdi.

XIV-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tarixida olima ayollarning ilm-fan, madaniyat va siyosatga bo‘lgan ta’siri juda katta bo‘ldi. Ular nafaqat ilmiy ishlar bilan shug‘ullanishdi, balki o‘z davrining siyosiy hayotiga ham jiddiy ta’sir o‘tkazdilar. Ayollar o‘zlarining ta’siri orqali nafaqat o‘z oilalari, balki butun Markaziy Osiyo jamiyatining taraqqiyotiga hissa qo‘shdilar. Shuning uchun, ayollarning o‘rni va roli ushbu davrda yanada chuqurroq o‘rganilishi kerak, chunki ularning ilm-fan, madaniyat va siyosatga qo‘shgan hissasi naqadar muhim bo‘lganligini bugungi kunda ham anglash zarur.

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyoda XIV-XVIII asrlarda olima ayollarning davlat hokimiyati va boshqaruviga ta’sirini o‘rganish, tarixshunoslikda nisbatan kam o‘rganilgan sohalardan biridir. Biroq, bu mavzu bo‘yicha ayrim tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular Markaziy Osiyodagi ayollarning siyosatdagi o‘rnini yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Adabiyotlarni tahlil qilish orqali biz bu mavzudagi mavjud ilmiy yondoshuvlarni, asosiy qarashlarni va ilmiy xulosalarni ko‘rib chiqamiz. Markaziy Osiyo tarixida ayollarning siyosiy va boshqaruvdagi o‘rni ko‘plab tarixiy manbalarda ta’kidlangan. Shu bilan birga, asosan erkaklar hokimiyatda bo‘lib, ayollarning ta’siri ko‘pincha ikkinchi darajali sifatida ko‘rsatilgan. Biroq, ba’zi tarixchilar ayollarning siyosiy jarayonlardagi o‘rni va ta’sirini yanada kengroq tahlil qilganlar. Xususan, Sayyida Xonim kabi shaxslar, o‘z zamonalarida nafaqat ilm-fan va madaniyatda, balki davlat boshqaruvida ham muhim rol o‘ynagan. "O‘zbekiston tarixida ayollarning o‘rni" (Iskandarov, 1996) nomli asarda Sayyida

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Xonimning siyosiy va ilmiy faoliyati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Sayyida Xonimning ilmiy maktablar tashkil etishdagi roli va uning boshqaruvdagi ta'siri, ko'plab mamlakat tarixchilari tomonidan o'rganilgan. Bu asar, ayollarning siyosatdagi ishtirokini tushunishda muhim manba hisoblanadi [3].

XIV-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo ilm-fanining rivojlanishida ayollarning katta hissa qo'shganligi haqida ba'zi ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanadi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarda ilmiy dargohlar faoliyat yuritgan bo'lib, ayollar bu dargohlarda ilmiy izlanishlar olib borishgan. Buxoro ilmiy maktabi haqida yozgan G'afur G'ulom (1994) asarida, Buxoroda ayollar ilmiy faoliyatda ishtirok etganliklari, ularning shoirlik va ilmiy izlanishlari haqida so'z boradi [4]. G'ulomning tadqiqotlari, ayollarning ilm-fanda o'z o'rnini qanday topgani haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Boshqa bir tadqiqotda esa, Xiva Xonligida ilmiy maktablar tashkil etgan ayollarning faoliyati yoritilgan (Jabborov, 2001). Bu asarlarda ayollar nafaqat ilmiy maktablar ochish, balki ilmiy merosni saqlash va rivojlantirish borasida ham muhim hissa qo'shganligi ko'rsatilgan [5].

Markaziy Osiyo tarixining ayollar bilan bog'liq jihatlarini tahlil qiluvchi zamonaviy tadqiqotlar, gender masalalariga yanada kengroq yondashishga intilmoqda. Shuhrat Rahmonov (2010) "Markaziy Osiyo jamiyatida gender rollari" nomli asarida ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida so'z yuritadi [6]. U, ayniqsa, Markaziy Osiyo tarixida ayollarning siyosatdagi ta'sirini o'rganishda gender nuqtai nazaridan yondashuvni taklif qiladi. Uning fikricha, ayollarning siyosatdagi roli nafaqat o'zgarmagan an'analar, balki jamiyatdagi dinamik ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning bir qismi sifatida qaralishi kerak. Shuningdek, Maftuna Nematova (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, XIV-XVIII asrlar Markaziy Osiyosida ayollarning siyosiy hayotdagi o'rni va davlat boshqaruvidagi ta'sirini kengroq tahlil qilishga urinishlar mavjud [7]. U o'z tadqiqotlarida, o'sha davrdagi ko'plab ayollarning nafaqat ilm-fan, balki siyosatdagi ishtiroklarini, davlat boshqaruvidagi maslahatchi sifatidagi rolarini o'rganadi.

Ko'plab tarixchilar ayollarning faqat siyosatdagi ta'siri bilan cheklanmasdan, ularning ijtimoiy hayotga qo'shgan hissalarini ham o'rganadilar. Ismoilov (2012) "Markaziy Osiyoda ayollarning ijtimoiy hayoti va ta'siri" asarida ayollarning diniy, ilmiy va madaniy hayotdagi o'rinlari haqida ma'lumot beradi. Uning fikricha, ayollar ko'plab madaniy va ilmiy tashkilotlarda faoliyat yuritgan, shuningdek, o'zlarining siyosiy va iqtisodiy ta'siri bilan jamiyatdagi o'zgarishlarga olib kelgan [8].

Markaziy Osiyoda XIV-XVIII asrlarda ayollarning davlat hokimiyati va boshqaruviga ta'siri haqida o'rganilgan adabiyotlar, bu mavzuning hali to'liq yoritilmaganligini ko'rsatadi. Biroq, mavjud tadqiqotlar ayollarning ilm-fan, siyosat va madaniyatdagi o'rnini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ayollar nafaqat o'z zamonining ilmiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shgan, balki davlat boshqaruvining shakllanishida ham muhim rol o'ynaganlar. Shu bois, bu mavzu bo'yicha yanada kengroq va chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Muhokama. XIV-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda olima ayollarning davlat hokimiyati va boshqaruviga ta'sirini o'rganish, ushbu mintaqaning siyosiy va ijtimoiy tuzilmasini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu davrda ayollarning siyosiy va ilmiy faoliyatda faol ishtirok etishlari, ularning jamiyatdagi o'rni va ta'siri haqida mavjud ilmiy

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

adabiyotlarda turli qarashlar mavjud. Biroq, bu mavzu hali to‘liq o‘rganilmagan va ba’zi tarixiy manbalar ayollarning jamiyatdagi rolini umuman inkor etishga intilgan. Markaziy Osiyoda ayollarning siyosatdagi ta’siri asosan ularning erlari yoki o‘g‘illari orqali amalga oshirilgan. Ko‘plab ayollar o‘z vaqtida davlat boshqaruvida maslahatchi sifatida faoliyat yuritgan, ba’zilari esa hukmdorlarning muhim qarorlarini qabul qilishda bevosita ishtirok etganlar. Masalan, Sayyida Xonimning roli nafaqat ilmiy, balki siyosiy jihatdan ham ahamiyatli edi. Uning ilmiy maktablar ochishi va madaniyatni rivojlantirishdagi ishtiroki, bir tomondan, siyosiy hokimiyatning mustahkamlanishiga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, jamiyatda ayollarning siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini ochdi. Ayollar ko‘pincha o‘zining siyosiy ta’sirini, o‘z oilalari va nasllari manfaatlarini himoya qilish maqsadida qo‘llaganlar. Shuningdek, ayollarning siyosatdagi roli ko‘plab tarixiy manbalarda, ayniqsa, ayollar faoliyatini faqat ikkinchi darajali sifatida ko‘rsatishda cheklangan. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ayollar jamiyatda o‘zining siyosiy ta’sirini yanada kuchaytirish uchun ilm-fan va madaniyat sohalarida ham faoliyat yuritganlar. Shu nuqtada, zamonaviy tarixshunoslikda ayollarning siyosatdagi roli va ta’sirini kengroq yoritish zarur [9].

Markaziy Osiyo ilm-fanining rivojlanishida ayollarning hissasi juda katta. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlarda ayollar nafaqat uyda, balki ilmiy dargohlarda faoliyat ko‘rsatganlar. Ular ilmiy maktablar ochish, ilmiy asarlarni yozish va ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan nafaqat o‘z bilimlarini oshirishga intilishgan, balki ularning bilimlari orqali jamiyatning madaniy va ilmiy rivojlanishiga hissa qo‘shishgan. Masalan, Samarqandda ayollar ilmiy jamiyatlar tashkil etishgan, bu esa ilm-fanning rivojlanishiga xizmat qilgan. Biroq, bu faoliyat ko‘pincha jamiyatda kutilganidek, nisbatan kam yoritilgan. Ayollarning ilmiy faoliyati ko‘plab tarixchilar tomonidan birinchi darajali ilmiy yutuqlar sifatida emas, balki oddiy ilmiy qiziqish sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, ko‘plab ilmiy maktablar va dargohlarning tashkilotchilari va rahbarlari ayollar bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar ko‘pincha qiyinchiliklar bilan topiladi. Bu holat, o‘sha davrning patriarxal tuzilmasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, chunki ayollar ko‘pincha o‘z faoliyatlarini erkaklar nomi bilan qilishgan yoki ularning ismi jamiyat tomonidan keng e’tirof etilmagan.

Ayollarning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o‘rni ham ulkan bo‘lgan. Markaziy Osiyoda ko‘plab ayollar o‘z davrining madaniyati va adabiyotini rivojlantirishga hissa qo‘shganlar. Ularning shoirlik, musiqachilik, tasviriy san’atdagi ijodlari jamiyatda katta e’tirofga sazovor bo‘lgan. Ayollar, ayniqsa, o‘z bilimlarini jamiyatga uzatishda, o‘z oilalariga ilm-fan va madaniyatni singdirishda muhim rol o‘ynaganlar. Shu bilan birga, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishdagi ayollarning o‘rni ko‘pincha tarixda unutilgan yoki past baholangan [10]. Markaziy Osiyo tarixida ayollarning madaniyatdagi ta’siri nafaqat an’anaviy san’at shakllarida, balki ilmiy g‘oyalarning tarqalishida ham sezilarli bo‘lgan. O‘z vaqtida ayollar ko‘plab ilmiy va madaniy inshootlar tashkil etib, ular orqali o‘z davrining ilmiy va madaniy jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaganlar. Biroq, ko‘pincha ular bu faoliyatni erkaklarning yordami yoki himoyasida amalga oshirganlar, bu esa ayollarning haqiqiy ta’sirini yashirishga olib kelgan. Markaziy Osiyoda XIV-XVIII asrlarda ayollarning davlat hokimiyati, ilm-fan va madaniyatdagi ta’siri muhim bo‘lgan, lekin tarixiy manbalarda ko‘plab ayollarning

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

roli to‘liq aks ettirilmagan. Bu o‘rganishlar, ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va ilmiy hayotga qo‘shgan hissasini to‘liq anglash va qadrlash uchun zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning siyosiy va ilmiy faoliyati o‘z davrida jamiyatning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli, Markaziy Osiyo tarixida ayollarning ta’siri va roli haqida yangi ilmiy qarashlarni rivojlantirish va ularni to‘liq o‘rganish bugungi kunda juda muhimdir. Tarixiy manbalarda ayollarning bu faoliyati ko‘pincha past baholangan yoki ularning roli an’anaviy tarzda ikkinchi darajali sifatida ko‘rsatilgan. Markaziy Osiyo tarixida ayollarning ta’sirini to‘liq tushunish uchun zamonaviy tadqiqotlar, ayollarning ilmiy va siyosiy faoliyatiga yanada kengroq yondashuvni talab qiladi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda ayollarning haqiqiy o‘rnini anglash va ularni tarixda munosib ravishda qadrlash imkonini beradi.

Xulosa. XIV-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda olima ayollarning davlat hokimiyati, ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘z zamonlarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarida faol ishtirok etganlar. Ayollar faqat ilm-fanda emas, balki davlat boshqaruvida ham muhim rol o‘ynagan, ko‘plab tarixiy shaxslar o‘z bilimlari va siyosiy donoligi bilan jamiyatdagi o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatgan. Sayyida Xonim kabi shaxslar o‘zlarining ilmiy maktablar ochish va madaniyatni rivojlantirishdagi sa’y-harakatlari bilan o‘z davrida katta ijtimoiy va siyosiy ta’sirga ega bo‘lgan. Shuningdek, ayollarning davlat boshqaruvidagi ta’siri va ilm-fandagi o‘rni haqida ko‘proq tadqiqotlar o‘tkazish, bu mavzuni chuqurroq o‘rganish orqali, nafaqat tarixshunoslik, balki gender o‘qishlari va ijtimoiy fanlar uchun yangi bilim va qarashlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Markaziy Osiyoda ayollarning ta’siri va roli, bugungi kunda gender tengligi va ayollarning jamiyatdagi o‘rni masalalari bo‘yicha muhim ilmiy yondoshuvlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Xolmatova, N. (2017). Markaziy Osiyo tarixida ayollarning siyosiy va ilmiy faoliyati. Toshkent: Sharq.
2. Nurmuhammedova, K. (2018). Xiva va Buxoro xonliklarida ayollarning davlat boshqaruvidagi roli. Xiva: Xiva nashriyoti.
3. Iskandarov, S. (1996). O‘zbekiston tarixida ayollarning o‘rni. Tashkent: Fan.
4. G‘ulom, G. (1994). Buxoro ilmiy maktabi. Buxoro: Buxoro nashriyoti.
5. Jabborov, S. (2001). Xiva Xonligida ilmiy maktablar. Xiva: Xiva nashriyoti.
6. Rahmonov, S. (2010). Markaziy Osiyo jamiyatida gender rollari. Toshkent: Yangi nashr.
7. Nematova, M. (2015). Ayollarning siyosiy va madaniy roli. Toshkent: O‘zbekistan nashriyoti.
8. Ismoilov, T. (2012). Markaziy Osiyoda ayollarning ijtimoiy hayoti va ta’siri. Samarqand: Samarqand nashriyoti.
9. G‘aniyev, A. (2016). Ayollar va siyosat: Markaziy Osiyodagi tarixiy o‘rni. Toshkent: Noshir.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

10. Kamilov, B. (2020). Markaziy Osiyodagi ayollarning ilmiy va siyosiy merosi. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

NAVOIY G‘AZALLARIDA HUSAYN BOYQARONING PODSHOHLIK XISLATLARI BADIIY TALQINIGA DOIR MULOHAZALAR

Xolmatov Tuyg‘un Bozorovich, Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi Mahalla xodimlari malakasini oshirish Markazi rahbar o‘rinbosari, mustaqil izlanuvchi, Qashqadaryo, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: maqolada Navoiy g‘azaliyotidagi Husayn Boyqaroning podshohlik xislatlari badiiy talqinlari to‘g‘risida ilmiy mulohazalar yuritilgan. Husayn Boyqaroning podshohlik xislatlari Sharq falsafiy-ijtimoiy tarixida muhim o‘rin tutgan, ma'rifiy qimmati yuksak pandnolardagi tavsiya etilgan podshohlik xislatlari va tartibotlari bilan muqoyasa qilish asnosida tahlil etilgan.

Alisher Navoiyning “Hazoyin-ul maoniy” devonlaridagi g‘azallarda shoh obrazi bilan aloqador talqinlar masalasida temuriy podshoh Husayn Boyqaroning podshohlik xislatlari badiiy talqinlari bilan bog‘liq qarashlar ham alohida o‘rin tutadi.

MAQSAD: g‘azallarda Husayn Boyqaro obrazi bilan bog‘liq badiiy talqinlarga oid ilmiy kuzatishlar va ularning ahamiyatin tayin etish.

MATERIALLAR VA METODLAR: navoiy g‘azallaridagi podshohona xislatlar badiiy talqini bilan ba'zi Sharq falsafiy – ijtimoiy tarixida muhim o‘rin tutadigan, ma'rifiy ahamiyati yuksak pandnomalarda ko‘rsatib o‘tilgan podshohlik xislatlarini o‘zaro qiyoslash asnosida ilmiy mulohaza yuritiladi. Maqolada ilmiy-tahliliy, qiyosiy tahlil kabi uslubiy yo‘nalishlardan foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJA: navoiy g‘azallarida Husayn Boyqaroning podsholik xislatlari badiiy talqinlari kuzatilganida ular goh madh etilgan, goh shunday sifatlar shohning, shohlikning bezagi bo‘lishi xususida fikr yuritilgan. Ba'zi misralarda ana shunday sifatlarga shohni undash, targ‘ib etish ohanglari mujassam. Navoiy podshohlar uchun zarur bo‘lgan muhim xislat va sifatlarning temuriyzodalar tiynatida mujassam bo'lishini istagan. Shohlikka oid muhim xislatlar deganda, birinchi navbatda ulug‘ shoirning shohlik haqidagi asl qarashlariga muvofiq keladigan, shuningdek, Sharq falsafiy – ijtimoiy tarixida muhim o‘rin tutadigan, ma'rifiy ahamiyati yuksak pandnomalarda tavsiflangan podshohlik xislatlari va sifatlari ham ko‘zda tutilgan.

XULOSA: navoiyda Husayn Boyqaro shaxsida temuriylarning adolatli va kuchli bir hukmdorini ko‘rish orzusi mustahkam edi va u bu uchun butun umri davomida kurashgan. Undagi podshohlik xislatlariga, eng avvalo, davlatning bardavomligi, har tomonlama rivoji, tanazzulga yuz tutmasligining muhim omillari qatorida qaragan. Rostgo‘ylik, adolatpeshalik shohlikning tayanch ustunlaridan ekanligini yaxshi anglagan, e'tirof etgan shoir hukmdor uchun zarur qaysiki ijobiy xislatu fazilatlar bo‘lmasin ularning undagi muhim podshohlik xislatlarini kuchaytirishini chuqur anglagan. Bu uning g‘azallari satrlarida ham o‘z in'ikosini topgan.

KALIT SO‘ZLAR: podshohlik xislatlari, badiiy talqin, Navoiy g‘azaliyoti, “Qobusnoma”, “Temur tuzuklari”, haybat, adl, sahovat, muhofazat, muloyimlik, rostgo‘ylik, sidq, tasavvufiy ma’no.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТОЛКОВАНИИ ЦАРСКИХ КАЧЕСТВ ХУСЕЙНА БАЙКАРЫ В ГАЗЕЛЯХ НАВОИ

Холматов Туйгун Бозорович, заместитель руководителя Центра повышения квалификации работников махалли при хокимияте Кашкадарьинской области, самостоятельный исследователь, Кашкадарья, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в статье представлены научные соображения по поводу художественной интерпретации царских качеств Гусейна Байкары в газелях Навои. Царские качества Гусейна Байкары анализируются в сравнении с царскими качествами и процедурами, рекомендованными в философской и социальной истории Востока, имеющими высокую образовательную ценность.

В вопросе интерпретаций образа царя в газелях на диванах Алишера Навои «Хазайин-уль-Маони» особое место занимают также взгляды, связанные с художественной интерпретацией царских качеств тимуридского царя Хусейна Байкары.

ЦЕЛЬ: провести научное исследование художественной интерпретации образа Гусейна Байкары в газелях и определить их значение.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: проведено научное обсуждение путем сравнения художественной интерпретации царских качеств в газелях Навои с царскими качествами, упомянутыми в некоторых трактатах, имеющих большое образовательное значение и играющих важную роль в философской и социальной истории Востока. В статье используются такие методологические направления, как научно-аналитический и сравнительный анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: при рассмотрении художественных интерпретаций царских качеств Хоссейна Бойкары в газелях Навои, иногда они восхвалялись, а иногда высказывалось мнение, что такие качества являются украшением царя и королевства. В некоторых стихах эти качества содержат нотки поощрения и восхваления царя. Навои хотел, чтобы важные качества и качества, необходимые царям, были воплощены в монетах Тимуридов. Важные черты царской власти относятся прежде всего к характеристикам и качествам, соответствующим оригинальным взглядам великого поэта на царскую власть, а также тем, которые описаны в трактатах, имеющих большое образовательное значение и занимающих важное место в философской и социальной истории Востока.

ВЫВОД: Навои питал сильное желание видеть справедливого и сильного правителя Тимуридов в лице Хусейна Байкары и боролся за это всю свою жизнь. Он считал его царственные качества, прежде всего, одним из важных факторов преемственности, всестороннего развития государства и предотвращения упадка. Поэт, понимавший и признававший, что честность и справедливость являются столпами царства, глубоко осознавал, что какие бы положительные качества и

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

добродетели ни были необходимы правителю, они укрепят в нем важные царские качества. Это отразилось и в строках его газелей.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. королевские качества, художественная интерпретация, поэзия Навои, «Кошмар», «Законы Тимура», величие, справедливость, щедрость, защита, кротость, правдивость, сидк, мистический смысл.

REFLECTIONS ON THE ARTISTIC INTERPRETATION OF SULTAN HUSAYN BAYQARA'S ROYAL QUALITIES IN NAVOI'S GHAZALS

Xolmatov Tuygun Bozorovich, Deputy Head of the Center for the Professional Development of Mahalla Employees under the Administration of Kashkadarya Region, Independent Researcher, Kashkadarya, Uzbekistan

ANNOTATION

INTRODUCTION: the article presents scientific considerations on the artistic interpretations of the royal qualities of Huseyn Baykara in Navoi's ghazals. Huseyn Baykara's royal qualities are analyzed in comparison with the royal qualities and procedures recommended in the philosophical and social history of the East, which have a high educational value.

In the issue of interpretations related to the image of the king in the ghazals in Alisher Navoi's "Hazayin-ul Maoni" divans, views related to the artistic interpretations of the royal qualities of the Timurid king Hussein Baykara also occupy a special place.

PURPOSE: to conduct scientific observations on the artistic interpretations of the image of Huseyn Baykara in ghazals and to determine their significance.

MATERIALS AND METHODS: a scientific discussion is conducted by comparing the artistic interpretation of the royal qualities in Navoi's ghazals with the royal qualities mentioned in some treatises of high educational significance, which play an important role in the philosophical and social history of the East. The article uses methodological directions such as scientific-analytical and comparative analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: when observing the artistic interpretations of Hossein Boykara's royal qualities in Navoi's ghazals, they were sometimes praised, and sometimes thought was given that such qualities are the decoration of the king and the kingdom. In some of the verses, these qualities contain tones of encouragement and promotion of the king. Navoi wanted important qualities and qualities necessary for kings to be embodied in the coinage of Timurids. The important features of kingship primarily refer to the characteristics and qualities of kingship that correspond to the great poet's original views on kingship, as well as those described in treatises of great educational significance that occupy an important place in the philosophical and social history of the East.

CONCLUSION: Navoi had a strong desire to see a just and strong ruler of the Timurids in the person of Husayn Baykara, and he fought for this all his life. He considered the royal qualities in him, first of all, among the important factors for the continuity, all-round development of the state, and the prevention of decline. The poet, who understood

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

and recognized that honesty and justice were the pillars of the kingdom, deeply understood that whatever positive qualities and virtues were necessary for a ruler, they would strengthen the important royal qualities in him. This was also reflected in the lines of his ghazals.

KEY WORDS: royal qualities, artistic interpretation, Navoi's poetry, “Nightmare”, "Timur's Laws", greatness, justice, generosity, protection, gentleness, truthfulness, sidq, mystical meaning.

Ulug‘ Navoiyning lirikasi, jumladan, g‘azaliyotidagi podshohlik sifatlari badiiy talqinlari sirasida temuriyzodalar orasida o'ziga xos mavqe tutgan sulton Husayn Boyqaro shaxsi bilan bog‘liq badiiy talqinlar ham alohida o‘rin tutadi. Navoiy satrlarida Husayn Boyqaroning xislatlari goh madh etilgan, goh shunday sifatlar shohning, shohlikning bezagi bo‘lishi xususida fikr yuritilgan. Ba'zi misralarda ana shunday sifatlarga shohni undash, targ‘ib etish ohanglari mujassam. Navoiy podshohlar uchun zarur bo‘lgan muhim xislat va sifatlarning temuriyzodalar tiynatida mujassam bo'lishini istagan. Shohlikka oid muhim xislatlar deganda, birinchi navbatda shohlik haqidagi asl qarashlariga muvofiq keladigan, shuningdek, Sharq falsafiy – ijtimoiy tarixida muhim o‘rin tutadigan, ma'rifiy ahamiyati yuksak pandnomalarda tavsiflangan podshohlik xislatlari va sifatlari ham ko‘zda tutiladi.

Ayniqsa, shoirning shohu shahzodalarga yozgan maktublarida mamlakatni idora qilishdagi barcha masalalar ahamiyatsiz emasligiga e'tibor qaratilgan. Bu xususda navoiyshunos olima S.G‘anieva Navoiyning shoh va shahzodalarga yo‘llagan maktublari haqida fikr yuritib, ulug‘ shoirning ularga qilgan nasihatlari va nihoyatda foydali takliflarining ijtimoiy ahamiyatini sharhlar ekan, bunday maktublar “mamlakatni idora qilishda umum manfaati uchun katta masalalardan tortib to mayda masalalargacha ahamiyatli bo‘lganligini” (1.B.14) alohida ta'kidlagan. Ma'lumki, har qanday fikr yoxud talqin qiyoslarda yanada oydinlashadi. Jumladan, shoir g‘azallarida uchraydigan podshohlik, xususan, Husayn mirzo bilan bog‘liq xislatlar talqini mohiyatan podshohlik sifatlari, turfa xislatlari hamda tartibotlari to‘g‘risida hikoya qilingan “Qobusnoma”, “Temur tuzuklari” kabi asarlar bilan qiyoslanganda yanada yaqqolroq namoyon bo'laveradi. Jumladan, XI asrning mahsuli sifatida “Qobusnoma” to hanuz o‘z ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyatini yo‘qotmagan qimmatli asarlardan. Uning 42-bobi “Podshohlik sharti va rasmi zikrida” deb nomlanadi. Kaykovus podshohlarning olti muhim xislatdan voz kechmasligi haqida yozadi: haybat, adl, sahovat, muhofazat, muloyimlik, rostgo‘ylik. (2.B.152) Ushbu xislatlar xususida qiyosan fikr yuritilganda sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarini ham chetlab o‘tib bo‘lmaydi.

Podshoh haybati, hukmdor salobati, martabasining darajasi. Bu xislat haqida so‘z borar ekan, avvalo, ”Qobusnoma”dagi podshoh haybatiga daxldor bo‘lgan nasihatlar yodga keladi. U yerda yozilishicha, podshohning hukmi ulug‘ bo‘lishi, suhbati va qilig‘i boshqalarnikidan ajralib turishi kerak. (3. B.154). Amir Temur podshohligida amal qilgan o‘n ikki tuzukning to‘rtinchisida aytgan fikri ham bevosita hukmdor haybatiga aloqador:

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

“...Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. Tura va tuzukka tayanib saltanatda o‘z martaba va maqomimni saqlab turdim” (4. B.54).

Navoiy g‘azallarida temuriy hukmdor Husayn mirzo ”sipehr martaba”lik, ya’ni, osmon qadar baland martabali, hukmdor sifatida ulug‘lanadi. Uning kuchli davlati va haybati haddan a’lo mubolag‘ali tusda ifodalanadi. Bu shoirning ijtimoiy kelib chiqishi har ikki jihatdan xonlar avlodidan bo'lgan Husayn mirzodek temuriyzodaning saltanati mustahkam va yashovchan bo‘lishi hamda kuchayishiga bo‘lgan o‘ziga xos ishonchining ifodasi edi:

Ey Navoiy, sobit o‘lsun shoh G‘oziy davlati,
Oldida qul bo‘lmag‘an olamda sulton qolmasin.(5. B. 342)

Shoh adolati, odilligi mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodidagi abadiy va o‘lmas mavzulardan. Navoiy lirik asarlarida ham adolat, adolatpeshalik g‘oyasiga e'tiborni ko‘p qaratgan. “Qobusnoma”da adilning obodonligi xususida aytilgan. Bu juda muhim: yurt, davlat obodonligi, insonlarning qalbini obod qilish, zulmga, jaholatga yo‘l qo‘ymaslik. Shoir bu g'oyalarni turli badiiy vositalar, she'riy san'atlar bilan beqiyos darajada rivojlantirgan.

Ey Navoiy, ermas ul zolim ko‘zi uyqudakim,
Zulm eshigi Shohi G‘oziy adlidin masdud erur.(6. B. 127)

Navoiy zulm qiluvchilar hamisha topilishi, ammo shoh G'oziy –Husayn Boyqaro singari adolatpesha hukmdorlar sa'yi harakatidan zulm eshigi berk bo'lishini faxrlanish tuyg'usi bilan ifodalagan. Albatta, bunday ifoda ma'lum ma'noda o‘sha davrning an'anaviy ko'tarinki tarzda ifodalash uslubi bilan bog‘liq bo'lib, shoirning podshohga bo'lgan do‘stlik hurmati, ishonchi, simpatiyasi, madhi, e'tirofi ham aks etgan. Navoiy sulton Husayn Boyqaroning temuriy podshohlar orasida alohida xislatlari bilan ajralib turuvchi, ezgu ishlar tayanchi - adolatpesha hukmdor bo‘lishiga ishongan va shu bois shu bois ham kezi kelganda ko'tarinki ohanglarda madh etar, ulug‘lar edi. Amir Temur o'zining oltinchi tuzugida “Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim“(7. B. 54), deb yozgandi. Navoiy ham ulkan faylasuf va donishmand olim sifatida elu yurtning obod va xarobligini, ravnaqi yoxud zavolini Odil va zolim shohga olib borib bog‘lagan: “... mulkning obod va xarobligi shohning adolati va zulmiga bog‘liq. Podshoh mulk badanining jonidir... mulk uchun sog‘lom podsho kerak” (8. B.221).

Shohlarning sahovatpeshaligi. Navoiy shohlarning xayru sahovati uning saltanati rivojini ta'minlashini ko‘p bor ta'kidlaydi. Amir Temur ham o'zining tuzuklarida “xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim”, degan ta'kidini bejiz aytmagan edi. Temur saltanatining bardavomligi uning davlatchilikka bo‘lgan ijobiy qarashlari, fazilatlaridadir. Shukurkim, bugungi voqelik buni to‘la-to‘kis tasdiqlab turibdi. Hazrat Navoiy temuriy sulton (Xusayn Boyqaro)ning xayrli ishlari, madaniy-ma'rifiy harakatlari - tadbirlarini yuksak qadrlagan. Uning iltifotlari, yaxshi ishlarini mubolag‘ali tusda, badiiy buyoqlar bilan tasvirlashdan bir dam chekinmagan.

Shohning muhofazasi, posbonligi, el yurti, saltanati va fuqarosining eng ishonchli, g‘amxo‘r himoyachisi bo‘lishi. Navoiy “Xamsa” dostonlari va boshqa ijtimoiy-falsafiy asarlarida shohning raiyatni qo‘riqlashi, ularning tinch va sokin hayot kechirishlari uchun sababchi bo‘lishi chuqur bayon etilgan bo‘lsa, g‘azallarida ham “eyki, shahsen, lek ravo

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ayla el xojatini“ qabilidagi qat'iyatli fikrlar uchraydi. Shoir faqat saltanat va fuqaroning himoyachisi bo‘lishinigina emas, balki shoh - dinu imonning ham qo‘riqchisi, homiysi bo‘lishini e'zozlagan:

Ey Navoiy, nega ma'yus ulg‘ay ulkim, shohidur
Xusravi G‘oziy muizzu mulku din Sulton Husayn (9. B.342)

Lirik qahramon(shoir) o‘zining tushkun kayfiyatlarini yengish uchun ham shoh Husayn Boyqaroga suyanishini ta'kidlamoqda. Nima bo‘lganda ham Navoiy o‘z davrining eng ilg‘or va tafakkuri uyg‘oq insoni sifatida, mamlakat obodonligi, tinchligi, haqiru faqirlar ahvoli ruhiyasining yaxshilanishi, xalq boshiga tushadigan og‘irchiliklarni yo‘qotish, dardiga malham qo‘yishni odil hukmdorga olib borib bog'lardi. Shu bois, ehtimol, bir o'rinda shohdan najot bo'lmagach, faqat “bosh olib ketish” kerakligi to‘g‘risidagi xulosaga kelgandir:

Ey Navoiy, shohdin darding iloji bo'lmasa,
Bosh olib ketgil, urub ovorolig‘ dashtiga gom.(10. B.290)

Navoiy temuriylar saltanatining inqirozini sira istamaganligidan ularni raiyat xolidan boxabar ish yuritishga, pokizalikka undagani undagan edi. Shu bois ham hayotning achchiq–chuchugini totgan shoir temuriylar inqirozini juda erta anglagandi. Navoiy shohning xalq - raiyat bilan yaqin bo‘lishini, ular qatori u ham bir Olloh bandasi ekanligini eslatgan va satrlarida shohni “o‘zini ham o‘zdin ulug‘roq shohga hojatmand bilishga undagan.

Hukmdorlardagi muloyimlik va bag‘ri kenglik. Navoiy satrlarida Husayn Boyqarodagi darveshta'blik, nuktadonlik xislatlarining madh etilishi shoirning shoh ichki dunyosida mujassam bo'lgan nozik xislatlarni yaqin kishisi – do‘sti sifatida hammadan ko‘ra ham ko'proq anglab yetganidan darak beradi. “Majolisun-nafois”dagi Husayn Boyqaroning shoir Qabuliyga nisbatan qilgan munosabati - unga dashnom bermasdan, uni xijolatpazlikdan qutqazishi haqidagi tafsilotlar ham Navoiy e'tirof etgan sifatlarning hayotiy asoslari borligini tasdiqlaydi.

Navoiy g‘azallarida shohlik, adolat, rostlik, sidq tushunchalari bir-biriga singib ketgan. Bu xislat jamiyatning barcha a’zosi – oddiy fuqaroga ham, shohga ham birdek lozimligi – Alisher Navoiy orzu qilgan, istagan muhim jihat. Shoir rostgo‘y, xolis niyatli kishilar nafasidan shohlik chirog‘i ravshan bo‘lishini ta'kidlagan:

Shahga sidq ahli damidin mash'ali davlat yorur,
Mehrdekkim, subh anfosi ruh ochar tal'at anga. (11. B.31)

Ya'ni, “sidq ahli” – xolis niyatli darvesh va faqirlar nafasidan shohlar davlatining chirog‘i yorug‘ bo‘lishi, xuddiki, bu quyosh chiqishi bilan tong tarovatining go‘zallashuvidek, deydi.. Ushbu satrlarda sidq so‘zining qator ma'nolari (dunyoviy va tasavvufiy) ham ko‘zda tutilgan va shoir o'zi orzu qilgan, targ‘ib etgan shohning adolatpeshaligini ta'min etuvchi muhim omillardan biri – rostgo‘ylik, sidqidillik ekanini ta'kidlagan. Shuningdek tasavvuf ilmida “riyo”ning ziddi “sidq” ekani ifodalangan. Tasavvuf quvvatlaydigan ishlarning biri – yolg'onni tark etishdir. Xar xolda Navoiy tasavvufning axloqiy qarashlaridan benihoya ruhlanib qalam tebratgan, taomila hayotiy, umuminsoniy maqsadlarni, jumladan, shohlik, adolat, to'g'rilik haqidagi fikrlar izhorotida ham bu g‘oyalarga suyangan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

“Qobusnoma”da esa “rostgo‘y bo‘l”, “pok va pokdil bo'l” qabilidagi nasihatomuz fikrlar mavjudligi hammaga ma'lum. Temur o‘z muhriga “Rostiy-rustiy,“ ya'ni, “to‘g‘ri bo‘lsang, najot ko‘rasan”, deya bitgan edi. Ulug‘ shoirning yuqoridagi kabi satrlaridan kuzatishimizcha, rostgo‘ylikni adolatlilikni davlat boshqaruvining eng muhim tayanch ustunlaridan biri sifatida tasvirlagan. Bular esa hech bir zamon uchun eskirmaydigan qarashlardir.

Xulosa qilib aytganda, ulug‘ shoirda Husayn Boyqaro shaxsida temuriylarning adolatli va kuchli bir hukmdorini ko‘rish orzusi mustahkam edi va bu uchun kurashgan. Shu ma'noda uning tiynatida ko'ringan xislatlar(shoh va inson sifatida)ni ta'rifu tavsiflash, madh etish, e'tirof etishni birinchi o'ringa qo'ygan. Biroq, aytish kerakki, Alisher Navoiy uchun yaqin do‘st bo‘lgan Husayn Boyqaroning xislatlarini faqat shu nuqtai nazardan madh etgan, ulug'lagan deyish asl hayot mantiqiga biroz zid fikr yuritish bo'lardi. Shoir bunday xislatlarga, eng avvalo, davlatning bardavomligi, har tomonlama rivoji, tanazzulga yuz tutmasligining muhim omillari qatorida qaragan. Rostgo‘ylik, adolatpeshalik shohlikning tayanch ustunlaridan ekanligini yaxshi anglagan, e'tirof etgan shoir hukmdor uchun zarur qaysiki ijobiy xislatu fazilatlar bo'lmasin ularning undagi muhim podshohlik xislatlarini kuchaytirishini chuqur anglagan.

Navoiy va Husayn Boyqaro o‘rtasidagi do‘stlik va sadoqat hislari umumdavlat, saltanat rivoji bilan bog'lik munosabatlar bilan bog'lanib ketgan. Bu do‘stlik “oltin davr” – Husayn Boyqaro va Navoiy davridagi temuriylar davlati bardavomligi, shukuhi, tarixdagi o‘rnini belgilovchi omillardan biri bo‘lib qolgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. G‘anieva S. “Munshshaot”dagi davrning ba'zi ijtimoiy-siyosiy masalalari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 1975, 1-son, 14-bet.
2. Kaykovus. Qobusnoma. “Meros” nashriyoti, Toshkent, 1992, 152-bet.
3. Kaykovus. Qobusnoma. “Meros” nashriyoti, Toshkent, 1992, 154-bet.
4. Amir Temur. “Temur tuzuklari”./Forschadan A.Sog‘uniy va H. Karomatov tarjimasi. G‘.G‘ulom nashriyoti. Toshkent, 1991. 54-bet.
5. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 6-tom, “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1990, 342-bet
6.Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik , 3-tom, “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1989, 127-bet.
7. Amir Temur. “Temur tuzuklari”./Forschadan A.Sog‘uniy va H. Karomatov tarjimasi./ G‘.G‘ulom nashriyoti. Toshkent, 1991. 54-bet.
8. Alisher Navoiy. “Mahbubul qulub”. Asarlar. 15 jildlik. 13-jild. Toshkent, 1966, 221-bet.
9. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 4-tom, “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1990, 302-bet.
10. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 6-tom, “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1990, 290-bet.
11. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 3-tom, “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1990, 31-bet.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

TIZIMLI FIKRLASHNI MUTTAXASSISLIK FANLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Yusupova Liliya Fanovna, Andijon davlat texnia instituti 2-bosqich mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

KIRISH: maqolada texnika oliygohlari talabalarida ixtisoslashgan fanlarni o'rganish jarayonida tizimli fikrlashni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari ko'rib chiqiladi. Unda ta'limning raqamli transformatsiyasi va texnik tizimlarning tobora murakkablashib borishi sharoitida zamonaviy muhandisning asosiy kompetensiyasi sifatida tizimli yondashuvni rivojlantirish zarurligi asoslanadi. Loyihaga asoslangan o'qitish, fanlararo aloqalar va raqamli ta'lim texnologiyalarini integratsiyalashga asoslangan tizimli fikrlashni rivojlantirish metodologiyasi taklif qilingan. Tizimli fikrlashning tarkibiy qismlari (analitik, sintetik, bashoratli va aks ettiruvchi), shuningdek, uni samarali rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar ochib berilgan. Pedagogik tajriba natijalari taqdim etilgan bo'lib, bu eksperimental guruhlardagi talabalarda tizimli fikrlashni rivojlantirish darajasining oshganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodologiyani texnik universitetlarning o'quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyatidadir.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — ixtisoslashgan fanlarni o‘rganishda tizimli fikrlashni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish hamda uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda loyihaga asoslangan o‘qitish, fanlararo integratsiya va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanildi. Analitik, sintetik, bashoratli va aks ettiruvchi fikrlash komponentlari asosida pedagogik model ishlab chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJA: eksperimental guruhlarda o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari tizimli fikrlash darajasining oshganligini ko‘rsatdi. Talabalarda analitik va sintetik yondashuvlar mustahkamlandi, bashoratli fikrlash ko‘nikmalari rivojlandi va aks ettiruvchi tahlil qobiliyati shakllandi.

XULOSA: tizimli fikrlashni rivojlantirish metodologiyasi texnika oliygohlarida ixtisoslashgan fanlarni o‘rganish jarayonida samarali vosita bo‘lib, zamonaviy muhandislik ta’limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kuchaytiradi.

KALIT SO‘ZLAR: tizimli fikrlash; texnik ta'lim; ixtisoslashgan fanlar; loyihaga asoslangan o'qitish; kompetensiyaga asoslangan yondashuv; ta'limni raqamlashtirish; fanlararo; pedagogik model; muhandislik ta'limi; moslashuvchan o'qitish

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМНОГО МЫШЛЕНИЯ В РАМКАХ СПЕЦ-ДИСЦИПЛИН

Юсупова Лилия Фановна, соискатель 2-го курса Андижанского государственного технического института

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования системного мышления у студентов технических вузов в

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

процессе изучения специальных дисциплин. Обоснована необходимость развития системного подхода как ключевой компетенции современного инженера в условиях цифровой трансформации образования и усложнения технических систем. Предложена методика формирования системного мышления, основанная на интеграции проектно-ориентированного обучения, междисциплинарных связей и цифровых образовательных технологий. Раскрыты структурные компоненты системного мышления (аналитический, синтетический, прогностический и рефлексивный), а также педагогические условия его эффективного формирования. Представлены результаты педагогического эксперимента, подтверждающие повышение уровня сформированности системного мышления у студентов экспериментальных групп. Практическая значимость исследования заключается в возможности внедрения разработанной методики в образовательный процесс технических вузов.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи — проанализировать теоретические и методологические основы развития системного мышления при изучении профильных дисциплин и показать возможности его внедрения в образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использовались проектное обучение, междисциплинарная интеграция и цифровые образовательные технологии. Разработана педагогическая модель на основе аналитического, синтетического, прогностического и рефлексивного компонентов мышления.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты педагогического эксперимента в экспериментальных группах показали повышение уровня системного мышления. У студентов укрепились аналитический и синтетический подходы, развились навыки прогностического мышления и сформировались способности к рефлексивному анализу.

ВЫВОД: методология развития системного мышления является эффективным инструментом в процессе изучения профильных дисциплин в технических вузах и усиливает компетентностный подход в современном инженерном образовании.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: системное мышление; техническое образование; специальные дисциплины; проектное обучение; компетентностный подход; цифровизация образования; междисциплинарность; педагогическая модель; инженерное образование; адаптивное обучение

A METHOD OF DEVELOPING SYSTEMIC THINKING WITHIN THE FRAMEWORK OF SPECIAL DISCIPLINES

Yusupova Liliya Fanovna, 2nd-year Independent Researcher at Andijan State Technical Institute.

ANNOTATION

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

INTRODUCTION: this article examines the theoretical and methodological foundations for developing systems thinking in students of technical universities while studying specialized disciplines. It substantiates the need to develop a systems approach as a key competency of a modern engineer in the context of the digital transformation of education and the increasing complexity of technical systems. A methodology for developing systems thinking based on the integration of project-based learning, interdisciplinary connections, and digital educational technologies is proposed. The structural components of systems thinking (analytical, synthetic, predictive, and reflective) are revealed, as well as the pedagogical conditions for its effective development. The results of a pedagogical experiment are presented, confirming an increase in the level of systems thinking development in students in the experimental groups. The practical significance of the study lies in the possibility of implementing the developed methodology in the educational process of technical universities.

PURPOSE: the primary objective of the article is to analyze the theoretical and methodological foundations of developing systems thinking in the study of specialized subjects and to demonstrate the possibilities of its implementation in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized project-based learning, interdisciplinary integration, and digital educational technologies. A pedagogical model was developed based on analytical, synthetic, predictive, and reflective thinking components.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the pedagogical experiment conducted in experimental groups showed an increase in the level of systems thinking. Students strengthened their analytical and synthetic approaches, developed predictive thinking skills, and formed reflective analysis abilities.

CONCLUSION: the methodology for developing systems thinking is an effective tool in the process of studying specialized subjects at technical universities and reinforces the competence-based approach in modern engineering education.

KEY WORDS: systems thinking; technical education; specialized disciplines; project-based learning; competency-based approach; digitalization of education; interdisciplinarity; pedagogical model; engineering education; adaptive learning

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi intensiv raqamli transformatsiya, texnik tizimlarning murakkablashuvining ortishi va muhandislik kadrlarining kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablarning ortishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda mutaxassislarga murakkab obyektlarni tahlil qilish, elementlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va noaniqlik sharoitida xabardor qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi tizimli fikrlashni rivojlantirish ayniqsa muhimdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1] kabi me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan kompetentsiyaga asoslangan yondashuv qoidalariga

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

muvofiq, oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri talabalarning professional vazifalarni har tomonlama va tizimli ravishda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Peter Senge ta'kidlaganidek, tizimli fikrlash "beshinchi intizom" ni ifodalaydi, bu tashkilotlar va texnologiyalardagi jarayonlar va hodisalarni yaxlit idrok etishni ta'minlaydi [2].

Muhandislik ta'limi sohasidagi katta miqdordagi tadqiqotlarga qaramay, ixtisoslashgan fanlarni o'qitish doirasida tizimli fikrlashni maqsadli rivojlantirish muammosi hali ham rivojlanmagan. Jon Biggs, Devid Kolb va Benjamin Blumning tadqiqot ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullari asosan integrativ kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga emas, balki bilim olishga qaratilgan [3].

Bu esa, ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lgan texnik universitetlarda talabalarda ixtisoslashgan fanlarni o'rganish jarayonida tizimli fikrlashni rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqot usullari. O‘quv jarayonida tizimli fikrlashni shakllantirish masalasi bugungi kunda xorijiy va mahalliy olimlarning diqqat markazida tobora muhim o‘rin egallamoqda [4; 5; 6; 7]. Ayniqsa, elektrotexnika kabi murakkab texnik tizimlarni o‘rganishda bu muammo alohida dolzarblik kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda “tizimli fikrlash” tushunchasining yagona va qat’iy ta’rifi mavjud emas. Umumiy yondashuvga ko‘ra, tizimli fikrlash — bu obyekt yoki jarayonni uning tarkibiy elementlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar orqali yagona tizim sifatida anglash qobiliyatidir. Elektrotexnika fanida bu, masalan, elektr zanjirlarini, ularning elementlari (rezistor, induktivlik, sig‘im) va ular orasidagi bog‘lanishlarni yaxlit tizim sifatida tahlil qilishni anglatadi.

Mazkur ishning maqsadi elektrotexnika fanini o‘qitish jarayonida talabalarda tizimli fikrlashni shakllantirish metodikasini qisqacha yoritish hamda ishlab chiqilgan yondashuvning tajriba-sinov natijalarini tahlil qilishdan iborat. Bizning fikrimizcha, tizimli fikrlashni rivojlantirish real texnik tizimlarni, xususan elektr zanjirlari, energetik tizimlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini modellashtirish orqali samarali amalga oshiriladi. Bunda asosiy omil — talabaning o‘rganilayotgan fan sohasi, ya’ni elektrotexnik jarayonlar va qonuniyatlarni chuqur anglashidir.

Talabalarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi yetarli bo‘lmagan holatlarda tizimli fikrlashni rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va bu jarayon ularning yaqin rivojlanish zonasiga mos ravishda tashkil etiladi. Shu sababli, elektrotexnika fanini o‘qitish doirasida tizimli fikrlash elementlarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahliliga asoslanib, elektrotexnika fanini o‘rganish jarayonida rivojlantiriladigan tizimli fikrlashning quyidagi asosiy elementlari ajratib ko‘rsatildi:

1. Elektrotexnik obyektlarni aniqlash va ularni oddiy (tizimsiz) obyektlardan farqlash qobiliyati.
2. Elektr tizimlarini o‘zaro bog‘langan elementlar (manba, yuklama, uzatish liniyalari) majmuasi sifatida ierarxik tuzilishda tasavvur qilish.
3. Elektr tizimlarining umumiy ishlash tamoyillarini va ularning integrativ xususiyatlarini aniqlash.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

4. Berilgan texnik parametrlar asosida yangi elektr tizimlarni loyihalash yoki mavjud tizimlarning modellarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash.

Bizning fikrimizcha, elektrotexnika fanini o‘qitish talabalarda tizimli fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ushbu fan murakkab tizimlarni tahlil qilish, modellashtirish va optimallashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, ko‘plab olimlar (S. A. Beshenkov, A. P. Ershov, K. K. Kolin va boshqalar) ta’kidlaganidek, ayrim fanlar meta-fan xususiyatiga ega bo‘lib, ular turli fanlararo bilimlarni integratsiyalash orqali umumlashgan fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Elektrotexnika fani ham mazkur jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u fizik, matematik va texnik qonuniyatlarni yagona tizimda birlashtiradi. Meta-fanlar doirasida o‘qitish kamida ikki turdagi faoliyatni talab qiladi: muammoni yechish va olingan yechimni anglash hamda tahlil qilish jarayoni.

Yu. V. Gromikoning fikricha, meta-fanlarni o‘zlashtirish jarayonida talabalar har qanday faoliyat tizimlarida — fanlararo va mustaqil bilim tizimlarida — tashkiliy axborotni aniqlash va undan samarali foydalanishni o‘rganadilar [8, 114-bet]. Bu yondashuv elektrotexnika fanini o‘qitishda ham dolzarb bo‘lib, elektr zanjirlari, energiya tizimlari va boshqaruv jarayonlarini kompleks tizim sifatida o‘rganishni talab qiladi.


Ikkinchidan, elektrotexnika fanining o‘quv dasturida “modellashtirish va matematik ifodalash” elementlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalish doirasida talabalar elektr jarayonlarini modellashtirish, sxemalarni tahlil qilish va tizimli yondashuv asosida umumiy qonuniyatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa tizimli fikrlashni shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari elektrotexnika fanini o‘qitish jarayonida tizimli fikrlashni shakllantirishga qaratilgan **mualliflik dasturi** asosida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlashga yo‘naltirildi. Tadqiqotda talabalar tizimli fikrlash darajasi tizimli tahlil, modellashtirish va prognozlash kompetensiyalari orqali kompleks baholandi [9-12].

Boshlang‘ich diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning aksariyati elektr zanjirlarini alohida elementlar yig‘indisi sifatida qabul qilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tizim darajasidagi xususiyatlarini yetarli darajada tahlil qila olmagan. Ayniqsa, murakkab elektrotexnik tizimlarning ishlashini modellashtirish va natijalarni oldindan baholashda qiyinchiliklar kuzatilgan (1-rasm).

© intereduglobalstudy.com


ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4



1-rasm. Elektrotexnika fanidan laboratoriya mashg‘uloti uchun dasturiy vosita ishchi oynasi

Shakllantiruvchi bosqichda ishlab chiqilgan mualliflik dasturi asosida o‘qitish jarayoni qayta tashkil etildi. Mazkur dastur elektrotexnik tizimlarni modellashtirish, ularning funksional elementlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni vizual ifodalash hamda tizimning ishlash jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilish imkonini berdi. Dasturda elektr zanjirlarini qurish, parametrlarni o‘zgartirish va natijalarni dinamik kuzatish funksiyalari integratsiyalashgan bo‘lib, bu talabalarga tizimning integrativ xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini yaratdi.

Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar va loyihaviy faoliyat orqali talabalar elektr tizimlarining strukturaviy va funksional bog‘liqliklarini aniqlash, turli variantlarni solishtirish va optimal yechimlarni tanlashga jalb qilindi. Natijada ular nafaqat tizimli obyektlarni ajrata olish, balki tizim ichidagi sabab-oqibat munosabatlarini tushunish hamda ularni matematik va grafik modellar orqali ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirdilar (2-rasm).



2-rasm. Ishchi oyna

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Nazorat bosqichida olingan natijalar eksperimental guruhda tizimli fikrlash darajasining sezilarli oshganini ko‘rsatdi. Talabalar elektr zanjirlarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish, ularning ishlashini prognozlash va modellashtirish asosida muammolarni hal etishda yuqori natijalarga erishdilar. Shu bilan birga, ular murakkab elektrotexnik masalalarni yechishda fanlararo bilimlardan samarali foydalanish qobiliyatini namoyon etdilar.

Taqqoslash tahlili shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalangan nazorat guruhiga nisbatan eksperimental guruhda yuqori darajadagi ko‘rsatkichlar sezilarli darajada ortgan. Bu esa ishlab chiqilgan mualliflik dasturi asosida tashkil etilgan metodikaning tizimli fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari elektrotexnika fanini o‘qitishda mualliflik modellashtirish dasturi, muammoli yondashuv va loyihaviy faoliyat integratsiyasi talabalarda tizimli fikrlashni shakllantirishning samarali vositasi ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar mazkur metodikani texnik oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

Xulosa. Tadqiqot texnik universitetlardagi ixtisoslashtirilgan fanlarda talabalarning tizimli fikrlashini rivojlantirish metodologiyasini asosladi. Tizimli fikrlashning samarali rivojlanishi quyidagi pedagogik shartlarni amalga oshirish orqali ta'minlanishi aniqlandi: loyihaga asoslangan o'qitishni integratsiyalashtirish, fanlararo vazifalardan foydalanish, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish va talabalarning refleksiv faoliyatini tashkil etish.

Eksperimental ma'lumotlar nazorat guruhlariga nisbatan eksperimental guruhlardagi talabalarda tizimli fikrlash rivojlanishida ijobiy tendentsiyani ko'rsatdi, bu taklif qilingan metodologiyaning samaradorligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar uni texnik universitetlardagi o'quv jarayoniga joriy etishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlar istiqbollari tizimli fikrlashni tashxislash uchun raqamli vositalarni ishlab chiqish, shuningdek, metodologiyani inklyuziv ta'lim sharoitlari va individual ta'lim yo'nalishlariga moslashtirishni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. The Fifth Discipline/Peter Senge. – New York: Doubleday, 2006. https://www.seeing-everything-in-a-new-way.com/uploads/2/8/5/1/28516163/peter-senge-the-fifth-discipline.pdf
3. Taxonomy of Educational Objectives / Benjamin Bloom. – New York: Longman, 1956.
4. O'Connor, J., and McDermott, I. (2006). The Art of Systems Thinking: Essential Knowledge about Systems and Creative Problem Solving. Moscow: Alpina Business Books, 2006. 256 p.
5. Формирование системного мышления в обучении: Учеб. пособие / Под ред. З. А. Решетовой. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. 344 с.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

6. Argyris C. Teaching smart people how to learn [Text] / C. Argyris // Harvard Business Revue. 1991. May-June. P. 99–109.
7. Cavaleri S. A. Systems Thinking for Knowledge // Journal of General Evolution. 2005. Vol. 61. № 5. P. 378–396.
8. Громыко Ю. В. Мыследеятельностная педагогика (теоретико-практическое руководство по освоению высших образцов педагогического искусства). Минск: Технопринт, 2000. 375 с.
9. Сычев И. А. Методика формирования системного мышления учащихся в курсе информатики // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2008. №80. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-formirovaniya-sistemnogo-myshleniya-uchaschihsya-v-kurse-informatiki (дата обращения: 20.04.2026).
10. Габдрахманова, К. Ф. Работа студента в системе дистанционного обучения Moodle / К. Ф. Габдрахманова, Л. Ф. Юсупова. – Уфа : Редакционно-издательский центр Уфимского государственного нефтяного технического университета, 2015. – 68 с. – ISBN 978-5-93105-267-0. – EDN VKTOKZ.
11. Yusupova L.F. "Elektrotexnika" fanini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llash // Oliy ta'limning dolzarb masalalari - 2024: Xalqaro ilmiy va metodologik konferensiya materiallari, Oktyabr, 2024 yil 25 oktyabr. - Ufa: Ufa davlat neft-texnologiya universiteti, 2024. - 168-171-betlar.
12. Yusupova L.F. Development Of An Interactive Method “Electro-Ishikawa Method (E-I Method)”/International Journal of Pedagogics. Vol.05, Issue11, 2025, p 234-239, 234-239, DOI: 10.37547/ijp/Volume05Issue11-53

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

METAKOGNITSIYA VA EPISTEMIK TAFAKKUR O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Raximova Aziza Davranbekovna, Innovatsion texnologiyalar universiteti

ANNOTATSIYA

Kirish: ushbu maqolada metakognitsiya va epistemik tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik psixologik hamda ta’limiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi metakognitsiyani bilish jarayonini kuzatish va boshqarish mexanizmi, epistemik tafakkurni esa bilimning manbai, ishonchliligi, murakkabligi va asoslanganligini baholashga yo‘naltirilgan tafakkur shakli sifatida izohlab, ular orasidagi integrativ munosabatni ochib berishdan iborat. Tadqiqot nazariy-tahliliy, qiyosiy-konseptual va interpretativ sintez usullariga tayangan holda olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, metakognitsiya talabaning o‘z fikrlashini nazorat qilishi va strategik boshqarishini ta’minlasa, epistemik tafakkur shu boshqaruvga bilimning epistemik mezonlarini kiritadi. Shu bois epistemik tafakkur metakognitsiyaning maxsus, mazmunan chuqurlashgan ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Metakognitiv monitoring, refleksiya, o‘z-o‘zini boshqarish va epistemik baholashning uyg‘unligi akademik o‘qish, manbalarni tekshirish, argumentlarni solishtirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarishda ayniqsa muhim ekani asoslandi. Xulosa sifatida oliy ta’lim jarayonida metakognitsiya va epistemik tafakkurni birgalikda rivojlantirish mustaqil fikrlash, ilmiy savodxonlik va tanqidiy tahlilning psixologik poydevorini kuchaytirishi ta’kidlandi.

Maqsad: realliklarning semantik va etimologik xususiyatlarini tahlil qilish, ularni neologizm, arxaizm va tarixiylikka ajratish hamda ularning milliy madaniyat bilan bog‘liqligini ko‘rsatish.

Materiallar va metodlar: tavsifiy lingvistik tahlil, etimologik tasnif va madaniy izoh metodlari qo‘llanildi. *sumalak, chuchvara, xonim* kabi misollar milliy realliklarni yoritishda ishlatildi.

Natijalar va muhokama: neologizmlar yangi madaniy unsurlarni ifodalasa, arxaizmlar milliy hayotning tarixiy shakllarini saqlaydi, tarixiylik esa muayyan davrga xos realliklarni aks ettiradi. sinxron tahlil ularning hozirgi qo‘llanilishini, diaxron tahlil esa vaqt davomida rivojlanishini ko‘rsatadi.

Xulosa: realliklar madaniyatdan ajralmas bo‘lib, milliy o‘zlikning lingvistik belgisi sifatida xizmat qiladi. ularni neologizm, arxaizm va tarixiylikka ajratish til, tarix va jamiyat o‘rtasidagi dinamik munosabatni yoritadi.

KALIT SO‘ZLAR: metakognitsiya, epistemik tafakkur, epistemik metakognitsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, monitoring, refleksiya, bilimni asoslash, akademik o‘qish, tanqidiy fikrlash, oliy ta’lim.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ МЕТАКОГНИЦИЕЙ И ЭПИСТЕМИЧЕСКИМ МЫШЛЕНИЕМ

Рахимова Азиза Давранбековна, Университет инновационных технологий

АННОТАЦИЯ

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Введение: в статье анализируется взаимосвязь между метакогницией и эпистемическим мышлением с психологической и образовательной точек зрения. Цель исследования состоит в том, чтобы интерпретировать метакогницию как механизм мониторинга и регуляции познавательных процессов, а эпистемическое мышление как форму мышления, направленную на оценку источника, достоверности, сложности и обоснованности знания, и на этой основе раскрыть их интегративную связь. Исследование опирается на теоретико-аналитический, сравнительно-концептуальный и интерпретативно-синтетический подходы. Результаты показывают, что метакогниция обеспечивает контроль и стратегическое управление мышлением студента, тогда как эпистемическое мышление вводит в этот процесс критерии оценки знания. В связи с этим эпистемическое мышление проявляется как особая, содержательно углублённая форма метакогниции. Обосновано, что единство метакогнитивного мониторинга, рефлексии, саморегуляции и эпистемической оценки особенно важно в академическом чтении, проверке источников, сопоставлении аргументов и формулировании выводов на основе доказательств. В заключении подчёркивается, что совместное развитие метакогниции и эпистемического мышления в системе высшего образования усиливает психологическую основу самостоятельного мышления, научной грамотности и критического анализа.

Цель: проанализировать семантические и этимологические особенности реалий, классифицировать их как неологизмы, архаизмы и историзмы, а также показать их связь с национальной культурой.

Материалы и методы: использованы методы описательного лингвистического анализа, этимологической классификации и культурной интерпретации. примеры *сумалак, чучвара, ханым* иллюстрируют национальные особенности реалий.

Результаты и обсуждение: исследование показало, что неологизмы отражают новые культурные элементы, архаизмы сохраняют исторические формы национальной жизни, а историзмы связаны с конкретными эпохами. синхронное изучение выявляет их современное употребление, диахронное — их эволюцию во времени.

Заключение: реалии неразрывно связаны с культурой и служат языковыми маркерами национальной идентичности. их классификация на неологизмы, архаизмы и историзмы позволяет понять динамическое взаимодействие языка, истории и общества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: метакогниция, эпистемическое мышление, эпистемическая метакогниция, саморегуляция, мониторинг, рефлексия, обоснование знания, академическое чтение, критическое мышление, высшее образование.

THE RELATIONSHIP BETWEEN METACOGNITION AND EPISTEMIC THINKING

Rakhimova Aziza Davranbekovna, University of Innovative Technologies

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ANNOTATION

Introduction: this article examines the interrelationship between metacognition and epistemic thinking from psychological and educational perspectives. The aim of the study is to interpret metacognition as a mechanism for monitoring and regulating cognitive processes and epistemic thinking as a form of thinking directed toward evaluating the source, credibility, complexity, and justification of knowledge, and on this basis to reveal their integrative connection. The research relies on theoretical-analytical, comparative-conceptual, and interpretive-synthetic approaches. The findings indicate that metacognition enables students to monitor and strategically regulate their thinking, whereas epistemic thinking introduces criteria for evaluating knowledge into that regulatory process. Therefore, epistemic thinking can be understood as a specialized and conceptually deepened form of metacognition. The study further shows that the integration of metacognitive monitoring, reflection, self-regulation, and epistemic evaluation is especially important in academic reading, source evaluation, comparison of arguments, and evidence-based reasoning. The article concludes that developing metacognition and epistemic thinking together in higher education strengthens the psychological foundation of independent thinking, scientific literacy, and critical analysis.

Purpose: to analyze the semantic and etymological features of realities, focusing on their classification into neologisms, archaisms, and historicisms, and to demonstrate their connection with national culture.

Materials and Methods: descriptive linguistic analysis, etymological classification, and cultural interpretation were applied. examples such as *sumalak, chuchvara,* and *khanim* illustrate the national characteristics of realities.

Results and Discussion: findings show that neologisms represent newly introduced cultural elements, archaisms preserve historical forms of national life, and historicisms reflect realities tied to specific epochs. synchronic study reveals their current usage, while diachronic analysis highlights their evolution across time.

Conclusion: realities are inseparable from culture, serving as linguistic markers of national identity. their classification into neologisms, archaisms, and historicisms provides insight into the dynamic relationship between language, history, and society.

KEYWORDS: metacognition, epistemic thinking, epistemic metacognition, self-regulation, monitoring, reflection, justification of knowledge, academic reading, critical thinking, higher education.

Zamonaviy ta’lim psixologiyasida metakognitsiya va epistemik tafakkur alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, keyingi tadqiqotlar ularning bir-biridan uzilgan hodisalar emasligini ko‘rsatmoqda. Flavell metakognitsiyani shaxsning o‘z kognitiv jarayonlari haqidagi xabardorligi va ularni nazorat qila olish qobiliyati bilan bog‘lagan; keyingi sharhlarda esa metakognitsiya o‘qish, tushunish, muammoni hal qilish va o‘z-o‘zini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

boshqaruvchi o‘rganishning markaziy mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, epistemik kognitsiya yoki epistemik tafakkur bilim qanday hosil bo‘lishi, qaysi mezonlar bilan asoslanishi va qachon ishonchli deb qabul qilinishi haqidagi fikrlashni anglatadi. Bu ikki tushuncha talabaning “men qanday o‘ylayapman?” va “men bilayotgan narsaning epistemik maqomi qanday?” degan savollarini bitta psixologik maydonda birlashtiradi.

Metakognitsiya va epistemik tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik, ayniqsa, oliy ta’lim sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki universitet talabasidan nafaqat materialni tushunish, balki manbalar o‘rtasidagi farqni ko‘rish, qarama-qarshi dalillarni solishtirish, ishonchlilik mezonlarini qo‘llash va o‘z xulosasini refleksiv ravishda qayta ko‘rib chiqish ham talab etiladi. Hofer va Sinatra bu sohani “epistemologiya, metakognitsiya va o‘z-o‘zini boshqarish” tutashadigan maydon sifatida tavsiflaydi. Barzilai va Zohar esa epistemik tafakkur kognitiv hamda metakognitiv jihatlarni birlashtiruvchi ko‘p qirrali konstrukt ekanini asoslaydi. Mason va hammualliflar internetda axborot qidirish jarayonini o‘rganib, epistemik metakognitsiya aynan real vaziyatlarda faollashishini ko‘rsatadi.

Mavzuning amaliy ahamiyati ham yuqori. Greene, Cartiff va Duke tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil epistemik kognitsiya bilan akademik yutuqlar o‘rtasida kichik, ammo mazmunli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatgan. Keyingi meta-tahlilda esa epistemik kognitsiyani rivojlantirishga qaratilgan intervensiyalar akademik natijalarga o‘rtacha darajadagi ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Demak, metakognitsiya va epistemik tafakkur o‘rtasidagi munosabatni tushuntirish nazariy jihatdan ham, ta’limiy amaliyot nuqtai nazaridan ham muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi metakognitsiya va epistemik tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni psixologik mazmunda ochib berish, ularning umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatish hamda talaba o‘quv faoliyatidagi integrativ funksiyasini tavsiflashdan iborat.

Mazkur maqola nazariy xarakterdagi tadqiqot bo‘lib, unda metakognitsiya, epistemik tafakkur, epistemik metakognitsiya va o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘rganishga oid ilmiy manbalar qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi. Nazariy baza sifatida Flavellning metakognitsiya haqidagi foundational ishlari, Schraw va Moshmanning metakognitiv nazariyalar modeli, Veenman va hammualliflarning metakognitsiyaning kontseptual hamda metodologik talqini, Hofer va Sinatraning epistemologiya-metakognitsiya-o‘z-o‘zini boshqarish aloqalari, Barzilai va Zoharning epistemik tafakkurga doir multifaktorial yondashuvi, Mason, Boldrin va Ariasining epistemik metakognitsiya bo‘yicha kontekstual ishlari, Greene va Yu, Muis, Richter va Schmid hamda Trevors va hammualliflarning empirik va konseptual tadqiqotlari tanlandi.

Tahlil davomida ikki asosiy savol markazga qo‘yildi: birinchisi, metakognitsiya va epistemik tafakkur qanday umumiy psixologik mexanizmlarga tayangan holda ishlaydi; ikkinchisi, epistemik tafakkur metakognitsiyaning tarkibiy qismi, maxsus ko‘rinishi yoki unga parallel konstrukt sifatida talqin qilinishi mumkinmi. Shu asosda manbalar interpretativ sintez usuli orqali birlashtirildi va oliy ta’limdagi o‘qish, matn bilan ishlash, manbalarni baholash hamda argumentlash amaliyotlari bilan bog‘liq xulosalar chiqarildi.

Nazariy tahlil shuni ko‘rsatdiki, metakognitsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxsning bilish jarayonlari ustidan nazoratini ta’minlaydigan yuqori darajadagi psixik mexanizmdir. U faqat

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

bilimga ega bo‘lish emas, balki bilish jarayonida maqsad qo‘yish, rejalashtirish, monitoring qilish, xatoni sezish, strategiyani almashtirish va natijani baholash kabi amallarni o‘z ichiga oladi. Flavell metakognitsiyani kognitsiya haqidagi bilim va kognitiv faoliyatni monitoring qilish bilan bog‘lagan bo‘lsa, Schraw va Moshman metakognitiv bilim hamda regulyativ ko‘nikmalarni alohida tarkibiy qirralar sifatida ajratadi. Veenman va hammualliflar esa metakognitsiyani o‘rganish nazariyasining tayanch tushunchalaridan biri sifatida ko‘rsatib, uning monitoring va nazorat funksiyalarini alohida urg‘ulaydi.

Epistemik tafakkur esa boshqa savollar doirasida harakat qiladi. U “men tushundimmi?” degan savoldan ko‘ra “men bunga nega ishonaman?”, “bu bilim qaysi manbaga tayanadi?”, “bu xulosa qanday asoslangan?” kabi savollarga yo‘naltirilgan. Sandoval, Greene va Bråten epistemik kognitsiyani bilim va bilish haqidagi fikrlashning keng tadqiqot maydoni sifatida tavsiflaydi. Greene va Yu epistemik kognitsiyani modellashtirishda deklarativ, protsessual va printsipial bilim qatlamlarini farqlash zarurligini ko‘rsatadi. Barzilai va Zohar epistemik tafakkur kognitiv va metakognitiv tarkiblarni birlashtiruvchi ko‘p qirrali tuzilma ekanini ta’kidlaydi. Bu yondashuv epistemik tafakkurni oddiy e’tiqodlar majmui emas, balki bilim da’volarini baholashga xizmat qiladigan faol, nazoratli tafakkur jarayoni sifatida tushunishga imkon beradi.

Shu nuqtada metakognitsiya va epistemik tafakkur o‘rtasidagi birinchi bog‘liqlik ochiladi: ikkalasi ham refleksiv xususiyatga ega. Metakognitsiya o‘z tafakkurini kuzatadi, epistemik tafakkur esa kuzatilayotgan tafakkurning bilimga doir asoslarini tekshiradi. Hofer va Sinatra epistemik metakognitsiya tushunchasini kiritib, shaxsning bilimning tabiati, manbai, tuzilishi va asoslanishi haqidagi o‘z qarashlari ustidan fikr yuritishini metakognitiv jarayonning o‘ziga xos turi sifatida talqin qiladi. Demak, epistemik tafakkur metakognitsiyaga qo‘shimcha bo‘lgan tashqi modul emas; u bilishning epistemik sifati ustidan amalga oshiriladigan metakognitiv nazoratdir.

Ikkinchi bog‘liqlik monitoring funksiyasida namoyon bo‘ladi. Oddiy metakognitiv monitoring talabaning tushungan-tushunmaganini, eslab qolgan-qolmaganini yoki strategiya ishlayotgan-ishlamayotganini kuzatadi. Epistemik monitoring esa shu jarayonga manba ishonchliligi, dalil kuchi, muqobil izohlarning mavjudligi va xulosaning asoslanganlik darajasini qo‘shadi. Mason, Boldrin va Ariasi internetdagi ma’lumotlarni qidirish va o‘rganish jarayonida epistemik metakognitsiya aynan shunday ishlashini ko‘rsatgan: talabalar nafaqat mavzuni tushunishga, balki sahifa yoki manbaning sifatini baholashga, ma’lumotni taqqoslashga va qarama-qarshiliklarni aniqlashga majbur bo‘ladi. Hoferning onlayn qidiruvga bag‘ishlangan tadqiqoti ham epistemologik tushunish metakognitiv jarayon sifatida real o‘quv vazifasida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Uchinchi bog‘liqlik o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘rganish bilan bog‘liq. Muis epistemik e’tiqodlar o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘rganish jarayoniga standartlar beradi, deb ta’kidlaydi. Boshqacha aytganda, talaba nimani “yaxshi tushunish” deb hisoblashini, qachon qo‘shimcha manba izlashi kerakligini yoki qaysi paytda o‘z xulosasini qayta ko‘rib chiqishini aynan epistemik qarashlari belgilaydi. Richter va Schmid epistemologik e’tiqodlarni metakognitiv bilimning tarkibi sifatida ko‘rib, ular epistemik strategiyalar, jumladan, axborotni validatsiya qilish va argumentlarning ichki izchilligini tekshirishni boshqarishini

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ko‘rsatadi. Trevors va hammualliflar esa epistemik qarashlar o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘rganishning turli bosqichlari va komponentlari bilan o‘zgaruvchan munosabatda ekanini aniqlagan. Bu natijalar metakognitsiya va epistemik tafakkur o‘rtasidagi aloqa dinamik hamda vaziyatga sezgir ekanini tasdiqlaydi.

To‘rtinchi bog‘liqlik strategik faoliyat mazmunida ko‘rinadi. Metakognitsiya strategiyalarni tanlash va ulardan foydalanishni boshqaradi, biroq epistemik tafakkur bu strategiyalarning sifat mezonini belgilaydi. Masalan, talaba murakkab matnni o‘qiganda, metakognitiv jihatdan rejalashtirish, matnni bo‘lish, qayta o‘qish va xulosa chiqarish strategiyalaridan foydalanishi mumkin. Ammo epistemik tafakkur bo‘lmasa, bu strategiyalar faqat eslab qolish yoki yuzaki tushunishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Aksincha, epistemik yondashuv mavjud bo‘lsa, talaba muallif pozitsiyasini, dalil va taxmin o‘rtasidagi farqni, qarshi fikrlarning imkonini ham tekshiradi. Greene va Yu, shuningdek, Barzilai va Zohar epistemik fikrlash faqat ma’lumotni qayta ishlash emas, balki bilimga doir prinsipial qarorlar qabul qilishni ham o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi.

Beshinchi jihat shundaki, metakognitsiya va epistemik tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik barcha vaziyatlarda bir xil emas. Greene va Yu epistemik kognitsiya fanlar va vazifalar bo‘yicha farqlanishi mumkinligini ko‘rsatadi; Mason va hammualliflar esa internetda axborot qidirish kabi ochiq muhitda epistemik metakognitsiya ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lishini qayd etadi. Bu shuni anglatadiki, metakognitsiya nisbatan umumiy o‘quv nazorati vazifasini bajarishi mumkin, epistemik tafakkur esa ayniqsa noaniq, zid yoki ko‘p manbali axborot bilan ishlaganda kuchliroq faollashadi. Talaba aniq formulani yodlayotganda metakognitsiya yetarli bo‘lishi mumkin, ammo bahsli ijtimoiy yoki ilmiy masalada ishlayotganda epistemik mezonlar ham zarur bo‘ladi.

Oltinchi natija shundan iboratki, metakognitsiya va epistemik tafakkur bir-birini kuchaytiruvchi mexanizmlardir. Muis va Franco olib borgan tadqiqotlarda epistemik profillar bilan metakognitiv strategiyalar o‘rtasida mazmunli aloqalar aniqlangan. Keyingi ishlarda epistemik e’tiqodlar va metakognitiv qayta ishlash o‘rtasidagi “moslik gipotezasi”ga ham qo‘llab-quvvatlovchi dalillar topilgan. Buning ma’nosi shuki, bilimning murakkab va asoslanadigan tabiatini qabul qiladigan talabalar ko‘proq monitoring, tekshirish va qayta ishlashga moyil bo‘ladi; kuchli metakognitiv nazoratga ega talabalar esa epistemik jihatdan ham chuqurroq baholashga kirishadi.

Yettinchi natija ta’lim samaradorligi bilan bog‘liq. Epistemik kognitsiya akademik yutuqlar bilan ijobiy bog‘liq ekani meta-tahlilda ko‘rsatilgan, intervension tadqiqotlar esa epistemik kognitsiyani rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy yondashuvlar akademik natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Mazkur xulosalar metakognitsiya va epistemik tafakkur integratsiyasi nafaqat nazariy konstruktsiya, balki amaliy jihatdan ham samarali ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, argumentlash, konseptual tushunish va ko‘p matnli o‘qish vazifalarida epistemik nazorat bilan boyitilgan metakognitiv faoliyat yuqori natijalar bilan bog‘lanadi.

Tahlil natijalari metakognitsiya va epistemik tafakkur munosabatini uch darajada tushuntirish mumkinligini ko‘rsatadi. Birinchi darajada epistemik tafakkur metakognitsiyaning maxsus sohasi sifatida namoyon bo‘ladi, chunki u ham o‘z tafakkuriga

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

qaytish, monitoring va nazoratni talab qiladi. Ikkinchi darajada epistemik tafakkur metakognitsiyadan mazmunan torroq, ammo chuqurroq bo‘lib, aynan bilimning maqomi va asoslanishi bilan ishlaydi. Uchinchi darajada esa ular bir-biriga tutashgan, ammo aynan bir xil bo‘lmagan konstruktlar sifatida ko‘rinadi: metakognitsiya umumiy o‘quv boshqaruvini ta’minlaydi, epistemik tafakkur esa shu boshqaruvga epistemik mezonlarni olib kiradi. Hofer va Sinatra hamda Barzilai va Zoharning ishlari aynan shu integrativ talqinni qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu munosabatning pedagogik talqini ayniqsa muhim. Agar ta’lim jarayoni faqat “qanday o‘qish kerak” degan savolga javob berib, “nimaga ishonish kerak” va “qanday asoslash kerak” savollarini chetda qoldirsa, talaba kuchli metakognitiv strategiyalarga ega bo‘lsa ham, epistemik jihatdan sayoz pozitsiyada qolishi mumkin. Aksincha, agar ta’lim bilimning nisbiyligi va dalillanishi haqida gapirib, lekin monitoring, rejalashtirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirmasa, epistemik tafakkur amaliy faoliyatga ko‘chmay qoladi. Shu bois ko‘p manbali matnlar bilan ishlash, manba ishonchliligini baholash, fikrlarni dalillar bilan taqqoslash, think-aloud usullari va refleksiv yozuvlar metakognitiv hamda epistemik rivojlanishni bir vaqtning o‘zida qo‘llab-quvvatlaydigan samarali vositalar sifatida ko‘rinadi.

Oliy ta’limdagi ilmiy savodxonlik, tanqidiy fikrlash va mustaqil tadqiqot kompetensiyasi aynan shu integratsiyaga tayanadi. Meta-tahlillar epistemik kognitsiya bilan akademik natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, intervension tadqiqotlar esa bu sohani maqsadli rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatgani sababli, metakognitsiya va epistemik tafakkur birgalikda ko‘rilishi zarur bo‘lgan psixologik resurslardir. Ayniqsa, sun’iy intellekt va raqamli axborot oqimi kuchaygan bugungi sharoitda talaba faqat o‘z tushunishini emas, balki foydalanayotgan bilimining epistemik sifatini ham nazorat qila olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, metakognitsiya va epistemik tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik shaxsning bilish faoliyatini ikki yo‘nalishda boshqaradi: birinchisi, u qanday o‘ylayotganini kuzatadi va tartibga soladi; ikkinchisi, u nimani va nima asosida bilayotganini baholaydi. Shu ma’noda epistemik tafakkur metakognitiv nazoratning epistemik jihatdan chuqurlashgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Monitoring, refleksiya, strategik boshqaruv va epistemik baholashning birligi talabada dalillarga tayangan xulosa chiqarish, manbalarni tanlash va o‘z pozitsiyasini asoslash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shundan kelib chiqib, oliy ta’lim amaliyotida metakognitsiya va epistemik tafakkurni alohida emas, balki o‘zaro tutashgan rivojlanish yo‘nalishlari sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida bu bog‘liqlikni turli fanlar kesimida, raqamli o‘quv muhitida va intervension dasturlar asosida empirik tekshirish muhim ilmiy vazifa bo‘lib qoladi. Aynan shunday yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashi, ilmiy savodxonligi va intellektual mas’uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

1. Barzilai S., Zohar A. Reconsidering personal epistemology as metacognition: A multifaceted approach to the analysis of epistemic thinking // Educational Psychologist. 2014. Vol. 49, No. 1. P. 13–35. DOI: 10.1080/00461520.2013.863265.
2. Cartiff B. M., Duke R. F., Greene J. A. The Effect of Epistemic Cognition Interventions on Academic Achievement: A Meta-Analysis // Journal of Educational Psychology. 2021. Vol. 113, No. 3. P. 477–498.
3. Flavell J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry // American Psychologist. 1979. Vol. 34, No. 10. P. 906–911. DOI: 10.1037/0003-066X.34.10.906.
4. Greene J. A., Cartiff B. M., Duke R. F. A Meta-Analytic Review of the Relationship Between Epistemic Cognition and Academic Achievement // Journal of Educational Psychology. 2018. Vol. 110, No. 8. P. 1084–1111. DOI: 10.1037/edu0000263.
5. Greene J. A., Yu S. B. Modeling and Measuring Epistemic Cognition: A Qualitative Re-Investigation // Contemporary Educational Psychology. 2014. Vol. 39, No. 1. P. 12–28.
6. Hofer B. K. Epistemological Understanding as a Metacognitive Process: Thinking Aloud During Online Searching // Educational Psychologist. 2004. Vol. 39, No. 1. P. 43–55. DOI: 10.1207/s15326985ep3901_5.
7. Hofer B. K., Sinatra G. M. Epistemology, Metacognition, and Self-Regulation: Musings on an Emerging Field // Metacognition and Learning. 2010. Vol. 5, No. 1. P. 113–120. DOI: 10.1007/s11409-009-9051-7.
8. Mason L., Boldrin A., Ariasi N. Epistemic Metacognition in Context: Evaluating and Learning Online Information // Metacognition and Learning. 2010. Vol. 5, No. 1. P. 67–90. DOI: 10.1007/s11409-009-9048-2.
9. Muis K. R. The Role of Epistemic Beliefs in Self-Regulated Learning // Educational Psychologist. 2007. Vol. 42, No. 3. P. 173–190. DOI: 10.1080/00461520701416306.
10. Muis K. R., Franco G. M. Epistemic Profiles and Metacognition: Support for the Consistency Hypothesis // Metacognition and Learning. 2010. Vol. 5, No. 1. P. 27–45. DOI: 10.1007/s11409-009-9041-9.
11. Richter T., Schmid S. Epistemological Beliefs and Epistemic Strategies in Self-Regulated Learning // Metacognition and Learning. 2010. Vol. 5, No. 1. P. 47–65. DOI: 10.1007/s11409-009-9038-4.
12. Sandoval W. A., Greene J. A., Bråten I. Understanding and Promoting Thinking About Knowledge // Review of Research in Education. 2016. Vol. 40, No. 1. P. 457–496. DOI: 10.3102/0091732X16669319.
13. Schraw G., Moshman D. Metacognitive Theories // Educational Psychology Review. 1995. Vol. 7, No. 4. P. 351–371. DOI: 10.1007/BF02212307.
14. Trevors G., Feyzi-Behnagh R., Azevedo R., Bouchet F. Self-Regulated Learning Processes Vary as a Function of Epistemic Beliefs and Contexts: Mixed Method Evidence from Eye Tracking and Concurrent and Retrospective Reports // Learning and Instruction. 2016. Vol. 42. P. 31–46. DOI: 10.1016/j.learninstruc.2015.11.003.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

15. Veenman M. V. J., Van Hout-Wolters B. H. A. M., Afflerbach P. Metacognition and Learning: Conceptual and Methodological Considerations // Metacognition and Learning. 2006. Vol. 1, No. 1. P. 3–14. DOI: 10.1007/s11409-006-6893-0.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA YENGIL ATLETIKA TO'GARAK MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ergasheva Ozoda Asqar qizi, Oriental universiteti Samarqand kampusi Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Kirish: oliy ta'lim muassasalarida yengil atletika to'garaklari talabalarning sog'lig'ini mustahkamlash, chidamlilikni rivojlantirish va sportga qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. biroq an'anaviy metodlar ko'pincha individual farqlarni va zamonaviy monitoring texnologiyalarini hisobga olmaydi.

Maqsad: yengil atletika to'garak mashg'ulotlarini takomillashtirish metodikasini pedagogik innovatsiyalar, statistik tahlil va raqamli monitoring vositalari bilan uyg'unlashtirish.

Materiallar va metodlar: variatsion statistika, antropometrik o'lchovlar va pedagogik kuzatuv qo'llanildi. mashg'ulotlar "smart-timer" va pulsometr yordamida nazorat qilindi.

Natijalar va muhokama: takomillashtirilgan metodika talabalarning tezkorlik va chidamlilik ko'rsatkichlarini oshirdi. statistik tahlil bu natijalarni ishonchli ekanini tasdiqladi. antropometrik ko'rsatkichlarga asoslangan individual yondashuv mashg'ulot samaradorligini kuchaytirdi.

Xulosa: yengil atletika to'garak mashg'ulotlariga pedagogik innovatsiyalar va raqamli monitoringni joriy etish talabalarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlaydi va ilmiy asoslangan mashg'ulotlarni ta'minlaydi. tavsiyalar sifatida smart texnologiyalarni kengaytirish va individual yondashuvni qo'llash taklif etiladi.

KALIT SO'ZLAR: yengil atletika, to'garak, jismoniy tayyorgarlik, o'rtacha arifmetik qiymat, variatsion statistika, pedagogik tajriba, individual yondashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЛУЧШЕНИЯ МЕТОДОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНЫХ КЛУБНЫХ ТРЕНИРОВОК В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Эргашева Озода Аскар кизи, преподаватель кафедры физической культуры Самаркандского кампуса Восточного университета

АННОТАЦИЯ

Введение: кружки лёгкой атлетики в вузах играют важную роль в укреплении здоровья студентов, развитии выносливости и формировании интереса к спорту. однако традиционные методы часто не учитывают индивидуальные различия и современные технологии мониторинга.

Цель: усовершенствовать методику организации занятий по лёгкой атлетике путём интеграции педагогических инноваций, статистического анализа и цифрового мониторинга.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Материалы и методы: применялись методы вариационной статистики, антропометрические измерения и педагогическое наблюдение. занятия контролировались с помощью «smart-timer» и пульсометра.

Результаты и обсуждение: усовершенствованная методика повысила показатели быстроты и выносливости студентов. статистический анализ подтвердил достоверность этих улучшений. индивидуальный подход, основанный на антропометрических данных, обеспечил более эффективные результаты тренировок.

Заключение: интеграция педагогических инноваций и цифрового мониторинга в занятия по лёгкой атлетике укрепляет физическую подготовку студентов и обеспечивает научно обоснованное обучение. рекомендуется расширить использование смарт-технологий и внедрить индивидуальные стратегии тренировок в вузах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: легкая атлетика, кружок, физическая подготовка, среднее арифметическое значение, вариационная статистика, педагогический эксперимент, индивидуальный подход.

PEDAGOGICAL BASIS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF ORGANIZING ATHLETICS CLUB TRAINING IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ergasheva Ozoda Askar kizi, teacher of the Department of Physical Culture,
Samarkand Campus of Oriental University

ANNOTATION

Introduction: athletics circles in higher education institutions play an important role in strengthening students' health, developing endurance, and fostering interest in sports. however, traditional methods often fail to account for individual differences and modern monitoring technologies.

Purpose: to improve the methodology of organizing athletics circle sessions by integrating pedagogical innovations, statistical analysis, and digital monitoring tools.

Materials and Methods: the study applied variational statistics, anthropometric measurements, and pedagogical observation. training sessions were monitored using smart-timer and heart rate devices to ensure optimal load intensity.

Results and Discussion: findings show that the improved methodology enhanced students' speed and endurance indicators. statistical analysis confirmed the reliability of these improvements. individual approaches based on anthropometric data allowed for more effective training outcomes.

Conclusion: the integration of pedagogical innovations and digital monitoring into athletics circle sessions strengthens students' physical preparedness and ensures scientifically grounded training. recommendations include expanding the use of smart technologies and adopting individualized training strategies in higher education institutions.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

KEYWORDS: athletics, club, physical training, arithmetic mean, variational statistics, pedagogical experiment, individual approach.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida mutaxassis tayyorlash jarayoni nafaqat intellektual salohiyatni, balki yuqori jismoniy tayyorgarlik va salomatlikni ham talab etadi. Prezidentimiz tomonidan sportni ommalashtirishga oid farmon va qarorlari ijrosini ta’minlashda OTMlardagi sport to‘garaklari, xususan, yengil atletika muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi 24.03.2026 yildagi O’RQ-1123-sonli “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi Qonunida ham Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalasiga atroflicha urg’u berilgan. Biroq, oliy ta’lim muassasalarida yengil atletika to‘garaklarini tashkil etishda bir qator muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, mashg‘ulotlarning bir xilligi (monotonlik), talabalarning individual imkoniyatlari hisobga olinmasligi va natijalarni tahlil qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanilmasligi. Shu sababdan, to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish bugungi kunning dolzarb pedagogik masalasi hisoblanadi.Yengil atletika mashg'ulotlari talabalarning chidamliligi, tezkorligi va kuch sifatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayoni 2025-2026 o‘quv yili davomida Oriental universiteti Samarqand kampusi bazasida olib borildi. Tadqiqotda jami 30 nafar: 15 nafar nazorat va 15 nafar tajriba guruhi talabalari ishtirok etdi.

Takomillashtirilgan metodikaning o‘ziga xosligi:

1. **Diagnostik bosqich:** Talabalarning antropometrik ko‘rsatkichlari va boshlang‘ich jismoniy tayyorgarligi o‘rganildi.
2. **Raqamli monitoring:** Mashg‘ulotlar davomida "Smart-Timer" va pulsometrlardan foydalanilib, yuklamaning intensivligi nazorat qilindi.

Ma’lumotlar variatsion statistika usulida tahlil qilindi.

- O‘rtacha arifmetik qiymat $\bar{x} = \frac{\Sigma x_i}{n}$,
- o‘rtacha kvadratik chetlanish $\sigma = \sqrt{\frac{\sum(x_1 - x)^2}{n-1}}$ va
- farqlarning ishonchliligi (Student t-kriteriysi) hisoblandi:

$$t = \frac{|\bar{x}_1 - \bar{x}_2|}{\sqrt{m_1^2 + m_2^2}}$$

Tadqiqot doirasida 15 nafar talabaning yengil atletika yo‘nalishidagi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Sinovlar quyidagi mashqlar bo‘yicha o‘tkazildi:

- Moksimon yugurish (3x10 m);
- Arg‘amchida sakrash (1 daqiqa);
- 100 m masofaga yugurish;
- Turgan joydan uzunlikka sakrash;

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

- Gavdani oldinga bukish (egiluvchanlik);
- yengil atletika, to‘garak, jismoniy tayyorgarlik, o‘rtacha arifmetik qiymat, variatsion statistika, pedagogik tajriba.
- Gavdani ko‘tarish (press) va Kupper testi.

NATIJALAR TAHLILI

Olingan natijalar asosida har bir mashq bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymat hisoblandi. Quyidagi jadvalda ayrim ko'rsatkichlarning o'rtacha natijalari aks etgan:

№	Nazorat mashqlari	O'rtacha ko'rsatkich ($\bar{x}$)
1	Moksimon yugurish (3x10 m)	29.47 sek
2	Arg’amchida sakrash (1 daq)	137.27 marta
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash	173.33 sm
4	Gavdani ko'tarish (30 sek)	23.6 marta

Yengil atletika to‘garagi mashg‘ulotlarida talabalarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan sinov natijalari variatsion statistika usulida tahlil qilindi. Tadqiqotda ishtirok etgan 15 nafar talabaning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisoblangan statistik ma’lumotlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

№	Nazorat mashqlari nomi	O‘rtacha arifmetik qiymat ($\bar{x}$)	O‘rtacha kvadratik chetlanish (σ)	O‘rtacha qiymat xatoligi (m)
1	Moksimon yugurish (3x10 m), sek	29,47	2,46	0,63
2	Arg’amchida sakrash (1 daq), marta	137,27	17,59	4,54
3	100 m masofaga yugurish, sek	17,32	1,85	0,49
4	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm	173,33	16,65	4,30
5	Gavdani ko‘tarish (30 sek), marta	23,60	4,26	1,10

Natijalarning statistik tahlili:

1. **Moksimon yugurish (3x10 m):** Guruh bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich $\bar{x}$=29,47 soniyani tashkil etdi. O‘rtacha kvadratik chetlanish σ=2,46 ga teng bo‘lib, bu guruhdagi natijalarning bir-biriga yaqinligini va o‘rtacha qiymat atrofida zich joylashganligini ko‘rsatadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

2. **Arg'amchida sakrash:** Ushbu mashqda eng yuqori ko'rsatkich 166 marta, eng pasti esa 97 martani tashkil etdi. O'rtacha arifmetik qiymat $\bar{x}$=137,27 ga teng bo'lib, o'rtacha xatolik ko'rsatkichi m=4,54 ni tashkil qildi.
3. **Egiluvchanlik va kuch sifatlari:** "Tik turgan holatda gavdani oldinga bukish" mashqida o'rtacha natija 17,5 sm ni, "Gavdani ko'tarish" (press) mashqida esa 23,6 martani tashkil etdi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida tajriba guruhi va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar Student t-kriteriysi (t) yordamida hisoblandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, takomillashtirilgan metodika asosida tashkil etilgan to'garak mashg'ulotlari talabalarning jismoniy tayyorgarligini statistik ishonchli darajada (P<0,05) oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. OTMlarda yengil atletika to'garaklarini an'anaviy "umumiy mashg'ulot" uslubidan "individual" uslubga o'tkazish zarur.
2. Mashg'ulotlar mazmuniga talabalarning funksional holatini nazorat qiluvchi raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish lozim.
3. Takomillashtirilgan metodika talabalarning sport natijalarini yaxshilash bilan birga, ularning mustaqil shug'ullanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu metodikani mamlakatimizdagi boshqa OTMlar sport kafedralari amaliyotiga keng joriy etish tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning "Moksimon yugurish" bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichi 26.8 soniyani, eng past ko'rsatkichi esa 34.4 soniyani tashkil etdi. Arg'amchida sakrash mashqida natijalar 97 tadan 166 tagacha bo'lgan oraliqda o'zgarib turadi, bu esa guruhdagi individual tayyorgarlik darajasi turlicha ekanligidan dalolat beradi. Yengil atletika to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishda variatsion statistika ko'rsatkichlaridan foydalanish mashg'ulot jarayonini to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi. O'rtacha arifmetik qiymat va o'rtacha kvadratik chetlanish orqali guruhning umumiy imkoniyatlarini baholash, individual yondashuv metodikasini takomillashtirishning asosiy pedagogik sharti hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'limda sport klublari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mamadjanov N. Sport metrologiyasi [Matn]: Darslik/N. Mamadjanov -Toshkent: «Umid Design», 2024.-240 b.
2. Akbarov A., Sportda matematik statistik tahlil. Darslik/-T:Uzkitobsavdo nashriyoti, 2022.-265 b.
3. Salomov R.S., Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma/-T.:O'zDJTI, 2007. – 238 b.
4. Salomov R.S., Sharipov A.K. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik.: T "ITA-PRESS", 2015, 182 bet.
5. https://www.lex.uz/uz/docs/-8093787?ONDATE=25.03.2026

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

6. Saidov B.M. Sport tibbiyoti.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.-479 b.
7. qizi Ergasheva, O. A. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARI BILAN O'TKAZILADIGAN YENGIL ATLETIKA BO'YICHA TO'GARAK MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 155-158
8. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'zDJTI, 2005.-300 b;
9. Abdullaev M.J. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2021. - №3. – B. 45-50.
10. Normurodov A.N. Yengil atletika (Darslik). – T.: "Chashma print", 2011. – 320 b.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

BIOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING BILIM FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Artikova Hafiza Tuymurodovna, Buxoro Davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasi b.f.d professor

Nurmatova Gulchehra Nurxon qizi, Buxoro Davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasi 2- kurs magistranti.

ANNOTATSIYA

KIRISH: maqolada biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining roli, o‘quv jarayonida motivatsiya va interaktiv metodlarning samaradorligi yoritildi. Faollashtirishning tashkiliy–pedagogik shartlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilindi. Qo‘llanilgan usullar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish, tahliliy fikrlashini rivojlantirish, bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va o'quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishga yordam berishiga qaratilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar (munozara, loyiha ishlari, amaliy mashg'ulotlar), didaktik o'yinlar va innovatsion texnologiyalar echimlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

MAQSAD: ta’lim tizimida o‘quvchilarga faqat nazariy bilim, malaka va ko‘nikmalarni berish bilan kifoyalanmasdan, o‘rganayotgan ma’lumotlarini jamiyatda o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalar beriladi. Biologiya darslarida o‘quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va ta’lim amaliyotiga joriy etish

MATERIAL VA METODLAR: kuzatish, tajriba, test, so‘rovnoma, suhbat, pedagogik monitoring, statistik tahlil, modellashtirish metodlari yordamida o‘quvchilarning bilim faoliyatini faollishga erishish uchun amalga oshirilmoqda.Bundan tashqari dars jarayonini unumli tashkil etish maqsadida turli dars ishlanmalaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari akademik litseylar, umumiy o‘rta ta’lim bilan oliy ta’lim o‘rtasidagi o‘quvchilarning biologiyani o‘qitishning tamoyillari va ilmiy-metodik yondashuvlarni ko‘rsatib berishdan iboratdir. Tadqiqotlar natijasida maktablar va oliy ta’lim muassalarida biologiya fanini o‘qitish samaradorligi oshdi.

XULOSA: o‘quvchilarning bilim faoliyati psixologik, didaktik va konseptual jihatlari bilan uzviy bog‘liq. Psixologik mexanizmlar, didaktik tamoyillar va konseptual yondashuvlar biologiya darslarida o‘quvchilarning faolligini oshirish va bilimlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Faol o‘qitish metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, eksperiment va kuzatish orqali bilimlarni chuqur o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu asosda, biologiya darslarini rejalashtirishda bilim faoliyatini faollashtirishga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash zarur

Kalit so‘zlar: muammoli o‘qitish tamoyili, motivatsiya tamoyili, faol subyekt tamoyili, laboratoriya ishlari, dala mashg‘ulotlari, biologik obyektlar, amaliy tajriba, modellashtirish, ekologik kuzatuvlar, muammoli o‘qitish texnologiyasi.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АКТИВАЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК

Артикова Хафиза Туймуродовна, профессор, кафедра биологии, Бухарский государственный педагогический институт
Нурматова Гюльчехра Нурхонкизи, студентка 2-го курса магистратуры, кафедра биологии, Бухарский государственный педагогический институт.

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются научно-педагогические основы активизации познавательной деятельности учащихся в преподавании биологии, роль современных образовательных технологий, эффективность мотивационных и интерактивных методов в учебном процессе. Анализируются организационно-педагогические условия и практические механизмы активации. Используемые методы направлены на повышение интереса учащихся, развитие аналитического мышления, пробуждение их интереса к обучению и содействие адаптации учебного процесса к индивидуальным потребностям. В статье приводятся рекомендации по использованию современных педагогических подходов, инновационных технологий, интерактивных методов (дискуссия, проектная работа, практические упражнения), дидактических игр и инновационных технологических решений.

ЦЕЛЬ: в системе образования даются методические рекомендации по формированию компетенций, позволяющих учащимся применять полученные знания в своей личной, профессиональной и социальной деятельности в обществе. Разработка научно-методологических основ активации познавательной активности учащихся на уроках биологии и их внедрение в образовательную практику

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: для достижения активации познавательной активности учащихся использовались методы наблюдения, эксперимента, тестирования, анкетирования, интервьюирования, педагогического мониторинга, статистического анализа, моделирования. Кроме того, для эффективной организации учебного процесса применялись различные методы разработки уроков.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования демонстрируют принципы и научно-методологические подходы к преподаванию биологии учащимся в академических лицеях, общеобразовательных средних и высших учебных заведениях. В результате исследования повысилась эффективность преподавания биологии в школах и высших учебных заведениях.

ВЫВОДЫ: познавательная активность учащихся неразрывно связана с ее психологическими, дидактическими и концептуальными аспектами. Психологические механизмы, дидактические принципы и концептуальные подходы играют важную роль в повышении активности учащихся на уроках биологии и закреплении знаний. Активные методы обучения развивают у учащихся способность к глубокому усвоению знаний посредством самостоятельного мышления, экспериментирования и наблюдения. На этом основании необходимо использовать

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

методы, направленные на активизацию познавательной деятельности, при планировании уроков биологии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: принцип проблемно-ориентированного обучения, принцип мотивации, принцип активного субъекта, лабораторные работы, полевые исследования, биологические объекты, практический опыт, моделирование, экологические наблюдения, технология проблемно-ориентированного обучения.

SCIENTIFIC-METHODICAL BASIS OF ACTIVATING STUDENTS' LEARNING ACTIVITY IN TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES

Artikova Hafiza Tuymurodovna, Professor, Department of Biology, Bukhara State Pedagogical Institute
Nurmatova Gulchehra Nurkhon kizi, 2nd year master's student, Department of Biology, Bukhara State Pedagogical Institute.

ANNOTATION

INTRODUCTION: the article discusses the scientific and pedagogical foundations of activating students' cognitive activity in teaching biology, the role of modern educational technologies, the effectiveness of motivation and interactive methods in the learning process. The organizational and pedagogical conditions and practical mechanisms of activation are analyzed. The methods used are aimed at increasing students' interest, developing analytical thinking, arousing their interest in learning, and helping to adapt the learning process to individual needs. The article provides recommendations on the use of modern pedagogical approaches, innovative technologies, interactive methods (discussion, project work, practical exercises), didactic games, and innovative technology solutions.

PURPOSE: in the education system, methodological recommendations are given on the formation of competencies that allow students to apply the information they learn in their personal, professional, and social activities in society. Development of scientific and methodological foundations for activating students' cognitive activity in biology lessons and their implementation in educational practice

MATERIAL AND METHODS: observation, experiment, test, questionnaire, interview, pedagogical monitoring, statistical analysis, modeling methods are used to achieve activation of students' cognitive activity. In addition, various lesson developments were used to effectively organize the lesson process.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study are to show the principles and scientific and methodological approaches to teaching biology to students in academic lyceums, general secondary education and higher education. As a result of the research, the effectiveness of teaching biology in schools and higher educational institutions has increased.

CONCLUSION: students' cognitive activity is inextricably linked with its psychological, didactic and conceptual aspects. Psychological mechanisms, didactic principles and conceptual approaches play an important role in increasing students' activity

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

in biology lessons and consolidating knowledge. Active teaching methods develop students' ability to deeply assimilate knowledge through independent thinking, experimentation, and observation. On this basis, it is necessary to use methods aimed at activating cognitive activity in planning biology lessons.

KEYWORDS: problem-based learning principle, motivation principle, active subject principle, laboratory work, fieldwork, biological objects, practical experience, modeling, ecological observations, problem-based learning technology.

O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va amaliy bilim ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda qabul qilinayotgan ta’limga oid davlat dasturlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlarda pedagogik jarayonni faollashtirish, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan ehtiyoj va motivatsiyani kuchaytirish eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston - yangi ta’lim” tamoyili asosida umumiy o‘rta ta’limda o‘quv faoliyatini faollashtirishning innovatsion texnologiyalari joriy etilmoqda.

Biologiya fani o‘quvchilarda tabiat haqidagi ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi, kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy amallarni rivojlantiruvchi asosiy tabiiy fanlardan biridir. Biologiya darslarining o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchini bevosita real obyektlar - o‘simlik, hayvonot, odam organizmi va ekologik jarayonlar bilan tanishtiradi, shuning uchun ham dars jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash alohida o‘rin tutadi. Ammo amaliyotda ko‘plab muammolar uchramoqda: o‘quvchilarda mustaqil fikrlash yetishmasligi, tayyor bilimni qabul qilishga o‘rganib qolish, laboratoriya mashg‘ulotlarining kamligi, biologik jarayonlarni modellashtirish uchun vositalar yetishmasligi, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha malakasidagi farqlar va boshqalar.

So‘nggi yillarda o‘quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan samarali metodikalar taklif etilgan bo‘lsa-da, biologiya ta’limida bu jarayonni tizimli yondashuv asosida takomillashtirish ehtiyoji mavjud. Xususan, muammoli o‘qitish, interfaol metodlar, projekt texnologiyasi, tajribaviy tadqiqot faoliyati, kognitiv yondashuv va raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim faolligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu bilan birga, metodik tizimning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularning biologiya darslari amaliyotiga moslashtirilgan, ilmiy-metodik asosda takomillashgan varianti hali to‘liq shakllantirilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi shundan iboratki, biologiyaning o‘ziga xos tabiiy-ilmiy mazmuni o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Biroq mavjud ta’lim tizimida bu imkoniyatlar etarli darajada amalga oshirilmayapti. Shu bois, biologiya

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

darslarida o‘quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirishning ilmiy-metodik asoslarini chuqur tahlil qilish, amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy muammosidir .

Biologiya ta’limida interfaol metodlar qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar.

So‘nggi yillarda o‘quv jarayonida interfaol metodlar, xususan, “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Debat”, “INSERT”, “Klaster”, “6x6x6”, “Keys-stadi” kabi texnologiyalarning o‘rni ortib bormoqda. Sharqona interfaol yondashuvlarni o‘rgangan Sh. Mirziyoyeva, A. Raximov, O. Ibragimov tadqiqotlari darsda o‘quvchilarni fikrlashga undash, bilimni mustahkamlash, refleksiya olib borishning samarali usullarini taklif etadi.

Xalqaro tadqiqotlar (J. Bruner, D. Kolb, R. Mayer, M. Fullan) konstruktiv yondashuvning afzalliklarini ko‘rsatib, o‘quvchilarning bilim olish jarayoni tajriba, kuzatuv, muammoli vaziyatlarni hal etish orqali faollashishini asoslaydi. Ayniqsa, biologiya misolida o‘quvchi tabiat hodisalarini o‘zi tahlil qilar ekan, bilimlar yanada mustahkam bo‘lishi ta’kidlanadi.

Biologiyada laboratoriya ishlari va tadqiqot faoliyatini faollashtirish.

Jahon tajribasida (Campbell, Reece, Raven, Johnson va boshqalar) inquiry based learning (so‘rovga asoslangan o‘qitish) modeli biologiyada eng samarali yondashuvlardan biri sifatida qayd etiladi. Bu model o‘quvchilarga ilmiy muammoni mustaqil qo‘yish, gipoteza yaratish, tajriba o‘tkazish, natija tahlili va xulosalash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida faollashtirish.

Biologiya darslarida AKT vositalari – virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, 3D modellar, interaktiv testlar, multimediali taqdimotlar o‘quvchilar bilim faoliyatini sezilarli darajada kuchaytiradi. UNESCO va OECD tadqiqotlari ham AKTning o‘quv motivatsiyasiga pozitiv ta’sirini qayd etadi.

O‘quvchilarning bilim faoliyati tushunchasi va uning psixologik Mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ta’lim sharoitida bolalarning o‘quv-biluv faoliyati o‘ta murakkab, yaxlit tizim bo‘lib, tarkiban hissiyot va emotsiyalar, xotira, tafakkur, mantiqiy va lingvistik usul kabilardan tarkib topgan. Uning markazida bilish hodisalari, bilim yotadi. O‘quvchi bilishi umuminsoniy bilishning alohida shakli sifatida qaraladi. Uning o‘ziga xos hissiy va ratsional tomonlari mavjud. Bolalarning o‘quv-biluv faoliyatining boshlanishi, davomi va yakuniy nuqtalari bo‘lib, ma’lum bilim vositasida boshqariladi, o‘ziga xos vositalar yordamida amalga oshadi, ma’lum natija bilan yakunlanadi. Demak, o‘quv-biluv faoliyati anglangan, maqsadga yo‘nalgan, natija bilan yakunlanadigan faoliyatdir.

Psixologik mexanizmlar quyidagi asosiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

1. E’tibor va diqqatni boshqarish – o‘quvchi ma’lumotni tanlash va kerakli narsaga e’tibor qaratish qobiliyati.
2. Xotira va saqlash – o‘rganilgan bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlash va kerak bo‘lganda ulardan foydalanish.


© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

3. Tushunish va tahlil qilish – bilimlarni strukturaviy shaklda idrok etish, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.
4. Amaliy qo‘llash – olingan bilimlarni laboratoriya, eksperiment yoki hayotiy vaziyatlarda qo‘llash.
5. Ijodiy faoliyat va muammoli fikrlash – yangi bilim va yechimlarni yaratish, muammoli vaziyatlarda fikrlash va qaror qabul qilish.

Biologiya ta’limida bilim faoliyatini faollashtirish – o‘quvchilarning fikrlash jarayonini, kognitiv faolligini, mustaqil o‘rganish qobiliyatini, tadqiqotchilik malakasini rivojlantiruvchi eng asosiy pedagogik vazifalardan biridir. Mazkur jarayonning ilmiy-konseptual asoslari psixologiya, didaktika, neurodidaktika, pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta’lim yondashuvlari bilan chambarchas bog‘liq.

Biologiya darslarida bilim faoliyatini faollashtirish konseptual asoslari quyidagi yondashuvlarga tayangan:
1. Konstruktivizm yondashuvi – o‘quvchilar bilimlarni o‘z tajribasi orqali shakllantiradi, o‘rganish jarayoni interaktiv va mustaqildir (Bruner, 1966).
2. Muammoli o‘qitish – o‘quvchilarga turli biologik masalalar va eksperimental vaziyatlar berilib, ularni hal qilish orqali bilimlarni chuqur o‘zlashtirish.
3. Faol o‘rganish yondashuvi – laboratoriya ishlar, ekskursiyalar, tajribalar o‘quvchilarning amaliy bilim faoliyatini rivojlantiradi.
4. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – o‘quvchilar ilmiy tadqiqotlar, kuzatishlar va loyihalar orqali yangi bilim yaratadi.



Buxoro Davlat Pedagogika instituti 1- bio-23 guruh talabalarida biologiya darsi.

Maqolaning asosiy maqsadi biologiya darslarida bilim faoliyatini faollashtirishning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Dars quyidagi bosqichlarda o‘tkazildi:
1. Bosqich 1 – Tayyorlov: o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi va

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

faollik ko‘rsatkichlari aniqlandi.
2. Bosqich 2 – Metodlarni qo‘llash: interaktiv va muammoli o‘qitish metodlari, laboratoriya ishlari va loyihaviy faoliyat darslarda tatbiq qilindi.
3. Bosqich 3 – Kuzatish va baholash: o‘quvchilarning bilim faoliyati, mustaqil fikrlash, eksperiment va tadqiqot ko‘nikmalari kuzatildi.
4. Bosqich 4 – Natijalarni tahlil qilish: olingan natijalar bilan boshlang‘ich ko‘rsatkichlar solishtirildi.
Tadqiqot natijalari:
• O‘quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshdi (faol ishtirokchilarning ulushi 60–70% gacha).
• Mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati rivojlandi.
• Laboratoriya va eksperiment ishlari orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari mustahkamlandi.
• Interaktiv va vizual metodlar murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishni osonlashtirdi.

Bilim faoliyatini faollashtirish pedagogik modeli – o‘quvchilarning biologiya darslaridagi faol ishtirokini tizimli ravishda tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan nazariy-amaliy vosita hisoblanadi. Ushbu model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:
1. Motivatsion komponent – o‘quvchilarda biologiyaga qiziqish va ilmiy izlanish rag‘batini shakllantirish. Masalan, muammoli vaziyatlar va real hayotiy masalalar orqali motivatsiyani oshirish.
2. Kognitiv komponent – o‘quvchilarning bilimlarini qabul qilish, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotga tadbiq etish jarayoni. Bu laboratoriya ishlari, eksperimentlar va loyihaviy ishlarda ko‘riladi.
3. Metodik komponent – faollashtiruvchi pedagogik texnologiyalar, metodlar va usullar tizimi. Masalan, muammoli o‘qitish, “Aqliy hujum”, interaktiv darslar va laboratoriya tajribalari.
4. Baholash va tahlil komponenti – o‘quvchilarning bilim faoliyatini muntazam baholash, natijalarni tahlil qilish va o‘quv jarayonini sozlash.
Pedagogik modelning amaliy ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi, shuningdek, bilimlarni mustahkamlash va uzoq muddatli xotirada saqlash imkonini beradi. Shunday qilib, kognitiv faoliyat - bu o‘quv jarayonining tuzilishi va faoliyatning umumiy tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan yaxlit jarayon. Kognitiv faoliyat bilimning yetakchi shakli sifatida o‘quvchilarning hissiy idroki, nazariy tafakkuri va amaliy harakatlarining birligini ifodalaydi. Kognitiv faoliyatning muvaffaqiyati o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va mos keladigan qobiliyatlari bilan ta’minlanadi. Kognitiv faoliyatni o‘quvchilarning fan mazmunini o‘zlashtirishga, bilishning umumiy va xususiy usullarini o‘zlashtirishga hamda o‘quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishini ta’minlashga, ularni bilish jarayonining faol subyektlari sifatida shakllantirishga qaratilgan motivlangan faoliyati sifatida

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

belgilanadi.

Kognitiv faoliyat maktab o‘quvchilarining o‘quv faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Uni amalga oshirishning muvaffaqiyati o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va tegishli ko‘nikmalari bilan ta’minlanadi. Shuning uchun maktab ta’limining barcha bosqichlarida kognitiv faoliyatni tashkil etishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, shuningdek, ularning shaxsiy rivojlanishining qonuniyatlari va dinamikasini hisobga olish kerak.

Xulosa sifatida takidlash kerakki , biologiya darslarida bilim faoliyatini faollashtirishning ilmiy-metodik tizimi pedagogik model, samarali metodlar va tajribaviy sinovlar orqali shakllanadi. Faollashtirish pedagogik modeli motivatsion, kognitiv va metodik komponentlarni o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy va amaliy faoliyatini rag‘batlantiradi. Tajribaviy ishlar metodlarning samaradorligini tasdiqlab, ularni tizimli ravishda qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi. Shu asosda, biologiya darslarini rejalashtirish va tashkil etishda faollashtiruvchi metodlar tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bruner, J. (1966). Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press.
2. Vygotskiy, L.S. (1984). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Piaget, J. (1970). Science of Education and the Psychology of the Child. Orion Press.
4. Давыдов, В.В. (1990). Развитие школьного обучения. Москва: Просвещение.
5. Ананьев, Б.Г. (1980). Психология развития. Москва: Наука.
6. Лепешинский, Л.И. (1995). Методика преподавания биологии в школе. Москва: Просвещение.
7. Кузнецова, Н.П. (2001). Современные подходы к активизации познавательной деятельности учащихся. Педагогика, №4.
8. Jonassen, D. (2000). Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. Routledge.
9. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.
10. Shulman, L.S. (1987). Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1-22.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

FIZIKA O‘QITISHDA METAKOGNITIV KO’NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI

O‘rinboyev Muxammadzoxir Iqboljon o‘g‘li, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Kirish: bugungi kunda **d**unyo miqyosida tan olingan ilmiy maktablar va nufuzli oliy o‘quv yurtlari tomonidan metakognitiv strategiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Cambridge, Harvard, Stenford, Utrecht va Melbourne universitetlari, shuningdek, Finlyandiya, Angliya va Singapur kabi ilg‘or ta’lim tizimlariga ega mamlakatlarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar keng qo‘llanmoqda. Fizika fanida bu yondashuvlar – ovoz chiqarib fikrlash, o‘z-o‘ziga savol berish, o‘rganish kundaliklari, dars bo‘yicha refleksiya va tengdoshlar bilan muloqot orqali amalga oshiriladi. Ular o‘quvchilarda o‘z bilimini anglash, tahlil qilish va o‘rganish strategiyalarini mustaqil tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Maqsad: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - umumiy ta’lim maktablarida fizika darslarini o‘qitish faoliyatida o‘quvchilarning metakognitiv faoliyatlarini rivojlantirish orqali ularning tushunish darajasini oshirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini yaxshilashdan iborat.

Materiallar va metodlar: flavell metakognitiv faoliyatlarni ikki asosiy qismga ajratadi: metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat strategiyalari. Ushbu ikki komponent o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatlarini tushunish va samarali boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Brown o‘quv materialini tushunish va eslab qolishda metakognitiv strategiyalarning muhimligini ta’kidlaydi, masalan, o‘z-o‘zini so‘roqlash, xulosa chiqarish va bilimlarni o‘zaro bog‘lash. Lev Vygotskiyning ta’lim nazariyalari orasida, uning "Yaqin Rivojlanish Zonasi" tushunchasi metakognitsiya bilan chambarchas bog‘liq. Uning fikricha, o‘quvchilar o‘zlarining mustaqil hal qila olmaydigan muammolarni, lekin boshqalar yordamida hal qila olishgan darajadagi vazifalarni bajarish orqali eng yaxshi o‘rganadilar. Bu faoliyat o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi, chunki ular o‘z bilimlarini qanday qo‘llash va strategiyalarini qanday tanlash kerakligini o‘rganadilar. Georgia Stephanou va Maria-Helena Mpiontini ularning metakognitiv o‘z-o‘zini baholash modelini taklif qilishgan. Ular o‘z modellarida metakognitsiyani uch asosiy qismga ajratadilar: o‘z-o‘zini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash. Ushbu model o‘quvchilarning o‘z o‘rganish faoliyatlarini qanday qabul qilishini va qanday samarali boshqarishini tushunishda muhimdir. Ushbu nazariyalar metakognitsiyaning tushunchasi va uning ta’limdagi rolini chuqurroq tushunish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Metakognitsiya shaxsning o‘z bilimini, o‘rganish strategiyalarini va o‘rganish faoliyatini qanday qabul qilishi, tahlil qilishi va nazorat qilishini o‘z ichiga oladi.

Muhokama va natijalar: ushbu maqolada fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning metakognitiv faoliyatlarini rivojlantiruvchi zamonaviy yondashuvlar va metodlar tahlil

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

qilinadi. An'anaviy darslardan boshlab interaktiv, muammoli o'qitish va laboratoriya tajribalari kabi turli metodlar ko'rib chiqiladi. Metakognitiv bilim va strategiyalar ham ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi mumkinligi haqida muhokama qilinadi. Tanlab olingan o'quv auditoriyalarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asosan kelib chiqqan xulosalar tahlili ko'rib chiqilgan. Bu usullar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar, balki amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar, bu esa ularning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Fizika o'qitishda bu yondashuv o'quvchilarga murakkab tushunchalarni o'zlashtirishda yordam beradi va ularning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi, chunki o'quvchilar o'z bilimlarini qanday qo'llayotganliklari haqida o'ylashadi va o'zaro bog'liqliklarni tushunishadi. Misol uchun, o'quvchilar elektromagnit induksiya mavzusini o'rganayotganda, yangi bilimlarni o'zlarining ilgari o'rgangan bilimlari bilan birlashtiradilar va bu faoliyatda o'z bilimlarini tahlil qilishadi. Bu ularning elektromagnit induksiyani yanada chuqurroq tushunishlariga yordam beradi.

Xulosa: metakognitsiya ta'lim sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'quvchilarning o'z bilimlarini anglash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Metakognitiv ko'nikmalar orqali o'quvchilar o'z o'rganish faoliyatlarini mustaqil ravishda boshqarish, o'rganish strategiyalarini tanlash va qo'llashda samarali bo'lishadi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning ta'lim jarayonida mustaqil va ijodiy bo'lishlarini ta'minlaydi, bu esa ularning umumiy ta'lim sifatini oshiradi.

Fizika fanini o'qitishda metakognitiv yondashuvlar juda muhimdir. Metakognitiv ko'nikmalar o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va murakkab tushunchalarni tushunishda yordam beradi. Bu yondashuvlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ular murakkab masalalarni mustaqil hal qilishda va yangi bilimlarni o'zlashtirishda faol bo'lishadi. Metakognitiv strategiyalar orqali o'quvchilar o'z o'rganish faoliyatlarini samarali boshqarishni o'rganadilar, bu esa ularning fizikaga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Kalit so'zlar: metakognitsiya, kognitiv bilim, fizika o'qitish metodlari, An'anaviy darslar, interaktiv o'qitish, muammoli o'qitish, metakognitiv strategiyalar.

ТЕОРЕТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

Уринбоев Мухаммадзохир Икболжон угли, Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: на сегодняшний день всемирно признанными научными школами и престижными высшими учебными заведениями проводятся последовательные исследования по внедрению метакогнитивных стратегий в образовательный процесс. В университетах Кембриджа, Гарварда, Стэнфорда, Утрехта и Мельбурна, а также в странах с передовыми системами образования, таких как Финляндия, Англия и Сингапур, широко применяются современные

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

подходы, направленные на развитие самостоятельного мышления учащихся. В физике эти подходы реализуются через мышление вслух, постановку вопросов самому себе, ведение учебных дневников, рефлексию по уроку и общение со сверстниками. Они являются важным фактором формирования у учащихся навыков осознания своих знаний, анализа и самостоятельного выбора стратегий обучения.

Цель: основная цель данного исследования - повышение уровня понимания и улучшение навыков самоконтроля учащихся путем развития их метакогнитивной деятельности в процессе преподавания физики в общеобразовательных школах.

Материалы и методы: флавелл делит метакогнитивную деятельность на две основные части: метакогнитивное знание и метакогнитивные стратегии контроля. Эти два компонента имеют решающее значение для формирования навыков понимания и эффективного управления учебной деятельностью учащихся. Браун подчеркивает важность метакогнитивных стратегий в понимании и запоминании учебного материала, таких как самоопрос, умозаключения и сопоставление знаний. Среди образовательных теорий Льва Выготского его понятие "Зона близкого развития" тесно связано с метакогницией. По его мнению, учащиеся лучше всего учатся, решая проблемы, которые они не могут решить самостоятельно, но которые они могут решить с помощью других. Эта деятельность создает возможность для развития метакогнитивных навыков учащихся, поскольку они учатся применять свои знания и выбирать стратегии. Джорджия Стефаноу и Мария-Хелена Леонтини предложили свою модель метакогнитивной самооценки. В своих моделях они делят метакогницию на три основные части: самопланирование, мониторинг и оценку. Эта модель важна для понимания того, как учащиеся воспринимают и эффективно управляют своей учебной деятельностью. Эти теории являются ценным источником для более глубокого понимания понятия метакогниции и её роли в образовании. Метакогниция включает в себя то, как человек воспринимает, анализирует и контролирует свои знания, стратегии обучения и учебную деятельность.

Обсуждение и результаты: в данной статье анализируются современные подходы и методы, развивающие метакогнитивную деятельность учащихся при обучении физике. Начиная с традиционных уроков, рассматриваются различные методы, такие как интерактивное, проблемное обучение и лабораторные эксперименты. Также обсуждается, как метакогнитивные знания и стратегии могут быть применены в образовательном процессе. Рассмотрен анализ выводов, полученных по результатам экспериментальной работы, проведенной в отобранных учебных аудиториях. Благодаря этим методам учащиеся не только закрепляют свои теоретические знания, но и развивают навыки применения на практике, что помогает им быть успешными в учебном процессе. Такой подход в преподавании физики помогает учащимся осваивать сложные понятия и позволяет развивать их метакогнитивные навыки, поскольку учащиеся думают о том, как они применяют свои знания, и понимают взаимосвязи. Например, когда учащиеся изучают тему электромагнитной индукции, они объединяют новые знания с ранее полученными

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

знаниями и анализируют свои знания в этой деятельности. Это поможет им глубже понять электромагнитную индукцию.

Заключение: метакогниция имеет важное значение в сфере образования, так как она способствует развитию способностей учащихся к осознанию и управлению своими знаниями. С помощью метакогнитивных навыков учащиеся эффективно управляют своей учебной деятельностью, выбирают и применяют стратегии обучения. Эти навыки позволяют учащимся быть самостоятельными и творческими в процессе обучения, что повышает общее качество их образования.

Метакогнитивные подходы крайне важны в преподавании физики. Метакогнитивные навыки помогают учащимся применять теоретические знания на практике и понимать сложные концепции. Эти подходы развивают навыки критического мышления учащихся, они активны в самостоятельном решении сложных задач и усвоении новых знаний. Через метакогнитивные стратегии учащиеся учатся эффективно управлять своей учебной деятельностью, что повышает их интерес к физике.

Ключевые слова: метакогниция, когнитивные знания, методы преподавания физики, традиционные уроки, интерактивное обучение, проблемное обучение, метакогнитивные стратегии.

THEORETICAL PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING METACOGNITIVE SKILLS IN PHYSICS TEACHING

Urinboyev Mukhammadzokhir Ikboljon ugli, Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

ANNOTATION

Introduction: today, globally recognized scientific schools and prestigious universities are conducting consistent research on the implementation of metacognitive strategies in the educational process. Modern approaches aimed at developing students' independent thinking are widely used at the universities of Cambridge, Harvard, Stanford, Utrecht, and Melbourne, as well as in countries with advanced educational systems such as Finland, England, and Singapore. In physics, these approaches are implemented through thinking aloud, asking questions to yourself, keeping study diaries, reflecting on the lesson, and interacting with peers. They are an important factor in forming students' skills in understanding, analyzing, and independently choosing learning strategies.

Objective: the main objective of this study is to increase students' understanding and improve self-control skills by developing their metacognitive activities in teaching physics in general education schools.

Materials and methods: flavell divides metacognitive activities into two main parts: metacognitive knowledge and metacognitive control strategies. These two components are crucial in developing students' ability to understand and effectively manage their learning activities. Brown emphasizes the importance of metacognitive strategies in understanding and remembering educational material, such as self-questioning, inference,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

and the correlation of knowledge. Among the educational theories of Lev Vygotsky, his concept of the "Near Zone of Development" is closely related to metacognition. He believes that students learn best by solving problems that they cannot solve on their own, but which they can solve with the help of others. This activity provides an opportunity to develop students' metacognitive skills as they learn how to apply their knowledge and how to choose their strategies. Georgia Stephanou and Maria-Helena Neriontini proposed their metacognitive self-esteem model. In their models, they divide metacognition into three main parts: self-planning, monitoring, and evaluation. This model is important for understanding how learners perceive and effectively manage their learning activities. These theories are a valuable resource for a deeper understanding of the concept of metacognition and its role in education. Metacognition encompasses how an individual perceives, analyzes, and controls their knowledge, learning strategies, and learning activities.

Discussion and results: this article analyzes modern approaches and methods that develop students' metacognitive activities in teaching physics. Starting from traditional lessons, various methods are considered, such as interactive, problem-based learning, and laboratory experiments. It also discusses how metacognitive knowledge and strategies can be applied in the educational process. An analysis of the conclusions based on the results of the experimental work conducted in the selected classrooms was considered. Through these methods, students not only reinforce their theoretical knowledge but also develop practical application skills, which helps them be successful in the educational process. This approach to teaching physics helps students master complex concepts and allows them to develop their metacognitive skills, as students reflect on how they apply their knowledge and understand the interconnections. For example, when students study the topic of electromagnetic induction, they combine new knowledge with their previously acquired knowledge and analyze their own knowledge in this activity. This helps them gain a deeper understanding of electromagnetic induction.

Conclusion: metacognition is of great importance in the field of education, as it helps students develop their abilities to comprehend and manage their own knowledge. Through metacognitive skills, students become effective in independently managing their learning activities, selecting, and applying learning strategies. These skills ensure that students are independent and creative in the educational process, which enhances the overall quality of their education.

Metacognitive approaches are crucial in teaching physics. Metacognitive skills help students apply theoretical knowledge in practice and understand complex concepts. These approaches develop students' critical thinking skills, making them more active in independently solving complex problems and acquiring new knowledge. Through metacognitive strategies, students learn to effectively manage their learning activities, which increases their interest in physics.

Keywords: metacognition, cognitive knowledge, physics teaching methods, traditional lessons, interactive learning, problem-based learning, metacognitive strategies.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Metakognitsiya tushunchasi psixologiya va pedagogika sohalarida keng tadqiq etilgan hamda turli nazariy asoslarga ega. Bu nazariyalar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash va o‘rganish faoliyatlarini qanday nazorat qilishini o‘rganishga yordam beradi. Quyida metakognitsiya bilan bog‘liq asosiy nazariyalar va ularning ta’lim sohasidagi qo‘llanilishi haqida batafsil ma’lumot beriladi. John Flavell metakognitsiya tushunchasini ilmiy adabiyotga kiritgan asosiy olimlardan biridir. Uning ta’rifiga ko‘ra, metakognitsiya o‘z-o‘zini bilish faoliyatlarini (masalan, o‘z fikrlarini, bilim darajasini va o‘rganish strategiyalarini) anglash va ularni samarali boshqarish qobiliyatidir. Flavell metakognitiv faoliyatlarni ikki asosiy qismga ajratadi: metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat strategiyalari. Ushbu ikki komponent o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatlarini tushunish va samarali boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Brown o‘quv materialini tushunish va eslab qolishda metakognitiv strategiyalar [1; 906-911-b.] ning muhimligini ta’kidlaydi, masalan, o‘z-o‘zini so‘roqlash, xulosa chiqarish va bilimlarni o‘zaro bog‘lash. Lev Vygotskiyning ta’lim nazariyalari orasida, uning "Yaqin Rivojlanish Zonasi" tushunchasi metakognitsiya bilan chambarchas bog‘liq. Uning fikricha, o‘quvchilar o‘zlarining mustaqil hal qila olmaydigan muammolarni, lekin boshqalar yordamida hal qila olishgan darajadagi vazifalarni bajarish orqali eng yaxshi o‘rganadilar. Bu faoliyat o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi, chunki ular o‘z bilimlarini qanday qo‘llash va strategiyalarini qanday tanlash kerakligini o‘rganadilar [2; 10-67-b.]. Georgia Stephanou va Maria-Helena Mpiontini ularning metakognitiv o‘z-o‘zini baholash modelini taklif qilishgan. Ular o‘z modellarida metakognitsiyani uch asosiy qismga ajratadilar: o‘z-o‘zini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash [3; 460-475-b.]. Ushbu model o‘quvchilarning o‘z o‘rganish faoliyatlarini qanday qabul qilishini va qanday samarali boshqarishini tushunishda muhimdir. Ushbu nazariyalar metakognitsiyaning tushunchasi va uning ta’limdagi rolini chuqurroq tushunish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Metakognitsiya shaxsning o‘z bilimini, o‘rganish strategiyalarini va o‘rganish faoliyatini qanday qabul qilishi, tahlil qilishi va nazorat qilishini o‘z ichiga oladi[4; 3-38-b.].

Metakognitiv ko‘nikmalar, ayniqsa fizika kabi aniq va murakkab fanlarni o‘qitishda juda muhim ahamiyatga ega. Fizika o‘qitishda metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari turli pedagogik nazariyalar va yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu nazariyalar va yondashuvlar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini tahlil qilish, ulardan samarali foydalanish va yangi ma’lumotlarni mavjud bilimlar tizimiga integratsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[5; 7-81-b.]. Konstruktivist yondashuv, o‘quvchilarning bilimni faol quruvchi sifatida tasavvur qilinishiga asoslanadi. Bu nazariya bo‘yicha, o‘quvchilar yangi ma’lumotlarni mavjud bilimlari bilan birlashtirib, o‘zlarining tushunchalarini shakllantiradilar. Fizika o‘qitishda bu yondashuv o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishda yordam beradi va ularning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi, chunki o‘quvchilar o‘z bilimlarini qanday qo‘llayotganliklari haqida o‘ylashadi va o‘zaro bog‘liqliklarni tushunishadi [6; 1-23-b.]. Misol uchun,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

o‘quvchilar elektromagnit induksiya mavzusini o‘rganayotganda, yangi bilimlarni o‘zlarining ilgari o‘rgangan bilimlari bilan birlashtiradilar va bu faoliyatda o‘z bilimlarini tahlil qilishadi. Bu ularning elektromagnit induksiyani yanada chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. O‘zaro ta’lim yondashuvi, o‘quvchilarning bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashini va birgalikda bilim qurishlarini ta’kidlaydi[31; 18b.]. Fizikani o‘qitishda o‘zaro ta’lim metakognitiv faoliyatlarni faollashtirishi mumkin, chunki o‘quvchilar bir-birlarining fikrlarini tinglaydilar, muhokama qiladilar va baholaydilar. Bu faoliyat o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z bilimlarini yanada chuqurroq tushunishni rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilar guruh bo‘lib mexanika bo‘yicha masalalarni hal qilishda, bir-birlarining tushunchalarini baholaydilar va to‘g‘rilaydilar, bu esa ularning umumiy bilimlarini chuqurlashtiradi[7; 85-b.].

Muammoli o‘qitish yondashuvi o‘quvchilarni aniq masalalar yoki vazifalar yechimi orqali o‘rganishga undaydi. Fizikada bu yondashuv o‘quvchilarga eksperimentlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali nazariy tushunchalarni qo‘llash imkonini beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular o‘z o‘rganish faoliyatlarini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash orqali muammolarni hal qilish yo‘llarini topadilar[8; 240-254-b.]. Masalan, o‘quvchilar mexanika qonunlarini o‘rganishda, bu qonunlarni amalda qo‘llash uchun eksperimentlar o‘tkazadilar va natijalarni tahlil qiladilar. Bu faoliyat ularning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash usullari o‘quvchilarni o‘z ishlarini va tengdoshlarining ishlarini baholashga undaydi. Fizika darslarida bu yondashuvlar o‘quvchilarga o‘z javoblari va yechimlari ustida o‘ylashga, shuningdek, tengdoshlarining ishlarini adolatli va konstruktiv tarzda baholashga yordam beradi. Bu faoliyatlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularning metakognitiv tushunchalarini kuchaytiradi[9; 13-33-b.]. Masalan, o‘quvchilar o‘z yechimlarini baholash va boshqa o‘quvchilarning yechimlarini tahlil qilish orqali o‘zlarining bilimlarini mustahkamlaydilar.

Fizika ta’limida metakognitsiya nazariyalarini qo‘llash, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini chuqurroq tushunishlari va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Metakognitiv yondashuvlar orqali o‘quvchilar o‘z o‘rganish faoliyatlarini samarali boshqarishni o‘rganadilar, bu esa ularning fizika kabi murakkab fanlarni chuqurroq o‘zlashtirishlariga imkon beradi. O‘rganish faoliyatlarini tushunish orqali o‘quvchilar o‘z o‘rganish faoliyatlarini tahlil qilish va baholashni o‘rganadilar. Masalan, o‘quvchilar biror eksperimentni bajarayotganda, nima uchun ma’lum bir qadamni qo‘yishlari kerakligi va bu qadamlar o‘rtasidagi ilmiy bog‘liqliklarni anglashlari mumkin. O‘z-o‘zini baholash va o‘zgarishlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini va tushunchalarini muntazam ravishda baholashga imkon beradi. Fizika o‘qitishda, o‘quvchilar o‘z javoblarini va yechimlarini doimiy ravishda tekshirib turishlari, xatolarni aniqlash va to‘g‘rilashlari mumkin. Bu faoliyat, o‘quvchilarni o‘z bilimlarini tanqidiy ko‘z bilan ko‘rishga va o‘z fikrlash faoliyatlarini takomillashtirishga o‘rgatadi. O‘zaro ta’lim va hamkorlik orqali o‘quvchilar birgalikda murakkab masalalarni hal qiladilar, bu esa har bir o‘quvchi uchun o‘zaro o‘rganishni va o‘z fikrlarini ifoda etishni rivojlantiradi[9; 7-128-b]. Masalan, o‘quvchilar guruh bo‘lib termodinamika bo‘yicha masalalarni hal qilishda, bir-birlarining tushunchalarini baholaydilar va to‘g‘rilaydilar, bu esa ularning umumiy bilimlarini chuqurlashtiradi. Ta’lim

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

strategiyalarini tanlash orqali o‘quvchilar turli xil o‘qitish usullari va resurslardan samarali foydalanishni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar o‘zlariga eng yaxshi mos keladigan o‘rganish strategiyalarini tanlashlari mumkin, masalan, vizual yoki amaliy materiallardan foydalanish, muammoli vazifalar yechimi orqali o‘rganish yoki konseptual tushunchalarni kuchaytirish uchun o‘yinlar va interfaol mashg‘ulotlarni qo‘llash[9; 33-b.]. Bu nazariyalar va yondashuvlar o‘quvchilarning fizikani chuqurroq tushunishlarini va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy vositalar hisoblanadi.

Metakognitiv ko‘nikmalar va fizika fanining o‘rganilishi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy izlanishlar bilan asoslangan. Mayerning metakognitiv ko‘nikmalar, ya’ni o‘z o‘rganish faoliyatlarini tahlil qilish, rejalashtirish, monitoring qilish va baholash qobiliyatlari, fizika fanining samarali o‘rganilishida muhim rol o‘ynaydi [4; 906-911-b.]. David Hammer va Andrew Elbyning olib borgan tadqiqotlari o‘quvchilarning fizikani qanday o‘rganishlarini va metakognitiv yondashuvlar qanday qilib bu faoliyatni yaxshilashga yordam berishini o‘rganadi. Ular o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganlaridek, o‘quvchilar o‘z tushunchalarini tanqid qilish va ularni yangi ma’lumotlar bilan birlashtirish orqali o‘z bilimlarini kengaytirishlari mumkin. Hammer va Elby, o‘quvchilarni o‘z fikrlarini muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqishga undovchi dars ishlanmalarini taqdim etishni taklif qiladilar.

David Hammer va Andrew Elby tadqiqotlari: Bu tadqiqotlar diagrammada tushuntirilganidek, o‘quvchilarning fizikani o‘rganish faoliyatlarini va metakognitiv yondashuvlar bilan ularni yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

José Mestre va Irwin Halloun fizika o‘qitishda metakognitiv yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganib, o‘quvchilarning fizikaviy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirish mumkinligini isbotladilar. Ular o‘quvchilarga murakkab masalalarni hal qilishda metakognitiv strategiyalarni qo‘llashni o‘rgatish orqali, o‘quvchilarning muammoni tushunish va uni hal etish faoliyatlarini qanday tahlil qilishlari va baholashlarini kuzatdilar. Natijada, o‘quvchilar o‘z yechimlarini yanada samarali boshqarish va xatolarni tuzatish qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Misol uchun, o‘quvchilar elektromagnitizm bo‘yicha masalalarni yechishda o‘z fikrlarini tahlil qilishadi va yangi yondashuvlarni sinab ko‘rishadi. Stella Vosniadou o‘quvchilarning ilmiy tushunchalarni qanday qilib shakllantirishlari va bu faoliyatda metakognitiv ko‘nikmalar qanday rol o‘ynashi mumkinligini o‘rganadi. Uning tadqiqotlari, o‘quvchilar o‘z tushunchalarini qanday qilib yangi ma’lumotlar bilan integratsiya qilishini va bu faoliyatda metakognitiv ko‘nikmalar qanday yordam berishini ko‘rsatadi. Stavroula Vosniadou o‘quvchilarni o‘z bilimlarini tanqid qilish va yangi tushunchalarni mavjud bilimlar tizimiga qo‘shishga undaydi. Misol uchun, o‘quvchilar optika bo‘yicha o‘rganayotgan paytida, yangi bilimlarni o‘zlarining ilgari o‘rgangan bilimlari bilan birlashtiradilar va bu faoliyatda o‘z bilimlarini tahlil qilishadi [9; 44-54-b.]. Bu ularning optikani yanada chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv ko‘nikmalar fizika fanining chuqur va samarali o‘rganilishida katta ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘z o‘rganish faoliyatlarini samarali boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirganda, ular murakkab fizikaviy tushunchalar va muammolarni mustaqil ravishda tushunish va hal qilishga qodir bo‘ladilar. Shuning uchun, fizika o‘qitishda metakognitiv yondashuvlarni integratsiya qilish ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Flavell J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American psychologist, 34(10), 906.
2. Schraw G. & Moshman D. (1995). Metacognitive theories. Educational psychology review, 7(4), 351-371.
3. Zohar A. & Ben David A. (2008). Explicit teaching of metastrategic knowledge in authentic classroom situations. Metacognition and Learning, 3(1), 59-82.
4. Flavell, J. H., "Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry," American Psychologist, vol. 34, no. 10, pp. 906-911, 1979.
5. Yo‘Lchiyev, S. X., & O‘Rinboyev, M. I. (2025). FANNI O‘QITISHDA O‘QUVCHI-YOSHLARDA METAKOGNITIV FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI. *Inter education & global study*, *3*(5), 72-82.
6. O’Rinboyev, M. I. (2024). O’QUVCHILARNING FIZIKA FANI HAQIDAGI FIKRLARI, MOTIVATSIYASI VA DARSLARDA QO’LLANILADIGAN METAKOGNITIV USULLAR. *Inter education & global study*, (5), 299-309.
7. O'rinboyev Muxammadzoxir Iqboljon o'g'li. (2025). FIZIKA O'QITISHDA MAVJUD O'QITISH METODLARI VA ULARNING TA'LIMIY NATIJADORLIGI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17156984
8. O'rinboyev Muxammadzoxir Iqboljon o'g'li. (2024). FIZIKA O'QITISH AMALIYOTIDA METAKOGNITIV FAOLIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISH. https://doi.org/10.5281/zenodo.13292262
9. O’rinboyev, M. I. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida fizika fanini o’qitishda o’quvchilarning metakognitiv faoliyatlarini takomillashtirish. *Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) Ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan Dissertatsiya. Namangan-2025*.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

VOYAGA YETMAGANLAR MEHNATINI HIMOYA QILISHDA XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Alimardonova Xurshidabonu Xushvaqt qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti, Buxoro, O’zbekiston

ANNOTATSIYA

Kirish: ushbu maqola voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish masalasini milliy va xalqaro nuqtai nazardan tahlil qiladi. Xorijiy tajribalar, jumladan Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya misollarida bolalarni ishga jalb qilishning minimal yoshini belgilash, xavfli ish turlarini cheklash va monitoring tizimlarini rivojlantirish orqali samarali himoya mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston sharoitida milliy qonunchilik XMT konvensiyalari bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa-da, amaliyotdagi muammolar, xususan qishloq joylarida bolalarni ekspluatatsion mehnatdan himoya qilish va ijtimoiy yordam tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi aniqlanadi.

Maqsad: voyaga yetmaganlar mehnatini nazariy-metodologik asoslarini aniqlash hamda uning pedagogik imkoniyatlarini xalqaro va mahalliy ilmiy asoslar bilan asoslashdan iborat.

Materiallar va metodlar: tadqiqotda pedagogik, psixologik, falsafiy va madaniy adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tizimli umumlashtirish hamda madaniyatlararo tahlil metodlaridan foydalanildi. Xalqaro va respublika miqyosidagi me'yoriy hujjatlar o'rganildi.

Muhokama va natijalar: tadqiqod natijalari bolalarni ekspluatatsion mehnatdan himoya qilish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha kompleks va integratsiyalashgan yondashuv talab etiladi. Bu yondashuv normativ-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ta’limiy omillarni birlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa: voyaga yetmaganlar mehnati jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi va alohida yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayon jamiyatda daxldorlik hissini oshirishga, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, monitoring tizimini kuchaytirish va ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish orqali voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishning samarali strategiyalarini aniqlashga xizmat qiladi

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar mehnati, bolalarni himoya qilish, xalqaro standartlar, O‘zbekiston qonunchiligi, ekspluatatsion mehnat, XMT konvensiyalari, monitoring tizimi, ijtimoiy dasturlar, minimal ish yoshi, xavfli ish turlari.

ИННОСТРАННЫЙ ОПЫТ В ОБЛАСТИ ЗАЩИТЫ ТРУДОВЫХ ПРАВ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ И ПРЕСПЕКТИВЫ ПРИВЕДЕНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА В СООТВЕТСТВИЕ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ

Алимардонова Хуршидабону Хушвакт кизи, магистрант Бухарского государственного педагогического института, Бухара, Узбекистан

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

АННОТАЦИЯ

Введение: статья посвящена анализу защиты труда несовершеннолетних с национальной и международной точки зрения. Рассматриваются зарубежные примеры, включая страны Европы, Северной Америки и Японии, где определен минимальный возраст трудоустройства, ограничены опасные виды работ и развиты системы мониторинга. В условиях Узбекистана национальное законодательство гармонизировано с конвенциями МОТ, однако выявлены практические проблемы, включая защиту детей от эксплуатационного труда в сельских районах и недостаточное развитие системы социальной поддержки.

Цель: выявить теоритические и методологические основы проблемы труда несовершеннолетних и обосновать ее педогогический потенциал с учетом международных и местных научных основ.

Материалы и методы: использованы методы анализа научной литературы, сравнительно-аналитический подход, системное обобщение и кросс-культурный анализ. Проанализированы международные нормативные документы, а также национальные образовательные стандарты.

Обсуждение и результаты: результаты исследования показивают, что детей следует защищат от эксплуатации на рабочем месте. Необходимкомплексный и интегрированный подход к защите национального законодательства и его гармонизации с международными стандартами. не подвергаются эксплуатации в сфере труда. Для защиты национального законодательства и приведения его в соответствие с международными стандартами необходим комплексный и интегрированный подход. Этот подход, как показала практика, должен реализовываться путем сочетания нормативных, спциально – эконмиеских и образовательных факторов.

Заключение: детский труд является серьезной проблемы в обществе и требует особого подхода. Данный процесс поможет повысит уровень сопричастности общества, привести национального законодательства в соответсвие с международными стандартами, укрепить системы мониторинга и определить эффективные стратегии защиты прав несовершеннолетних путем разработки социальных программ.

Ключевые слова: труд несовершеннолетних, защита детей, международные стандарты, законодательство Узбекистана, эксплуатационный труд, конвенции МОТ, система мониторинга, социальные программы, минимальный возраст трудоустройства, опасные виды работ.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING ETHNO-AESTHETIC CULTURE IN HIGHER EDUCATION

Alimardonova Khurshidabonu Khushvaqt qizi , PhD student of Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

ANNOTATION

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Introduction: this article analyzes the protection of child labor from both national and international perspectives. It examines foreign experiences, including examples from Europe, North America, and Japan, where the minimum working age is established, hazardous work is restricted, and monitoring systems are developed. In Uzbekistan, national legislation aligns with ILO conventions; however, practical issues are identified, including the protection of children from exploitative labor in rural areas and the insufficient development of social support systems.

Aim: to identify the theoretical and methodological foundations of juvenile labor and to substantiate its pedagogical possibilities with international and local scientific foundations.

Materials and Methods: literature analysis, comparative-analytical approach, systematic generalization, and cross-cultural analysis were employed. International normative documents and national educational standards were examined.

Discussion and Results: the study results show that children are protected from exploitative labor. A comprehensive and integrated approach is required to protect and adapt national legislation to standarts. This approach should be implemented by combining regulatory , socio-economic and educational factors .

Conclusion: child labor is important in society and requires a special approach. This process will help to increase the sense of community involvement, align national legislation with international standarts, strengthen monitoring systems , and identify effective strategies for protecting the rights of minors through the development of social programs. .

Keywords: child labor, child protection, international standards, Uzbekistan legislation, exploitative labor, ILO conventions, monitoring system, social programs, minimum working age, hazardous work.

Voyaga yetmaganlar mehnati masalasi global miqyosda inson huquqlari himoyasining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va BMTning bolalar huquqlari konvensiyasi doirasida voyaga yetmaganlarni xavfli va ekspluatatsion mehnatdan himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy baza shakllantirilgan. Xususan, XMTning 138-sonli konvensiyasi “Voyaga yetmaganlarni ishga jalb qilish bo‘yicha minimal yosh” va 182-sonli konvensiyasi “Eng yomon shakldagi bolalar mehnatini taqiqlash” bilan bog‘liq qoidalarni belgilaydi. Shu bilan birga, global tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar mehnati iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohasi va maishiy ishlar kabi sektorlar orqali keng tarqalgan. Voyaga yetmaganlar mehnati inson salomatligi, ta’lim olish imkoniyatlari va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xavf tug‘diradi. Shu sababli, bu masalani hal qilishda nafaqat milliy, balki xalqaro tajriba va standartlarni hisobga olish zaruriyati mavjud. Xorijiy tajribaga nazar solganda, rivojlangan mamlakatlar voyaga yetmaganlarni ishga jalb qilishni qat’iy

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

tartibga solgan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqqan. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida minimal ishga kirish yoshi qat'iy belgilangan bo'lib, bolalarning ta'lim olish va sog'lom rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydigan ish shartlari joriy etilgan. Shuningdek, Shimoliy Amerika va Yaponiyada bolalar mehnati bilan bog'liq qonunchilikda majburiy nazorat va monitoring mexanizmlari, shuningdek, jazolar tizimi rivojlangan. Ushbu tajriba bolalar mehnatini kamaytirish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish borasida samarali strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish masalasi so'nggi yillarda e'tibor markazida turibdi. Mehnat kodeksi, Bolalar huquqlari to'g'risidagi qonun, shuningdek, "Voyaga yetmaganlar mehnatini taqiqlash va ularni ishga jalb qilishni cheklash"ga oid normativ-huquqiy hujjatlar ushbu yo'nalishda asosiy huquqiy baza sifatida faoliyat yuritadi. Milliy qonunchilik XMT konvensiyalari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lsa-da, amaliyotda bolalarni mehnatdan himoya qilishning samaradorligi va nazorat mexanizmlari, ayniqsa qishloq va shaharlarda farqlar mavjudligi, hali to'liq ta'minlanmagan. Shu bois, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan yanada moslashtirish va bolalar mehnatini kamaytirish strategiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarni mehnatdan himoya qilishning samarali tizimi nafaqat qonunlarni qabul qilish, balki ularni amalga oshirish, nazorat qilish va jamiyatni xabardor qilish bilan bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekiston tajribasini rivojlantirilgan mamlakatlar tajribasi bilan solishtirish, xalqaro standartlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, voyaga yetmaganlar mehnatini kamaytirish va ijtimoiy himoyani mustahkamlash yo'lidagi samarali yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Ushbu maqola doirasida voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish bo'yicha xorijiy tajribani tahlil qilish, O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotini baholash hamda ularni xalqaro standartlarga moslashtirish istiqbollari ilmiy-analitik tarzda ko'rib chiqiladi. Maqsad bolalarni ekspluatatsion mehnatdan himoya qilish va ularning huquqiy, ijtimoiy va ta'lim sohasidagi manfaatlarini mustahkamlashga qaratilgan strategiyalarni aniqlashdan iborat.

Voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish masalasi global va milliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xalqaro miqyosda bu sohada olib borilgan ilmiy ishlar bolalarni ekspluatatsion mehnatdan himoya qilish, ularning huquqlari va ijtimoiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) 138- va 182-sonli konvensiyalari, shuningdek, BMTning Bolalar huquqlari konvensiyasi voyaga yetmaganlar mehnatining minimal yosh chegarasi va eng yomon shakldagi mehnatni taqiqlash bo'yicha asosiy huquqiy bazani tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar mehnati iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda, ayniqsa qishloq xo'jaligi va uy xo'jaligi ishlarida keng tarqalgan (Basu, 2000; Edmonds & Pavcnik, 2005). Xorijiy ilmiy manbalarni tahlil qilganda, bolalarni mehnatdan himoya qilish bo'yicha ikki asosiy yondashuv mavjudligi aniqlanadi: ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy. Ijtimoiy-huquqiy yondashuv XMT konvensiyalari va milliy qonunchilik orqali bolalarni ekspluatatsion mehnatdan himoya qilishni ko'zda tutadi (ILO, 2017). Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida minimal ishga kirish yoshi qat'iy belgilangan va bolalarning ta'lim olish huquqlari ta'minlangan. Shu bilan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

birga, Shimoliy Amerika va Yaponiya tajribasida bolalarni ishga jalb qilish holatlarini monitoring qilish, nazorat mexanizmlari va jarimalar tizimi rivojlanganligi qayd etilgan (Levison & Moe, 1998; Sherraden et al., 2010). Ushbu tajribalar milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va bolalarni himoya qilish bo‘yicha strategik tavsiyalarni ishlab chiqishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Iqtisodiy yondashuv esa bolalar mehnati va kambag‘allik, oilaviy daromad, ta’lim darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘al oilalarda bolalar mehnatiga ehtiyoj yuqori bo‘ladi va bu ularning ta’lim olish imkoniyatini cheklaydi (Basu & Tzannatos, 2003; Ray, 2000). Shu bilan birga, bolalarni ishga jalb qilish ijtimoiy va iqtisodiy zararlarni keltirib chiqaradi, jumladan, salomatlik muammolari, ruhiy travmalar va mehnat bozoriga yetuk bo‘lmagan kadrlarning chiqishi. Shu bois, ijtimoiy-iqtisodiy tahlillar bolalarni mehnatdan himoya qilish bo‘yicha kompleks siyosatni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston tajribasi bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilganda, milliy qonunchilikda voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish masalasi so‘nggi yillarda tizimli ko‘rib chiqilganligi aniqlanadi. “Mehnat kodeksi” va “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi qonunlar bolalarni ekspluatatsion mehnatdan himoya qilishning asosiy huquqiy mexanizmini ta’minlaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va hukumat farmoyishlari qishloq va shahar joylarida bolalarni ishga jalb qilishning oldini olish va ularni ta’lim jarayoniga jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi (Sayilkhonov, 2024). Shu bilan birga, milliy tadqiqotlar bolalar mehnatining amaliy holatini, ayniqsa qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarida, to‘liq tahlil qilish zaruratini ko‘rsatadi (Karimov, 2021; Rustamova, 2022). Xorijiy va milliy tadqiqotlar solishtirilganda, bir qator umumiy tamoyillar aniqlanadi. Birinchidan, bolalarni mehnatdan himoya qilish bo‘yicha qonunchilik va normativ-huquqiy baza zarur, lekin yetarli emas; amaliy nazorat, monitoring va ijtimoiy dasturlar ham muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, kambag‘allik va oilaviy daromad darajasi bolalarni mehnatga jalb qilishda asosiy faktor hisoblanadi. Shu bois, milliy siyosatni ishlab chiqishda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvni hisobga olish lozim. Uchinchidan, ta’lim va xabardorlik darajasini oshirish orqali bolalar mehnatini kamaytirish samarali mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlar shuningdek, bolalarni mehnatdan himoya qilishda intersektoral yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va mehnat sohalarining integratsiyalashgan faoliyati bolalarni ekspluatatsiyadan samarali himoya qilishga xizmat qiladi (UNICEF, 2019). Shu bilan birga, jamiyatning xabardorligi va oilaviy psixologik qo‘llab-quvvatlash ham bolalarni xavfli mehnatdan saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Tahliliy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan yanada uyg‘unlashtirish, bolalarni xavfli va ekspluatatsion mehnatdan himoya qilish bo‘yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bunda xorijiy tajribani moslashtirish, monitoring mexanizmlarini joriy qilish, kambag‘allik va oilaviy daromadni hisobga olgan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, ta’lim va xabardorlikni oshirish orqali bolalarni himoya qilish samaradorligini oshirish mumkin. Shu tarzda, adabiyotlar tahlili voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish masalasida milliy va

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

xalqaro tajribani birlashtirish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarni kompleks tarzda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu ilmiy tahlil O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish va bolalarni xavfli mehnatdan himoya qilish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun nazariy asos yaratadi.

Ushbu tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilishning samarali mexanizmlarini aniqlash va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish istiqbollarini kompleks tarzda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida xorijiy tajribalar, xususan Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarning bolalarni ishga jalb qilish bo‘yicha amaliyotlari va O‘zbekistonning amaliy tajribasi chuqur solishtirildi. Shu bilan birga, bolalar mehnatiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va huquqiy omillar ham batafsil aniqlab olindi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda bolalarni ishga jalb qilish minimal yosh, ish sharoitlari, mehnat xavfsizligi va ta’lim olish imkoniyatlarini himoya qiluvchi qat’iy normativ-huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solingan. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi va Shimoliy Amerika davlatlarida bolalarni ishga jalb qilishning barcha shakllari qat’iy nazorat ostida bo‘lib, majburiy monitoring tizimi, inspeksiya organlari faoliyati va jarimalar mexanizmlari orqali amalga oshiriladi (Levison & Moe, 1998; Sherraden et al., 2010). Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni talab qiladi, balki ularni amalda samarali tatbiq etish mexanizmlarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston sharoitida bolalarni mehnatdan himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilik XMT konvensiyalari bilan moslashtirilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bir qator muammolar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa qishloq joylarida bolalar mehnatiga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lib, bu ularning ta’lim olish va ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Natijada, bolalarni ekspluatatsion mehnatga jalb qilish holatlarini kamaytirish va himoya strategiyalarini amalga oshirishda sezilarli to‘sqinliklar yuzaga keladi (Karimov, 2021; Rustamova, 2022).

Tadqiqot davomida bolalarni mehnatdan himoya qilishning samaradorligini oshirish uchun bir nechta asosiy yo‘nalishlar aniqlangan. Birinchi yo‘nalish milliy qonunchilikni yanada rivojlantirish va uning ijrosini ta’minlash mexanizmlarini mustahkamlashdir. Bu, jumladan, nazorat organlarining vakolatlarini kengaytirish, majburiy monitoring tizimlarini joriy etish va bolalarni ishga jalb qilish holatlari bo‘yicha ma’lumotlarni tizimli ravishda yig‘ish orqali samarali nazorat o‘rnatishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi yo‘nalish bolalarni ishga jalb qilishning iqtisodiy va ijtimoiy sabablarini kamaytirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allik darajasi, oilaviy daromadning pastligi va qishloq hududlarida ijtimoiy himoya tizimining yetarli emasligi bolalarni mehnatga jalb qilishga asosiy sabab sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, ijtimoiy yordam dasturlari, oilalarni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy rag‘batlar va ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali bolalarni xavfli mehnatdan himoya qilish samaradorligini oshirish mumkin. Uchinchi yo‘nalish ta’lim va xabardorlikni oshirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar, jamoatchilik va bolalarning o‘zlari bolalar mehnatining salbiy oqibatlari haqida yetarlicha xabardor bo‘lmasa, qonunchilikning samarali ishlashiga erishish qiyin bo‘ladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Shu bois, seminarlar, ma'ruzalar, targ'ibot kampaniyalari, media vositalari va maktab dasturlarida bolalarni mehnatdan himoya qilish bo'yicha maxsus tadbirlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shu tarzda, tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, bolalarni ekspluatatsion mehnatdan himoya qilish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha kompleks va integratsiyalashgan yondashuv talab etiladi. Bu yondashuv normativ-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ta'limiy omillarni birlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim. Xorijiy tajriba va O'zbekiston sharoitini integratsiyalashgan tahlil asosida ishlab chiqilgan strategiyalar bolalarni mehnatdan himoya qilishning samaradorligini oshirish, ularning ta'lim olish, sog'liqni saqlash va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, shuningdek, milliy siyosatning xalqaro hamkorlik va standartlarga mos kelishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish masalasi xalqaro va milliy darajada dolzarb ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalar bolalarni ishga jalb qilishning minimal yoshini belgilash, xavfli ish turlarini cheklash, monitoring va nazorat mexanizmlarini rivojlantirish orqali samarali himoya tizimini yaratganini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida milliy qonunchilik XMT konvensiyalari bilan uyg'unlashgan bo'lsa-da, amaliyotda ba'zi muammolar mavjud: qishloq joylarida bolalarni ekspluatatsion mehnatdan himoya qilish, ta'limga kirish va ijtimoiy yordam tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bolalarni mehnatdan himoya qilishning samarali strategiyasi normativ-huquqiy chora-tadbirlar, ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va xabardorlikni oshirishni birlashtirgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu asosda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, monitoring tizimini mustahkamlash va ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish orqali voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Basu, K. (2000). Child labor: Cause, consequence, and cure, with remarks on international labor standards. Journal of Economic Literature, 38(3), 1083–1119.
2. Basu, K., & Tzannatos, Z. (2003). The global child labor problem: What do we know and what can we do? World Bank Economic Review, 17(2), 147–173.
3. Edmonds, E. V., & Pavcnik, N. (2005). Child labor in the global economy. Journal of Economic Perspectives, 19(1), 199–220.
4. International Labour Organization (ILO). (2017). Global estimates of child labour: Results and trends, 2012–2016. Geneva: ILO.
5. Levison, D., & Moe, K. (1998). Children's work in the U.S.: The economic and social context. Population Research and Policy Review, 17(5), 485–510.
6. Ray, R. (2000). Analysis of child labor in Peru and Pakistan: A comparative study. World Development, 28(2), 271–294.
7. Sherraden, M., Johnson, L., & Elliott, W. (2010). Child labor and social protection in developed countries: Evidence and policy implications. Social Service Review, 84(3), 315–345.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

8. UNICEF. (2019). Child labour: Global report 2019. New York: UNICEF.
9. Karimov, S. (2021). Voyaga yetmaganlar mehnati va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri O'zbekistonda. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashri.
10. Rustamova, M. (2022). Bolalar mehnatini monitoring qilish va himoya qilish tizimlari. Tashkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashri.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

AKADEMIK LITSEYLARDA “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Artikov Farxod Sayfiddinovich, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Kirish: mustaqil ta’lim zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish, muammolarni hal qilish va raqamli savodxonlikni rivojlantiradi. akademik litseylarda informatika fani bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Maqsad: informatika fanida mustaqil ta’limning pedagogik asoslarini tahlil qilish, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirishdagi rolini ko‘rsatish.

Materiallar va metodlar: nazariy-pedagogik tahlil, islohotlarni qiyosiy o‘rganish va zamonaviy ta’lim amaliyotlarini interpretativ sintez qilish metodlari qo‘llanildi. akademik litseylardagi innovatsion yondashuvlar misol sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar va muhokama: tadqiqot natijalari mustaqil ta’lim o‘quvchilarning o‘z ta’lim faoliyatini boshqarish qobiliyatini kuchaytirishini, raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishini va tanqidiy fikrlashni shakllantirishini ko‘rsatdi. loyihaviy ta’lim, elektron platformalar va interaktiv metodlar ta’lim sifatini oshirishda samarali bo‘ldi.

Xulosa: akademik litseylarda informatika fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirish pedagogik zaruratdir. uni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ta’lim sifatini oshiradi, kompetensiyaga asoslangan ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quvchilarni raqamli davr talablari uchun tayyorlaydi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta’lim, Informatika va axborot texnologiyalari, akademik litsey, pedagogik texnologiyalar, kompetensiya, ta’lim sifati, innovatsion yondashuv, o‘quv faoliyati.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НЕЗАВИСИМОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО ПРЕДМЕТУ «ИНФОРМАЦИЯ И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИКЕЯХ

Артиков Фарход Сайфиддинович, преподаватель академического лицея Самаркандского института экономики и сервиса

АННОТАЦИЯ

Введение: самостоятельное обучение является важным элементом современного образования, позволяя учащимся развивать саморегуляцию, навыки решения проблем и цифровую грамотность. в академических лицеях предмет информатики предоставляет широкие возможности для формирования этих умений.

Цель: проанализировать педагогические основы самостоятельного обучения по информатике, показать его роль в повышении качества образования и развитии компетенций учащихся.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Материалы и методы: использованы методы теоретико-педагогического анализа, сравнительного изучения реформ и интерпретативного синтеза современных образовательных практик. рассмотрены примеры инновационных подходов в лицеях.

Результаты и обсуждение: исследование показало, что самостоятельное обучение усиливает способность учащихся управлять собственной учебной деятельностью, развивает цифровые компетенции и формирует критическое мышление. внедрение проектного обучения, электронных платформ и интерактивных методов доказало свою эффективность в повышении качества образования.

Заключение: развитие самостоятельного обучения по информатике в академических лицеях является педагогической необходимостью. его интеграция в учебный процесс повышает качество образования, поддерживает компетентностный подход и готовит учащихся к требованиям цифровой эпохи.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, информатика и информационные технологии, академический лицей, педагогические технологии, компетентность, качество образования, инновационный подход, образовательная деятельность.

PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING INDEPENDENT EDUCATION IN THE SUBJECT OF "INFORMATION AND INFORMATION TECHNOLOGIES" IN ACADEMIC LYCEUMS

Artikov Farkhod Sayfiddinovich, teacher of the academic lyceum of the Samarkand Institute of Economics and Service

ANNOTATION

Introduction: independent learning is a key component of modern education, enabling students to develop self-regulation, problem-solving skills, and digital literacy. in academic lyceums, the subject of informatics and information technologies provides a unique platform for fostering these abilities.

Purpose: to analyze the pedagogical foundations of independent learning in informatics, focusing on its role in enhancing educational quality and developing student competencies.

Materials and Methods: the study applies theoretical-pedagogical analysis, comparative review of reforms, and interpretative synthesis of modern teaching practices. examples of innovative approaches in academic lyceums are examined.

Results and Discussion: findings show that independent learning strengthens students' ability to manage their own educational activities, improves their digital competencies, and fosters critical thinking. reforms introducing project-based learning, e-learning platforms, and interactive methods have proven effective in raising the quality of education.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Conclusion: independent learning in informatics at academic lyceums is a pedagogical necessity. its integration into the curriculum enhances educational quality, supports competency-based learning, and prepares students for the demands of the digital era.

Keywords: independent learning, Informatics and information technologies, academic lyceum, pedagogical technologies, competence, quality of education, innovative approach, educational activities.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri — mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashadigan hamda o‘z ustida muntazam ishlay oladigan yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan akademik litseylarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqil ta’lim — bu o‘quvchining o‘qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda bilimlarni egallashi, ularni tahlil qilishi, amaliyotga tatbiq etishi va o‘z bilim darajasini oshirishga qaratilgan faoliyatidir. Bu jarayon o‘quvchida mas’uliyat, intizom, mustaqil izlanish va tanqidiy fikrlash kabi sifatlarni shakllantiradi.

Akademik litseylarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarning mazkur fanga oid bilimlarini chuqurlashtirish, ilmiy-tadqiqotga qiziqishini oshirish hamda oliy ta’limga puxta tayyorlashdan iboratdir.

Mustaqil ta’limni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar. So‘nggi yillarda akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, chuqurlashtirilgan fanlar ulushining oshirilishi o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga keng imkon yaratdi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar, ilmiy to‘garaklar va loyiha ishlari mustaqil ta’limning samarali vositasi sifatida joriy etildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limga keng tatbiq etilishi ham mustaqil ta’lim samaradorligini oshirdi. Elektron kutubxonalar, masofaviy ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar va multimedia resurslari orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda qo‘shimcha bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari bilan integratsiyaning kuchaytirilishi, professor-o‘qituvchilarning litseylarga biriktirilishi va “ustoz-shogird” tizimining rivojlantirilishi ham mustaqil ta’limning sifatini oshirdi.

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ✓ muammoli ta’lim texnologiyalari;
- ✓ loyiha asosida o‘qitish;
- ✓ interfaol metodlar;
- ✓ individual ta’lim trayektoriyasi;
- ✓ elektron ta’lim resurslaridan foydalanish;
- ✓ monitoring va refleksiya tizimi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Ayniqsa, loyiha ishlari va ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzluksiz ta’lim tizimida shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ayniqsa, akademik litseylar iqtidorli yoshlarni chuqurlashtirilgan ta’lim asosida tayyorlashda muhim bo‘g‘in hisoblanadi [1].

Professor O. Tolipov va M. Usmonboyevaning “Pedagogik texnologiyalar” asarida mustaqil ta’lim o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Mualliflar mustaqil ta’limni tashkil etishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, mustaqil ta’lim o‘quvchining bilimni tayyor holda emas, balki izlanish orqali egallashiga xizmat qiladi.

R. Ishmuhamedovning innovatsion pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida mustaqil ta’limni zamonaviy AKT vositalari orqali tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Muallif elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari va multimedia vositalarining o‘quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab beradi.

N. Sayidahmedov esa pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyaga oid tadqiqotlarida o‘qituvchining mustaqil ta’limni boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi subyekt sifatidagi rolini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchini mustaqil izlanishga undovchi motivator bo‘lishi lozim.

Shuningdek, akademik litseylar faoliyatini takomillashtirishga oid Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida chuqurlashtirilgan ta’lim, fan to‘garaklari, ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda “ustoz-shogird” tizimini rivojlantirish orqali mustaqil ta’limni kuchaytirish masalalari ilgari surilgan.

Xorijiy pedagog olimlar, jumladan, J. Dewey, L. Vygotskiy va B. Bloomlarning ilmiy qarashlarida ham mustaqil ta’limning nazariy asoslari uchraydi. Ular o‘quvchining faol bilish jarayoni, mustaqil fikrlash va refleksiv yondashuvni ta’lim samaradorligining muhim omili sifatida baholaydilar.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, akademik litseylarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual salohiyati, kasbiy tayyorgarligi va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda akademik litseylarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirishning pedagogik asoslarini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib belgilandi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlarning o‘zaro uyg‘unligidan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik qismida kuzatish, suhbat, savolnoma va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Akademik litsey o‘quvchilari va o‘qituvchilari o‘rtasida mustaqil ta’limning samaradorligi, mavjud sharoitlar va muammolarni aniqlash maqsadida

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

anketa-so‘rovnomalar o‘tkazildi. O‘qituvchilar bilan individual suhbatlar tashkil etilib, ularning mustaqil ta’limni tashkil etishdagi tajribalari va takliflari o‘rganildi.

Pedagogik kuzatish metodi orqali dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, topshiriqlarni bajarish darajasi hamda bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari davomida mustaqil ta’limni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlar, loyiha ishlari, elektron resurslardan foydalanish va individual topshiriqlar joriy etilib, ularning natijalari monitoring qilindi.

Olingan ma’lumotlarni qayta ishlashda qiyosiy tahlil, umumlashtirish va statistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari asosida akademik litseylarda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida tashkil etilib, akademik litseylarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida akademik litseylarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirish holati nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. O‘quvchilarning mustaqil bilim olishga bo‘lgan munosabati, o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvi hamda ta’lim muassasalarida yaratilgan shart-sharoitlar o‘rganildi.

Dastlabki kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, ko‘pgina akademik litseylarda mustaqil ta’limni tashkil etish an’anaviy shaklda olib borilmoqda. O‘quvchilarga asosan uyga vazifa va referat topshiriqlari berilishi bilan cheklanib qolingan, ilmiy izlanish, loyiha ishlari va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar yetarli darajada tashkil etilmagan. Bu holat o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va kreativ yondashuv ko‘nikmalarining sust rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning aksariyati mustaqil ta’limni faqat darsga tayyorlanish yoki uy vazifasini bajarish bilan bog‘laydi. Ularning ko‘pchiligi mustaqil ta’limning ilmiy izlanish, tahliliy fikrlash va kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyatini yetarli darajada anglab yetmagan. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning bir qismi ham mustaqil ta’limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan to‘liq foydalana olmayotgani aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari davomida loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, elektron ta’lim resurslari va interfaol metodlardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. O‘quvchilarga individual mustaqil topshiriqlar, mini-tadqiqot ishlari, prezentatsiyalar va amaliy loyihalar berildi. Natijada o‘quvchilarning darsga qiziqishi, mustaqil izlanish olib borish faolligi hamda fanlarni chuqur o‘zlashtirish darajasi sezilarli ravishda oshdi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Xususan, mustaqil ishlash ko‘nikmalari, axborotni izlash va qayta ishlash malakasi, tahliliy fikrlash hamda muammoni mustaqil hal qilish qobiliyatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va AKTdan foydalanish darajasi oshgani sari mustaqil ta’lim samaradorligi ham ortishi aniqlandi. Bu esa pedagogning yo‘naltiruvchi va motivatsion roli nihoyatda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, akademik litseylarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, o‘quvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish hamda o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirish zarur hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Akademik litseylarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mustaqil ta’lim o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi, ularni ilmiy izlanishga yo‘naltiradi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim tizimi barkamol, raqobatbardosh va ijodkor shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent, 1997.
3. Asfandiyorovich, Fayziev Nozim. "basics of programming from the textbook of informatics and information technologies chapter python programming language methodology of multimedia." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 778-781.
4. Nozim, Asfandiyorovich Fayziyev. "Tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzusini doir kompyuter imitasion modeli asosida takomillashtirish." *Research and education* 1 (2022): 273-278.
5. Asfandiyorovich, Fayziyev Nozim. "Teaching the Subject of Repetitive Algorithms Based on Multimedia Electronic Manuals." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 16 (2023): 42-45.
6. Xasanovich, Lutfillayev Mahmud, Ass Amrillayev Husniddin Ashrab O'g, and Ass Fayziyev Nozim Asfandiyorovich. "Development of Computer Simulation Model Develops Creative Thinking of the Student." *JournalNX* 7.03 (2021): 167-171.
7. Asfandiyorovich, Fayziyev Nozim, and Toxirqulov Zufar Jurabek O‘g‘li. "ZAMONAVIY DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA XORIJIY TILLARGA OID TAQDIMOTLAR YARATISH." *Science and innovation* 3.Special Issue 19 (2024): 359-363.
8. Asfandiyorovich, Fayziyev Nozim. "TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR MAVZUSINI MULTIMEDIALI ELEKTRON QO’LLANMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH." *ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДАГИ ЯНГИ ТАРИХИ ВА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУРИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ* (2022).
9. Fayziyev, Nozim, and Bakhtiyor Yallayev. "SOFTWARE CREATION TECHNOLOGY BASED ON A DIFFERENTIAL APPROACH IN THE SUBJECT OF" APPLICATION

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL ACTIVITY"." *Journal of Technology and Innovative Research* 1.3 (2026): 27-37

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

"YANGI YASHIL POYABZAL" - YOSH DIZAYNERNING G'OYASI

Olimova Gulrux, 1-bosqich magistranti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston
Yadgarov Nodir Djalolovich, p.f.d., professor, ilmiy rahbar, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro. O'zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: ushbu maqolada yosh dizaynerning yangi modeldagi erkaklar poyabzali loyihasi to`g`risida ma`lumotlar berilgan.

MAQSAD: mazkur ishning asosiy maqsadi , hozirgi kunda bu sohaga bo'lgan talab ko'pligi va kuchayganligi , charm-poyzabzal sohasi rivojlanib, mahsulot sifati yaxshilanib borayotgani, rivojlanishdan dalolat beradi. Men ushbu imkoniyatlardan foydalanib, moda tendensiyalarini o'rgangan holda jahon bozorida eksport hajmini oshirib, jahon standartlariga mos keladigan yanada yangi dizayndagi poyabzallarni yaratish maqsadim bor va bu ishninh muhim vazifalaridan hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: materiallar: poyabzalning ustki qismi va astarida charm va yuqori sifatli sintetik matolar qo'llanilgan. Bu materiallar chidamlilikni, qulaylikni va havoning erkin aylanishini ta'minlaydi.Poyabzal to'liq qo'lda yasalgan. Dastlab oyoq o'lchami olinib, maxsus qolip yaratiladi. So'ngra bo'laklar aniq o'lchab qirqiladi va mustahkam qilib tikiladi. Yakuniy bosqichda poyabzalga so'nggi shakl berilib, sifat nazorati o'tkaziladi

MUHOKAMA VA NATIJALAR: taqdiqiqot naijalari shuni ko'rsatadiki, Charm va sintetik materiallardan foydalanib, poyabzalning chidamlilik va qulaylik sinovlaridan o'tkazilganda, ular yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etdi. Qo'lda yasash metodi, ayniqsa, qolipdan foydalanish, poyabzalning shakli va o'lchami aniqligini ta'minladi.Natijalar charm va sintetik matolar kombinatsiyasi poyabzalning ham ko'rkam, ham chidamli bo'lishiga hissa qo'shishini ko'rsatmoqda. Qo'lda tikish metodining qo'llanilishi, mahsulotning sifatini oshirib, standart talablariga mosligini tasdiqladi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, charm va sintetik materiallarning kombinatsiyasi, shuningdek, qo'lda tikish metodining qo'llanilishi, ham qulay, ham chidamli va sifatli poyabzal yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv mahsulotning raqobatbardoshligini va iste'molchilar talablariga mosligini ta'minlaydi.

Kalit so`zlar: poyabzal,loyihalash,detallar,texnologiya,brend,model, eskiz.

«НОВАЯ ЗЕЛЕНАЯ ОБУВЬ» – ИДЕЯ МОЛОДОГО ДИЗАЙНЕРА

Олимова Гулрух, магистрант 1-го курса, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан
Ядгаров Нодир Джалолович, д.п.н., профессор, научный руководитель, Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье представлена информация о проекте новой модели мужской обуви молодого дизайнера.

ЦЕЛЬ: основная цель данной работы заключается в том, что в настоящее время спрос в этой сфере велик и продолжает расти; развитие кожевенно-обувной отрасли и улучшение качества продукции свидетельствуют о прогрессе. Используя эти возможности и изучая модные тенденции, моей целью является создание обуви с новым дизайном, соответствующим мировым стандартам, и увеличение объема экспорта на мировой рынок, что считается одной из важных задач данной работы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалы: для верхней части и подкладки обуви использованы кожа и высококачественные синтетические ткани. Эти материалы обеспечивают долговечность, комфорт и свободную циркуляцию воздуха. Обувь полностью изготовлена вручную. Сначала снимаются мерки стопы и создается специальная колодка. Затем детали точно измеряются, вырезаются и прочно сшиваются. На заключительном этапе обуви придается окончательная форма и проводится контроль качества.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследований показывают, что при испытаниях на долговечность и комфорт обуви с использованием кожи и синтетических материалов были продемонстрированы высокие показатели. Метод ручной работы, особенно использование колодки, обеспечил точность формы и размера обуви. Результаты показывают, что сочетание кожи и синтетических тканей способствует тому, что обувь становится одновременно красивой и прочной. Использование метода ручной прошивки повысило качество изделия и подтвердило его соответствие стандартным требованиям.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение можно сказать, что сочетание кожи и синтетических материалов, а также применение метода ручной прошивки имеют важное значение для создания удобной, прочной и качественной обуви. Такой подход обеспечивает конкурентоспособность продукции и её соответствие требованиям потребителей.

Ключевые слова: обувь, проектирование, детали, технология, бренд, модель, эскиз.

"NEW GREEN SHOES" - THE IDEA OF A YOUNG DESIGNER

Olimova Gulrux, 1st-year Master's student, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan
Nodir Jalolovich Yadgarov, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Research Supervisor, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

ANNOTATION

INTRODUCTION: this article provides information about a young designer's project for a new model of men's shoes.

PURPOSE: the main purpose of this work is driven by the high and increasing demand in this field today; the development of the leather and footwear industry and the improving quality of products signify significant progress. By utilizing these opportunities

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

and studying fashion trends, my goal is to create shoes with new designs that meet international standards and increase export volumes to the global market, which is considered one of the key objectives of this work.

MATERIALS AND METHODS: materials: leather and high-quality synthetic fabrics are used for the upper part and lining of the shoe. These materials provide durability, comfort, and free air circulation. The shoes are entirely handmade. First, foot measurements are taken, and a special last (mold) is created. Then, the pieces are accurately measured, cut, and firmly stitched. In the final stage, the shoe is given its ultimate shape, and quality control is conducted.

DISCUSSION AND RESULTS: research results show that when testing shoes made from leather and synthetic materials for durability and comfort, they demonstrated high performance. The handmade method, especially the use of the last, ensured the accuracy of the shoe's shape and size. The results indicate that the combination of leather and synthetic fabrics contributes to making the shoes both elegant and durable. The use of the hand-stitching method improved product quality and confirmed compliance with standard requirements.

CONCLUSION: in conclusion, the combination of leather and synthetic materials, as well as the application of the hand-stitching method, is of great importance in creating comfortable, durable, and high-quality footwear. This approach ensures the product's competitiveness and its alignment with consumer demands.

Keywords: footwear, design, details, technology, brand, model, sketch.

O'zbekiston hukumati tomonidan so'nggi yillarda charm poyabzal sanoati qo'llab-quvvatlangani tufayli izchil rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda tabiiy charmni chuqur qayta ishlashga asoslangan eksportga yo'naltirilgan tayyor buyumlar hajmi va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy ishlab chiqarilayotgan yuqori sifatli arzon poyabzal va charm buyumlari bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda charm xom ashyosini chuqur qayta ishlash asosida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon poyabzal hamda charm-attorlik mahsulotlari bilan ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Qabul qilingan chora-tadbirlarning amalda ro'yobga chiqarilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 26.02.2022 yildagi PQ-143-son charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarorida investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg'ona, Xorazm va Toshkent viloyatlari hokimliklari hamda «O'zcharmsanoat» uyushmasining tuman (shahar)larda terini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini hamda tayyor charm-poyabzal va mo'yna mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

zonalarini tashkil qilish to'g'risidagi takliflari kiritildi. Mustaqil davlatimizni xalqimizni kelajak ravnaqi uchun yuqori talablarga javob beruvchi sifatli xalq iste'mol mollarini, shu jumladan har xil charm mahsulotlarni ko'paytirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi vaqtda poyabzal ishlab chiqarish juda keng tarmoq bo'lib, unda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishning ilg'or vositalaridan, kompyuter texnikasidan, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalaniladi.

Bugungi zamonaviy davrda, sifatli, hamyonbop ,poyabzal yaratish uchun bir qator dizaynerlarning hissasi beqiyos desak mubolag'a bo'lmaydi Ayni paytda mamlakatimiz yengil sanoati rivojlanish borasida sifat jixatidan yangi bosqichga chiqmoqda. An'anaviy va ma'naviy eskirgan texnologiyalar o'rnini yuqori samaradorli, sifatli mahsulot ishlab chiqaradigan va ularga ishlov berish standartlarini kuchaytiradigan yangi texnologiyalar egallamoqda.

Yuqoridagi imkoniyatlardan foydalangan holda men Olimova Gulrux yosh dizayner va rassom sifatida "**NEW GREEN SHOES"** brendi asosida yangi modeldagi erkaklar poyabzali yaratdim va bu mutaxassislik fani loyihasi sifatida taqdim etdimoqchiman.

Aytish joizki Yashil - hayotni, uyg'unlikni, yoshlikni anglatib, shuningdek har doim yashil



rang farovonlik, ishonch va ishonchlilik ramzi bo'lib kelgan, insonlarning hayot sifatini yaxshilash maqsadida ushbu poyabzal yaratdim .


Ushbu loyihada moda tendensiyalarga tayangan holda hozirgi va qadimgi moda tendensiyalarni o'rgangan holda va brendlar faoliyatini o'rgangan holda loyihada timsoh timsolini ijodiy manbani asos qilib oldim.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4





Poyabzal tanavorni modellashtirishda nusxalash usullari o'rgandim va eng optimal usul grafik -nusxalash usulini tanlandim. Shu usul asosida erkakalar klassik ko'rinishidagi tuflisining ustki va tag detalllarini AVTOCAD kompyuterda loyihash dasturida loyihalandi.



Poyabzal detallarini bichish , tikish va ishlov berish, tanovorni hamda poyabzalni yi'gish texnologik jarayonlarni ketma- ketligini tuzilib poyabzal tayyorlash texnologik jarayoni ishlab chiqdim. Konstruktorlik va texnologik jarayonlarni va poyabzalni detallarni bichishda, qirqishda va ishlov berishda , poyabzal yig'ishda hozirgi vaqtda eng zamonaviy rusumdagi, elektroenergiyani tejaydigan jihozlar tanlandi va undan so'ng loyihamni taqdimot qilish maqsadida shaxsiy brend yaratdim.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4



Shu jumladan yaratilgan brendimni nomi “GOO” atalib har jihatdan ishlab chiqariladigan mahsulotga ma’no va mazmun baxsh etadi. Undagi “G” harfi muallifga tegishli bo’lib, Gulrux ya’ni gulyuzli, ko’rinishi guldek go’zal, nafis, jozibali, latofatli degan ma’noni anglatib shu o’rinda bu sifat belgilarini ushbu brend asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ham tegishli hisoblanadi. “G” harfini ichidagi nafis yuzli, latofatli xilqat bu ayoldir.Ayol go’zallik va nafosat, mehr-muxabbat ramzidir.





Poyabzal oyoq panjasini to’liq qoplaydi. Klassik uslubga xos bo’lib , ish va rasmiy uchrashuvlar uchun mo’ljallangan .

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda bu sohada keskin ko’plab o’zgarishlar bo’ldi. Shu o`rinda, “Men ushbu sohaga kelajakda o’zimni hissamni qo’shmoqchiman, negaki shu kasbni juda qadrlayman. Shuning uchun o’zimning brendimni yaratgan holda, bu sohaning rivojlanishiga hissamni qo’shmoqchiman. Men yaratadigan poyabzallar erkaklar uslubiga xos bo’lib, ekskuliziv, dizayn, qiymatli, sifatli, hamyonbop, raqobatdosh va eksportbop tayyor mahsulotni yaratish maqsadim bor. Bilamizki, hozirgi kunda bu sohaga bo’lgan talab ko’pligi va kuchayganligi uchun, charm-poyzabzal sohasi rivojlanib, mahsulot sifati yaxshilanib borayotgani, rivojlanishdan dalolat beradi. Men ushbu imkoniyatlardan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

foydalanib, moda tendensiyalarini o'rgangan holda jahon bozorida eksport hajmini oshiriib, jahon standartlariga mos keladigan yanada yangi dizayndagi poyabzallarni yaratish maqsadim bor" - deb loyiha muallifi yosh dizayner sifatida ushbu fikrlarini bildirmoqchiman.

Kelajakda yosh dizayner ishlab chiqilgan erkaklar poyabzalining yangi dizayndagi loyihasini poyabzal ishlab chiqarish korxonalariga taqdim qilamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

Tadqiqot jarayonida barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, transport ekologiyasi, aqlli transport tizimlari, elektromobillik, energiya samaradorligi va multimodal transportga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Transport tizimlari bo‘yicha D. Banister, W. R. Black, P. Schiller, E. Bruun, J. Kenworthy, T. Litman, J.-P. Rodrigue kabi olimlarning nazariy qarashlari asos sifatida olindi. Shuningdek, BMT, Jahon banki, Yevropa Komissiyasi va Xalqaro transport forumi tomonidan ilgari surilgan barqaror transportga oid strategik yondashuvlar umumlashtirildi. Tahlil davomida ekologik omillar transport tizimlarining barqarorlik mezonlarini belgilovchi yo‘nalishlar sifatida, texnologik omillar esa bu mezonlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlar sifatida ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, barqaror transport tizimlarini rivojlantirishda ekologik va texnologik omillarni alohida yo‘nalish sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiruvchi va umumiy natijaga yo‘naltirilgan kompleks jarayon sifatida talqin qilish zarur. Transport sohasidagi ekologik muammolar ko‘pincha texnologik rivojlanish darajasi, infratuzilma sifati, energiya manbalari, boshqaruv usullari va foydalanuvchi xulq-atvori bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Masalan, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarni kamaytirish faqat transport vositasining turiga emas, balki yo‘l harakati tashkiloti, tirbandlik darajasi, yoqilg‘i sifati, jamoat transporti samaradorligi, logistika marshrutlarining optimalligi va transport oqimlarini raqamli boshqarish imkoniyatlariga ham bog‘liq.

Ekologik omillar barqaror transport tizimlarining strategik maqsadlarini belgilaydi. Transportdan chiqadigan karbonat angidrid miqdorini kamaytirish, havoning sifatini yaxshilash, shovqin ifloslanishini pasaytirish, yoqilg‘i sarfini kamaytirish, tabiiy landshaft va biologik xilma-xillikka ta’sirni cheklash shular jumlasidandir. Biroq ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun texnologik vositalar zarur. Texnologik omillar esa ekologik maqsadlarni real transport siyosati va muhandislik yechimlariga aylantiradi. Shu ma’noda ekologik va texnologik integratsiya barqaror transportning nazariy mazmunini amaliy loyiha va boshqaruv tizimiga bog‘lovchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Elektromobillik ekologik va texnologik integratsiyaning eng ko‘p muhokama qilinadigan yo‘nalishlaridan biridir. Elektr dvigatelli transport vositalari an’anaviy ichki yonuv dvigatellariga nisbatan shahar muhitida bevosita chiqindi gazlarni kamaytiradi, shovqin darajasini pasaytiradi va energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Biroq elektromobillarni barqaror transportning yagona yechimi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan yetarli emas. Elektromobillikning ekologik samarasi elektr energiyasi qanday manbadan olinishi, akkumulyator ishlab chiqarish va utilizatsiya qilish tizimi qanday tashkil etilishi, zaryadlash infratuzilmasi qanchalik rivojlangani va transport siyosati jamoat transporti bilan qanday uyg‘unlashganiga bog‘liq. Demak, elektromobil texnologiyasi ekologik maqsadga xizmat qilishi uchun u qayta tiklanuvchi energiya, aqlli zaryadlash tizimlari, batareya resurslarini qayta ishlash va multimodal transport siyosati bilan integratsiyalashgan bo‘lishi lozim.

Vodorod transporti ham ekologik-texnologik integratsiyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, og‘ir yuk transporti, uzoq masofali tashuvlar va ayrim sanoat-logistika segmentlarida vodorod texnologiyalarining imkoniyatlari yuqori baholanadi. Vodorod yoqilg‘i elementlari yordamida ishlaydigan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

transport vositalari foydalanish jarayonida asosan suv bug‘i ajratadi, bu esa ularni ekologik nuqtayi nazardan jozibador qiladi. Ammo vodorod ishlab chiqarish jarayonining o‘zi ham ekologik mezonlarga javob berishi kerak. Agar vodorod qazilma yoqilg‘ilar asosida ishlab chiqarilsa, uning umumiy ekologik samaradorligi pasayadi. Shu sababli yashil vodorod texnologiyalarini qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan bog‘lash transport tizimlarining barqaror rivojlanishida muhim shart hisoblanadi.

Aqlli transport tizimlari ekologik va texnologik integratsiyaning yana bir muhim yo‘nalishini tashkil etadi. Sensorlar, videokuzatuv, GPS monitoring, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va real vaqt rejimidagi boshqaruv vositalari transport oqimlarini optimallashtirish orqali tirbandlikni kamaytiradi, ortiqcha yoqilg‘i sarfini cheklaydi va harakat xavfsizligini oshiradi. Raqamli boshqaruv tizimlari svetoforlarni moslashuvchan tartibda boshqarish, jamoat transportiga ustuvorlik berish, avtoturargohlarni samarali tashkil etish, yuk tashish marshrutlarini optimallashtirish va favqulodda holatlarda tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi. Natijada transportning ekologik yuklamasi kamayadi va tizimning umumiy samaradorligi ortadi.

Raqamli modellashtirish va “raqamli egizak” texnologiyalari barqaror transport loyihalashda alohida ahamiyatga ega. Transport infratuzilmasini qurish yoki modernizatsiya qilishdan oldin uning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini raqamli muhitda modellashtirish mumkin. Bu orqali yo‘l tarmoqlarining yuklanishi, jamoat transporti marshrutlari, piyodalar oqimi, veloinfratuzilma samaradorligi, chiqindi gazlar tarqalishi, shovqin zonalari va energiya sarfi oldindan baholanadi. Bunday yondashuv transport loyihalarida xatoliklarni kamaytiradi, resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi va ekologik xavflarni oldindan aniqlash imkonini yaratadi.

Multimodal transport tizimlari ham ekologik va texnologik integratsiyaning muhim natijasi hisoblanadi. An’anaviy transport siyosati ko‘pincha xususiy avtomobilga tayanadi, bu esa tirbandlik, yoqilg‘i sarfi va havoning ifloslanishini kuchaytiradi. Multimodal transport esa jamoat transporti, metro, tramvay, avtobus, temir yo‘l, velotransport, piyoda harakati, mikromobillik va avtomobil almashish xizmatlarini yagona tizimda uyg‘unlashtiradi. Raqamli platformalar, mobil ilovalar va elektron to‘lov tizimlari turli transport turlarini bir foydalanuvchi tajribasida birlashtirish imkonini beradi. Natijada shaxsiy avtomobilga qaramlik kamayadi, transportdan foydalanish qulaylashadi va ekologik yuklama pasayadi.

Yashil infratuzilma tushunchasi ham barqaror transportni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Transport yo‘laklarini loyihalashda daraxtzorlar, yashil hududlar, shovqin to‘siqlari, yomg‘ir suvlarini boshqarish tizimlari, energiya tejamkor yoritish, quyosh panellari, ekologik qoplamalar va piyodalar uchun qulay muhitni hisobga olish zarur. Bunday infratuzilma transport tizimining ekologik zararini kamaytirish bilan birga, shahar mikroiqlimini yaxshilaydi, aholining salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va urbanistik muhit sifatini oshiradi. Demak, barqaror transport tizimlari faqat transport vositalarini modernizatsiya qilish bilan emas, balki butun infratuzilmani ekologik va texnologik jihatdan qayta tashkil etish bilan bog‘liq.

Ekologik va texnologik omillarning integratsiyasi barqaror transport tizimlarini rivojlantirishda metodologik burilish yasaydi. An’anaviy yondashuvda ekologik talablar

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ko‘pincha transport loyihasining yakuniy bosqichida, ya’ni atrof-muhitga ta’sirni baholash jarayonida ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy yondashuvda esa ekologik mezonlar loyihalashning dastlabki bosqichidan boshlab texnologik qarorlar bilan birgalikda hisobga olinadi. Bu transport tizimining faqat qurilganidan keyin emas, balki loyihalanish jarayonidayoq barqarorlik talablariga mos bo‘lishini ta’minlaydi.

Mazkur integratsiya muhandislik ta’limi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak muhandislar transport tizimlarini loyihalashda faqat geometrik o‘lchamlar, transport oqimi yoki konstruktsion mustahkamlikni hisoblash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ular ekologik xavflarni baholash, energiya samaradorligini aniqlash, raqamli modellashtirish dasturlaridan foydalanish, aqlli transport tizimlarini loyihaga kiritish, multimodal aloqadorlikni ta’minlash va texnologik yechimlarning uzoq muddatli ekologik natijalarini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Shu jihatdan ekologik va texnologik integratsiya loyihalash kompetentligining asosiy tarkibiy qismiga aylanadi.

Barqaror transport tizimlarini rivojlantirishda texnologik optimizmga haddan tashqari berilib ketish ham xavfli bo‘lishi mumkin. Har qanday yangi texnologiya avtomatik tarzda barqarorlikni ta’minlamaydi. Masalan, elektromobillar transport chiqindilarini kamaytirishi mumkin, biroq agar ular shaxsiy avtomobilga qaramlikni yanada kuchaytirsa, shahar makonining avtomobillashuvini davom ettirsa yoki elektr energiyasi qazilma yoqilg‘ilar hisobiga ishlab chiqarilsa, umumiy barqarorlik darajasi yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun texnologik innovatsiyalar ekologik siyosat, jamoat transportini rivojlantirish, urbanistik rejalashtirish va foydalanuvchi xulq-atvorini o‘zgartirish bilan birga amalga oshirilishi kerak.

Ekologik yondashuv ham texnologik imkoniyatlardan ajralgan holda samarali bo‘la olmaydi. Masalan, chiqindi gazlarni kamaytirish maqsadi aniq bo‘lsa-da, uni amalga oshirish uchun transport oqimlarini monitoring qilish, emissiya darajasini o‘lchash, energiya sarfini hisoblash, transport vositalarining texnik holatini nazorat qilish va marshrutlarni optimallashtirish zarur. Bularning barchasi raqamli texnologiyalar, sensor tizimlar, ma’lumotlar bazasi va avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalarini talab qiladi. Demak, ekologik talab texnologik mexanizm orqali amaliy natijaga aylanadi.

O‘zbekiston sharoitida ham ekologik va texnologik integratsiya dolzarb ahamiyatga ega. Yirik shaharlarda avtomobillar sonining ortishi, tirbandlik, havoning ifloslanishi, jamoat transportini modernizatsiya qilish zarurati va energiya samaradorligi masalalari transport sohasida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Elektr avtobuslar, gaz va elektr transport vositalari, raqamli yo‘l harakati boshqaruvi, elektron to‘lov tizimlari, GPS monitoring, aqlli svetoforlar va ekologik standartlarga mos infratuzilma mahalliy transport tizimlarini barqarorlashtirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin. Biroq bu texnologiyalar yagona strategik konsepsiya asosida, ya’ni ekologik maqsadlar, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘un holda joriy etilishi lozim.

Transport tizimlarida ekologik va texnologik integratsiyaning samaradorligi, avvalo, indikatorlar tizimi orqali baholanishi kerak. Bunda karbonat angidrid chiqindilari, yoqilg‘i sarfi, transport oqimi tezligi, tirbandlik davomiyligi, jamoat transportidan foydalanish ulushi, piyoda va velosiped infratuzilmasi sifati, yo‘l-transport hodisalari soni, energiya tejamkorlik darajasi va foydalanuvchilar qoniqishi kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

indikatorlar transport loyihalarining faqat texnik bajarilishini emas, balki ularning ekologik va ijtimoiy natijadorligini ham baholash imkonini beradi.

Shu asosda aytish mumkinki, barqaror transport tizimlarini rivojlantirishda ekologik va texnologik omillarning integratsiyasi alohida texnik loyiha emas, balki keng qamrovli boshqaruv va ta'limiy-metodologik jarayondir. U transport siyosati, muhandislik loyihalash, shaharsozlik, energetika, ekologiya, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy rejalashtirishni yagona konseptual maydonda birlashtiradi. Aynan shu integratsion yondashuv transport tizimlarining kelajakdagi barqarorligini ta'minlaydi.

Barqaror transport tizimlarini rivojlantirishda ekologik va texnologik omillarning o'zaro integratsiyasi transport sohasining zamonaviy taraqqiyot yo'nalishini belgilovchi asosiy metodologik tamoyillardan biridir. Ekologik omillar transport tizimlarining atrof-muhitga zararini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, havoning ifloslanishini cheklash, shovqin darajasini pasaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan strategik maqsadlarni belgilaydi. Texnologik omillar esa ushbu maqsadlarni elektromobillik, vodorod transporti, aqlli transport tizimlari, raqamli modellashtirish, multimodal platformalar, ekologik monitoring va yashil infratuzilma orqali amaliy natijaga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror transportga erishish uchun ekologik talablar va texnologik innovatsiyalarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Texnologiyasiz ekologik maqsadlar deklarativ xarakterda qoladi, ekologik mezonlarsiz esa texnologik yangiliklar transport tizimining haqiqiy barqarorligini ta'minlamaydi. Shu bois barqaror transport tizimlari ekologik xavfsizlik, texnologik innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy qulaylik uyg'unligida shakllanishi kerak.

Muhandislik ta'limi uchun mazkur xulosa alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda ekologik fikrlash, texnologik ijodkorlik, raqamli modellashtirish, tizimli tahlil va barqaror loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish zarur. Barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligining mazmuni aynan ekologik va texnologik omillarning integratsiyasini anglash, baholash va amaliy loyiha yechimlariga tatbiq etish qobiliyati bilan belgilanadi. Shunday qilib, ekologik va texnologik integratsiya barqaror transport tizimlarini rivojlantirishning nafaqat texnik, balki ilmiy-pedagogik va metodologik asosi sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Banister D. Unsustainable Transport: City Transport in the New Century. — London: Routledge, 2005. — 320 p.
2. Banister D. The Sustainable Mobility Paradigm // Transport Policy. — 2008. — Vol. 15, № 2. — P. 73–80.
3. Black W. R. Sustainable Transportation: Problems and Solutions. — New York: Guilford Press, 2010. — 299 p.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

4. Schiller P. L., Bruun E. C., Kenworthy J. R. An Introduction to Sustainable Transportation: Policy, Planning and Implementation. — London: Earthscan, 2010. — 352 p.
5. Rodrigue J.-P. The Geography of Transport Systems. — 5th ed. — New York: Routledge, 2020. — 456 p.
6. Litman T. Well Measured: Developing Indicators for Sustainable and Livable Transport Planning. — Victoria: Victoria Transport Policy Institute, 2023. — 118 p.
7. Sperling D., Gordon D. Two Billion Cars: Driving Toward Sustainability. — Oxford: Oxford University Press, 2009. — 320 p.
8. Geels F. W. The Dynamics of Transitions in Socio-Technical Systems: A Multi-Level Analysis of the Transition Pathway from Horse-Drawn Carriages to Automobiles // Technology Analysis & Strategic Management. — 2005. — Vol. 17, № 4. — P. 445–476.
9. United Nations. Sustainable Transport, Sustainable Development: Interagency Report for the Second Global Sustainable Transport Conference. — New York: United Nations, 2021. — 139 p.
10. World Bank. Global Mobility Report 2017: Tracking Sector Performance. — Washington, DC: World Bank, 2017. — 220 p.
11. European Commission. Sustainable and Smart Mobility Strategy: Putting European Transport on Track for the Future. — Brussels: European Commission, 2020. — COM(2020) 789 final.
12. OECD, International Transport Forum. ITF Transport Outlook 2023. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 250 p.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

KORRUPSIYANING JAMIYAT HAYOTI TARAQQIYOTIDAGI ASOSIY G‘OVI

Obidov Mirjon Tal’at o‘g‘li, Buxoro davlat pedagogika institute Ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitish metodikasi (huquq ta’limi) yo‘nalishi 2-kurs magistranti, Buxoro, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Kirish: yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida inson qadr-qimmatini yuksaltirish, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Biroq ushbu jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri korrupsiya hisoblanadi.

Maqsad: korrupsiyaning tarixiy ildizlari, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri hamda unga qarshi kurashish mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va metodlar: tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy-tahliliy yondashuv, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar o‘rganildi.

Muhokama va natijalar: korrupsiya jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va islohotlar samaradorligining pasayishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda jamoatchilik nazorati va ma’naviy qadriyatlarning muhimligini ko‘rsatdi.

Xulosa: korrupsiyaga qarshi kurash tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda huquqiy, institutsional va ma’naviy omillar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, jamiyat, qonun ustuvorligi, Transparency International, BMT Konvensiyasi, jamoatchilik nazorati, huquqiy ong.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОРРУПЦИИ КАК ОСНОВНОГО ПРЕПЯТСТВИЯ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Обидов Миржон Талъат угли, магистрант Бухарского государственного педагогического института, Бухара, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Введение: в процессе построения Нового Узбекистана особое внимание уделяется обеспечению справедливости и верховенства закона. Однако коррупция остаётся серьёзным препятствием на пути развития общества.

Цель: анализ исторических корней коррупции и механизмов борьбы с ней.

Материалы и методы: использованы сравнительно-аналитический, исторический методы и анализ нормативно-правовых документов.

Результаты: установлено, что коррупция приводит к социальной несправедливости и снижает эффективность реформ.

Заключение: борьба с коррупцией требует комплексного подхода и активного участия общества.

Ключевые слова: коррупция, общество, верховенство закона, контроль, правосознание.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

CORRUPTION AS A MAJOR OBSTACLE TO SOCIAL DEVELOPMENT

Obidov Mirjon Tal'at ogli, Master's student of Bukhara State Pedagogical Institute, Uzbekistan

ANNOTATION

Introduction: in the process of building New Uzbekistan, ensuring justice and the rule of law is a priority. However, corruption remains a serious obstacle to development.

Aim: to analyze the origins of corruption and mechanisms to combat it.

Materials and Methods: comparative, historical and analytical methods were applied.

Discussion and Results: corruption leads to inequality and reduces the effectiveness of reforms.

Conclusion: combating corruption requires a comprehensive and systemic approach.

Keywords: corruption, society, rule of law, public control, legal awareness.

Asosiy qism. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida korrupsiya nafaqat milliy, balki global miqyosdagi muammoga aylanib bormoqda. U davlat boshqaruvi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishiga jiddiy to'sqinlik qiladi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Korrupsiya tushunchasi lotincha *"corruptio"* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "buzilish", "yemirilish" degan ma'nolarni anglatadi. Ilmiy manbalarda u turli shakllarda talqin qilinadi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiya davlat hokimiyatidan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish sifatida izohlanadi[1]. Shuningdek, Transparency International xalqaro tashkiloti tomonidan korrupsiya "ishonib topshirilgan vakolatni shaxsiy manfaat uchun suiiste'mol qilish" deb ta'riflanadi[2].

Tarixiy manbalar korrupsiya qadimdan mavjud bo'lgan ijtimoiy illat ekanligini ko'rsatadi. Xususan, eramizdan avvalgi davrlarda Shumer podsholigida ham mansabdor shaxslarning pora olish holatlari qayd etilgan. Keyinchalik bu holat turli davlatlar, jumladan, Usmoniylar saltanatida ham keng tarqalgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, ayrim amaldorlar davlat lavozimlarini pul evaziga sotgan, bu esa davlat boshqaruvi tizimining izdan chiqishiga olib kelgan. Natijada davlatning harbiy va siyosiy qudrati zaiflashgan[3].

Korrupsiyaning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri ko'p qirrali hisoblanadi. Birinchidan, u ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi. Fuqarolar o'rtasida teng imkoniyatlar buzilib, jamiyatda norozilik kayfiyati ortadi. Ikkinchidan, korrupsiya iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi, investitsion muhitni yomonlashtiradi va tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qiladi. Uchinchidan,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi, bu esa demokratik institutlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi[4].

Shuningdek, korrupsiya huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasiga ham salbiy ta’sir qiladi. Agar jamiyatda korrupsiya keng tarqalgan bo‘lsa, fuqarolar qonunlarga bo‘lgan hurmatni yo‘qotadi va huquqiy nigilizm kuchayadi. Bu esa jamiyatda tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat jazolash choralarini qo‘llash yetarli emas, balki fuqarolarning huquqiy ongini oshirish ham muhim ahamiyatga ega[5].

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik muhim o‘rin tutadi. BMT, Jahon banki, Transparency International kabi tashkilotlar tomonidan turli dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar korrupsiyani kamaytirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash va hisobdorlikni oshirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, ushbu sohada huquqiy asoslar mustahkamlandi[6]. Shuningdek, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va faol fuqarolar korrupsion holatlarni aniqlash va ularning oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik kayfiyatini shakllantirish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda ma’naviy-axloqiy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Halollik, adolat, vijdonlilik kabi qadriyatlar inson xulq-atvorining asosini tashkil etadi. Agar jamiyatda ushbu qadriyatlar ustuvor bo‘lsa, korrupsiya holatlari sezilarli darajada kamayadi. Shu sababli yosh avlodni halollik ruhida tarbiyalash korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, korrupsiya murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, unga qarshi kurashish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy choralar uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to‘sqinlik qiluvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. U davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiribgina qolmay, balki iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi, ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi hamda fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini izdan chiqaradi. Shu bois korrupsiyani faqat alohida huquqbuzarlik sifatida emas, balki tizimli xavf sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, korrupsiyaning kelib chiqish sabablari ko‘p omilli bo‘lib, ular orasida huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada ishlamasligi, institutsional kamchiliklar, iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi hamda fuqarolarning huquqiy ong va madaniyat darajasining pastligi muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya hatto kuchli davlatlarning ham tanazzuliga olib kelishi mumkin.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat jazolash choralariga tayanish yetarli emasligi asoslandi. Aksincha, bu jarayon kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, samarali huquqiy baza yaratish, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari korrupsiyaga qarshi kurashishda ma'naviy-axloqiy omillarning o'rni nihoyatda muhim ekanligini ko'rsatdi. Halollik, adolat, vijdonlilik kabi qadriyatlarni jamiyatda ustuvor darajaga ko'tarish, ayniqsa yosh avlodni ushbu ruhda tarbiyalash korrupsiyaning oldini olishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda, ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining faol ishtiroki muhim rol o'ynaydi. Jamoatchilik nazoratining kuchayishi davlat organlari faoliyatida hisobdorlikni oshiradi va korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, 2003-yil.
2. Transparency International, Corruption Perceptions Index metodologiyasi.
3. Zufarov R.A. va boshq. Korrupsiya: qonun va javobgarlik. Toshkent, 2011.
4. Safarov T. Davlat organlarida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish. Toshkent, 2020.
5. Yuridik ensiklopediya. Toshkent: Sharq, 2001.
6. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI VA YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH METODLARI

Azimova Kamola Karimovna, BuxDU tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Kirish: ushbu maqolada mamlakatimizda bugungi ta'lim tizimini rivojlantirish borasida islohotlar davomli amalga oshirilayotgan bir zamonda, yoshlarni tarbiyalashda ajdodlarimizning boy me'rosidan unumli foydalanish borasida bir qadar fikr mulohazalar yuritilgan. Nafaqat mintaqamiz balki butun musulmon olamining yetuk pirlarini shogird tarbiyasidagi fikr-mulohazalari va ulkan tajribalari ham mazkur maqolada misollar yordamida keltiriladi. Bugungi kundagi ta'lim-tarbiyani ajdodlarimiz tajribasisiz tasavvur qilib bo'lmasligini tarixiy dalillar ham ko'rsatishiga yana bir bora amin bo'ldik.

Maqsad: jadidlarni boshlang'ich ta'limni tashkil etishdagi tajribalarni zamonaviy pedagogik metodikalar bilan uyg'unlashtirib, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy faolligini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish

Materiallar va metodlar: maqolada olib borilayotgan Turkiston jadidlarining boshlang'ich ta'lim tizimini zamonaviy fan texnologiyalari bilan uyg'unlashtirgan holda tashkil etishda taqdim etilayotgan metodikani qay darajada o'zlashtira olish va ularni bu fanni o'zlashtirishdagi qulayliklar va qiyinchiliklarni o'rganishdan keyingi ta'sir qilishini tahlil qilish uchun yaratilgan metodikani amaliyotga tadbiq etish uchun birqancha uchrashuvlar tashkil qilindi.

Muhokama va natijalar: to'plangan materiallar o'rganilish natijasida Turkistonda jadidchilik harakati va hozirgi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshib borishdagi pedagogik metodikasidan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlari aniqlandi. Boshlang'ich ta'lim tizimini yanada sifat darajasini oshirish uchun milliy tarixiy tajribani ayniqsa jadidlarning pedagogik qarashlarini amaliyotga joriy qilish har doimgidan ham muhimroq hisoblanadi. Zamonaviy pedagogikada zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda jadidlarning konsepsiyalaridan samarali foydalanishning metodikasini amaliyotga tadbiq qilishning birqancha metodlari samarali ochib berilganligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni to'laqonli egallashga ko'maklashadi.

Xulosa: jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari xalqning milliy ongini yuksaltirish, savodxonlikni oshirish va ozodlikka intilishini kuchaytirishda muhim omil bo'ldi. Ular ta'lim, matbuot va madaniyat vositalari orqali jamiyatni yangilashga xizmat qildilar. Jadidlarning fidokorona faoliyati bugungi kunda ham o'z ahamiya tini yo'qotmagan bo'lib, ularning boy merosi yosh avlodni vatanparvarlik, ma'naviy yetuklik va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat, mafkura, vatanga muhabbat, ulamolar, din peshvolari, tarixiy xotira, globallashuv, boshlang'ich ta'lim, axloq, marifat.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В ТУРКЕСТАНЕ И МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ

Азимова Камола Каримовна, базовый докторант Бухарского государственного университета

АННОТАЦИЯ

Введение: в данной статье рассматриваются некоторые вопросы эффективного использования богатого духовного и образовательного наследия наших предков в воспитании молодёжи в условиях продолжающихся реформ, направленных на развитие современной системы образования в нашей стране. В статье на примерах представлены взгляды и богатый опыт великих учёных и духовных наставников не только нашего региона, но и всего мусульманского мира в воспитании учеников. Исторические факты ещё раз подтверждают, что современное образование и воспитание невозможно представить без опыта и наследия наших предков.

Цель: разработка механизмов формирования гражданской позиции и социальной активности молодёжи путём интеграции опыта джадидов в организации начального образования с современными педагогическими методиками.

Материалы и методы: для внедрения методики, представленной в статье, были организованы различные встречи и практические мероприятия, направленные на организацию системы начального образования туркестанских джадидов в сочетании с современными научно-технологическими подходами. В ходе исследования анализировалась степень усвоения предложенной методики обучающимися, а также изучались удобства и трудности в процессе освоения предмета и их влияние на эффективность обучения.

Обсуждение и результаты: в результате изучения собранных материалов были выявлены педагогические возможности эффективного использования педагогической методики джадидского движения в Туркестане для повышения социальной активности современной молодёжи. Для дальнейшего повышения качества системы начального образования особенно важным является внедрение национального исторического опыта, в частности педагогических взглядов джадидов, в образовательную практику. В статье подробно раскрыты методы внедрения концепций джадидов в современную педагогику с использованием современных технологий, что способствует полноценному усвоению знаний учащимися начальных классов.

Заключение: джадидское движение занимает важное место в социально-политическом и духовном развитии народов Туркестана. Просветительские идеи, выдвинутые джадидами, сыграли значительную роль в повышении национального самосознания, уровня грамотности и стремления народа к свободе. Через образование, прессу и культуру они способствовали обновлению общества. Самоотверженная деятельность джадидов не утратила своей актуальности и сегодня, а их богатое наследие продолжает служить важным источником воспитания

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

молодого поколения в духе патриотизма, духовной зрелости и самостоятельного мышления.

Ключевые слова: воспитание, образование, воспитание молодёжи, духовность, идеология, любовь к Родине, учёные, религиозные деятели, историческая память, глобализация, начальное образование, нравственность, просвещение.

THE JADID MOVEMENT IN TURKISTAN AND METHODS FOR INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY

Azimova Kamola Karimovna, Doctoral Researcher of Bukhara State University

ANNOTATION

Introduction: this article discusses several considerations regarding the effective use of the rich spiritual and educational heritage of our ancestors in educating young people during the ongoing reforms aimed at improving the education system in our country. The views and extensive experiences of the great scholars and spiritual leaders of not only our region but also the entire Muslim world in the upbringing of disciples are illustrated through examples in the article. Historical evidence once again confirms that modern education and upbringing cannot be imagined without the experience and heritage of our ancestors.

Purpose: the purpose of the study is to develop mechanisms for forming the civic position and social activity of young people by integrating the experiences of the Jadids in organizing primary education with modern pedagogical methodologies.

Materials and Methods: several meetings and practical activities were organized in order to implement the methodology presented in the article, which is aimed at organizing the primary education system of the Turkistan Jadids in harmony with modern scientific and technological approaches. The study analyzed the extent to which learners could master the proposed methodology, as well as the conveniences and difficulties encountered in learning the subject and the impact of these factors on educational effectiveness.

Discussion and Results: as a result of studying the collected materials, the pedagogical possibilities of effectively using the pedagogical methodology of the Jadid movement in Turkistan for increasing the social activity of modern youth were identified. In order to further improve the quality of the primary education system, it is more important than ever to introduce national historical experiences, especially the pedagogical views of the Jadids, into educational practice. The article effectively reveals several methods of implementing the methodology of using Jadid concepts in modern pedagogy through contemporary technologies, which contributes to the comprehensive acquisition of knowledge by primary school students.

Conclusion: the Jadid movement occupies an important place in the socio-political and spiritual development of the peoples of Turkistan. The enlightenment ideas promoted by the Jadids played a significant role in raising national consciousness, increasing

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

literacy, and strengthening aspirations for freedom among the people. Through education, the press, and cultural activities, they served the renewal of society. The selfless activities of the Jadids have not lost their significance even today, and their rich heritage continues to serve as an important source in educating the younger generation in the spirit of patriotism, spiritual maturity, and independent thinking.

Keywords: upbringing, education, youth upbringing, spirituality, ideology, love for the Motherland, scholars, religious leaders, historical memory, globalization, primary education, morality, enlightenment.

Mustaqillik sharoitida jamiyatni har tomonlama yangilash, milliy tiklanish va ma'naviy yuksalish jarayonlari ta'lim-tarbiya tizimiga katta mas'uliyat yuklamoqda. Ayniqsa, erkin fikrlaydigan, milliy o'zlikni chuqur anglagan va demokratik tafakkurga ega avlodni tarbiyalashda pedagogika fanining o'rni beqiyosdir. Bu jarayonda tarixiy tajriba, xususan jadidchilik harakati merosi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatni jaholatdan chiqarish, ma'rifat orqali taraqqiyotga yetaklash va mustaqillikka erishish g'oyalarini ilgari surdi. Ushbu harakat vakillari xalq ongini uyg'otish, ta'lim tizimini isloh qilish hamda milliy g'oyani shakllantirish yo'lida keng ko'lamli faoliyat olib bordilar.

Mustaqillik sharoitida va tub islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy tiklanish, ma'naviy yangilanish, milliy o'zlik va o'ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab yetgan, erkin demokratik tafakkurga ega bo'lgan va mustahkam milliy g'oya kuchi bilan birlashgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda pedagogika fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda.

Tahlil va mulohazalar. XIX asr oxiri va XX boshlarida Turkiston ijtimoiy siyosiy hayotida jadidchilik keng quloch yoyib rivojlandi. Millat taqdiri va kelajagi haqida qayg'urgan ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l bu xalqning ma'rifatini uyg'otish deb bildilar. Ular xalqni ma'rifatli qilmasdan turib, mustaqillikni qo'lga kiritib bo'lmaydi deb hisoblaganlar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, mustamlakachilik zulmi ostida hayot kechirayotgan, har tomonlama taraqqiyotdan orqada qolib borayotgan halqlarni ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlar boshlandi.

Butun turkiy halqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi qrim – tatar ma'rifatparvari Ismoil G'aspirali bo'ldi. U musulmon xalqlarining maktab va madrasalarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga diniy ta'lim, arab, fors va rus tillari, tibbiyot, kimyo, tabobat kabi fanlarni o'rganishi zarur degan g'oyani ilgari suradi.

Ismoil G'aspirali 1884 yilda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida birinchi jadid maktabiga asos soldi, u o'zi tuzgan ta'lim dasturlar asosida darslik tayyorladi. Shu dasturi asosida 40 kunda 12 o'quvchining savodi chiqarilgan. Bu usul "usuli – savtiya" – "harf tovush usuli" ya'ni "usuli jadid" nomi bilan keng tarqaldi.[5:185.]

Bu maktabning ochilishi Turkiston ziyolilari harakatining boshlanishi edi. Ismoil G'aspiralining Samarqand, Buxoro, Toshkent hududlarida bo'lib, bu yerlarda olib borgan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

tushuntirish va targ‘ibot ishlari natijasida bu yerlarda ham yangi usul maktablari tashkil etila boshladi. Fozil domla, Mo‘minxo‘ja Vopkandiy, Mulla Xudoyberdi Boysuniy kabilar Ismoil G‘aspiralining ilk izdoshlari bo‘lib, ularning sa’y- harakatlari bilan Turkiston hududida ham jadid maktablari tashkil etildi.

Turkistonda vujudga kelgan jadidlarning faoliyati faqatgina maktablar ochish bilan cheklanmadi. Ular halqning milliy g‘oyasini rivojlantirishga katta e’tibor berdilar. Chunki milliy g‘oya xalq ommasini bir maqsad yo‘lida birlashtirishda uning ozodligi va istiqloli uchun kurashga hamda milliy davlat barpo etishga yo‘naltiriladigan kuch hisoblanadi. Jadidlar Turkiston xalqlari uchun yo‘l ochib, beruvchi milliy g‘oyani shakllantirishga harakat qildilar, shu bilan birgalikda Turkistonni o‘rta asrga xos qoloqlik va diniy hurofotdan ozod qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, ozod va farovon jamiyat qurishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan edilar. Turkiston jadidlari dastlab, o‘lkada yangi usul maktablarni ko‘paytirish, qobiliyati yoshlarni rivojlangan chet davlatlariga o‘qishga yuborish orqali ularning bilish salohiyatini va fikr doirasini kengaytirish, turli madaniy va ma’rifiy jamiyat va tashkilotlar tuzish, gazeta va jurnallar chop etib, xalqning ijtimoiy – siyosiy ongini oshirishga harakat qildilar.[5:185]

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Andijon, Qo‘qon kabi shaharlar markazlariga aylandi. Bu shaharlarda yashirin tarzda tashkilotlar tuzilib, jadidchilikning yoyilishi uchun xizmat qilgan. Bu tashkilotlar “taraqiyotparvarlar”, “padarkushchilar”, “yosh o‘zbeklar”, “yosh buxoroliklar”, “yosh xivaliklar” nomi bilan mashhur edi. Bu tashkilotlar oxir oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oldi. Bu tashkilotlar dastlab yashirin tarzda faoliyat olib borgan. Sekin-astalik bilan bu tashkilotlarning a’zolari soni ortib borgan. Bu tashkilotlar o‘lkada jadidchilikning keng yoyilishi uchun xizmat qilgan.[4:183.]

Jadidchilik g‘oyalarining halq orasida keng yoyilishida ommaviy, vaqtli nashrlarning ham o‘rni beqiyosdir. “Tarjimon”, “Vaqt”, “Yulduz”, “Siroti Mustaqim”, “Najot”, “Kengash”, “Hurriyat”, “Haqiqat”, “Turon”, kabi bir qator gazeta va jurnallar orqali jadidlarning g‘oyalari mazmuni va ro‘y berayotgan voqealar xalq ommasiga yetkazib turilgan.[4:293-295.]

Jadidlar o‘z nashrlarida jahonda va Turkiston hududlarida sodir bo‘layotgan voqealar haqida hikoya qilib berilgan. Bu bilan jahonda bo‘layotgan rivojlanish, ilm-fan va madaniy yutuqlar halqqa yetkazib berilgan. Bundan tashqari, o‘z g‘oyalari mazmunini va ularni keng yoyish kerak ekanligini tushuntirib berganlar. Yangi usul maktablarining afzallik tomonlarini milliy kadrlar tayyorlash va yosh avlodni o‘qitishdagi ahamiyati naqadar muhim ekanligini ko‘rsatib bergan. O‘lkada va xorijda yuz berayotgan savdo sotiq, sanoat va qurilish ho‘jaligi sohalaridagi yutuq va rivojlanishlarning taqqoslash va qiyoslash tahlillari yoritilgan maqolalar e’lon qilindi. Bu bilan Turkiston o‘lkasining jahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini ko‘rsatishga harakat qilganlar va xalqni uyg‘onishga, taraqqiyot sari intilishga undaganlar.[3:42.]

Turkiston xalqining bunday taraqqiyotdan orqada qolib ketishining asosiy aybdorlari bo‘lgan mustamlakachi hukumatning asl qiyofasini ko‘rsatib berishga harakat qildilar.

Ma’rifatpavarlarning, halq ommasi orasida olib borayotgan targ‘ibot va tashviqot ishlarining yanada keng yoyilishida bu nashrlarning roli juda katta bo‘ldi. Ular orqali

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

jadidlarning g‘oyalari xalqning har bir qatlamiga;- hunarmand, dexqon, savdogar, mulkdor va ulamolar orasiga ham kirib bordi.

Jadidlar odamlarning milliy va siyosiy ongini yuksaltirishga qaratilgan sa’y-harakatlari xalq ommasiga katta ta’sir o‘tkazdi. Xalq orasida savodxonlik ortdi, madaniy-ma’rifiy sohada yuksalish kuzatildi. Xalqning milliy g‘urur, ozodlik, erk uchun qarashining kuchayishida ham jadidchilik g‘oyalarining o‘rni katta bo‘ldi.

Haqiqatdan ham jadidchilik namoyondalarining Vatanimiz tarixida, uning madaniy-ma’rifiy taraqqiyotida, xalqimizning ma’nan uyg‘onishida tutgan o‘rni beqiyosdir. Jadidlar Vatan, xalq, millat uchun ozod va farovon davlat qurish uchun o‘z jonlarini ham ayamay kurash olib borganlar. O‘lkadagi millatning dard- alamlarini ayanchli og‘ir qismatini o‘z qalbi va vujudi bilan his qilib, o‘zlarining butun borlig‘i, aql – zakovati va hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etganlar.[3:44.]

Jadidchilik harakati namoyondalari ma’rifatparvar kishilar edi. Ular jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob uqubatlarining asl sabablari deya talqin etdilar. Vatan mustaqilligini qo‘lga kiritish uchun halq farovonligiga erishish uchun eng avvalo millatni bunday illatlardan forig‘ qilish zarur edi. Buni yaxshi anglagan jadidlar, avvalo xalqning savodxonligini oshirishga, madaniyatini yuksaltirishga, milliy qadriyatlarni tiklashga, buyuk ajdodlarimizni ommaga tanitib, ular bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otishga, millatni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashga harakat qilganlar. Bunda Munavvar Qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon vaAbdurauf Fitrat kabi haqiqiy xalq farzandining xizmatlari beqiyosdir. Ular xalqqa yaqinlashish va o‘zlarining g‘oyalarini targ‘ib qilishning eng samarali usullaridan foydalanishga harakat qildi. Eng avvalo, yangi usul maktablarini ochib savodxonlikni oshirdi. Bundan tashqari matbuot, adabiyot va teatr orqali xalq orasiga kirib borib, ularni g‘aflatdan uyg‘otishga, ma’rifat urug‘ini sochishga kirishdilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Том I. Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
2. Ахмад Дониш. Главы из книги “Редкостные-события” / В кн: Путешествие из Бухары в Петербург,- Сталинабад, 1960.
3. Orif Usmon. Ma’naviyat chinorlari. – T.: Ma’naviyat; 1993.
4. Шамсиддинов Р. Каримов Ш. Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи. 2-китоб. Т.: Шарқ 2010.
5. Ҳолов А, Заманов А, Бекмуродов Н. Ўзбекистон тарихи фанидан мукаммал қўлланма. Т.: Давр пресс, 2010.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

AKTYORLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA ETYUD MASHQLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Bazarbay Nazarımbetov, O'zbekiston davlat sańat va madaniyat instituti Nukus filiali “Aktyorlik mahorati” kafedrasi mudiri, docent

ANNOTATSIYA

Kirish: aktyorlik ta’limi nazariy bilimlar bilan amaliy mashqlar uyg‘unligini talab qiladi. etyudlar, qisqa improvizatsion sahnalar sifatida, bo‘lajak aktyorlarning ijodiy va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Maqsad: etyud mashqlarining aktyor tayyorlashdagi pedagogik rolini o‘rganish va ularning ijodiy tafakkur hamda sahna ifodasini rivojlantirishdagi samaradorligini tahlil qilish.

Materiallar va metodlar: pedagogik tahlil, aktyorlik mashg‘ulotlarini kuzatish va teatr ta’limi amaliyotlarini interpretativ sintez qilish metodlari qo‘llanildi. etyud mashqlari bosqichlari, tuzilishi va natijalari ko‘rib chiqildi.

Natijalar va muhokama: etyudlar talabalarning improvizatsiya qilish, obraz yaratish va vaziyatni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. ular psixofizik erkinlikni, sahna e’tiborini va mustaqil ijodiy qaror qabul qilishni shakllantiradi. pedagogik jihatdan etyudlar nazariya va amaliyot o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, aktyorlik texnikasini tajribaviy o‘rganishga imkon yaratadi.

Xulosa: etyud mashqlari aktyor tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. ular ijodiy tafakkur, improvizatsiya va obraz yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, sahna madaniyati va mustaqil badiiy ifodani shakllantiradi. ularning pedagogik ahamiyati ijodkorlikni intizom bilan uyg‘unlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: aktyorlik mahorati, etyud, sahna san’ati, pedagogika, ijodiy tafakkur, improvizatsiya, obraz yaratish

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭТЮИД В ФОРМИРОВАНИИ АКТЕРСКОГО МАСТЕРСТВА

Базарбай Назарымбетов, заведующий кафедрой «Актерского мастерства» Нукусского филиала Узбекского государственного института искусств и культуры, доцент

АННОТАЦИЯ

Введение: актёрское образование требует сочетания теоретических знаний и практических упражнений. этюды, как короткие импровизационные сцены, являются уникальным педагогическим инструментом для развития творческих и профессиональных навыков будущих актёров.

Цель: изучить педагогическую роль этюдных упражнений в подготовке актёров и проанализировать их эффективность в формировании творческого мышления и сценического выражения.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Материалы и методы: применены методы педагогического анализа, наблюдения за актёрскими занятиями и интерпретативного синтеза театральных практик. этюды рассмотрены с точки зрения их этапов, структуры и результатов.

Результаты и обсуждение: исследование показало, что этюды развивают способность студентов к импровизации, созданию образов и анализу ситуаций. они формируют психофизическую свободу, сценическое внимание и самостоятельное творческое принятие решений. педагогически этюды служат мостом между теорией и практикой, позволяя студентам освоить актёрские техники через опытное обучение.

Заключение: этюдные упражнения являются важнейшей частью подготовки актёров. они развивают творческое мышление, импровизацию и навыки создания образа, формируют сценическую культуру и самостоятельное художественное выражение. их педагогическое значение заключается в интеграции творчества и дисциплины в театральном образовании.

Ключевые слова: актёрское мастерство, этюд, театральное искусство, педагогика, творческое мышление, импровизация, создание образа

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF ETUIDS IN THE FORMATION OF ACTING SKILLS

Azimova Kamola Karimovna, Doctoral Researcher of Bukhara State University

ANNOTATION

Introduction: acting education requires a balance between theoretical knowledge and practical exercises. etudes, as short improvisational scenes, provide a unique pedagogical tool for developing creative and professional skills in future actors.

Aim: to examine the pedagogical role of etude exercises in actor training and to analyze their effectiveness in fostering creative thinking and stage expression.

Materials and Methods: the study applies pedagogical analysis, observation of acting classes, and interpretative synthesis of theatre training practices. etude exercises are examined in terms of their stages, structure, and outcomes.

Results and Discussion: findings show that etudes enhance students' ability to improvise, create characters, and analyze situational contexts. they foster psychophysical freedom, stage attention, and independent creative decision-making. pedagogically, etudes serve as a bridge between theory and practice, helping students internalize acting techniques through experiential learning.

Conclusion: etude exercises are a vital component of actor training. they develop creative thinking, improvisation, and character-building skills, while also cultivating stage culture and independent artistic expression. their pedagogical significance lies in their ability to integrate creativity with discipline in theatre education.

Keywords: acting skills, etude, theatre arts, pedagogy, creative thinking, improvisation, character creation

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Aktyorlik san'ati insonning ichki kechinmalari, tasavvuri va jismoniy ifoda imkoniyatlarini uyg'unlashtiruvchi murakkab ijodiy jarayondir. Zamonaviy teatr ta'limida bo'lajak aktyorlarni tayyorlash faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki chuqur amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Shu jarayonda etyud mashqlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Etyud - bu kichik sahna vaziyati bo'lib, unda talaba berilgan shart asosida mustaqil ravishda obraz yaratadi, vaziyatni hal qiladi va sahnaviy harakatni ijodiy ifodalaydi. Ushbu metod aktyorlik maktablarida Stanislavskiy tizimiga asoslangan holda keng qo'llaniladi.

Kirish qismida shuni ta'kidlash kerakki, etyudlar talabaning nafaqat texnik, balki psixologik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali aktyor sahnaviy erkinlikka erishadi, ichki to'siqlarni yengadi va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Shu sababli etyud mashqlari aktyorlik ta'limining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, amaliy mashg'ulotlar tahlili va etyud topshiriqlarini bosqichma-bosqich o'rganish usullari qo'llanildi. Bo'lajak aktyorlar bilan olib borilgan darslarda oddiy va murakkab etyudlar bajarilishi kuzatildi.

Shuningdek, talabalarning quyidagi ko'rsatkichlari tahlil qilindi:

- *sahnaviy diqqat darajasi*
- *ijodiy mustaqillik*
- *emotsional ifoda*
- *harakat koordinatsiyasi*
- *obrazga kirish tezligi*

Metodik yondashuvda etyudlarning oddiy vaziyatdan murakkab dramatik holatgacha rivojlanish tamoyili asos qilib olindi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, etyud mashqlari bo'lajak aktyorlarning ijodiy va professional rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy natijalar:

- Talabalarda ijodiy tasavvur va improvizatsiya qobiliyati sezilarli darajada rivojlandi
- Sahnaviy diqqat va kuzatuvchanlik kuchaydi
- Mustaqil obraz yaratish ko'nikmalari shakllandi
- Psixofizik erkinlik va sahnaviy ishonch oshdi
- Jamoaviy ijodda hamkorlik darajasi yaxshilandi

Bundan tashqari, etyud mashqlari talabalarga real sahna sharoitiga yaqin psixologik holatni boshdan kechirish imkonini berdi, bu esa ularning ijodiy barqarorligini oshirdi.

MUHOKAMA

Etyud mashqlari aktyorlik pedagogikasida faqat texnik mashq emas, balki ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi muhim metodik vosita hisoblanadi. Ular talabaning ichki erkinligini ochib beradi va standart harakatlardan chiqishga yordam beradi. Muhokama jarayonida shuni ko'rish mumkinki, etyudlar aktyorni real hayotiy vaziyatni sahnada qayta

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

yaratishga o‘rgatadi. Bu jarayonda talaba nafaqat ijrochi, balki ijodkor sifatida ham shakllanadi.

Pedagogning roli bu jarayonda yo‘naltiruvchi sifatida muhimdir. U talabaga tayyor yechim bermaydi, balki ijodiy jarayonni to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. Natijada talaba mustaqil qaror qabul qilish, vaziyatni tahlil qilish va sahnaviy yechim topish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, etyudlar aktyorning psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. U sahna qo‘rquvini kamaytiradi, o‘ziga ishonchni oshiradi va ijodiy erkinlikni shakllantiradi.

MUHOKAMA

Etyud mashqlari aktyorlik pedagogikasida faqat texnik mashq emas, balki ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi muhim metodik vosita hisoblanadi. Ular talabaning ichki erkinligini ochib beradi va standart harakatlardan chiqishga yordam beradi. Muhokama jarayonida shuni ko‘rish mumkinki, etyudlar aktyorni real hayotiy vaziyatni sahnada qayta yaratishga o‘rgatadi. Bu jarayonda talaba nafaqat ijrochi, balki ijodkor sifatida ham shakllanadi.

Pedagogning roli bu jarayonda yo‘naltiruvchi sifatida muhimdir. U talabaga tayyor yechim bermaydi, balki ijodiy jarayonni to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. Natijada talaba mustaqil qaror qabul qilish, vaziyatni tahlil qilish va sahnaviy yechim topish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, etyudlar aktyorning psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. U sahna qo‘rquvini kamaytiradi, o‘ziga ishonchni oshiradi va ijodiy erkinlikni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.–312b.
2. Chexov M. A. Aktyorga maslahatlar. – Moskva: *Искусство*, 1986. – 368 b.
3. Gromova L. V. Teatr pedagogikasi asoslari. – Sankt-Peterburg: Piter, 2012.–310b.
4. Zaxava B. E. Rejissura va aktyorlik mahorati. – Moskva: Iskusstvo, 1973. 420b.
5. Toporkov V. O. Aktyorlik texnikasi asoslari. – Moskva: GITIS, 2005. – 290 b.
6. BAXIEVA, BIYBINAZ. "STAGE MOVEMENT AND COORDINATION: ANALYSIS OF THE TRAINING OF FUTURE ACTORS." *GLOBAL SCIENTIFIC CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH*. Vol. 1. No. 3. 2026.
7. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "QORAQALPOG ‘ISTONDA MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI." *Oriental Art and Culture* 4.6 (2023): 680-683.
8. Тилепов, Қуатбай Нукусбаевич. "КИНО—ТАРБИЯ ВОСИТАСИ." *Innovative Development in Educational Activities* 2.5 (2023): 314-317.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

TELEVIDENIYE JONLI EFIRIDA OVOZ REJISSYORLIGI: AXBOROT-KO‘NGILOCHAR KO‘RSATUVLAR MISOLIDA TEXNIK VA IJODIY TAHLIL

Kurbaniyazov Rufat Karamatdin o‘g‘li, O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali “Texnogen san’ati” kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Kirish: jonli efirda nafaqat vizual, balki audial barqarorlik ham muhim ahamiyatga ega. ovoz rejissyori efir sifatini belgilovchi asosiy ijodiy va texnik shaxs sifatida ko‘riladi.

Maqsad: televideniye jonli efirida ovoz rejissyorligining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda audial barqarorlikni ta’minlash strategiyalarini aniqlash.

Materiallar va metodlar: ovoz rejissyorligi bo‘yicha nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, jonli efir amaliyotlarini kuzatish va psixoakustik baholash metodlari qo‘llanildi. “Assalam, Qaraqalpaqstan” ko‘rsatuvi tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Natijalar va muhokama: dinamik signal ishlovi, raqamli miksherlash va psixoakustik moslashuv efir sifatini ta’minlashda muhim omillar ekanligi aniqlandi. ovoz rejissyori texnik nazoratdan tashqari ijodiy hamkorlikda ham faol rol o‘ynaydi, kutilmagan vaziyatlarda audial barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Xulosa: jonli efirda ovoz rejissyorligi texnik va ijodiy faoliyatning uyg‘unlashgan sohasi hisoblanadi. audial muhitning ekologik barqarorligi, raqamli texnologiyalar integratsiyasi va psixoakustik omillarni hisobga olish efir standartlarini ta’minlashning metodologik shartidir.

Kalit so‘zlar: ovoz rejissyorligi, jonli efir, “Assalam Qaraqalpaqstan”, psixoakustika, raqamli miksherlash, dinamik diapazon, signal monitoringi, audial estetika, format barqarorligi, efir standarti.

ЗВУКОВОЕ ОФОРМЛЕНИЕ В ПРЯМОМ ЭФИРЕ: ТЕХНИЧЕСКИЙ И ТВОРЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ ИНФОРМАЦИОННО-РАЗВЛЕКАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ

Курбаниязов Руфат Караматдин оглу, преподаватель кафедры «Техногенное искусство» Нукусского филиала Узбекского государственного института искусств и культуры

АННОТАЦИЯ

Введение: прямой эфир требует не только визуальной, но и аудиальной стабильности. звукорежиссёр играет ключевую роль в обеспечении качества эфира, гармонизируя технические и психоакустические факторы.

Цель: проанализировать теоретические и практические аспекты звукорежиссуры в прямом эфире и выявить стратегии обеспечения аудиальной стабильности.

Материалы и методы: использованы методы теоретического анализа литературы по звукорежиссуре, наблюдения за практикой прямого эфира и психоакустической оценки. программа «Ассалам, Каракалпакстан» выбрана в качестве объекта исследования.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Результаты и обсуждение: установлено, что динамическая обработка сигналов, цифровое микширование и психоакустические корректировки являются необходимыми для поддержания качества эфира. роль звукорежиссёра выходит за рамки технического контроля, включая творческое взаимодействие и обеспечение стабильности в форс-мажорных ситуациях.

Заключение: звукорежиссура в прямом эфире является одновременно технической и творческой дисциплиной. экологическая стабильность аудиальной среды, интеграция цифровых технологий и психоакустическая осведомлённость являются методологическими условиями достижения стандартов эфира.

Ключевые слова: звукорежиссура, прямой эфир, «Assalam Qaraqalpaqstan», психоакустика, цифровое микширование, динамический диапазон, мониторинг сигнала, аудиальная эстетика, стабильность формата, стандарт эфира.

SOUND DIRECTION IN LIVE TELEVISION: TECHNICAL AND CREATIVE ANALYSIS ON THE EXAMPLE OF INFORMATION AND ENTERTAINMENT PROGRAMS

Kurbaniyazov Rufat Karamatdin oglu, teacher of the department of "Technogenic Art" of the Nukus branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

ANNOTATION

Introduction: live television broadcasting requires not only visual but also audial stability. the sound director plays a decisive role in shaping the broadcast's quality, ensuring that technical and psychoacoustic factors are harmonized.

Aim: to analyze the theoretical and practical aspects of sound directing in live television broadcasting and to identify strategies for maintaining audial stability.

Materials and Methods: the study applies theoretical analysis of sound engineering literature, observation of live broadcast practices, and psychoacoustic evaluation. the "Assalam, Qaraqalpaqstan" program serves as a case study.

Results and Discussion: findings show that dynamic signal processing, digital mixing, and psychoacoustic adjustments are essential for maintaining broadcast quality. the sound director's role extends beyond technical control to creative collaboration, ensuring that unexpected technical issues do not compromise audial stability.

Conclusion: sound directing in live television broadcasting is both a technical and creative discipline. ecological stability of the audial environment, integration of digital technologies, and psychoacoustic awareness are methodological conditions for achieving broadcast standards.

Keywords: sound engineering, live broadcast, "Assalam Qaraqalpaqstan", psychoacoustics, digital mixing, dynamic range, signal monitoring, audial aesthetics, format stability, broadcast standard.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Zamonaviy media-texnologiyalar asrida televideniye nafaqat vizual, balki audial san'at turi sifatida ham shakllanib ulgurdi. Agar tasvir tomoshabinga axborotning vizual qobig'ini taqdim etsa, ovoz rejissyorligi o'sha axborotning emotsional va psixologik mohiyatini ochib beradi.[1] Ayniqsa, jonli efir (Live) sharoitida ovoz rejissyorining mahorati ko'rsatuvning badiiy-estetik qiymatini belgilovchi asosiy omilga aylandi.[2]

Jonli efirda ovozni shakllantirish jarayoni real vaqt rejimida (real-time) sodir bo'ladi va bu ovoz rejissyoridan nafaqat texnik bilimni, balki musiqiy sezgirlik va psixoakustik qonuniyatlarni mukammal bilishni talab etadi. Ushbu jarayonning murakkabligi shundaki, ovoz rejissyori soniyalar ichida texnik mukammallik bilan badiiy estetikani uyg'unlashtirishi shart. Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi kabi ko'p tilli va boy madaniy merosga ega hududlarda efirning audial sifatini yuqori standartlarda saqlash strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu bevosita ovoz rejissyorining professional tayyorgarligiga bog'liq.[3]

Jonli efirda audial muhitni shakllantirishning texnik muammolari

Televizion studiya sharoitida ovoz uzatish jarayoni murakkab texnologik zanjirdan (Digital Signal Chain) iborat bo'lib, bu zanjirning har bir bo'g'ini signalning tiniqligi va tabiiyligini saqlab qolishga xizmat qilishi shart.[4] Ovoz rejissyori pult ortida o'tirib, bir vaqtning o'zida o'ndan ortiq audio-kanallarni nazorat qilishi, ularni umumiy miks (Mix-down) holatiga keltirishi lozim.[5]

Studiya akustikasi va signal-shovqin nisbati (SNR) muammolari

Jonli efir jarayonida studiyadagi sovutish tizimlari, operatorlarning harakati yoki kutilmagan tashqi shovqinlar mikrofonga tushib, efir sifatini buzishi — sohadagi asosiy muammolardan biridir. Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi ovoz rejissyorlari Timur Dawletmuratov va Salamat Saparov tajribasida ushbu muammo "mikrofonlarni individual filtratsiyalash" usuli orqali hal etiladi. Har bir mikrofon kanali uchun **Noise Gate** va **Low-cut** filtrlarini o'rnatish orqali 100 Gts dan past bo'lgan keraksiz past chastotali shovqinlar kesib tashlanadi, bu esa nutqning tiniqligini ta'minlaydi.[6]

Dinamik ishlov berish va psixoakustik yondashuv

Jonli efir paytida kutilmagan shovqinlar yoki mehmonlarning kutilmaganda baland ovozda gapirishi signalning buzilishiga (distortion) olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda ovoz rejissyori dinamik ishlov beruvchi uskunalar — **Limiter** va **Compressor** orqali signalning dinamik diapazonini nazorat qilishi lozim.[7]

"Assalam Qaraqalpaqstan" ko'rsatuvida ovoz operatorlari (Oktam Jabbarbergenov, Najim Allamuratov, Shariyar Daniyarov) har bir boshlovchi va mehmon uchun mikrofonlarning sezgirligini (Gain) individual ravishda sozlaydilar. Bu jarayonda quyidagi psixoakustik omillarga e'tibor qaratiladi:

- **Intelligibility (Nutqning tushunarliligi):** Nutq chastotalari (2 kGts - 5 kGts oralig'i) spektral tahlil asosida biroz ko'tarilsa, suxandonning ovozi hatto fon musiqasi ostida ham tiniq eshitiladi.
- **Dinamik balans:** Boshlovchi Dastan Baymurzaev va mehmonlarning ovoz balandligidagi farqlar avtomatik kompressiya orqali tenglashtiriladi.[8]

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Kutilmagan vaziyatlarda rejissyorlik yechimlari va sifatni oshirish

Televideniye amaliyotida “efirning o‘lishi” (dead air) ya’ni tovush va tasvirning yo‘qolishi eng og‘ir xato hisoblanadi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun tajribali ovoz rejissyorlari quyidagi strategiyalardan foydalanadilar:

- **Zaxira audio-manevrlar:** Mikrofon kutilmaganda ishlamay qolganda, rejissyor darhol fon musiqasini balandlatadi va boshlovchi Shaxnoza Qudaybergenovaning mikrofoni orqali umumiy studiya ovozini olib, vaqtni yutadi.
- **Sinxronizatsiya:** Ovoz rejissyori va boshlovchilarning “so'zsiz” tushunishish qobiliyati har qanday texnik nosozlikni tomoshabinga sezdirmasdan yopib ketish imkonini beradi.[9]

Xulosa va ilmiy takliflar

Qoraqalpog‘iston televideniyesida ovoz rejissyorligi sohasini ilmiy-texnik jihatdan takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. **LUFS standartini joriy etish:** Efirdagi tovush balandligini xalqaro standartlarga muvofiq avtomatik nazorat qiluvchi raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish.
2. **Akustik modellashtirish:** Studiya ichida “jonli” va “o'lik” zonalarni to'g'ri taqsimlash orqali kadr orti shovqinlarini nol darajaga tushirish.

Innovatsion filtrlar: Raqamli miksherlash pultlarida sun'iy intellektga asoslangan intellektual shovqin filtrlarini qo'llash orqali efir sifatini yangi bosqichga ko'tarish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Zettle, H. (2014). *Television Production Handbook*. Cengage Learning.
2. Millerson, G. (2012). *The Technique of Television Production*. Focal Press.
3. Aldoshina, I. A. (2011). *Osnovi psixoakustiki*. – M.: DMK Press.
4. Huber D. M. (2017). *Modern Recording Techniques*. – Routledge, 2017.
5. Owens, J. (2015). *Television Production*. — Focal Press, 2015.
6. Kurbaniyazov, R. (2024). *The Main Characteristics of Sound*. Scientific Publication.
7. Utz, P. (2002). *Video Production Handbook*.
8. O‘zbekiston teleradiokompaniyasi efir standartlari va texnik yo‘riqnomalari.
9. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "QORAQALPOG ‘ISTONDA MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI." *Oriental Art and Culture* 4.6 (2023): 680-683.
10. Тилепов, Қуатбай Нукусбаевич. "КИНО—ТАРБИЯ ВОСИТАСИ." *Innovative Development in Educational Activities* 2.5 (2023): 314-317.
11. Toxirov Avazbek Otabek o’g'li, Ilmiy rahbar: Tilepov Quatbay Nukusbaevich. "KINEMATOGRAFIYA — JAMIYAT IJTIMOIY ONGINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING PSIXOLOGIK VOSITASI SIFATIDA." Inter Education & Global Study, no. 3, 2026. URL: https://researcher.uz/article/kinematografiya-jamiyat-ijtimoiy-ongini-transformatsiya-qilishning-psixologik-vositasi-sifatida-077617
12. Qutlibaevich, Qdirbaev Islambek. "FILMDA MAXSUS OVOZ EFFEKTLAR." *IMRAS* 7.1 (2024): 784-788.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

13. Qutlıbaevich, Qdırbaev Islambek. "TEATRDA TEXNIKALIQ ÚSKENELER." *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS* 2 (2023): 107-111
14. Абдреймов, Манас Бекполатович. "Қорақалпоқ кинематографиясида овоз режиссёрлиги муаммолари." *Oriental Art and Culture* 8 (2021): 22-25.
15. Abdreymov, Manas Bekpolatovich. "QORAQOLPOQ KINEMATOGRAFIYASIGA NAZAR:“TANKA” FILMI MISOLIDA." *Интернаука* 16-4 (2020): 49-50.
16. Bawetdinov, Sharafatdin Kazimbekovich. "QORAQALPOQ KINEMATOGRAFIYASI ZAMON BILAN HAMNAFAS." *Oriental Art and Culture* 4.5 (2023): 301-305.
17. SHARAFATDIN, Bawetdinov. "SES REJISSYORI SYOMKA WAQTINDA MIKROFON MENEN ISLEWI." *Journal of Culture and Art* 1 (2023): 3-7.
18. Mambetniyazov, D. B. "RIVOJLANIB BORAYOTGAN RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING KINEMATOGRAFIYA SOHASIDAGI TUTGAN O ‘RNI." *Inter education & global study* 3 (2025): 556-562.
19. Mambetniyazov, Dawletyar. "HUJJATLI KINO ORQALI MILLIY O ‘ZLIKNI IFODALASH: QORAQALPOQ TAJRIBASI." *Универсальный индекс библиотеки молодых ученых* 3.29 (2025): 94-95.
20. Ниетуллаев, Рустам Асанович, and Олтиной Қосимовна Тожибоева. "НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗВУКОРЕЖИССУРЫ В СОВРЕМЕННОМ ТЕАТРАЛЬНОМ МИРЕ." *Scientific progress* 2.1 (2021): 963-968.
21. Nietullaev, Rustam Asanovich. "ZAMONAVIY TELEVIDENIYE SOHASIDA OVOZ REJISSORLIGINING TUTGAN O’RNI VA MEHNAT FAOLIYATINING SAMARALI JIHATLARI." *Oriental Art and Culture* 4.1 (2023): 457-464.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ZAMONAVIY VOKAL TA'LIMI TAMOYILLARINING NAZARIY ASOSLARI

M.Xodjayeva, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: mazkur maqolada zamonaviy vokal ta'limidagi asosiy tamoyillar haqida so'z ketadi.Talabada xonandalikni shakllantirish, uni mahorat va badiiy jihatdan uyg'unlashtirish bilan bir qatorda musiqiy tafakkur, sahnaviy madaniyat, psixologik barqarorlik va ijodiy fikrlashni tarbiyalash masalalari tahlil qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR: vokal ta'limining samaradorligi o'qituvchining pedagogik mahorati, individual yondashuv, ovoz salomatligini saqlash, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ijodiy hamkorlik muhitiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, xonandalarni tayyorlashda badiiy va texnik rivojlanishning uyg'unligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

MAQSAD: talabaning badiiy-ijodiy rivojlanishi tizimida zamonaviy vokal ta'limi tamoyillari, ularning professional ijrochini shakllantirishdagi o'rni, xususiyatlari, mantiqiy ahamiyatlarining nazariy asoslarini tadqiq qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: XXI asrda vokal ta'limi san'at sohasi doirasidan chiqib, inson shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi ijodiy-pedagogik jarayonga aylandi.Zamonaviy jamiyatda xonanda nafaqat chiroyli ovoz sohibi, balki san'at orqali hissiy va ma'naviy qadriyatlarni ifoda eta oladigan ijodkor shaxs sifatida shakllanishi zarur.Shu nuqtai nazardan, *vokal ta'limi* faqat ovozni qo'yish, inson ovozini tabiiy va erkin rivojlantirish orqali xonandalikni shakllantirish, mahorat va badiiy jihatdan uni uyg'unlashtirish bilan bir qatorda talabada *hissiy tafakkur, sahnaviy madaniyat, psixologik barqarorlik va ijodiy fikrlash* kabi sifatlarni tarkib toptirishni ham qamrab oladi. O'qituvchi talabalarda qiziqish uyg'otishi, ularni faol o'rganishga, ko'proq mashq qilishga, professional xonandalarni tinglashga rag'batlantirishi kerak. Har bir yosh xonandaning individual "sahnaviy obraz" yaratishga yordam berish, o'quv muhitini shunday tashkil etishi kerakki, u talaba motivatsiyasi va vokal-ijrochilik malakalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

XULOSA: 1.so'nggi vaqtlarda ta'lim tamoyillarining sonini kengaytirish, ularni guruhlarga ajratish tendensiyasi kuzatilmoqda.Bu jamiyatdagi, texnologiyalardagi o'zgarishlar va mutaxassislar tayyorgarligiga bo'lgan talablar bilan bog'lik. Biroq bu holat har doim ham etarlicha ilmiy asoslanmagan. Ayniqsa, vokal ta'limi tamoyillari muammosi hanuzgacha ko'p jihatdan bahsli masala bo'lib qolmoqda. Ularni tadqiq etish bugungi kunda ta'lim tizimi uchun juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

2.Zamonaviy vokal ta'limi — bu ovoz bilan ishlashning mexanik jarayoni emas, balki shaxsning ijodiy, hissiy va intellektual rivojlanish tizimidir.Vokal ta'limi nafaqat xonandalarni, balki his etuvchi, fikrlay oladigan va ijodiy qadriyatlar yaratadigan insonlarni tarbiyalaydi.

3.Har bir tamoyil qanchalik aniq va ravshan belgilansa, vokal ta'limning xususiy masalalari ham shunchalik oydin va aniq hal etiladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Kalit so‘zlar: vokal ta’lim, hissiy tafakkur, sahnaviy madaniyat, psixologik barqarorlik va ijodiy fikrlash, vocal ta’limi tamoyillari, individual yondashuv, musiqiy tafakkur, hissiy nutq, ovozni saqlash, vocal ijro mahorati, ijodiy erkinlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ ВОКАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

М.Ходжаева, Государственный институт искусства и культуры Узбекистана, Ташкент.

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются основные принципы современного вокального образования. Анализируются вопросы формирования у студента певческих навыков, их гармоничного сочетания с профессиональным мастерством и художественной выразительностью, а также развития музыкального мышления, сценической культуры, психологической устойчивости и творческого подхода.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: эффективность вокального образования зависит от педагогического мастерства преподавателя, индивидуального подхода, сохранения здоровья голоса, использования инновационных технологий и создания творческой атмосферы сотрудничества. Наряду с этим особое внимание уделяется гармоничному сочетанию общих и частных принципов вокального образования, единству методов художественного и технического развития в процессе подготовки певцов.

ЦЕЛЬ: исследование теоретических основ принципов современного вокального образования в системе художественно-творческого развития студента, их роли в формировании профессионального исполнителя, а также их специфических и логических аспектов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ:

1. в последнее время наблюдается тенденция к расширению числа принципов обучения и их классификации по группам.Это связано с изменениями в обществе, технологиях и требованиями к подготовке специалистов. Однако данное явление не всегда имеет достаточное научное обоснование. В частности, проблема принципов вокального образования до сих пор во многом остается дискуссионной. Их исследование в настоящее время имеет большое теоретическое и практическое значение для системы образования.
2. Современное вокальное образование –это не механический процесс работы с голосом, а система творческого, эмоционального и интеллектуального развития личности. Вокальное образование воспитывает не только певцов, но и людей, способных чувствовать, мыслить и создавать творческие ценности.

Чем более четко и ясно определен каждый принцип, тем более эффективно и точно решаются частные задачи вокального образования.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Ключевые слова: вокальное образование, эмоциональное мышление, сценическая культура, психологическая устойчивость и творческое мышление, принципы вокального обучения,индивидуальный подход, музыкальное мышление, эмоциональная речь, сохранение голоса, вокально-исполнительское мастерство, творческая свобода.

PRINCIPLES OF PLANNING AND REPORTING IN CULTURAL AND ART INSTITUTIONS

M. Khodjayeva, State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, Tashkent

ANNOTATION

INTRODUCTION: this article examines the main principles of modern vocal education. It analyzes the issues of developing students' singing skills, their harmonious integration with professional mastery and artistic expressiveness, as well as the development of emotional thinking, stage culture, psychological stability, and a creative approach.

MATERIALS AND METHODS: the effectiveness of vocal education depends on the teacher's pedagogical mastery, an individual approach, maintaining vocal health, the use of innovative technologies, and the creation of a collaborative creative environment. At the same time, special attention is paid to the harmonious combination of general and specific principles of vocal education, as well as to the unity of artistic and technical development methods in the process of training singers.

OBJECTIVE: to study the theoretical foundations of the principles of modern vocal education within the system of students' artistic and creative development, their role in shaping a professional performer, as well as their specific and logical aspects.

CONCLUSION:

1. in recent years, there has been a tendency to expand the number of educational principles and to classify them into groups. This is связано with changes in society, technology, and the requirements for specialist training. However, this phenomenon is not always sufficiently scientifically substantiated. In particular, the issue of the principles of vocal education remains largely debatable. Their study currently has significant theoretical and practical importance for the education system.
2. Modern vocal education is not a mechanical process of working with the voice, but a system of creative, emotional, and intellectual development of the individual. Vocal education develops not only singers, but also individuals capable of feeling, thinking, and creating artistic values.

The more clearly and precisely each principle is defined, the more effectively and accurately the specific tasks of vocal education are addressed.

Keywords: vocal education, emotional thinking, stage culture, psychological stability and creative thinking, principles of vocal training, individual approach, emotional thinking, expressive speech, vocal health preservation, vocal performance mastery, creative freedom.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Ma'lumki, san'at yo'nalishidagi pedagogik vazifalarning muhimligi ilmiy ishlanmalarning dolzarb muammolari, san'at va madaniyat sohasi rivojlanishining ustivor yo'nalishlari, ijtimoiy amaliyot talablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jamiyat ravnaqini ta'minlashga xizmat qila oladigan yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan shaxs tarbiyasida musiqa ta'limi, xususan, ***vokal ta'lim*** katta salohiyatga ega bo'lgan omildir. Ushbu kesimda talabaning badiiy-ijodiy rivojlanishi tizimida zamonaviy vokal ta'limi tamoyillari,ularning professional ijrochini shakllantirishdagi o'rni, xususiyatlari, mantiqiy ahamiyatlari puxta nazariy asoslarga ege bolishi lozimdir.

Vokal ta'limi tamoyillariga jiddiy e'tibor – sifat jihatdan takomil ijrochilikka erishuv yo'llaridan biri ekanligi vokal pedagogikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tamoyillari (prinsiplari)–(lotin."principium"– asos, boshlanish) atamasi ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

1.Muayyan nazariya yoki ta'limotning asosiy, boshlang'ich qoidasi; faoliyatning yo'naltiruvchi g'oyasi yoki asosiy qonuniyati;

2.Insonning ichki ishonchi, dunyoqarashi, xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beruvchi me'yorlar to'plamidir [1.B.218].

Tamoyillar–bu ta'lim jarayonining mazmunini, tashkiliy shakllari va usullarini uning umumiy maqsadlari hamda qonuniyatlariga muvofiq belgilab beruvchi asosiy qoidalar bo'lib, ularda o'qitishning me'yoriy asoslari o'zining aniq tarixiy shaklida ifodalanadi va belgilangan maqsadlarga muvofiq ravishda ta'lim qonunlari va qonuniyatlaridan foydalanish usullarini tavsiflaydi [2. B.95].

Ta'lim jarayoni, jumladan, xonandalikni o'qitish jarayoni ham, an'anaviy ravishda ma'lum bir **tamoyillar tizimiga** asoslanadi. Bu tamoyillar har doim ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasini, shuningdek, o'qitishning asosiy muammolari mazmunini ifodalab kelgan.

Zamonaviy vokal o'qitishning ba'zi qoidalari shunday darajaga boradiki, ular **tamoyil** sifatida qabul qilinishi va ularga har doim amal qilish zaruriy xolga aylanadi. Bu tamoyillar vokal ta'limi jarayonini tashkillashtirish, to'g'ri uslub va tonda olib borish vositasi bo'lib, samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi. Ana shunday tamoyil darajasiga etgan bir necha qoidalarni keltirib o'tamiz.

1. Individual va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyili

Har bir talabaning ovozi o'ziga xos bo'lib, uning tembri, diapazoni, nafas xarakteri va hissiy ifodasi farq qiladi.Vokal darslarida talaba nafaqat xonandalik tovush hosil bo'lishi haqida bilimlarga ega bo'ladi.Talabada vokal-texnik malakalar,ijrochilikning ilk ko'rinishlari,musiqiy-estetik did, badiiy tafakkur shakllanadi, qo'shiqchilik ovozi, musiqiy xotira, diqqat, musiqiy fikrlash,tasavvur,iroda, nutq madaniyati rivojlanadi.To'g'ri qo'yilgan ovoz o'z jarangdorligi, go'zalligi, tembr bo'yoqlariningboyligi,diapozoni kengligi,sof intonatsiya,talafufuz aniqligi,ortiqcha charchab qolishdan holi bo'lishi bilan ajralib turadi. To'g'ri postanovkaga erishish metodlari turlicha bo'lishi mumkin. Ammo ularning har biri

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

individual va shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv tamoyiliga asoslanishi barqaror,samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi. Bunda vokal o‘qituvchisi har bir talaba uchun individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi zarur. Bu strategiyaga:

- ovoz tipini aniqlash (soprano, messo-soprano, tenor, bas);
- tabiiy xususiyatlarni hisobga olish;
- individual vokal mashqlari tizimini tuzish;
- talaba ruhiyatini qo‘llab-quvvatlash kabilar kiradi.

Bunday yondashuv ta’limning asosini tashkil etib, ishonch va ijodiy erkinlik muhitini yaratadi.

2.Ovoz salomatligini saqlash va gigiena tamoyili

Ovoz —insonning jismoniy va ruhiy holatini aks ettiradi. Taniqli professor V.Morozov vokal eshituvi,kuylash ovozi, uni egallashning qiyinchiliklari haqida yozar ekan: “Inson ovozi— “jonli musiqa asbobidir”,u skripka va fortepianodan ko‘p marta murakkabroq,nozik va injiq.U nafaqat musiqiy,balki fiziologik qonunlarga bo‘ysunadi. Unda “chalish” uchun hech bo‘lmasa uning asosiy “texnik xususiyatlari”ni bilish kerak”, deb yozadi [3. B.3].

Xonandalik—fiziologik jarayon bo‘lib,bu paytda inson nafas, qulay va noqulay tessituralarda kuylash,vokal pozitsiyani saqlash, ancha vaqt talab qiladigan repetitsiyalar va konsert chiqishlari tufayli kattagina hajmda energiya yo‘qotadi. Shuning uchun uning sog‘lomligini asrash ***vokal ta’limining*** ustuvor vazifasidir. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- to‘g‘ri nafas olish va tana holatini saqlash;
- ovozni ortiqcha zo‘riqtirmaslik;
- ovozni sozlash va postanovka mashqlarini to‘g‘ri bajarish;
- ovoz gigienasiga amal qilish.

Natijada, talaba ovoz sohibi bo‘lish bilan birga, uni muhofaza eta oladigan kasbiy madaniyatli ijrochiga aylanadi.

3. Emotsionallik va onglilikning birligi tamoyili

Musiqa — hissiyot tili. Xonanda asarni ovoz bilan birga qalb va ong orqali ijro etadi. Asar ijrosi jarayonida ijrochining hissiy tuyg‘ulari ma’lum bir chegaradan chekka chiqmasligi, ya’ni emotsional holat to‘g‘ri tovush yo‘naltirishga halaqit bermasligi, vokal texnikasi asoslarini buzmasligi va haqiqiy hissiyotlarga olib kelishi lozim. Shu bois, vokal ta’limida hissiy idrok va onglilikning uyg‘unligi muhimdir.

Kuylashni tom ma’noda ***hissiy nutq*** deb atash mumkin. Qo‘shiq emotsional holat, ruhiy salomatlik va xotirjamlik uchun katta turg‘un ijobiy ta’sir kuchiga ega [4. B.46]. Qo‘shiq asari mazmunini anglash, obrazni his etish va uni badiiy vositalar bilan ifoda qilish talabada ijodiy tasavvur va tafakkurni ham rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.Dars jarayonida o‘qituvchi talaba asarni yaxshiroq his qilishi va so‘zlarni tushunishi uchun ko‘maklashadi, musiqaning mazmuni, qaysi his-tuyg‘ularni uyg‘otishi haqida tushuntirib beradi.Vokal ta’limi yosh xonandaning emotsional tafakkur sohasi rivojlanishi,unda yuqori darajadagi emotsional ifodaviylik tarbiyalanishida katta tarbiyaviy salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

4. Badiiylik va texnika (mahorat) uyg‘unligi tamoyili

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Texnika—vosita, badiiylik—maqsad.Zamonaviy ta'limda texnik mashqlar nafaqat ovozni mustahkamlaydi, balki ifoda vositasiga aylanadi. Dinamika, artikulyatsiya, musiqiy frazirovka va nafasning uyg'unligi xonandani "hissiyot bilan kuylash" darajasiga etaklaydi. Samarali vositalardan foydalanish orqali ta'limni yanada qiziqarli bo'lishiga erishish mumkin. Masalan:

– qo'shiq matni berilganda avval kuy emas, balki so'z mazmunini tahlil qilish;
–talabada matn o'rganish jarayonida ham emotsiyalarni yuzaga chiqarish;
– bir necha bor qayta-qayta talaffuz qilish, matnni til jadalligi bilan o'qish;
– so'ng kuy qismiga o'tish.

Bunday usullar yosh ijrochining hissiy ifoda kuchini oshiradi, uning vokal va musiqiy obraz orasidagi uyg'unlikka erishishga yordam beradi.

5.Innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish tamoyili

Hozirgi davrda talabalar vokal-xonandalik kasbiy tayyorgarligi zamonaviy axborot jamiyatining talablariga mos keladigan, yangilangan uslubiy yondashuvlarni ham talab qilmoqda.O'qituvchining vazifasi nafaqat talabalarga vokal ijrochiligi bilim, malaka, ko'nikmalarini berish, balki zamon bilan hamnafas bo'lgan holda *raqamli texnologiyalarni* (Singscope, Vocal Pitch Monitor, onlayn darslar va audio-video tahlillar) ta'limining ajralmas qismiga aylantirishga intilishdir[1].Raqamli texnologiyalar talabaga o'z ijrosini kuzatish, tahlil qilish va xatolarni mustaqil anglash imkonini beradi.Ta'kidlash lozimki, bizning bu yo'nalishda qiladigan ishlarimiz hali o'z echimini topmagan.



[1] **Interaktiv vokal mashg'ulotlari** — grafik fidbek va audio tahlil yordamida ovozni vizual tahlil qilish.

Improvizasiya va Creative Vocal Lab — ijodiy erkinlik va hissiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Janrlararo tayyorgarlik — klassik, djaz, estrada va xalq uslublarini qo'shib o'rganish orqali ovoz moslashuvchanligini oshiradi.

Self-recording va audio tahlil — mustaqil tahlil va o'z-o'zini baholash malakasini shakllantiradi.

Sahnaga tayyorgarlik 3D modeli — sahna harakati, mimika va auditoriya bilan muloqotni qamrab oladi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

6.Muloqot va ijodiy hamkorlik tamoyili

Zamonaviy ta'limda "o'qituvchi—shogird" munosabati "hamkorlikda ijod qilish" tizimiga aylanmoqda. Yakka ijro, duet yoki ansambl mashg'ulotlari ijodiy faollik va sahna madaniyatini rivojlantiradi.

Vokal ta'limida har bir bosqich rejalashtirilishi muhimdir. Talaba oldiga qo'yiladigan o'quv maqsadlari,topshiriqlarning aniq vazifasi bo'lishi uning e'tiborini jamlaydi. Eng muhimi – o'qituvchi ***maqtov va rag'batni ayamasligi lozim***.Chunki maqtov – talabaning o'ziga ishonchi va qiziqishini turg'un qiladigan eng muhim omillardan biridir. Qiyin qo'shiqlar berish noto'g'ri – bu talabada "men bunga layoqatli emasman" degan xayol uyg'otadi va o'qish motivatsiyasini pasaytiradi.Ovozi, qobiliyati va yoshiga mos material tanlash kerak. O'qituvchi talabalarda qiziqish uyg'otishi, ularni faol o'rganishga, ko'proq mashq qilishga, professional xonandalarni tinglashga rag'batlantirishi kerak. Har bir yosh xonandaning individual "sahnaviy obraz" yaratishga yordam berish, o'quv muhitini shunday tashkil etishi kerakki, u talaba motivatsiyasi va vokal-ijrochilik malakalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Shu o'rinda yana bir bor ta'kidlash joizki, vokal ta'limida pedagogning o'rni masalasi juda muhim ahamiyat kasb etadi.Zamonaviy vokal pedagogining vazifasi — talabaga tayyor bilim, malaka berish emas, balki unda mustaqil ijodiy fikrlash va hissiy tafakkurni uyg'otishdir.Pedagog—rejissyor, motivator va ijodiy maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi.Uning mahorati talabaning ijodiy o'sish darajasini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Г.Я.Гревцева, Ш.Ш.Олимов, К.Ф.Абдуллаев, Ш.Х.Самиева. Общая педагогика. *Учебное пособие*. 2019. – 162 с.
2. И.П.Подласый. Педагогика. *Учебник*. Москва. «Высшее образование» 2007
3. В.Морозов. "Вокальный слух и голос".- Москва: Музыка,1965-86. С. 3.
4. Харламова Т.В. Влияние пения на психологическое и эмоциональное состояние человека // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. 2024. Т. 13. № 7А Стр.46.
5. Шермухаммадов Б.Ш. Вопросы развития межкультурной коммуникatsii студентов в процессе глобализatsii высшего образования// Век глобализatsii. – 2024. Стр 104.
6. Кириченко Т. Д., Климов В. И. Методика музыкалного обучения и воспитания. *Учебное пособие* для обучающихся высших и средних образовательных учреждений. Елес- 2021
7. G.I.Muxamedova.Xonandalik uslubiyati asoslari/o'quv-uslubiy qo'llanma/T., 2007 63 b.
8. G.I. Muxamedova. Xonandalikdan dars berish uslubiyoti /darslik/ T., 2021 188 b

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

9. Морозов. Л.Н. Школа классического вокала. [Электронный ресурс] – Электрон. дан. – СПб. : Лан, Планета музыки, 2013. – 48 б. – Режим доступа: http://e.ланбоок.com/боок/10259 — Загл. с экрана. + ДВД.
10. M.X.Xodjaeva.Xonandalikni o‘qitish metodikasi.(o‘quv qo‘llanma).-To shkent. 2024 150 b.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

TEATR FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASI VA BOSHQARUV TIZIMI

Z. Nurullayeva, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

KIRISH: mazkur maqolada teatr faoliyatining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tizimining asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Unda teatrning badiiy va ma’muriy bo‘limlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning vazifalari hamda samarali hamkorlik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, boshqaruv jarayonida direktorning o‘rni, qaror qabul qilish tizimi va ijodiy jarayonni muvofiqlashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy teatr boshqaruvida zamonaviy texnologiyalar va tomoshabinlar bilan ishlashning ahamiyati alohida ta’kidlanadi va atroflicha fikr-mulohazalar yuritiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: mazkur tadqiqotda teatr faoliyatining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tizimini o‘rganishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullari tashkil etdi. Ilmiy manbalar, jumladan, teatr boshqaruvi bo‘yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda amaliy tajribalar o‘rganildi va tahlil qilindi.

MAQSAD: mazkur tadqiqotning maqsadi teatr faoliyatining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tizimini har tomonlama o‘rganish, uning samaradorligini oshirish omillarini aniqlash hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, teatr faoliyatining samaradorligi uning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tizimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganiga bevosita bog‘liq. Tahlillar davomida aniqlanishicha, boshqaruvda strategik rejalashtirish, zamonaviy marketing yondashuvlari va auditoriya bilan samarali kommunikatsiya mexanizmlarining qo‘llanilishi teatrning raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, ayrim teatrlarda boshqaruv tizimining markazlashganligi qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkinligi kuzatildi. Shu bois, vakolatlarni maqbul darajada taqsimlash va jamoaviy boshqaruv elementlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, xodimlar malakasini oshirish hamda boshqaruvning moslashuvchan modelini joriy etish teatr faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA: teatr faoliyatining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tizimi uning samarali ishlashi va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Tadqiqot natijalari boshqaruv jarayonida moslashuvchanlikni ta’minlash, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va marketing faoliyatini kuchaytirish teatrning raqobatbardoshligini oshiradi. Umuman olganda, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish orqali teatr nafaqat ijodiy, balki iqtisodiy jihatdan ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin.

Kalit so‘zlar: teatr boshqaruvi, tashkiliy tuzilma, ma’muriy boshqaruv, direktor, repertuar siyosati, ijodiy jarayon, menejment, strategik rejalashtirish, marketing faoliyati, auditoriya bilan ishlash, innovatsion texnologiyalar, madaniyat muassasasi, tashkiliy samaradorlik, qaror qabul qilish, jamoaviy boshqaruv, moliyaviy boshqaruv, kadrlar siyosati, teatr rivojlanishi.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ОРГАНИЗАЦИОННАЯ СТРУКТУРА И СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ ТЕАТРАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

Z. Nurullayeva, Государственный институт искусства и культуры Узбекистана, Ташкент.

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются основные аспекты организационной структуры и системы управления театром. Освещается взаимосвязь между художественным и административным отделами театра, их задачи и механизмы эффективного сотрудничества. Также рассматривается роль режиссера в процессе управления, система принятия решений и координация творческого процесса. В статье подчеркивается важность современных технологий и работы со зрителями в современном управлении театром и даются подробные комментарии.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данном исследовании использован комплексный подход к изучению организационной структуры и системы управления театральной деятельностью. Методологической основой исследования послужили методы систематического анализа, сравнительного анализа и обобщения. Были изучены и проанализированы научные источники, включая научные статьи, монографии, нормативно-правовые документы по управлению театром, а также практический опыт.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования – всестороннее изучение организационной структуры и системы управления театральной деятельностью, выявление факторов повышения ее эффективности и разработка научно-практических рекомендаций по ее совершенствованию на основе современных подходов к управлению.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что эффективность деятельности театра напрямую зависит от правильности его организационной структуры и системы управления. Анализ выявил, что использование стратегического планирования в управлении, современных маркетинговых подходов и эффективных механизмов коммуникации с аудиторией повышает конкурентоспособность театра. Также было отмечено, что централизованная система управления в некоторых театрах может замедлять процесс принятия решений. Поэтому оптимальное распределение полномочий и внедрение элементов коллективного управления имеют большое значение. Результаты показывают, что использование инновационных технологий, обучение персонала и внедрение гибкой модели управления способствуют устойчивому развитию деятельности театра.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: организационная структура и система управления театром являются одним из главных факторов, обеспечивающих его эффективное функционирование и устойчивое развитие. Результаты исследования показывают,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

что обеспечение гибкости в процессе управления, использование инновационных технологий и усиление маркетинговой деятельности повышают конкурентоспособность театра. В целом, формируя эффективную систему управления, театр может успешно функционировать не только в творческом, но и в экономическом плане.

Ключевые слова: управление театром, организационная структура, административное управление, режиссер, репертуарная политика, творческий процесс, менеджмент, стратегическое планирование, маркетинговая деятельность, работа с аудиторией, инновационные технологии, культурное учреждение, организационная эффективность, принятие решений, управление командой, финансовое управление, кадровая политика, развитие театра.

ORGANIZATIONAL STRUCTURE AND MANAGEMENT SYSTEM OF THEATRICAL ACTIVITIES

Z. Nurullayeva, State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

ANNOTATION

INTRODUCTION: this article analyzes the main aspects of the organizational structure and management system of the theater. It highlights the relationship between the artistic and administrative departments of the theater, their tasks and mechanisms for effective cooperation. It also considers the role of the director in the management process, the decision-making system and the coordination of the creative process. The article emphasizes the importance of modern technologies and working with the audience in modern theater management and provides detailed comments.

MATERIALS AND METHODS: this study used a comprehensive approach to studying the organizational structure and management system of theater activities. The methodological basis of the study was the methods of systematic analysis, comparative analysis and generalization. Scientific sources, including scientific articles, monographs, regulatory and legal documents on theater management, and practical experience were studied and analyzed.

AIM: the purpose of this study is to comprehensively study the organizational structure and management system of theater activities, identify factors for increasing its efficiency, and develop scientific and practical recommendations for improvement based on modern management approaches.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study showed that the effectiveness of the theater's activities directly depends on the correctness of its organizational structure and management system. The analysis revealed that the use of strategic planning in management, modern marketing approaches, and effective communication mechanisms with the audience increases the competitiveness of the theater. It was also observed that the centralized management system in some theaters can slow down the decision-making process. Therefore, the optimal distribution of powers and the introduction of collective management elements are of great importance. The results show that the use of innovative

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

technologies, staff training, and the introduction of a flexible management model contribute to the sustainable development of theater activities.

CONCLUSION: the organizational structure and management system of the theater are one of the main factors ensuring its effective functioning and sustainable development. The results of the study show that ensuring flexibility in the management process, the use of innovative technologies and strengthening marketing activities increase the competitiveness of the theater. In general, by forming an effective management system, the theater can successfully operate not only creatively, but also economically.

Keywords: theater management, organizational structure, administrative management, director, repertoire policy, creative process, management, strategic planning, marketing activities, working with the audience, innovative technologies, cultural institution, organizational effectiveness, decision-making, team management, financial management, personnel policy, theater development.

Teatr ijrochilik san'atida tomoshabinlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va shakllantirish, insonni axloqiy, aqliy va badiiy jihatdan takomillashtirish maqsadida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi madaniy muassasadir.

Teatrning asosiy faoliyati:

- Spektakllarni tayyorlash va namoyish etish, shuningdek, boshqa ommaviy chiqishlar;
- Sayohatlar, konsertlar tashkil etish;
- Ijodiy kechalar, festivallar, tanlovlar o'tkazishlar va boshqa shularga o'xshash turdosh ishlardan iboratdir.

Teatrning asosiy vazifalari:

- milliy istiqlol g'oyalariga hamohang, badiiy jihatdan yuksak, xalqchil sahna asarlarini sahnalashtirish, tomosha va konsert dasturlarini yaratish;
- xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish, ularni ona Vatanga muhabbat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib sahna asarlari, tomoshalar va konsert dasturlari bilan hissa qo'shib borish;
- aholining turmush madaniyatini oshirish, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, milliy bayramlarni tiklash hamda davom ettirishda ko'maklashish;
- teatr va tomosha san'atini keng targ'ib etish maqsadida mamlakatimiz va xorijiy muassasalar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish;
- teatr va tomosha san'ati oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali tashkil etish uchun xodimlarning malakasini oshirish choralarini ko'rish, ularni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, tashabbuskorlikni rag'batlantirishning samarali usullarini joriy etish;
- ko'rgazmalar, festival, ko'rik-tanlov, ma'ruzalar, madaniyat, san'at, ilm-fanning atoqli arboblari bilan uchrashuvlar, benefis, teatr spektakllari, maxsus tayyorlangan

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

dasturlar, dam olish va ijodiy kechalar, maqsadli teatrlashtirilgan marosim kechalari va boshqa tomosha tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish;

- mamlakatda va xorijda teatr va konsert-tomosha gastrol faoliyatining keng ko‘lamli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.[1]

Teatr samarali tashkilotga ega va o‘z ishida belgilangan professional standartlarga amal qiladi. Teatr boshqaruvini samarali tashkil etish uchun quyidagi talablar bajarilishi zarur:

- taqdim etilgan xizmatlar barcha fuqarolar uchun jismoniy jihatdan ma’qulligi; - zalning va teatrga kirish qulayligi;
- teatr mahsulotlarini tahlil qilish va bozorni segmentlash texnologiyalari;
- tomoshabin haqida ma’lumot to‘plash uchun so‘rovnoma;
- tomoshabinlarning afzalliklarini aniqlash uchun so‘rovnoma;
- chipta savdosini oshirish uchun so‘rovnoma;
- aniqlangan his-hayajon gaplarni filtrlash;
- teatr xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va uzluksiz ta’limi;
- iste’molchilarga xizmat ko‘rsatuvchi va tarbiyalovchi teatr binosidan tashqarida o‘tkaziladigan dasturlar tashkil etilishi va hakozolar.

Teatrning tashkiliy-funksional tuzilishi: Teatr rahbariyati - teatr ishini tashkil etuvchi mansabdor shaxslar:

- teatrning badiiy rahbari;
- teatr direktori;
- bosh adminstrator, bosh buxgalter va bosh muhandis;
- bo‘limlar va ishlab chiqarish ustaxonalari rahbarlari;
- kostyum do‘konining boshlig‘i;
- kassalar boshlig‘i.

Tashkilotning tashqi muhiti:

a) iste’molchilar: barcha yoshdagi tomoshabinlar;

b) raqobatchilar: raqobatchilar yo‘q yoki bor;

v) boshqaruv organlari: madaniyat bo‘limi, mulkiy munosabatlar bo‘limi;

d) teatrdagi haqiqiy mehnat jarayonining o‘ziga xosligi, ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshiruvchi o‘ziga xos manbalar majmui bilan oldindan belgilanadi:

Bular quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

a) ijtimoiy-psixologik resurslar, shu jumladan umumiy va kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalar; ishlab chiqarish tajribasi; teatr barcha xodimlarining kasbiy malaka darajasi, ularning salomatlik holati, madaniyat darajasi va boshqalar;

b) axborot resurslari - loyihalash va boshqa shu kabi hujjatlar, turli xil ixtisoslashgan boshqaruv axborotlari, texnik vositalar bo‘yicha dasturlar, disklar va boshqalar;

v) ilmiy manbalar - ilmiy bilimlar, yutuqlar, kashfiyotlar, ixtirolar va boshqalar;

d) badiiy-ijodiy resurslar - iste’dod (yuqori darajadagi iqtidor), mahorat (badiiylik, ustamonlik), kasbiy tajriba va boshqalar.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Boshqaruv usullari - bu teatrda mehnat jamoasi, foydalanuvchilar kontingenti, texnologik jarayonlar, iqtisodiy resurslari (moliya, moddiy-texnika bazasi) bo‘lgan boshqaruvchi subyektning turli boshqariluvchi obyektlarga ta’sir etish vositalari, usullari.[2]

Boshqaruv usullari - teatr boshqaruv organlarining boshqariluvchi obyektga (teatr direktori - o‘zi rahbarlik qilayotgan jamoaga) maqsadli ta’sir ko‘rsatish usullari va metodlari majmui. Boshqaruv usullari turli mezonlarga muvofiq tasniflanadi. Shunday qilib, bevosita va bilvosita ta’sir usullari ko‘pincha ajralib turadi. Avvalgidan foydalanilganda ta’sirning bevosita natijasi qabul qilinadi, ikkinchisi esa yuqori ish samaradorligiga erishish uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Boshqaruv amaliyotida boshqaruv uslubining harakterli xususiyatlarini aks ettiradigan rasmiy va norasmiy ta’sir usullarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Norasmiy ta’sir etish usullariga rahbarning tarbiyaviy ishlari, jamoadagi xatti-harakatlari kiradi.

Eng muhimi, birgalikdagi ish jarayonida rivojlanadigan munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangan boshqaruv usullarini tasniflash.

Shu asosda, mavjud:

- tashkiliy usullar (shu jumladan ma’muriy);
- iqtisodiy usullar; - ijtimoiy-psixologik usullar.

Tashkiliy usullarga tartibga solish, rag‘batlantirish, instruktaj, ma’muriy va intizomiy ta’sir usullari kiradi. Ma’muriy boshqaruv usullari bunday tizimda alohida o‘rin tutadi va boshqaruv subyektlariga hokimiyat kuchi va vakolatiga asoslangan obyektga ta’sir ko‘rsatish metodlari va usullarini o‘z ichiga oladi: qonunlar, farmonlar, qarorlar, farmoyishlar, ko‘rsatmalar. Ushbu usullar har bir menejer va bo‘ysunuvchining vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi va tartibga soladi.

Boshqaruvning asosiy ma’muriy usuli majburlash usuli bo‘lib, bo‘ysunuvchilardan yuqori organning buyruqlarini ijro etish, tanqid qilish yoki muhokama qilish uchun qat’iy qabul qilishni talab qiladi. Majburlash usuli og‘zaki yoki yozma ravishda amalga oshiriladi. Og‘zaki buyruq - bu hokimiyat subyekti sifatida rahbardan juda ko‘p psixologik kuch talab qiladigan bevosita taklif.[3]

Mamlakatimizda yaratilayotgan yangi yaxlit va dinamik boshqaruv tizimining asosiy bo‘g‘ini barcha darajalarda iqtisodiy boshqaruv usullariga o‘tishdir. Iqtisodiy usullar eng kam mehnat va moddiy resurslar bilan yakuniy natijalarga erishish uchun o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun ichki rag‘batlarni kuchaytirish, ijodiy tashabbusni tarqatish, obyektiv iqtisodiy qonunlarni yanada to‘liq ishlatish imkonini beradi. Zamonaviy teatrda iqtisodiy usullar o‘z-o‘zini moliyalashtirish faoliyatining turli shakllari, turli xil pullik xizmatlarni joriy etish, moliyaviy rag‘batlantirish tizimi orqali tobora ko‘proq joriy etilmoqda. Teatr boshlig‘ining menejer sifatida rolini aniqlaydilar. Ijtimoiy munosabatlarning roli ortib borishi, teatr jamoasi taraqqiyotini mustahkamlash va optimallashtirish zarurati tufayli ijtimoiy-psixologik usullar samarali boshqarishning ayniqsa muhim omillariga aylanmoqda. Menejerning xodimlar bilan ishlash darajasini, teatr xodimlarining kasbiy faoliyatini yaxshilash mas’uliyati psixologlar va sotsiologlarning jamoada va ayniqsa, teatrning korporativ uslubida qulay axloqiy muhitni yaratish bo‘yicha tavsiyalarini o‘zlashtirish zarurligini belgilaydi. Ijtimoiy-psixologik usullarning o‘ziga xosligi boshqaruv jarayonida

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

norasmiy omillar, shaxs, guruh va umuman jamoa manfaatlaridan foydalanishning muhim ulushidan iborat.

Shu ma'noda quyidagi fikrlar ayniqsa muhimdir:

- odamlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat jamoalarini shakllantirish;
- hamkorlikning qulay ijtimoiy-psixologik muhitini yaratish va saqlash;
- ijtimoiy xulq-atvor normalarini o'rnatish va rivojlantirish;
- zarur o'quv ishlari, xulq zamonaviy jamiyatda o'z imidjini, hokimiyatni oshirish teatr korporativ shaxsini yaratish.

Teatr direktori, xodimlarning biznes aloqalari tashkilotchisi sifatida, odatda, o'z amaliyotida har uch guruh usullaridan foydalanadi va ular aloqaning mazmuni va mohiyatiga va menejer va bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabatlarga o'z izlarini qoldiradilar.

Sotsiotexnik tizim sifatida tashkilotni boshqarishning barcha xilma-xil faoliyati cheklangan miqdordagi funksiyalarni bajarish jarayoni sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Funksiya boshqaruvning obyektiv tarkibiy qismidir, umuman boshqaruvning bunday qismining namoyon bo'lishi - butun sifatida namoyon bo'lish sharti bo'lib qoladi.

Asosiy funksiyalar:

– rejalashtirish; – buxgalteriya;
– tashkilot;
– rag'batlantirish;
– nazorat.

Ba'zan ko'p sonli funksiyalar ko'rsatiladi, ammo boshqaruv faoliyatining boshqa turlari bu asosiy funksiyalar uchun ishlaydi. Bu funksiyalarning bajarilishi axborot uzatish (kommunikatsiyalar) jarayonlari bilan yo'g'rilgan.[4]

Teatr faoliyatini rejalashtirish - bu uning rivojlanish maqsadlari, vazifalari va ularni amalga oshirish vositalari va ma'lum bir davr uchun rivojlanish ko'rsatkichlarining ilmiy ta'rifi. U boshqaruv tizimida markaziy o'rinni egallab, teatr faoliyatining hozirgi davr va kelajak uchun asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, bu esa faoliyat birligini ta'minlaydi. Bo'lim vazifalariga teatr oldida turgan vazifalarni bajarish uchun o'z faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan tarkibiy bo'linmalarning rejalarini muvozanatlash, sozlash va muvofiqlashtirish kiradi.

Buxgalteriya hisobi boshqaruv funksiyasi sifatida teatr jarayonlarining miqdoriy va sifat jihatlarini tavsiflovchi aniq ma'lumotlarni ro'yxatga olish orqali teatr faoliyatining holati va rivojlanishi haqida muntazam ma'lumotlar to'plamidir.

Teatr ishini tashkil etish - bu boshqaruv subyektining teatr faoliyatini ta'minlash va uning ishiga maqbul natijalarga erishishga qaratilgan faoliyat. Teatrning optimal tuzilishini aniqlashga teatr texnologik jarayonlarini qurish, teatrni resurslar (kadrlar, moliya, moddiy-texnik baza) bilan ta'minlash kiradi.

Teatrlar faoliyatida boshqaruvning natijadorlikka olib boradigan usullarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi, albatta.

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan 2024-yil 22-noyabrdagi "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ularning faoliyatini yanada qo'llab-

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 399-son qarori sohada yuksalishning yangi davriga yo‘l ochdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.[5] Xususan, ushbu hujjatda 2025–2030 yillarda “Milliy qahramon” va “Inson qadri uchun” mavzularida jami 32 ta spektakl sahnalashtirilishi belgilangani teatrlarimizdagi ijodiy jarayonlarni yanada faollashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi tomoshabin hayot haqiqatini xolis va haqqoniy tasvirlagan, yaxlit badiiy mazmunga ega sahna asarlariga ehtiyoj sezmoqda. Endilikda yengil-yelpi mavzularga asoslangan, mazmundan yiroq tomoshalar orqali odamlar qalbiga yo‘l topish imkoni deyarli yo‘q. Ayniqsa, internet sahifalarida ma’nisiz kontentlar haddan tashqari ko‘paygan hozirgi sharoitda sahna asarlari badiiy saviyasini oshirish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Shu ma’noda, Prezidentimiz qarorida teatr dramaturglari uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy, yosh rejissyorlar uchun esa Bahodir Yo‘ldoshev nomidagi mukofotlarni ta’sis etish belgilangani ayni muddao bo‘ldi. Zero, bugungi kunda teatr sohasida dramaturgiya eng dolzarb va og‘riqli masalalardan biri hisoblanadi. Yangi ruhdagi spektakllarni yaratish uchun, avvalo, mahoratli, zamonaviy qarashlarga ega dramaturglar zarur. Afsuski, shu paytgacha bu yo‘nalishda katta bo‘shliq mavjud edi.[6] Aynan dramaturgiya sohasida nufuzli mukofotning ta’sis etilishi iste’dodli va tajribali yozuvchi-shoirlarning ushbu murakkab, ammo sermazmun janrga qiziqishini oshiradi, natijada yangi, hayotiy va badiiy jihatdan mukammal sahna asarlari yaratilishiga yo‘l ochiladi. Xuddi shuningdek, Bahodir Yo‘ldoshev nomidagi mukofot ham teatr san’atiga ixtisoslashayotgan, zamonaviy fikrlaydigan, kreativ yondashuvga ega yosh rejissyorlarning ushbu sohaga qiziqishini kuchaytirib, ularning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, sog‘lom ijodiy raqobat muhiti vujudga kelishiga, teatrlarimizda badiiy va rejissyorlik maktablarining shakllanishiga va teatrlardagi boshqaruvchilar yani, menejerlarning kasbiy malakasini oshishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. G‘aybullayeva M., “Madaniyat menejmentida innovatsion yondashuvlar”. – Toshkent: Ijtimoiy fanlar, 2023.
2. Nazarov A., “Teatr va sahna san’atining metodik asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at instituti nashriyoti, 2020.
3. Eshonqulova N., “Madaniy kommunikatsiyalar tizimi va boshqaruv”. – Toshkent: Davr Press, 2022.
4. Ravshanov O., “O‘zbek teatrining taraqqiyot bosqichlari”. – Toshkent: Sharq, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ularning faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 399-son qarori.
6. Sayfullayev N. “Teatr ibratxonadir”. “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazetasining 2024-yil 6-dekabr kuni 248-soni. 6-bet.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

7. Fayziyev, To‘rabek Raufovich, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. "TEATR VA KONSERT TOMOSHOLARINI BOSHQARISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 50-56.
8. Xayriddinova, Asal Farhod Qizi, and Mo‘Minmirzo Xolmo‘Minov. "TEATR VA AKTYORLIK SAN’ATI." Oriental Art and Culture 3.4 (2022): 174-177.
9. To‘G‘Onboyeva, Ziyodaxon Dilshodjon Qizi, and Xolmo‘minov Zokir O‘g‘Li Mo‘minmirzo. "YANGI O ‘ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIGA QARATILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 626-630.
10. Xolmo‘minov, Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li. "20172022-YILLAR MOBAYNIDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SARHISOBI." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 558-567.
11. O’G’Li, Mo’Minmirzo Zokir. "TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 57-62.
12. Zokir og’li, Muminmirzo Kholmuminov. "CHARACTERISTICS OF THEATER AND CONCERT PERFORMANCE MANAGEMENT." AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE 3.5 (2025): 81-86.
13. Fayziyev, To‘Rabek Raufovich, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. "MADANIYAT VA SAN’AT SOHASI MENEJMENTIDA LOYIHALAR FAOLIYATI." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 41-49.
14. Mardiyev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Xolmo‘minov Zokir O‘g‘Li Mo‘minmirzo. "YANGI O ‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSH RAHBARLARGA QO ‘YILADIGAN TALABLAR." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 243-247.
15. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The formation of the first libraries in Uzbekistan and the role of increasing the cultural and educational awareness of the population." image 4.12 (2021): 146-151.
16. Xolmo‘Minov, M. Z. "YANGI O ‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIGA QARATILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR." Inter education & global study 9 (2024): 344-355.G.I.Muxamedova.Xonandalik uslubiyati asoslari/o‘quv-uslubiy qo‘llanma/T., 2007 63 b.
17. G.I. Muxamedova. Xonandalikdan dars berish uslubiyoti /darslik/ T., 2021 188 b
18. Морозов. Л.Н. Школа классического вокала. [Электронный ресурс] – Электрон. дан. – СПб. : Лан, Планета музыки, 2013. – 48 б. – Режим доступа: http://e.ланбоок.сом/боок/10259 — Загл. с экрана. + ДВД.
19. M.X.Xodjaeva.Xonandalikni o‘qitish metodikasi.(o‘quv qo‘llanma).-To shkent. 2024 150 b.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

KELAJAK O‘QITUVCHILARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Nuriddinova Maysara Ikramovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston
Yesmagambetova Galiya Qayratovna, Samarqand davlat pedagogika instituti doktoranti, Samarqand, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

Kirish: axborot xavfsizligi, pedagogik tayyorgarlik, axborot xavfsizligi madaniyati, biometrik autentifikatsiya, raqamli ta’lim muhiti, bo‘lajak o‘qituvchilar. jihatlari ko‘rib chiqiladi. Axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishning tarkibiy-funksional modeli taklif etilgan, uni amalga oshirishning pedagogik mexanizmlari ochib berilgan, shuningdek, tajriba-eksperimental ish natijalari keltirilgan.

Maqsad: axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishning tarkibiy-funksional modelini taklif qilish va uni amalga oshirishning pedagogik mexanizmlarini ochib berish.

Materiallar va metodlar: tadqiqotda pedagogik modellashtirish, biometrik autentifikatsiya usullarini tahlil qilish hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama: axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishning tarkibiy-funksional modeli ishlab chiqildi. natijalar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan mexanizmlar bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli muhitdagi xavfsiz faoliyatini ta’minlash samaradorligini oshiradi.

Xulosa: bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot xavfsizligi madaniyatini tizimli ravishda shakllantirish raqamli ta’lim muhitida kiberxavfsizlikni ta’minlashning muhim pedagogik sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: axborot xavfsizligi, pedagogik tayyorgarlik, axborot xavfsizligi madaniyati, biometrik autentifikatsiya, raqamli ta’lim muhiti, bo‘lajak o‘qituvchilar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Нуриддинова Майсара Икрамовна, доцент, Самаркандский государственный педагогический институт, г. Самарканд, Узбекистан
Есмагамбетова Галия Кайратовна, докторант Самаркандского государственного педагогического института, г. Самарканд, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются теоретические и прикладные аспекты формирования культуры информационной безопасности будущих учителей в условиях цифровой трансформации образования. Предложена структурно-функциональная модель формирования культуры информационной безопасности, раскрыты педагогические механизмы её реализации, а также представлены результаты опытно-экспериментальной работы.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Цель: предложение структурно-функциональной модели формирования культуры информационной безопасности и раскрытие педагогических механизмов её реализации.

Материалы и методы: в исследовании использовались методы педагогического моделирования, анализ методов биометрической аутентификации и результаты опытно-экспериментальной работы.

Результаты и обсуждение: разработана структурно-функциональная модель формирования культуры информационной безопасности. результаты показывают, что предложенные механизмы повышают эффективность обеспечения безопасной деятельности будущих учителей в цифровой среде.

Заключение: системное формирование культуры информационной безопасности будущих учителей является важным педагогическим условием обеспечения кибербезопасности в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: информационная безопасность, педагогическая подготовка, культура информационной безопасности, биометрическая аутентификация, цифровая образовательная среда, будущие учителя.

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR THE FORMATION OF A CULTURE OF INFORMATION SECURITY FOR FUTURE TEACHERS

Yesmagambetova Galiya Kairatovna, doctoral student at Samarkand State Pedagogical Institute, Samarkand, Uzbekistan
Nuriddinova Maisara Ikramovna, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Samarkand State Pedagogical Institute, Samarkand, Uzbekistan

ANNOTATION

INTRODUCTION: the article examines the theoretical and applied aspects of the formation of a culture of information security for future teachers in the context of digital transformation of education. A structural and functional model for the formation of an information security culture is proposed, pedagogical mechanisms for its implementation are disclosed, and the results of experimental work are presented.

Objective: to propose a structural-functional model for forming an information security culture and to reveal the pedagogical mechanisms of its implementation.

Materials and Methods: the study utilized pedagogical modeling, analysis of biometric authentication methods, and the results of experimental research work.

Results and Discussion: a structural-functional model for the formation of information security culture has been developed. the findings indicate that the proposed mechanisms enhance the effectiveness of ensuring the safe professional activity of future teachers in the digital environment.

Conclusion: the systematic formation of an information security culture among future teachers serves as a crucial pedagogical condition for ensuring cybersecurity within the digital educational environment.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Keywords: information security, pedagogical training, information security culture, biometric authentication, digital educational environment, future teachers.

Современные тенденции цифровизации образования обусловливают необходимость переосмысления содержания профессиональной подготовки будущих учителей. Интенсивное внедрение информационно-коммуникационных технологий, систем дистанционного обучения, облачных сервисов и интеллектуальных платформ приводит к увеличению количества информационных рисков, связанных с обработкой и передачей данных. В этой связи формирование культуры информационной безопасности становится важнейшим компонентом профессиональной компетентности педагога [1].

Культура информационной безопасности будущего учителя представляет собой интегративное качество личности, включающее знания о современных угрозах, ценностное отношение к защите информации, практические навыки безопасного поведения и способность к рефлексии собственной цифровой деятельности [2]. Однако анализ образовательных программ показывает, что данный аспект подготовки реализуется недостаточно системно, что требует разработки новых педагогических механизмов.

Дополнительную актуальность приобретает использование биометрических технологий в образовательной среде. Современные системы управления обучением и онлайн-прокторинга активно используют методы биометрической идентификации (распознавание лица, голоса, поведенческие характеристики), что требует от педагогов понимания принципов их функционирования, а также правовых и этических аспектов их применения. [3].

Целью настоящего исследования является разработка и обоснование педагогических механизмов формирования культуры информационной безопасности будущих учителей с использованием биометрических технологий.

Методология исследования. Методологическую основу исследования составили системный, деятельностный и компетентностный подходы, которые позволяют всесторонне рассмотреть процесс формирования культуры информационной безопасности.

В исследовании использовались следующие методы:

– теоретический: анализ научной литературы, обобщение, моделирование педагогических процессов.;

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

– эмпирические: педагогический эксперимент, тестирование, анкетирование, экспертная оценка;

– методы математической статистики: расчет средних значений, дисперсия, критерий Стьюдента для оценки достоверности различий.

Теоретические основы формирования культуры информационной безопасности. Понятие культуры информационной безопасности в педагогике рассматривается как системное образование, включающее когнитивный, ценностно-мотивационный, деятельностный и рефлексивный компоненты. Когнитивный компонент отражает уровень знаний обучающихся о современных угрозах информационной безопасности, методах защиты данных и принципах функционирования цифровых систем. Ценностно-мотивационный компонент связан с формированием ответственного отношения к использованию информационных ресурсов и осознанием значимости защиты персональных данных.

Деятельностный компонент предполагает сформированность практических умений безопасного использования цифровых технологий, включая применение методов аутентификации, управление доступом и соблюдение норм кибергигиены. Рефлексивный компонент обеспечивает способность обучающихся к анализу собственных действий в цифровой среде и оценке возможных рисков [4].

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Таблица 1 – Структура культуры информационной безопасности

Компонент	Содержание	Показатели
Когнитивный	Знания о угрозах и методах защиты	Уровень теоретической подготовки
Мотивационный	Осознание значимости безопасности	Ценностные установки
Деятельностный	Практические навыки	Умение применять методы защиты
Рефлексивный	Анализ собственной деятельности	Способность к самооценке

Формирование указанных компонентов требует реализации комплекса педагогических условий, включающих интеграцию содержания информационной безопасности в учебные дисциплины, использование практико-ориентированных методов обучения и организацию рефлексивной деятельности обучающихся.

Биометрические технологии как средство формирования культуры информационной безопасности

Биометрические системы основаны на анализе уникальных характеристик личности. Их применение в образовательной среде повышает уровень защищенности и обеспечивает достоверную идентификацию пользователей К наиболее распространённым биометрическим методам относятся распознавание лица, отпечатков пальцев, радужной оболочки глаза, а также анализ голосовых и поведенческих характеристик [5].



Рисунок 1. Архитектура биометрической аутентификации в образовательной системе

В образовательной среде биометрические технологии находят применение в системах контроля доступа, электронного обучения и онлайн-прокторинга. Их использование позволяет повысить уровень защищённости образовательных ресурсов и обеспечить достоверную идентификацию обучающихся.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

С педагогической точки зрения, включение биометрических технологий в образовательный процесс способствует формированию у студентов системного понимания современных механизмов защиты информации. Практическая работа с биометрическими системами позволяет обучающимся осваивать принципы их функционирования, анализировать показатели точности, такие как коэффициент ложного допуска (FAR) и коэффициент ложного отказа (FRR), а также оценивать риски, связанные с обработкой персональных данных.

Формально показатели эффективности биометрической системы могут быть представлены следующим образом:

$$FAR = \frac{N_{false_accept}}{N_{attempts}} \quad (1)$$

$$FRR = \frac{N_{false_reject}}{N_{attempts}} \quad (2)$$

где N_{false_accept} — количество ложных допусков, N_{false_reject} — количество ложных отказов, $N_{attempts}$— общее количество попыток аутентификации.

Анализ указанных показателей позволяет оценить надёжность биометрической системы и сформировать у обучающихся навыки критической оценки технологий информационной безопасности.

Разработанная модель формирования культуры информационной безопасности будущих учителей представляет собой структурно-функциональную систему, включающую целевой, содержательный, процессуальный и результативный блоки.

Целевой блок ориентирован на формирование устойчивых знаний, умений и ценностных установок в области информационной безопасности. Содержательный блок включает учебные модули, посвящённые основам кибербезопасности, методам защиты информации и биометрическим технологиям. Процессуальный блок реализуется через использование активных методов обучения, таких как проблемное обучение, кейс-метод, проектная деятельность и цифровые лабораторные практикумы. Результативный блок отражает уровни сформированности культуры информационной безопасности.

Педагогические механизмы реализации модели включают:

– интеграцию междисциплинарного содержания в образовательные программы;

– организацию практических занятий с использованием биометрических систем;

– моделирование ситуаций информационных угроз;

– развитие рефлексивных умений обучающихся.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Особое значение имеет включение студентов в проектную деятельность, направленную на разработку прототипов систем биометрической аутентификации в образовательной среде.

Анализ и результаты. Полученные данные свидетельствуют о значительном повышении уровня сформированности культуры информационной безопасности у студентов экспериментальной группы. Наиболее выраженные изменения зафиксированы в деятельностном компоненте, что обусловлено использованием практико-ориентированных методов обучения.

Корреляционный анализ показал зависимость между уровнем освоения биометрических технологий и общим уровнем культуры информационной безопасности:

$$r = 0.71 \quad (3)$$

что свидетельствует о высокой степени взаимосвязи.

Результаты исследования согласуются с современными научными подходами, подтверждающими необходимость интеграции технологий информационной безопасности в образовательный процесс [5]. Использование биометрических технологий позволяет повысить уровень практической подготовки студентов.

В то же время были выявлены ограничения, связанные с необходимостью соблюдения стандартов защиты персональных данных и этических требований.

Вывод. Проведенное исследование подтвердило гипотезу о том, что использование биометрических технологий в образовательном процессе способствует повышению уровня культуры информационной безопасности будущих учителей.

Разработанные педагогические механизмы могут быть использованы при модернизации образовательных программ и внедрении инновационных технологий обучения.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Астахова Л. В. Информационная безопасность: учебное пособие. — Москва: Академия, 2018. — 256 с.
2. Баранова Е. В. Цифровая педагогика: теория и практика. — Санкт-Петербург: Питер, 2020. — 320 с.
3. Григорьев С. Г. Информационные технологии в образовании: учебник для вузов. — Москва: Юрайт, 2019. — 317 с.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

4. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. — Москва: Академия, 2017. — 272 с.
5. Касперский Е. В. Компьютерные угрозы и защита информации. — Москва: БХВ-Петербург, 2019. — 400 с.Security: Principles and Practice. — 7th ed. — Boston: Pearson, 2017. — 768 p.
6. Schneier B. Applied Cryptography: Protocols, Algorithms, and Source Code in C. — 20th Anniversary ed. — New York: Wiley, 2015. — 784 p.
7. Daugman J. Information Theory and the IrisCode. — IEEE Transactions on Information Forensics and Security. — 2015. — Vol. 11(2). — P. 400–409.
8. Kumar A., Zhang D. Personal Recognition Using Hand Shape and Texture. — IEEE Transactions on Image Processing. — 2006. — Vol. 15(8). — P. 2454–2461.
9. Bishop M. Computer Security: Art and Science. — Boston: Addison-Wesley, 2018. — 1136 p.
10. ISO/IEC 27001:2013 Information Technology — Security Techniques — Information Security Management Systems — Requirements. — Geneva: ISO, 2013.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TEXNOLOGIYA O‘QITISH METODIKASI ASOSIDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH

Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi, Qo‘qon universiteti ta’lim kafedrasi dotsenti v.b.

ANNOTATSIYA

Kirish: maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologiya fanini o‘qitish metodikasi asosida texnologik kompetentlikni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. texnologiya fani boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim poydevor hisoblanadi.

Maqsad: bo‘lajak o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslarini tadqiq etish va oliy ta’lim jarayonida ushbu yo‘nalish samaradorligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatib berish.

Materiallar va metodlar: tadqiqotda metodik tahlil, texnologik kompetentlikning tarkibiy qismlarini modellashtirish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologiya fanini o‘qitish metodikasi oliy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy mahoratini oshiradi. texnologik kompetentlikning asosiy komponentlari aniqlanib, ularni rivojlantirishning interaktiv metodlari ko‘rib chiqildi.

Xulosa: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida texnologik kompetentlikni tizimli rivojlantirish ularning kelgusi pedagogik faoliyatida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: bilim, ta’lim, ko’nikma, malaka, metodika, kompetensiya, kompetentlilik, amaliy mashg’ulot, texnologiya, mehnat, kasb-hunar, rivojlantirish.

РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ МЕТОДОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ

Комильонова Гулузрахон Низамджон кизи, доцент кафедры образования Кокандского университета, исполняющая обязанности.

АННОТАЦИЯ

Введение: в статье анализируются вопросы развития технологической компетентности будущих учителей начальных классов на основе методики преподавания предмета «технология». предмет технология в начальном образовании является важным фундаментом для формирования творческих и практических навыков учащихся.

Цель: исследование методических основ развития технологической компетентности будущих учителей и определение путей повышения эффективности данного направления в процессе высшего образования.

Материалы и методы: в исследовании использовались методы методического анализа, моделирования структурных компонентов технологической компетентности и педагогического наблюдения.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Результаты и обсуждение: результаты исследования показывают, что методика преподавания предмета технология повышает профессиональное мастерство студентов в вузе. определены основные компоненты технологической компетентности и рассмотрены интерактивные методы их развития.

Заключение: системное развитие технологической компетентности будущих учителей начальных классов обеспечивает эффективное использование инновационных образовательных технологий в их дальнейшей педагогической деятельности.

Ключевые слова: знания, образование, навыки, квалификация, методология, компетентность, практическая подготовка, технология, труд, профессия, развитие.

DEVELOPMENT OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY TEACHERS ON THE BASIS OF TECHNOLOGY TEACHING METHODOLOGY

Komiljonova Guluzrahon Nizamjon kizi, Associate Professor of the Department of Education, Kokand University, acting.

ANNOTATION

Introduction: the article analyzes the issues of developing the technological competence of future primary school teachers based on the methodology of teaching the "technology" science. technology education serves as a crucial foundation for shaping the creative and practical skills of students in primary education.

Objective: to research the methodological foundations for developing the technological competence of future teachers and to demonstrate ways to increase the efficiency of this process in higher education.

Materials and Methods: the study utilized methods of methodological analysis, modeling the structural components of technological competence, and pedagogical observation.

Results and Discussion: research findings indicate that the methodology of teaching technology enhances the professional skills of students during higher education. the main components of technological competence were identified, and interactive methods for their development were reviewed.

Conclusion: the systematic development of technological competence in future primary school teachers ensures their effective use of innovative educational technologies in their future pedagogical activities.

Keywords: information security, pedagogical training, information security culture, biometric authentication, digital educational environment, future teachers.

Boshlang‘ich ta’lim shaxsning intellektual, amaliy va estetik salohiyatini shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Shu bosqichda o‘quvchilarda mehnatga munosabat,

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ijodiy fikrlash, qo‘l mehnati ko‘nikmalari va mustaqil faoliyatning boshlang‘ich asoslari shakllanadi. Ayniqsa, texnologiya (mehnat) fani o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, texnik tafakkur, estetik did va innovatsion yondashuvni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologiya fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha tayyorgarligi va texnologik kompetentligi yuqori darajada bo‘lishi zarur.

Pedagogik nazariyalarda mehnat va amaliy faoliyatning shaxs rivojidagi o‘rni ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Mutafakkirlarimizdan biri Abu Nasr Forobiy nazariy bilim va amaliyotni uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlab o‘tgan. Ibn Sino esa bilimni mustahkamlashning eng samarali yo‘li uni amaliyotda qo‘llash ekanligini qayd etgan. Alisher Navoiy mehnatni insonni komillikka yetkazuvchi vosita sifatida ulug‘lagan. Y.A.Komenskiy ko‘rgazmalilik va amaliyotga asoslangan o‘qitish metodlarini ilgari surgan, Kanstantin Dimitriyevich Ushinskiy shaxs rivojida mehnat tarbiyasining ahamiyatini ta’kidlagan, A.S. Makarenko esa jamoaviy mehnat orqali shaxsni tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan. Ushbu qarashlar bugungi kunda texnologiya fanini o‘qitish metodikasining nazariy asosini tashkil qiladi va bu oliy ta’limda fan bo‘yicha malaka oshirishning poydevori hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar texnologik kompetentlikni pedagogning nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishi, balki bilimni amaliyotda qo‘llay olish, o‘quvchilarga samarali yetkazish, darsni ijodiy tashkil etish va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati sifatida tushuntiradi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentliligini rivojlantirish pedagogik faoliyatga tayyorlash, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash va metodik mahoratni oshirish bilan bog‘liq.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-avgustdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori” texnologiya fani va pedagoglarning malakasini oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu qaror amaliy mashg‘ulotlar, loyihaviy va ijodiy faoliyat orqali texnologik kompetentlikni shakllantirish zaruratini kuchaytiradi.

Oliy ta’limda texnologiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, amaliy mashg‘ulotlarini kengaytirish va talabalarni hayotiy vaziyatlarga yo‘naltirish bugungi pedagogik amaliyotning dolzarb masalalaridan biridir. Shu jihatdan, bo‘lajak o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning sifatini oshirishga hissa qo‘shadi.

METODOLOGIYA. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik kompetentlikni rivojlantirishda tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv samarali. Tadqiqotlar quyidagi usullar asosida olib borilgan:

- nazariy tahlil;
- pedagogik kuzatuv;
- amaliy mashg‘ulotlar va tajriba-sinovlar;
- natijalarni solishtirish va qiyosiy tahlil.

Texnologik kompetentlikni baholashda motivatsion, kognitiv, operatsion va reflektiv komponentlar asosiy mezon sifatida ishlatilgan. Shu mezonlar orqali talabalar fan bo‘yicha

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

qiziqishi, nazariy bilim darajasi, amaliy ko‘nikmalar va o‘z faoliyatini baholash qobiliyati aniqlangan.

NATIJALAR. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

- amaliy mashg‘ulotlar ulushi yuqori bo‘lgan metodika talabalar texnologik kompetentligini oshiradi;
- loyihaviy faoliyat, ustaxona mashg‘ulotlari va amaliy topshiriqlar orqali talabalar mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga o‘rgatiladi;
- ustaxona mashg‘ulotlari qo‘l mehnati ko‘nikmalarini rivojlantiradi va real pedagogik vaziyatlarga tayyorlaydi.

Masalan, bir sinfda talabalar tomonidan amalga oshirilgan loyiha ishlarida, amaliy topshiriqlarni to‘liq bajarish natijasida o‘quvchilarning ijodiy yondashuvi 30–40% ga ortgani qayd etilgan.

MUHOKAMA. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik kompetentlikni rivojlantirishda nazariya va amaliyotning uzviy uyg‘unligi eng muhim omil hisoblanadi. Faqat nazariy bilimga tayanish texnologiya fanining mohiyatiga mos kelmaydi, chunki bu fan o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki amaliy ko‘nikmalar va muammolarni hal etish qobiliyatini oshiradi. Shu sababli ustaxona mashg‘ulotlari, amaliy topshiriq va loyiha ishlari ta’lim jarayonida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalar texnologik jarayonlarni o‘zlashtiradi, materiallar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va real pedagogik vaziyatlarga tayyorlanadi.

Shuningdek, reflektiv faoliyatni rivojlantirish bo‘lajak pedagoglarning o‘z ishini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish qobiliyatini oshiradi. Bu nafaqat texnologik kompetentlikni kuchaytiradi, balki talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvni qo‘llashga va dars jarayonini samarali tashkil etishga o‘rgatadi. Motivatsion muhit yaratish esa talabalarni faol ishtirok etishga undaydi, ular darslarda faqat kuzatuvchi emas, balki faol ijodkor sifatida qatnashadi.

Prezident qarorlari va farmonlarida ta’kidlanganidek, oliy ta’lim muassasalarida texnologiya fanini o‘qitish metodikasi amaliy mashg‘ulotlar va innovatsion pedagogik metodlarni keng joriy etishga yo‘naltirilishi lozim. Bu pedagogik jarayonda texnologik kompetentlikni rivojlantirishni yanada kuchaytiradi va bo‘lajak o‘qituvchilarni real pedagogik vaziyatlarga tayyorlaydi. Shu bilan birga, loyiha ishlari va amaliy topshiriqlar talabalarda muammolarni hal etish qobiliyatini oshiradi, jamoaviy ishlashni rag‘batlantiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida individual yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar o‘z qiziqishlari va bilim darajasiga moslashtirilgan topshiriqlarni bajarish orqali o‘z malakasini bosqichma-bosqich oshiradi. Shu yo‘l bilan nafaqat amaliy ko‘nikmalar, balki nazariy bilimlarni qo‘llash qobiliyati ham mustahkamlanadi.

Umuman olganda, texnologik kompetentlikni shakllantirishda nazariy, amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirish, reflektiv tahlil va loyihaviy faoliyatni keng joriy etish, shuningdek, motivatsion muhit yaratish pedagogik samaradorlikni oshiradi. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada mustahkamlaydi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

va ularni real pedagogik jarayonlarga tayyorlaydi. Shu tarzda tashkil etilgan metodik yondashuvlar ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash, o'quvchilarning ijodiy va amaliy salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnologiya fanini o'qitish metodikasi asosida texnologik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Texnologik kompetentlik pedagogning nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki bu bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, darsni samarali tashkil etish va o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan qaralganda, bu yo'nalish nafaqat o'qituvchi malakasini oshirishga, balki boshlang'ich ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiya fanini o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlar, ustaxona va laboratoriya ishlari, loyihaviy faoliyat va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalar texnologik kompetentligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlashga, balki amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, reflektiv faoliyat va tizimli tahlil pedagoglarni o'z faoliyatini doimiy ravishda baholashga, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltiradi, bu esa texnologik kompetentlikning barqaror shakllanishini ta'minlaydi.

Shu asosda tavsiyalar quyidagicha izohlanadi: oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fanini amaliy yo'naltirish asosida o'qitish metodikasini qayta ko'rib chiqish, ustaxona va laboratoriya mashg'ulotlarini kengaytirish, talabalarni loyihaviy va ijodiy faoliyatga jalb etish, dars jarayonida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qo'llash, shuningdek, reflektiv tahlilni tizimli tashkil etish zarur. Bularning barchasi bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi, ularning o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarni samarali yetkazish qobiliyatini oshiradi, natijada boshlang'ich ta'lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, texnologik kompetentlikni rivojlantirishni samarali tashkil etish nafaqat oliy ta'lim tizimining vazifasi, balki butun ta'lim jarayonida pedagogik yondashuvni izchil va amaliy yo'naltirishni talab qiladi. Shu sababli, mazkur tavsiyalarni amalga oshirish bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini mustahkamlash va ular orqali o'quvchilarning amaliy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga bevosita hissa qo'shadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnologiya fanini o'qitish metodikasi asosida texnologik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishidir. Tavsiyalar:

1. Oliy ta'limda texnologiya fanini amaliy yo'naltirish asosida o'qitish metodikasini qayta ko'rib chiqish;
2. Ustaxona va laboratoriya mashg'ulotlarini kengaytirish;
3. Talabalarni loyihaviy va ijodiy faoliyatga jalb etish;
4. Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qo'llash;
5. Reflektiv tahlilni tizimli tashkil etish.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Forobiy, Abu Nasr. *Fozil odamlar shahri*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Ibn Sino. *Donishnoma*. Toshkent: Fan, 2011.
3. Navoiy, Alisher. *Mahbub ul-qulub*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017.
4. Komenskiy, Ya.A. *Buyuk didaktika*. Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
5. Ushinskiy, K.D. *Pedagogika asarlari*. Moskva, 1988.
6. Makarenko, A.S. *Pedagogik poema*. Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
7. Slastenin, V.A. *Pedagogika*. Moskva: Akademiya, 2013.
8. Zimnyaya, I.A. *Klyuchevye kompetensii – novaya paradigma obrazovaniya*. Moskva, 2004.
9. Xutorskoy, A.V. *Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii*. Moskva, 2005.
10. Polat, E.S. *Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya*. Moskva, 2010.
11. O‘zbekiston Respublikasi *“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni*. Toshkent, 2020.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to‘plami. Toshkent, 2022.
13. QIZI, K. G. N. BO ‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *KASB-HUNAR TA’LIMI МУНДАРИЖА*, 127. QIZI, KOMILJONOVA GULUZRAXON NIZOMJON. "BO ‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI." *KASB-HUNAR TA’LIMI МУНДАРИЖА*: 127.
14. Abduraxmonova, N. "BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI." *Science and innovation* 1.B8 (2022): 2114-2121.
15. 2. Abduraxmonova, N. (2022). BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI. *Science and innovation*, *1*(B8), 2114-2121.
16. Mo‘bina, M. (2025). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA-FANLARARO ALOQADORLIK. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *46*(2), 12-16. Mo‘bina, Madumarova. "BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA-FANLARARO ALOQADORLIK." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 46.2 (2025): 12-16. Mo‘bina M. et al. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA-FANLARARO ALOQADORLIK //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – Т. 46. – №. 2. – С. 12-16.
17. QIZI K. G. N. BO ‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI //KASB-HUNAR TA’LIMI МУНДАРИЖА. – С. 127. QIZI, KOMILJONOVA GULUZRAXON NIZOMJON. "BO ‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI." *KASB-HUNAR TA’LIMI МУНДАРИЖА*:

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

127. QIZI, K. G. N. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *KASB-HUNAR TA’LIMI МУНДАРИЖА*, 127.

18. Komiljonova G. N. BO ‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH //Inter education & global study. – 2025. – Т. 3. – №. 6 (1). – С. 182-197. Komiljonova, G. N. "BO ‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH." *Inter education & global study* 3.6 (1) (2025): 182-197. Komiljonova, G. N. (2025). BO ‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH. *Inter education & global study*, *3*(6 (1)), 182-197.
19. Orlova, K. V., Fedyanin, M. Y., Simanenkov, K. E., Dergunov, A. S., Goldshmidt, P. R., Saydullaeva, A. F., ... & Demidov, L. V. (2022). Real-world efficacy of the first line therapy with prolgolimab in patients with metastatic melanoma: interim results of the FORA (FOrteca Real practice Assessment) observational study. Journal of Modern Oncology, 24(4), 413-425.

© intereduglobalstudy.com

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

QASHQADARYO VILOYATI – NOMODDIY MADANIY MEROS NAMUNALARI

Sardor Tojiboyev, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Kirish: nomoddiy madaniy meros milliy identitetning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, jamiyatning ma’naviy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Qashqadaryo vohasi o‘zining boy urf-odatlari va marosimlari bilan O‘zbekiston madaniy landshaftida alohida o‘rin tutadi.

Maqsad: Qashqadaryo viloyatining nomoddiy madaniy merosini tahlil qilish, uning jamiyat hayotidagi o‘rnini va asrab-avaylash strategiyalarini o‘rganish.

Materiallar va metodlar: etnografik kuzatuv, urf-odat va marosimlarni qiyosiy tahlil qilish, xalq og‘zaki ijodi va hunarmandchilikni interpretativ o‘rganish metodlari qo‘llanildi. Navro‘z, chilla va beshik to‘yi misol sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar va muhokama: tadqiqot natijalari Qashqadaryodagi nomoddiy meros turli amaliyotlarni, jumladan mavsumiy marosimlar, oilaviy udumlar va hunarmandchilikni qamrab olishini ko‘rsatdi. bu amaliyotlar jamiyatni birlashtiradi, ajdodlar e’tiqodlarini saqlaydi va madaniy davomiylikni ta’minlaydi. xalq hunarmandchiligi, jumladan to‘qimachilik va kulolchilik milliy qadriyatlarni ifodalaydi va avloddan-avlodga ko‘nikmalarni uzatadi.

Xulosa: Qashqadaryo viloyatining nomoddiy madaniy merosi ijtimoiy identitet va madaniy barqarorlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. uni asrab-avaylash tizimli hujjatlashtirish, jamoatchilik ishtiroki va ta’limiy hamda madaniy siyosatga integratsiyani talab etadi.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, Qashqadaryo vohasi, urf-odat, marosim, Navro‘z, chilla, beshik to‘yi, e’tiqod, xalq hunarmandchiligi, milliy qadriyat

КАШКАДАРИЙСКАЯ ОБЛАСТЬ – ПРИМЕРЫ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

Сардор Тоджибоев, научный сотрудник Научно-исследовательского института культурологии и нематериального культурного наследия

АННОТАЦИЯ

Введение: нематериальное культурное наследие является важным элементом национальной идентичности, отражающим духовные и культурные ценности общества. Кашкадарьинская область со своими богатым традициями и обрядами занимает особое место в культурном ландшафте Узбекистана.

Цель: проанализировать нематериальное культурное наследие Кашкадарьинской области и изучить его роль в жизни общества и стратегии сохранения.

Материалы и методы: использованы методы этнографического наблюдения, сравнительного анализа традиций и обрядов, интерпретативного

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

изучения устного народного творчества и ремесла. в качестве примеров рассмотрены празднование Навруза, обряды чиллы и колыбельные церемонии.

Результаты и обсуждение: исследование показало, что нематериальное наследие Кашкадарьи включает разнообразные практики: сезонные обряды, семейные традиции и ремесло. эти практики укрепляют социальные связи, сохраняют верования предков и обеспечивают культурную преемственность. народное ремесло, включая ткачество и гончарство, выражает национальные ценности и передаёт навыки из поколения в поколение.

Заключение: нематериальное культурное наследие Кашкадарьинской области играет важную роль в формировании социальной идентичности и культурной устойчивости. его сохранение требует систематической документации, участия общества и интеграции в образовательную и культурную политику.

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, Кашкадарьинский оазис, обычаи, обряды, Навруз, чилла, колыбельная, верования, народные ремёсла, национальные ценности

KASHKADARYA REGION – EXAMPLES OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE

Sardor Tojiboyev, Research Fellow, Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

ANNOTATION

Introduction: intangible cultural heritage is an essential component of national identity, reflecting the spiritual and cultural values of society. the Qashqadaryo region, with its rich traditions and rituals, represents a unique cultural landscape within Uzbekistan.

Aim: to analyze the intangible cultural heritage of the Qashqadaryo region and to study its role in social life and preservation strategies.

Materials and Methods: the study applies ethnographic observation, comparative analysis of rituals and traditions, and interpretative synthesis of folklore and crafts. examples include Navruz celebrations, chilla rituals, and cradle ceremonies.

Results and Discussion: findings show that intangible heritage in Qashqadaryo includes diverse practices such as seasonal rituals, family ceremonies, and traditional crafts. these practices strengthen community ties, preserve ancestral beliefs, and contribute to cultural continuity. folk crafts, such as weaving and pottery, embody national values and transmit skills across generations.

Conclusion: the intangible cultural heritage of Qashqadaryo plays a vital role in shaping social identity and cultural resilience. its preservation requires systematic documentation, community involvement, and integration into educational and cultural policies.

Keywords: information security, pedagogical training, information security culture, biometric authentication, digital educational environment, future teachers.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Bugungi globallashuv sharoitida milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nomoddiy madaniy meros xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy boyligini ifodalovchi asosiy omillardan biridir. Qashqadaryo viloyati ana shunday boy madaniy merosga ega hududlardan biri bo'lib, bu yerda asrlar davomida shakllangan urf-odat va an'analar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Qashqadaryo vohasi qadimiy tarixga ega bo'lib, bu hududda turli etnik guruhlar yashagan va ularning madaniyati o'zaro uyg'unlashgan. Natijada, o'ziga xos etnomadaniy muhit yuzaga kelgan. Vohaning nomoddiy madaniy meros namunalari va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish bugungi kundagi ilmiy mavzulardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-sonli qarori hamda Madaniyat vazirining 2024-yil 15-apreldagi 195-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yilning 3-14-iyun, 2026-yil 16-21-fevral kunlari Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti hamda Qashqadaryo viloyati Madaniyat vazirligi hamkorligida nomoddiy madaniy meros namunlarini o'rganish bo'yicha ilmiy ekspeditsiya tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining 2022-yil 13-maydagi 184-sonli "Nomoddiy madaniy merosning mahalliy va milliy ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga asosan Qashqadaryo viloyatida 5 ta yo'nalish bo'yicha jami 60 ta nomoddiy madaniy meros elementlari mahalliy ro'yxatga kiritilgan. Mazkur ro'yxatdagi elementlar tumanlar kesimida o'rganilib, o'rganishlar davomida viloyat madaniyat boshqarmasi, shahar va tumanlar madaniyat bo'limlariga yangi elementlar qo'shish yuzasidan yuridik yoki jismoniy shaxslardan so'rov (taklif)lar kelib tushmagan. Ro'yxatda mavjud ayrim namunalar bilan doimiy shug'ullanuvchi shaxslar mavjud. Daslabki, mahalliy ekspeditsiya davomida viloyatning 2 ta shahar va 9 ta tumanida, ikkinchi bora olib borilgan ilmiy ekspeditsiyada esa 1 ta shahar va 4 ta tumanida nomoddiy madaniy meros bilan shug'ullanuvchilar, saqlovchilar va targ'ib qiluvchilarning faoliyati shu yildagi Qashqadaryo viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i I.To'rayev, hamda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti hodimlari J.Axmedov, S.Dusjanova, A.Shukurov kabi ilmiy xodimlari tomonidan tahlili o'rganilgan.

Xususan, dastlab viloyatni o'rganish jarayonida: **Qarshi tumanida** faoliyat yurituvchi "Momogul" folklor etnografik xalq ansambli, doira yasovchi usta Muzaffar Madatov hamda sozgar usta Ulug'bek Ibragimov; **Nishon tumanida** "Shukrona" va "Nurafshon" folklor etnografik xalq ansambllari, "Kesgan osh" va "Qatlama" tayyorlash jarayonlari, ertakchi Robiya Jabborova faoliyati, **Koson tumanida** "Gulyor" folklor etnografik xalq ansambli, gilam to'quvchi hunarmand Gulbahor Boboqulova hamda kashtachi hunarmand Gulsara Rasulov; **Mirishkor tumanida** "Navobahsh" va "Sarvinoz" folklor etnografik xalq ansambllari; gilam to'quvchi hunarmand Ashurbibi Valimuxamedova; jiyak to'quvchi Saodat Usmonaliyeva, quroqchi Qumri O'roqovalar; **Kasbi tumanida** "Kulol shodasi" folklor etnografik xalq ansambli, usta kulol Baxtiyor Sattorov, gilam to'quvchi

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

hunarmand Nigora Sobirova; **Qamashi tumanida** “Nurhayot” folklor etnografik xalq ansambli, kigiz tayyorlash jarayoni, egar-jabduq ustasi Ro‘zihol Tangriyeva; **Chiroqchi tumanida** “Chiroqchi chiroqlari” folklor etnografik xalq ansambli, Sanjar baxshi Chubayev; **Shahrisabz shahrida** “Marjona” folklor etnografik xalq ansambli, kashtachi hunarmand Sayyora Aminova, usta kulol Javlon G‘aniyev, dorboz Sa’dulla Mamadaliyev; **Yakkabog‘ tumanida** “Yakkabog‘ chechaklari” bolalar folklor ansambli, temirchi usta Javohir Raupov, ko‘hna cholg‘ular ijrochisi Xusan Sharipov; **G‘uzor tumanida** sutdan tabiiy sariyog‘ olish va qurt tayyorlash hamda tandir go‘sht tayyorlash jarayonlari, **Qarshi shahrida** “Nasaf” folklor etnografik xalq ansambli, zargar usta Sharifjon Raupov hamda milliy qo‘g‘irchoqlar yasovchi hunarmand Gulnora Qudratovalar kabilarning faoliyatlari ilmiy o‘rganilib hujjatlashtirish uchun tasvirga muhrlangan.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4









© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4




Ekspeditsiya ish jarayonidan lavhalar

2026-yil 16-21-fevral kunlari uyushtirilgan ekspeditsiyada esa Qashqadaryo viloyati **Chiroqchi tumanida** faoliyat yurituvchi “Chiroqchi chiroqlari” folklor etnografik ansamblidagi ijodiy izlanishlari, **Mirishkor tumani** Jeynov qishlog‘ida “Momo oshi”, “Alas-alas”, “Qasabandom” (Kelin salom) marosimlarini o‘tkazish an’analari hamda suyakchi (ilgir) Avazov Dilshod faoliyati, **Shaxrisabz tumani** Miraki shaxarchasida asalarichilik an’analari, yog‘och o‘ymakori Suvonov Xomidjon faoliyati, Iftor an’analari ilmiy tadqiq etildi. Shuningdek, Shaxrisabz tumani **G‘elon qishlog‘i**da suv tegirmoni, bog‘dorchilik, temirchilik an’analari, G‘elon madaniy muhiti ilmiy tadqiq etildi hamda hujjatlashtirish uchun tasvirga muhrlanib, Qashqadaryo viloyat madaniyat boshqarmasi rahbari B.Temirbayev, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari I.Dadadjanova, hamda ilmiy kotibi J.Axmedov, ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil etish va arxivlashtirish bo‘limi boshlig‘i D.Karimov, Madaniyatshunoslik bo‘limi mudiri S.Nazarova, Havaskorlok san’ati bilan ishlash bo‘limi ilmiy xodimi S.Tojiboyevlar tomonidan ilmiy-tahliliy o‘rganildi. Bundan tashqari Qashqadaryo mahalliy ro‘yxatiga kiritilgan elementlar saqlovchilarini tumanlar kesimida amaliy o‘rganish, o‘zgarishlarni qayd etish, avvaldan mavjud bo‘lgan ammo ro‘yxatga kiritilmagan elementlarni mahalliy ro‘yxatga qo‘shish hamda yo‘qolish xavfi ostida turgan nomoddiy madaniy meros elementlariga alohida e’tibor bergan holda saqlab qolish choralarini ko‘rish taklifi bildirildi. Xususan, yo‘qolib borayotgan nomoddiy madaniy meros namunalari ro‘yxatiga suv tegirmoni, yog‘och o‘ymakori, temirchilik an’analarini kiritish hamda G‘elon qishlog‘i o‘zining tarixan shakllangan madaniy muhiti, an’anaviy turmush tarzi, hunarmandchilik maktablari va urf-odatlari bilan ajralib turishini inobatga olib “G‘elon madaniy muhiti”ni alohida tadqiq etish tashabbusi bildirildi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4











Qashqadaryo vohasi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va boy etnomadaniy hududlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hududda shakllangan madaniy meros asrlar

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

davomida sayqallanib, xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etib kelmoqda. Ayniqsa, nomoddiy madaniy meros namunalari voha aholisining milliy o‘zligini saqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Nomoddiy madaniy meros deganda xalqning og‘zaki ijodi, urf-odatlari, marosimlari, an’anaviy bilimlari, xalq o‘yinlari va e’tiqodiy qarashlari tushuniladi. Qashqadaryo viloyatida bu meros namunalari nihoyatda rang-barang bo‘lib, ular tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, bugungi kungacha yetib kelgan. Qashqadaryo vohasi qadimdan turli etnik guruhlar yashab kelgan hudud bo‘lib, bu yerda o‘ziga xos etnomadaniy muhit shakllangan. Aholi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Bu esa ularning urf-odatlari va marosimlarida o‘z aksini topgan. Vohada yashovchi aholi o‘zining qadimiy an’analarini saqlab qolgan holda, ularni zamon talablari asosida rivojlantirib kelmoqda. Nomoddiy madaniy merosida an’anaviy bayram va marosimlar alohida o‘rin tutadi. Shulardan biri Navro‘z bayramidir. Navro‘z bahorning kirib kelishi, tabiatning uyg‘onishi va yangi yil boshlanishini ifodalovchi qadimiy bayram hisoblanadi. Ushbu bayram davomida sumalak tayyorlash, xalq sayillari, milliy o‘yinlar va kurash musobaqalari tashkil etiladi. Bu esa jamiyatda birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Shuningdek, chilla marosimlari ham voha aholisi hayotida muhim ahamiyatga ega. Bu marosim yangi tug‘ilgan chaqaloq va onani 40 kun davomida himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, unda turli urf-odat va e’tiqodiy qarashlar mujassam. Chilla davrida ona va bolani turli yomon ta’sirlardan asrash maqsadida maxsus qoidalar va taqiqlarga amal qilinadi. Beshik to‘yi – qadimiy va muhim marosimlardan biri hisoblanadi. Bu marosim orqali yangi tug‘ilgan chaqaloq jamiyatga tanishtiriladi va uning kelajagi uchun ezgu tilaklar bildiriladi. Beshik esa xalq ongida muqaddas ramz sifatida qaralib, u farzand, oila va Vatan timsoli hisoblanadi. Qashqadaryo vohasida qadimdan turli e’tiqodiy qarashlar ham keng tarqalgan. Masalan, suv hayot manbai sifatida ulug‘langan va u bilan bog‘liq ko‘plab marosimlar mavjud. Suv poklanish, hayot va baraka ramzi sifatida qaralgan. Shuningdek, olov ham muqaddas unsur hisoblanib, u poklovchi va himoya qiluvchi kuch sifatida e’tirof etilgan. Qozon esa rizq-ro‘z va baraka timsoli sifatida qadrlangan.

Hududda xalq hunarmandchiligi ham nomoddiy madaniy merosning muhim qismi hisoblanadi. Ayniqsa, gilamdo‘zlik an’analari keng rivojlangan bo‘lib, unda milliy naqshlar va ramziy belgilar aks etadi. Har bir naqsh o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lib, xalqning estetik qarashlarini ifodalaydi. Bundan tashqari, xalq orasida sog‘lom bola tarbiyasi, xalq tabobati va an’anaviy bilimlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu bilimlar asosan og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Milliy sport turlari, xususan, kurash alohida o‘rin egallaydi. Kurash nafaqat sport turi, balki xalqning jasorat, halollik va mardlik kabi fazilatlarini ifodalovchi qadriyat hisoblanadi. Turli bayram va sayillarda kurash musobaqalarining o‘tkazilishi bu an’ananing davom etayotganidan dalolat beradi. Voha aholisi uchun mehmondo‘stlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi axloqiy qadriyatlar ham muhim hisoblanadi. Bu fazilatlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Qashqadaryo viloyatining nomoddiy madaniy merosi xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi va ma’naviy boyligining yorqin ifodasidir. Ushbu merosni asrab-avaylash,

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Nomoddiy madaniy meros nafaqat o‘tmish yodgorligi, balki jamiyatning bugungi va kelajak taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tashillashtirilgan 2024-2026 yillardagi Qashqadaryo viloyatiga uyushtirilgan ijodiy etnofolklor materiallari asosida tayyorlandi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

ERKIN KURASH SPORTCHILARIDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING MUSOBAQA FAOLIYATI VA MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI

Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li, Ma’mun universiteti “Marketing” bo‘limi boshlig‘i

ANNOTATSIYA

Kirish: sport musobaqalari kuchli emotsional zo‘riqish bilan kechadi, bu esa sportchining natijalariga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. erkin kurashda jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik barqarorlik ham muhim ahamiyatga ega.

Maqsad: erkin kurash sportchilarida emotsional zo‘riqishning sport faoliyati va motivatsion jarayonlarga ta’sirini o‘rganish hamda psixologik tayyorgarlik va stressga chidamlilikning muvaffaqiyatdagi rolini tahlil qilish.

Materiallar va metodlar: psixologik kuzatuv, stressni baholash shkalalari va motivatsion tahlil metodlari qo‘llanildi. ma’lumotlar musobaqa oldi va musobaqa jarayonida yig‘ildi.

Natijalar va muhokama: tadqiqot natijalari emotsional zo‘riqish diqqatni jamlash, qaror qabul qilish va jismoniy natijalarga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. stressga chidamliligi yuqori va ichki motivatsiyasi kuchli sportchilar musobaqalarda barqarorlik va samaradorlikni namoyon etadi. psixologik tayyorgarlik, jumladan relaksatsiya mashqlari va motivatsion treninglar, emotsional zo‘riqishning salbiy ta’sirini kamaytiradi.

Xulosa: emotsional zo‘riqish sport musobaqalarining ajralmas omili hisoblanadi. ammo uni psixologik tayyorgarlik, stressga chidamlilik va motivatsiyani shakllantirish orqali boshqarish mumkin. bu komponentlar sportchining yuqori natijalarga erishishi va uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: erkin kurash, emotsional zo‘riqish, motivatsiya, sport faoliyati, stress, psixologik tayyorgarlik.

ВЛИЯНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО НАПРЯЖЕНИЯ НА СОРЕВНОВАТЕЛЬНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И МОТИВАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ У СПОРТСМЕНОВ ВОЛНОЙ БОРЬБЫ

Алларёв Дилшод Рахимбой оглу, заведующий кафедрой «Маркетинг» в Университете Мамуна

АННОТАЦИЯ

Введение: спортивные соревнования сопровождаются высоким эмоциональным напряжением, которое может как способствовать успеху, так и снижать результативность. в вольной борьбе важны не только физическая подготовка, но и психологическая устойчивость.

Цель: изучить влияние эмоционального напряжения на спортивную деятельность и мотивационные процессы борцов вольного стиля, а также проанализировать роль психологической подготовки и стрессоустойчивости в достижении успеха.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Материалы и методы: использованы методы психологического наблюдения, шкалы оценки стресса и мотивационный анализ. данные собирались в предсоревновательный и соревновательный периоды.

Результаты и обсуждение: исследование показало, что эмоциональное напряжение влияет на концентрацию, принятие решений и физическую результативность. спортсмены с высокой стрессоустойчивостью и сильной внутренней мотивацией демонстрируют большую стабильность и эффективность. психологическая подготовка, включая релаксационные техники и мотивационные тренинги, снижает негативное воздействие эмоционального напряжения.

Заключение: эмоциональное напряжение является неизбежным фактором спортивных соревнований. однако его влияние можно регулировать посредством психологической подготовки, стрессоустойчивости и мотивационных стратегий. эти компоненты обеспечивают оптимальную результативность и долгосрочный успех в спорте.

Ключевые слова: вольная борьба, эмоциональное напряжение, мотивация, спортивная деятельность, стресс, психологическая подготовка.

THE INFLUENCE OF EMOTIONAL STRESS ON COMPETITION ACTIVITIES AND MOTIVATIONAL PROCESSES IN FREELY WRESTLING ATHLETES

Allayarov Dilshod Rakhimboy oglu, Head of the Department of "Marketing" at Mamun University

ANNOTATION

Introduction: competitive sports are characterized by intense emotional tension, which can either enhance or hinder performance. in freestyle wrestling, where physical and psychological endurance are equally important, emotional regulation plays a decisive role.

Aim: to examine the effects of emotional tension on the sports activity and motivational processes of freestyle wrestlers, and to analyze the role of psychological preparation and stress resistance in achieving success.

Materials and Methods: the study applies psychological observation, stress assessment scales, and motivational analysis. data were collected from athletes during pre-competition and competition phases.

Results and Discussion: findings show that emotional tension influences concentration, decision-making, and physical performance. wrestlers with higher stress resistance and stronger intrinsic motivation demonstrate greater stability and effectiveness in competition. psychological preparation, including relaxation techniques and motivational training, reduces negative effects of emotional tension.

Conclusion: emotional tension is an inevitable factor in competitive wrestling. however, its impact can be managed through psychological preparation, stress resistance, and motivation-building strategies. these components are essential for ensuring optimal performance and long-term success in sports.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Keywords: freestyle wrestling, emotional tension, motivation, sports activity, stress, psychological preparation.

Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki sportchining psixologik holati bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, erkin kurash kabi individual sport turlarida musobaqa oldi emotsional holatlar sportchining motivatsion tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Musobaqa oldi davrda yuzaga keladigan xavotir, hayajon, ishonch yoki qo‘rquv sportchining ichki motivatsiyasini shakllantiradi. Shu bois ushbu muammoni ilmiy o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili (o‘rganilganlik darajasi).

Sport psixologiyasida motivatsiya va emotsional holatlar o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida keng o‘rganilgan. Xorijiy olimlardan R. Baumeister, K. Duckworth, D. Lavallee tadqiqotlarida sportchining o‘zini boshqarish qobiliyati va emotsional barqarorligi muvaffaqiyatga erishishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

MDH olimlari tadqiqotlarida esa sportchilarda reaktiv va shaxsiy xavotirlik darajasi ularning musobaqa faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

KIRISH.

Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki sportchining psixologik holatiga ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, erkin kurash kabi yuqori raqobat va keskinlikni talab qiluvchi sport turlarida emotsional zo‘riqish muhim omil hisoblanadi. Musobaqa oldi va davomida yuzaga keladigan stress, qo‘rquv va hayajon sportchining motivatsiyasi hamda natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, kurash bilan muntazam shug‘ullanish inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, unda sportga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradi. Ayniqsa, kurashchilarda iroda kuchi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning ruhiy holati, musobaqadagi muvaffaqiyati, o‘z ustida ishlashi va natijaga erishishi bevosita irodaviy sifatlariga bog‘liqdir. Kurash jarayonida sportchilar o‘z hissiyotlarini boshqarish, og‘riq va charchoqqa bardosh berish, tezkor qaror qabul qilish hamda raqibga qarshi qat’iyat bilan harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

O‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilish qobiliyati kurashchilarda yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Chunki irodaviy barqarorlik yetarli bo‘lmagan sportchi yuqori natijalarga erisha olmaydi. Masalan, muntazam mashg‘ulotlarga qatnashish, qat’iy sport rejimiga amal qilish, musobaqa oldi stresslarini yengish, vaznni nazorat qilish kabi jarayonlar kuchli iroda talab etadi. Shu bois kurashchilarda iroda kuchini shakllantirish pedagogik va psixologik jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

Yaxshi jihati shundaki, iroda tug‘ma emas, balki rivojlantiriladigan psixologik sifatdir. Kurash sporti aynan shu sifatni tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib, unda qat’iyatlilik, sabr-toqat, maqsadga intilish, o‘zini tuta bilish kabi fazilatlar tizimli ravishda shakllanadi. Demak, kurash nafaqat sport turi, balki shaxsning irodaviy yetukligini ta’minlovchi muhim tarbiyaviy maktab sifatida namoyon bo‘ladi.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Bugungi kunda olimlar irodani mustahkamlashning ko‘plab usullarini bilishadi. Evolyutsiya odamni hayvondan ajratib turadigan barcha jarayonlarni boshqaradigan prefrontal korteksni (bosh suyagining frontal suyagi orqasida joylashgan miya mintaqasi) hosil qilish uchun millionlab yillar kerak bo‘ldi. Dastlab inson miyasi qaror qabul qilish va o‘zini o‘zi boshqarish jarayonida kuchli deb hisoblasak, o‘z-o‘zini nazorat qilishni qanday o‘rgatish va uning "*standart mexanizmlari*" ni yaxshilash uchun nima qilish kerakligi haqida savol tug‘iladi[1;278]. Ko‘p yillar davomida miya tuzilishi bir xil bo‘lib qoladi, deb ishonishgan. Biroq, so‘nggi o‘n yil ichida nevrologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, miya, bilimga chanqoq talaba kabi, har qanday tajribaga juda sezgir. Uning xarakterli sifati cheklanganlikdir, chunki o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi tarbiyalashning har bir muvaffaqiyatli namoyishi insonning energiya zaxiralarini yo‘q qiladi. Iroda qanchalik zaif bo‘lsa, tananing zaif tomonlari, odatlari va past ehtiyojlariga qarshi turish shunchalik qiyin bo‘ladi. Zaif irodali odam o‘z tanasining, odatlarining abadiy qulligiga tushib qolish xavfini tug‘diradi. Ko‘zi ojiz instinktlarga asoslanib, u endi tanlash huquqiga ega bo‘lmaydi. Iroda kuchini oshirishning samarali usullaridan biri bu tanaga jismoniy mashqlar berishdir [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Psixolog Megan Outen va Sidneydagi Makquari universiteti biologi Ken Cheng o‘z-o‘zini nazorat qilishni kuchaytiradigan yangi davolanishni sinab ko‘rishdi. Olingan ma'lumotlar ularni hayratda qoldirdi. Ushbu tajribada 18 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan olti erkak va 18 ayol ishtirok etdi. Ikki oylik davolanishdan so‘ng ular diqqatni jamladilar va kamroq chalg‘itdilar. Mavzular kamroq chekishdi, spirtli ichimliklar va kofeinni kamaytirishdi-garchi hech kim ulardan buni so‘ramagan bo‘lsa ham. Ular kamroq arzimas ovqat iste’mol qilishdi va sog‘lom ovqatlanishdi. Televizorda kamroq vaqt o‘tkazdi va ijtimoiy tarmoqlar, ko‘proq o‘rganilgan. Ular pulni tejashni va o‘z-o‘zidan sotib olishga kamroq pul sarflashni boshladilar. Ular his-tuyg‘ularini nazorat qilishni his qila boshladilar va kamroq narsalar kechiktirildi[2;78].

Sport mashg‘ulotlari orqali odamlar yangi kuch manbasini kashf etdilar va hayotning barcha sohalarida o‘zlarini yaxshiroq nazorat qila boshladilar. Shunday qilib, mashg‘ulotlar stressni kamaytirishi, yurak urish tezligining asosiy o‘zgaruvchanligini oshirishi va prefrontal korteks faoliyatini yaxshilashi isbotlangan. Bularning barchasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ularning impulslariga nisbatan xotirjamlikni kuchaytirishi mumkin.

Ijobiy ta'sir ko‘rsatish uchun har kuni besh daqiqalik mashg‘ulotlar yetarli. Bog‘dorchilik, sayr qilish, raqsga tushish, yoga yoki jamoaviy sport turlari, suzish, bolalar yoki uy hayvonlari bilan o‘ynash - hatto kvartirani tozalash va ochiq havoda sayr qilish ham jismoniy mashqlar hisoblanadi. Agar odam muntazam ravishda sport bilan shug‘ullansa, o‘zini o‘zi boshqarish "pompalanishi" mumkin. Ammo siz kichikdan boshlashingiz kerak, aks holda o‘zingizni charchatishingiz mumkin. Agar siz birinchi marta sport zaliga boradigan bo‘lsangiz, siz og‘ir barni ko‘tarmaysiz, chunki bu holda siz sportni tark etasiz.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson rivojlanishining eng muhim mezoni sifatida quyidagi fazilatlarning mavjud bo‘lishi kerak: maqsadlarga erishish irodasi, irodalilik, qat’iyatlilik, mehnatsevarlik, intellektual qiziquvchanlik. shaxsiy salohiyat.

Iroda kuchini aniqlash maqsadida 15 ta savoldan iborat bo‘lgan N.N.Obozov (1997) ning “Iroda kuchini baholash” metodikasi yordamida insoning psixologiyasini o‘rganishga ahamiyat qaratildi. Tadqiqotda 52 nafar respondentlar qatnashdi. Olingan ma’lumotlar 1 va 2-rasmlarda grafik ko‘rinishda keltirilgan.

Eksperimental tadbirlari amalga oshirish natijasida biz qo‘llagan metodikada respondentlarning irodaviy sifatlari orasidagi maksimal va minimal farqlarni ko‘rsatadigan har bir savol bo‘yicha ijobiy va salbiy javoblar nisbati hisobga olindi.


Iroda kuchiga baho berish dinamikasi.

1-jadval.

Darajalar	Talabalar soni	%
Yuqori “iroda kuchi”	14	28
O’rta “iroda kuchi”	29	58
Past “iroda kuchi”	9	17

Irodaviy sifatlar shakllanganligi va uning o‘z-o‘zini boshqarishga ta’siri ko‘rsatkichlarini diagramma ko‘rinishi.

1-rasm.



Ma’lum bo‘lishicha, sinaluvchilaring eng ko‘p qismi "o‘rta" iroda kuchiga ega ekanligi dalillandi. Past iroda kuchiga ega bolgan respondentlar nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Shuning uchun nisbatan past iroda kuchiga ega bo‘lgan bilan korreksion tadbirlarni muntazam tarzda tashkil e’tish talab qilinadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sinaluvchilaming 28 foizi, ya’ni 14 nafar respondentlar "yuqori" iroda kuchiga ega. Iroda kuchining ushbu darajasiga mansub bo‘lgan shaxslar

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

o‘ziga ishonuvchan, har qanday sharoitda ham o‘z aytganidan qaytmaydigan, qat’iyatli, mustahkam iroda kuchiga ega bo‘lishadi. Ularga ishonish mumkin, ular hech qachon pand berishmaydi.

"O‘rtacha" iroda kuchini talabalarning 29 nafari (58%) namoyon etdi. Iroda kuchining ushbu darajasiga mansub bo‘lgan shaxslarda turli to‘siqlarga duch kelinsa, ularni yengishga harakat qilish, chap berish yo‘li ko‘rinadigan bo‘lsa, undan foydalanishga harakat qilish kabi hislatlar hos. Ular o‘z xohishlari bilan ortiqcha majburiyatlarni o‘z zimmalariga olishga harakat qilishadi.

"Past" iroda kuchiga ega qatnashuvchilar soni kamchilikni, ya’ni 9 nafarni, jami soniga nisbatan 17 foizni tashkil etdi. Iroda kuchi qoniqarsiz bolgan o‘smirlarda nima oson va qiziqarli bo‘lsa, faqat shuni bajarish, majburiyatlarga qo‘l uchida munosabada bo‘lish, qiyinchiliklarga bardosh bera olmaslik, belgilangan vazifalarning o‘rtasida uni tashlab ketishga intilish kabi hislatlar hos bo‘ladi.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Sport va sog‘lom ovqatlanish kurashchilar uchun nafaqat iroda kuchini mustahkamlovchi omil, balki ularning umumiy jismoniy va ruhiy farovonligini ta’minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Kurash mashg‘ulotlari jarayonida sportchilar organizmida endorfin gormoni faol ajralib chiqadi. Mazkur gormon jismoniy yuklama paytida yuzaga keladigan noqulaylik va og‘riq hissini kamaytiradi, sportchining ruhiy holatini yaxshilaydi hamda musobaqa va mashg‘ulotlarga nisbatan ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi. Shu jihatdan kurash sporti nafaqat jismoniy chiniqish, balki psixologik barqarorlikni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kurashchilarda o‘z holatini muntazam nazorat qilish, mashg‘ulotlar davomida kichik, ammo tizimli jismoniy mashqlarni bajarish iroda kuchini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, qo‘l mushaklarini muntazam siqish (simulyatorlar yordamida), statik kuchlanish mashqlari orqali sportchilar o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday mashqlar nafaqat mushak kuchini, balki “iroda mushaklari” deb ataluvchi psixologik barqarorlikni ham mustahkamlaydi.

Kurashchilarda mushaklarning ongli ravishda kuchlanishi orqali o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni ham faollashadi. Masalan, sportchi musobaqa oldidan yoki mashg‘ulot jarayonida charchoq, qo‘rquv yoki ikkilanishni his qilganda, ma’lum mushak guruhlarini (musht, biceps, qorin mushaklari) qisqa muddatga siqish orqali o‘zini ruhiy jihatdan safarbar qilishi mumkin. Bu usul asab tizimi va tana o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytiradi va vaqt o‘tishi bilan sportchining irodaviy barqarorligini oshiradi.

Bundan tashqari, kurashchilarda iroda kuchini rivojlantirishda meditatsiya va nafas mashqlari muhim o‘rin tutadi. Nafas olishga ongli ravishda e’tibor qaratish sportchining diqqatini jamlashga, ortiqcha hissiy zo‘riqishlarni kamaytirishga hamda ichki (qo‘rquv, hayajon, istak) va tashqi (shovqin, raqib bosimi, muhit ta’siri) omillarni boshqarishga yordam beradi. Ushbu usullar kurashchilarning musobaqa jarayonida o‘zini tutish, stressga bardosh berish va optimal psixologik holatni saqlab qolish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Demak, kurash sportida jismoniy mashqlar, sog‘lom ovqatlanish, mushaklarni ongli boshqarish va meditatsion texnikalar birgalikda qo‘llanilganda, sportchilarda nafaqat jismoniy kuch, balki yuqori darajadagi iroda, o‘z-o‘zini nazorat qilish va psixologik barqarorlik ham shakllanadi.

Muntazam meditatsiya amaliyoti odamlarga chekishni tashlashga, vazn yo‘qotishga, giyohvand moddalarni iste’mol qilishni to‘xtatishga va mast bo‘lmaslikka yordam beradi. Shunday qilib, harakatlarning to‘g‘ri bajarilishini ta'minlash uchun ba'zi asosiy fikrlar:

1. Tinch o‘tiring va harakat qilmang;
2. Nafas olishga e’tibor qarating;
3. Nafas olish va nafas olish hissiyotlarini va begona fikrlarni qayd eting.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Erkin kurash sportchilarida emotsional zo‘riqish sport faoliyati va motivatsion jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Optimal darajadagi emotsional holat yuqori natijalarga erishishga yordam beradi, ortiqcha stress esa aksincha salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois sportchilarning psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Insonning o‘zini nazorat qilishi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, bu besh daqiqalik meditatsiya ular uchun juda foydali bo‘ladi. Hatto bitta meditatsiya seansi ham uni kunning qolgan qismida "Iroda kuchi" bilan to‘ldirishga qodir [4;175]. Odam uyg‘oq bo‘lsa-da, minglab kichik istaklar uning miyasiga hujum qiladi va u yarim yo‘lda yiqilib, mo‘ljallangan yo‘ldan yuz o‘girish xavfini tug‘diradi. Xulosa qilib shuni takidlashimiz mumkinki, uni boshqarishga urinishlar ba'zan charchatadi, ammo vaqt o‘tishi bilan mashg‘ulot uni yaxshilashi kerak.

Sportda nafaqat musobaqalar va g’alabalardan iborat, balki tinimsiz mehnat va mashaqatlar,tayyorgarlikning cheksiz soatlari mehnatlar yotadi.

Yaxshi natijalarga erishgan sportchilardan suhbatlashish o’rganishlar orqali muvaffaqiyati ortida nima turganini tushunishimiz mumkun. Ular jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, ovqatlanish va dam olishlari orqali sport yutuqlarining eng yuqori cho’qqilariga chiqishga yordam beradigan muayyan strategiyalarni ishlab o‘zlari uchun rejalar tuzadilar[11].

Sport mashg’ulotlarida ovqatlanishlarning ham katta ahamiyatga ega. Jismoniy tayyorgarlik sport yutuqlarining asosidir. Bular orqali nafaqat sportchilarning jismoniy fazilatlarini oshiradi, balki ularning texnikasi, taktikasi va charchoqqa qarshi turish qobiliyatini ham yaxshilaydi. Yaxshi natijalarga erishgan sportchilarning mashg’ulot rejimlari puxta rejalashtirilgan va turli mashqlarni o’z ichiga olgan bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Евсеев, Ю. И. Физическая культура: Учебное пособие / Ю. И. Евсеев. –
2. Рн / Д: Феникс, 2012. - 444 с.
3. Зациорский В. М. Физические качества спортсмена. М.: Физкультура и спорт, 1970. 200 с.

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

4. Каинов, А. Н. Физическая культура 1-11 классы: комплексная программа физического воспитания учащихся В. И. Ляха, А. А. Зданевича. / А. Н. Каинов, Г. И. Курьерова. - М.: Советский спорт, 2013. - 171 с.
5. Абдракова Г. И., Волкова Е. А. Спорт как способ укрепления силы воли //E-Scio. – 2019. – №. 5 (32). – С. 172-176.
6. D. Matthews, Book Review: Mindset: The New Psychology of Success, Dweck, C. S. (2006), Iqtidorli bolalar, 1(2), 7-modda, 66 (2007).
7. A. Kurt Xeller va boshqalar. (tahrir). Iqtidor va iste'dod bo'yicha xalqaro qo'llanma, 2. ed. (Rev. repr.). Amsterdam [va hokazo], Elsevier, XV, 11 (2002).
8. A. N. Rinn, J. A. Plucker, V.B. Stoking, iqtidorli talabalarning affektiv rivojlanishini rag'batlantirish: Akademik o'zini o'zi kontseptsiyasining ta'siriga qarash. O‘QITISH 9 SHS Web of Conferences 97, 01045 (2021)
9. SPORTCHI TALABALARDA KECHADIGAN RUHIY TUSHKUNLIK HOLATINI MUHIM JIHATLARINI O’RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI AD Raximboy o'g'li - INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH …, 2023
10. CREATIVITY IS THE KEY OF PROBLEM SOLVING AND INNOVATION ZD Ruzmetova - Innovative Development in Educational Activities, 2024
11. “TEMURBEKLAR MAKTABI”LARIDA INGLIZ TILI MASHG’ULOTLARIDA O’QUVCHILARNING IJTIMOIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH SB Shanazarovna-современное образавание (Узбекистон).2021
12. Katilimcilarla yapilan röportajlar,Zafere Giden Yol: Spor Müsabakalarına başarılı bir şekilde Hazırlanmanın sırları.2023

© intereduglobalstudy.com
CC BY NC ND

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
Scientific-theoretical and methodological journal
Original paper

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA UNING BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Holikulova Feruza Xasanovna, Navoiy davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasi v.b. professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

ANNOTATSIYA

Kirish: kommunikativ kompetensiya zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda mazmunli muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Maqsad: kommunikativ kompetensiyaning mazmuni va tarkibiy qismlarini tahlil qilish hamda uning boshlang‘ich ta’limdagi pedagogik ahamiyatini aniqlash.

Materiallar va metodlar: pedagogik tahlil, lingvistik izoh va sinf amaliyotlarini metodik kuzatish qo‘llanildi. rolli o‘yin va guruhli muhokama kabi interaktiv metodlar kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar va muhokama: tadqiqot natijalari kommunikativ kompetensiya lingvistik to‘g‘rilik, nutqiy ravonlik, ijtimoiy-madaniy xabardorlik, pragmatik moslashuvchanlik va refleksiv baholashni o‘z ichiga olishini ko‘rsatdi. boshlang‘ich ta’limda bu komponentlar dialogik va monologik mashqlar, vaziyatli topshiriqlar va hamkorlikdagi o‘quv faoliyati orqali samarali rivojlanadi.

Xulosa: kommunikativ kompetensiya o‘quvchilarning nutq madaniyatini, ijtimoiy faolligini va o‘quv muvaffaqiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. uni rivojlantirish lingvistik bilimlarni interaktiv va refleksiv metodlar bilan uyg‘unlashtiruvchi tizimli pedagogik strategiyalarni talab etadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, nutqiy faoliyat, muloqot madaniyati, dialogik nutq, monologik nutq, o‘quvchi shaxsi, kompetensiyaviy yondashuv.

КОНЦЕПЦИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Голикулова Феруза Хасановна, исполняющая обязанности профессора кафедры начального образования Навоийского государственного университета, доктор педагогических наук

АННОТАЦИЯ

Введение: коммуникативная компетенция является важным элементом современного образования, обеспечивающим не только овладение языковыми знаниями, но и развитие способности к содержательному взаимодействию в социальном и культурном контексте.

Цель: проанализировать содержание и компоненты коммуникативной компетенции и определить её педагогическое значение в начальном образовании.

Материалы и методы: применены методы педагогического анализа, лингвистической интерпретации и методического наблюдения за практикой уроков.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

интерактивные методы, такие как ролевые игры и групповые обсуждения, рассматриваются как инструменты развития компетенции.

Результаты и обсуждение: исследование показало, что коммуникативная компетенция включает лингвистическую правильность, речевую беглость, социокультурную осведомлённость, прагматическую адаптивность и рефлексивную оценку. в начальном образовании эти компоненты эффективно развиваются через диалогические и монологические упражнения, ситуационные задания и коллективное обучение.

Заключение: коммуникативная компетенция является ключевым фактором формирования речевой культуры, социальной активности и учебного успеха учащихся. её развитие требует системных педагогических стратегий, сочетающих языковые знания с интерактивными и рефлексивными практиками.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, начальное образование, речевая деятельность, культура общения, диалогическая речь, монологическая речь, личность учащегося, компетентностный подход.

THE CONCEPT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE AND ITS IMPORTANCE IN PRIMARY EDUCATION

Holikulova Feruza Khasanovna, Acting Professor of the Department of Primary Education, Navoi State University, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

ANNOTATION

Introduction: communicative competence is a fundamental aspect of modern education, ensuring that students not only acquire linguistic knowledge but also develop the ability to interact meaningfully in social and cultural contexts.

Aim: to analyze the content and components of communicative competence and to determine its pedagogical significance in primary education.

Materials and Methods: the study applies pedagogical analysis, linguistic interpretation, and methodological observation of classroom practices. interactive methods such as role play and group discussion are considered as tools for competence development.

Results and Discussion: findings show that communicative competence integrates linguistic accuracy, speech fluency, socio-cultural awareness, pragmatic adaptability, and reflective evaluation. in primary education, these components are effectively developed through dialogic and monologic exercises, situational tasks, and collaborative learning activities.

Conclusion: communicative competence is a key factor in shaping students' speech culture, social activity, and academic success. its development requires systematic pedagogical strategies that combine linguistic knowledge with interactive and reflective practices.

© intereduglobalstudy.com

ISSN 2992-9024 (online)
2026, volume 4, issue 4

Keywords: communicative competence, primary education, speech activity, communication culture, dialogic speech, monologic speech, learner personality, competence-based approach.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchining bilimlarni eslab qolishi yoki tayyor ma’lumotlarni takrorlashi yetarli natija sifatida qaralmaydi. Bugungi ta’lim jarayoni o‘quvchidan o‘z fikrini mustaqil ifodalash, muloqotga kirishish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri nutqiy yechim topish, axborotni tushunish va uni boshqalarga aniq yetkazish kabi ko‘nikmalarni talab qiladi. Shu sababli kommunikativ kompetensiya tushunchasi boshlang‘ich ta’lim metodikasida alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bola shaxsining nutqiy, ijtimoiy va bilish faoliyati jadal shakllanadigan bosqich bo‘lgani uchun bu davrda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish keyingi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam asos yaratadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va metodika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ilmiy tushunchadir. Mazkur kompetensiya shaxsning muayyan nutqiy vaziyatda til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanishi, suhbatdosh bilan mazmunli aloqaga kirishishi, o‘z fikrini ijtimoiy-madaniy me’yorlarga mos holda ifodalashi va muloqot natijasini anglay olishi bilan belgilanadi. Demak, kommunikativ kompetensiya faqat so‘z boyligi yoki grammatik bilim bilan cheklanmaydi. U bolaning eshitish, tushunish, javob berish, savol tuzish, fikrni asoslash, munosabat bildirish, nutqiy odobga rioya qilish va o‘z nutqini nazorat qila olish qobiliyatlarini ham qamrab oladi.

Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning dolzarbligi shundaki, bu bosqichda o‘quvchi o‘qish, yozish, tinglash va gapirish faoliyatlarini birgalikda egallaydi. Har bir fan mazmuni o‘quvchiga nutq orqali yetkaziladi va o‘quvchi ham o‘z bilimini, tushunchasini, savolini yoki fikrini nutq orqali namoyon qiladi. Agar bola o‘z fikrini aniq ifodalay olmasa, u egallagan bilimini ham to‘liq ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun kommunikativ kompetensiya boshlang‘ich ta’limda faqat ona tili yoki o‘qish savodxonligi darslarining vazifasi emas, balki barcha fanlar uchun zarur bo‘lgan umumta’limiy kompetensiya sifatida baholanishi lozim.

